Organized by
ACADEMIC RESEARCH PUBLISHER LTD
United Kingdom

In cooperation with
OSH STATE UNIVERSITY

GLOBAL INTERNATIONAL CONFERENCE

GLOBAL CHALLENGES, INNOVATION AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT: *INTERDISCIPLINARY PERSPECTIVES*

CONFERENCE PROCEEDINGS



1 November 2026
www.academscience.com

Google Scholar | zenodo | OpenAIRE

United Kingdom

Academic Research Publisher Ltd

****

MATERIALS
the international scientific-practical conference

«GLOBAL CHALLENGES, INNOVATION AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT: INTERDISCIPLINARY PERSPECTIVES»

London, Tashkent
November 1, 2026

****

Global challenges, innovation and sustainable development: interdisciplinary perspectives // materials international scientific-practical conference. London, United Kingdom. November 1, 2026.

Editorial board of the conference

Temnova L.V. - DSc, Professor (Moscow, Russia); **Sagatbayev Y.N. -** PhD, professor (Astana, Kazakstan); **Duyshenaliev CH.D. -** DSc, Professor (Byshkek, Kyrgyzstan); **Pashkov S.V. -** PhD, professor (Petropavlovsk, Kazakstan); **Khakimov K.A. -** PhD, docent (Tashkent, Uzbekistan); **Melekoglu M. -** DSc, professor (Eskisehir, Turkey).

This event aims to discuss contemporary research across various scientific fields, exchange new scientific ideas, and support scientific activities aligned with global innovative processes.

Within the framework of the conference, scientists, researchers, young scholars, and practicing specialists will have the opportunity to present their research results, exchange scientific ideas, and expand international cooperation.

The main objective of this International Scientific-Practical Conference is to consolidate the results of contemporary research across various scientific fields and strengthen the integration of science and practice through advanced scientific approaches.

**The authors are responsible for the content of the articles, the information, facts, and figures presented therein.*

The proceedings of the International Scientific-Practical Conference have been discussed by the Scientific-Technical Council of the international publisher **"Academic Research Publisher"** (London, United Kingdom) and recommended for publication (October 31, 2026, Protocol No. 29.3).

CONTENTS

1-SECTION..... 13

BUXORO BUG‘USI (*CERVUS HANGLU BACTRIANUS*) NI QUYI AMUDARYO DAVLAT BIOSFERA REZERVATIDAN «ZARAFSHON» MILLIY TABIAT BOG‘IGA KO‘CHIRISHNING ILMIY-AMALIY ASOSLARI 14

LALMIKOR SHAROITDA YUMSHOQ BUG‘DOY F3 DURAGAY AVLODLARINING FENOLOGIK RIVOJLANISH BOSQICHLARI 27

THE APPLICATION OF A FUNCTION DERIVATIVE TO ELEMENTARY MATHEMATICAL PROBLEMS 31

QASHQADARYO VOHASIDA AHOLINING ETNIK TARKIBI VA JOYLASHUVI (DEHQONOBOD TUMANI MISOLIDA) 37

PROSPECTS FOR THE SELECTION OF PERENNIAL CEREAL CROPS, THEIR AGROTECHNICAL ADVANTAGES, AND ECO-BIOLOGICAL FACTORS IN THEIR DOMESTICATION 43

VARIABILITY AND INHERITANCE PATTERN OF PLANT HEIGHT IN F_2 HYBRID GENERATIONS OF PERENNIAL WHEAT 48

SYNTHESIS OF THE MENTHOL–LEUCINE COMPOUND AND STUDY OF ITS PROPERTIES 54

THE IMPORTANCE OF MAGNETS IN OUR DAILY LIVES 62

EFFECTS OF AG/AGCL NANOPARTICLES ON SEED GERMINATION AND EARLY SEEDLING GROWTH IN THREE COTTON CULTIVARS 66

ЧИСЛЕННЫЕ АЛГОРИТМЫ НА ОСНОВЕ ОРТОГОНАЛЬНЫХ МНОГОЧЛЕНОВ В РЕШЕНИИ СВЯЗАННЫХ ЗАДАЧ ТЕРМОПЛАСТИЧНОСТИ 71

2-SECTION..... 82

METHODS AND MODELS FOR ASSESSING STUDENTS’ KNOWLEDGE LEVEL: FROM TRADITIONAL APPROACHES TO ARTIFICIAL INTELLIGENCE-BASED SYSTEMS 83

THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL KNOWLEDGE 88

RAQAMLI MUHITDA KIÇIK MAKTAB YOŞIDAGI BOLALARDA INTERNETDAN FOYDALANIŞ MADANIYATINI ŞAKLLANTIRIŞ 94

SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI MULTIMEDIALI TA'LIM PLATFORMALARINING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI 99

SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA MATEMATIKA FANINI O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION USULLARI 105

ОБЗОР ТЕХНОЛОГИЙ СВЯЗИ МАЛЫХ СПУТНИКОВ CUBESAT: РАДИОЧАСТОТНЫЕ И ОПТИЧЕСКИЕ СИСТЕМЫ 113

3-SECTION 119

O'ZBEKISTON SSRDA OLIY TIBBIY TA'LIM TARIXI: ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI TAJRIBASI (1955–1960-YILLAR) .. 120

MUSTAQILLIK YILLARIDA JIZZAX VILOYATI BAXMAL TUMANIDA TIBBIYOT SOHASIDAGI O'ZGARISHLAR VA HUDUDDA YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA ISLOHOTLARNING NATIJALARI 125

ЗНАЧЕНИЕ ИММУННОГО МИКРООКРУЖЕНИЯ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЛЕЧЕНИЯ САРКОМ МЯГКИХ ТКАНЕЙ У ДЕТЕЙ 131

BOLALAR SALOMATLIGINI MUHOFAZA QILISHDA PROFILAKTIK PEDIATRIYANING AHAMIYATI 137

TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA "ODAM VA UNING SALOMATLIGI" MAZMUNINI INTEGRATIV O'QITISHNING AHAMIYATI VA METODIK ASOSLARI 141

TEMIR TANQISLIGI ANEMIYASINI ERTA TASHXISLASHDA RETIKULOTSITLAR GEMOGLOBINI VA FERRITIN KO'RSATKICHLARINING DIAGNOSTIK AHAMIYATI 146

BEMORLARNI DAVOLASH UCHUN ROBOT TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING HOZIRGI TENDENSIYALARI 151

ИММУНОЛОГИЧЕСКИЕ БИОМАРКЕРЫ В ОЦЕНКЕ АКТИВНОСТИ РЕВМАТОИДНОГО АРТРИТА ПРИ ХРОНИЧЕСКОЙ ГЕРПЕСВИРУСНОЙ ИНФЕКЦИИ 171

4-SECTION **174**

AN INTEGRATED FRAMEWORK OF INNOVATIVE STRATEGIC MANAGEMENT METHODS FOR UNIVERSITIES IN UZBEKISTAN . 175

THE GAP BETWEEN DIGITAL ACCESS AND ONLINE PURCHASING IN UZBEKISTAN: FACTORS AND IMPLICATIONS FOR MARKETING STRATEGY 180

DIGITAL PLATFORMS AS A TOOL FOR ENSURING FINANCIAL SUSTAINABILITY AND ECONOMIC SECURITY IN THE HOSPITALITY INDUSTRY 186

TEACHER BURNOUT IN SECONDARY SCHOOLS: CAUSES AND MANAGEMENT APPROACHES FOR ITS REDUCTION 191

XO‘JALIK YURITUVCHI SUB’YEKTLARDA HISOB SIYOSATINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI 195

DIGITALIZATION AS A DRIVER OF SUSTAINABLE PRACTICES IN UZBEK INDUSTRIAL ENTERPRISES: EVIDENCE FROM THE WORLD BANK ENTERPRISE SURVEY 2024 201

MILLIY IQTISODIYOTDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR 207

QISHLOQ JOYLARIDA AHOLI TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINING AHAMIYATI (2025–2026-YILLAR STATISTIK MA’LUMOTLARI ASOSIDA) 214

CARBON BORDER COSTS FOR UZBEKISTAN’S NITROGEN FERTILISER EXPORTS: A SCENARIO ANALYSIS OF THE EU CBAM AND THE VALUE OF ENERGY EFFICIENCY 227

2017–2025-YILLARDA JIZZAX VILOYATINING CHO‘L HUDUDLARIDA SANOATNI RIVOJLANTIRISH VA XORIJIY INVESTITSIYALAR: DO‘STLIK VA MIRZACHO‘L TUMANLARI MISOLIDA 232

ИНТЕГРАЦИЯ ЦИФРОВОГО МОНИТОРИНГА И СЦЕНАРНОГО АНАЛИЗА В УПРАВЛЕНИИ ФИНАНСОВЫМИ РИСКАМИ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ 237

ИНТЕГРАЦИЯ ЦИФРОВОЙ ЛОГИСТИКИ И УПРАВЛЕНИЯ ЭКСПОРТНЫМИ ПРОЦЕССАМИ ВО ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ 242

ГЛОБАЛЬНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ СКВОЗЬ ПРИЗМУ УРОВНЕЙ ЦИФРОВОГО РАЗРЫВА И ПОЛОЖЕНИЕ УЗБЕКИСТАНА 247

ВАЛЮТНЫЕ РИСКИ БАНКОВ В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ БИЗНЕСА 252

5-SECTION 259

TALABALARNI AMALIY FAOLIYATGA YO‘NALTIRISHDA QO‘LLANILADIGAN METODLAR 260

TALABALARDA KASBIY KOMPETENSIYALARNI AMALIY FAOLIYAT ORQALI SHAKLLANTIRISH 265

BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA MATN YARATISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI 270

THE “CONCEPT-TO-DISCOURSE” FRAMEWORK FOR DEVELOPING STUDENTS’ PROFESSIONAL LINGUOCOGNITIVE COMPETENCE (THE CASE OF NON-PHILOLOGICAL PROGRAMMES) 278

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MUSTAQIL FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK METODLAR 284

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INNOVATSION YONDASHUV VA MILLIY QADRIYATLAR UYG‘UNLIGI 290

BOSHLANG‘ICH TA’LIMNI RIVOJLANTIRISHNING GLOBAL MASALALARI: MUAMMO VA YECHIMLAR 294

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI..... 303

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘QUVCHILARNING MUSTAQIL FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK SALOHIYATDAN FOYDALANISH 307

NUTQIY XAVOTIR VA OG‘ZAKI TUZATUVCHI FIKR-MULOHAZANING O‘QUVCHILAR NUTQ KO‘NIKMALARIGA TA’SIRI..... 310

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA FORMATIV BAHOLASH ORQALI O‘QUVCHINING IJTIMOIY-IQTISODIY VA PEDAGOGIK SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH..... 313

DUAL TA’LIM MUHITIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARINI INKLYUZIV TA’LIM FAOLIYATIGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI..... 316

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA IJTIMOIY-EMOTSIONAL O‘QITISHNI PEDAGOGIK JARAYONGA INTEGRATSIYALASH 321

O‘QUVCHILARNING KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA INTEGRATSIYA ROLINI OSHIRISH 324

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘QUVCHILAR VAQTINI BOSHQARISH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK ASOSLARI 328

PRACTICAL APPLICATION OF AN INDIVIDUALIZED-APPROACH METHODOLOGY AND THE PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR ITS IMPLEMENTATION 331

BOSHLANGICH TA'LIM TIZIMIDA O'QITISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI 337

TARBIYACHINING KASBIY-METODIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA "KUZATISH–MAQSAD–TAJRIBA REFLEKSIYA" (KMTR) SIKLI: MAVJUD MODELLAR BILAN QIYOSIY TAHLIL 341

BO'LAJAK PEDAGOGLARDA KOMMUNIKATIV KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISH G'OYALARINING TARIXIY-PEDAGOGIK EVOLYUTSIYASI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARI 346

OLIY TA'LIM TIZIMIDA MA'RUZA MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI 351

STEAM LOYIHALARI ASOSIDA O'QUVCHILARDA TADBIRKORLIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI 355

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI 359

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MUAMMOLI TA'LIM ORQALI O'QUVCHILARNING TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH 362

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA PEDAGOGIK SALOHIYATDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI TA'LIM SIFATINI OSHIRISH 365

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHI MOTIVATSIYASINI QO'LLAB-QUVVATLASHNING PEDAGOGIK USULLARI 369

YOSHLAR IJTIMOIYLASHUVINING PEDAGOGIK OMILLARI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA INNOVATSIYALAR 372

XORAZM VILOYATI TUMANLARI O'RTASIDA INVESTITSION FAOLLIKDAGI TAFOVUTLAR VA ULARNI KAMAYTIRISH YO'LLARI 377

PEDAGOGIK RITORIK YONDASHUV ASOSIDA O'QUVCHILARNING OG'ZAKI VA YOZMA NUTQINI TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYALARI 384

OPTIMIZATION OF BASE PLATE PREHEATING TEMPERATURE IN LASER POWDER BED FUSION USING SIMUFACT ADDITIVE:

EFFECTS ON DISPLACEMENT, RESIDUAL STRESS AND SURFACE DEVIATION 389

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA O‘QUVCHILARNING INDIVIDUAL IMKONIYATLARINI RIVOJLANTIRISH 395

BOSHLANG‘ICH TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA O‘QUVCHI SHAXSIGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIMNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI 398

КООРДИНАЦИЯ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА ПРИ ПОДГОТОВКЕ УЧИТЕЛЕЙ ПРАКТИЧЕСКИХ ДИЦИПЛИН 401

BADIIY TA’LIMDA TALABALAR MUSTAQIL FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI 406

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA IJTIMOIY-IQTISODIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI 411

BOSHLANG'ICH SINF O'QUV JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING METODIK ASOSLARI 415

STEAM YONDASHUVI: MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR UCHUN 421

XXI ASRDA YOSHLARNI TARBIYALASHDA MILLIY QADRIYATLARDAN FOYDALANISHNING NEYROPEDAGOGIK ASOSLARI 429

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AXLOQIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHDA KATTA AVLOD VAKILLARINING O‘RNI 436

INNOVATSION TA’LIM MUHITIDA BIOLOGIYA FANINI O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI VA ZAMONAVIY ISTIQBOLLAR 443

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INTEGRATSIYALASHGAN FAN LOYIHASI 448

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA O‘QUVCHILARNING INDIVIDUAL IMKONIYATLARINI RIVOJLANTIRISH 453

“OLIY TA’LIM TA’LIM DASTURLARINING STANDARTLARGA MUVOFIQLIGINI BAHOLASHNING AVTOMATLASHTIRILGAN TIZIMINI ISHLAB CHIQISH” 456

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INKLYUZIV PEDAGOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING METODIK SHARTLARI ... 464

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA OILA VA MAKTAB HAMKORLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI 467

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MEDIA SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI 470

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MUAMMOLI TOPSHIRIQLARNING O‘RNI 473

СОПРЯЖЁННОЕ РАЗВИТИЕ ПРЫГУЧЕСТИ И ПРЫЖКОВОЙ ВЫНОСЛИВОСТИ КАК ФАКТОР БРОСКОВОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ БАСКЕТБОЛИСТОВ 476

СТРУКТУРА И СОДЕРЖАНИЕ ИНТЕГРИРОВАННЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА 483

ОЦЕНКА ИНДИВИДУАЛЬНОГО ВКЛАДА ИГРОКОВ ПО ПОКАЗАТЕЛЯМ ОФИЦИАЛЬНОЙ СТАТИСТИКИ БАСКЕТБОЛА 3×3 488

ЭМПИРИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ СВЯЗЕЙ МЕЖДУ КОМПОНЕНТАМИ ИНТЕГРАТИВНОЙ МОДЕЛИ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ ПОДРОСТКОВ В ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ 495

6-SECTION..... 502

DEVELOPMENT OF ECONOMETRIC MODEL OF THE PRODUCTION ACTIVITY OF OIL AND GAS CONSTRUCTION ENTERPRISE 503

LITERATURE REVIEW ON COTTON CLEANING EQUIPMENT..... 509

ЗОНА ПОКРЫТИЯ, ЗОНА ОБСЛУЖИВАНИЯ И ОБЛАСТЬ РАЗРЕШЁННОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ: ПОСЛЕДСТВИЯ ИСКЛЮЧЕНИЯ ТЕРРИТОРИИ ИЗ ЗОНЫ ОБСЛУЖИВАНИЯ СИСТЕМЫ НГСО НА ЛИНИЯХ ВВЕРХ И ВНИЗ..... 515

УЧАСТИЕ АДМИНИСТРАЦИИ СВЯЗИ УЗБЕКИСТАНА В ПОДГОТОВКЕ К ВКР-27: ПОРЯДОК ПОДГОТОВКИ ВКЛАДОВ В РАБОЧИЕ ГРУППЫ МСЭ-R 519

7-SECTION..... 524

OPENING OF NEW UZBEKISTAN TO THE WORLD: FOREIGN POLICY TRANSFORMATION THROUGH THE LENS OF MEDIA DIPLOMACY 525

DOMESTIC SOCIO-POLITICAL TRANSFORMATION AND INTERNATIONAL IMAGE IN NEW UZBEKISTAN: MEDIA DIPLOMACY, REFORM CREDIBILITY, AND THE INFORMATION ENVIRONMENT 532

YANGI O‘ZBEKISTONNING JAHONGA OCHILISHI VA IJTIMOIY-SIYOSIY TRANSFORMATSIYASI: MEDIA DIPLOMATIYASI PRIZMASIDAN TAHLIL 540

NÔM POEZIYASIDA HISOB-SO‘ZLAR TIZIMI: NGUYỄN TRÃINING “QUỐC ÂM THI TẬP” TO‘PLAMI MISOLIDA 549

THE NARRATIVE STYLE OF L. M. MONTGOMERY IN THE ANNE OF GREEN GABLES BOOK SERIES 557

ACCESSIBLE TOURISM IN SAMARKAND, UZBEKISTAN: CURRENT SITUATION, BARRIERS, AND DEVELOPMENT OPPORTUNITIES .. 563

TYPOLOGY OF AUTHENTIC MATERIALS IN TRANSLATOR TRAINING AND THEIR LINGUOCULTURAL POTENTIAL 574

A STUDY OF METHODS FOR TRANSLATING UZBEK VERBALIZED GESTURES INTO ENGLISH 580

IJTIMOIY INTEGRATSIYA TUSHUNCHASINING SOTSIOLOGIK TALQINI VA INKLYUZIV TA’LIM BITIRUVCHILARINING IJTIMOIY-MEHNAT INTEGRATSIYASI 586

HOFIZ XORAZMIY SHE’RIYATIDA HOFIZ SHEROZIYGA ADABIY MUROJAAT: AN’ANA VA IJODIY DAVOMIYLIK 592

WHAT DO YOU FEEL IS THE MOST IMPORTANT CONSTITUTIVE COMPONENT OF INTERNATIONAL ORDERS AND WHY? JUSTIFY THIS IN REFERENCE TO TWO DIFFERENT INTERNATIONAL ORDERS 597

THE DEVELOPMENT OF RURAL INTELLECTUALS AND CULTURAL LIFE IN THE SOUTHERN REGIONS OF UZBEKISTAN (1991–2024) . 606

IKKI TILLI SOHAVIY ATAMALARNI AVTOMATIK ANIQLASH VA LUG‘AT BAZASINI YARATISH (O‘ZBEK VA TURK TILLARI MISOLIDA) 612

THE ROLE OF NEOLOGISMS AND BORROWED WORDS IN THE DEVELOPMENT OF MODERN ENGLISH LEXICON 618

JIZZAX VILOYATI KO‘ZI OJIZLAR KUTUBXONASI: TARIX VA TARAQQIYOT 623

JAHON NASRIDA “YO‘QOTILGAN AVLOD” TALQINI 629

PIRIMQUL QODIROVNING OBRAZ YARATISH MAHORATI(“YULDUZLI TUNLAR” ROMANI MISOLIDA) 634

FORMING CRITICAL THINKING IN HIGHER EDUCATION: DIDACTIC MECHANISMS OF THE TRANSITION FROM CONSUMING KNOWLEDGE TO UNDERSTANDING IT 639

ZAMONAVIY O‘ZBEK SHE’RIYATIDA FALSAFIY TAFAKKUR VA BADIIY IFODA 649

FLIPPED CLASSROOM MODEL IN TEACHING ENGLISH GRAMMAR TO UNIVERSITY STUDENTS IN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN. 659

O‘ZBEK VA INGLIZ XALQ RIVOYATLARINING FUNKSIONAL-SEMANTIK XUSUSIYATLARI VA TARJIMA MASALALARI 665

O‘ZBEK MILLIY NAQSHLARIDA GEOMETRIK SHAKLLAR VA SIMMETRIYA 670

TOJIKISTONNING SUV-ENERGETIKA DIPLOMATIYASI: MARKAZIY OSIYODA STRATEGIK O‘ZARO BOG‘LIQLIK VA BARQAROR RIVOJLANISH (2016–2025-YILLAR) 676

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARI PARALLEL KORPUSIDA MATNNI ME’YORLASHTIRISH VA MANBA SHAKLINI SAQLASH 681

ЭМОЦИОНАЛЬНО-КОНЦЕПТУАЛЬНОЕ ПРОЕКТИРОВАНИЕ В ОБУЧЕНИИ ДИЗАЙНУ ОДЕЖДЫ: АНАЛИЗ ДИПЛОМНЫХ КОЛЛЕКЦИЙ 686

АРАБСКИЙ МИР В НАЧАЛЕ XXI ВЕКА 691

LIRIK ASARLARDA ŞE’RIY NUTQNING TAŞKIL ETILIŞI: DIALOGIYA VA KOMMUNIKATSIYA 701

ПОЭТИКА СЕНСОРНОЙ ПАМЯТИ И НЕВЕРБАЛИЗОВАННЫЕ СМЫСЛЫ В МАЛОЙ ПРОЗЕ И. А. БУНИНА 716

AMIR TIMUR – THE GREAT COMMANDER 722

NOZIL XO‘JANDIY DEVONINING JANR XUSUSIYATLARI 727

ROSSIYA IMPERIYASINING TURKISTONNI BOSIB OLISHI VA MUSTAMLAKA BOSHQARUV TIZIMINING SHAKLLANISHI 732

1-SECTION

UDK 599.735.3:502.74(575.1)

BUXORO BUG‘USI (*CERVUS HANGLU BACTRIANUS*) NI QUYI AMUDARYO DAVLAT BIOSFERA REZERVATIDAN «ZARAFSHON» MILLIY TABIAT BOG‘IGA KO‘CHIRISHNING ILMIY-AMALIY ASOSLARI

Xolmanov Etkin Bazarovich
Samarqand davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi (PhD)
E-mail: otabekbozorov492@gmail.com
Marmazinskaya Natalya Vladimirovna
«Zarafshon» milliy tabiat bog‘i ilmiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Urinbayev Xikmatjon Bazarovich
«Zarafshon» milliy tabiat bog‘i kichik ilmiy xodimi

Annotatsiya. *Maqolada «Zarafshon» milliy tabiat bog‘idagi atigi 6 bosh asoschidan shakllangan Buxoro bug‘usi volyer guruhining (~40 bosh) genetik fondini yangilash maqsadida Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervatidan (~2 112 bosh, 24 bosh/km²) 10 bosh hayvon ko‘chirishning ilmiy-amaliy asoslari keltirilgan. Samarali populyatsiya soni (Ne) formulasi asosida ko‘chiriladigan guruhning to‘rt xil jins tarkibi taqqoslangan; 3 erkak : 7 urg‘ochi varianti (Ne = 8,4) genetik samara, ko‘payish salohiyati va erkaklar o‘rtasidagi to‘qnashuv xavfi o‘rtasida eng maqbul muvozanatni ta’minlashi ko‘rsatilgan. Model senariyda ushbu tarkib qabul qiluvchi guruhning Ne ko‘rsatkichini 25,6 dan 34,3 gacha (+34 %) oshirib, bir avlodda inbriding o‘sishini 1,95 % dan 1,46 % gacha kamaytiradi. Asoschi genom ekvivalentlari usuli bo‘yicha ko‘chirish birinchi avlodda genetik xilma-xillikning yuqori chegarasini 0,917 dan 0,945 gacha oshirishi ko‘rsatildi. Turning yillik hayot sikliga ko‘ra ko‘chirishning maqbul muddati (dekabr–fevral), ikki bosqichli karantin (21 + 30 kun) va genetik monitoring tartibi asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Buxoro bug‘usi, Cervus hanglu bactrianus, translokatsiya, samarali populyatsiya soni, asoschi effekti, inbriding, genetik qutqaruv, karantin, «Zarafshon» milliy tabiat bog‘i, Quyi Amudaryo biosfera rezervati.*

Аннотация. *В статье приведено научно-практическое обоснование переселения 10 особей бухарского оленя из*

Нижнеамударьинского государственного биосферного резервата (~2 112 особей, 24 особи/км²) в вольерную группу национального природного парка «Зарафшан» (~40 особей), сформированную всего от 6 основателей, с целью обновления её генофонда. На основе формулы эффективной численности популяции (Ne) сопоставлены четыре варианта полового состава переселяемой группы; показано, что вариант 3 самца : 7 самок (Ne = 8,4) обеспечивает оптимальный баланс между генетическим эффектом, репродуктивным потенциалом и риском конфликтов между самцами. В модельном сценарии этот состав повышает Ne принимающей группы с 25,6 до 34,3 (+34 %) и снижает прирост инбридинга за поколение с 1,95 до 1,46 %. По методу эквивалентов генома основателей показано, что переселение уже в первом поколении повышает верхнюю границу генетического разнообразия с 0,917 до 0,945. С учётом годового жизненного цикла вида обоснованы оптимальные сроки переселения (декабрь–февраль), двухэтапный карантин (21 + 30 сут) и порядок генетического мониторинга.

Ключевые слова: *бухарский олень, Cervus hanglu bactrianus, транслокация, эффективная численность популяции, эффект основателя, инбридинг, генетическое спасение, карантин, национальный природный парк «Зарафшан», Нижнеамударьинский биосферный резерват.*

Abstract. *The paper provides a scientific and practical rationale for translocating 10 Bukhara deer from the Lower Amu Darya State Biosphere Reserve (~2,112 animals, 24 deer/km²) to the captive group of Zarafshan National Nature Park (~40 animals), which was founded by only six animals, in order to renew its gene pool. Four sex ratios of the translocated group were compared using the effective population size (Ne) formula. The 3 males : 7 females option (Ne = 8.4) offers the best balance between genetic benefit, reproductive potential and the risk of male–male conflict. In a model scenario, this composition raises the Ne of the recipient group from 25.6 to 34.3 (+34%) and lowers the per-generation increase in inbreeding from 1.95% to 1.46%. Using founder genome equivalents, the translocation is shown to raise the upper bound of gene diversity from 0.917 to 0.945 in the first generation. Based on the species' annual life cycle, the optimal translocation window (December–February), a two-stage quarantine (21 + 30 days) and a genetic monitoring scheme are substantiated.*

Keywords: *Bukhara deer, Cervus hanglu bactrianus, translocation, effective population size, founder effect, inbreeding, genetic rescue,*

quarantine, Zarafshan National Nature Park, Lower Amu Darya Biosphere Reserve.

KIRISH

Buxoro bug‘usi (xongul) — Markaziy Osiyo tugay o‘rmonlarining endemik kenja turi bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan [1]. Mitoxondrial DNK tahlillari asosida ushbu taksonning *Cervus hanglu* turi tarkibida ko‘rib chiqilishi taklif etilgan [2]. XX asrda tugay o‘rmonlarining qisqarishi va ovlash natijasida tur yo‘qolib ketish arafasiga kelgan; keyingi o‘n yilliklarda reintroduksiya va qo‘riqlash tadbirlari tufayli uning soni sezilarli tiklangan [3]. Turni muhofaza qilish xalqaro miqyosda ham e’tirof etilgan: Yovvoyi hayvonlarning migratsiya qiluvchi turlarini saqlash to‘g‘risidagi konvensiya (CMS) doirasida Buxoro bug‘usini saqlash va tiklash bo‘yicha o‘zaro anglashuv memorandumi imzolangan [3].

Hozirgi kunda tur populyatsiyalari o‘rtasida keskin nomutanosiblik kuzatilmoqda. Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervatida turning dunyodagi eng yirik populyatsiyasi — taxminan 2 112 bosh yashaydi, uning zichligi (24 bosh/km²) tugay ekotizimining sig‘imidan oshib ketgan [4]. Baday-to‘qay uchastkasida o‘simlik qoplami qariyb 90 % qisqargani va mutaxassislar populyatsiyaning bir qismini ko‘chirishni taklif qilgani qayd etilgan [5]. Aksincha, «Zarafshon» milliy tabiat bog‘ida bug‘ularning umumiy soni ~105 boshni [6], volyerdagi guruh esa ~40 boshni tashkil etadi. Volyer guruhi atigi 6 bosh asoschidan — 1996-yil mayida Baday-to‘qaydan keltirilgan 4 bosh va 1997-yil oktabrida Qizilqum qo‘riqxonasidan keltirilgan 2 boshdan shakllangan [19]; shu sababli unda asoschi effekti va inbriding xavfi yuqori.

Shu bois **tadqiqotning maqsadi** — «Zarafshon» milliy tabiat bog‘i volyer guruhining genetik fondini yangilash uchun Quyi Amudaryo populyatsiyasidan 10 bosh hayvon ko‘chirishning maqbul tarkibi, muddati va veterinariya-karantin tartibini ilmiy asoslashdan iborat. **Vazifalar:** (1) donor va qabul qiluvchi populyatsiyalar holatini taqqoslash; (2) ko‘chiriladigan guruhning jins tarkibini samarali populyatsiya soni mezoni bo‘yicha optimallashtirish; (3) ko‘chirishning genetik yangilanish samarasini baholash; (4) ko‘chirish muddatini turning fenologiyasi asosida belgilash; (5) asosiy xatarlar va ularni kamaytirish choralarini ishlab chiqish.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Kichik va izolyatsiyalangan populyatsiyalarda genetik xilma-xillikning yo‘qolishi va inbriding depressiyasi muhofaza genetikasining markaziy muammolaridan biridir [7]. Bug‘ular uchun bu holat dala sharoitida ham isbotlangan: Shotlandiyadagi Rum orolidagi asl bug‘u (*Cervus elaphus*)

populyatsiyasida inbriding darajasi yuqori bo‘lgan individlarning umrbod ko‘payish muvaffaqiyati sezilarli past ekanligi aniqlangan [8].

Inbriding depressiyasini bartaraf etishning samarali usuli — boshqa populyatsiyadan individlar olib kelish orqali «genetik qutqaruv» (genetic rescue) hisoblanadi. Meta-tahlil natijalariga ko‘ra, gen oqimi inbred populyatsiyalarning yashovchanlik va ko‘payish ko‘rsatkichlarini aksariyat holatlarda sezilarli va barqaror yaxshilaydi [9]. Shu bilan birga, translokatsiyalarning genetik foyda va xatarlarini (masalan, autbriding depressiyasi, kasallik tarqalishi) oldindan baholash zarurligi ta’kidlanadi [10]. Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqining (IUCN) translokatsiyalar bo‘yicha qo‘llanmasida xatarlarni baholash, karantin va ko‘chirishdan keyingi monitoring majburiy bosqichlar sifatida belgilangan [11].

Samarali populyatsiya sonini jinslar nisbatini hisobga olgan holda baholash S. Raytning klassik formulasiga asoslanadi [12]. L. Mills va F. Allendorf genetik izolyatsiya ta’sirini kamaytirish uchun bir avlodda kamida bitta, maqbul holda bir necha migrant kiritish tamoyilini asoslab bergan [13]. Bug‘ularning poligam juftlashish tizimi va gon davridagi xulq-atvori T. Klatton-Brok va hammualliflari tomonidan batafsil o‘rganilgan bo‘lib, bir erkakning bir nechta urg‘ochini nazorat qilishi samarali populyatsiya sonini kamaytiruvchi omil ekanligi ko‘rsatilgan [14].

Buxoro bug‘usini ko‘paytirish va tabiiy yashash joylariga tarqatish bo‘yicha mintaqaviy uslubiy tavsiyalar N.V. Marmazinskaya tomonidan ishlab chiqilgan [15]; turning Markaziy Osiyodagi holati va reintroduksiya tarixi O. Pereladova sharhida umumlashtirilgan [3]. Quyi Amudaryo populyatsiyasi 1976, 1978 va 1987-yillarda Tojikistondan keltirilgan jami 21 bosh asoschidan tarqalgan [5]. Shunga qaramay, aynan ikki populyatsiya o‘rtasidagi genetik masofa va «Zarafshon» volyer guruhi uchun maqbul translokatsiya tarkibi bo‘yicha maxsus tadqiqotlar mavjud emas. Ushbu maqola shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda donor populyatsiya soni va zichligi bo‘yicha 2019-yil oktabrida transekt usulida (distance sampling) o‘tkazilgan sanoq natijalari [4], qabul qiluvchi hudud bo‘yicha 2023-yil apreldagi sanoq ma’lumotlari [6], volyer guruhining shakllanish tarixi bo‘yicha O‘zbekistonning CMS milliy hisoboti [19] va bog‘ ma’muriyatining 2026-yil oktabr holatiga ko‘ra volyer guruhi haqidagi ma’lumotlaridan foydalanildi.

Ko‘chiriladigan guruhning demografik-genetik samarasi samarali populyatsiya soni orqali baholandi [12]:

$N_e = 4\,N_m\,N_f / (N_m + N_f)$, (1)

bu yerda N_m va N_f — mos ravishda ko‘payishda qatnashuvchi erkak va urg‘ochilar soni. Bir avlodda inbriding koeffitsientining o‘sishi quyidagicha hisoblandi [7]:

$\Delta F = 1 / (2\,N_e)$. (2)

(1) formula guruh soniga bog‘liq bo‘lib, yangi allellar kiritilishini aks ettirmaydi. Shu sababli ko‘chirishning genetik yangilanish samarasi alohida, asoschi genom ekvivalentlari (f_{ge}) orqali baholandi [7; 18]:

$f_{ge} = 1 / \Sigma\, p_i^2$, (3)

$GD = 1 - 1 / (2\,f_{ge})$, (4)

bu yerda p_i — i-asoschining guruh genofondidagi ulushi, GD — asoschilarga nisbatan saqlangan genetik xilma-xillik (kutilgan geterozigotlik). Pedigri ma’lumotlari mavjud bo‘lmaganligi sababli ikki holat ko‘rib chiqildi: 6 asoschi genofondda teng ulushda saqlangan (yuqori chegara, $f_{ge} = 6$) va asoschi effekti natijasida $f_{ge} = 3$ gacha kamaygan holat. Ko‘chirilgan 10 bosh o‘zaro va volyer guruhi bilan qarindosh emas va birinchi avlodda genofondning 10/50 = 20 % ini tashkil etadi deb qabul qilindi.

Volyer guruhining jins tarkibi hali aniqlanmaganligi sababli, qabul qiluvchi guruhga ta’sirni baholashda model senariy qo‘llanildi: poligam bug‘u guruhlari uchun xos bo‘lgan 1 : 4 nisbat (8 erkak, 32 urg‘ochi) shartli qabul qilindi. Ko‘chirish muddati turning yillik hayot sikli (gon, homiladorlik, buzoqlash, shox o‘sishi) bilan solishtirish orqali tanlandi [3; 14; 15]. Veterinariya-karantin protokoli va xatarlar matritsasi IUCN qo‘llanmasi [11] hamda yovvoyi hayvonlarni immobilizatsiya qilish bo‘yicha qo‘llanma [16] asosida tuzildi. Tadqiqotning huquqiy asosi — «Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida»gi Qonun [17].

Tahlil va natijalar

Donor va qabul qiluvchi populyatsiyalar holati. Ikki hudud ko‘rsatkichlari 1-jadval va 1-rasmda keltirilgan. Donor populyatsiya qabul qiluvchi volyer guruhidan qariyb 50 baravar yirik; bundan 10 bosh hayvonni olish uning sonini atigi ~0,5 % ga kamaytiradi va populyatsiya barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmaydi. Aksincha, ortiqcha zichlik sharoitida bunday olib chiqish tugay ekotizimiga bosimni kamaytirishga xizmat qiladi [4; 5].

1-jadval.

Donor va qabul qiluvchi populyatsiyalarning taqqoslanishi

Ko‘rsatkich	Quyi Amudaryo rezervati (donor)	«Zarafshon» MTB (qabul qiluvchi)
Soni	~2 112 bosh (95 % IO: 1 320–3 344; 2019-y.) [4]	83 bosh sanalgan, ~105 taxminiy (2023-y.) [6]; volyerda ~40 bosh (2026-y.)
Zichlik	24 bosh/km² [4]	Ma’lumot yo‘q
Asosiy muammo	Ortiqcha zichlik; Baday-to‘qayda o‘simlik qoplami ~90 % qisqargan [5]	Asoschi effekti, inbriding xavfi
Kelib chiqishi	1976–1987-yy. Tojikistondan keltirilgan 21 bosh asoschi [5]	6 bosh asoschi: 1996-y. Baday-to‘qaydan 4 bosh, 1997-y. Qizilqum qo‘riqxonasidan 2 bosh [19]



1-rasm.

Donor va qabul qiluvchi hududlardagi Buxoro bug‘ulari soni (logarifmik shkala)

Ko‘chiriladigan guruh tarkibini optimallashtirish. (1) formula bo‘yicha 10 boshlik guruhning to‘rt xil tarkibi taqqoslandi (2-jadval, 2-rasm). Teng nisbat (5 : 5) eng yuqori Ne beradi, biroq volyerda o‘z erkaklari mavjud bo‘lgan sharoitda besh nafar yangi erkak gon davrida jiddiy to‘qnashuv va jarohatlarga olib keladi. 2 : 8 variantda esa yangi ota liniyalari soni juda kam

bo‘lib, erkaklardan biri nobud bo‘lsa yoki ierarxiyada o‘rin egallay olmasa, genetik samara keskin pasayadi.

2-jadval.

Ko‘chiriladigan guruhning turli tarkiblari uchun samarali populyatsiya soni

Variant (♂ : ♀)	**Ne**	**Teng nisbatga nisbatan, %**	**Baho**
5 : 5	10,0	100	Genetik jihatdan yuqori, erkaklar o‘rtasida jang xavfi yuqori
4 : 6	9,6	96	Maqbul muqobil variant
3 : 7	**8,4**	**84**	**Tavsiya etiladi: ko‘payish va xavfsizlik muvozanati**
2 : 8	6,4	64	Yangi ota liniyalari juda kam



2-rasm. Tarkib variantlari bo‘yicha Ne va urg‘ochilar soni

3 : 7 variantda Ne teng nisbatdagidan atigi 16 % kam, ammo urg‘ochilar, demak, yillik buzoqlar soni ko‘proq va volyerdagi xavfsizlik sezilarli yuqori. Urg‘ochilar yangi genlarni har yili buzoqlar orqali bevosita guruhga olib kiradi, uch nafar erkak esa ota liniyasining saqlanishini zaxiralaydi. Tavsiya etilgan tarkib: 3 erkak (2–4 yosh), 5 urg‘ochi (2–4 yosh) va 2 urg‘ochi (1,5 yosh); yosh urg‘ochilar yangi sharoitga tezroq moslashadi.

Qabul qiluvchi guruhga ta’sir (model senariy). 1 : 4 nisbatli 40 boshlik volyer guruhi uchun Ne = 25,6, ΔF = 1,95 % ni tashkil etadi. Turli variantlar qo‘shilgandan keyingi natijalar 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval.

Ko‘chirishning volyer guruhi Ne va ΔF ko‘rsatkichlariga ta’siri (model senariy: 8 ♂ + 32 ♀)

Variant (♂ : ♀)	Guruh tarkibi (♂ : ♀)	Ne	Ne o‘sishi, %	ΔF, % (bir avlodda)
Ko‘chirishsiz	8 : 32	25,6	—	1,95
5 : 5	13 : 37	38,5	+50	1,30
4 : 6	12 : 38	36,5	+43	1,37
3 : 7	**11 : 39**	**34,3**	**+34**	**1,46**
2 : 8	10 : 40	32,0	+25	1,56

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, butun guruh darajasida variantlar o‘rtasidagi nisbiy farq kichrayadi: 3 : 7 variantda Ne 5 : 5 variantdagidan 11 % kam (34,3 ga nisbatan 38,5), ko‘chiriladigan guruh darajasida esa bu farq 16 % ni tashkil etadi; xavfsizlik va ko‘payish bo‘yicha afzalliklar esa saqlanadi. Shuni ta’kidlash lozimki, poligam turlarda erkaklarning ko‘payish muvaffaqiyatidagi tafovut haqiqiy Ne ni yanada kamaytiradi [7; 14]; shuning uchun jadvaldagi qiymatlar yuqori chegara sifatida qaralishi kerak. Agar volyerdagi yetuk erkaklar 1–2 bosh va qari bo‘lsa, 4 : 6 varianti afzal hisoblanadi.

Genetik yangilanish samarasi. 3-jadvaldagi Ne o‘sishi asosan guruh sonining 40 dan 50 boshga ko‘payishi hisobiga yuzaga keladi: volyerning o‘zidan 10 bosh qo‘shilganda ham xuddi shunday natija olinadi. Shuning uchun ko‘chirishning asosiy maqsadi — yangi allellar kiritish samarasi (3) va (4) formulalar bo‘yicha alohida baholandi (4-jadval).

4-jadval.

Ko‘chirishning asoschi genom ekvivalentlari (f_{ge}) va genetik xilma-xillikka (*GD*) ta’siri (birinchi avlod)

Volyer guruhining holati	f_{ge} oldin	*GD* oldin	f_{ge} keyin	*GD* keyin	*GD* o‘zgarishi
6 asoschi teng ulushda (yuqori chegara)	6,0	0,917	9,0	0,945	+0,028
Kuchli asoschi effekti	3,0	0,833	4,6	0,891	+0,058

Ko‘chirish birinchi avloddayoq *GD* ning yuqori chegarasini 0,917 dan 0,945 gacha oshiradi; volyer guruhi asoschi effekti natijasida ko‘proq xilma-xillik yo‘qotgan bo‘lsa, samara ikki baravar katta (+0,058). Ko‘chirilgan hayvonlar avlodi ko‘paygan sari ularning genofonddagi ulushi ortadi va 16 asoschi teng ulushda bo‘lgan nazariy chegarada *GD* = 0,969 ga yetadi. Bu hisob jins tarkibiga bevosita bog‘liq emas, biroq poligam tizimda yangi erkaklar ko‘payishda qatnashmasa, ularning genlari guruhga o‘tmaydi; bu 3 erkakdan kam olmaslik zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi. Volyer guruhining 4 asoschisi Baday-to‘qaydan, ya’ni donor populyatsiyadan keltirilganini hisobga olsak [19], real samara jadvaldagidan kichikroq bo‘lishi mumkin va genetik tahlil bilan aniqlashtirilishi lozim.

Ko‘chirish muddati. Turning yillik hayot sikli (3-rasm) tahlili ko‘chirish uchun eng maqbul davr dekabr–fevral ekanligini ko‘rsatdi: bu vaqtda gon tugagan, havo salqin (tutish miopatiyasi xavfi past), urg‘ochilarning homiladorligi dastlabki bosqichda va erkaklarning shoxi qotgan (jarohatsiz kesish mumkin). Yozgi issiq, buzoqlash (may–iyun) va yumshoq shox o‘sishi davrida ko‘chirish tavsiya etilmaydi. Karantindan so‘ng fevral–mart oylarida guruhga qo‘shish yangi erkaklarga keyingi gongacha ierarxiyada moslashish uchun 6–7 oy vaqt beradi.



3-rasm. Buxoro bug‘usining yillik hayot sikli va ko‘chirish uchun maqbul davr

Veterinariya-karantin protokoli. Kasallik va parazitlarni olib kirish xavfini kamaytirish uchun ikki bosqichli karantin taklif etiladi (4-rasm): donor hududda kamida 21 kun (brutsellyoz, sil, leptospirozga qon tahlili, gelmint va ektoparazitlarga qarshi ishlov, veterinariya xizmati ko‘rsatmasiga ko‘ra emlash) va «Zarafshon» bog‘ida 30 kun (qabul ko‘rigi va takroriy tahlillar). Yakuniy veterinariya ko‘rigi jo‘natishdan ko‘pi bilan 72 soat oldin o‘tkaziladi. Har bir hayvon alohida qorong‘i yashikda, havo harorati 0–15 °C bo‘lganda, taxminan 750 km masofaga (10–12 soat) tashiladi; yo‘lda yashiklar ochilmaydi [11; 16].



4-rasm. Veterinariya nazorati va ikki bosqichli karantin ketma-ketligi

Genetik tekshiruv. Volyer guruhi asoschilarining 4 tasi Baday-to‘qaydan keltirilgani [19], donor populyatsiya esa Tojikistondan keltirilgan hayvonlardan kelib chiqqani [5] sababli ikki guruh genetik jihatdan yaqin. Bu autbriding depressiyasi xavfini deyarli istisno qiladi, biroq kutilgan genetik samarani kamaytirishi mumkin. Shu bois volyer guruhi va donor hayvonlardan to‘qima namunalari olinib, mikrosatellit yoki SNP markerlari bo‘yicha tahlil qilinadi. Tahlil donor karantini davomida o‘tkaziladi va hayvonlarni yakuniy

tanlashda volyer guruhi bilan qarindoshligi eng past bo‘lganlar afzal ko‘riladi; natija jo‘natishgacha tayyor bo‘lmasa, hayvonlar donor hududning turli guruhlaridan tanlanadi, genetik ma’lumotlar esa keyingi juftlash rejasida qo‘llaniladi [10; 18].

Asosiy xatarlar. Aniqlangan xatarlar va ularni kamaytirish choralari 5-jadvalda umumlashtirilgan.

5-jadval.

Translokatsiyaning asosiy xatarlari va ularni kamaytirish choralari

Xatar	Ehtimoliy oqibati	Kamaytirish choralari
Tutish va tashishdagi stress (tutish miopatiyasi)	Hayvonning nobud bo‘lishi	Salqin soatlarda tutish, qisqa immobilizatsiya, qorong‘i yashik
Kasallik va parazitlarni olib kirish	Volyer guruhining zararlanishi	Ikki bosqichli karantin (21 + 30 kun), laboratoriya tahlillari
Erkaklar o‘rtasidagi jang	Jarohat, yangi erkakning siqib chiqarilishi	3 : 7 tarkib, asta-sekin qo‘shish, gongacha moslashish vaqti
Homila tashlash, moslasha olmaslik	Nasl kamayishi	Kech homilador urg‘ochilarni olmaslik, 1,5 yoshli urg‘ochilar
Umumiy kelib chiqish (4 asoschi Baday-to‘qaydan)	Genetik samaraning pasayishi	Genetik tahlil, qarindoshligi past hayvonlarni turli guruhlardan tanlash

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervatidagi ortiqcha zich populyatsiyadan 10 bosh Buxoro bug‘usini «Zarafshon» milliy tabiat bog‘iga ko‘chirish atigi 6 asoschidan shakllangan volyer guruhining genetik fondini yangilash uchun maqsadga muvofiq va donor ekotizimga bosimni kamaytirishga ham xizmat qiladi.

2. Ko‘chiriladigan guruhning maqbul tarkibi — 3 erkak (2–4 yosh) va 7 urg‘ochi (1,5–4 yosh), Ne = 8,4. Model senariyda bu tarkib qabul qiluvchi guruh Ne ko‘rsatkichini 34 % ga oshiradi va bir avlodda inbriding o‘sishini 1,95 % dan 1,46 % gacha kamaytiradi; asoschi genom ekvivalentlari soni 6 dan ~9 gacha, genetik xilma-xillikning yuqori chegarasi 0,917 dan 0,945 gacha ortadi. Volyerda yetuk erkaklar kam bo‘lsa, 4 : 6 varianti qo‘llaniladi.

3. Ko‘chirishning maqbul muddati — dekabr–fevral; ikki bosqichli karantin (21 + 30 kun) va davlat veterinariya nazorati majburiy hisoblanadi.

4. Volyer guruhi asoschilarining bir qismi donor populyatsiyadan kelib chiqqanligi sababli ikki guruhning genetik yaqinligini aniqlash uchun molekulyar-genetik tahlil o‘tkazish, ko‘chirilgan hayvonlar va ularning avlodini 3–5 yil davomida kuzatish tavsiya etiladi.

5. Uzoq muddatda genetik xilma-xillikni saqlash uchun har 5–8 yilda 2–3 bosh yangi hayvon kiritish («bir avlodga bir necha migrant» tamoyili [13]) maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Qizil kitobi. II jild. Hayvonot dunyosi. – Toshkent, 2019.
2. Lorenzini R., Garofalo L. Insights into the evolutionary history of *Cervus* (Cervidae, tribe Cervini) based on Bayesian analysis of mitochondrial marker sequences, with first indications for a new species // Journal of Zoological Systematics and Evolutionary Research. – 2015. – Vol. 53, № 4. – P. 340–349.
3. Pereladova O. Bukhara deer [Elektron resurs] / WWF Central Asian Programme; CMS. – [2020]. – URL: https://atlantic-turtles.cms.int/sites/default/files/publication/BukDeer-Opereladova-CAMI%20-long.pdf (murojaat sanasi: 16.10.2026).
4. Cornelis D., Kan E., Gond V., Cesaro J.-D., Peltier R. Estimation of the red deer population and its impact on the Tugay forest ecosystem in the Lower Amu Darya State Biosphere Reserve, Uzbekistan // Bois et Forêts des Tropiques. – 2020. – № 346. – P. 65–78. – DOI: 10.19182/bft2020.346.a36297.
5. Pulatov I. Buxoro bug‘usini muhofaza qilish uchun populyatsiyaning bir qismini ko‘chirish taklif qilindi [Elektron resurs] // Kun.uz. – 2026. – 29-yanvar. – URL: https://kun.uz/news/2026/01/29/buxoro-bugusini-muhofaza-qilish-uchun-populyatsiyaning-bir-qismini-kochirish-taklif-qilindi (murojaat sanasi: 16.10.2026).
6. «Zarafshon» milliy tabiat bog‘ida qushlar va hayvonlar sanoqdan o‘tkazildi [Elektron resurs] // O‘zA. – 2023. – 14-aprel. – URL: https://uza.uz/uz/posts/zarafshon-milliy-tabiat-bogida-qushlar-va-hayvonlar-sanoqdan-otkazildi_473331 (murojaat sanasi: 16.10.2026).
7. Frankham R., Ballou J.D., Briscoe D.A. Introduction to Conservation Genetics. – 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010.
8. Slate J., Kruuk L.E.B., Marshall T.C., Pemberton J.M., Clutton-Brock T.H. Inbreeding depression influences lifetime breeding success in a wild population of red deer (*Cervus elaphus*) // Proceedings of the Royal Society B. – 2000. – Vol. 267. – P. 1657–1662.
9. Frankham R. Genetic rescue of small inbred populations: meta-analysis reveals large and consistent benefits of gene flow // Molecular Ecology. – 2015. – Vol. 24, № 11. – P. 2610–2618.

10. Weeks A.R., Sgro C.M., Young A.G. et al. Assessing the benefits and risks of translocations in changing environments: a genetic perspective // Evolutionary Applications. – 2011. – Vol. 4, № 6. – P. 709–725.

11. IUCN/SSC. Guidelines for Reintroductions and Other Conservation Translocations. Version 1.0. – Gland: IUCN Species Survival Commission, 2013.

12. Wright S. Evolution in Mendelian populations // Genetics. – 1931. – Vol. 16, № 2. – P. 97–159.

13. Mills L.S., Allendorf F.W. The one-migrant-per-generation rule in conservation and management // Conservation Biology. – 1996. – Vol. 10, № 6. – P. 1509–1518.

14. Clutton-Brock T.H., Guinness F.E., Albon S.D. Red Deer: Behavior and Ecology of Two Sexes. – Chicago: University of Chicago Press, 1982.

15. Мармазинская Н.В. Методическое руководство для работ по воспроизводству и расселению бухарского оленя в местах естественного обитания. – 2012.

16. West G., Heard D., Caulkett N. (eds.). Zoo Animal and Wildlife Immobilization and Anesthesia. – 2nd ed. – Ames: Wiley-Blackwell, 2014.

17. O‘zbekiston Respublikasining «Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida»gi Qonuni. 19.09.2016-y., O‘RQ-408-son.

18. Ballou J.D., Lacy R.C. Identifying genetically important individuals for management of genetic variation in pedigreed populations // Population Management for Survival and Recovery / ed. by J.D. Ballou, M. Gilpin, T.J. Foose. – New York: Columbia University Press, 1995. – P. 76–111.

19. Национальный отчёт Республики Узбекистан по выполнению Меморандума и Плана действий по сохранению и восстановлению бухарского оленя [Электронный ресурс]. – UNEP/CMS/BKD1/Inf.4.2. – [2011]. – URL: https://cms.int/aquatic-mammals/sites/default/files/document/BKD1_Inf_04_2_National_Report_Uzbekistan_R_0.pdf (murojaat sanasi: 29.10.2026).

УДК: 633.111

LALMIKOR SHAROITDA YUMSHOQ BUG‘DOY F3 DURAGAY AVLODLARINING FENOLOGIK RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Amirov Otabek Haydar o‘g‘li
3-bosqich tayanch doktorant
Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti, O‘zbekiston, G‘allaorol shaxri
otabekamirovbio@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada yumshoq bug‘doy lalmikor sharoitda yetishtirilgan F3 duragay avlodlarining fenologik davrlari tahlil natijalari keltirilgan. Tadqiqot jarayonida duragaylarning unib chiqish, boshoqlash va pishish fazalari tahlil qilindi. Fenologik kuzatuvlar asosida duragay avlodlar va andoza nav o‘rtasida rivojlanish sur’ati, vegetatsiya davri davomiyligi va ertapisharlik darajasi bo‘yicha sezilarli farqlar mavjudligi aniqlandi. Olingan natijalar lalmikor hududlarga moslashuvchan, qurg‘oqchilikka chidamli va qisqa vegetatsiya davriga ega navlarni yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yumshoq bug‘doy F3 duragaylari ustida o‘tkazilgan nazorat tajriba natijalaridan kelib chiqib, erta boshoqlash va pishish fazasiga kirgan duragay tanlab olindi.*

Kalit so‘zlar: *yumshoq bug‘doy, avlod, duragay, unib chiqish, boshoqlash, pishish, vegetativ, generativ, faza.*

Annotation. *This article presents the results of the analysis of the phenological periods of F3 hybrid generations of soft wheat grown in rainfed conditions. During the research process, the phases of germination, ear formation, and maturation of the hybrids were analyzed. Based on phenological observations, it was established that there are significant differences between the hybrid generations and the standard variety in terms of development rate, vegetation period duration, and early maturity. The results obtained are of great importance in creating varieties adapted to rainfed areas, drought-resistant, and with a short growing season. Based on the results of the control experiment conducted on soft wheat hybrids F3, a hybrid entering the early heading and ripening phases was selected.*

Keywords: *soft wheat, offspring, hybrid, germination, heading, ripening, vegetative, generative, phase.*

KIRISH

Lalmikor mintaqalar tabiiy-iqlim sharoitlarida, ob-havo qurg‘oqchil kelgan yillari hosildorlik keskin tushib ketadi. Ertapishar, don to‘lishish fazasi qisqa bo‘lgan yumshoq bug‘doy navlarini yaratish lalmikor mintaqalarda hosildorlikning oshishini hamda noqulay ob-havo sharoitlarida ham barqaror hosildorlikni ta’minlaydi.

Tadqiqotlarga ko‘ra, don to‘lishish davrida garmsel sodir bo‘lishi bug‘doy hosilini 30-50% miqdorda kamaytirishi aniqlangan [4]. Bahorgi yumshoq bug‘doy namunalarida boshoqdagi don soniga may oyining ikkinchi va uchinchi dekadasidagi haroratning keskin ko‘tarilishi juda katta salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Yuqori harorat natijasida boshoqchalarda don hosil bo‘lmaydi yoki rivojlanishdan orqada qolib ketadi [2].

Ertapisharlikni aniqlashda unib chiqishdan boshoqlashgacha bo’lgan davr muhim ro’l o’ynaydi [3].

Дробыш.А.В. fikriga ko‘ra, duragaylashda eng muhim masala ota-ona avlodlarini to‘g‘ri tanlash, namunalarning biologik hosildorlik va hosil elementlarini qiyosiy o‘rganishdir.

Lalmikor mintaqalarda yumshoq bug‘doyning fenologik davrlari qisqa, don ertapishar hamda yuqori hosilli bug‘doy navlarini yaratish seleksiyaning oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi.

NATIJALAR

2024-yilda duragaylar ko‘chatzori namunalarida fenologik kuzatishlar olib borilganda, to‘liq unib chiqish muddati fevral oyining ikkinchi o‘n kunligi oxiriga, boshoqlash muddati may oyining ikkinchi o‘n kunligi oxirlariga, duragaylarning to‘liq pishishi iyun oyining ikkinchi o‘n kunligi oxiri uchunchi o‘n kunligi boshlariga to‘g‘ri keldi.

Duragaylarning unib chiqishdan-boshoqlashgacha bo‘lgan davri 63-92 kunni, o‘rtacha 76 kunni tashkil etdi. Andoza “Tezpishar” navining unib chiqishdan to‘liq boshoqlashgacha bo‘lgan davri 67 kunni tashkil etdi. Duragaylar orasida 3 ta namuna andoza navdan ertaroq, ya’ni 63 kunda to‘liq boshoqladi.

Duragaylarning unib chiqishdan pishishgacha bo‘lgan davri 92-121 kunni, o‘rtacha 106 kunni tashkil etdi. Andoza “Tezpishar” navining unib chiqishdan to‘liq pishishgacha bo‘lgan davri 96 kunni tashkil etdi. 3 ta duragay andoza naviga nisbatan 2-4 kun ertapisharligi aniqlandi.

2025-yilda duragaylar ko‘chatzori namunalarining o‘suv davri davomiyligi o‘rganilganda to‘liq unib chiqish muddati mart oyining boshiga, boshoqlash muddati may oyining ikkinchi o‘n kunligiga, duragaylarning to‘liq

pishishi iyun oyining ikkinchi o‘n kunligi oxiriga to‘g‘ri keldi. Duragaylarning unib chiqishdan-boshoqlashgacha bo‘lgan davri 68-84 kunni, o‘rtacha 75 kunni tashkil etdi. Andoza “Tezpishar” navining unib chiqishdan to‘liq boshoqlashgacha bo‘lgan davri 75 kunni tashkil etdi. Duragaylar orasida 1 ta (F1-2024-9) namuna andoza navdan ertaroq, ya’ni 68 kunda to‘liq boshoqladi.

Duragaylarning unib chiqishdan pishishgacha bo‘lgan davri 103-113 kunni, o‘rtacha 110 kunni tashkil etdi. Andoza “Tezpishar” navining unib chiqishdan to‘liq pishishgacha bo‘lgan davri 109 kunni tashkil etdi. 1ta duragay (F1-2024-9) andoza navga nisbatan 6 kunga ertapisharligi aniqlandi.

2026-yilda duragaylar ko‘chatzorida fenologik kuzatishlar olib borildi. Duragaylarning o‘suv davri davomiyligi o‘rganilganda to‘liq unib chiqish muddati fevral oyining boshiga, boshoqlash muddati aprel oyi oxiri may oyining boshlariga, duragaylarning to‘liq pishishi iyun oyining ikkinchi o‘n kunligi o‘rtalariga to‘g‘ri keldi.

Duragaylarning unib chiqishdan-boshoqlashgacha bo‘lgan davri 80-92 kunni, o‘rtacha 89 kunni tashkil etdi. Andoza “Tezpishar” navining unib chiqishdan to‘liq boshoqlashgacha bo‘lgan davri 84 kunni tashkil etdi. Duragaylar orasida 1 ta (F1-2024-9) namuna andoza navdan ertaroq, ya’ni 80 kunda to‘liq boshoqladi.

Duragaylarning unib chiqishdan pishishgacha bo‘lgan davri 120-133 kunni, o‘rtacha 130 kunni tashkil etdi. Andoza “Tezpishar” navining unib chiqishdan to‘liq pishishgacha bo‘lgan davri 134 kunni tashkil etdi. 1ta duragay (F1-2024-9) andoza navga nisbatan 14 kunga, F1-2024-2, F1-2024-6, F1-2024-8 duragaylari andozaga nisbatan 4-6 kunga ertapisharligi aniqlandi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Duragay avlodlarining unib chiqish-pishish muddatlari (2024-2026-y).

TR	Nomi	Unib chiqish-boshoqlash		Boshoqlash-pishish		Unib chiqish-pishish	
		kun	farq	kun	farq	kun	farq
2024 yil							
1	tezpishar st	67	0	29	0	96	0
2	F1-2024-2	63	4	31	-2	94	2
3	F1-2024-3	63	4	30	-1	93	3
4	F1-2024-6	92	-25	29	0	121	-25
5	F1-2024-7	88	-21	33	-4	121	-25
6	F1-2024-8	90	-23	29	0	119	-23
7	F1-2024-9	63	4	29	0	92	4
2025 yil							
1	tezpishar st	75	0	34	0	109	0

2	F1-2024-2	78	-3	35	-1	113	-4
3	F1-2024-3	84	-9	29	5	113	-4
4	F1-2024-6	78	-3	35	-1	113	-4
5	F1-2024-7	76	-1	37	-3	113	-4
6	F1-2024-8	78	-3	35	-1	113	-4
7	F1-2024-9	68	7	35	-1	103	6
2026 yil							
1	tezpishar st	84	0	50	0	134	0
2	F1-2024-2	91	-7	38	12	129	5
3	F1-2024-3	92	-8	41	9	133	1
4	F1-2024-6	92	-8	38	12	130	4
5	F1-2024-7	86	-2	47	3	133	1
6	F1-2024-8	92	-8	36	4	128	4
7	F1-2024-9	80	4	40	10	120	14

XULOSA

Duragaylar orasida F1-2024-9 avlodi o‘rganilgan boshqa duragaylar va andoza navga nisbatna 3 mavsumda ham erta boshoqlash va ertapishish belgilari kuzatilganligi uchun ertapishar material sifatida tanlab olindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bo’riyeva D., Rahimova M. Yaxshimurodova F., “Seleksion materialarini baholash usullari”, Polish Science Journal. ISSUE 5(61). 7-9-b

2. J.Jandullayev., G.Qao‘yenderova., A. Amanbayeva. “Bahorgi bug‘doy navlarini orol bo‘yi hududida yetishtirish”. Academic Research In Educational Sciences. Volume 4 | Issue 9 | 2023. 122-125-b

3. Luo P.G., Ren Z.L. “Wheat leaf chlorosis controlled by a single recessive gene” J. Plant Physiol. And Mol. Biol- 2006. 330-338-bet.

4. Таранухо, Г. И. “Частная Селекция И Сортоведение Зерновых Култур”– Горки, 1987. 60-bet.

5. Amirov.O.H. /“Lalmikor sharoitda yumshoq bug‘doy (triticum aestivum l.) F2 duragaylarining fenologik rivojlanish bosqichlari”/ “Shimoliy mintaqalarda qishloq xojaligini rivojlantirishning dolzarb masalalari va ularning innovatsion yechimlari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya. 2026-y. 118-120-b

THE APPLICATION OF A FUNCTION DERIVATIVE TO ELEMENTARY MATHEMATICAL PROBLEMS

Yadgarov Bakhodir Tulkunovich
Master's student at Nordic International University in Tashkent
btyadgarov@gmail.com
Tursunkhojayev Sherzodjon Shokirjon Ogli
Master's student at Nordic International University in Tashkent
sherzodjontursunxojayev@gmail.com
Turdiqulova Khulkaroy Anvarovna
Master's student at Nordic International University in Tashkent
xulkaroyturdiqulova@gmail.com
Parpiyev Ravshanbek Raimberdi Ogli
Master's student at Nordic International University in Tashkent
ravshanbekparpiyev7@gmail.com

Abstract: *This article provides a comprehensive analysis of the theoretical foundations of derivative and differential of a function, as well as their practical applications in solving elementary mathematics problems. During the study, the applications of the derivative to geometric, physical, economic, biological, chemical, and geographical processes are examined through corresponding mathematical models and realistic examples. The main purpose of the paper is to demonstrate the practical implementation of derivative concept at high schools and academic lyceums in Uzbekistan and to enhance students' analytical problem-solving skills.*

Keywords: *derivative of a function, geometric meaning, physical meaning, extremum, economic optimization, bacterial growth, temperature gradient, mathematical model.*

Matematika darslarida o‘quvchilar ko‘pincha formulani yodlab olish bilan cheklanib, uning mazmunini to‘liq anglamasliklari mumkin. Sun’iy intellekt vositalari esa masalani turli usullarda tushuntirish, yechim bosqichlarini izohlash va o‘xshash misollar yaratishda yordam berishi mumkin. Masalan, kvadrat tenglamani yechishda o‘quvchi diskriminant formulasidan foydalanishni tushunmasa, sun’iy intellekt undan foydalanish tartibini izohlab, sodda misoldan murakkabroq misolga o‘tishi mumkin. Bunda asosiy e’tibor faqat yakuniy javobga emas, balki yechim jarayonini tushunishga qaratilishi kerak. O‘quvchidan har bir bosqichni izohlash, ishlatilgan formulani asoslash va javobni tekshirish talab etilsa, mustaqil

fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam berishi mumkin. O‘quvchilarning xatolarini tahlil qilishMatematik masalalarni yechish jarayonida yuzaga keladigan xatolar o‘quvchining qaysi mavzuni yaxshi o‘zlashtirmaganini aniqlashga yordam beradi.

Sun’iy intellekt o‘quvchi tomonidan yozilgan yechimni tahlil qilish va ehtimoliy xatolarni ko‘rsatishda qo‘llanilishi mumkin. Masalan, o‘quvchi tenglamaning bir tomonidan ikkinchi tomoniga hadni o‘tkazishda ishorani noto‘g‘ri o‘zgartirsa, tizim ushbu qadamni qayta ko‘rib chiqishni tavsiya qilishi mumkin. Shuni hisobga olish kerakki, sun’iy intellektning o‘zi ham xato qilishi mumkin. Shu sababli uning tahlili mutlaq haqiqat sifatida qabul qilinmasligi, natijalar matematik qoidalar va o‘qituvchi nazorati asosida tekshirilishi zarur.

Matematikani o‘qitishda foydalaniladigan SI vositalariChatGPT — matematik tushunchalarni tushuntirish va masalalarni bosqichma-bosqich yechish. Photomath — misollarni suratga olib yechish. Mathway — matematik masalalarga yechim topish. GeoGebra — geometrik shakllar va funksiyalarni vizual o‘rganish. Khan Academy — o‘quvchining bilim darajasiga mos topshiriqlar berish.

Sun’iy intellekt yordamida matematika darslarini tashkil etish metodikasi

Sun’iy intellektdan samarali foydalanish uchun uni darsning aniq bosqichlari bilan bog‘lash lozim. Texnologiya darsning maqsadi emas, balki belgilangan pedagogik maqsadga erishish vositasi bo‘lishi kerak. O‘qituvchi sun’iy intellekt yordamida: yangi mavzu uchun qo‘shimcha misollar yaratishi; turli darajadagi nazorat savollarini tuzishi; mavzuga oid hayotiy masalalar ishlab chiqishi; dars ishlanmasining dastlabki variantini tayyorlashi; o‘quvchilarning yoshiga mos tushuntirish usullarini ishlab chiqishi mumkin. Masalan, o‘qituvchi quyidagi topshiriqni berishi mumkin: «8-sinf o‘quvchilari uchun chiziqli tenglamalar mavzusiga oid 10 ta topshiriq tuz. Ularni uchta murakkablik darajasiga ajrat. Har bir topshiriqning javobini va yechim izohini alohida ko‘rsat». Bunday so‘rov o‘qituvchiga dastlabki o‘quv materialini tez tayyorlashga yordam beradi. Biroq yaratilgan topshiriqlar o‘quv dasturiga mosligi, matematik aniqligi va murakkablik darajasi bo‘yicha tekshirilishi kerak.

Dars jarayonida foydalanish

Dars davomida sun’iy intellektdan muammoli vaziyatlarni yaratish, mavzuni turli misollar orqali tushuntirish va o‘quvchilarni faol fikrlashga undash uchun foydalanish mumkin. Masalan, arifmetik progressiya mavzusini o‘rganishda quyidagi hayotiy vaziyat taklif etiladi: Bir o‘quvchi jamg‘arma

qilishni boshladi. U birinchi kuni 2 000 so‘m, keyingi har bir kuni esa avvalgi kundagidan 1 000 so‘m ko‘proq pul yig‘adi. U 10 kunda jami qancha pul jamg‘aradi? Ushbu masalani yechishda o‘quvchilar arifmetik progressiyaning birinchi hadi va ayirmasini aniqlaydilar. So‘ngra dastlabki n ta had yig‘indisi formulasidan foydalanadilar.

Berilganlar:

$$a_1 = 2\,000;\ d = 1\,000;$$

$$n = 10.$$

Formula:

$$S_n = n(2a_1 + (n - 1)d) / 2.$$

Hisoblaymiz:

$$S_{10} = 10(2 \cdot 2\,000 + 9 \cdot 1\,000) / 2;$$

$$S_{10} = 5(4\,000 + 9\,000);$$

$$S_{10} = 65\,000 \text{ so‘m}.$$

Demak, o‘quvchi 10 kunda jami 65 000 so‘m jamg‘aradi. Sun’iy intellekt yordamida shunga o‘xshash masalalarni boshqa sonlar va hayotiy vaziyatlar asosida yaratish mumkin. Bu usul matematik formulalarning amaliy ahamiyatini tushunishga ko‘maklashadi.

Mustaqil ta’limni tashkil etish

Sun’iy intellekt o‘quvchilarning mustaqil shug‘ullanishini qo‘llab-quvvatlash vositasi sifatida ham xizmat qilishi mumkin. Masalan, o‘quvchi biror mavzuni tushunmaganida, undan sodda izoh, qo‘shimcha misol yoki o‘z bilimini tekshirish uchun savollar so‘rashi mumkin. Biroq o‘quvchilarga tayyor javobni olish bilan cheklanmaslik tavsiya etiladi. Buning o‘rniga quyidagi yondashuv samaraliroq bo‘lishi mumkin: O‘quvchi masalani mustaqil yechishga harakat qiladi. Qiyinchilikka duch kelgan bosqichini aniqlaydi. Sun’iy intellektdan faqat shu bosqich bo‘yicha tushuntirish so‘raydi. Masalani mustaqil ravishda qayta yechadi. Yakuniy javobni boshqa usul yoki teskari amal yordamida tekshiradi. Mazkur tartib o‘quvchining texnologiyaga haddan tashqari qaram bo‘lib qolishining oldini olishga va mustaqil fikrlashini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qilishi mumkin. Sun’iy intellektdan foydalanishning afzalliklari va muammolari Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’limdagi imkoniyatlari keng bo‘lsa-da, ularni joriy etishda bir qator pedagogik va axloqiy masalalarni hisobga olish zarur.

ASOSIY AFZALLIKLARI

Birinchidan, o‘quv materiallarini individuallashtirish imkoniyati kengayadi. Bir mavzu bo‘yicha turli darajadagi topshiriqlar yaratish orqali o‘quvchilarning ehtiyojlarini hisobga olish mumkin. Ikkinchidan, mavzularni

turli usullarda tushuntirish imkoniyati paydo bo‘ladi. O‘quvchi birinchi izohni tushunmasa, boshqa misol yoki soddalashtirilgan tushuntirishni so‘rashi mumkin. Uchinchidan, o‘qituvchining ayrim takroriy vazifalarini yengillashtirish mumkin. Masalan, dastlabki test variantlarini yaratish, mashqlarni guruhlash va dars uchun qo‘shimcha materiallar tayyorlashda sun’iy intellektdan foydalanish mumkin. To‘rtinchidan, o‘quvchilarni mustaqil izlanishga undash imkoniyati mavjud. To‘g‘ri tashkil etilgan topshiriqlar o‘quvchilarni javobni shunchaki qabul qilish emas, balki uni tekshirish va asoslashga o‘rgatishi mumkin.

MAVJUD MUAMMOLAR

Sun’iy intellektdan foydalanish jarayonida ayrim xavf va cheklovlar ham mavjud. Birinchi muammo — noto‘g‘ri javoblar. Sun’iy intellekt ba’zan matematik jihatdan noto‘g‘ri yechim yoki ishonchli ko‘ringan, ammo xato izoh berishi mumkin. Shu sababli natijalarni tekshirish zarur. Ikkinchi muammo — mustaqil fikrlashning susayishi. Agar o‘quvchi barcha masalalarning tayyor javobini sun’iy intellektdan olsa, mustaqil yechish ko‘nikmalari yetarlicha rivojlanmasligi mumkin. Uchinchi muammo — raqamli imkoniyatlarning teng emasligi**.** Barcha o‘quvchilarda internet, mos qurilma yoki zarur texnologiyalardan foydalanish imkoniyati bir xil bo‘lmasligi mumkin. To‘rtinchi muammo — ma’lumotlar xavfsizligi**.** O‘quvchilarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish, ularning ma’lumotlarini noma’lum xizmatlarga kiritmaslik va ta’lim muassasasi talablariga rioya qilish muhimdir. Demak, sun’iy intellektdan foydalanish o‘qituvchining pedagogik mas’uliyatini kamaytirmaydi. Aksincha, o‘qituvchidan texnologik savodxonlik, tanqidiy tahlil va raqamli xavfsizlikka e’tibor talab qiladi. Matematika darslarida sun’iy intellektdan foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalarYuqoridagi tahlillarga asoslanib, matematika o‘qituvchilari uchun quyidagi tavsiyalarni taklif etish mumkin.

Pedagogik maqsadni oldindan belgilash. Sun’iy intellektdan foydalanishdan avval uning darsdagi vazifasi aniqlanishi kerak. Masalan, maqsad yangi mavzuni tushuntirish, mustahkamlash yoki o‘quvchilar bilimini tekshirish bo‘lishi mumkin.

Topshiriqlarni murakkablik darajasiga ko‘ra tuzish. O‘quvchilarning tayyorgarligini hisobga olib, bir mavzu bo‘yicha boshlang‘ich, o‘rta va yuqori darajadagi topshiriqlar tayyorlash lozim.Tayyor javobdan ko‘ra tushuntirishga ustuvorlik berish. O‘quvchilarga sun’iy intellektdan faqat javobni emas, balki yechim bosqichlarini, ishlatilgan formulalarni va muqobil usullarni so‘rash tavsiya etiladi.Natijalarni tekshirish madaniyatini shakllantirish. O‘quvchilar

sun’iy intellekt bergan javobni matematik qoidalar, hisoblashlar va boshqa yechish usullari orqali tekshirishga o‘rgatilishi kerak. O‘qituvchining nazoratini saqlash. Sun’iy intellekt yordamida yaratilgan barcha o‘quv materiallari darsda qo‘llashdan oldin o‘qituvchi tomonidan tekshirilishi zarur.

Amaliy natijalarni baholash. Texnologiyaning samaradorligi faqat o‘quvchilarning darsga qiziqishi bilan emas, balki mavzuni tushunishi, mustaqil masala yechishi va o‘z bilimini izohlashi orqali ham baholanishi lozim.

Ushbu tavsiyalarni amaliyotga tatbiq etish sun’iy intellektdan ongli va maqsadli foydalanishga yordam beradi.

XULOSA

Sun’iy intellekt texnologiyalari zamonaviy matematika ta’limini takomillashtirish uchun muhim imkoniyatlar yaratmoqda. Ulardan foydalanish orqali o‘quv materiallarini turli murakkablik darajalarida tayyorlash, matematik masalalarni turlicha tushuntirish, o‘quvchilarning xatolarini tahlil qilish va mustaqil ta’limni qo‘llab-quvvatlash mumkin.

Shu bilan birga, sun’iy intellektning mavjud cheklovlarini ham hisobga olish zarur. Noto‘g‘ri javoblar, tayyor yechimlarga ortiqcha tayanish, raqamli imkoniyatlardagi farqlar va shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligi masalalari ushbu texnologiyadan foydalanishda alohida e’tibor talab qiladi.

Matematika ta’limida sun’iy intellektdan foydalanishning asosiy tamoyili texnologiyani o‘qituvchining o‘rnini bosuvchi vosita sifatida emas, balki o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi yordamchi sifatida ko‘rishdan iborat.

Shunday qilib, sun’iy intellektning pedagogik imkoniyatlaridan oqilona foydalanish matematika fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirishga xizmat qilishi mumkin. Biroq uning o‘quvchilarning bilim darajasi va matematik tafakkuriga haqiqiy ta’sirini aniqlash uchun nazorat qilinadigan amaliy tadqiqotlar o‘tkazish, olingan natijalarni tahlil qilish va ilmiy dalillar asosida xulosa chiqarish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

[1]. Holmes W., Bialik M., Fadel C. Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019.

[2]. UNESCO. Artificial Intelligence in Education: Challenges and Opportunities for Sustainable Development. Paris, 2021.

[3]. Anderson J., Rainie L. The Future of AI in Education. Washington: Pew Research Center, 2018.

[4]. Rakhmonova N.V. The Importance of Artificial Intelligence Systems in Teaching Mathematics. International Journal of Artificial Intelligence, 2025, pp.1480–1485.

[5]. Sultonova Sh.Y. Sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda matematika ta’limini individuallashtirish metodikasi. Yangi izlanuvchi, 2026.

[6]. Ayupov R.H., Tursunov S.Q. Using artificial intelligence methods and tools in education. Modern Problems and Prospects of Applied Mathematics, 2024. [7].Zokirov A.A. Raqamli ta’lim muhitida kompetensiyaviy yondashuv asoslari. Toshkent: Fan, 2022.

ОБЗОР ТЕХНОЛОГИЙ СВЯЗИ МАЛЫХ СПУТНИКОВ CUBESAT: РАДИОЧАСТОТНЫЕ И ОПТИЧЕСКИЕ СИСТЕМЫ

Ш.Ш. Абдукаримов
Магистрант 1-го курса
Ташкентский университет информационных технологий
abdshukurzhon@gmail.com

Аннотация. *Рассмотрены радиочастотные (RF) и оптические (FSO) технологии связи малых спутников CubeSat для линий спутник–Земля и межспутниковых каналов. По научным публикациям, материалам NASA, МСЭ и CCSDS сопоставлены архитектуры, рабочие диапазоны, достигнутые и проектные скорости передачи. Показано, что RF-системы остаются рациональным выбором для телеметрии и управления, а оптические каналы позволяют передавать большие объёмы данных, но требуют точного наведения. Обоснована необходимость совместной оценки энергетического бюджета, расходимости пучка и остаточной ошибки наведения при проектировании межспутниковой оптической линии.*

Ключевые слова: *CubeSat, наноспутник, спутниковая связь, радиочастотная связь, лазерная связь, межспутниковая линия, FSO, PAT, наведение.*

Abstract. *The paper reviews radio-frequency (RF) and free-space optical (FSO) communication technologies of CubeSat small satellites for satellite-to-ground and inter-satellite links. Based on scientific publications and NASA, ITU and CCSDS materials, architectures, operating bands and achieved and design data rates are compared. RF systems are shown to remain a rational choice for telemetry and control, whereas optical links enable the transfer of large data volumes but require precise pointing. The need for a joint assessment of the link budget, beam divergence and residual pointing error in the design of an inter-satellite optical link is substantiated.*

Keywords: *CubeSat, nanosatellite, satellite communication, RF communication, laser communication, inter-satellite link, FSO, PAT, pointing.*

1. ВВЕДЕНИЕ

Форм-фактор CubeSat ограничивает объём, электрическую мощность, площадь апертур и отвод тепла, поэтому выбор способа

передачи данных определяет архитектуру всего аппарата [1–3]. Канал связи решает три задачи: приём команд (uplink), передачу телеметрии и целевых данных (downlink) и обмен между аппаратами (crosslink). Для них применяются радиочастотные (RF) и оптические (FSO) технологии, различающиеся спектром, направленностью излучения, требованиями к наведению и зрелостью [1]. Цель работы – сопоставить возможности RF- и FSO-систем малых спутников и выделить факторы, существенные для проектирования межспутниковой оптической линии между наноспутниками.

2. МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ

Источниками служили научные публикации, документы NASA, ITU и CCSDS. Поиск выполнен в Google Scholar и на сайтах NASA, ITU, CCSDS и репозитория MIT за 2018–2026 гг. по запросам CubeSat communication, optical crosslink, free-space optical communication, inter-satellite link, pointing acquisition tracking. Отбирались работы с количественными характеристиками линий (скорость, дальность) и указанием статуса результата. Орбитальные эксперименты, наземные испытания и проектные значения разделены, поскольку их прямое сопоставление некорректно.

3. РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ

Радиочастотные системы. Для служебных каналов исторически использовались диапазоны VHF/UHF, для передачи больших объёмов данных – S-, X- и Ka-диапазоны [1, 3]. Современные трансиверы строятся на программно-определяемых радиосистемах (SDR) с модуляциями BPSK/QPSK и кодами LDPC; параметры выбираются как компромисс между скоростью, мощностью и массогабаритами [2]. Преимущества RF – зрелость и развитая практика TT&C; ограничения – распределение частот, координация и риск помех [3]. Каталожные скорости устройств не следует приравнивать к достигнутым на орбите [1].

Оптические системы. Типичный терминал включает оптический модем, лазерный передатчик, оптическую головку, приёмник с фотодетектором и систему наведения, захвата и сопровождения (PAT) [1, 4]. Малая расходимость пучка даёт высокую плотность мощности у приёмника, но требует точного совмещения осей; в проекте CLICK-B/C для этого изучаются MEMS-зеркало и замкнутые контуры управления [4]. Эксперимент TBIRD подтвердил передачу 200 Гбит/с со спутника 6U на Землю (4,8 ТБ за 5 мин без ошибок) [5], но этот результат нельзя переносить на межспутниковые терминалы. Для CLICK-A подтверждены

захват наземного маяка и точное наведение, а скорость 10 Мбит/с остаётся проектной [6]; для CLICK-B/C заявлено около 20 Мбит/с на дальностях 25–580 км, и это не подтверждённый орбитальный результат [1, 4, 7, 8]. Подтверждённой межспутниковой демонстрацией является Flashlight (Aerospace Corporation, 2025): между двумя CubeSat 6U на расстоянии до 560 км получено 312,5 Мбит/с без коррекции ошибок и 25 Мбит/с при безошибочной передаче [9]; для CubeISL выполнено наземное испытание на 143 км [10]. Сводка приведена в таблице 1.

Таблица 1 – Примеры RF- и FSO-систем с разделением проектных параметров и подтверждённых результатов

Система	Тип линии	Показатель	Статус и источник
ISARA (NASA)	RF, Ka; спутник–Земля	Более 100 Мбит/с	Орбитальная демонстрация [1]
OCSD-B/C	FSO; спутник–Земля	200 Мбит/с	Орбитальная демонстрация [1]
TBIRD	FSO; спутник–Земля	200 Гбит/с; 4,8 ТБ за 5 мин	Орбитальная демонстрация [5]
CLICK-A	FSO; спутник–Земля	Цель 10 Мбит/с	Наведение продемонстрировано; скорость проектная [6]
CLICK-B/C	FSO; спутник–спутник	Цель 20 Мбит/с; 25–580 км	Проектные характеристики [1, 4, 7, 8]
CubeISL	FSO; спутник–спутник	Цель 100 Мбит/с; до 1000 км	Наземное испытание на 143 км [1, 10]
Flashlight	FSO; спутник–спутник	312,5 Мбит/с (без FEC); 25 Мбит/с без ошибок	Орбитальная демонстрация 2025 г. [9]

Сопоставление. Выбор технологии определяется задачей миссии, а не рекордной скоростью: для телеметрии и управления RF остаётся рациональным выбором, FSO оправдана при больших объёмах данных [1, 2]. У оптического downlink добавляются облачность и турбулентность; в межспутниковой линии атмосферы нет, но сохраняются требования к сопровождению, компенсации относительного движения, учёту солнечной засветки и вибраций [4, 11]. Частотная координация к лазерному лучу не применяется, однако действуют правила лазерной безопасности [1, 3]; унифицированные подходы к физическому уровню и кодированию оптической связи закреплены в стандартах CCSDS 141.0-B-2 и 142.0-B-2 [12, 13].

Расходимость пучка и ошибка наведения. Для межспутниковой FSO-линии ключевым является компромисс между расходимостью и ошибкой наведения: узкий пучок даёт выигрыш при идеальном наведении, но теряет устойчивость к погрешностям, широкий – наоборот. Для гауссова пучка в дальней зоне доля мощности, принимаемая апертурой площадью A на дальности R при угловом смещении оси δ, равна

$$G = 2A / (\pi\theta^2 R^2) \cdot \exp(-2\delta^2 / \theta^2), \quad (1)$$

где θ – полуугол расходимости по уровню $1/e^2$ по интенсивности. Модель справедлива при $A \ll \pi\theta^2 R^2$ и не учитывает потери в оптическом тракте, эффективность приёмника и дифракционный предел [11]. Для фиксированного δ максимум G достигается при $\theta = \sqrt{2}\cdot\delta$, при этом $G_{max} = A / (\pi\cdot e\cdot\delta^2 R^2)$. Расчёт для R = 100 км (в диапазоне 25–580 км для CLICK-B/C) и апертуры 25 мм (рисунок 1) показывает: при δ = 50 мкрад пучок с θ = 100 мкрад даёт около −57 дБ, а с θ = 25 мкрад – около −78 дБ, то есть хуже примерно на 21 дБ, хотя при идеальном наведении он выигрывает у широкого около 12 дБ. Расчёт иллюстративен и не относится к конкретному терминалу.



Рисунок 1 – Зависимость геометрического коэффициента передачи от ошибки наведения при различной расходимости пучка (формула (1); R = 100 км, диаметр апертуры 25 мм)

4. ЗАКЛЮЧЕНИЕ

RF- и оптические средства связи следует рассматривать как взаимодополняющие технологии: RF подходит для служебных задач и умеренных скоростей, а FSO уже продемонстрировала высокоскоростную передачу как на Землю, так и между CubeSat, но осложнена требованиями к наведению и сопровождению [1, 5, 9]. Сопоставление систем по единичным максимальным скоростям

некорректно без указания назначения линии, дальности и статуса демонстрации. Наиболее значимым направлением представляется расчёт энергетического бюджета с учётом расходимости пучка и ошибки наведения, в частности определение оптимальной расходимости при случайной ошибке наведения для линии между двумя наноспутниками.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

[1] NASA. State-of-the-Art of Small Spacecraft Technology. Ch. 9: Communications. 18 May 2026. https://www.nasa.gov/smallsat-institute/sst-soa/soa-communications/

[2] Zeedan A., Khattab T. CubeSat Communication Subsystems: A Review of On-Board Transceiver Architectures, Protocols, and Performance // IEEE Access. 2023. Vol. 11. P. 88161–88183. DOI: 10.1109/ACCESS.2023.3304419.

[3] ITU-R. Handbook on Small Satellites. 2023 edition. Geneva: ITU. https://www.itu.int/pub/R-HDB-65-2023

[4] Forester P. Precision Pointing for the CubeSat Laser Infrared CrosslinK (CLICK) Mission. Master's thesis. MIT, 2025. https://hdl.handle.net/1721.1/158924

[5] Schieler C.M. et al. Operations and Results from the 200 Gbps TBIRD Laser Communication Mission. NASA NTRS, 2023. NTRS 20230007959.

[6] Kammerer W., Grenfell P., Harburg J., et al. CLICK-A: Optical Communication Experiments from a CubeSat Downlink Terminal. Small Satellite Conference, 2023.

[7] Serra P.C., Tomio H., Čierny O., et al. CubeSat laser infrared crosslinK mission status // ICSO 2020. SPIE, 2021. DOI: 10.1117/12.2599543.

[8] NASA. CubeSat Laser Infrared CrosslinK (CLICK) mission. https://www.nasa.gov/mission/click

[9] The Aerospace Corporation. The Aerospace Corporation Performs Optical Crosslinks Between CubeSats for the First Time. 27 February 2025. https://aerospace.org/press-release/aerospace-corporation-performs-optical-crosslinks-between-cubesats-first-time

[10] Nonay J.R., Rüddenklau R., Sinn A., et al. Horizontal free-space optical link with CubeISL over 143 km // J. Opt. Commun. Netw. 2024. Vol. 16, No. 5. P. 593–601. DOI: 10.1364/JOCN.518271.

[11] Kaushal H., Kaddoum G. Optical communication in space: challenges and mitigation techniques // IEEE Commun. Surveys & Tutorials. 2017. Vol. 19, No. 1. P. 57–96.

[12] CCSDS. Non-Coherent Optical Communications Physical Layer. CCSDS 141.0-B-2. Blue Book. March 2026.

[13] CCSDS. Non-Coherent Optical Communications Coding and Synchronization. CCSDS 142.0-B-2. Blue Book. March 2026.

3-SECTION

O‘ZBEKISTON SSRDA OLIY TIBBIY TA’LIM TARIXI: ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI TAJRIBASI (1955–1960-YILLAR)

Dilnoza Axmadjonova Azamjonovna
Andijon viloyati Pedagogik Mahorat markazi o‘qituvchisi
dilnozaaxmadjonova204@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Sovet davrida O‘zbekiston SSRda oliy ta’lim tizimining rivojlanish jarayonlari, xususan, Farg‘ona vodiysida tibbiy kadrlar tayyorlash markazlarining tashkil etilishi Andijon davlat tibbiyot instituti misolida tahlil qilingan. 1955-yilda institutning tashkil etilishi, uning dastlabki moddiy-texnik bazasining shakllanishi, professor-o‘qituvchilar va talabalar kontingentining milliy hamda ijtimoiy tarkibi yoritilgan. Shuningdek, sovet hokimiyatining kadrlar siyosati, hududiy sog‘liqni saqlash tizimini malakali mutaxassislar bilan ta'minlashdagi institutning o‘rni va muammoli jihatlari arxiv hujjatlari hamda statistik ma'lumotlar asosida ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *O‘zbekiston SSR, oliy ta'lim, Andijon davlat tibbiyot instituti, tibbiy kadrlar, Farg‘ona vodiysi, sovet davri, o‘quv jarayoni, ilmiy salohiyat.*

Abstract: *This article analyzes the development of the higher education system in the Uzbek SSR during the Soviet period, specifically focusing on the establishment of medical training centers in the Fergana Valley through the case study of the Andijan State Medical Institute. The study examines the founding of the institute in 1955, the formation of its initial material and technical base, as well as the national and social composition of its faculty and student body. Furthermore, utilizing archival documents and statistical data, the paper highlights the personnel policy of the Soviet authorities, the institute's role in supplying the regional healthcare system with qualified specialists, and the challenges encountered during this period.*

Keywords: *Uzbek SSR, higher education, Andijan State Medical Institute, medical personnel, Fergana Valley, Soviet period, educational process, scientific potential.*

KIRISH

Sovet davrida O‘zbekiston SSRda oliy ta’lim tizimining rivojlanishi, uning hududiy tarmoqlarining kengayishi hamda respublika mintaqalarida yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash jarayoni o‘zbekistonlik

tadqiqotchilar uchun har doim dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib kelgan. Urushdan keyingi davrda, xususan, 1950-yillarning o‘rtalaridan boshlab iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning jadal rivojlanishi mamlakatda mutaxassis kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni keskin oshirdi. Ayniqsa, respublikaning eng zich aholi yashaydigan hududlaridan biri bo‘lgan Farg‘ona vodiysida aholiga malakali tibbiy yordam ko‘rsatish va sog‘liqni saqlash tizimini zamonaviy kadrlar bilan ta’minlash davrning ustuvor vazifalaridan biriga aylandi. Shu nuqtai nazardan, 1955-yilda tashkil etilgan Andijon davlat tibbiyot institutining faoliyati va uning shakllanish tarixini ilmiy jihatdan tadqiq etish mintaqaviy sog‘liqni saqlash va oliy tibbiy ta’lim tizimining sovet davridagi taraqqiyot bosqichlarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi — 1955–1991-yillarda O‘zbekiston SSRda oliy tibbiy ta’lim tizimining rivojlanish xususiyatlarini Andijon davlat tibbiyot instituti misolida ochib berishdan iborat.

Tadqiqotni yoritishda tarixiy-xronologik, qiyosiy-tahliliy, mantiqiylik hamda statistik tahlil tamoyillaridan foydalanildi. Ishning manbalar bazasini O‘zbekiston SSR davlat idoralari qarorlari, ta’lim vazirligining buyruqlari, arxiv hujjatlari materiallari hamda davriy matbuot sahifalarida e’lon qilingan ma’lumotlar tashkil etadi.

Maqolada arxiv materiallari va statistik ko‘rsatkichlar asosida Farg‘ona vodiysida yagona ixtisoslashtirilgan oliy tibbiyot ta’lim o‘chog‘ining noldan boshlab shakllanish bosqichlari, mintaqaviy kadrlar siyosatining o‘ziga xos xususiyatlari hamda sovet davri ta’lim tizimining yutuqlari va ziddiyatlari Andijon davlat tibbiyot instituti misolida kompleks ravishda ochib berilgan.

ASOSIY QISM

Urushdan keyingi davrda O‘zbekiston SSRda xalq xo‘jaligining jadal rivojlanishi, aholi sonining o‘sishi hamda sog‘liqni saqlash tizimining kengayishi respublikada yuqori malakali tibbiyot kadrlariga bo‘lgan ehtiyojni keskin oshirdi. Xususan, respublikaning eng yirik va zich aholi yashaydigan mintaqalaridan biri bo‘lgan Farg‘ona vodiysida tibbiyot muassasalarini malakali mutaxassislar bilan ta’minlash eng muhim masalalardan biri edi. Shu bois, O‘zbekiston SSR Hukumatining 1955-yil 6-sentabrda qabul qilgan tegishli qarorlariga asosan Andijon shahrida oliy o‘quv yurti — Andijon davlat tibbiyot instituti tashkil etildi.

Institutning ochilishi Farg‘ona vodiysi (Andijon, Farg‘ona va Namangan viloyatlari) aholisiga ko‘rsatiladigan tibbiy xizmat sifatini tubdan yaxshilash, shuningdek, mahalliy yoshlar orasidan milliy tibbiyot kadrlarini tayyorlashda

tarixiy qadam bo‘ldi. Dastlabki yillarda institut o‘z faoliyatini cheklangan imkoniyatlar va murakkab moddiy-texnik sharoitda boshladi.

Dastlab Toshkent tibbiyot institutining 5 nafar xodimi Andijon shahriga tibbiyot institutini ochish ishlariga ko’maklashish maqsadida tashrif buyurdilar. Yuborilgan ushbu shaxslar tashabbusi bilan 1955 yil 20-sentabrdan 15-oktabr kunlari oralig’ida institute uchun ajratilgan bino nazoratdan o‘tkazildi, institut faoliyatini yo’lga qo’yish uchun kerakli bo’lgan jihozlar va uskunalarga buyurtmalar berildi. Institut tarkibiy tuzilmasiga kiradigan kafedralar ishlari yo’lga qo’yilib, talabalar qabuli bo’yicha kerakli chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

Ushbu institutning birinchi rahbari etib U.A.Alimov ta’yinlandi, professor-o‘qituvchilar uchun 23 ta, xo‘jalik ishlar uchun esa 15 ta shtat ajratildi. Institutning birinchi yildagi talabalarni qabul qilish uchun kirish imtixonlari 27-sentabrdan 8-oktabrgacha o‘tkazilib, qabul qilingan 1053 nafar talabgorlardan 256 nafari talabalikka qabul qilindi. O‘quv yilining birinchi darsi 1955-yil 15-oktabrdan boshlandi. Instutning kafedralari o‘z faoliyatini partiya komitetining sobiq bino-sida, o‘quv binosi esa viloyat pedagogika bilim yurtining yotoqxonasiga joylashtirildi.

Tashkil etilganligining dastlabki davrlarida institute oldida bir qancha muommolar kelib chiqdi. Dastlabki eng asosiy muommolardan biri bu – o‘zbek tilida dars olib boruvchi pedagog kadrlarning yetishmasligi edi. Bundan tashqari darslik muommolarini bartaraf etish maqsadida Andijon tibbiyot institute kutubxonasiga 75 ming rubllik adabiyotlar ajratildi. Toshkent, Samarqand tibbiyot institute va Toshkent Farmatsevtika institutlari ham darslik masalasida o‘z amaliy yordamlarini berib keldilar. Yuqorida keltirilib o‘tilgan kamchiliklar albatta talabalarning o’zlashtirish ko‘rsatkichiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Misol uchun 1955-1956-o‘quv yilining qishki sessiyasida Andijon davlat institutida ta’lim olayotgan 272 nafar talabadan 225 nafari o‘quv rejasidagi fanlardan imtixonlarni topshira oldi, qolgan 47 nafar talaba esa turli sabablarga ko’ra fanlarni o‘zlashtira olmagan.

Andijon tibbiyot institutida kadrlar muommosi har davrda eng katta masala bo’lib qolaverdi. 1961-yil institut kafedralarida 28 ta bo‘sh ish o‘rinlari mavjud-ligi aniqlandi. Kafedra professor va fan doktorlari uchun ajratilgan 15 ta o‘rinni 7 tasi band edi halos. 198 nafar professor-o‘qituvchidan 132 nafari assisent o‘qituvchilarni tashkil etar edi.

1962-yili Andijon Tibbiyot institutini 265 nafar mutaxassis tamomlab, davolash muassasalariga ishga yuborildi. Ammo ayrim hollarda kadrlar yo‘llanma bilan yuborilgan joylarga emas, balki boshqa joylarga borib ishlar edilar.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, 1955-1960-yillarda O‘zbekiston SSRda oliy tibbiy ta’lim tizimining rivojlanishi va uning hududiy markazlaridan biri bo‘lgan Andijon davlat tibbiyot institutining tashkil etilib, shakllanishi sovet davri kadrlar siyosatining muhim va ziddiyatli bosqichlarini yaqqol namoyon etadi. Arxiv hujjatlari va statistik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, institutning ochilishi Farg‘ona vodiysida nafaqat tibbiy kadrlar yetishmovchiligini bartaraf etishda, balki mintaqaning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida ham hal qiluvchi burilish nuqtasi bo‘ldi.

Tadqiqot davomida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

- Infratuzilma va moddiy baza: Institut o‘z faoliyatining dastlabki yillarida keskin moddiy-texnik qiyinchiliklar va o‘quv binolari yetishmasligiga qaramay, hukumat qarorlari va respublikaning markaziy ilmiy muassasalarining ko‘magi bilan qisqa muddatda o‘zining zamonaviy o‘quv korpuslari hamda shahar tibbiyot muassasalariga tayangan mustahkam klinik bazalarini shakllantira oldi.

- Kadrlar salohiyati va milliy tarkib: Dastlabki davrda Toshkent va SSSRning boshqa yirik markazlaridan kelgan tajribali professor-o‘qituvchilar asosiy ilmiy poydevorni yaratgan bo‘lsalar, keyingi yillarda mahalliy yosh mutaxassislar hisobiga ilmiy salohiyat jadal o‘sdi. Talabalar kontingentida milliy kadrlar, shu jumladan xotin-qizlar ulushining bosqichma-bosqich ortishi mintaqada milliy ziyolilar qatlamining kengayishiga xizmat qildi.

- Mintaqaviy sog‘liqni saqlashga ta’siri: Andijon davlat tibbiyot institutining bitiruvchilari Farg‘ona vodiysining barcha tuman va qishloqlaridagi davolash-profilaktika muassasalarini malakali shifokorlar bilan ta’minlab, aholiga ko‘rsatiladigan tibbiy xizmat sifatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tardilar. Shuningdek, institut qoshida shakllangan ilmiy maktablar amaliy tibbiyotning dolzarb muammolarini hal etishga salmoqli hissa qo‘shdi.

Umuman olganda, sovet davrining mafkuraviy tazyiqlari va markazlashgan rejalashtirish tizimining cheklovlariga qaramay, Andijon davlat tibbiyot instituti o‘zining ilmiy, ta’limiy va amaliy faoliyati orqali O‘zbekiston SSR oliy ta’lim tarixida chuqur iz qoldirdi va bugungi kunda mustaqil O‘zbekistonda yanada rivojlanib borayotgan yirik tibbiyot ilm-fan markazlaridan biri uchun mustahkam poydevor vazifasini o‘tadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

I. Rasmiy arxiv hujjatlari va manbalar

O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivi (O‘zR MA). 96-fond, 1-ro‘yxat, 39-jild, 4–9-varaqlar.

Andijon viloyati Davlat arxivi. 650-fond, 1-ro‘yxat, 10-jild, 4, 5–6, 11–14, 17–19-varaqlar.

Andijon viloyati Davlat arxivi. 650-fond, 1-ro‘yxat, 160-jild, 95-varaq.

II. Dissertatsiyalar va avtoreferatlar

Muminova, G. E. (2018). O‘zbekistonda sovet davrida sog‘liqni saqlash tizimi tarixi (1917–1991-yillar). Tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti. Toshkent.

III. Ilmiy maqolalar va monografiyalar

Alimov, I. A. (2010). O‘zbekiston SSRda oliy ta’lim tizimining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari (1945–1991). Toshkent: Fan va texnologiya.

Ziyayev, H. Z. (2005). Respublikada kadrlar siyosati va uning natijalari (urushdan keyingi davr misolida). O‘zbekiston tarixi jurnali, 3-son, 45–52-betlar.

Qodirov, M. K. (2015). Farg‘ona vodiysida oliy o‘quv yurtlarining tashkil etilishi va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. Andijon: O‘qituvchi nashriyoti.

Rajabov, Q. E. (2012). Sovet davri O‘zbekiston madaniy hayoti tarixi. Toshkent: Akademnashr.

MUSTAQILLIK YILLARIDA JIZZAX VILOYATI BAXMAL TUMANIDA TIBBIYOT SOHASIDAGI O‘ZGARISHLAR VA HUDUDDA YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA ISLOHOTLARNING NATIJALARI

Jo‘raqulova Nurmohi Ne’matulla qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti
jurokulovanur@gmail.com

Annotatsiya. *Baxmal – Jizzax viloyatida joylashgan tumanlardan biri bo‘lib, mazkur maqolada Baxmal tumanida tibbiyot sohasida mustaqillikdan so‘ng amalga oshirilgan tadbirlar, hududda aynan tibbiyot sohasida yuzaga kelayotgan muammolar hamda ularni bartaraf etish usullari o‘rganiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi aholi orasida tarqalishi ko‘p kuzatilayotgan kasalliklar omillarini aniqlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish uchun talab qilinadigan profilaktika ishlarining samaradorligini baholashdan iborat.*

Annotation. *Bakhmal is a district located in the Jizzakh region. This article examines the initiatives implemented in the healthcare sector of the Bakhmal district since independence, the specific challenges arising within this field in the area, and methods for addressing them. The primary objective of the research is to identify the factors contributing to the prevalence of common diseases among the population and to evaluate the effectiveness of preventive measures aimed at protecting maternal and child health.*

Kalit so‘zlar. *Salomatlik, shifokor, dori-darmon, tibbiy ko‘riklar, sog‘liqni saqlash, onalik va bolalik.*

Keywords*. Health, doctor, medicines, medical check-ups, healthcare, motherhood and childhood.*

KIRISH

Salomatlik – aholi rivojlanishi, yuqori salohiyat va savodxonlik darajasiga erishishi uchun asosiy omil bo‘lib xizmat qilib keladigan faktorlardan biri sanaladi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng aholi orasida avvalo salomatlik darajasini oshirishga alohida e’tibor qaratib kelmoqda. Bu borada hukumat tomonidan turli qaror va farmoyishlar e’lon qilinib keladi. Xususan, Baxmal tumanida ushbu soha qay holatda bo‘lganligi asosan mahalliy gazeta, arxiv materiallari va Respublikada hamda hududda chiqarilayotgan qonun va qarorlar ijrosini tahlil qilish asosida o‘rganiladi.

Tadqiqotda tahlil va qiyosiy o‘rganish usullaridan foydalanish nazarda tutilgan. Olingan natijalar asosida aholi salomatlik darajasini oshirishga, aholi uchun kerakli kadrlarni ta’minlashga, turli kasalliklarning o‘z vaqtida oldini olishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqiladi.

ASOSIY QISM

Mustaqillikning dastlabki yillarida Baxmal tumani Bog‘ishamol qishloq hududida 7300 ga yaqin odam yashagan va ikki joyda feldsherlik-akusherlik punkti, bir joyda qishloq vrachlik ambulatoriyasi, bitta apteka hamda, tish kasalliklarini davolash xonasi aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatgan. Bu davolash maskanlarida 15 ga yaqin oliy va o‘rta maxsus ma’lumotli mutaxassislar ishlagan[1].

Mutaxassislar mehnati samarasida hudud aholisi o‘rtasida sariq kasalligi, o‘tkir ichak kasalliklari kamaygan. Ayniqsa bir yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘rtasida yuqumli kasalliklar ko‘p bo‘lishi e’tiborga olinib, onalar bilan muntazam suhbatlar o‘tkazilgan. Lekin salomatlik borasida qabul qilingan qarorlarni bajarishda qiyinchiliklar yuzaga kelgan. Avvalo ayrim mas’uliyatsiz rahbarlarning aybi bilan qishloqlarni ichimlik suvi bilan ta’minlash ishlari surunkali ravishda nihoyasiga yetkazilmagan.

1990-1991- yillarda yuz ming so‘mlik suv quvurlari yotqizilib, ishga tushirish rejalashtirilgan[2] ammo uzoq vaqt quvur yo‘q, mablag‘ yetishmaydi, degan bahonalar aytib kelingan.

Michurin nomli davlat xo‘jaligi ma’muriyati va boshqa mutasaddi tashkilotlar aholini ichimlik suvi bilan ta’minlashga kam ahamiyat bergan. Ekologik vaziyatning salbiy hodisalari tufayli quduq suvlarining iste’molga yaroqli yo yaroqsizligi noma’lum bo‘lib qolgan.

Qishloqlarda ko‘plab yechimini kutayotgan muammolar mavjud bo‘lib, 800-1000 aholiga bitta shifokor talab etilsa-da, 7300 kishiga ikki nafar shifokor xizmat ko‘rsatgan. Natijda ular samarali ish qila olmagan, natijada ular aholi nazarida bilimsiz, o‘quvsizdek ko‘ringan.

Shifokorlarlar sonini ko‘paytirmasdan, ularni mablag‘, dori-darmon, shart-sharoitlar bilan ta’minlamasdan turib, tibbiy xizmatni yaxshilashni imkoni yo‘q.

Mustaqillikning keyingi yillarida bu kabi islohotlarni kengaytirish maqsadida Jizzax viloyati hokimining 1993-yil 28-oktabr 383-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining uch yilligiga bag‘ishlangan “Mustaqillik, ekologiya va xalq salomatligi” ko‘rik tanlovini o‘tkazish

[1] “Baxmal, sog‘liq qalay ?”//Baxmal hayoti gazetasi № 145(2952) 1991-yil, 3-bet.
[2] “Baxmal, sog‘liq qalay ?”//Baxmal hayoti gazetasi № 145(2952) 1991-yil, 3-bet

to‘g‘risida”gi[3] farmoyishini bajarish, tumanda sanitariya-epidemiologik holatni yaxshilash, sog‘lom turmush-tarzini aholi o‘rtasida keng targ‘ib etish maqsadida tuman ishchi guruhi va tadbirlar dasturi tasdiqlangan.

Xalq deputatlari qishloq Kengashlari hamda xo‘jalik tashkilotlarida ko‘rik-tanlovni o‘tkazish uchun ishchi guruhlari tashkil qilingan va dasturlar tuzilib, ko‘rik-tanlov o‘tkazishning hamma bosqichlariga sanitariya-gigena, ekologiya, tibbiy profilaktika va obodonchilik tadbirlarini hal qilish uchun qulay sharoit qilingan, g‘oliblarni aniqlanib tuman viloyat ko‘rik tanloviga taqdim etilgan, bu borada ommaviy axborot vositalari, kasaba uyushmalari, yoshlar qo‘mitasi va jamoatchilik keng jalb etilgan.

Ekologiya va salomatlik kunlari obodonlashtirish bo‘yicha hasharlar, eng yaxshi qishloq, hovli va oila uchun ko‘riklari o‘tkazilgan[4].

Jizzax viloyati hokimining 1993-yil 29-oktabr 219-sonli “Sog‘lom avlod uchun” xalqaro xayriya jamg‘armasi viloyat bo‘limini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarorini bajarish maqsadida hukumatga qarashli bo‘lmagan “Sog‘lom avlod uchun” xalqaro xayriya jamg‘armasi tuman bo‘limi tashkil etilgan. Tuman bo‘limini tuzish bo‘yicha tashkiliy qo‘mita tarkibi tasdiqlangan. Tuman xokimining muovini B.Omonovga onalik va bolalikni muhofaza qilish muammolariga muhim e’tiborni qaratgan holda tuzilajak fondning faoliyatini yaxshilashga bevosita rahbarlik qilish topshirilgan[5].

Onalik va bolalikni, nafaqaxo‘rlar va nogironlarni ijtimoiy himoya qilish hamda sog‘liqni muhofaza qilishda tuman ijtimoiy ta’minot bo‘limi va sog‘liqni saqlash muassasalarining olib borayotgan ishlari to‘g‘risida Baxmal tuman hokimligi qayd qilishicha, tuman markaziy shifoxonasi Jumxuriyat Birinchi Prezidenti farmoniga asosan onalar va bolalar sog‘lig‘ini muhofaza qilishda ko‘zga ko‘rinadigan ishlar olib borilgan. Tuman markaziy kasalxonasi qoshida ayollar ro‘zg‘ordan ajralmagan holda davolanishi uchun 20 o‘rinli kunduzgi statsionar, tuman bo‘yicha esa, jami 100 o‘rinli shunday statsionarlar ochilgan. Olib borilgan ishlar natijasida onalar o‘limi kamaygan. 1991-yilda 6 ta onalar o‘limi qayd qilingan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 1992-yilda 1 tani, 1993-yilning besh oyi mobaynida 1 tani tashkil etgan. Lekin, shunga qaramay bolalar o‘limi yildan-yilga ko‘paygan. 1991-yilda bolalar o‘limi 32,7 promilli bo‘lgan, 1992-yilda esa 56,8 promilli, 1993-yilning beshinchi oyi mobaynida 24,1 promilli tashkil etgan.

[3] G‘allaorol tuman arxivi.M- Fond-401, ro‘yxat-1, saqlash birligi - 48, 155 varoq, 37-bet.
[4] G‘allaorol tuman arxivi.M- Fond-401, ro‘yxat-1, saqlash birligi - 48, 155 varoq, 37-bet.
[5] G‘allaorol tuman arxivi.M- Fond-401, ro‘yxat-1, saqlash birligi -40, 150 varoq, 79-bet.

Jumxuriyat Birinchi Prezidenti farmoniga asosan, kamqon, kamdarmonli homilador ayollarga oziq-ovqat mahsulotlari berish uchun 1992-yilda 3651 ta oziq-ovqat uchun talon tarqatilgan. Bu 429819 so‘m 99 tiyinni tashkil etgan. 1993-yilning 5-oyi mobaynida kamqonli, kamdaromadli homilador ayollar uchun 711260,00 so‘mlik bepul oziq-ovqat va 35000,00 so‘mlik bepul dori-darmonlar berilgan. 2yoshgacha bo‘lgan bolalarga esa 41332100 so‘mlik oziq-ovqat mahsulotlari berilgan[6].

Barcha yolg‘iz nafaqaxo‘rlarga doimiy ravishda tibbiy yordam ko‘rsatish uchun tuman qizil yarim oy jamiyati tomonidan tibbiy hamshiralar berkitilgan, tuman ijtimoiy ta’minot bo‘limi xodimlari tez-tez ularning uylarida bo‘lishib, moddiy-maishiy ahvolidan xabar olib turishgan.

Tumanda aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatishda ham bir muncha ishlar amalga oshirilgan. Bolalar o‘lmini o‘tgan yilga nisbatan 30 promilliy kamaygan. 1992-yilda bu ko‘rsatgich 57 promilliy bo‘lgan bo‘lsa, bu yilgi yakun 27 promilli teng bo‘lgan. Sog‘liqni saqlash ishlari yaxshilangan, ularga 2 million so‘mlik tibbiyot asbob-uskunalari va jihozlar olib berilgan. Ichterlama, o‘tkir oshqozon ichak kasalliklari kamaytirilgan. Markaziy dorixona qoshida giyohlar sharbati tayyorlovchi bo‘lim ochilgan[7].

O‘zbekiston Respublikasi nogironlarni himoya qilish to‘g‘risida qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 17-iyun 328-sonli “O‘zbekiston Respublikasi nogironlarni ijtimoiy himoyalash masalalari” to‘g‘risidagi[8] qaroriga hamda Jizzax viloyat hokimligining 1994-yil 197-sonli “Nogironlikni oldini olish, nogironlarni tibbiy, mehnat va ijtimoiy reabilitatsiyalashning viloyat darsturi” rahbarlik va ijro etish uchun qabul qilingan.

Nogironlikni oldini olish, nogironlarni tibbiy, mehnat va ijtimoiy reabilitatsiyalashning 1994-2000-yillariga mo‘ljallangan tuman dasturi tasdiqlangan.

Baxmal tumanida 1994-2000-yillarda nogironlikning oldini olish, nogironlarni tibbiy mehnat va ijtimoiy reabilitatsiyalash dasturiga ko‘ra:

- har bir kasalxona, shifokor ambulatorlari, feldsherlik punktlari bo‘yicha tez-tez va surunkali kasallanib turadigan fuqorolar aniqlangan, ularning davolanishlari ustidan nazorat o‘rnatilgan;

[6] G‘allaorol tuman arxivi.M- Fond-401, ro‘yxat-1, yig‘ma jild-36, 132 varoq, 46-47-betlar.
[7] G‘allaorol tuman arxivi.M- Fond-401, ro‘yxat-1, yig‘ma jild-31, 63 varoq, 22-34-betlar.
[8] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 17-iyun 328-sonli “O‘zbekiston Respublikasi nogironlarni ijtimoiy himoyalash masalalari” to‘g‘risidagi qarori.

- Ulug‘ Vatan urushi qatnashchilari, baynalminal jangchilar, Chernobil AES halokati oqibatini tugatishda qatnashchilarni har yili chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilgan, ularga tibbiy yordam sohasida imtiyozlarning to‘la-to‘kis berilishi ta’minlangan;

- nogironlarni belgilangan tartibda doimiy tibbiy ko‘rikdan o‘tkazib turish, ularga davolanish va mehnat qobiliyatlarini tiklashda yordam uyushtirilgan. Tahlil va axborot yil yakuniga ko‘ra har yili yanvar oyida har yilda amalaga oshirilgan;

- tibbiy ma’lumotlar bo‘yicha protez-ortopediya yordamiga muhtoj bo‘lgan nogironlarni hisobga olish, buyurtmalarining 2 foizi ajratilishi, ularni ishga qabul qilish, zarur mehnat va sharoitlarni yaratish, qoidalar amalda bajarilganligini qattiq nazorat qilingan.

Chet ellarda insonparvarlik yordami tariqasida keltirilayotgan dori-darmonlar va oziq-ovqatlarni, shuningdek xayriya jamg‘armalaridan ajratilayotgan moddiy yordamlarni nogironlar va aholining kam ta’minlangan tabaqalari o‘rtasida to‘g‘ri ta’minlanishi va ularning o‘z egalariga yetkazib berilishini ta’minlagan[9].

Tuman prokuraturasi tomonidan tuman tibbiyot birlashmasi tizimidagi tibbiyot muassasalarida O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosida bolalarda kasalliklarni erta aniqlash va profilaktika qilish, bolalar tibbiy ko‘rigini va davolash-sog‘lomlashtirishning tadbirlarini o‘z vaqtida tashkil etish, onalik va bolalikni muhofaza qilish borasidagi ishlar samaradorligiga hamda mavjud moddiy-texnika bazasidan samarali va oqilona foydalanishga e’tibor bergan holda o‘tkazilgan tekshirishda qonun buzilish holatlari aniqlangan.

Jumladan, umumta’lim maktablarining 28486 nafar o‘quvchilari tibbiy ko‘rikka jalb qilingan bo‘lib, 27862 nafari ko‘rikdan o‘tkazilgan, shundan 19100 nafari sog‘lom deb topilgan, 8985 nafarida turli-xil kasalliklar topilgan, 6467 nafar o‘quvchilar sog‘lomlashtirilgan, ularning 6115 nafari ambulatoriya sharoitida, 330 nafari shifoxonalarda, 22 nafari statsionarlarda davolangan, 376 nafar o‘quvchilar tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilmay qolgan.

Bayon etilganlarga ko‘ra, aniqlangan qonun buzilish holatlarining kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish haqida tuman tibbiyot birlashmasiga taqdimnoma kiritilgan, birlashmaning 7 nafar mas’ul rahbari, 3 nafar hodimlari intizomiy javobgarlikka tortilgan.[10]

[9] G‘allaorol tuman arxivi.M- Fond-401, ro‘yxat-1, yig‘ma jild-60, 193 varoq, 3-bet.
[10] “Sog‘liq-e’tiborga bog‘liq”//Baxmal hayoti gazetasi. №23(3919). 2012-yil. 2-bet.

XULOSA

Bundan ko‘rinib turibdiki, tibbiyot sohasida ham ko‘plab yutuqlarga erishib kelinganligiga qaramasdan qator yechimini topmayotgan muammolar ham mavjud. O‘rganilgan ma’lumotlar jamiyatning har bir a’zosi mavjud kamchiliklar uchun mas’ul ekanligini ifodalaydi. Garchi hukumat tomonidan qator qonunlar chiqarilsada, ularning ijrosini ta’minlash va samaradorlikka erishish uchun birgalikdagi uyushtirilgan tadbirlar va ularning natijadorligi muhimdir. Keltirilgan ma’lumotlar yechimini topmayotgan muammolarga javob topishda samarali hissa qo‘sha oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. “Baxmal, sog‘liq qalay ?”//Baxmal hayoti gazetasi № 145(2952) 1991-yil, 3-bet.
2. “Baxmal, sog‘liq qalay ?”//Baxmal hayoti gazetasi № 145(2952) 1991-yil, 3-bet.
3. G‘allaorol tuman arxivi.M- Fond-401, ro‘yxat-1, saqlash birligi - 48, 155 varoq, 37-bet.
4. G‘allaorol tuman arxivi.M- Fond-401, ro‘yxat-1, saqlash birligi - 48, 155 varoq, 37-bet.
5. G‘allaorol tuman arxivi.M- Fond-401, ro‘yxat-1, saqlash birligi -40, 150 varoq, 79-bet.
6. G‘allaorol tuman arxivi.M- Fond-401, ro‘yxat-1, yig‘ma jild-36, 132 varoq, 46-47-betlar.
7. G‘allaorol tuman arxivi.M- Fond-401, ro‘yxat-1, yig‘ma jild-31, 63 varoq, 22-34-betlar.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 17-iyun 328-sonli “O‘zbekiston Respublikasi nogironlarni ijtimoiy himoyalash masalalari” to‘g‘risidagi qarori.
9. G‘allaorol tuman arxivi.M- Fond-401, ro‘yxat-1, yig‘ma jild-60, 193 varoq, 3-bet.
10. “Sog‘liq-e’tiborga bog‘liq”//Baxmal hayoti gazetasi. №23(3919). 2012-yil. 2-bet.

ЗНАЧЕНИЕ ИММУННОГО МИКРООКРУЖЕНИЯ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЛЕЧЕНИЯ САРКОМ МЯГКИХ ТКАНЕЙ У ДЕТЕЙ

Мирзаева Газалхон Шерзодбек кизи
Магистрант 1-го курса, специальность «Общая онкология»
Ташкентский государственный медицинский университет, Узбекистан

Аннотация. *В статье представлен обзор современных представлений об иммунном микроокружении сарком мягких тканей у детей и его возможной связи с ответом на противоопухолевое лечение. Рассматриваются функции опухоль-инфильтрирующих лимфоцитов, опухоль-ассоциированных макрофагов и механизмов иммунных контрольных точек. Отдельное внимание уделено маркерам CD8, CD68, CD163 и PD-L1, используемым при исследовании клеточного состава опухолевой ткани. Обобщение публикаций показывает, что иммунный профиль сарком неоднороден и зависит от гистологического подтипа, а его клиническая интерпретация требует сопоставления с морфологическими и клиническими данными. Иммуногистохимические показатели рассматриваются как перспективные исследовательские инструменты, но не как самостоятельная замена стандартным прогностическим критериям.*

Ключевые слова: *саркомы мягких тканей, дети, опухолевое микроокружение, опухоль-инфильтрирующие лимфоциты, макрофаги, CD8, CD163, PD-L1, иммунотерапия.*

Annotation.*This review discusses current knowledge about the immune microenvironment of pediatric soft tissue sarcomas and its potential relationship with treatment response. It summarizes the roles of tumor-infiltrating lymphocytes, tumor-associated macrophages, and immune checkpoint pathways. The markers CD8, CD68, CD163, and PD-L1 are considered as tools for characterizing immune cells in tumor tissue. Published evidence indicates that the immune landscape differs across sarcoma subtypes and should be interpreted together with clinical and morphological features. These markers remain investigational and cannot replace established prognostic criteria.*

Keywords: *pediatric soft tissue sarcoma, tumor microenvironment, tumor-infiltrating lymphocytes, macrophages, CD8, CD163, PD-L1, immunotherapy.*

1. ВВЕДЕНИЕ

Саркомы мягких тканей представляют собой неоднородную группу злокачественных новообразований мезенхимального происхождения. В детской онкологии важное место занимает рабдомиосаркома, наряду с другими гистологическими вариантами сарком. Выбор лечебной тактики зависит от морфологического диагноза, локализации и распространенности опухоли, молекулярных характеристик и общего состояния ребенка. Несмотря на совершенствование хирургических методов, химиотерапии и лучевого лечения, при отдельных подтипах и распространенных формах заболевания сохраняется потребность в более эффективных терапевтических подходах.

Одним из активно изучаемых направлений является опухолевое микроокружение (tumor microenvironment, TME). Оно включает не только опухолевые клетки, но и иммунные клетки, сосудистые и стромальные элементы, внеклеточный матрикс и сигнальные молекулы. Взаимодействие этих компонентов может влиять на рост опухоли, ее способность избегать иммунного надзора и чувствительность к лечению. Современные обзоры подчеркивают, что саркомы нельзя рассматривать как единую иммунологическую группу: степень иммунной инфильтрации и особенности локальной супрессии различаются в зависимости от биологического подтипа [1–3].

RATULS randomizatsiyalangan sinovi insultdan keyingi yuqori qo‘l funksiyasini tiklashda robot yordamidagi mashg‘ulotni kuchaytirilgan an’anaviy terapiya va odatiy yordam bilan qiyoslagan. Uning asosiy funksional natijalari ushbu robot dasturini sinovda qatnashgan bemorlar uchun muntazam qo‘llashni qo‘llab-quvvatlamagan. Bu xulosa barcha reabilitatsiya robotlariga taalluqli emas, lekin yangi qurilmani funksional tiklanish mezonlari bilan tekshirish zarurligini ko‘rsatadi [6].

Mexatronik nuqtayi nazardan robot ko‘rsatadigan yordam bemorning o‘z kuchi va harakat qobiliyatiga moslashtirilishi lozim. Juda katta yordam bemorni passiv harakatlantirishi, yetarli bo‘lmagan yordam esa mashqni bajarishni qiyinlashtirishi mumkin. Shuning uchun yordam miqdorini tanlash klinik protokolga bog‘lanishi, kontakt kuchi va mexanik chegaralar esa boshqaruvda alohida nazorat qilinishi kerak.

Harakatni matematik modellashtirish va boshqarish

Robot manipulyatorining dinamik modeli harakat topshirig‘ini bajarish uchun zarur bo‘lgan kuch yoki momentni hisoblashga yordam beradi. Qattiq bo‘g‘inli manipulyator uchun umumlashtirilgan tenglama quyidagicha yoziladi [2]:

$$M(q)\ddot{q} + C(q,\dot{q})\dot{q} + g(q) = \tau + J(q)^T F_{ext} \qquad (1)$$

Bu yerda q bo‘g‘in koordinatalari vektori, M(q) inersiya matritsasi, C(q, q̇)q̇ tezlikka bog‘liq dinamik hadlar, g(q) og‘irlik kuchi ta’siri, τ yuritma momentlari, J(q) esa Yakobian matritsasidir. F_{ext} tashqi kontakt kuchi va momentlarini ifodalaydi; uning ishorasi tashqi ta’sir robotga qo‘yilgan yuk sifatida belgilanganiga bog‘liq. Ushbu model kontakt ta’sirini hisobga olishga imkon beradi, lekin biologik to‘qimaning barcha xossalarini o‘z-o‘zidan tavsiflamaydi [2].

Tibbiy vazifa uchun modelga asbob egiluvchanligi, ishqalanish, mexanik bo‘shliq va to‘qima deformatsiyasi kabi omillar kerakli aniqlik darajasida kiritiladi. Parametrlar o‘lchash orqali baholanib, modelning bashorati mustaqil kuzatuvlar bilan solishtiriladi. Modelni faqat uni tuzishda ishlatilgan ma’lumotda tekshirish qo‘shimcha sharoitlardagi xatoni aniqlashga yetmaydi. Hisoblash murakkabligi ham muhim: boshqaruvchi algoritm qarorni ruxsat etilgan vaqt ichida ishlab chiqishi kerak.

Pozitsiyani boshqarishda topshiriq va joriy holat orasidagi xato asosida yuritma buyrug‘i shakllantiriladi. Proportsional, integral va differensial qismlarga ega PID rostlagich ko‘plab muhandislik vazifalari uchun boshlang‘ich yechim bo‘lishi mumkin. Bemor bilan kontaktda esa rostlagich koeffitsiyentlarini faqat tezlik yoki pozitsiya xatosini kamaytirishga qarab tanlash yetarli emas. Cheklangan yuritma imkoniyati, sensor kechikishi va kontakt kuchining o‘zgarishi ham hisobga olinadi.

Yumshoq to‘qima bilan ishlashda impedansli boshqaruv robotning kontaktga javobini belgilangan mexanik xususiyatga yaqinlashtirish uchun qo‘llanadi. Soddalashtirilgan topshiriq quyidagicha ifodalanadi [19]:

$$M_d\ddot{e} + D_d\dot{e} + K_d e = F_c \qquad (2)$$

Bu yerda e asbobning belgilangan trayektoriyaga nisbatan siljishi, M_d istalgan inersiya, D_d so‘nish va K_d qattiqlik parametrlaridir. F_c asbobga ta’sir etuvchi tashqi kontakt kuchi deb olinadi. Parametrlarni tanlash robotning qanchalik qarshilik ko‘rsatishi yoki kontaktga moslashishini belgilaydi. Bu ifoda barcha jarrohlik amallariga tayyor algoritm emas; real tizimda kuchni o‘lchash, mexanik cheklovlar va qurilma dinamikasi bilan muvofiqlashtiriladi [19].

Modelga asoslangan bashoratli boshqaruv kelgusi qisqa vaqt oralig‘idagi holatlarni hisoblab, harakat buyruqlarini cheklovlar doirasida tanlashga imkon beradi. Masalan, rejalashtirishda ruxsat etilgan kuch, harakat tezligi va anatomik hudud chegarasi hisobga olinishi mumkin. Mazkur maqolada bu

muhandislik yondashuvi sifatida tavsiya etiladi; muayyan tibbiy robot uchun samaradorlik da'vosi faqat alohida validatsiya bilan asoslanishi kerak.

Sun'iy intellekt tasvirdan asbob holatini ajratish va vazifani rejalashtirishda yordam berishi mumkin. SRT-H misoli o'rganishga asoslangan rejalashtirishning imkoniyatini ko'rsatadi. Klinik qo'llashga o'tishda algoritmning o'rgatilgan sharoitdan tashqaridagi holatlarga javobi, noaniqlikni bildirishi va operatorga boshqaruvni qaytarish tartibi tekshirilishi lozim. O'rganilgan algoritm xavfsizlik chegaralarini belgilaydigan nazorat bilan muvofiqlashtiriladi [5, 18].

Magnit boshqaruvli mikrorobotlar

Kichik robotlar haqida yozishda o'lcham va ishlash mexanizmini aniq ko'rsatish zarur. Mikrometr miqyosidagi suzuvchi tuzilma, millimetrga yaqin kateter uchi va DNK asosidagi nanokonstruksiya bir xil qurilma emas. Barcha tibbiy nanorobotlar 1–100 nm oralig'ida bo'ladi, degan umumiy ta'rif bu xilma-xillikni qamrab olmaydi. Kichik o'lcham ham o'z-o'zidan hujayrani tanish, mustaqil navigatsiya yoki xavfsiz davolash qobiliyatini bermaydi.



3-rasm.

Mikrorobot tuzilmalari va guruhli harakatga oid taqdim etilgan ko'rgazmali material. Undagi vaqt belgilari ushbu maqolada miqdoriy tahlil qilinmaydi.

Zhang va hammualliflar 2024-yilda diametri 0,95 mm bo'lgan optik tolali davomli robotni tavsiflagan. Ushbu o'lcham 950 mikrometrga teng.

Qurilmada tasvirlash, magnit yo‘naltirish va namuna olish, dori yuborish yoki lazer bilan ishlash uchun funksional kanal birlashtirilgan. Imkoniyatlar ex vivo tajribalarda tekshirilgan. Bu natija kichraytirish bilan birga sezish va ijro vazifalarini birlashtirishning muhandislik namunasidir [7].

Magnit boshqaruv robot ichida katta elektr motor yoki batareya joylashtirish zaruratini ayrim konstruksiyalarda kamaytiradi. Tashqi qurilma maydonni hosil qiladi, robot tarkibidagi magnit material esa unga javob beradi. Soddalashtirilgan, magnit dipol momenti o‘zgarmas deb olingan modelda kuch va aylantiruvchi moment quyidagicha ifodalanadi:

$$F_{mag} = \nabla(m \cdot B), \quad \tau_{mag} = m \times B \qquad (3)$$

Bu yerda m magnit dipol momenti, B magnit induksiya vektori, ∇ fazoviy gradientdir. Bir jinsli maydon yo‘nalishni o‘zgartiruvchi moment hosil qilishi mumkin; shu dipol modelidagi bevosita translatsion kuch uchun esa gradient zarur. Spiral shaklli mikrosuzuvchida aylanish suyuqlik bilan o‘zaro ta’sir orqali oldinga siljishga aylanishi mumkin. Shu sababli robot tezligini faqat maydon kuchi orqali tavsiflash yetarli emas [20].

Magnit boshqaruvda robot shakli, muhit qovushqoqligi, maydonning aylanish chastotasi va yuk miqdori birgalikda hisobga olinadi. Gisterezis magnitlanishning maydon ta’siri tarixiga bog‘liqligini bildiradi; u universal “xulqni dasturlash” usuli emas. Fe_3O_4 asosidagi qoplama va kuchli doimiy magnit zarrachalari o‘z xossalariga ko‘ra farqlanadi. Material xususiyatlarini boshqaruv algoritmiga ko‘chirish uchun alohida o‘lchash va kalibrlash talab etiladi [20].



4-rasm.

Magnit boshqaruv va gisterezisga oid taqdim etilgan material. Grafik o‘qlaridagi belgilashlar izchil emas; raqamlar tasdiqlangan tajriba ma’lumoti sifatida ishlatilmaydi.

5-rasm tashqi maydon, robotning magnit javobi va tasvir orqali qayta aloqa o‘rtasidagi bog‘lanishni ko‘rsatadi. Robotning harakatini mikroskopda boshqarish bilan uni organizm ichida kuzatish bir xil texnik masala emas. Chuqurroq joylashgan hududlarda mos tasvirlash usuli va uning vaqt hamda fazoviy aniqligi navigatsiya bilan birga baholanadi.



5-rasm. Magnit dipol, tashqi maydon va tasvir orqali qayta aloqa. Mualliflik sxemasi; [8, 10, 20] asosida. Tajriba grafigi emas.

Yan va hammualliflar Spirulina mikroalgalariga magnetit qoplama berib, magnit bilan harakatlantiriladigan biogibrid mikrosuzuvchilarni yaratgan. Ishda biologik tuzilma, magnit navigatsiya va tasvirlash imkoniyatlari birlashtirilgan. Biogibrid asos foydali funksiyalarni berishi mumkin, biroq biologik kelib chiqishning o‘zi har qanday doza yoki yuborish yo‘lida xavfsizlikni tasdiqlamaydi [8].

2025-yilda Landers va hammualliflar magnit material, rentgen ostida ko‘rinishni ta’minlovchi modda va terapevtik yukni birlashtirgan mikrorobot platformasini taqdim etgan. Navigatsiya inson tomirlarining modellari va yirik hayvonlarda tekshirilgan. Tadqiqot nomidagi “klinikaga tayyor” iborasi odamlarda davolash samaradorligi isbotlanganini yoki qurilma barcha yurisdiksiyalarda tasdiqlanganini anglatmaydi [10].

2026-yilda Lin va hammualliflar Coscinodiscus granii asosidagi magnit biogibrid platformada tasvirga tayangan navigatsiya, guruhli harakat va dori ajralishini uyg‘unlashtirgan. Doksorubitsin tashuvchi qurilma siydik pufagi o‘smasining sichqon modelida sinalgan. Ishning mazkur sharh uchun muhim jihati navigatsiya va terapevtik vazifaning qayta aloqa orqali bog‘lanishidir; hayvon modelidagi natijani insondagi davolash foydasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirish mumkin emas [11].

Yumshoq materiallar va biologik parchalanish

Yumshoq robot to‘qima yoki obyekt bilan kontaktga moslashishi mumkin. Gidrogel asosidagi konstruksiyada mexanik deformatsiya tashqi magnit ta’sir yoki muhit o‘zgarishi bilan bog‘lanadi. Yang va hammualliflar

magnit jelatin gidrogelidan tayyorlangan, hasharot tirnog‘iga o‘xshash ushlash elementlari bo‘lgan kichik robotni tavsiflagan. Unda yukni ushlash, tashish va materialning parchalanish imkoniyati tajribada ko‘rsatilgan [9].



6-rasm.

Parchalanish jarayoniga oid ko‘rgazmali tasvir. Maqola uchun taqdim etilgan materialning tegishli qismi.

Parchalanishni baholashda korpus shaklining yo‘qolishi bilan uning barcha tarkibiy qismlarining biologik jihatdan xavfsiz chiqarilishini ajratish lozim. Suvda eriydigan jelatin matritsasi parchalangandan keyin magnit zarrachalar qolishi mumkin. Ularning to‘qimada tarqalishi va chiqarilishi boshqa tekshiruvlarni talab qiladi. Petri idishidagi jarayon vaqtini organizm ichidagi jarayon muddati bilan tenglashtirish ham to‘g‘ri emas [9].

Material tanlash harakatni boshqarish bilan bevosita bog‘liq. Korpus yumshashi yoki massasi kamayishi robotning tezligi va magnit maydonga javobini o‘zgartirishi mumkin. Shu sababli bir martalik yuk tashishga mo‘ljallangan qurilmada vazifani yakunlash, parchalanish va qoldiq moddalar taqdirini baholash birgalikda rejalashtirilishi maqsadga muvofiq. Bu yerda taklif etilayotgan yondashuv muhandislik xulosasi bo‘lib, har bir material uchun alohida tajriba bilan tekshiriladi.

Mikrorobotlarning “yaqin 3–5 yilda odamlarda qo‘llanishi” kabi umumiy muddatini belgilash uchun yetarli asos yo‘q. Bunga qurilmaning konstruksiyasi, vazifasi, oldingi sinovlari va regulyativ baholash yo‘li ta’sir qiladi. Shu bois istiqbol aniq platforma bo‘yicha mavjud dalillar bilan ifodalanishi kerak.

Ikki telemeditsina markazining muvofiqlashtirilgan ishlashi

Telemeditsina konsultatsiya, masofaviy kuzatuv yoki robot yordamida tekshiruv kabi turli xizmatlarni qamrab olishi mumkin. Fizik qurilmaga masofadan buyruq uzatilganda aloqa kechikishi boshqaruv barqarorligiga ta’sir qiladi. Anderson va Spong ishida ikki tomonlama teleoperator boshqaruvida kechikish sababli yuzaga keladigan beqarorlik va uni passivlikka asoslangan yondashuv bilan bartaraf etish shartlari tahlil qilingan. Bu masala videotasvirning kech kelishi bilan cheklanmaydi: kuch haqidagi qayta aloqa ham kechikishi mumkin [14].

Jihozlanishi va kadrlar tajribasi har xil bo‘lgan ikki markaz hamkorligida mahalliy boshqaruv va masofaviy topshiriqning vazifalari oldindan belgilanadi. Masalan, kuch chegarasini tekshiruvchi mahalliy kontur tez ishlashi, boshqa markaz esa vazifani rejalashtirish yoki maslahat berishi mumkin. Maqolada ushbu taqsimot tavsiya sifatida qaraladi; real xizmat uchun uni aloqa sifati, ish jarayoni va favqulodda holat protokoli bilan tekshirish talab etiladi [14].

Muvofiqlashtirishning boshlang‘ich nazariy ifodasi sifatida quyidagi ikki holatli modelni olish mumkin:

$$\begin{aligned} \dot{x_1}(t) &= -a_1 x_1(t) + c_{12}[x_2(t - T_{12}) - x_1(t)] + w_1(t), \\ \dot{x_2}(t) &= -a_2 x_2(t) + c_{21}[x_1(t - T_{21}) - x_2(t)] + w_2(t). \end{aligned} \qquad (4)$$

Bu yerda x_1 va x_2 ikki markazdagi normallashtirilgan kuzatish xatolari, a_1 va a_2 mahalliy xatoni so‘ndiruvchi koeffitsiyentlar, c_{12} va c_{21} o‘zaro muvofiqlashtirish koeffitsiyentlari, T_{12} va T_{21} esa aloqa kechikishlaridir. w_1 va w_2 tashqi buzilishlarni ifodalaydi. x qiymatlari xato bo‘lgani uchun musbat yoki manfiy bo‘lishi mumkin; ular markazning bemorlar soni, moliyaviy resursi yoki davolash sifati deb talqin qilinmaydi.

Kechikish va tashqi buzilish yo‘q deb olinib, a_1 va a_2 musbat, c_{12} va c_{21} manfiy bo‘lmasa, tizim matritsasining izi va determinanti quyidagi shartlarni qanoatlantiradi:

$$\begin{aligned} tr\ A &= -(a_1 + a_2 + c_{12} + c_{21}) < 0, \\ det\ A &= a_1 a_2 + a_1 c_{21} + a_2 c_{12} > 0. \end{aligned} \qquad (5)$$

Ushbu ikki o‘lchamli chiziqli modelda xato holati nolga intiluvchi barqaror muvozanatga ega. Bu xulosa tanlangan farazlardan kelib chiqadi. Modelda chekli sikl yoki dinamik xaos hosil bo‘lishi ko‘rsatilmagan. Kechikishlar, nochiziqli ta’sirlar va qo‘shimcha holatlar kiritilsa, barqarorlik qayta tekshirilishi kerak. Puankare kesimi yoki Lyapunov ko‘rsatkichi kabi tahlillar faqat aniq model va tegishli hisoblash natijalari mavjud bo‘lganda mazmunli bo‘ladi.

Shu sababli “trivial attraktor”, “dinamik xaos” va “qora tuynuk effekti” atamalarini tibbiy markazlarning haqiqiy ishlash rejimi sifatida e’lon qilish uchun bu maqolada asos yo‘q. Destruktiv holatni baholashda xizmat uzilishi, xavfsizlik chegarasining buzilishi yoki topshiriqning bajarilmay qolishi kabi o‘lchanadigan ko‘rsatkichlardan foydalanish aniqroq natija beradi. 7-rasm markazlararo muvofiqlashtirishni mahalliy fizik nazorat bilan bog‘laydigan tavsiya etilayotgan tuzilmani ifodalaydi.



7-rasm.

Ikki markazda masofaviy muvofiqlashtirish va mahalliy fizik nazorat. Mualliflik sxemasi; [14, 17] asosida.

DNK konstruksiyalari va molekulyar diagnostika

DNK asosidagi nanokonstruksiyalarda boshqaruv biomolekulyar tanish va tuzilmaning o‘zgarishi orqali amalga oshirilishi mumkin. Douglas, Bachelet va Church ishida hujayra yuzasidagi molekulyar signallarga javob berib yukni taqdim etadigan DNK origami konstruksiyasi tavsiflangan. Bunday mantiqiy shart elektr boshqaruvchi yoki miniatyura motorning ishlashiga tenglashtirilmaydi [12].

Li va hammualliflar o‘sma bilan bog‘liq molekulyar triggerga javob beruvchi, trombin tashuvchi DNK robotini ishlab chiqqan. Konstruksiya ochilganda trombinning mahalliy ta’sir ko‘rsatishi hayvon modellarida tekshirilgan. Bu yo‘nalish manzilli yuk yetkazib berishga oid dalil beradi; u qon hujayralarini almashtiruvchi universal nanorobot yoki inson uchun tasdiqlangan davolash usuli sifatida qaralmaydi. “Respirotsit” kabi konseptlarni ham shu tajribalarning olingan natijasi bilan aralashtirmaslik kerak [13].

Polimeraza zanjir reaksiyasi (PCR; o‘zbekcha PZR) DNKning maqsadli qismini ko‘paytirishga asoslangan usuldir. RNK tahlilida teskari transkripsiya bosqichi talab qilinadi. PCR magnit mikrorobotni harakatlantiruvchi fizik tamoyil emas, ammo namuna tayyorlash va mikrohajmdagi suyuqliklarni boshqarishni avtomatlashtirishda robototexnika bilan bog‘lanadi. Zhu va hammualliflar mikrosuyuqlik roboti yordamida bir hujayra uchun RT-qPCR tahlilining tomchi massivi asosidagi usulini ko‘rsatgan [15].

DNK orqali mantiqiy javob hosil qilish, PCR diagnostikasi va elektr energiyasini saqlovchi batareya yaratish alohida masalalardir. Mazkur sharhdagi manbalar DNK-kompyuting tibbiy robot batareyalarini yaxshilaydi, degan bevosita xulosani asoslamaydi. Bunday bog‘lanish uchun energiya zichligi, ish muddati va material barqarorligini o‘lchagan tegishli tadqiqot zarur.

Tadqiqotlar dalillarining qiyosiy tahlili

1-jadvalda klinik va tajriba ishlari bir xil mezonlar bo‘yicha qiyoslangan. Jadvaldagi natijalar mazkur maqolada o‘tkazilgan tajribalar emas; ular ko‘rsatilgan manbalardan umumlashtirilgan. Qiyoslashning vazifasi texnologiya haqidagi da’voni u olingan muhit bilan bog‘lashdir.

1-jadval.

Tanlangan tadqiqotlarning muhiti va dalillar chegarasi

Tadqiqot	Sinov muhiti	Asosiy kuzatuv	Qo‘llanish chegarasi
ROLARR [3]	Insonlar Randomizatsiya	Ochiq operatsiyaga o‘tish bo‘yicha statistik ustunlik tasdiqlanmagan.	To‘g‘ri ichak saratoni; aniq birlamchi ko‘rsatkich.
REAL [4]	Insonlar Randomizatsiya	Robot guruhida uch yillik qaytalanish kamroq bo‘lgan.	O‘rta va past joylashgan to‘g‘ri ichak saratoni.
RATULS [6]	Insonlar Randomizatsiya	Asosiy qo‘l funksiyasi natijasi muntazam qo‘llashni qo‘llab-quvvatlamagan.	Sinovdagi robot dasturi va bemorlar guruhi.
SRT-H [5]	Ex vivo Sakkizta namuna	Muayyan jarrohlik bosqichlari avtonom bajarilgan.	Tirik insondagi klinik sinov natijasi emas.
0,95 mm robot [7]	Ex vivo model	Tasvirlash, magnit yo‘naltirish va funksional kanal birlashtirilgan.	Organizmdan tashqaridagi tekshiruv sharoiti.

Tadqiqot	Sinov muhiti	Asosiy kuzatuv	Qo‘llanish chegarasi
Magnit platforma [10]	Tomir modellari va yirik hayvonlar	Navigatsiya, rentgen kuzatuvi va terapevtik yuk birlashtirilgan.	Insonlarda klinik foydani alohida tekshirish kerak.
Algebot [11]	Sichqon o‘sma modeli	Tasvirga tayangan boshqaruv va dori yetkazib berish uyg‘unlashtirilgan.	Klinikagacha bo‘lgan tajriba.

Qiyoslashdan uchta muhandislik ehtiyoji kelib chiqadi. Birinchisi, harakat, kuch yoki dori chiqarilishi kabi ijro natijasini ishonchli kuzatishdir. Ikkinchisi, kuzatuvni fizik model va boshqaruv buyrug‘i bilan vaqt bo‘yicha moslashtirishdir. Uchinchisi, qurilma foydasini aniq bemor guruhi va davolash vazifasida tekshirishdir. Bular maqolada tahlil qilingan ishlardan chiqarilgan umumlashtirish bo‘lib, barcha robotlar uchun tayyor klinik protokol sifatida taklif etilmaydi.

Xavfsizlik va tibbiy ta’lim

ISO 14971:2019 tibbiy qurilmalar xavfini boshqarish jarayonini belgilaydi. Robotga tatbiq etishda xavf manbai uning vazifasi va ishlash muhitiga qarab aniqlanadi. Kontakt kuchining oshishi, joylashuvni noto‘g‘ri baholash yoki aloqa uzilishi singari hodisalar oqibat va ehtimol nuqtayi nazaridan baholanib, kamaytirish choralarining samarasi tekshiriladi. Xavf tahlili qurilmaning foydalanish davridagi yangi ma’lumotlar bilan yangilanishi lozim [16].

IEC 80601-2-77:2019 va uning 2023-yilgi tuzatishi robot yordamidagi jarrohlik jihozlarining asosiy xavfsizligi va muhim ishlash ko‘rsatkichlariga bag‘ishlangan. Ushbu hujjatning mavjudligi muayyan robot tasdiqlanganini anglatmaydi. Sinovlar, foydalanish maqsadi va regulyativ baholash alohida ko‘rib chiqiladi. Bu xalqaro manbalar O‘zbekistondagi barcha ruxsat tartiblarining to‘liq bayoni sifatida berilmaydi [17].

Sun’iy intellektdan foydalanishda bemor ma’lumotlarini himoya qilish, xatolarni kuzatish va inson nazoratini saqlash ham muhimdir. WHOning sog‘liqni saqlashdagi sun’iy intellekt bo‘yicha yo‘riqnomasi etik boshqaruv va javobgarlik masalalarini yoritadi. Tibbiy robot uchun bu masalalar algoritm qarorining klinik oqibatini tushuntirish, operatorning aralashish imkoniyati va ma’lumotdan foydalanish shartlari bilan bog‘lanadi [18].

Avtomatlashtirish funksiyalarini aniq ajratish tizimni loyihalash va o‘qitishda foydalidir. Nazorat holatni o‘lchaydi va qayd etadi; signalizatsiya chetlanish haqida xabar beradi; himoya xavfli holatga o‘tishni cheklaydi;

rostlash berilgan ko‘rsatkichni saqlashga xizmat qiladi; boshqarish esa vazifa va rejimga mos harakatni tanlaydi. Masalan, kontakt kuchini o‘lchash nazoratga, uning chegaradan oshganini ko‘rsatish signalizatsiyaga, xavfsiz holatga o‘tish esa himoyaga tegishlidir. Himoya buyrug‘ining o‘zi ham bajarilayotgan muolaja sharoitida baholanishi kerak.

Shifokor va muhandislarni tayyorlashda simulyatsiya robotning ish chegaralarini tushunishga yordam beradi. VR yoki AR mashg‘uloti, fizik trenajyor va hisoblash modeli turli ko‘nikmalarni mashq qilish uchun birlashtirilishi mumkin. Ushbu maqolada bunday yondashuv ta’lim bo‘yicha tavsiya sifatida beriladi. Tayyorlikni faqat simulyatordagi tezlik bilan baholash yetarli emas: kontaktni boshqarish, xatoni tanish va favqulodda vaziyatdagi harakat ham tekshirilishi kerak.



8-rasm.

Robototexnikaga oid o‘quv modellar: chapda domino konstruktori, o‘ngda gumanoid robot platformasi. Maqola uchun taqdim etilgan ko‘rgazmali materiallar.

Mahalliy sharoitda robotlashtirishni rivojlantirish uchun dastlab aniq klinik vazifani tanlash maqsadga muvofiq. Keyin shu vazifa uchun kerakli qurilma, kadrlar tayyorgarligi, servis va baholash mezonlari belgilanadi. Murakkab robotni xarid qilish xizmatning samarali ishlashini o‘z-o‘zidan ta’minlamaydi; klinik jarayonga moslashtirish va natijalarni kuzatish ham loyiha doirasida rejalashtiriladi.

XULOSA

Bemorlarni davolashga yo‘naltirilgan robot texnologiyalarining rivojlanishi mexanik konstruksiya, sensorlar va boshqaruv algoritmlarini bir tizimda muvofiqlashtirishga bog‘liq. Mexatronik model harakatning fizik asosini tushuntiradi, qayta aloqa esa real holatdagi chetlanishlarni tuzatishga xizmat qiladi. Tibbiy vazifada ushbu imkoniyatlar kontakt va ishlash cheklovlari bilan birga baholanishi kerak.

Klinik sinovlar robotning foydasi operatsiya yoki terapiya turiga qarab farqlanishini ko‘rsatadi. Mikrorobotlar bo‘yicha tanlangan ishlarda esa tasvirlash, magnit navigatsiya va terapevtik yukni yetkazib berish birlashtirilmoqda. Laboratoriya, ex vivo va hayvon modelidagi natijalar istiqbolli yo‘nalishni belgilaydi, ammo insondagi klinik foydaning o‘rnini bosmaydi.

Ikki telemeditsina markazi uchun keltirilgan nazariy misol muvofiqlashtirish shartlarini ochiq belgilashning ahamiyatini ko‘rsatadi. Kechikishsiz chiziqli modelda barqarorlik asoslandi; undan xaos yoki destruktiv attraktor haqida xulosa chiqarilmadi. Keyingi tadqiqotlarda haqiqiy aloqa kechikishi, qurilma holati va xizmat uzilishlari bo‘yicha ma’lumot yig‘ib, model parametrlarini tekshirish mumkin. Amaliy rivojlanish uchun ustuvor vazifa aniq klinik ehtiyojga mos robotni ishlab chiqish, uning ishlashini ishonchli kuzatish va foydasini tegishli sinov bilan tasdiqlashdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. U.S. Food and Drug Administration. Computer-Assisted Surgical Systems. Rasmiy axborot sahifasi. Murojaat sanasi 14.10.2026. https://www.fda.gov/medical-devices/surgery-devices/computer-assisted-surgical-systems

2. Lynch K. M., Park F. C. Modern Robotics: Mechanics, Planning, and Control. Cambridge University Press, 2017. 8-bob Robot dinamikasi. https://modernrobotics.northwestern.edu/chapters/chapter8/

3. Jayne D., Pigazzi A., Marshall H., et al. Effect of Robotic-Assisted vs Conventional Laparoscopic Surgery on Risk of Conversion to Open Laparotomy Among Patients Undergoing Resection for Rectal Cancer: The ROLARR Randomized Clinical Trial. JAMA. 2017;318(16):1569–1580. https://doi.org/10.1001/jama.2017.7219

4. Feng Q., et al. Robotic vs Laparoscopic Surgery for Middle and Low Rectal Cancer: The REAL Randomized Clinical Trial. JAMA. 2025;334(2):136–148.
https://doi.org/10.1001/jama.2025.8123

5. Kim J. W., Chen J.-T., Hansen P., et al. SRT-H: A hierarchical framework for autonomous surgery via language-conditioned imitation learning. Science Robotics. 2025;10(104):eadt5254. https://doi.org/10.1126/scirobotics.adt5254

6. Rodgers H., Bosomworth H., Krebs H. I., et al. Robot assisted training for the upper limb after stroke (RATULS): a multicentre randomised controlled trial. The Lancet. 2019;394(10192):51–62. https://doi.org/10.1016/S0140-6736(19)31055-4

7. Zhang T., Li G., Ren H., et al. Sub-millimeter fiberscopic robot with integrated maneuvering, imaging, and biomedical operation abilities. Nature Communications. 2024;15:10874. https://doi.org/10.1038/s41467-024-55199-6

8. Yan X., Zhou Q., Vincent M., et al. Multifunctional biohybrid magnetite microrobots for imaging-guided therapy. Science Robotics. 2017;2(12):eaaq1155.
https://doi.org/10.1126/scirobotics.aaq1155

9. Yang L., Miao J., Li G., et al. Soft Tunable Gelatin Robot with Insect-like Claw for Grasping, Transportation, and Delivery. ACS Applied Polymer Materials. 2022;4(8):5431–5440.
https://doi.org/10.1021/acsapm.2c00522

10. Landers F. C., Hertle L., Pustovalov V., et al. Clinically ready magnetic microrobots for targeted therapies. Science. 2025;390(6774):710–715.
https://doi.org/10.1126/science.adx1708

11. Lin L., Li H., Zhou Q., et al. Machine-intelligent multimodal algebot for intracavitary chemotherapy. Nature Nanotechnology. 2026;21:996–1007. https://doi.org/10.1038/s41565-026-02195-0

12. Douglas S. M., Bachelet I., Church G. M. A Logic-Gated Nanorobot for Targeted Transport of Molecular Payloads. Science. 2012;335(6070):831–834.
https://doi.org/10.1126/science.1214081

13. Li S., Jiang Q., Liu S., et al. A DNA nanorobot functions as a cancer therapeutic in response to a molecular trigger in vivo. Nature Biotechnology. 2018;36(3):258–264.
https://doi.org/10.1038/nbt.4071

14. Anderson R. J., Spong M. W. Bilateral control of teleoperators with time delay. IEEE Transactions on Automatic Control. 1989;34(5):494–501. https://doi.org/10.1109/9.24201

15. Zhu Y., Zhang Y.-X., Liu W.-W., Ma Y., Fang Q., Yao B. Printing 2-Dimentional Droplet Array for Single-Cell Reverse Transcription Quantitative PCR Assay with a Microfluidic Robot. Scientific Reports. 2015;5:9551.
https://doi.org/10.1038/srep09551

16. International Organization for Standardization. ISO 14971:2019. Medical devices — Application of risk management to medical devices. https://www.iso.org/standard/72704.html

17. International Electrotechnical Commission. IEC 80601-2-77:2019+AMD1:2023 CSV. Medical electrical equipment — Part 2-77: Particular requirements for the basic safety and essential performance of robotically assisted surgical equipment. https://webstore.iec.ch/en/publication/89957

18. World Health Organization. Ethics and governance of artificial intelligence for health. Geneva: WHO, 2021. ISBN 9789240029200. https://www.who.int/publications/i/item/9789240029200

19. Hogan N. Impedance Control: An Approach to Manipulation: Part I—Theory. Journal of Dynamic Systems, Measurement, and Control. 1985;107(1):1–7.
https://doi.org/10.1115/1.3140702

20. Abbott J. J., Peyer K. E., Cosentino Lagomarsino M., et al. How Should Microrobots Swim? The International Journal of Robotics Research. 2009;28(11–12):1434–1447.
https://doi.org/10.1177/0278364909341658

ИММУНОЛОГИЧЕСКИЕ БИОМАРКЕРЫ В ОЦЕНКЕ АКТИВНОСТИ РЕВМАТОИДНОГО АРТРИТА ПРИ ХРОНИЧЕСКОЙ ГЕРПЕСВИРУСНОЙ ИНФЕКЦИИ

Г.Д.Бауетдинова., Н.Х.Мухамедова

Аннотация. *В исследовании оценена диагностическая значимость сывороточных цитокинов при ревматоидном артрите, ассоциированном с хронической герпесвирусной инфекцией. Выявлены изменения цитокинового профиля и их взаимосвязь с активностью заболевания. На основании анализа опубликованных ROC-данных определены перспективные иммунологические маркеры IL-6, IL-17A, IL-12 и IL-4 для комплексной лабораторной оценки воспалительного процесса.*

Ключевые слова: *ревматоидный артрит, герпесвирусная инфекция, цитокины, IL-6, IL-17, Th1/Th2, ROC-анализ, биомаркеры.*

Abstract. *This study evaluated the diagnostic significance of serum cytokines in rheumatoid arthritis associated with chronic herpesvirus infection. Changes in cytokine profiles and their relationship with disease activity were identified. Based on published ROC analysis data, IL-6, IL-17A, IL-12, and IL-4 were identified as promising immunological biomarkers for the comprehensive laboratory assessment of inflammation.*

Keywords: *rheumatoid arthritis, chronic herpesvirus infection, cytokines, IL-6, IL-17, Th1/Th2 balance, ROC analysis, immunological biomarkers.*

Актуальность. *Ревматоидный артрит (РА) — хроническое аутоиммунное заболевание, характеризующееся системным воспалением и нарушением иммунорегуляторных механизмов. Сочетание РА с хронической герпесвирусной инфекцией (ХГИ) сопровождается изменениями цитокинового профиля и дисбалансом Th1/Th2-иммунного ответа. Определение диагностической значимости сывороточных цитокинов представляет особый интерес для оценки активности заболевания и совершенствования лабораторной диагностики.*

Цель исследования. *Оценить диагностическую информативность сывороточных цитокинов и определить наиболее перспективные*

иммунологические маркеры при ревматоидном артрите, ассоциированном с хронической герпесвирусной инфекцией.

Материалы и методы. Проведён сравнительный анализ цитокинового профиля пациентов с РА без ХГИ и больных РА в сочетании с ХГИ. Исследованы сывороточные концентрации IFN-γ, IL-2, IL-4, IL-6, IL-10, IL-12, IL-17 и IL-1β. Оценена взаимосвязь иммунологических показателей с индексом активности заболевания DAS28, интенсивностью боли и продолжительностью утренней скованности. Дополнительно проанализированы опубликованные данные ROC-исследований с определением площади под ROC-кривой (AUC), чувствительности и специфичности отдельных цитокинов.

Результаты исследования. У пациентов с РА в сочетании с ХГИ выявлены изменения цитокинового профиля, свидетельствующие о нарушении иммунорегуляторных механизмов. Наиболее выраженные различия между исследуемыми группами отмечены для IL-4, IL-6, IL-12 и IL-17. Установлена взаимосвязь уровней IL-6 и IL-17 с клиническими показателями активности ревматоидного артрита.

Согласно опубликованным результатам ROC-анализа, наибольшая диагностическая информативность установлена для IL-6 (AUC = 0,875), чувствительность которого составила 93,55%, специфичность — 75,0%. Высокие показатели отмечены также для IL-17A (AUC = 0,841; чувствительность — 81,3%; специфичность — 84,1%), IL-12 (AUC = 0,832; чувствительность — 96,67%; специфичность — 61,67%) и IL-4 (AUC = 0,825; чувствительность — 85,9%; специфичность — 73,1%). Для IL-2 значение AUC составило 0,740, тогда как IFN-γ характеризовался сравнительно низкой диагностической информативностью (AUC = 0,656).

Полученные результаты указывают на перспективность комплексного определения цитокинов для характеристики иммуновоспалительных изменений и оценки активности заболевания. При этом опубликованные ROC-показатели требуют отдельной проверки применительно к сочетанию РА с ХГИ.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ.

Сывороточные цитокины IL-6, IL-17A, IL-12 и IL-4 представляют интерес в качестве потенциальных иммунологических биомаркеров ревматоидного артрита, ассоциированного с хронической герпесвирусной инфекцией. Их комплексная оценка с учётом клинических показателей может способствовать совершенствованию

ранней диагностики, определению активности воспалительного процесса и выбору индивидуальной тактики лечения.

СПИСОК ИСПОЛЬЗУЕМОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Arleevskaya M.I., Kravtsova O.A., Lemerle J., Renaudineau Y., Tsibulkin A.P. How Rheumatoid Arthritis Can Result from Provocation of the Immune System by Microorganisms and Viruses // Frontiers in Microbiology. – 2016. – Vol. 7. – Art. 1296. – P. 1296–1308. – DOI: 10.3389/fmicb.2016.01296.
2. Balandraud N., Baskakova D.V., Roudier J.,Baskakova D.V., Haldin A.A., Birko N.I. Clinical and epidemiological characteristics of diseases caused by herpes simplex virus // Russian Journal of Skin and Sexually Transmitted Diseases. Herpes. – 2017. – № 2. – P. 26–30.
3. Benedetti G., Miossec P. Interleukin 17 contributes to the chronicity of inflammatory diseases such as rheumatoid arthritis // European Journal of Immunology. – 2014. – Vol. 44, № 2. – P. 339–347. – DOI: 10.1002/eji.201344184.

4-SECTION

AN INTEGRATED FRAMEWORK OF INNOVATIVE STRATEGIC MANAGEMENT METHODS FOR UNIVERSITIES IN UZBEKISTAN

Boltaeva Sitora Mirdjonovna
PhD reseacher,
TSEU Uzbekistan
sitoraboltayeva@gmail.com

Abstract. *The rapid expansion of higher education in Uzbekistan raises the question of how universities can manage strategy beyond growth in numbers. Based on the literature, policy documents and official statistics, the study proposes a three-layer framework linking seven typical problems of university management to specific innovative methods. Between 2015 and 2025 the number of higher education institutions (including branches) rose from 69 to 215 and enrolment from 264.3 to 1,535.0 thousand, while coverage reached 47.7% in 2024. However, only two universities were in the QS 2027 top 1,000, against a target of ten.*

Keywords: *strategic management, higher education, university governance, Balanced Scorecard, Triple Helix, University 4.0, Uzbekistan.*

INTRODUCTION

Universities face growing competition, marketisation and demands for accountability (Taylor & Baines, 2012). Strategy has been a growing area of higher education research for two decades, but it remains underexplored in many national contexts outside Western countries (Fumasoli & Hladchenko, 2023). Many of the tools involved come from business: the Balanced Scorecard (BSC), for example, was designed as a performance measurement system for companies (Kaplan & Norton, 1992) and has since been introduced in universities (Taylor & Baines, 2012).

In Uzbekistan the issue has practical importance. The Concept for the development of the higher education system until 2030 (Concept 2030) set the targets of raising higher education coverage to more than 50% and of including at least ten higher education institutions of the country in the first 1,000 places of the QS, THE or ARWU rankings (President of the Republic of Uzbekistan, 2019). The aim of this study is to build a framework that links typical problems of university management to specific innovative methods and to relate it to the current state of higher education in Uzbekistan.

Materials and Methods.

The study is conceptual and combines three procedures. First, the literature on strategic management and university development was reviewed; on this basis the author identified seven recurrent problems of university management and matched each with methods whose function addresses it. Second, the national policy documents (President of the Republic of Uzbekistan, 2019, 2022) were analysed to determine the targets the framework has to serve. Third, official statistics of the National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan (NSC) for 2015-2025 and the QS World University Rankings 2027 were used to describe the position of the sector in relation to these targets.

Results.

Higher education in Uzbekistan has expanded at an exceptional pace (Fig. 1). The number of higher education institutions, including branches, grew from 69 in 2015 to 222 in 2024 and then fell to 215 at the start of the 2025/2026 academic year (NSC, 2026a). Over the same period enrolment increased from 264.3 to 1,535.0 thousand students (NSC, 2026b), and coverage of the population aged 18-23 rose from 7.0% in 2015 to 47.7% in 2024 (NSC, 2025). The coverage target of the Concept 2030 is therefore close to being met.

Quality targets remain further away. In the QS World University Rankings 2027 six Uzbek universities were ranked, but only two were within the first 1,000: TIIAME National Research University (458th) and the National University of Uzbekistan (801-850); Samarkand State University was placed in the 1001-1200 band (Qurbonboyeva, 2026). The ranking targets of the Concept 2030 have therefore not yet been reached in QS.



Fig. 1. Higher education in Uzbekistan, 2015-2025 (start of academic year)
Sources: NSC (2025, 2026a, 2026b); President of the Republic of Uzbekistan (2019).



Fig. 2. Framework of innovative strategic management methods for universities

Source: author's development; P1-P7 denote the problems addressed.

The proposed framework has three layers (Fig. 2). The diagnostic layer combines SWOT analysis with a PESTLE analysis of the external environment, which informs the opportunities and threats, and identifies seven problems (P1-P7). The strategic layer has two tracks. The University 3.0 track draws on the Triple Helix model of university-industry-government relations (Etzkowitz & Leydesdorff, 2000) and on the idea of the third generation university as an international know-how hub that adds the exploitation of know-how to education and research (Wissema, 2009). The University 4.0 track draws on the Quadruple and Quintuple Helix models, which add the media- and culture-based public (civil society) and the natural environment (Carayannis & Campbell, 2009; Carayannis et al., 2012). Each method is assigned to the problems it addresses, and stakeholder management runs through both tracks. The monitoring layer uses a KPI system and the Plan-Do-Check-Act (Shewhart) cycle (Deming, 1986); its results return to the diagnostic layer, so that the strategy is revised continuously.

Discussion.

The data show that Uzbekistan has greatly expanded access to higher education but has not yet made comparable progress in quality and international visibility. Expansion on this scale creates new strategic tasks: new institutions need a clear profile and mission (P1), and large universities need tools that link national targets to everyday decisions (P2, P3). The BSC suits the second task,

although a study of four UK universities shows that its introduction raises questions of motivation, format and implementation (Taylor & Baines, 2012).

The University 3.0 track already has an institutional basis: Decree PF-165 introduced an "industry-region-research/higher education organisation" chain, in which universities or research organisations are selected competitively to meet regional demand for innovations and projects are co-financed on a "1+1" basis (President of the Republic of Uzbekistan, 2022). The University 4.0 track, by including the natural environment through the Quintuple Helix, links university strategy to sustainable development.

Unlike approaches that treat these methods separately, the framework links each method to a specific problem and to a stage of institutional development. Its main limitation is that it has not been tested empirically: the problems were derived from literature and documents rather than from a survey of university managers. Rankings also mainly reflect research-intensive universities and are not a complete measure of strategic success.

CONCLUSION

Between 2015 and 2025 higher education in Uzbekistan grew from 69 to 215 institutions and from 264.3 to 1,535.0 thousand students, and coverage came close to the national target of more than 50%. International visibility, however, remains well below the Concept 2030 targets. The proposed framework links seven typical problems of university management to specific methods and connects diagnosis, strategy and monitoring in a continuous cycle, which can help universities move from growth in numbers to growth in quality. Further research should test it through a survey of university managers and case studies.

REFERENCES

Carayannis, E. G., Barth, T. D., & Campbell, D. F. J. (2012). The Quintuple Helix innovation model: Global warming as a challenge and driver for innovation. *Journal of Innovation and Entrepreneurship, 1*, Article 2. https://doi.org/10.1186/2192-5372-1-2

Carayannis, E. G., & Campbell, D. F. J. (2009). 'Mode 3' and 'Quadruple Helix': Toward a 21st century fractal innovation ecosystem. *International Journal of Technology Management, 46*(3/4), 201-234. https://doi.org/10.1504/IJTM.2009.023374

Deming, W. E. (1986). *Out of the crisis*. Massachusetts Institute of Technology, Center for Advanced Engineering Study.

Etzkowitz, H., & Leydesdorff, L. (2000). The dynamics of innovation: From National Systems and "Mode 2" to a Triple Helix of university-industry-

government relations. *Research Policy, 29*(2), 109-123. https://doi.org/10.1016/S0048-7333(99)00055-4

Fumasoli, T., & Hladchenko, M. (2023). Strategic management in higher education: Conceptual insights, lessons learned, emerging challenges [Editorial]. *Tertiary Education and Management, 29*(4), 331-339. https://doi.org/10.1007/s11233-024-09134-5

Kaplan, R. S., & Norton, D. P. (1992). The balanced scorecard: Measures that drive performance. *Harvard Business Review, 70*(1), 71-79.

National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. (2025, April 16). *Higher education enrollment increased by 40.9 percentage points*. https://stat.uz/en/press-center/news-of-committee/61150-oliy-ta-limga-qamrov-40-9-ga-oshgan-3

National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. (2026a, June 18). *How much has the number of higher education institutions increased in 35 years?* https://stat.uz/en/press-center/news-of-committee/68798-olij-talim-tashkilotlari-soni-35-jilda-anchaga-k-pajdi-4

National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. (2026b, July 20). *How much has the number of students in Uzbekistan increased in 35 years?* https://stat.uz/en/press-center/news-of-committee/69269-35-jilda-zbekistonda-talabalar-soni-anchaga-oshdi-4

President of the Republic of Uzbekistan. (2019). *On approval of the Concept for the development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030* (Decree No. PF-5847). https://lex.uz/en/docs/6971334

President of the Republic of Uzbekistan. (2022). *Ob utverzhdenii Strategii innovatsionnogo razvitiya Respubliki Uzbekistan na 2022-2026 gody* [On approval of the Innovation Development Strategy of the Republic of Uzbekistan for 2022-2026] (Decree No. PF-165). https://lex.uz/en/docs/6102464

Qurbonboyeva, D. (2026, June 18). *O‘zbekistonning 6 ta oliygohi “QS World University Rankings 2027” ro‘yxatidan o‘rin oldi* [Six universities of Uzbekistan entered the QS World University Rankings 2027]. Ta’lim xabarlari. https://talimxabarlari.uz/73638/

Taylor, J., & Baines, C. (2012). Performance management in UK universities: Implementing the Balanced Scorecard. *Journal of Higher Education Policy and Management, 34*(2), 111-124. https://doi.org/10.1080/1360080X.2012.662737

Wissema, J. G. (2009). *Towards the third generation university: Managing the university in transition*. Edward Elgar.

THE GAP BETWEEN DIGITAL ACCESS AND ONLINE PURCHASING IN UZBEKISTAN: FACTORS AND IMPLICATIONS FOR MARKETING STRATEGY

Boltaeva Zinora Mirdjonovna
PhD, assosiate professor
Alfraganus University, Uzbekistan
z.boltayeva@afu.uz

Abstract. *This study examines why near-universal internet use in Uzbekistan has not led to comparable online purchasing. The gap was measured with national statistics for 2020-2025 and compared with Kazakhstan and the world through an access-to-purchase conversion ratio. In 2025, 94.6% of the population aged 10 and over used the internet, whereas e-commerce accounted for 6.5% of retail turnover; in 2022-2024 the share stagnated at 3.8-4.0%. Uzbekistan's comparable conversion ratio was 0.073, against 0.153 for Kazakhstan and 0.280 worldwide. The gap is linked to payment habits, logistics and, probably, trust rather than connectivity, so marketing should prioritise conversion over reach.*

Keywords: *digital economy, e-commerce, consumer behaviour, digital divide, conversion, marketing strategy, Uzbekistan.*

INTRODUCTION

Digital transformation has turned the customer journey into a sequence of online and offline touchpoints (Lemon & Verhoef, 2016). One might expect that in emerging economies online purchasing follows once internet access becomes widespread. Research on the digital divide casts doubt on this: once physical access is no longer scarce, inequality shifts to skills and patterns of use (Hargittai, 2002).

Uzbekistan offers a clear case for testing this expectation. Internet use among the population aged 10 and over rose from 76.6% in 2021 to 94.6% in 2025 (Umarov, 2026), yet according to materials presented at a presidential meeting in April 2026, e-commerce accounted for only 4-4.6% of retail trade, and a target of 11% was set (Kun.uz, 2026a). The aim of this study is to measure this gap using official statistics, to compare it with Kazakhstan and the world, and to identify the factors behind it. The question also bears on sustainable development, since the economic benefit of digital access depends on whether people use it to buy and sell.

Materials and Methods.

The study is descriptive and comparative and relies on secondary data. E-commerce trade volume (*E*) was taken from the open data portal of the National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan (NSC, 2026a), retail trade turnover (*R*) from official annual releases (Statistics Agency under the President of the Republic of Uzbekistan [SA], 2025; NSC, 2026b), and internet use (*I*) from the NSC household survey of the population aged 10 and over (Umarov, 2026). Three indicators were calculated: the e-commerce share $S = E / R \times 100$, the access-purchase gap $G = I - S$ in percentage points, and the conversion ratio $K = S / I$. Since *S* is a ratio of values in current prices, no inflation adjustment is needed.

For the cross-country comparison, internet penetration was taken from a single source (Kemp, 2025a, 2025b, 2025c), the e-commerce share of Kazakhstan from the Ministry of Trade and Integration of the Republic of Kazakhstan (MTI, 2026) and the world value from the EMARKETER (n.d.) forecast. The author grouped the factors behind the gap into technological, economic, institutional-infrastructural and socio-psychological ones, drawing on technology acceptance and trust research (Pavlou, 2003; Venkatesh et al., 2012).

Results.

The e-commerce share rose from 0.6% in 2020 to 4.0% in 2022 and then levelled off at 3.8% in 2023 and 2024, while internet use continued to rise from 83.9% to 93.3% (Fig. 1). The gap widened from 79.9 to 89.5 percentage points, and the conversion ratio fell from 0.048 to 0.040. According to NSC data, the share reached 6.5% in 2025, which is higher than the 4-4.6% cited at the April 2026 meeting; even so, the gap remained at 88.1 percentage points. In absolute terms, online sales nevertheless grew quickly, from 1.00 to 31.55 trillion soums between 2020 and 2025.



Fig. 1. Internet use and e-commerce share of retail turnover in Uzbekistan, %
Source: author's calculations based on NSC (2026a, 2026b), SA (2025), Umarov (2026) and Kun.uz (2026a).

The level of access does not explain the gap (Fig. 2). With penetration of 89.0%, Uzbekistan's conversion ratio in 2025 was 0.073. Kazakhstan, with similar penetration (93.4%), had a ratio twice as high, and the ratio based on the world forecast was almost four times higher. With a share of 4.6%, Uzbekistan's ratio would be 0.052, so the conclusion does not depend on the estimate used.



Fig. 2. Internet penetration, e-commerce share and conversion ratio, 2025
Source: Kemp (2025a, 2025b, 2025c), MTI (2026), EMARKETER (n.d.) and NSC (2026a, 2026b); author's calculations.

Discussion

The results suggest that the main barrier to online purchasing in Uzbekistan has moved from access to use, which is consistent with digital-divide research (Hargittai, 2002). Connectivity is no longer a constraint: median mobile download speed reached 55.51 Mbps after a 53.4% increase over the twelve months to August 2025 (Kemp, 2025a). Access to payment instruments is also high, as 83% of adults hold bank cards. However, 47% of cards showed no activity during the year, and person-to-person transfers made

up 69% of all payment transactions (Kun.uz, 2026b), so digital money is used mainly for transfers rather than purchases.

In the consumer version of the unified theory of acceptance and use of technology, adoption depends partly on habit, price value and facilitating conditions (Venkatesh et al., 2012). Delivery is one such condition. Since 72% of warehouse space is located in the Tashkent region and only 34% meets Class A standards (Kun.uz, 2026a), delivery to other regions is likely to be slower and more expensive. Trust and perceived risk also shape the intention to buy online, alongside perceived usefulness and ease of use (Pavlou, 2003). The flat share in 2022-2024, when internet use rose by almost ten percentage points, fits this explanation, although trust is not measured in official statistics.

Three implications for marketing strategy follow. First, when almost every consumer can be reached online, effort should shift from attracting attention to the purchase stage of the customer journey as described by Lemon and Verhoef (2016). Second, online and offline channels should be managed as one system, since more than 90% of retail turnover is still generated offline, including 9.1% in unorganised trade (NSC, 2026b). Third, measures that reduce perceived risk, such as clear return conditions, delivery tracking and secure payment, are likely to raise conversion more than further investment in reach. The study relies on aggregated data and cannot establish causality; moreover, the official 2025 figure is notably higher than the estimate cited at the April 2026 meeting, and the sources do not explain the difference.

CONCLUSION

In 2025, 94.6% of the population of Uzbekistan aged 10 and over used the internet, while e-commerce accounted for 4-6.5% of retail turnover depending on the estimate, and in 2022-2024 the share did not grow. On the official estimate, the country converts digital access into online purchases about half as effectively as Kazakhstan and at roughly a quarter of the world level. The gap appears to stem from how payment instruments are used, from weaker logistics outside the Tashkent area and, probably, from limited trust rather than from connectivity. Further research should measure trust and perceived risk directly through a consumer survey.

REFERENCES

EMARKETER. (n.d.). *Ecommerce to account for more than 20% of worldwide retail sales despite slowdown*. https://www.emarketer.com/content/ecommerce-account-more-than-20--of-worldwide-retail-sales-despite-slowdown

Hargittai, E. (2002). Second-level digital divide: Differences in people's online skills. *First Monday, 7*(4). https://doi.org/10.5210/fm.v7i4.942

Kemp, S. (2025a, November 8). *Digital 2026: Uzbekistan*. DataReportal. https://datareportal.com/reports/digital-2026-uzbekistan

Kemp, S. (2025b, November 8). *Digital 2026: Kazakhstan*. DataReportal. https://datareportal.com/reports/digital-2026-kazakhstan

Kemp, S. (2025c, October 15). *Digital 2026: Internet users pass the 6 billion mark*. DataReportal. https://datareportal.com/reports/digital-2026-six-billion-internet-users

Kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi yuqori bo‘lishiga qaramay, uning rivojlanish dinamikasini tarmoqlar kesimida, mehnat unumdorligi va yaratilayotgan qo‘shilgan qiymat bilan birgalikda baholash zarurati saqlanib qolmoqda. Bu esa sektorning rivojlanishiga ta‘sir etuvchi omillarni kompleks o‘rganish va ular asosida amaliy takliflar ishlab chiqishni taqozo etadi.

Maqolaning maqsadi – milliy iqtisodiyotda kichik biznesning o‘rnini o‘rganish, uning rivojlanishiga ta‘sir etuvchi omillarni tahlil qilish hamda mavjud muammolarni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

– kichik biznesning nazariy asoslari va iqtisodiy ahamiyatini aniqlash;

– O‘zbekistonda kichik biznesning hozirgi holati va rivojlanish tendensiyalarini statistik ma‘lumotlar asosida baholash;

– kichik biznes rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash;

– kichik biznesning samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

2. TADQIQOT METODLARI VA MA’LUMOTLAR

Tadqiqot ikkilamchi ma’lumotlarga asoslangan sifat va miqdoriy tahlil doirasida amalga oshirildi. Axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlashga oid Farmoni [1], O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bo‘yicha statistik ma‘lumotlari [2; 3] hamda tadbirkorlik va innovatsiyalar nazariyasiga oid xorijiy ilmiy manbalar [4; 5] tashkil etdi.

Tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi: ilmiy adabiyotlar va me’yoriy-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish; statistik ko‘rsatkichlarni qiyosiy tahlil qilish (2023–2024-yillar); tizimli yondashuv, mantiqiy tahlil va sintez; induksiya va deduksiya; omillarni guruhlash va umumlashtirish. Kichik biznesning iqtisodiyotdagi ulushi absolyut va nisbiy o‘zgarish (foiz punktlarida) ko‘rinishida baholandi.

Tadqiqotning cheklovi shundaki, tahlil rasmiy statistik ma’lumotlarning ikki yillik davri hamda ochiq manbalar bilan cheklangan; tarmoqlar va hududlar kesimidagi ma’lumotlar, shuningdek, tadbirkorlar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovlar natijalari ushbu maqolada qo‘llanilmagan.

3. TADQIQOT NATIJALARI

3.1. Kichik biznesning iqtisodiy ahamiyati va hozirgi holati

Kichik biznes – iqtisodiyotning tadbirkorlik tashabbusi, xususiy mulk va bozor munosabatlariga asoslangan muhim sektoridir. Uning asosiy xususiyatlariga faoliyatni nisbatan moslashuvchan tashkil etish, bozor talabiga tez javob berish, resurslardan samarali foydalanish va yangi ish o‘rinlarini yaratish kiradi. Kichik biznesning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati bir nechta yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, u tovar va xizmatlar ishlab chiqarishni kengaytirib, iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shadi. Ikkinchidan, aholining bandligini ta‘minlash va daromad manbalarini diversifikatsiya qilishga yordam beradi. Uchinchidan, raqobatni kuchaytirib, mahsulot sifati va

xizmat ko‘rsatish darajasining yaxshilanishini rag‘batlantiradi. Bundan tashqari, kichik biznes hududlarning iqtisodiy salohiyatidan foydalanish, mahalliy xomashyoni qayta ishlash va yangi innovatsion g‘oyalarni amaliyotga tatbiq etishda muhim vosita hisoblanadi.

O‘zbekistonda kichik biznes milliy iqtisodiyotning sezilarli qismini tashkil etadi. Milliy statistika qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2023-yilda 53,8 foizni, 2024-yilda esa 53,5 foizni tashkil etgan [2] (1-jadval).

1-jadval

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi

Ko‘rsatkich	2023-yil	2024-yil	O‘zgarish, f.p.
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi, %	53,8	53,5	−0,3

Manba: [2] asosida muallif hisob-kitoblari.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, kichik biznesning YaIMdagi ulushi ikki yil davomida yarmidan yuqori darajada saqlangan, biroq 2024-yilda 0,3 foiz punktga pasaygan. Bu ko‘rsatkich kichik biznesning mamlakat iqtisodiyotidagi muhim o‘rnini tasdiqlaydi.

3.2. Kichik biznes rivojlanishidagi muammolar

Kichik biznes subyektlari faoliyatida moliyaviy resurslarning cheklanganligi, kredit mablag‘laridan foydalanish shartlari, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish xarajatlari va bozordagi raqobat kabi omillar muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, tadbirkorlarning moliyaviy savodxonligi va boshqaruv ko‘nikmalari, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri yuritish, raqamli texnologiyalardan foydalanish hamda tashqi bozorlar talablariga moslashish kabi masalalar ham sektor samaradorligiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar sifatida ajratildi.

3.3. Kichik biznes samaradorligini oshirish yo‘nalishlari

Milliy iqtisodiyotda kichik biznesni rivojlantirish nafaqat yangi korxonalar tashkil etish, balki mavjud tadbirkorlik subyektlarining faoliyat samaradorligini oshirish bilan ham chambarchas bog‘liq. Kichik biznesning barqaror faoliyat yuritishi ishlab chiqarish hajmining ortishi, xizmatlar ko‘lamining kengayishi, mehnat unumdorligining oshishi va ichki bozorda raqobatning kuchayishiga xizmat qiladi. Shu sababli korxonalar sonini ko‘paytirish bilan bir qatorda, ularning uzoq muddatli faoliyatini ta‘minlash va iqtisodiy natijadorligini yaxshilashga ham alohida e’tibor qaratish zarur.

Moliyaviy yo‘nalish. Kichik biznesning iqtisodiy samaradorligini oshirishda moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish muhim ahamiyatga ega. Tadbirkorlik subyektlari o‘z faoliyatini kengaytirish uchun zarur mablag‘larni shakllantirishi, xarajatlarni to‘g‘ri rejalashtirishi va daromadlarni muntazam tahlil qilib borishi lozim. Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri tashkil etish korxonaning moliyaviy holatini baholash, foyda va zararlarni aniqlash hamda asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi. Moliyaviy hisob-kitoblarning shaffofligi tadbirkorning banklar va investorlar bilan hamkorligini ham mustahkamlaydi.

Innovatsion va raqamli yo‘nalish. Bugungi kunda elektron savdo, raqamli to‘lovlar, mijozlar bilan onlayn ishlash, avtomatlashtirilgan buxgalteriya dasturlari va elektron hujjat almashinuvi tadbirkorlik faoliyatini samarali tashkil etish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Bunday texnologiyalar vaqt va xarajatlarni tejash, mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish hamda mahsulot va xizmatlarni kengroq bozorga olib chiqishga ko‘maklashadi. Shu bilan birga, ularni joriy etishda tadbirkorlarning bilim va ko‘nikmalarini oshirish, axborot xavfsizligini ta‘minlash va zarur texnik infratuzilmani shakllantirish talab etiladi.

Hududiy yo‘nalish. Har bir hududning tabiiy resurslari, mehnat salohiyati, infratuzilmasi va bozor talabi tadbirkorlik faoliyatining yo‘nalishlariga ta‘sir ko‘rsatadi. Masalan, qishloq hududlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash, qadoqlash va sotishga ixtisoslashgan kichik korxonalarni tashkil etish mahalliy resurslardan samarali foydalanishga yordam beradi. Shahar hududlarida esa xizmat ko‘rsatish, axborot texnologiyalari, savdo va ishlab chiqarish sohalarida yangi biznes imkoniyatlari mavjud.

Ijtimoiy yo‘nalish. Kichik biznesning rivojlanishi aholi bandligini ta‘minlash va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yumshatishda ham muhim rol o‘ynaydi. Yangi korxonalar va xizmat ko‘rsatish subyektlarining tashkil etilishi aholining daromad topish imkoniyatlarini kengaytiradi, kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi va mahalliy iqtisodiy faollikni kuchaytiradi. Ayniqsa, yoshlar hamda kasb-hunar egallagan fuqarolar uchun tadbirkorlik faoliyati yangi imkoniyatlar yaratadi.

4. MUHOKAMA

Olingan natijalar kichik biznesning milliy iqtisodiyotdagi yetakchi o‘rni saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, 2024-yilda uning YaIMdagi ulushining biroz pasayishi sektor rivojlanishini faqat yalpi ulush bilan emas, balki tarmoqlar kesimida, mehnat unumdorligi va yaratilayotgan qo‘shilgan

qiymat bilan birgalikda baholash zarurligini bildiradi. Ikki yillik ma’lumotlar asosida uzoq muddatli tendensiya haqida xulosa chiqarish mumkin emas; bu keyingi tadqiqotlar uchun alohida vazifa hisoblanadi.

Kichik biznes subyektlari duch kelayotgan muammolar bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq: moliyaviy resurslarning cheklanganligi texnologiyalarni joriy etish va mahsulot sifatini oshirish imkoniyatlarini toraytiradi, bilim va boshqaruv ko‘nikmalarining yetishmasligi esa mavjud moliyaviy va raqamli imkoniyatlardan foydalanish samaradorligini pasaytiradi. Shu sababli kichik biznesni rivojlantirish kompleks yondashuvni talab etadi: moliyaviy barqarorlik, samarali boshqaruv, innovatsion faoliyat, malakali kadrlar va qulay tadbirkorlik muhiti bir-birini to‘ldiruvchi omillardir.

Tahlil natijalariga asoslanib, quyidagi takliflar ilgari surildi:

– kichik biznes uchun moliyalashtirish manbalari va maslahat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;

– tadbirkorlarning moliyaviy savodxonligi va boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirish;

– buxgalteriya hisobi, elektron savdo va raqamli to‘lov tizimlarini joriy etishni rag‘batlantirish;

– kichik korxonalarning mahsulot sifatini oshirish va eksport talablariga moslashishiga ko‘maklashish;

– hududlarning iqtisodiy xususiyatlaridan kelib chiqib, mahalliy tadbirkorlik loyihalarini qo‘llab-quvvatlash.

Kichik biznesning uzoq muddatli rivojlanishini ta‘minlash uchun davlat, moliya tashkilotlari, ta‘lim muassasalari va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash zarur. Tadbirkorlik subyektlariga huquqiy maslahatlar berish, biznes-reja tuzishga ko‘maklashish, kasbiy tayyorgarlikni kuchaytirish va bozorlar to‘g‘risidagi axborotdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish ijobiy natijalar berishi mumkin. Shu bilan birga, qo‘llab-quvvatlash choralari samaradorligini muntazam baholab borish, ajratilgan mablag‘lardan foydalanish natijalarini tahlil qilish va tadbirkorlarning real ehtiyojlarini hisobga olish lozim.

Keyingi tadqiqotlarda tarmoq va hududlar kesimidagi statistik ma’lumotlar, mehnat unumdorligi ko‘rsatkichlari hamda tadbirkorlar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovlar natijalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

5. XULOSA

Kichik biznesni rivojlantirish milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta‘minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish va raqobat muhitini yaxshilashning muhim omillaridan biridir. O‘zbekistonda

kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi 2023-yilda 53,8 foiz, 2024-yilda 53,5 foizni tashkil etgani ushbu sektorning strategik ahamiyatini ko‘rsatadi.

Tahlil asosida kichik biznesni rivojlantirish uchun moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish, tadbirkorlarning bilim va ko‘nikmalarini oshirish, raqamlashtirishni jadallashtirish hamda eksport salohiyatini mustahkamlash tavsiya etiladi. Qo‘llab-quvvatlash choralari hududlarning iqtisodiy imkoniyatlari va tadbirkorlarning amaliy ehtiyojlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi lozim. Mazkur yo‘nalishlarda izchil chora-tadbirlarning amalga oshirilishi kichik biznesning raqobatbardoshligini oshirish va milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi PF-50-son «Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi bo‘yicha statistik ma’lumotlar [Elektron resurs]. – URL: https://stat.uz (murojaat sanasi: 21.10.2026).

3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko‘rsatkichlariga oid statistik ma’lumotlar [Elektron resurs]. – URL: https://stat.uz (murojaat sanasi: 21.10.2026).

4. Schumpeter J. A. The Theory of Economic Development. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1934.

5. Drucker P. F. Innovation and Entrepreneurshi p. – New York: Harper & Row, 1985.

QISHLOQ JOYLARIDA AHOLI TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINING AHAMIYATI (2025–2026-YILLAR STATISTIK MA'LUMOTLARI ASOSIDA)

Parpiyev Shohabbos Fazlidinovich
Turon universiteti Andijon kampusi, Iqtisodiyot yo'nalishi 1-bosqich magistranti, Andijon, O'zbekiston
e-mail: parpiyevshohabbos@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada qishloq joylarida aholi turmush sifatini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy hamda ijtimoiy ahamiyati Milliy statistika qo'mitasining 2025–2026-yillardagi rasmiy ma'lumotlari asosida tahlil qilingan. Natijalar kichik tadbirkorlik qishloq xo'jaligi mahsulotining 94,9–97,1 foizini ishlab chiqarishini, aholi umumiy daromadlarining 57,6 foizi (2026-yil yanvar–iyun) kichik tadbirkorlik sohasidan shakllanishini ko'rsatdi. Andijon viloyatida bu ko'rsatkich 60,3 foizni, mustaqil bandlikdan olingan daromad ulushi esa 40,6 foizni tashkil etadi. Shu bilan birga, aholi jon boshiga daromad bo'yicha hududlararo tafovut 4,1 baravarga yetadi. Turmush sifatini baholashda daromaddan tashqari bandlik barqarorligi, xizmatlardan foydalanish va infratuzilma holati ham hisobga olinishi zarurligi asoslangan, amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, qishloq joylari, turmush sifati, aholi daromadlari, bandlik, kambag'allikni qisqartirish, oilaviy tadbirkorlik, mahalliy iqtisodiyot, raqamli iqtisodiyot.*

Аннотация. *В статье на основе официальных данных Национального комитета статистики Республики Узбекистан за 2025–2026 годы анализируется экономическое и социальное значение малого бизнеса и частного предпринимательства в повышении качества жизни сельского населения. Малое предпринимательство производит 94,9–97,1% продукции сельского хозяйства, а его доля в общих доходах населения в январе–июне 2026 года составила 57,6% (в Андижанской области — 60,3%). Разрыв по среднедушевым доходам между регионами достигает 4,1 раза. Обоснована необходимость учета при оценке качества жизни не только доходов, но и стабильности занятости, доступности услуг и состояния инфраструктуры; предложены практические меры.*

Ключевые слова: *малый бизнес, частное предпринимательство, сельские территории, качество жизни, доходы населения, занятость, сокращение бедности, семейное предпринимательство, цифровая экономика.*

Abstract. *Using official 2025–2026 data of the National Statistics Committee of Uzbekistan, this article examines the economic and social role of small business and private entrepreneurship in improving rural living standards. Small businesses account for 94.9–97.1% of agricultural output and 57.6% of total household income (January–June 2026; 60.3% in Andijan region), while per capita income differs 4.1-fold across regions. The article argues that living standards should be assessed not only by income but also by employment stability, access to services and infrastructure, and puts forward practical policy proposals.*

Keywords: *small business, private entrepreneurship, rural areas, quality of life, household income, employment, poverty reduction, family entrepreneurship, digital economy.*

KIRISH

Hududlarning mutanosib iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash, qishloq aholisining daromad manbalarini kengaytirish va turmush sifatini yaxshilash iqtisodiy siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ayniqsa, qishloq joylarida mavjud mehnat resurslaridan samarali foydalanish, mahalliy iqtisodiy salohiyatni ishga solish va aholining munosib bandligini ta’minlashda kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlik alohida ahamiyat kasb etadi. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil 1-iyul holatiga respublika doimiy aholisi 37,9 million kishini tashkil etib, uning 18,6 millioni (qariyb 49 foizi) qishloq joylarida istiqomat qiladi [2].

Qishloq hududlarining iqtisodiy rivoji tabiiy resurslar, mehnat salohiyati, ishlab chiqarish an’analari va mahalliy bozor imkoniyatlaridan qay darajada foydalanilishiga bog‘liq. Biroq iqtisodiy faoliyatning asosan qishloq xo‘jaligiga yo‘naltirilganligi, mavsumiy bandlikning yuqoriligi, mahsulotni qayta ishlash imkoniyatlarining cheklanganligi va xizmat ko‘rsatish sohasining yetarlicha rivojlanmaganligi aholi daromadlarining barqaror o‘sishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Mazkur sharoitda kichik biznes iqtisodiy faoliyatni diversifikatsiya qilish, yangi daromad manbalarini shakllantirish va mahalliy iqtisodiyotning barqarorligini mustahkamlash vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi rolini kuchaytirish, tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va

hududlarda qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Prezidentning 2025-yil 19-martdagi PF-50-son Farmoni kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan [1]. Shu nuqtayi nazardan, qishloq joylarida kichik biznesni faqat iqtisodiy o‘sish omili sifatida emas, balki aholi turmush sifatini yaxshilashga xizmat qiluvchi kompleks ijtimoiy-iqtisodiy mexanizm sifatida o‘rganish dolzarbdir.

Tadqiqotning maqsadi — qishloq joylarida turmush sifatini oshirishda kichik biznesning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini 2025–2026-yillardagi rasmiy statistika asosida ochib berish hamda tadbirkorlikni rivojlantirishga oid amaliy takliflarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari: kichik biznesning qishloq iqtisodiyotidagi o‘rnini aniqlash; uning aholi bandligi va daromadlariga ta’sirini yoritish; mavjud muammolarni tizimlashtirish; tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini asoslash.

1. Tadqiqot metodologiyasi va ma’lumotlar manbalari

Tadqiqotda statistik-qiyosiy tahlil, guruhlash va qiyosiy jadval usullaridan foydalanildi. Empirik asos sifatida Milliy statistika qo‘mitasi (stat.uz) press-relizlari ishlatildi: kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko‘rsatkichlari (2025-yil yanvar–sentabr va 2026-yil yanvar–iyun) [3, 4], 2026-yil 1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan subyektlar soni [5], korxona va tashkilotlar demografiyasi [6] hamda aholining umumiy daromadlari (2025-yil yanvar–sentabr va 2026-yil yanvar–iyun) [7, 8].

Ma’lumotlarni sharhlashda uchta cheklovni hisobga olish zarur. Birinchidan, rasmiy statistika hududlar (viloyatlar) kesimida beriladi, “shahar–qishloq” bo‘linishi bo‘yicha kichik biznes ko‘rsatkichlari e’lon qilinmaydi; shu sababli qishloq joylari uchun agrar ixtisoslashuvi yuqori viloyatlar va qishloq xo‘jaligi tarmog‘i ko‘rsatkichlari taxminiy (proksi) ko‘rsatkich sifatida qo‘llanildi. Ikkinchidan, 2025-yil oktabr va 2026-yil iyul holatidagi ma’lumotlar turli bazalar (Adliya vazirligi, keyinchalik Soliq qo‘mitasi ma’lumotlar bazasi) asosida shakllantirilgani sababli subyektlarning tarkibiy ulushlari (YATT, dehqon xo‘jaliklari) o‘zaro to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqqoslanmaydi [3, 4]. Uchinchidan, tahlil korrelyatsion xarakterga ega bo‘lib, sabab-oqibat bog‘liqligini isbotlamaydi. Shuningdek, PF-50-son Farmon kichik va o‘rta biznesni birgalikda qamrab oladi, statistika qo‘mitasi esa “kichik tadbirkorlik” ko‘rsatkichlarini alohida e’lon qiladi; mazkur maqolada ikkinchisi qo‘llanildi.

2. Qishloq joylarida turmush sifati va uning iqtisodiy mazmuni

Turmush sifati insonlarning nafaqat moddiy ta’minlanganligi, balki yashash sharoitlari, mehnat faoliyati, sog‘lig‘i, ta’lim olish imkoniyatlari, ijtimoiy himoyasi va jamiyatdagi iqtisodiy faolligi bilan belgilanadigan ko‘p qirrali tushunchadir. Shu sababli qishloq aholisining turmush sifatini baholashda faqat aholi jon boshiga daromad miqdorini hisobga olish yetarli emas. Asosiy omillar quyidagilardan iborat:

– aholi daromadlarining miqdori va barqarorligi;

– doimiy va munosib ish o‘rinlarining mavjudligi;

– ichimlik suvi, elektr energiyasi, gaz va transport infratuzilmasidan foydalanish imkoniyati;

– ta’lim va tibbiy xizmatlarning sifati hamda ulardan foydalanish imkoniyati;

– uy-joy sharoitlari va yashash muhitining qulayligi;

– tadbirkorlik va kasbiy rivojlanish imkoniyatlari;

– ijtimoiy himoya va moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyati.

Mazkur omillar o‘zaro uzviy bog‘liq: barqaror daromadga ega oila farzandlari ta’limiga ko‘proq mablag‘ yo‘naltirishi, sifatli tibbiy xizmatdan foydalanishi va uy-joy sharoitini yaxshilashi mumkin; doimiy daromad manbaining yo‘qligi esa oilaning ijtimoiy farovonligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, iqtisodiy imkoniyatlar hududning tabiiy, mehnat va ishlab chiqarish salohiyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgani uchun yagona yondashuvdan ko‘ra hududning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish maqsadga muvofiq. Masalan, bog‘dorchilik rivojlangan hududlarda meva-sabzavotni saralash, quritish, qadoqlash va saqlash, chorvachilikka ixtisoslashgan hududlarda sut va go‘sht mahsulotlarini qayta ishlash, hunarmandchilik an’analari mavjud qishloqlarda esa milliy mahsulotlar ishlab chiqarish va turizm xizmatlarini rivojlantirish samarali bo‘lishi mumkin.

3. Kichik biznesning iqtisodiyot, bandlik va daromadlardagi o‘rni: 2025–2026-yillar statistik tahlili

3.1. Kichik tadbirkorlik subyektlari soni va tarkibi

2026-yil 1-oktabr holatiga respublikada 1 264 501 ta kichik tadbirkorlik subyekti faoliyat yuritmoqda; shundan 551 093 tasi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini qo‘shgan holda), 713 408 tasi yakka tartibdagi tadbirkorlar, dehqon xo‘jaliklari, oilaviy tadbirkorlar, hunarmandlar va import tovarlari sotuvchilaridir [5]. Aholining har 1000 nafariga 2025-yil 1-oktabrda 32,1 ta, 2026-yil 1-iyulda 32,2 ta subyekt to‘g‘ri keldi [3, 4].

1-jadval.

Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni

Ko‘rsatkich	2025-yil 1-oktabr	2026-yil 1-iyul	2026-yil 1-oktabr
Jami kichik tadbirkorlik subyektlari, ming ta	1 212,0	1 236,1	1 264,5
shundan: kichik korxona va mikrofirmalar*, ming ta	479,0	526,7	551,1
Yuridik shaxs tashkil etmaganlar**, ming ta	733,1	709,5	713,4
Har 1000 aholiga nisbatan, birlik	32,1	32,2	—

*Manba: [3, 4, 5] asosida muallif tuzgan. * Fermer va dehqon xo‘jaliklari bilan birga. ** YATT, dehqon xo‘jaliklari, oilaviy tadbirkorlar, hunarmandlar va import tovarlari sotuvchilari. Ma’lumotlar bazasi o‘zgargani sababli (Adliya vazirligi → Soliq qo‘mitasi) davrlar aro tarkibiy taqqoslash cheklangan.*

Hududiy tuzilma qishloq iqtisodiyotining oilaviy-mayda xarakterini aks ettiradi. Masalan, Andijon viloyatida 2025-yil 1-oktabr holatiga 125 598 ta subyektning 97 169 tasi (77,4 foizi) yuridik shaxs tashkil etmagan tadbirkorlar bo‘lib, ulardan 68 103 tasi (jami subyektlarning 54,2 foizi) dehqon xo‘jaliklaridir; respublika bo‘yicha bu ko‘rsatkichlar mos ravishda 60,5 va 34,8 foizni tashkil etadi [3]. Subyektlarning har 1000 aholiga nisbati bo‘yicha 2026-yil 1-iyulda Toshkent shahri (50,4), Xorazm (46,3), Sirdaryo (41,1) va Navoiy (38,1) yetakchi bo‘ldi [4].

3.2. Yangi tashkil etilgan korxonalarning tarmoq tuzilmasi

2025-yil yanvar–sentabrda 62,2 ming, 2026-yil yanvar–iyunda 44,0 ming, yanvar–sentabrda esa 66,3 ming yangi kichik korxona va mikrofirma (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil etildi; 2026-yil yanvar–sentabr natijasi o‘tgan yilning mos davridan taxminan 6,6 foizga yuqori [3, 4, 5]. Yangi korxonalarning tarmoq tarkibi qishloq xo‘jaligidan tashqari faoliyat turlarining ustunligini ko‘rsatadi.

2-jadval.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar (iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha)

Faoliyat turi	2025-yil yanvar–sentabr, ta (ulushi)	2026-yil yanvar–iyun, ta (ulushi)
Savdo	22 918 (36,8%)	15 657 (35,6%)
Sanoat	8 088 (13,0%)	5 450 (12,4%)

Faoliyat turi	2025-yil yanvar–sentabr, ta (ulushi)	2026-yil yanvar–iyun, ta (ulushi)
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	7 714 (12,4%)	5 368 (12,2%)
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	5 513 (8,9%)	4 115 (9,4%)
Jami yangi tashkil etilgan	62 200	44 000

Manba: [3, 4]. Ulushlar muallif tomonidan jami soniga (yaxlitlangan) nisbatan hisoblangan; davrlar farqli bo‘lgani uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqqoslanmaydi.

3.3. Kichik biznesning iqtisodiy ko‘rsatkichlardagi ulushi

2025-yil yanvar–sentabrda kichik tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi 51,5 foizni, 2026-yil yanvar–iyunda 518,7 trln so‘m yoki 50,5 foizni tashkil etdi [3, 4]. Qishloq uchun eng muhim xulosa — agrar sektorning deyarli to‘liq kichik tadbirkorlik zimmasida ekanligidir: 2025-yil yanvar–sentabrda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotining 97,1 foizi (355,7 trln so‘m), 2026-yil yanvar–iyunda 94,9 foizi (257,1 trln so‘m) kichik tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri keldi [3, 4]. Shu bilan birga, kichik biznes chakana savdo aylanmasining 80,3 foizini, qurilish ishlarining 74,9 foizini, avtomobil transportida yo‘lovchi tashishning 90,9 foizini ta’minladi — bular qishloq aholisining kundalik xizmat va infratuzilma ehtiyojlariga bevosita bog‘liq tarmoqlardir [4].

3-jadval. Kichik tadbirkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari, 2026-yil yanvar–iyun

Ko‘rsatkich	Hajmi	Jami hajmdagi ulushi	2025-yil mos davriga nisbatan o‘sish
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik mahsuloti	257,1 trln so‘m	94,9%	104,2%
Sanoat mahsuloti	180,3 trln so‘m	28,3%	108,2%
Qurilish ishlari	143,9 trln so‘m	74,9%	112,9%
Chakana savdo aylanmasi	202,1 trln so‘m	80,3%	118,0%
Ko‘rsatilgan xizmatlar	374,2 trln so‘m	56,3%	115,8%
Asosiy kapitalga investitsiyalar	225,3 trln so‘m	66,5%	122,4%

Ko‘rsatkich	Hajmi	Jami hajmdagi ulushi	2025-yil mos davriga nisbatan o‘sish
Eksport	7,5 mlrd AQSh dollari	47,2%	—

Manba: [4].

O‘sish sur’atlari qishloq xo‘jaligidan tashqari tarmoqlarning (chakana savdo — 118,0%, xizmatlar — 115,8%, qurilish — 112,9%) agrar sektorga (104,2%) nisbatan tezroq rivojlanayotganini ko‘rsatadi. Bu mehnat resurslarini noagrar faoliyatga jalb etish va daromad manbalarini diversifikatsiya qilish imkoniyatlari mavjudligini tasdiqlaydi.

3.4. Aholi daromadlarida kichik biznesning o‘rni va hududiy tafovutlar

2026-yil yanvar–iyunda aholining umumiy daromadlari 618,3 trln so‘mni (real o‘sish — 109,2 foiz), aholi jon boshiga daromad 16,1 mln so‘mni tashkil etdi [8]; 2025-yil yanvar–sentabrda bu ko‘rsatkichlar 825,3 trln va 21,8 mln so‘m bo‘lgan edi [7]. Daromadlar tarkibining 63,1 foizi mehnat faoliyatidan (yollanma ishchilar — 29,3 foiz, mustaqil bandlik — 33,8 foiz), 26,7 foizi transfertlardan iborat; respublikadan tashqaridan kelgan pul o‘tkazmalari ulushi 18,2 foizga teng. Eng muhimi, aholi umumiy daromadlarining 57,6 foizi kichik tadbirkorlik sohasidan shakllangan [8].

4-jadval

Aholi daromadlari ko‘rsatkichlari ayrim hududlar kesimida, 2026-yil yanvar–iyun

Hudud	Jon boshiga daromad, ming so‘m	Kichik tadbirkorlikdan daromad ulushi, %	Mustaqil bandlikdan daromad ulushi, %	Pul o‘tkazmalari ulushi, %
Respublika bo‘yicha	16 112,0	57,6	33,8	18,2
Toshkent shahri	45 155,2	46,2	10,4	13,7
Andijon viloyati	13 915,0	60,3	40,6	26,3
Jizzax viloyati	12 719,3	68,4	53,0	7,9

Hudud	Jon boshiga daromad, ming so‘m	Kichik tadbirkorlikdan daromad ulushi, %	Mustaqil bandlikdan daromad ulushi, %	Pul o‘tkazmalari ulushi, %
Qashqadaryo viloyati	12 546,5	64,0	45,9	20,2
Namangan viloyati	11 427,8	64,0	45,0	18,9
Surxondaryo viloyati	10 908,6	60,1	41,3	23,3

Manba: [8]. Ko‘rsatkichlar Milliy statistika qo‘mitasining dastlabki ma’lumotlari.

4-jadval uchta qonuniyatni ko‘rsatadi. Birinchidan, yollanma ish o‘rinlari kam, mustaqil bandlik ulushi yuqori hududlarda (Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Andijon) aholi daromadining 60–68 foizi kichik tadbirkorlikka bog‘liq; Toshkent shahrida bu ulush 46,2 foiz, yollanma ishchilar daromadi esa 53,0 foizdir. Ya’ni qishloq ko‘p hududlarda kichik biznes — daromadning asosiy manbai. Ikkinchidan, hududlararo tafovut katta: Toshkent shahrida jon boshiga daromad Surxondaryo viloyatidagidan 4,1 baravar, Andijonda esa respublika o‘rtachasining 86,4 foizi darajasida (13,9 mln so‘m) [8]. Uchinchidan, Andijonda pul o‘tkazmalari ulushi 26,3 foizga yetadi: bu migratsiyadan tushgan mablag‘larni tadbirkorlik loyihalariga yo‘naltirish zaxirasi mavjudligini ko‘rsatadi (bu muallifning farazi bo‘lib, alohida tadqiqotni talab qiladi).

3.5. Kambag‘allik dinamikasi

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (CERR) ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil yakunlari bo‘yicha kambag‘allik darajasi 8,9 foizdan 5,8 foizgacha pasaygan; shaharlarda 8,6 dan 5,2 foizgacha, qishloqlarda 9,2 dan 6,4 foizgacha kamaygan [9]. Demak, qishloq joylarida pasayish sezilarli bo‘lsa-da (2,8 foiz bandi), shahar va qishloq o‘rtasidagi tafovut 0,6 dan 1,2 foiz bandigacha kengaygan. Bu qishloqqa yo‘naltirilgan, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlovchi chora-tadbirlarni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi. Eslatma: ushbu ko‘rsatkichlar Milliy statistika qo‘mitasi va Jahon banki kuzatuvlariga tayangan CERR tahliliga asoslangan.

4. Qishloq hududlarida kichik biznesni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari

Yuqoridagi tahlil asosida quyidagi ustuvor yo‘nalishlar asoslanadi.

Birinchi — qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va qo‘shilgan qiymat yaratish. Agrar mahsulotning 94,9–97,1 foizi kichik tadbirkorlikda yetishtirilar ekan, xomashyo holida sotish bilan cheklanish daromad imkoniyatlarini kamaytiradi. Meva-sabzavotni quritish, saralash, qadoqlash, muzlatish, saqlash va sut mahsulotlarini tayyorlash mahsulot nobud bo‘lishini kamaytiradi, bozor qiymatini oshiradi va qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratadi.

Ikkinchi — oilaviy tadbirkorlik va kasanachilikni rivojlantirish. Tikuvchilik, to‘qimachilik, milliy hunarmandchilik, qandolatchilik va buyurtma asosidagi ishlab chiqarish mavjud mehnat ko‘nikmalaridan foydalanishga imkon beradi. Mahsulot sifati, dizayni, qadoqlanishi va savdo kanallarini takomillashtirish, ayniqsa ayollar va yoshlarning kasbiy tayyorgarligini oshirish muhim.

Uchinchi — xizmat ko‘rsatish sohasini kengaytirish. Yangi korxonalarning 36–37 foizi savdoga, 9 foizga yaqini yashash va ovqatlanish xizmatlariga to‘g‘ri kelmoqda [3, 4]. Maishiy texnika ta’miri, transport, sartaroshlik, umumiy ovqatlanish, ta’lim xizmatlari aholi ehtiyojini qondirish bilan birga daromad manbai bo‘ladi. Qishloq va ekologik turizm ham istiqbolli, biroq turistik salohiyat, infratuzilma va bozor talabi oldindan baholanishi lozim.

To‘rtinchi — raqamli texnologiyalar va elektron savdo. Ijtimoiy tarmoqlar, elektron savdo platformalari va raqamli to‘lovlar tadbirkorga mahalliy bozordan chiqish imkonini beradi. Buning uchun internet infratuzilmasi, raqamli savodxonlik va elektron savdo bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish zarur.

Beshinchi — kooperatsiya va mahalliy qiymat zanjirlari. Mayda ishlab chiqaruvchilar xomashyo xarid qilish, saqlash, tashish va yirik buyurtmalarni bajarishda cheklangan; kooperatsiya, ishlab chiqaruvchilar birlashmalari va umumiy xizmat markazlari xarajatlarni kamaytirib, raqobatbardoshlikni oshiradi.

5. Kichik biznes rivojiga to‘sqinlik qiluvchi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari

Jahon bankining 2026-yil 5-fevraldagi materialiga ko‘ra, qishloq tadbirkorlari uchun asosiy to‘siqlar — moliyalashtirishning cheklanganligi, bozorlarning kichikligi, transport xarajatlarining yuqoriligi hamda tarmoq va

mentorlik muhitining zaifligidir. Jahon banki loyihasi doirasida qishloq joylaridagi 15 mingdan ortiq mikro, kichik va o‘rta biznes egalari qamrab olingan, 22 ta biznes-inkubatsiya markazi tashkil etilgan va 2025-yil dekabr holatiga 2 850 dan ortiq subloyihaga investitsiya kiritilgan [10]. Muammolar va ularning yechimlari quyidagicha tizimlashtirildi:

– Moliyaviy resurslardan foydalanish cheklangan (garov, foiz xarajatlari, boshlang‘ich kapital). Yechim: moliyaviy maslahat xizmatlari, biznes-reja tuzishda amaliy ko‘mak, imtiyozli moliyalashtirish haqida axborot va moliyaviy savodxonlik.

– Infratuzilma va logistika cheklovlari (elektr ta’minoti, transport xarajatlari, omborlar, internet sifati). Yechim: mahalliy infratuzilmani yaxshilash, saqlash va ishlab chiqarish obyektlaridan birgalikda foydalanish, transport-logistika xizmatlarini rivojlantirish.

– Tadbirkorlik va boshqaruv ko‘nikmalarining yetishmasligi (bozor tahlili, narx belgilash, moliyaviy oqimlar). Yechim: qisqa muddatli amaliy kurslar, mentorlik, maslahat xizmatlari.

– Bozorga chiqish imkoniyatlarining cheklanganligi (sifat standartlari, qadoqlash, reklama). Yechim: savdo tashkilotlari bilan hamkorlik, elektron savdo, hududiy brendlar.

– Mavsumiylik va norasmiy bandlik. Yechim: noagrar faoliyat turlarini rivojlantirish, faoliyatni rasmiylashtirishning afzalliklarini tushuntirish, huquqiy maslahat xizmatlari.

6. Turmush sifatini oshirish bo‘yicha takliflar va baholash mezonlari

Birinchidan, kichik biznes dasturlarini har bir hududning xomashyo, mehnat resurslari, transport imkoniyatlari va iste’molchi talabi tahliliga asoslab ishlab chiqish kerak. Ikkinchidan, qo‘llab-quvvatlash faqat boshlang‘ich bosqichga emas, korxonalarning uzoq muddatli faoliyatiga ham qaratilishi, moliyaviy yordam boshqaruv, marketing va raqamli savdo xizmatlari bilan uyg‘unlashtirilishi lozim. Uchinchidan, ayollar va yoshlar tadbirkorligini kasbiy tayyorgarlik, moliyaviy savodxonlik va elektron savdo orqali rag‘batlantirish zarur. To‘rtinchidan, kooperatsiyani rivojlantirish va beshinchidan, infratuzilmani tadbirkorlik bilan o‘zaro bog‘liq rejalashtirish talab etiladi.

Oltinchidan, kichik biznesning turmush sifatiga ta’sirini muntazam baholash tizimi shakllantirilishi kerak. Buning uchun quyidagi ko‘rsatkichlar tavsiya etiladi:

– Bandlik: yangi ish o‘rinlari, doimiy bandlik ulushi, ish o‘rinlarining saqlanib qolish darajasi.

– Daromad: aholi umumiy daromadlarida kichik tadbirkorlik va mustaqil bandlik ulushi, jon boshiga daromad, hududlararo tafovut.

– Tadbirkorlik: yangi tashkil etilgan va faoliyatini davom ettirayotgan subyektlar, tarmoq tuzilmasi (noagrar faoliyat ulushi).

– Ijtimoiy: ayollar va yoshlar faolligi, kasbiy tayyorgarlikdan o‘tganlar, moliyaviy xizmatlardan foydalanish.

– Infratuzilma va bozor: transport, internet, elektr ta’minoti; sotish geografiyasi va elektron savdo darajasi.

Ko‘rsatkichlar hududlar kesimida, bir xil metodologiya asosida va vaqt bo‘yicha taqqoslab o‘rganilishi, shuningdek, “shahar–qishloq” kesimidagi kichik biznes statistikasini e’lon qilish masalasi ko‘tarilishi maqsadga muvofiq. Natijalarni baholashda infratuzilma, ta’lim, demografik holat va umumiy iqtisodiy sharoit ta’siri ham hisobga olinishi kerak.

XULOSA

Tadqiqot natijalari qishloq joylarida turmush sifatini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hal qiluvchi iqtisodiy hamda ijtimoiy omil ekanini ko‘rsatdi:

1) Kichik tadbirkorlik qishloq xo‘jaligi mahsulotining 94,9–97,1 foizini, chakana savdoning 80,3 foizini, yo‘lovchi tashishning 90,9 foizini ta’minlaydi [3, 4]; ya’ni qishloq iqtisodiyoti amalda kichik biznes iqtisodiyotidir.

2) Aholi umumiy daromadlarining 57,6 foizi (Andijon viloyatida 60,3 foizi, Jizzax viloyatida 68,4 foizi) kichik tadbirkorlik sohasidan shakllanadi [8]; shu sababli uning barqarorligi qishloq oilalari farovonligiga bevosita ta’sir etadi.

3) 2026-yil yanvar–iyunda chakana savdo, xizmatlar va qurilish agrar sektorga qaraganda tezroq o‘sdi (118,0; 115,8; 112,9 va 104,2 foiz) [4], yangi korxonalarning qariyb 88 foizi qishloq xo‘jaligidan tashqari tarmoqlarda tashkil etilmoqda [3, 4]. Bu diversifikatsiya va mavsumiy bandlikni kamaytirish imkoniyatini kengaytiradi.

4) Hududlararo tafovut saqlanib qolmoqda: jon boshiga daromad Toshkent shahri va Surxondaryo o‘rtasida 4,1 baravar; shahar–qishloq kambag‘allik tafovuti 2025-yilda 0,6 dan 1,2 foiz bandigacha kengaygan [8, 9]. Qishloqqa yo‘naltirilgan qo‘llab-quvvatlash kuchaytirilishi lozim.

5) Kichik biznesning samaradorligini baholashda subyektlar soni yoki ishlab chiqarish hajmi bilan cheklanmay, ish o‘rinlari sifati, daromad

barqarorligi va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini ham hisobga olish kerak.

Takliflar: (a) hududiy ixtisoslashuv va bozor talabiga asoslangan loyihalarni qo‘llab-quvvatlash; (b) qayta ishlash, saqlash, qadoqlash va sotish zanjirlarini rivojlantirish; (c) oilaviy tadbirkorlik, kasanachilik va xizmat sohasida yangi daromad manbalarini yaratish; (d) moliyaviy va raqamli savodxonlikni oshirish; (e) kooperatsiyani rivojlantirish; (f) iqtisodiy va ijtimoiy ko‘rsatkichlarni birlashtirgan, shahar–qishloq kesimini ham qamrab oluvchi monitoring tizimini joriy etish. Kelgusi tadqiqotlarda mikro-darajadagi so‘rovnomalar asosida kichik biznesning oila daromadlariga ta’sirini ekonometrik baholash tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi PF-50-son “Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. Lex.uz. https://lex.uz/docs/-7444738

2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekistonning doimiy aholisi soni qariyb 38 mln nafarga yetmoqda. 09.07.2025. https://stat.uz/en/press-center/news-of-committee/62547-o-zbekistonning-doimiy-aholisi-soni-qariyb-38-mln-nafarga-yetmoqda-3

3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko‘rsatkichlari: 2025-yil yanvar–sentabr (press-reliz). 24.10.2025. https://stat.uz/img/press-relizlar/kb_uz_p25973.pdf

4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko‘rsatkichlari: 2026-yil yanvar–iyun (press-reliz). 28.07.2026. https://stat.uz/img/press-relizlar/kb_uz_p63577.pdf

5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekistonda 1,3 mlnga yaqin kichik tadbirkorlik subyekti faoliyat yuritmoqda. 28.10.2026. https://stat.uz/en/press-center/news-of-committee/70807-zbekistonda-1-3-mlnga-ya-in-kichik-tadbirkorlik-subekti-faoliyat-yuritmo-da-4

6. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Korxona va tashkilotlar demografiyasi bo‘yicha ma’lumotlar (press-reliz). 15.10.2026. https://stat.uz/img/press-relizlar/registr-press-reliz-01_10_26-uz-lotin_p98049.pdf

7. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekistonda aholi daromadlari 8,4 foizga o‘sdi (2025-yil yanvar–sentabr). 03.11.2025. https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/64948-zbekistonda-a-oli-daromadlari-8-4-foizga-sdi-2

8. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Aholining umumiy daromadlari: 2026-yil yanvar–iyun bo‘yicha dastlabki ma’lumot (press-reliz). 28.07.2026. https://stat.uz/img/press-relizlar/aoli-umumij-daromadlari_lotin_p56340.pdf

9. 2025-yilda O‘zbekistonda kambag‘allik darajasi 5,8% gacha qisqardi (CERR tahliliga asosan). Spot.uz, 31.12.2025. https://www.spot.uz/oz/2025/12/31/poverty-rate/

10. World Bank. Entrepreneurs Bring Jobs and Opportunity to Rural Uzbekistan. February 5, 2026. https://www.worldbank.org/en/news/feature/2026/02/05/entrepreneurs-bring-jobs-and-opportunity-to-rural-uzbekistan

Barcha elektron manbalarga murojaat sanasi: 29.10.2026.

CARBON BORDER COSTS FOR UZBEKISTAN'S NITROGEN FERTILISER EXPORTS: A SCENARIO ANALYSIS OF THE EU CBAM AND THE VALUE OF ENERGY EFFICIENCY

Sh.N. G'ofurov
Jahon iqtisodiyoti yo'nalishi magistranti
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
rektorat@uwed.uz

Abstract. *Since 26.01.2026 the EU Carbon Border Adjustment Mechanism[11] started to posit a tariffs into imported fertilizers. On the other hand, Uzbekistan strives to increase fertiliser exports to the Europe to 500 mln dollars a year. Through this research I assessed the cost of CBAM for Uzbek ammonium nitrate exports in a scenario model using various data sets. It includes 2024 trade data, EU default emission values, benchmarks and certificate prices. At default values the cost is approximately 177 euros per tonne in 2026 which is 69 percent of export unit value and 222 euros by 2034. Total 2026 – 2034 costs can be reduced by a third with 30 percent lower emissions intensity. Verified emissions data and energy efficiency are essential to export competitiveness.*

Keywords: *Carbon Border Adjustment Mechanism, fertilisers in firms, local environment, energy sector efficiency, carbon tariffs, objective analysis.*

INTRODUCTION

Carbon-related trade measures are changing the economics of energy-intensive exports. Since the start of the EU CBAM has been in its definitive regime. It covers cement, iron and steel, aluminium, fertilisers, electricity and hydrogen, and importers must buy certificates for embedded emissions, with sales opening on 01.02.2027 for 2026 imports (European Parliament & Council, 2023, 2025).

Fertilisers are among the most exposed sectors, because nitrogen fertiliser is made from ammonia produced mainly from natural gas, so its emissions are large relative to its price. Uzbekistan is directly concerned: EU countries imported 233.5 mln dollars of Uzbek fertiliser in 2025, and the government aims to raise this to 500 million dollars a year (Interfax, 2026). In

[11] CBAM - EU's tool to address carbon leakage by ensuring that the price of imports reflects their embedded carbon emissions.

ammonium nitrate[12], Uzbekistan was the largest supplier to the EU by value in 2024, with 134952 tonnes worth 39.3 mln dollars (World Bank, 2024).

This paper asks how large CBAM costs could be for Uzbek AN exports, how they evolve to 2034 as EU free allocation is phased out, and how far lower emissions intensity would reduce them. CBAM's compatibility with WTO rules is contested (Marín Durán, 2023) and is reportedly under panel review in dispute DS639 (Eurometal, 2026), which matters for Uzbekistan as a prospective WTO member; here CBAM is taken as given and the focus is economic.

Data and Methods

The analysis covers AN (CN 3102 30), the only CBAM-covered product with documented tonnage. It was about 37 percentage of the value of Uzbekistan's nitrogenous fertiliser exports to the EU in 2024 (author's calculation from World Bank, 2024, and Trading Economics, 2026), so results understate total exposure. The net cost per tonne follows the Commission's method:

$$\mathbf{Cost = P \times (E - F \times B).}$$

Here P is the certificate price, E the embedded emissions, B the product benchmark and F the share of free allocation still granted, meaning 97.5% in 2026, falling to 0 in 2034. Emissions above the benchmark are therefore charged in full, while the benchmark part is phased in gradually (European Parliament & Council, 2023; European Commission, 2025a). The cross-sectoral correction factor is set to one.

E is the default value for "other countries" of 2.750 tCO_2e per tonne plus the 1% fertiliser mark-up (European Commission, 2025b; CBAMGuide, 2026), and B is 0.508 tCO_2e per tonne (European Commission, 2025a). P is 77.65 euros in 2026, the average of the three published quarterly prices (European Commission, 2026), and 80 euros from 2027 in the base scenario, with 60 euros and 100 euros as alternatives. Volumes stay at the 2024 level. The export unit value is 258.6 euros per tonne (291 dollars at 1.1256 dollars per euro; AlCircle, 2026).

We contrasted 5 cases. In the first place A the default value, and second one is B which is verified emissions equal to A. C – E cases are verified emissions with the respective figures of 10%, 20% and 30% below the default. These reductions are hypothetical and plant-level data for Uzbekistan are not available.

[12] AN - it is a white crystalline salt consisting of ions of ammonium and nitrate.

RESULTS

Table 1

Reports net CBAM cost per tonne of ammonium nitrate in the base price scenario.

Table 1. Net CBAM cost per tonne of ammonium nitrate (EUR/t) and cumulative cost (EUR million)

Case	2026-y	2030-y	2034-y	Total 2026-2034, euros, m
A. default value (+1% mark-up)	177.2	201.3	222.2	242.2
B. verified = default	175.1	199.1	220.0	239.6
C. verified, 10% -	153.7	177.1	198.0	212.9
D. verified, 20% -	132.4	155.1	176.0	186.3
E. verified, 30% -	111.0	133.1	154.0	159.7

Source: author's calculations. Base volume 134952 t per year; price 80 euros from 2027y.

In 2026, CBAM cost 177 euros at default values. It equals to 69 percent of the export value, and it is expected to rise to 222 euros or 86 percent of export by 2034. In this example we can see that benchmark is well below the emissions cost which witnessed modest increase. It is charged fully from the start. The phase-out of free allocation makes only 45 euros per tonne addition. Costs are sensitive to the carbon price. For example, in 2030 the default-case cost is about 151 euros per tonne at 60 euros and 252 euros at 100 euros. Efficiency matters in that case. In other words, 30 euros lower intensity reduces cumulative 2026 - 2034 costs from 242 mln euros to 160 mln euros, a saving of 83 mln euros. In other words, turning into verified data without any efficiency gain saves only 2.7 mln euros. And just because the fertiliser mark-up is just 1 percent this figure we can get. If ammonium nitrate exports rose in line with the 500 mln euros target, the annual default-case cost would reach approximately 64 mln euros by 2034.

DISCUSSION

These figures are conditional. To say that, default values apply when installation data are missing, and actual emissions at Uzbek plants are somehow unknown. Even so, the 30 percent case still implies 111 euros per tonne or 43 percent of unit value in 2026. To that end exposure is material in every case

studied. From the legal point the importer pays, but competition from lower-cost suppliers would push part of the charge back onto exporters through lower prices. At the end this split cannot be estimated.

3 implications we should follow. Initially, measuring and checking emissions from the plant - level is just precondition for benefiting from any efficiency gains. Next, lower fuel volumes used in ammonia production and N_2O abatement in nitric acid plants are taken into consideration by reducing embedded emissions. Those measures used are main factors of energy efficiency. Lastly, Carbon Border Adjustment Mechanism credits only a carbon price paid in the country of origin. It is not efficiency standards (European Parliament and Council, 2023). Therefor we conclude that a domestic carbon-pricing instrument can be used as a one policy option. It is true, though, wider economic effects, which demand attention from the other stand point, should be separately studied. The main limitations we identify that are the single product and the unverified Uzbek-specific default value and benchmark, and scenario instead of forecast prices.

CONCLUSION

Under European Union default values, Carbon Border Adjustment Mechanism could absorb about 72 percent to 84 percent of the unit value of Uzbek ammonium nitrate exports. In most cases emissions above the EU benchmark are charged in full. It is the cause. Lower and verified emissions intensity reduce this burden greatly. Opposedly, a-500-million-dollars-of-fertiliser-exports target would increase the stakes. In short, the development of Uzbekistan’s fertiliser industry largely depends on foreign investment. Therefore, attracting investment to this sector can be estimated as an economic priority.

REFERENCES

1. AlCircle. (6.10.2026). *EU CBAM certificate price jumps to 82.32 euros in Q3*. https://www.alcircle.com/news/121455

2. Carbon Border Adjustment Mechanism Guide. (2026). *Sectors covered by CBAM*. https://cbamguide.com/sectors/

3. Eurometal. (2026). *WTO establishes CBAM dispute panel at Russia’s request*. https://eurometal.net/node/1234

4. European Commission. (2025a). *Implementing Reg. (EU) 2025/2620*. EUR-Lex.

5. European Commission. (2025b). *Implementing Reg. (EU) 2025/2621* (amended by Reg. 2026/1740).

6. European Commission. (2026). *Price of CBAM certificates*. DG TAXUD.

7. EU Parliament and Council. (2023). Reg. (EU) 2023/956 (CBAM). *OJ L 130*, 52–104.

8. EU Parliament and Council. (2025). Reg. (EU) 2025/2083 (CBAM simplification). *OJ*.

9. Interfax. (21.09.2026). *Uzbekistan aims to double fertilizer exports to EU*. https://interfax.com/newsroom/top-stories/119205/

10. Marín Durán, G. (2023). Securing compatibility of carbon border adjustments. *ICLQ*, 72(1), 73–103. https://doi.org/10.1017/S0020589322000501

11. Trading Economics. (2026). *EU imports of fertilizers from Uzbekistan*.

12. World Bank. (2024). *EU ammonium nitrate imports (HS 310230)*. WITS Database.

2017–2025-YILLARDA JIZZAX VILOYATINING CHO‘L HUDUDLARIDA SANOATNI RIVOJLANTIRISH VA XORIJIY INVESTITSIYALAR: DO‘STLIK VA MIRZACHO‘L TUMANLARI MISOLIDA

Umarqulova Gulchiroy Fayzulla qizi
GulDU tayanch doktoranti
Email: umarqulovagulcheroy@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada 2017–2025-yillarda Jizzax viloyatining cho‘l hududlarida joylashgan Do‘stlik va Mirzacho‘l tumanlarida sanoat tarmoqlarining rivojlanish jarayonlari, ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishi, sanoat korxonalari faoliyati, investitsiya jarayonlari hamda eksport ko‘rsatkichlari tarixiy-qiyosiy jihatdan tahlil qilingan. Davlatning iqtisodiy islohotlar va hududlarni kompleks rivojlantirishga qaratilgan siyosati doirasida amalga oshirilgan o‘zgarishlarning tumanlar miqyosidagi natijalari statistik ma’lumotlar asosida yoritilgan.*

Abstract. *The article provides a historical and comparative analysis of industrial development processes, changes in production volume, activities of industrial enterprises, investment processes, and export indicators in the Dustlik and Mirzachul districts, located in the desert zones of the Jizzakh region, from 2017 to 2025. Based on statistical data, the results of changes implemented within the framework of state economic reforms and policies aimed at the comprehensive development of regions are highlighted at the district level.*

Kalit so‘zlar: *Do‘stlik tumani, Mirzacho‘l tumani, sanoat, investitsiya, xorijiy investitsiya, sanoat korxonalari, eksport, hududiy rivojlanish, iqtisodiy islohotlar.*

Keywords: *Dustlik district, Mirzachul district, industry, investment, foreign investment, industrial enterprises, export, regional development, economic reforms.*

5. Центральный банк Республики Узбекистан. Roadmap Aimed at Further Improving the Bank Regulation and Supervision System in 2025–2028 [Электронный ресурс]. 2025. URL: https://cbu.uz/en/financial-stability/press-releases/3049881/

6. Центральный банк Республики Узбекистан. Cooperation Launched to Develop the Derivatives Market in Uzbekistan [Электронный ресурс]. 13 марта 2026 г. URL: https://cbu.uz/en/press_center/news/3596235/

5-SECTION

TALABALARNI AMALIY FAOLIYATGA YO‘NALTIRISHDA QO‘LLANILADIGAN METODLAR

Qayumova Muqaddasxon Axmadali qizi
Namangan davlat texnika universiteti
E-mail: ssacred78@.gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu tezisda talabalarni amaliy faoliyatga yo‘naltirishda foydalaniladigan o‘qitish metodlari yoritilgan. Amaliy mashqlar, loyiha metodi, muammoli ta’lim, guruhli ish va tajribaga asoslangan o‘qitishning imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Ushbu metodlarni tanlash va qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *amaliy faoliyat, o‘qitish metodlari, amaliy mashg‘ulot, loyiha metodi, muammoli ta’lim, tajribaga asoslangan ta’lim, mustaqil ish.*

Abstract. *This thesis discusses the teaching methods used to engage students in practical activities. It examines the potential of practical exercises, the project-based method, problem-based learning, group work, and experiential learning. Recommendations are provided for selecting and applying these methods effectively.*

Keywords: *practical activities, teaching methods, practical classes, project-based method, problem-based learning, experiential learning, independent work.*

KIRISH

Talabalarning amaliy faoliyatini rivojlantirishda o‘qitish metodlari muhim o‘rin tutadi. To‘g‘ri tanlangan metod talabalarni darsda faol ishtirok etishga, o‘rgangan bilimlarini amaliyotda qo‘llashga va muammolarga yechim topishga undaydi. Shu sababli o‘qituvchi mashg‘ulot maqsadi, fan mazmuni va talabalarning tayyorgarlik darajasiga qarab tegishli metodni tanlashi kerak.

D.A.Sayfullayeva majburiy fanlarni o‘qitishda mustaqil amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan metodlardan foydalanish masalasini yoritgan [1]. Muallifning mustaqil harakatga va faoliyatga yo‘naltirilgan texnologiyalar haqidagi maqolasida ham talabalarning faol ishtiroki va amaliy topshiriqlarni bajarishiga e’tibor qaratilgan [2].

Talabalarni amaliy faoliyatga yo‘naltirishda amaliy mashqlar metodidan foydalanish mumkin. Bu metod orqali talabalar nazariy ma’lumotlarni muayyan vazifalarni bajarishda qo‘llaydilar. Masalan, texnologik fanlarda

hisob-kitoblar bajarish, mahsulot yoki loyiha namunasini tayyorlash, jarayonlarni kuzatish va natijalarni tahlil qilish mumkin.

Loyiha metodi ham amaliy faoliyatni tashkil etishning qulay usullaridan biridir. Bunda talabalarga muayyan muammo yoki vazifa beriladi. Ular kerakli ma’lumotlarni to‘playdilar, vazifani bajarish rejasini tuzadilar va o‘z yechimlarini taqdim etadilar. Bu jarayon mustaqil izlanish, rejalashtirish va natijalarni tushuntirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Muammoli ta’lim metodida talabalar oldiga savol yoki muammoli vaziyat qo‘yiladi. Ular muammoni tahlil qilib, turli yechimlarni ko‘rib chiqadilar. Guruhli ish metodida esa talabalar vazifani hamkorlikda bajaradilar, fikr almashadilar va umumiy xulosaga keladilar.

B.N.Mengliyev kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda amaliy mashg‘ulotlarning o‘rnini tahlil qilgan [3]. Uning maqolasida amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda faol o‘qitish metodlari va zamonaviy ta’lim vositalaridan foydalanish masalalari ko‘rib chiqilgan. D.D.Yoqubjanova va N.T.Mamatxanova ham talabalarning kasbiy-amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik yondashuvlarni yoritganlar [4].

Xorijiy tadqiqotlarda ham amaliy tajribaga asoslangan ta’limga e’tibor qaratiladi. R.Gavillet oliy ta’limda tajribaga asoslangan o‘qitishning talabalar uchun ahamiyatini o‘rgangan [5]. L.Simons amaliyot hamda stajirovka davomida talabalar oladigan tajribani tahlil qilganlar [6]. V.Villarroel tadqiqoti esa oliy ta’limda tajribaga asoslangan, talabaga yo‘naltirilgan o‘qitish metodini ko‘rib chiqadi [7].

E.F.Kokanovich amaliyotga yo‘naltirilgan ta’limni oliy ta’lim muassasasida tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlarini tahlil qilgan [8]. O.G.Tavstukha oliy ta’lim dasturlarida amaliyotga yo‘naltirilgan yondashuvni qo‘llash masalasini o‘rganganlar [9]. D.Duchatelet sharh tadqiqotida oliy ta’limdagi tajribaga asoslangan o‘quv muhitlari va ulardan kutiladigan natijalar ko‘rib chiqilgan [10].

Ushbu manbalardan kelib chiqib, o‘qituvchi amaliy mashqlar, loyiha metodi, muammoli topshiriqlar va guruhli ishlarni mashg‘ulot maqsadiga qarab qo‘llashi mumkin. Bunda talabalarga vazifani mustaqil bajarish uchun imkoniyat berish, zarur ko‘rsatmalar bilan ta’minlash va bajarilgan ishlarni muhokama qilish muhimdir.

1-jadval.

Talabalarni amaliy faoliyatga yo‘naltirishda qo‘llaniladigan metodlar

Metod nomi	Metodning mazmuni va maqsadi	Talabaning darsdagi o‘rni va faoliyati
Amaliy mashqlar metodi	Nazariy bilimlarni amaliy topshiriqlarda qo‘llash, hisob-kitoblar bajarish, namuna tayyorlash va texnik jarayonlarni o‘rganish.	Ijrochi va kuzatuvchi: hisoblashlarni bajaradi, namuna tayyorlaydi va olingan natijalarni tahlil qiladi.
Loyiha metodi	Amaliy muammoni har tomonlama o‘rganish, axborot yig‘ish hamda muhandislik-loyihaviy yechimlar va taqdimotlar tayyorlash.	Tadqiqotchi va loyihachi: ma’lumot to‘playdi, harakatlar rejasini tuzadi va tayyor yechim loyihasini taqdim etadi.
Muammoli ta’lim	Muammoli va nostandart vaziyatlarni tahlil qilish, gipotezalarni ilgari surish hamda eng maqbul yechimlarni topish.	Tahlilchi va izlanuvchi: muammoni o‘rganadi, turli yechimlarni solishtiradi va to‘g‘ri qaror tanlaydi.
Guruhli ish	Vazifalarni birgalikda bajarish, o‘zaro fikr va tajriba almashish hamda hamkorlikda umumiy yechimga kelish.	Jamoa a’zolari: vazifani bo‘lishib oladi, muhokamada qatnashadi va birgalikda yechim ishlab chiqadi.
Tajribaga asoslangan ta’lim	Real ishlab chiqarish va amaliyot jarayonlarida bevosita kuzatish, stajirovka o‘tash va tajriba orttirish.	Amaliyotchi va kuzatuvchi: real ob’ektlarda ishlaydi, texnologik jarayonlarni bajaradi va tajriba yig‘adi.
Raqamli ta’lim metodlari	Zamonaviy elektron resurslar, dasturlar, virtual simulyatsiyalar va interaktiv platformalardan unumli foydalanish.	Raqamli foydalanuvchi: virtual topshiriqlar, kompyuter dasturlari va interaktiv platformalar bilan ishlaydi.

Jadvalda talabalarni amaliy faoliyatga yo‘naltirishda foydalanish mumkin bo‘lgan asosiy o‘qitish metodlari, ularning qo‘llanish mazmuni va kutiladigan natijalari ko‘rsatilgan. Metodlarni tanlashda fan xususiyati, mashg‘ulot maqsadi va talabalarning tayyorgarlik darajasini hisobga olish lozim. Bir mashg‘ulot davomida bir nechta metodni o‘zaro uyg‘unlashtirib qo‘llash ham mumkin.

Metodlarni tanlashda ularning o‘zaro uyg‘unligiga ham e’tibor berish lozim. Masalan, mashg‘ulot avvalida muammoli vaziyat taqdim etilib, keyingi bosqichda talabalar kichik guruhlarda loyiha yoki amaliy topshiriq ustida ishlashlari mumkin. Yakunda esa har bir guruh o‘z yechimini taqdim etib, bajarilgan ish yuzasidan fikr almashadi. Bunday tashkil etish usuli talabalarning nazariy bilimlarini amaliy vazifa bilan bog‘lash, o‘z fikrini asoslash va hamkorlikda ishlash imkoniyatini kengaytiradi.

Amaliy faoliyatda raqamli resurslar va interaktiv topshiriqlardan ham foydalanish mumkin. Biroq texnologiya o‘z-o‘zidan ta’lim sifatini oshirmaydi. U aniq o‘quv maqsadiga xizmat qilishi, talabalarning faol ishtirokini ta’minlashi va natijalarni tahlil qilish imkonini berishi lozim.

Amaliy mashg‘ulot yakunida talabalarning bajargan ishlarini baholash bilan birga, qo‘llanilgan metodning samaradorligini ham tahlil qilish maqsadga muvofiq. Bunda topshiriqning bajarilish sifati, talabaning faolligi, mustaqil qaror qabul qilishi, guruh bilan hamkorligi va o‘z yechimini izohlashi kabi mezonlardan foydalanish mumkin. Olingan natijalar keyingi mashg‘ulotlarda metodlarni takomillashtirishga yordam beradi.

XULOSA

Talabalarni amaliy faoliyatga yo‘naltirishda amaliy mashqlar, loyiha metodi, muammoli ta’lim va guruhli ishlardan foydalanish mumkin. Metodlarni mashg‘ulot maqsadiga mos tanlash va talabalarga mustaqil ishlash imkoniyatini berish ularning bilimlarini amaliyotda qo‘llashiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. D.A.Sayfullayeva Talabalarni mustaqil amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv asosida majburiy fanlarni o‘qitishda qo‘llaniladigan metodlar.

2. D.A.Sayfullayeva Oliy ta’lim muassasalarida majburiy fanlarni o‘qitishda mustaqil harakatga va faoliyatga yo‘naltirilgan texnologiyalardan foydalanish. *Pedagogik mahorat*, 2024, № 5.

3. B.N.Mengliyev Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda amaliy mashg‘ulotlarning roli. 2025, 414–421-betlar.

4. D.D.Yoqubjanova, N.T.Mamatxanova Talabalarda kasbiy-amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik yondashuvlar.

5. R.Gavillet Experiential Learning and Its Impact on College Students // *Texas Education Review*, 2018.

6. L.Simons et al. Lessons Learned from Experiential Learning: What Do Students Learn from a Practicum/Internship? // *International Journal of Teaching and Learning in Higher Education*, 2012, 24(3), 325–334.

7. V.Villarroel, M.Benavente, M.J.Chuecas, D.Bruna Experiential Learning in Higher Education: A Student-Centered Teaching Method That Improves Perceived Learning // *Journal of University Teaching and Learning Practice*, 2020.

8. Э.Ф.Коканович Педагогические условия организации практико-ориентированного обучения в высшем учебном заведении.

9. О.Г.Тавстуха, Е.Г.Матвиевская, Е.А.Ганаева. Практико-ориентированный подход в реализации образовательных программ гуманитарного направления в вузе.

10. D.Duchatelet, F.Cornelissen, M.Volman Features of Experiential Learning Environments in Relation to Generic Learning Outcomes in Higher Education: A Scoping Review // *Journal of Experiential Education*, 2024.

TALABALARDA KASBIY KOMPETENSIYALARNI AMALIY FAOLIYAT ORQALI SHAKLLANTIRISH

Qayumova Muqaddasxon Axmadali qizi
Namangan davlat texnika universiteti
E-mail: ssacred78@.gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu tezisda talabalarda kasbiy kompetensiyalarni amaliy faoliyat orqali shakllantirish masalalari yoritilgan. Nazariy bilimlarni kasbiy vazifalarda qo‘llash, amaliy mashg‘ulotlar, pedagogik amaliyot, mustaqil loyihalar va natijalarni tahlil qilishning ahamiyati ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *kasbiy kompetensiya, amaliy faoliyat, kasbiy ko‘nikma, amaliy mashg‘ulot, mustaqil ish, kasbiy tayyorgarlik, refleksiya.*

Abstract*. This thesis discusses the formation of students’ professional competencies through practical activities. It examines the importance of applying theoretical knowledge to professional tasks, practical classes, teaching practice, independent projects, and the analysis of learning outcomes.*

Keywords: *professional competence, practical activities, professional skills, practical classes, independent work, professional training, reflection.*

KIRISH

Oliy ta’limning muhim vazifalaridan biri talabalarni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlashdir. Buning uchun talaba o‘z yo‘nalishiga oid nazariy bilimlarni o‘zlashtirishi bilan birga, ularni amaliy vazifalarni bajarishda qo‘llashni ham o‘rganishi kerak. Kasbiy kompetensiya bilim, ko‘nikma va tajribadan tegishli vaziyatlarda foydalana olish bilan bog‘liq.

Talabalarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda amaliy mashg‘ulotlar, mustaqil topshiriqlar, loyiha ishlari va kasbiy vaziyatlarni tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Bunday mashg‘ulotlarda talabalar o‘z bilimlarini sinab ko‘radilar, muammolarni aniqlaydilar va ularni hal qilish yo‘llarini izlaydilar.

T.B.Igoninaning dissertatsiyasi pedagogik amaliyot sharoitida talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirishga bag‘ishlangan [1]. Tadqiqotda talabalarning kasbiy bilimlari va ko‘nikmalarini rivojlantirishda amaliy faoliyat hamda pedagogik rahbarlikning ahamiyati yoritilgan. S.N.Shchur va N.P.Belyayeva ham talabalar pedagogik amaliyotini tashkil etish masalalarini ko‘rib chiqqanlar [2].

G.V.Averkieva va S.S.Shchekina pedagogik amaliyotni bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tajribasini shakllantirish va o‘z faoliyatini tahlil qilish muhiti sifatida o‘rganganlar [3]. N.P.Cheremiskina esa talabalarni kasbiy tayyorlashning tuzilishiga e’tibor qaratgan [4]. Bu manbalar kasbiy tayyorgarlikni faqat nazariy bilimlar bilan cheklab bo‘lmasligini ko‘rsatadi.

B.N.Mengliyev kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda amaliy mashg‘ulotlarning rolini yoritgan [5]. O.F.Hamroyeva oliy ta’lim muassasasi talabalarining kasbiy-kommunikativ kompetentligini rivojlantirish masalasini ko‘rib chiqqan [6]. M.A.Saidova esa kasbiy kompetensiyalarni baholash va shakllantirish yo‘llarini o‘rgangan [7]. Ushbu ishlar kasbiy kompetensiya turli bilim va ko‘nikmalarni o‘z ichiga olishini hamda uni amaliy vaziyatlarda namoyon etish muhimligini ko‘rsatadi.

T.B.Feylingning tadqiqoti oliy va qo‘shimcha ta’lim integratsiyasi sharoitida talabalar kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga bag‘ishlangan [8]. L.Simons va hammualliflar amaliyot va stajirovkaning talabalarning tajribasiga ta’sirini o‘rganganlar [9]. D.Duchatelet va hammualliflarning sharh tadqiqotida oliy ta’limda tajribaga asoslangan o‘quv muhitlari va ulardan kutiladigan natijalar ko‘rib chiqilgan [10].

Talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun ularni o‘z mutaxassisligiga mos vazifalarni bajarishga jalb etish lozim. Masalan, talabalar amaliy loyiha tayyorlashi, kasbiy muammoni tahlil qilishi, muayyan jarayonni rejalashtirishi yoki guruhda yechim ishlab chiqishi mumkin. Bunday vazifalar talabalarni o‘z bilimlarini amalda qo‘llashga o‘rgatadi.

Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda o‘qituvchining yordami ham muhim. O‘qituvchi vazifani tushuntiradi, bajarish jarayonini kuzatadi va talabaning ishiga fikr bildiradi. Talaba esa bajarilgan ishni tahlil qilib, kamchiliklarini aniqlaydi va keyingi faoliyatida ularni tuzatishga harakat qiladi.

Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida ta’lim muassasasidagi amaliy mashg‘ulotlarni ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalaridagi real vazifalar bilan bog‘lash alohida ahamiyatga ega. Jumladan, texnik va texnologik yo‘nalishlarda talabalar mahsulot sifatini baholash, texnologik jarayonni kuzatish, uskunalarning ishlash tamoyilini o‘rganish hamda yuzaga keladigan muammolar bo‘yicha takliflar ishlab chiqish kabi topshiriqlarni bajarishlari mumkin. Bu jarayon kasbiy bilimlarning amaliy mazmunini chuqurroq anglashga yordam beradi.

1-jadval.

Talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning tizimli-faoliyatli modeli

Bosqich va modul	Tadbirlar va jarayonlar	Pedagogik maqsadi va vazifasi	Kutiladigan natija va erishilgan daraja
I. Nazariy va tayyorgarlik moduli	Nazariy bilimlarni o‘zlashtirish, Amaliy ko‘nikmalarni birlashtirish, Mustaqil fikrlashni rivojlantirish, Kasbiy muloqot muhitini yaratish	Talabalarni kelgusi kasbiy faoliyatga tayyorlash va zaruriy nazariy poydevorni barpo etish.	Kasbiy bilimlarning intellektual va amaliy asoslari shakllanadi.
II. Amaliy faoliyat moduli	Mutaxassislik yo‘nalishi bo‘yicha loyihalar, Amaliy topshiriq bajarish	Egallangan nazariy bilimlarni real va amaliy vaziyatlarda qo‘llab ko‘rish.	Kasbiy topshiriqlarni amalda bajarish va tajriba orttirish ko‘nikmasi hosil bo‘ladi.
III. Muammolarni hal qilish moduli	Ishlab chiqarish jarayonlarini o‘rganish, Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va yechim topish	Talabalarda tahliliy fikrlash, tanqidiy yondashuv va to‘g‘ri qaror qabul qilishni rivojlantirish.	Innovatsion va samarali yechimlarni izlab topish ko‘nikmasi oshadi.
IV. Tahlil va baholash moduli	Natijalarni baholash, Kamchiliklarni aniqlash, Xulosalar chiqarish va xatolarni tuzatish	O‘z faoliyatini xolis baholash (refleksiya) va kelgusi rivojlanish yo‘nalishini belgilash.	Xatolardan xulosa chiqarish hamda o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyati mustahkamlanadi.
V. Yakuniy natija moduli	Uzluksiz kasbiy rivojlanish, Mahoratni oshirish va yangi ko‘nikmalarni egallash	Ta’lim jarayonini real ishlab chiqarish va amaliyot talablari bilan uzviy bog‘lash.	Yuqori malakali, raqobatbardosh va mutaxassis sifatida shakllangan kasbiy kompetensiya

Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga ta’sir etuvchi asosiy omillar va ularning o‘zaro bog‘liqligi tasvirlangan. Nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, mustaqil fikrlash hamda muloqot qobiliyati kasbiy kompetensiyaning tarkibiy asoslarini tashkil etadi. Ushbu jihatlar kasbiy topshiriqlarni bajarish va muammolarni hal qilish jarayonida namoyon bo‘ladi. Natijalarni tahlil qilish esa talabaning o‘z faoliyatini baholashi va kasbiy ko‘nikmalarini takomillashtirishiga imkon beradi.

Kasbiy kompetensiyani baholashda talabaning faqat nazariy savollarga javob berishi emas, balki topshiriqni qanday bajargani, bilimlarini amaliyotda qo‘llashi, muammoga yechim topishi va natijalarini tushuntira olishi ham

hisobga olinishi kerak. Shu sababli baholash mezonlari mashg‘ulot boshida aniq tushuntirilishi maqsadga muvofiq.

Baholash jarayonida talabaning kasbiy vazifani mustaqil bajarishi, ish jarayonida xavfsizlik va texnologik talablarga rioya qilishi, jamoa bilan hamkorlik qilishi hamda olingan natijalarni asoslab bera olishi kabi jihatlarni hisobga olish mumkin. Shuningdek, talabaning o‘z faoliyatiga tanqidiy yondashishi va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishi kasbiy rivojlanishning muhim ko‘rsatkichlaridan hisoblanadi.

XULOSA

Talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar va kasbiy vazifalar bilan bog‘lash zarur. Mustaqil loyihalar, amaliy topshiriqlar va o‘z faoliyatini tahlil qilish talabalarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Т.Б.Игонина *Формирование профессиональной компетентности студентов в условиях педагогической практики (на примере классического университета,* Кандидатская диссертация, Кемерово, 2001.

2. С.Н.Щур, Н.П.Беляева Педагогическая практика студентов: организационный аспект // *Журнал и страницы требуют уточнения,* 2014.

3. Г.В.Аверкиева, С.С.Щекина Педагогическая практика как рефлексивная среда формирования профессионального опыта будущего учителя, 2014

4. Н.П.Черемискина Профессиональная подготовка студентов: особенности структуры, 2016 (26/68).

5. B.N.Mengliyev Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda amaliy mashg‘ulotlarning roli // *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences,2025*, *5*(5), 414–421.

6. O.F.Hamroyeva Oliy ta’lim muassasasi talabalarini kasbiy-kommunikativ kompetentligini rivojlantirish // *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 2023, 985–991.

7. M.A.Saidova Ways to evaluate the professional competence of teachers and its formation // *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, *1*(Special Issue 2), 2021, 168–172.

8. Т.Б.Фейлинг *Формирование профессиональных компетенций студентов вузов в интегрированной системе высшего и дополнительного образования*, Диссертация, 2012.

9. L.Simons, et al. Lessons learned from experiential learning: What do students learn from a practicum/internship? // *International Journal of Teaching and Learning in Higher Education, 24*(3),2012, 325–334.

10. D.Duchatelet, F.Cornelissen, M.Volman Features of experiential learning environments in relation to generic learning outcomes in higher education: A scoping review // *Journal of Experiential Education, 2024*.

BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA MATN YARATISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Urgutova Muxlisa Sherali qizi.
Ta’lim tarbiya nazariyasi (boshlang‘ich ta’im) yonalishi

Annotatsiya: *Maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy va metodik asoslari yoritiladi. Matn yaratish jarayonining lingvistik, kommunikativ va kognitiv jihatlari tahlil qilinib, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, mazmunni izchil bayon etish, so‘z boyligidan o‘rinli foydalanish hamda yozma nutqni shakllantirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, samarali metodlar, ijodiy topshiriqlar va pedagogik yondashuvlar asosida kompetensiyani rivojlantirish yo‘llari tavsiya etiladi.*

Kalit so‘zlar: *matn yaratish, kommunikativ kompetensiya, boshlang‘ich ta’lim, ona tili, yozma nutq, og‘zaki nutq, mustaqil fikrlash, ijodiy topshiriq, matn tuzilishi, metodik yondashuv.*

Abstract: *The article examines the theoretical and methodological foundations of developing text creation competence among primary school pupils in native language lessons. It analyzes the linguistic, communicative, and cognitive aspects of text production, focusing on the development of independent thinking, coherent expression, appropriate vocabulary use, and written communication skills. Furthermore, the study presents effective teaching methods, creative assignments, and pedagogical approaches designed to improve pupils' ability to construct meaningful, logically structured, and communicatively appropriate texts.*

Keywords: *text creation, communicative competence, primary education, native language, written speech, oral speech, independent thinking, creative assignment, text structure, methodological approach.*

KIRISH

Bugungi kunda boshlang‘ich ta’lim mazmunini takomillashtirish, o‘quvchilarning nafaqat grammatik bilimlarini, balki ularni amaliy nutqiy faoliyatda qo‘llash qobiliyatlarini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ona tili ta’limida matn yaratish kompetensiyasini shakllantirish o‘quvchilarning fikrlash, muloqot qilish, axborotni qayta ishlash va o‘z qarashlarini izchil ifodalash imkoniyatlarini kengaytiradi. Chunki matn

yaratish oddiy gaplarni ketma-ket yozishdan iborat bo‘lmay, muayyan maqsad asosida mazmunni shakllantirish, fikrlarni mantiqiy tartibga solish, til vositalarini to‘g‘ri tanlash va kommunikativ vaziyatga mos ravishda ifodalashni talab qiladigan murakkab nutqiy jarayondir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun matn yaratish ko‘nikmalarining rivojlanishi, avvalo, ularning og‘zaki nutq tajribasi, lug‘at boyligi, grammatik bilimlari va mustaqil fikrlash qobiliyati bilan chambarchas bog‘liq. Mazkur yosh davrida o‘quvchilar atrof-muhitdagi hodisalarni kuzatish, voqealar o‘rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini anglash, predmet va hodisalarning xususiyatlarini taqqoslash hamda o‘z taassurotlarini ifodalashga faol kirishadilar. Shu sababli ona tili darslarida matn yaratishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlarni tizimli tashkil etish ularning kommunikativ rivojlanishi uchun muhim shart hisoblanadi.

Ernazarova va Jo‘rayeva boshlang‘ich sinf ona tili darslarida matn yaratishning ahamiyatini yoritib, ushbu faoliyatning o‘quvchilar nutqiy rivojlanishidagi o‘rniga e’tibor qaratadilar [1, 686–689-b]. Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, matn yaratishni ona tili ta’limining qo‘shimcha mashqi sifatida emas, balki til bilimlarini amaliy qo‘llashga xizmat qiluvchi muhim ta’limiy faoliyat sifatida tashkil etish zarur.

Matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirishda o‘quvchining tayyor matnni qayta hikoya qilishi yoki berilgan gaplarni yozib olishi bilan cheklanib qolmaslik lozim. Aksincha, u mustaqil ravishda mavzuni anglash, matn mazmunini rejalashtirish, kerakli so‘z va birikmalarni tanlash, gaplarni o‘zaro bog‘lash, fikrlar izchilligini ta’minlash hamda yaratilgan matnni tahrir qilish jarayonlarida faol ishtirok etishi kerak. Bunday yondashuv o‘quvchida til vositalaridan ongli foydalanish va o‘z nutqiy faoliyatini nazorat qilish malakalarini rivojlantiradi.

Shu nuqtayi nazardan, boshlang‘ich sinf ona tili darslarida matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirishning samarali metodikasini ishlab chiqish, o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga mos topshiriqlar tizimini shakllantirish hamda ta’lim jarayoniga interfaol usullarni tatbiq etish dolzarb metodik masala hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirish o‘quvchilarning til birliklari haqidagi bilimlarini amaliy nutqiy faoliyat bilan uyg‘unlashtirishni nazarda tutadi. Mazkur kompetensiya o‘quvchining muayyan mavzu yuzasidan mustaqil fikr shakllantirishi, uni og‘zaki yoki yozma shaklda ifodalashi, gaplar o‘rtasidagi mazmuniy

bog‘liqlikni ta’minlashi hamda yaxlit matn tuza olish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun matn yaratish jarayonini faqat imlo va grammatik qoidalarga asoslangan yozma mashq sifatida talqin qilish to‘g‘ri emas. Unda o‘quvchining bilish faoliyati, lug‘aviy imkoniyatlari, mantiqiy tafakkuri va kommunikativ ehtiyojlari o‘zaro uyg‘unlashadi.

Matn yaratish kompetensiyasining shakllanishida bir nechta tarkibiy komponentlar muhim ahamiyatga ega. Birinchi komponent – motivatsion komponent bo‘lib, u o‘quvchining fikr bildirishga, voqea-hodisalarni tasvirlashga va o‘z taassurotlarini yozma ifodalashga bo‘lgan qiziqishini anglatadi. Ikkinchi komponent – kognitiv komponent bo‘lib, mavzuni tushunish, zarur axborotni tanlash, voqealar ketma-ketligini aniqlash va mazmunni rejalashtirish bilan bog‘liq. Uchinchi komponent – lingvistik komponent bo‘lib, so‘z boyligi, grammatik shakllar, gap qurilishi va imlo qoidalaridan to‘g‘ri foydalanishni qamrab oladi. To‘rtinchi komponent – kommunikativ komponent bo‘lib, matnning maqsadi, mazmuni va adresatiga muvofiq fikrni ifodalashni ta’minlaydi. Beshinchi komponent – refleksiv-tahririy komponent bo‘lib, yaratilgan matnni qayta o‘qish, xatolarni aniqlash, mazmuniy va grammatik jihatdan takomillashtirish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi.

Mazkur komponentlarning o‘zaro aloqadorligi matn yaratish faoliyatining yaxlitligini ta’minlaydi. Masalan, o‘quvchi “Mening sevimli faslim” mavzusida matn tuzayotganda dastlab mavzuga nisbatan shaxsiy munosabatini shakllantiradi, keyin faslga xos belgilarni eslaydi, ularni ifodalash uchun mos so‘zlarni tanlaydi va gaplarni mantiqiy ketma-ketlikda birlashtiradi. Yakunda esa matnni qayta o‘qib, mazmunning izchilligi va imloviy to‘g‘riligini tekshiradi. Demak, matn yaratish jarayoni bir-birini to‘ldiruvchi aqliy va nutqiy harakatlar tizimidan tashkil topadi.

Matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish alohida metodik ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mavhum tushunchalarga nisbatan aniq predmetlar, tasvirlar, hayotiy vaziyatlar va shaxsiy tajribaga asoslangan topshiriqlar samaraliroq natija beradi. Shu sababli matn yaratishga o‘rgatish jarayonida rasmlar asosida hikoya tuzish, kuzatilgan voqealarni bayon qilish, predmetlarni taqqoslash, berilgan so‘zlardan gaplar hosil qilish va voqealar ketma-ketligini aniqlash kabi mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Hamroyev boshlang‘ich sinf ona tili ta’limida kognitiv-pragmatik usul elementlaridan foydalanish masalasiga e’tibor qaratadi [2, 140-b]. Ushbu yondashuv matn yaratish metodikasida o‘quvchining bilish faoliyatini nutqiy

vazifa bilan bog‘lash imkonini beradi. Bunda o‘quvchiga shunchaki matn yozish topshirig‘i berilmaydi, balki uni muayyan kommunikativ vaziyatga jalb etish ko‘zda tutiladi. Masalan, “Maktabimiz kutubxonasiga yangi kitoblar keltirildi. Sinfdoshlaringizga ushbu kitoblar haqida ma’lumot bering” topshirig‘i o‘quvchidan axborotni tanlash, fikrni tartibga solish va maqsadli matn yaratishni talab qiladi.

Matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishda bosqichma-bosqich o‘rgatish metodikasi muhim o‘rin tutadi. Ushbu metodikani quyidagi izchil bosqichlar asosida tashkil etish mumkin:

1. Tayyorgarlik bosqichi. O‘quvchilarni matn mavzusi bilan tanishtirish, mavzu yuzasidan suhbat tashkil etish, rasm va kuzatish materiallari asosida zarur tushunchalarni faollashtirish. Bu bosqichda o‘quvchilarning mavjud bilimlari va lug‘at boyligi ishga solinadi.

2. Mazmunni shakllantirish bosqichi. O‘quvchilar matnda yoritiladigan asosiy fikrni aniqlaydilar, kerakli ma’lumotlarni tanlaydilar va ularni muayyan ketma-ketlikda joylashtiradilar. Bunda savol-javob, klaster, aqliy xarita va reja tuzish usullaridan foydalanish mumkin.

3. Matnni yaratish bosqichi. O‘quvchilar tuzilgan reja asosida gaplar hosil qiladilar, ularni mazmunan bog‘laydilar va yaxlit matn yozadilar. O‘qituvchi bu jarayonda mustaqil fikrlashni rag‘batlantirishi, biroq o‘quvchi o‘rniga tayyor jumlalarni shakllantirib bermasligi lozim.

4. Tahrirlash bosqichi. Yaratilgan matn mazmun, izchillik, gaplar o‘rtasidagi bog‘lanish, so‘zlarning qo‘llanilishi va imlo jihatidan tekshiriladi. O‘quvchilar o‘z matnlarini qayta o‘qib, aniqlangan kamchiliklarni tuzatadilar.

5. Baholash va refleksiya bosqichi. Matnning mavzuga muvofiqligi, mazmuniy yaxlitligi, fikrlar izchilligi va til vositalaridan foydalanish darajasi baholanadi. O‘quvchilar o‘z faoliyatlari yuzasidan xulosa chiqaradilar.

Otaxonovaning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini matn tuzish orqali nutqini o‘stirishga bag‘ishlangan ishida ham matn tuzish faoliyatining nutqiy rivojlanish bilan bog‘liqligi tadqiqot yo‘nalishi sifatida belgilangan [3]. Bundan kelib chiqadiki, matn yaratish mashqlari o‘quvchining nafaqat yozma nutqini, balki og‘zaki bayon qilish, fikrni izohlash va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatlarini ham rivojlantirishga yo‘naltirilishi kerak.

Matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirishda mustaqil ishlarni tashkil etish ham alohida ahamiyatga ega. Mustaqil ishlar o‘quvchilarning o‘z bilim va ko‘nikmalariga tayangan holda nutqiy vazifalarni bajarishiga imkon yaratadi. Jumayeva boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarida mustaqil ishlarni tashkil etish metodikasiga e’tibor qaratadi [4, 12–15-b]. Mazkur yo‘nalishdan kelib

chiqib, matn yaratishga oid topshiriqlarni o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasiga mos ravishda tabaqalashtirish lozim.

Masalan, boshlang‘ich darajadagi o‘quvchilarga berilgan rasmlar asosida 3–4 ta mazmunan bog‘langan gap tuzish topshirig‘i berilishi mumkin. O‘rta darajadagi o‘quvchilar tayyor reja asosida kichik hikoya yaratadilar. Yuqori darajadagi o‘quvchilarga esa mustaqil reja tuzish, voqeaga munosabat bildirish va yakuniy xulosa bilan boyitilgan matn yozish vazifasi topshiriladi. Bunday tabaqalashtirish o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olish bilan birga, ularning bosqichma-bosqich murakkabroq nutqiy faoliyatga o‘tishini ta’minlaydi.

Ona tili darslarida ta’limiy o‘yinlardan foydalanish matn yaratishga bo‘lgan qiziqishni oshirishning samarali vositalaridan biridir. Bobomurodova ta’limiy o‘yinlardan foydalanish texnologiyasini ona tili darslarini tashkil etishning metodik yo‘nalishlaridan biri sifatida yoritadi [5, 283–286-b]. O‘yinli topshiriqlar o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlab, ularni mustaqil fikrlash va nutqiy vazifalarni bajarishga undaydi.

Jumladan, quyidagi ta’limiy o‘yinlardan foydalanish mumkin:

- “Gaplarni tartibga sol” – o‘quvchilarga mazmunan bog‘liq, ammo tartibi aralashtirilgan gaplar beriladi. Ular gaplarni mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirib, yaxlit matn hosil qiladilar.

- “Davomini top” – o‘qituvchi matnning boshlanish qismini taqdim etadi, o‘quvchilar esa voqealar rivoji va yakunini mustaqil yaratadilar.

- “Bir rasm – bir hikoya” – berilgan rasm asosida voqea mazmunini aniqlash, qahramonlar harakatini tasvirlash va hikoya tuzish vazifasi bajariladi.

- “So‘zlardan matn yarat” – o‘quvchilarga tayanch so‘zlar berilib, ulardan foydalanib mazmunan yaxlit matn tuzish so‘raladi.

- “Matnni boyit” – sodda va qisqa matnga sifatlar, fe’llar, o‘rin-payt bildiruvchi so‘zlar hamda qo‘shimcha tafsilotlar kiritish orqali uning mazmuni kengaytiriladi.

Ushbu o‘yinlarning metodik qiymati shundaki, ular o‘quvchini tayyor bilimni qabul qiluvchi subyektdan mustaqil nutqiy mahsulot yaratuvchi faol ishtirokchiga aylantiradi. Bunda o‘qituvchi o‘yin shartlarini aniq belgilashi, topshiriqning ta’limiy maqsadini tushuntirishi va bajarilgan ishlarni tegishli mezonlar asosida tahlil qilishi zarur.

Matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirishda matn ustida ishlash metodikasi ham muhim o‘rin egallaydi. Mavlonberdiyeva va Buranova ona tili darslarida matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha uslubiy tavsiyalarni yoritadilar [6, 233–238-b]. Ushbu yo‘nalish asosida matn bilan

ishlashni faqat tayyor matnni o‘qish va mazmunini qayta aytib berish bilan cheklamasdan, uning tuzilishi, mazmuniy bog‘lanishlari va til xususiyatlarini anglashga yo‘naltirish lozim.

Buning uchun o‘quvchilarga matnning mavzusi va asosiy g‘oyasini aniqlash, sarlavha tanlash, matn qismlarini ajratish, tushirib qoldirilgan gaplarni to‘ldirish, matnni davom ettirish va mazmuniga mos yakun yaratish kabi topshiriqlar beriladi. Ayniqsa, tayyor matnni o‘zgartirishga asoslangan mashqlar o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini faollashtiradi. Masalan, ertakdagi voqealar yakunini o‘zgartirish, qahramon nomidan hikoya qilish yoki voqea sodir bo‘lgan joyni almashtirib, yangi mazmundagi matn yaratish mumkin.

Murtazoyeva boshlang‘ich sinf ona tili darslarida matn ustida ishlash metodikasiga alohida e’tibor qaratadi [7, 734–737-b]. Matn ustida ishlashning samaradorligi o‘quvchilarning matn mazmunini anglash, uning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi munosabatlarni tushunish va til vositalarining vazifasini aniqlash faoliyati bilan belgilanadi. Shu jihatdan matnni tahlil qilish va mustaqil matn yaratish jarayonlarini o‘zaro bog‘liq holda tashkil etish maqsadga muvofiq. O‘quvchi avval matnning qanday tuzilganini anglaydi, keyinchalik shu bilimlardan foydalanib, o‘z matnini yaratadi.

Matn yaratish jarayonida matnning kompozitsion tuzilishiga ham alohida e’tibor qaratish zarur. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matnning kirish, asosiy qism va yakuniy xulosadan tashkil topishi sodda misollar yordamida tushuntiriladi. Masalan, “Mening oilam” mavzusidagi matnning kirish qismida oila haqida umumiy ma’lumot beriladi, asosiy qismida oila a’zolari va ularning faoliyati tasvirlanadi, yakunida esa o‘quvchining oilasiga bo‘lgan munosabati ifodalanadi. Bunday tuzilma o‘quvchiga fikrlarini tartibli bayon qilish va mazmuniy yaxlitlikka erishishda yordam beradi.

Islomova ona tili darslarida matn ustida ishlash jarayonini tashkil etish va uning samaradorligini rivojlantirish yo‘llarini tadqiq etadi [8, 398–405-b]. Ushbu masala matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirishda o‘qituvchining metodik boshqaruvi, topshiriqlarning izchilligi va o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash zarurligini ko‘rsatadi. Xususan, matn ustida ishlash mashg‘ulotlarini darsning boshqa tarkibiy qismlari bilan uyg‘unlashtirish, o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini muntazam kuzatish va aniqlangan qiyinchiliklarga muvofiq metodik yordam ko‘rsatish muhimdir.

Matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishda og‘zaki va yozma nutq o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash ham muhimdir. O‘quvchilarga dastlab mavzu yuzasidan erkin suhbatlashish, o‘z fikrlarini og‘zaki ifodalash, boshqa o‘quvchilarning fikrlarini tinglash va muhokama qilish imkoniyati berilishi

kerak. Shundan so‘ng og‘zaki shakllantirilgan fikrlarni yozma matnga aylantirish topshirig‘i bajariladi. Bu usul o‘quvchilarda fikrni oldindan rejalashtirish, kerakli so‘zlarni tanlash va yozma bayonning mazmuniy izchilligini saqlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

XULOSA

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirish o‘quvchilarning nutqiy, lingvistik, kommunikativ va kognitiv imkoniyatlarini birgalikda shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik jarayondir. Matn yaratish faoliyati orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini mustaqil shakllantirish, mazmunni mantiqiy izchillikda bayon etish, til birliklaridan maqsadga muvofiq foydalanish va yozma nutq mahsulini takomillashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Tahlillar asosida matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirishda bir nechta metodik xulosalarni ajratish mumkin. Birinchidan, matn yaratishga o‘rgatish jarayoni tayyorgarlik, mazmunni shakllantirish, matn tuzish, tahrirlash va baholash bosqichlari asosida izchil tashkil etilishi lozim. Ikkinchidan, o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda topshiriqlarni tabaqalashtirish ularning mustaqil ishlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Uchinchidan, ta’limiy o‘yinlar, rasmlar asosida hikoya tuzish, tayanch so‘zlar bilan ishlash va matnni davom ettirish kabi mashqlar o‘quvchilarning ijodiy faolligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, matn yaratish kompetensiyasini baholashda faqat imloviy va grammatik to‘g‘rilikka emas, balki mazmuniy yaxlitlik, mantiqiy izchillik, lug‘aviy boylik va mustaqil fikrlash darajasiga ham e’tibor qaratish zarur. O‘quvchilarning o‘z matnlarini tahrirlashi va baholashi esa ularda refleksiv yondashuvni shakllantiradi.

Umuman olganda, ona tili darslarida matn yaratish faoliyatini tizimli, bosqichli va amaliy yo‘naltirilgan tarzda tashkil etish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil nutqiy faoliyatini rivojlantirishning muhim shartidir. Bunda o‘qituvchining vazifasi tayyor matn namunalarini taqdim etish bilangina cheklanmay, o‘quvchini mustaqil fikrlash, mazmun yaratish, o‘z fikrini ifodalash va uni takomillashtirishga yo‘naltirishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ernazarova M.S., Jo‘rayeva M.S.Q. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida matn yaratishning ahamiyati va o‘rni // Academic Research in Educational Sciences. – 2021. – Vol. 2, No. 12. – B. 686–689.

2. Hamroyev A. Boshlang‘ich sinf ona tili ta’limi jarayonida kognitiv-pragmatik usul elementlaridan foydalanish xususida // Pedagogik mahorat. – 2014. – 140 b.

3. Otaxonova N. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini matn tuzish orqali nutqini o‘stirish. – Nukus, 2018. – 58 b.

4. Jumayeva F. Boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarida mustaqil ishlarni tashkil etish metodikasi // USA-Scientific Review of the Problems and Prospects of Modern Science and Education. – 2025. – Vol. 1, No. 10. – B. 12–15.

5. Bobomurodova N. Ona tili darslarida ta’limiy o‘yinlardan foydalanish texnologiyasi // Conferences. – 2025. – Vol. 1, No. 1. – B. 283–286.

6. Mavlonberdiyeva N., Buranova Sh. Ona tili darslarida matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar // International Journal of Recently Scientific Researcher's Theory. – 2023. – Vol. 1, No. 3. – B. 233–238.

7. Murtazoyeva M. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida matn ustida ishlash metodikasi // Modern Science and Research. – 2025. – Vol. 4, No. 10. – B. 734–737.

8. Islomova G.R. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida matn ustida ishlash jarayonini tashkil etish va uning samaradorligini rivojlantirish yo‘llari // Development of Science. – 2026. – Vol. 2, No. 1. – B. 398–405.

THE "CONCEPT-TO-DISCOURSE" FRAMEWORK FOR DEVELOPING STUDENTS' PROFESSIONAL LINGUOCOGNITIVE COMPETENCE (THE CASE OF NON-PHILOLOGICAL PROGRAMMES)

G. A. Allamuratov
PhD, Associate Professor
National Pedagogical University of Uzbekistan named after Nizami, Uzbekistan
allamuradovgofur@gmail.com

Abstract. *The paper deals with developing professional linguocognitive competence in English among students of non-philological programmes (history, chemistry, mathematics, physical education, inclusive education) at a pedagogical university. These students understand words and grammar patterns but cannot use them when talking about their own subject. To address this, the author proposes the "concept-to-discourse" framework. Its basic idea is simple: a subject concept the student already knows in the native language can serve as a support for speaking about it in English. The paper presents a scheme of the framework, the "5C" methodology and assessment criteria.*

Keywords: *professional linguocognitive competence, concept-to-discourse, cognitive discourse functions, ESP, CLIL, translanguaging, non-philological programmes, A2–B1.*

INTRODUCTION

A student in a non-philological programme will soon be a history, chemistry or mathematics teacher. Such a teacher is expected to read sources in English, join international projects and, at times, explain the subject in English. The classroom tells a different story. Most of our students are at A2 level, and English lessons often teach vocabulary and grammar apart from the subject itself.

We have dealt with this issue before. Earlier papers looked at linguocognitive competence in future psychologists [1], a system of exercises for developing it [2] and exercises built on the TPACK model [3]. One pattern stood out clearly in the results of our PhD study [4]. Students recognise a word they have learned and know what it means. Yet when they have to explain a chemical process or give the cause of a historical event, they cannot use it. This gap between understanding and use is the main problem of the present paper.

The PhD study focused mainly on one programme. This time we aim to cover five non-philological programmes.

Our aim is to give a theoretical basis for the "concept-to-discourse" framework, designed to develop the professional linguocognitive competence of students in non-philological programmes. The paper reflects the first, conceptual stage of our planned doctoral (DSc) research.

Methodology.

The work draws on theoretical and comparative analysis, generalisation and pedagogical modelling. Several lines of theory were used. The main one is J. Cummins's linguistic interdependence hypothesis [5]. To describe students' thinking operations, we used C. Dalton-Puffer's construct of cognitive discourse functions [6]. CLIL and the pluriliteracies approach [7; 8] supplied the idea of teaching content and language together. For the planned use of the native language we turned to translanguaging theory [9], and for mediation to the CEFR Companion Volume [10]. The idea of linking English for Specific Purposes (ESP) to needs analysis comes from T. Hutchinson and A. Waters [11]. We also drew on our own studies [1–4] and on years of observation in non-philological groups. The framework will be tested in practice at the next stage through a longitudinal experiment.

Results and Discussion.

1. The concept. By professional linguocognitive competence we mean a student's ability to express, in English, the thinking operations of his or her subject. These operations are taken from the seven cognitive discourse functions identified by Dalton-Puffer: classify, define, describe, evaluate, explain, explore and report [6]. The competence has parts shared by all programmes: linguistic, cognitive-discursive, mediative and metacognitive. It also has a part specific to each subject, namely knowledge of that subject's concepts.

2. The core idea. A chemistry student knows what "oxidation" is, and a history student knows what "feudalism" is. What they lack is not knowledge but the words and patterns to say it in English. According to Cummins, knowledge and thinking skills gained in one language can transfer to another [5]. We therefore suggest starting a lesson not with a list of new words but with a concept the student already knows. Familiar content partly makes up for limited language. We have tentatively called this "cognitive compensation". Figure 1 shows the overall framework.



Figure 1. Scheme of the “concept-to-discourse” framework

3. Principles. Four principles hold the framework together. First, content comes first: every task starts from a concept the student knows. Second, language is kept minimal and functional, so each operation gets only the patterns it needs at A2–B1 level. Third, the native language is not banned. Students may plan an answer in Uzbek, but the final answer is in English [9]. Fourth, mediation: the student explains the topic to a partner, which is a natural situation for a future teacher [10].

4. Programme profiles. We assume that some operations appear more often than others in each subject. In history these are usually explaining (cause and effect) and reporting (the order of events). Chemistry relies more on classifying and describing, mathematics on defining and explaining. In physical education, describing movements and explaining exercises come to the fore. In inclusive education, describing and evaluating a learner’s needs matter most. For now these are hypotheses that need to be checked through needs analysis [11].

5. The “5C” methodology. The framework works in class through five stages. Each stage name begins with “C”, hence the name “5C”. Table 1 gives an example from a chemistry lesson.

Table 1

Stages of the “5C” methodology

Stage	What the student does	Example from chemistry
1. Concept	Recalls a familiar subject concept in the native language	Recalls the types of reactions: combination, decomposition, substitution, exchange
2. Cognitive operation	Performs one clear thinking operation on that concept	Sorts a set of reactions into types
3. Construction	Learns the language pattern needed for the operation	"X is a type of Y", "There are four types of…", "…because…"
4. Communication / mediation	Explains the topic to a partner in English	Partners explain the reaction types to each other
5. Control	Checks own and partner's work against a rubric	Marks content accuracy, the logic of the classification and language errors separately

6. Assessment. If a student's answer receives one overall score, it is impossible to tell whether the mistake lies in the language or in the content. We therefore suggest scoring three criteria separately: content accuracy, the quality of the thinking operation (for example, whether an explanation stays logical to the end) and language accuracy. Later we plan to build a linguocognitive competence index on these criteria and to test its reliability.

Scientific novelty. In our view, the novelty of the work lies in three points. First, the idea of using native-language subject knowledge as a support for professional discourse in English is organised into the "concept-to-discourse" framework for A2-level non-philological students in an ESP setting. Second, the five-stage "5C" methodology based on cognitive discourse functions and mediation is proposed. Third, a three-criterion approach that separates language errors from content errors is justified.

Practical significance. ESP teachers can use the "5C" stages and the assessment criteria directly when preparing lesson plans, tasks and rubrics. This applies to each of the five programmes.

Discussion. The framework is close to CLIL and the pluriliteracies approach [7; 8]. The difference is that in our setting the subject is not taught in English and students' level is low. We also see weak points. If a student does not know the subject well even in the native language, the support will be empty. Leaning too much on the native language may cut the time spent

speaking English. Building subject profiles requires working together with subject teachers. We will look for answers to these questions at the next, experimental stage.

CONCLUSION

When a non-philological student understands an English word but cannot use it in a professional situation, it makes sense to start the lesson from a subject concept the student already knows. The "concept-to-discourse" framework links the structure of the competence, four principles, programme profiles, the "5C" methodology and three-criterion assessment into one system. It should be said openly that the effect of the framework has not yet been proven in practice. The next steps are needs analysis, piloting of diagnostic tools and a longitudinal experiment.

REFERENCES

1. Allamuratov, G. (2024). Development of linguocognitive competence of future psychologists. *Academic Research in Modern Science, 3*(4), 115–118. https://doi.org/10.5281/zenodo.10612767

2. Allamuratov, G. A. (2025). A system of exercises aimed at developing linguocognitive competence in future psychologists. *Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali, 3*(4), 9–12. https://doi.org/10.5281/zenodo.15304148

3. Allamuratov, G'. A. (2026). TPACK modeli asosidagi mashqlar tizimi orqali talabalarning lingvokognitiv kompetensiyasini rivojlantirish. *Maktabgacha va maktab ta'limi, 4*(10), 85–89. https://doi.org/10.5281/zenodo.23323543

4. Allamuratov, G. A. (2026). *Methodology for developing students' linguocognitive competences* [Doctoral dissertation (PhD), in Uzbek]. National Pedagogical University of Uzbekistan named after Nizami.

5. Cummins, J. (1979). Linguistic interdependence and the educational development of bilingual children. *Review of Educational Research, 49*(2), 222–251.

6. Dalton-Puffer, C. (2013). A construct of cognitive discourse functions for conceptualising content-language integration in CLIL and multilingual education. *European Journal of Applied Linguistics, 1*(2), 216–253. https://doi.org/10.1515/eujal-2013-0011

7. Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010). *CLIL: Content and language integrated learning*. Cambridge University Press.

8. Meyer, O., Coyle, D., Halbach, A., Schuck, K., & Ting, T. (2015). A pluriliteracies approach to content and language integrated learning – mapping learner progressions in knowledge construction and meaning-making.

Language, Culture and Curriculum, 28(1), 41–57. https://doi.org/10.1080/07908318.2014.1000924

9. García, O., & Wei, L. (2014). *Translanguaging: Language, bilingualism and education*. Palgrave Macmillan.

10. Council of Europe. (2020). *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment – Companion volume*. Council of Europe Publishing.

11. Hutchinson, T., & Waters, A. (1987). *English for specific purposes: A learning-centred approach*. Cambridge University Press.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MUSTAQIL FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK METODLAR

Axmedova Jamila Ilxomjonova
Uzun tuman 4-maktab boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonida zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish masalalari yoritilgan. Mustaqil fikrlashni rivojlantirishda interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ijodiy topshiriqlar va muammoli vaziyatlardan foydalanishning ahamiyati ilmiy asoslangan. Maqolada o‘quvchilarning mustaqil tafakkurini qo‘llab-quvvatlashda o‘qituvchining roli ham alohida ta’kidlangan.*

Kalit so‘zlar: *mustaqil fikrlash, boshlang‘ich sinf, pedagogik metodlar, interfaol metod, kreativlik.*

Аннотация:*В данной статье рассматриваются вопросы использования современных педагогических методов в процессе формирования навыков самостоятельного мышления у учеников начальных классов. Обоснована роль интерактивных методов, информационно-коммуникационных технологий, творческих заданий и проблемных ситуаций. Особое внимание уделяется роли учителя в поддержке самостоятельного мышления учащихся.*

Ключевые слова: *самостоятельное мышление, начальная школа, педагогические методы, интерактивные технологии, креативность.*

Abstract: *This article examines the use of modern pedagogical methods in developing independent thinking skills among primary school students. The significance of interactive methods, information and communication technologies, creative tasks, and problem-based learning in fostering critical and independent thinking is discussed. The teacher’s role in supporting students’ independent reasoning is also highlighted.*

Keywords: *independent thinking, primary school, pedagogical methods, interactive teaching, creativity.*

KIRISH

Bugungi kunda ta’lim tizimida asosiy vazifalardan biri o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashish va ijodiy faoliyat ko‘nikmalarini

shakllantirishdir. Ayniqsa, boshlang‘ich sinflar bosqichida qo‘yilgan poydevor keyingi ta’lim bosqichlari uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, o‘quvchilarning dunyoqarashi, o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi va muammolarni hal qilishga bo‘lgan yondashuvini belgilab beradi. Shu sababli, mustaqil fikrlashni rivojlantirishda zamonaviy pedagogik metodlardan samarali foydalanish bugungi kun pedagogikasida dolzarb masalalardan biridir.

Mustaqil fikrlash o‘quvchining bilimlarni shunchaki yodlash emas, balki ularni qayta ishlash, taqqoslash va xulosa chiqarish jarayonida shakllanadi. Buning uchun o‘quv jarayonida interfaol metodlar — “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Bahs-munozara” kabi usullardan foydalanish o‘quvchilarni faol fikrlashga undaydi[13]. Masalan, “Klaster” metodidan foydalanilganda, bolalar bir mavzu yuzasidan o‘z fikrlarini turli yo‘nalishlarda erkin bayon qiladilar, bu esa ularning mustaqil tahlil qilish va umumlashtirish qobiliyatini rivojlantiradi.

Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish mustaqil fikrlashni shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

Multimedia vositalari, interaktiv doskalar va elektron resurslar o‘quvchilarga mustaqil izlanish imkonini yaratadi.

Bu jarayon o‘quvchilarning o‘z-o‘zini nazorat qilish, qo‘shimcha ma’lumot topish va tanqidiy baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi[14]

Ijodiy topshiriqlar ham o‘quvchilar tafakkurini kengaytirishga yordam beradi. Masalan, matnga alternativ yakun yozish, kichik loyiha ishlari bajarish yoki ertak qahramonlarini o‘zgacha tasavvur qilish orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini ijodkorona ifoda etishga o‘rganadilar.

Bu esa ularni bir xil yechimlar bilan chegaralanib qolmasdan, yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishga yo‘naltiradi.

Muammoli vaziyatlardan foydalanish esa o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini faollashtiradi. O‘qituvchi tomonidan berilgan savol yoki vazifa o‘quvchilarni izlanishga, turli variantlarni tahlil qilishga va eng maqbulini tanlashga undaydi. Shu tariqa, bolalar “tayyor bilim”ni emas, balki o‘z intellektual faoliyati natijasida hosil qilingan bilimni egallaydilar[15].

Bu jarayonda o‘qituvchining roli nihoyatda muhimdir. U nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini qo‘llab-quvvatlovchi, yo‘naltiruvchi hamdir. O‘qituvchi to‘g‘ri savollar berib, o‘quvchilarni fikrini

1. [13] Abdullaeva, M. Boshlang‘ich ta’limda interfaol metodlardan foydalanish. Toshkent: Fan, 2021.
2. [14] Hasanboeva, O. Pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar. Toshkent: O‘qituvchi, 2020.

[15] Xodjayeva, N. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi. Toshkent: Innovatsiya, 2023.

asoslashga va o‘z nuqtayi nazarini himoya qilishga o‘rgatadi. Shunday qilib, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida interaktiv hamkorlik shakllanadi.

Bugungi ta’lim jarayonida mustaqil fikrlashni rivojlantirishning yana bir samarali yo‘li bu loyiha asosida o‘qitish metodidir. Loyiha ishlari o‘quvchilarni nafaqat bilim olishga, balki uni amaliyotda qo‘llashga o‘rgatadi. Masalan, tabiatshunoslik fanidan “Mening bog‘im” loyihasi ustida ishlashda bolalar o‘z hovlisida yetishtiriladigan o‘simliklar haqida ma’lumot yig‘adi, kuzatishlar olib boradi va xulosalar chiqaradi. Bu jarayon orqali ularning izlanish, solishtirish, umumlashtirish ko‘nikmalari shakllanadi. Loyiha asosida ishlash o‘quvchilarning mas’uliyat hissini oshiradi, hamkorlikda ishlashga, o‘z fikrini himoya qilishga va boshqalarni tinglashga o‘rgatadi. Mustaqil fikrlashni shakllantirishda tanqidiy tafakkur metodlari ham muhim o‘rin tutadi. “Tushunchalar jadvali”, “Insert”, “Beshinchi ustun” kabi metodlardan foydalanish o‘quvchilarga berilgan axborotni tanqidiy baholash, muhim va ikkinchi darajali fikrlarni ajratish, asosiy g‘oyani anglash va xulosaga kelishga yordam beradi. Bu metodlar yordamida bola mustaqil ravishda o‘qilgan matn yoki tinglangan ma’lumotni chuqur tahlil qiladi, o‘z fikrini dalillar bilan asoslashga o‘rganadi.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish uchun turli fanlarni integratsiyalash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, matematika darsida masalalarni yechishda atrof-muhitdan olingan misollarni ishlatish, ona tili darsida esa hayotiy vaziyatlarni inobatga olish orqali bolalarning hayotiy tajribasi mustahkamlanadi. Fanlararo integratsiya nafaqat bilimni mustahkamlash, balki yangi g‘oyalarni ilgari surish, muammolarga ijodiy yondashishni rivojlantiradi. Shu bilan birga, zamonaviy o‘qitish jarayonida STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv orqali bolalar fanlarni bir-biriga bog‘liq holda o‘rganib, bilimlarni hayotiy muammolarni hal qilishda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Masalan, matematika darsida geometrik shakllarni o‘rganish jarayonida texnologiya va san’at elementlarini qo‘shish orqali o‘quvchilar muhandislik fikrlashini ham rivojlantirishi mumkin.

Mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda milliy qadriyatlar va an’analarni o‘quv jarayoniga singdirish ham katta ahamiyatga ega. Bolalar xalq og‘zaki ijodi namunalaridan – maqol, topishmoq, ertak va dostonlardan foydalanish orqali o‘z milliy madaniyati haqida chuqurroq tasavvurga ega bo‘ladi. Bu esa ularning nafaqat bilim, balki tarbiyaviy jihatdan ham rivojlanishiga xizmat qiladi. O‘z milliy qadriyatlariga tayangan holda ijodiy

fikrlashni shakllantirish o‘quvchilarda mustaqil qaror qabul qilish, o‘z fikrini erkin ifoda etish va tanqidiy yondashish . O‘quvchilarga o‘z qiziqishi bo‘yicha kitob tanlash, ularni o‘qib chiqqandan so‘ng qisqa xulosalar yozish yoki og‘zaki hikoya qilib berish topshirig‘i mustaqil fikrlashni rivojlantirishning samarali vositasidir. Bu orqali bola nafaqat bilim oladi, balki uni o‘z fikrlari bilan boyitadi, xulosaga keladi, boshqa bolalarning fikrlari bilan solishtiradi va o‘z dunyoqarashini kengaytiradi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun o‘qituvchi o‘quvchilarga ochiq savollar berishi lozim. Masalan, “Sizningcha, bu voqea boshqacha yakun topganida nimalar bo‘lardi?”, “Qahramonning o‘rnida siz bo‘lsangiz qanday qaror qabul qilardingiz?”, “Boshqacha yo‘l bilan muammoni hal qilib bo‘larmidi?” kabi savollar o‘quvchilarning mustaqil izlanishiga, o‘z nuqtayi nazarini shakllantirishiga yordam beradi. O‘quvchi o‘z fikrini dalillar bilan asoslashga harakat qilgan sari uning mantiqiy va tanqidiy tafakkuri kuchayadi.

Shuningdek, zamonaviy ta’limda gamifikatsiya – ya’ni o‘yin elementlarini ta’lim jarayoniga qo‘shish ham mustaqil fikrlashni rivojlantirishda samarali hisoblanadi. O‘yinlar jarayonida o‘quvchilar turli vazifalarni bajarish, masalalarni hal qilish, muammolarga yechim topish orqali o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llashga o‘rganadilar. Bu esa ularda nafaqat bilim, balki ijodkorlik va tashabbuskorlikni ham rivojlantiradi.

Mustaqil fikrlashni shakllantirish jarayonida ota-onalar bilan hamkorlik ham katta ahamiyatga ega. Oilada bolaning fikrini qadrlash, unga savollar berish, qaror qabul qilish jarayonida ishtirok ettirish bola tafakkurini rivojlantiradi. O‘qituvchi ota-onalar bilan muntazam aloqa qilib, bolaning mustaqil fikrlashini rivojlantirish uchun birgalikda ishlasa, natija yanada samarali bo‘ladi.

Loyiha asosida ishlash o‘quvchilarning mas’uliyat hissini oshiradi, hamkorlikda ishlashga, o‘z fikrini himoya qilishga va boshqalarni tinglashga o‘rgatadi. Mustaqil fikrlashni shakllantirishda tanqidiy tafakkur metodlari ham muhim o‘rin tutadi. “Tushunchalar jadvali”, “Insert”, “Beshinchi ustun” kabi metodlardan foydalanish o‘quvchilarga berilgan axborotni tanqidiy baholash, muhim va ikkinchi darajali fikrlarni ajratish, asosiy g‘oyani anglash va xulosaga kelishga yordam beradi.

Bu metodlar yordamida bola mustaqil ravishda o‘qilgan matn yoki tinglangan ma’lumotni chuqur tahlil qiladi, o‘z fikrini dalillar bilan asoslashga o‘rganadi.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish uchun turli fanlarni integratsiyalash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan,

matematika darsida masalalarni yechishda atrof-muhitdan olingan misollarni ishlatish, ona tili darsida esa hayotiy vaziyatlarni inobatga olish orqali bolalarning hayotiy tajribasi mustahkamlanadi. Fanlararo integratsiya nafaqat bilimni mustahkamlash, balki yangi g‘oyalarni ilgari surish, muammolarga ijodiy yondashishni rivojlantiradi. Shu bilan birga, zamonaviy o‘qitish jarayonida STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv orqali bolalar fanlarni bir-biriga bog‘liq holda o‘rganib, bilimlarni hayotiy muammolarni hal qilishda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Masalan, matematika darsida geometrik shakllarni o‘rganish jarayonida texnologiya va san’at elementlarini qo‘shish orqali o‘quvchilar muhandislik fikrlashini ham rivojlantirishi mumkin.

Mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda milliy qadriyatlar va an’analarni o‘quv jarayoniga singdirish ham katta ahamiyatga ega. Bolalar xalq og‘zaki ijodi namunalaridan – maqol, topishmoq, ertak va dostonlardan foydalanish orqali o‘z milliy madaniyati haqida chuqurroq tasavvurga ega bo‘ladi. Bu esa ularning nafaqat bilim, balki tarbiyaviy jihatdan ham rivojlanishiga xizmat qiladi. O‘z milliy qadriyatlariga tayangan holda ijodiy fikrlashni shakllantirish o‘quvchilarda mustaqil qaror qabul qilish, o‘z fikrini erkin ifoda etish va tanqidiy yondashish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Yana bir muhim jihat – o‘quvchilarning mustaqil o‘qish faoliyatini rivojlantirishdir. O‘quvchilarga o‘z qiziqishi bo‘yicha kitob tanlash, ularni o‘qib chiqqandan so‘ng qisqa xulosalar yozish yoki og‘zaki hikoya qilib berish topshirig‘i mustaqil fikrlashni rivojlantirishning samarali vositasidir. Bu orqali bola nafaqat bilim oladi, balki uni o‘z fikrlari bilan boyitadi, xulosaga keladi, boshqa bolalarning fikrlari bilan solishtiradi va o‘z dunyoqarashini kengaytiradi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun o‘qituvchi o‘quvchilarga ochiq savollar berishi lozim. Masalan, “Sizningcha, bu voqea boshqacha yakun topganida nimalar bo‘lardi?”, “Qahramonning o‘rnida siz bo‘lsangiz qanday qaror qabul qilardingiz?”, “Boshqacha yo‘l bilan muammoni hal qilib bo‘larmidi?” kabi savollar o‘quvchilarning mustaqil izlanishiga, o‘z nuqtayi nazarini shakllantirishiga yordam beradi. O‘quvchi o‘z fikrini dalillar bilan asoslashga harakat qilgan sari uning mantiqiy va tanqidiy tafakkuri kuchayadi.

Shuningdek, zamonaviy ta’limda gamifikatsiya – ya’ni o‘yin elementlarini ta’lim jarayoniga qo‘shish ham mustaqil fikrlashni rivojlantirishda samarali hisoblanadi. O‘yinlar jarayonida o‘quvchilar turli vazifalarni bajarish, masalalarni hal qilish, muammolarga yechim topish orqali

o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llashga o‘rganadilar. Bu esa ularda nafaqat bilim, balki ijodkorlik va tashabbuskorlikni ham rivojlantiradi.

Mustaqil fikrlashni shakllantirish jarayonida ota-onalar bilan hamkorlik ham katta ahamiyatga ega. Oilada bolaning fikrini qadrlash, unga savollar berish, qaror qabul qilish jarayonida ishtirok ettirish bola tafakkurini rivojlantiradi. O‘qituvchi ota-onalar bilan muntazam aloqa qilib, bolaning mustaqil fikrlashini rivojlantirish uchun birgalikda ishlasa, natija yanada samarali bo‘ladi.

XULOSA

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil fikrlashni shakllantirish zamonaviy ta’limning eng muhim maqsadlaridan biridir. Interfaol metodlar, AKT vositalari, ijodiy topshiriqlar va muammoli vaziyatlar orqali o‘quvchilarning tafakkuri kengayadi, tanqidiy va ijodiy yondashuvlari rivojlanadi. Mustaqil fikrlashni qo‘llab-quvvatlashda o‘qituvchining yetakchi o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR .

1. Abdullaeva, M. Boshlang‘ich ta’limda interfaol metodlardan foydalanish. Toshkent: Fan, 2021.

2. Azizxo‘jayeva, N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: O‘qituvchi, 2018.

3. Hasanboeva, O. Pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar. Toshkent: O‘qituvchi, 2020.

4. Jo‘raev, B. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodlari. Toshkent: NMIU, 2022.

5. Karimova, D. Ta’limda ijodiy faoliyatni shakllantirish usullari. Samarqand: Zarafshon, 2019.

6. Komilov, A. Mustaqil fikrlash va kreativ yondashuv pedagogikasi. Toshkent: Ma’naviyat, 2020.

7. Nazarova, G. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi va zamonaviy yondashuvlar. Toshkent: Universitet, 2021.

8. Qodirova, N. O‘quvchilarda mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini rivojlantirish. Toshkent: Ilm Ziyo, 2021.

9. Qurbonov, S. Axborot texnologiyalari va ta’lim jarayonida ularning roli. Toshkent: Innovatsiya, 2022.

10. Rasulova, Z. Tanqidiy tafakkurni rivojlantirish metodikasi. Toshkent

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INNOVATSION YONDASHUV VA MILLIY QADRIYATLAR UYG‘UNLIGI

Begmatova Muborak Dobilovna
Oltinsoy tumani 49-maktab boshlag‘ich ta’lim o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limda innovatsion yondashuv va milliy qadriyatlarni uyg‘unlashtirishning ahamiyati ko‘rib chiqilgan. Maqolada innovatsion pedagogik texnologiyalar yordamida ta’lim jarayonida milliy ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni o‘quvchilarga singdirish, ularning shaxsiy va madaniy rivojlanishini ta’minlash imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, milliy qadriyatlar va innovatsion metodlarning uyg‘unlashuvi ta’lim sifatini oshirish va o‘quvchilarning shaxs sifatida yetukligini ta’minlashdagi roli muhokama qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *innovatsion yondashuv, milliy qadriyatlar, boshlang‘ich ta’lim, pedagogik texnologiyalar, madaniy rivojlanish, shaxs tarbiyasi, ma’naviy-axloqiy ko‘nikmalar, interfaol metodlar, loyiha asosida o‘qitish, ta’lim sifatini oshirish.*

Abstract: *This article examines the integration of innovative approaches and national values in primary education. The study analyzes the use of innovative pedagogical technologies to instill moral and cultural values in students, ensuring their personal and cultural development. The role of aligning national values with innovative methods in improving the quality of education and fostering students’ personal development is also discussed.*

Keywords: *innovative approach, national values, primary education, pedagogical technologies, cultural development, personal development, moral and ethical skills, interactive methods, project-based learning, improving education quality.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается интеграция инновационного подхода и национальных ценностей в начальном образовании. Анализируется использование инновационных педагогических технологий для формирования у учащихся моральных и культурных ценностей, обеспечения их личностного и культурного развития. Также обсуждается роль сочетания национальных ценностей*

с инновационными методами в повышении качества образования и развитии личности учащихся.

Ключевые слова: *инновационный подход, национальные ценности, начальное образование, педагогические технологии, культурное развитие, личностное развитие, моральные и этические навыки, интерактивные методы, проектное обучение, повышение качества образования.*

KIRISH

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchilarning shaxs sifatida shakllanishi va jamiyatga moslashishi jarayonida muhim ahamiyatga ega. Shu davrda nafaqat asosiy bilimlarni berish, balki o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy qadriyatlarini rivojlantirish va milliy ongini shakllantirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Milliy qadriyatlar – o‘quvchilarning odob-axloq, madaniy meros, urf-odatlar va jamiyatdagi ijtimoiy normalarni o‘zlashtirishiga xizmat qiluvchi asosiy omillardir. Zamonaviy ta’lim jarayonida esa innovatsion pedagogik yondashuvlar o‘quvchilarning bilim olish jarayonini qiziqarli, interfaol va samarali qilish imkonini beradi. Interfaol metodlar, loyiha asosida o‘qitish, STEAM yondashuvi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida ta’lim jarayonini boyitish va o‘quvchilarning shaxsiy, ijtimoiy hamda madaniy rivojlanishini ta’minlash mumkin. Shu nuqtai nazardan, boshlang‘ich ta’limda innovatsion yondashuv bilan milliy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish ta’limning sifatini oshirish, o‘quvchilarning shaxs sifatida yetukligini ta’minlash va ularni zamonaviy jamiyat talablariga mos shaxslar sifatida shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Bu uyg‘unlik nafaqat o‘quvchilarning intellektual rivojlanishini, balki ularning ma’naviy va madaniy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich ta’limda innovatsion yondashuv o‘quvchilarning bilim olish jarayonini samarali, interfaol va qiziqarli qilishga xizmat qiladi. Bu yondashuv pedagogik jarayonda ilg‘or metod va texnologiyalarni qo‘llashni nazarda tutadi. Shu orqali o‘quvchilarning intellektual, ijtimoiy va madaniy rivojlanishi ta’minlanadi. Innovatsion metodlar, jumladan interfaol metodlar, loyiha asosida o‘qitish va STEAM yondashuvi, o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini, ijodiy yondashuvini va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Milliy qadriyatlarni tarbiyaviy jarayonga integratsiya qilish. Milliy qadriyatlar – o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy, madaniy va ijtimoiy rivojlanishini shakllantiruvchi muhim omil hisoblanadi. Boshlang‘ich sinfda milliy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish orqali: Axloqiy-odobiy ko‘nikmalarni rivojlantirish, o‘z milliy merosini qadrlash va

hurmat qilish, jamiyatdagi ijtimoiy normalarni tushunish va qabul qilish. madaniy va urf-odatlarga hurmatni shakllantirish mumkin. Innovatsion metodlar yordamida bu qadriyatlarni dars va tarbiyaviy mashg‘ulotlar orqali amaliy tarzda o‘quvchilarga singdirish mumkin. Masalan, loyiha asosida o‘qitish orqali o‘quvchilar milliy bayramlar, urf-odatlar va an’analarni tadqiq qilish, guruh ishlari orqali esa ularni birgalikda amalga oshirish imkoniga ega bo‘ladilar. Innovatsion metodlar va milliy qadriyatlarni uyg‘unlashtirishning afzalliklari. Innovatsion yondashuv va milliy qadriyatlarni uyg‘unlashtirishning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat: O‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshiradi, intellektual va madaniy rivojlanishini ta’minlaydi, ijtimoiy va axloqiy ko‘nikmalarni mustahkamlaydi, empatiya, hamkorlik va o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi, ta’lim jarayonini qiziqarli va motivatsion qiladi, o‘quvchilarning shaxs sifatida yetukligini ta’minlaydi. Dars jarayoniga milliy qadiriyatlarni tadbiq qilish, integratsiya qilish muhum sanaladi. O‘qituvchilar innovatsion yondashuvni darslarda qo‘llash orqali milliy qadriyatlarni dars jarayoniga quyidagicha integratsiya qilishi mumkin: Interfaol metodlar yordamida o‘quvchilarni guruh muhokamalari va rolli o‘yinlarda faol ishtirok etishga jalb qilish, loyiha asosida o‘qitish orqali milliy urf-odatlarni o‘rganish va amaliyotda qo‘llash, STEAM yondashuvi yordamida fanlararo integratsiyani ta’minlash va milliy meros bilan bog‘liq kreativ loyihalarni amalga oshirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali milliy qadriyatlar va madaniy merosni interfaol va vizual tarzda taqdim etish. Shu tarzda, innovatsion yondashuv va milliy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish boshlang‘ich ta’lim jarayonini boyitadi, o‘quvchilarning shaxs sifatida rivojlanishiga xizmat qiladi va ta’lim sifatini sezilarli darajada oshiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta’limda innovatsion yondashuv va milliy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish o‘quvchilarning shaxs sifatida rivojlanishini ta’minlashda muhim vosita hisoblanadi. Interfaol metodlar, loyiha asosida o‘qitish, STEAM yondashuvi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida ta’lim jarayonida milliy ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni samarali singdirish mumkin. Shu bilan birga, innovatsion metodlar ta’lim jarayonini qiziqarli va motivatsion qiladi, o‘quvchilarning intellektual, ijtimoiy va madaniy rivojlanishini rag‘batlantiradi. Natijada, innovatsion yondashuv va milliy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish boshlang‘ich ta’limning sifatini oshirish, o‘quvchilarning shaxs sifatida yetukligini ta’minlash va ularni zamonaviy jamiyat talablariga mos shaxslar sifatida shakllantirishda samarali mexanizm hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Azizxo‘jayeva, N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2020.

2. To‘raqulov, X. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.

3. Ziyayeva, D. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.

4.Meliyeva, D. O. (2025). BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING

MUSTAQIL ISHLASH KO‘NIKMALARINI INNOVATSION YONDASHUV

ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMI. Inter education & global study, (2), 320-328.

5. Мелиева, Д. (2024). Boshlang ‘ich sinf o ‘quvchilarining mustaqil ishlash

qobiliyatini rivojlantirishning davlat miqyosidagi ahamiyati. Журнал универсальных научных исследований, 2(5), 1106-1108.

6. Mavlonova, R., Azizxo‘jayeva, N.N. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017.

7. Polat, E.S. Novye pedagogicheskie i informatsionnye texnologii v sisteme obrazovaniya. – Moskva: Akademiya, 2016.

8. Prensky, M. Teaching Digital Natives: Partnering for Real Learning. – London: SAGE Publications, 2010.

9. Trilling, B., Fadel, Ch. 21st Century Skills: Learning for Life in Our Times. – San Francisco: Jossey-Bass, 2009.

10. Fullan, M. The New Meaning of Educational Change. – New York: Teachers College Press, 2015.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMNI RIVOJLANTIRISHNING GLOBAL MASALALARI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Ataxanov Jasur Alijanovich
Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining
SHHO fakulteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Maqolada boshlang‘ich ta’limni rivojlantirishga ta’sir etayotgan global muammolar ta’limga kirish, o‘quv natijalari, tenglik va tizim barqarorligi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqot UNESCO, UNICEF, Jahon banki va BMTning ochiq hisobotlarini maqsadli tanlash hamda qiyosiy tahlil qilishga asoslangan. O‘rganish natijasida pedagoglar yetishmovchiligi, til muammolari, raqamli tafovut va iqlim bilan bog‘liq muammolarni o‘zaro aloqador omillar sifatida ko‘rib chiqiladi. Tahlil asosida bazaviy savodxonlik, ehtiyojga mos pedagogik yordam va adolatli resurs taqsimotini birlashtiruvchi amaliy model taklif etiladi. O‘zbekiston sharoiti uchun diagnostik baholash, o‘rta ta’lim maktablardagi metodik mashg‘ulotlar va sinov mexanizmlari ishlab chiqiladi. Taklif etilgan model empirik tekshirilgan natija emas, kelgusidagi tajriba uchun konseptual asosdir.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, funksional savodxonlik, inklyuziya, pedagogik yordam va xalqaro hamkorlik.*

Abstract. *This article examines global challenges in primary education through access, learning outcomes, equity and system resilience. It draws on a purposive comparative review of public reports from UNESCO, UNICEF, the World Bank and the United Nations. The analysis connects foundational learning gaps with teacher shortages, language barriers, digital inequality and climate-related disruptions. It proposes an implementation framework combining diagnostic assessment, targeted teaching support and equitable resource allocation, with practical implications for Uzbekistan. The framework is a conceptual proposal for subsequent piloting rather than an empirically validated intervention.*

Keywords: *primary education, learning poverty, foundational skills, inclusion, teacher support, educational equity.*

Аннотация.*В статье рассматриваются глобальные проблемы начального образования: доступность, качество обучения, неравенство и устойчивость образовательных систем. На основе сравнительного*

анализа международных докладов предложена модель, объединяющая диагностику базовых навыков, адресную педагогическую поддержку и справедливое распределение ресурсов. Представлены рекомендации для Узбекистана. Модель носит концептуальный характер и требует последующей эмпирической проверки.

Ключевые слова: *начальное образование, базовые навыки, инклюзия, образовательное неравенство, поддержка учителя.*

KIRISH

Boshlang‘ich ta’lim bolaning keyingi bilim olish imkoniyatlarini shakllantiradigan muhim bosqichdir. Bu davrda o‘qish, yozish va hisoblash bilan birga qiziqishlari yuzasidan savollar berish, fikrini izohlash, boshqalarni tinglash hamda birgalikda ishlash ko‘nikmalari rivojlanadi. Matn mazmunini tushunmagan o‘quvchi keyinchalik tabiiy fanlardagi topshiriqni ham bajarishda qiynalishi mumkin. Shuning uchun bolaning boshlang‘ich sinflardagi o‘zlashtirish muammosi kelajakda ta’lim olishiga ta’sir etadi.

BMTning 2025-yilgi Barqaror rivojlanish maqsadlari hisobotida Xalqaro ta’lim muhokamalari natijalariga ko‘ra o‘quvchilarning maktabda ta’lim olishi, zamonaviy maktab binosi, darsliklar bilan butlanganligi tizimdagi ayrim masalalar dolzarbligicha qolayotgani qayd etilgan.

Muammo turli mamlakatlarda turlicha namoyon bo‘ladi. Ayrim hududlarda maktabga yetib borish asosiy to‘siq bo‘lsa, boshqalarida sinflar va o‘quvchilarning ko‘pligi, darslarni o‘zlashtira olmaslik yoki o‘qituvchining individual yordam ko‘rsatishga vaqti yetishmasligini kuzatish mumkin. Dunyo tajribalaridan foydalanish mahalliy ehtiyoj va muammoni aniqlash hamda yechimini toppish bilan birga olib borilishi lozim.

Maqolaning maqsadi boshlang‘ich ta’limdagi asosiy global muammolarni o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish va ularni amaliy qo‘llashni asoslashdir. Tadqiqot uch savolga javob izlaydi: qaysi to‘siqlar bolalarning bazaviy ko‘nikmalarini cheklaydi; qaysi yondashuvlar xalqaro dalillar bilan qo‘llab-quvvatlanadi; ularni O‘zbekiston maktablariga moslashtirish qanday tashkil etilishi mumkin?

Maqolaning amaliy hissasi muammolarni sanab o‘tish bilan cheklanmay, diagnostika, pedagogik yordam, resurs va monitoring o‘rtasidagi bog‘lanishni taklif etishdan iborat. Asosiy tezis shuki, barqaror natija alohida loyihalar yig‘indisidan ko‘ra o‘quvchining ehtiyojiga javob beradigan izchil boshqaruv orqali yuzaga kelishi mumkin. Bunda boshlang‘ich ta’limning tarbiyaviy, ijodiy va ijtimoiy vazifalari ham saqlanishi kerak.

Global vaziyat va ko‘rsatkichlarning talqini

Global muammoning birinchi qatlami maktabdan tashqarida qolishdir. BMTning 2025-yilgi hisobotida 2023-yilda 272 millionga yaqin bolalar ta’limdan tashqarida bo‘lgani ko‘rsatilgan. UNESCOning 2026-yilgi axborotida esa ushbu ko‘rsatgich 273 millionni tashkil etgan. Bu sonlar turli nashrlarga tegishli bo‘lib, boshlang‘ich ta’limning o‘zini ifodalamaydi.

Ikkinchi qatlam o‘quvchilar maktabda darslarni yetarli o‘rganmaslik bilan bog‘liq. Jahon bankining 2022-yilgi hisobotida, past va o‘rta daromadli mamlakatlarda o‘n yoshli bolalarning taxminan 70 foizi oddiy matnni o‘qib tushunishda qiynalishi ko‘rsatib o‘tgan.

Uchinchi qatlam kadrlar bilan ta’minlashdir. UNESCOning 2024-yilgi o‘qituvchilar haqidagi global hisobotida 2030-yilgacha boshlang‘ich va o‘rta ta’lim uchun 44 million qo‘shimcha o‘qituvchi zarurligi prognoz qilingan. Mazkur qiymat faqat boshlang‘ich maktabdagi bo‘sh ish o‘rinlari soni emas. Balki ta’lim tizimini kengayishi yoki kasbni tark etayotgan pedagoglar o‘rnini to‘ldirish ehtiyojlari bilan bog‘liqligi ko‘rsatilgan.

Mazkur uch yo‘nalishdagi muammolarni o‘z vaqtida bartaraf etmaslik kelgusida o‘quvchilarni o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklari, davomati pasayishi va keyinchalik ta’limni tark etishi ehtimoli yuzaga kelishi mumkin. Bu maqoladagi asosiy muammolar tahliliy taxmin bo‘lib har bir hududda alohida tekshirilishi kerak.

Ta’lim rivojini baholashda davomat, o‘zlashtirish va farovonlikni birgalikda olib boorish taklif etiladi. O‘quvchilar soni ortgan, lekin tushunib o‘qish yaxshilanmagan tizimda faqat tashkiliy yutuq mavjud bo‘lishi mumkin. Aksincha, o‘rtacha ball ko‘tarilib, ehtiyojmand bolalar baholashdan chetda qolsa, sifat haqidagi xulosa o‘z natijasini bermaydi. Shuning uchun har bir natijada kimlar tekshirilgani, tekshiruvda ishtirok etmagan o‘quvchilar va tekshiruv jarayoni qanday o‘tkazilgani haqidagi tahlil etib borilishi lozim.

Ta’limdagi tengsizlik va maktabga kirish to‘siqlari

Ta’limdagi tengsizlik ko‘pincha bola sinfga kirishidan oldin shakllana boshlaydi. Oilaning iqtisodiy imkoniyati, kitob o‘qishi, maktabgacha tajriba va uyda muloqot muhiti bir xil emas. Bunday farqlar bolaning qobiliyatiga berilgan hukmga aylanmasligi kerak. Aksincha, maktab boshlang‘ich sharoitdagi tafovutni aniqlab, yordamni shunga mos tashkil etishi lozim. BMTning global tahlili ham daromad va geografik joylashuv bilan bog‘liq tafovutlarning saqlanayotganini ko‘rsatadi.

Amaliy jihatdan to‘siqlarni uch darajada bo‘lish mumkin:

Birinchisi jismoniy daraja: masofa, transport, yo‘l xavfsizligi va o‘quv sinfining qulayligi.

Ikkinchisi iqtisodiy daraja: o‘quv qurollari, kiyimi, o‘zaro aloqa yoki oilaning bolaga yuklatiladigan vazifalari.

Uchinchisi pedagogik daraja: bola topshiriqni tushunishi, faol qatnashishi va o‘zini jamoaning a’zosi deb his qilishi. Faqat birinchi darajani hal qilish qolgan to‘siqlarni avtomatik bartaraf etmaydi.

Taklif etilayotgan yechim maktab miqyosida ehtiyoj xaritasini tuzishdir. Xarita oilalarni omma oldida toifalash uchun emas, resursni adolatli yo‘naltirish uchun ishlatiladi. Unda uzoqdan keluvchi bolalar, muntazam dars qoldirish sabablari, o‘quv materialiga ehtiyoj va boshqalarni qayd etilishi mumkin. Oila bilan hamkorlik bir tomonlama talablar ro‘yxatiga aylanmasligi lozim. Masalan, har kuni internet orqali vazifa yuborish aloqa imkoniyati cheklangan oilani qiyin holatga qo‘yadi. Shu topshiriqning qog‘oz shakli yoki maktab kutubxonasida bajarish imkoniyati ham bo‘lishi kerak. Uyda qo‘llab-quvvatlash tavsiyalari ota-onaning ta’lim darajasi va vaqtini hisobga olgan holda sodda, qisqa va bajariladigan bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Natijalarni guruhlar kesimida ko‘rish ham zarur: hudud, ta’lim tarbiya, jinsi va alohida ta’lim ehtiyoji kabi belgilar yashirin tafovutni ochishi mumkin. Bunda kichik guruh natijalarini oshkor etib, bolalarni tanib olishga imkon yaratmaslik kerak. Maqsad guruhlarni raqobatga qo‘yish emas, balki qaysi sharoitda yordam yetishmayotganini bilishdir. Shu yondashuv tenglikni barcha bolaga bir xil resurs berishdan ko‘ra, har biriga o‘rganish uchun zarur sharoit yaratish sifatida tushunishga yordam beradi.

O‘qituvchi salohiyati va kasbiy qo‘llab-quvvatlash

Boshlang‘ich ta’limdagi har qanday islohot o‘qituvchining kundalik qarorlarida namoyon bo‘ladi. U bolalarning javobini tinglaydi, xatolarning sababini taxmin qiladi, vazifani tushuntiradi va yordam shaklini tanlaydi. O‘quv dasturi qanchalik puxta bo‘lmasin, pedagog ushbu ishlar uchun vaqt, material va metodik ko‘makka ega bo‘lmasa, hujjatdagi maqsad darsga to‘liq ko‘chmaydi. Shu sababli o‘qituvchi siyosati faqat diplom yoki malaka oshirish soati bilan cheklanmasligi kerak.

UNESCOning o‘z hisobotida kadrlar tanqisligi ishga qabul qilish, pedagogni saqlab qolish, mehnat sharoiti va kasbiy maqom bilan bog‘liq tizimli masala sifatida yoritgan. Bu xulosa asosida mazkur maqola maktab darajasida uch turdagi yordamni uyg‘unlashtirishni taklif qiladi: fan metodikasiga oid aniq ko‘rsatma, hamkasb bilan amaliy tahlil va pedagogning ortiqcha tashkiliy yuklamalarini kamaytirish. Ularning natijasi alohida baholanishi lozim.

Malaka oshirishning foydali jihati bir martalik ma’ruza emas, darsdagi muammoni hal etish sikli bo‘lishi lozim. O‘qituvchi avval qiyinchilikni belgilaydi: masalan, bolalar matndan aniq ma’lumotni topadi, ammo xulosa chiqarolmaydi. So‘ng qisqa metodik usul tanlaydi, uni darsda sinaydi, o‘quvchilardan vazifalarni yig‘adi va tahlil qiladi. Keyingi darsda o‘zgarishlarni natijadorlik asosida amalga oshiriladi. Siklning mazmuni nazorat uchun qog‘oz ko‘paytirishdan iborat bo‘lmasligi kerak.

Pedagog baholash va yordam vazifalarini farqlash lozim. Agar dars kuzatuvi faqat kamchilik topishga xizmat qilsa, o‘qituvchi murakkab muammoni yashirishi mumkin. Rivojlantiruvchi kuzatuv esa oldindan kelishilgan bitta jihatga, masalan, savoldan keyin bolaga o‘ylash uchun berilgan vaqtga e’tibor qaratadi. Muhokama shaxsiy sifatlar haqida emas, kuzatilgan harakat va uning o‘quvchiga ta’siri haqida bo‘ladi.

Pedagoglar yetishmaydigan hududlarda o‘qituvchilarga qulaylik yaratish maqsadida ishga kelish va qolish sharoiti ham rejalashtirilishi zarur. Kadr tayyorlashda va yangi o‘qituvchi moslashuv davomida unga metodik materiallar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakillantirishda malakali ustozlarni biriktirilishi mumkin.

Savodxonlik va o‘qitish usullarini takomillashtirish

Bazaviy savodxonlik faqat harfni tanish yoki matnni tez o‘qish bilangina cheklanmaydi. O‘quvchi mazmunni anglay olishi, javobni topishi va oddiy xulosani asoslay olishi kerak. Matematikada ham amalni mexanik bajarish sonlar o‘rtasidagi munosabatni tushunish bilan bir xil emas. Dars maqsadlari ushbu farqlarni aks ettirganda, baholash bolaning aynan qayerda yordamga muhtojligini ko‘rsatadi. Aks holda umumiy baho turli qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Jahon banki platformasida keltirilgan dalillarda o‘qituvchini tartibli metodik materiallar bilan qo‘llab-quvvatlash va ta’limni o‘quvchining amaldagi o‘zlashtirish darajasiga moslashtirish samaradorligini yuqori o‘rinlarda keltiradi. Ushbu yondashuvlar alohida darslik tarqatishdan kengroq bo‘lib, material, tushuntirish, mashq va qayta aloqa o‘rtasidagi izchillikni talab qiladi.

Maqola doirasida tavsiya etiladigan o‘qish darsi quyidagi mantiqqa asoslanadi: qisqa matn bilan tanishish, notanish so‘zlarni aniqlash, o‘tilgan mashg‘ulotlardan savollarga javob toppish va yakuniy mustaqil topshiriqlardan iborat bo‘lishi lozim. Dars davomida o‘qituvchi bolaning qaysi bosqichda qiynalayotganini qayd etib borishi lozim. So‘zlarni o‘qishdagi qiyinchilik bilan bog‘lash uchun bir xil mashq tanlash maqsadga muvofiq emas.

Matematikada predmet, tasvir va belgi o‘rtasidagi bog‘lanishni didaktik yo‘nalish sifatida taklif etiladi. Masalan, guruhlash vazifasi avval buyumlar bilan bajarilib, mantiqiy ifodaga ko‘chiriladi. O‘quvchidan faqat javob emas, qanday fikrlagani ham so‘raladi. Noto‘g‘ri javob darsni to‘xtatadigan kamchilik emas, tushunchadagi bo‘shliqni aniqlash uchun axborot bo‘lishi lozim.

O‘zlashtirish darajasiga ko‘ra yordam berish bolalarni doimiy ravishda kuchli va kuchsiz guruhlarga ajratishni anglatmasligi kerak. Guruhlar muayyan ko‘nikmaga ko‘ra vaqtincha tuziladi va qayta baholash asosida o‘zgaradi. Barcha bolalar umumiy mazmun, ijodiy faoliyat va jamoaviy muhokamada ishtirok etadi. Qo‘shimcha yordam esa o‘quvchilarni o‘ziga ishonchi, qiziqishini, bazaviy bilimni mustahkamlashni va bilim olish sifatini oshiradi.

O‘zbekiston uchun moslashtirish yo‘nalishlari

Global tavsiyalarni O‘zbekistonga tatbiq etishda ta’lim sifati, maktab joylashuvi, o‘qituvchi resursi va o‘quv dasturining amaldagi talablari hisobga olinishi zarur. UNICEFning 2026-yil 18-avgustdagi rasmiy xabarida O‘zbekistonda yangi Milliy o‘quv dasturi taqdim etilgan. Ushbu dastur yo‘nalishida barcha o‘quvchilar uchun aniq o‘quv maqsadlari belgilangan bo‘lib, ular xalqaro miqyosda yuqori ta’lim natijalariga ega ta’lim tizimlari standartlari bilan yanada uyg‘unlashtirilgan. Islohotning muhim maqsadlaridan biri boshlang‘ich, tayanch o‘rta va yuqori o‘rta ta’lim bosqichlarida o‘quvchilarning ta’lim natijalarini izchil oshirish hamda xalqaro miqyosda tan olingan chuqurlashtirilgan dastur (A Level) standartlariga qiyoslanadigan natijalarga erishish uchun zarur ta’lim yo‘nalishlarini shakillantirishdan iboratligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Mazkur islohotni rivojlantirish quyidagi yo‘nalishlarda o‘quvchilar natijasiga ta’sirini kuzatuv va baholash orqali aniqlash kerakligini bildirib o‘tgan.

Birinchi yo‘nalish bo‘yich dastur, darslik va baholash uyg‘unligini tekshirishdir. Agar dastur tushunish va izohlashni talab qilib, tekshiruv faqat yodlashdan iborat bo‘lsa, o‘qituvchiga qarama-qarshi signal beriladi. Har bir sinf uchun muhim o‘quv natijalarini sodda tilda tavsiflash, ularga mos topshiriq namunalari yaratish va o‘quvchi javoblarini birgalikda tahlil qilish taklif etiladi. Bu ish yangi hujjat hajmini oshirishdan ko‘ra amaldagi vositalarning mosligini ta’minlashga qaratiladi.

Ikkinchi yo‘nalish o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi. Bir xil sinfda ishlaydigan pedagoglar qisqa vaqtda bitta o‘quvchi ishlarini muhokama qilishi mumkin. Savol umumiy natija nega pastligida emas, aynan qaysi xato

takrorlanayotgani va keyingi darsda qanday yordam berilishida bo‘ladi. Hududiy metodik xizmat esa maktablarga tayyor javobni yetkazish bilan cheklanmay, ushbu tahlilni olib borishga ko‘maklashadi.

Uchinchi yo‘nalish turli sharoitdagi maktablarda sinov o‘tkazishdir. Faqat resursi yaxshi maktabda olingan ijobiy natija chekka hududlar uchun yetarli dalil hisoblanmaydi. Sinovda shahar va qishloq sharoiti, turli ta’lim muassasalari hamda sinf tarkibidagi farqlar hisobga olinishi, mezonlari oldindan e’lon qilinishi, imkoniyati cheklangan maktablarning ishtiroki uchun zarur yordam ko‘rsatilishi lozim.

To‘rtinchi yo‘nalish oila va mahalliy hamjamiyat bilan bajariladigan hamkorlikdir. Uyda birgalikda qisqa matn o‘qish, kundalik vaziyatdagi hisoblash va bolaning savollarini tinglash kabi tavsiyalar oddiy shaklda beriladi. Uyga vazifalarni bajarilishida oilani ayblashga aylantirmaslik kerak. Maktabning vazifasi yordam yo‘llarini ochishdir. Ushbu yo‘nalishlar O‘zbekistondagi barcha maktablar uchun tasdiqlangan yagona model emas, mahalliy dalillar bilan boyitilishi lozim bo‘lgan amaliy takliflardir.

Amalga oshirishning bosqichli modeli

Maqola tahlili asosida diagnostika, maqsadli yordam, qayta baholash va boshqaruv qarorini bog‘laydigan model taklif etiladi. Uning mantiqi shundan iboratki, aniqlangan qiyinchilik darsdagi o‘zgarishga, o‘zgarish esa kuzatiladigan natijaga olib kelishi kerak. Jarayonning bir bo‘g‘ini yo‘qolsa, diagnostika navbatdagi tekshiruvga yoki yordam dalilsiz faoliyatga aylanadi. Quyidagi bosqichlar tavsiyaviy bo‘lib, muddati mahalliy o‘quv taqvimiga moslashtiriladi.

Birinchi bosqichda maktab jamoasi ustuvor ko‘nikmani tanlaydi va boshlang‘ich holatni aniqlaydi. Masalan, bitta sinf uchun matndagi ma’lumotni bog‘lash yoki sonli munosabatni tushuntirishi mumkin. Topshiriqlar qisqa, ta’lim tizimiga mos va o‘quvchining yoshiga tushunarli bo‘ladi. Baholashda ishtirok etmagan bolalar ham qayd etiladi.

Ikkinchi bosqichda o‘qituvchi ehtiyojga mos yordam rejasini tuzadi. Reja ko‘p bandli hujjat emas, qaysi guruhga qaysi ko‘nikma bo‘yicha qanday yordam ko‘rsatilishini bildiruvchi qo‘llanmadir. Maktab rahbariyati zarur materiallar bilan ta’minlaydi, pedagog esa usulni tanlash va tahlil qilishda ko‘maklashadi. Oilalar bilan ishlashda bolaning fanlarni o‘zlashtirish darajasi va erishayotgan kichik yutug‘i ham ko‘rsatiladi.

Uchinchi bosqichda topshiriqlar bilan ishlash va qayta baholash o‘tkaziladi. Maqsad oldingi javobni yodlashni emas, fanlarni qay tarzda o‘zlashtirayotganligini ko‘rishdir. Natija yaxshilanmasa, bolaning harakatini

ayblashdan avval yordam yetib borganmi, usul mos bo‘lganmi va ajratilgan vaqt yetarlimi degan savollar qo‘yilishi lozim. Zarur bo‘lsa, yordam shakli o‘zgartiriladi.

To‘rtinchi bosqichda maktab va hududiy mas’ullar umumlashtirilgan natijalarni ko‘rib chiqadi. Pedagogning o‘qitish usulini davom ettirish, qayta moslashtirish yoki qo‘shimcha sinovdan o‘tkazish shaklida bo‘lishi mumkin. Boshqa ta’lim muassasalarga tadbiq etishdan oldin xarajat, pedagog yuklamasi va turli guruhlarga ta’siri tahlil qilinadi. Yaxshi natija bilan birga amaliy qiyinchiliklar ham hujjatlashtiriladi. Ushbu model alohida tashabbuskor o‘qituvchiga qaram bo‘lib qolmay, maktabning o‘rganish va yaxshilanish jarayoniga aylanishi mumkin. Modelning muvaffaqiyati ko‘p hisobot yozish bilan emas, o‘quvchiga yordamning vaqtida yetib borishi bilan belgilanadi.

XULOSA

Boshlang‘ich ta’limdagi muammolar alohida yo‘nalishlarga ajratib hal etilishi, o‘qituvchilarni pedagogik salohiyatini oshirishni va o‘quv natijalarini tenglik bilan birga kuzatishni talab qiladi. O‘quvchilarning mazmunli ta’lim olishi uchun ularga yaratilayotgan shart-sharoitlar, pedagogik yordam va qayta aloqa o‘zaro bog‘lanishi lozim.

O‘zbekiston uchun ustuvor amaliy yo‘l o‘quv dasturi va baholashni uyg‘unlashtirish, ta’lim muassasalarida metodik hamkorlikni kuchaytirish hamda turli sharoitlarda sinovdan o‘tgan yechimlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishdan iborat. Boshlang‘ich ta’limning muvaffaqiyati har bir bolaning o‘rganishidagi to‘siqni ko‘ra olish va unga o‘z vaqtida javob berish qobiliyati orqali namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. United Nations. (2025). The Sustainable Development Goals Report 2025. Goal 4: Quality education. https://unstats.un.org/sdgs/report/2025/Goal-04/

2. UNESCO. (2026, 25 March). More children out of school for the 7th year in a row, up to 273 million. https://www.unesco.org/en/articles/more-children-out-school-7th-year-row-273-million

3. World Bank. (2022, 23 June). 70% of 10-Year-Olds now in Learning Poverty, Unable to Read and Understand a Simple Text. https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2022/06/23/70-of-10-year-olds-now-in-learning-poverty-unable-to-read-and-understand-a-simple-text

4. UNESCO & International Task Force on Teachers for Education 2030. (2024). Global report on teachers: Addressing teacher shortages and

transforming the profession. https://www.unesco.org/en/articles/global-report-teachers-addressing-teacher-shortages-and-transforming-profession

5. Rogers, H. (2024, May). Smart Buys in Foundational Learning: Cost-effective approaches to improve learning in LICs and MICs [taqdimot]. World Bank, Accra. https://thedocs.worldbank.org/en/doc/2b1c6e1c5420a3ad9d9e0c790b7ed3a9-0510022024/original/Smart-Buys.pdf

6. UNESCO. (2025). Languages matter: Global guidance on multilingual education. https://www.unesco.org/en/articles/languages-matter-global-guidance-multilingual-education

7. UNICEF Innocenti. (2026). Learning is For Everyone: Global Report. Paving the pathway for inclusive education for children with disabilities. https://www.unicef.org/innocenti/reports/learning-everyone-global-report

8. UNESCO. (2023). Global Education Monitoring Report 2023: Technology in education – A tool on whose terms? https://www.unesco.org/gem-report/en/publication/technology

9. UNICEF. (2025). Learning interrupted: Global snapshot of climate-related school disruptions in 2024. https://www.unicef.org/reports/learning-interrupted-global-snapshot-2024

10. UNICEF Uzbekistan. (2026, 18 August). National Education Milestone: New National Curriculum launched to achieve a world-class education for about 7 million learners in the Republic of Uzbekistan. https://www.unicef.org/uzbekistan/en/press-releases/national-education-milestone-new-national-curriculum-launched-achieve-world-class

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Boymuratova Iroda Iskandarovna
Sho‘rchi tumani 53-maktab
boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi

Annotasiya: *Maqolada o‘qituvchilarning dars jarayonini sifatli, mahorat bilan olib borishlari, muvaffaqiyatli ishlashlari, o‘quvchilarga sifatli bilim berishlari uchun, o‘quv jarayoniga yangiliklardan, axborot texnologiyalardan foydalanish shart. Innovatsiyaning ta’lim-tarbiya ishida to‘liq va aniq qo‘llash uchun uning mohiyatini,mazmunini tushungan holda u orqali o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro munosabatlarini optimallashtirishi bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar*:o‘quv jarayoni, usul, bilim, o‘zlashtirish, ijod, faollik, pedagogika, o‘quvchi, ta’lim*

Abstract: *The article states that in order for teachers to conduct the lesson process qualitatively and skillfully, to work successfully, and to provide students with quality knowledge, it is necessary to use innovations and information technologies in the educational process. In order to fully and accurately apply innovation in educational work, it is necessary to understand its essence and content and optimize the relationship between the teacher and the student through it*

Keywords: *educational process, method, knowledge, mastery, creativity, activity, pedagogy, student, education*

Аннотация*: В статье утверждается, что для качественного и квалифицированного проведения урока, успешной работы и предоставления учащимся качественных знаний необходимо использовать инновации и информационные технологии в образовательном процессе. Для полного и точного применения инноваций в образовательной работе необходимо понимать их сущность и содержание, а также оптимизировать взаимоотношения между учителем и учащимся посредством их использования.*

***Ключевые слова**: образовательный процесс, метод, знание, мастерство, творчество, деятельность, педагогика, учащийся, образование*

Maktabdagi o‘quv jarayonning sifati ko‘p omillarga bog‘liq bo‘lib, ular orasida o‘qitishning usul va metodlari hal qiluvch ahamiyatga ega. Binobarin, ular bilimlarning ongli va chuqur o‘zlashtrishda o‘quvchilardan mustaqillik va ijodiy faollikning rivojlanishiga tasir ko‘rsatadi. Pedagogika amaliyotida o‘qitish usullari va metodlariga juda katta boylik to‘plangan. Ularni tanlashda turli sharoitlar o‘qitilayotgan fanning xarakteri bolalarning yosh xususiyatlari, oldingi tayyorgarlik darajasi va hokozalar hisobga olinadi. Burhoniddin Zarkujiyning fikricha, insonning bilish faoliyati bilmaslikdan bilishga qarab boradi. Aql - faol, ijodiy kuchdir, koinotni bilish qurolidir. Ammo dastlabki tajribasiz bilishning bo‘lishi mumkin emas. Chunki umuminsoniy aql tushunchasi taqqoslash, kuzatish va tajriba yo‘li bilan tarkib topadi. Inson hissiy idrokni boyitish bilangina o‘zining bilimlarini oshira oladi. Shuning uchun ta’limda o‘quvchilarning o‘zidagi tajribaga tayangan metodlardan iloji boricha keng foydalanish kerak. Metodlar va usullarni tanlash o‘qituvchi darsda hal qilishi mo‘ljallangan masalaga bog‘liq bo‘ladi. Chunonchi, yangi materialni bayon etishda bir xil metodlar qo‘llansa, uni mustahkamlashda ikkinchi va mavzuni umumlashtrishda ya’nada boshqa xil metodlar qo‘llanadi. Darsning turli bosqichlarida puxta o‘ylash samarali usullar hamda metodlarni tanlash juda muhimdir.

O‘qitish metodlarining juda ko‘p turlari mavjud va ularning sonini aniqlab belgilab bo‘lmaydi. Metodlar o‘qitishning mantiqiy tomonlariga, komponentlari va vazifalariga asoslanib tasniflanadi. Maktabdagi o‘qitish metodlarining yagona tasnifi yo‘q. Tasnif tartib va tizimni vujudga keltiradi. Umumiy va muayyan, nazariy va amaliy, muhim va tasodifiy o‘qitish metodlarini aniqlashga yordam beradi, shu orqali ulardan amaliyotda samaraliroq foydalanishga xizmat qiladi. Bugungi mavzudan nimalar o‘rgandingiz? kabi savollarga har bir o‘quvchi o‘z javobini yozib, olib chiqadi va o‘qib beradi. Bu mashg‘ulotda ham o‘quvchilarning o‘tgan va yangi mavzu asosida olgan bilimlari aniqlanadi. Darsni chiroyli boshlashda samarali muloqot Fedbek berish bilan ham boshlash juda yaxshi natija beradi. Men shunday boshlayman. Salom aziz bolalarim, mening gul-u lolalarim. Hammangiz bor, omonmisiz, bugungi darsga tayyormisiz?. O‘quvchilar: Aziz ustoz sog‘-omonmiz, dars boshlashga biz tayyormiz. Juda yaxshi bolajonlar, bilishimcha, bugun hamma darsga tayyor. Adashmasam bugungi darsimizda hammangiz yuqori bal olishga oshiqmoqdasizlar kabi muloqotlar o‘z

samarasini bermoqda. Yaxshilarning ziynati bobidan savollar: 1-guruhga: Xushmuomalalik mavzusida 2-guruhga: Kulish madaniyati mavzusida Bunda o‘quvchilar o‘z bilganlari va donolar hikmatlari, mavzu-mazmuniga tayangan holda tezroq o‘z g‘oyalari bilan tog‘larga chiqishga harakat qiladilar. Xulosa qilib aytganda, dars samaradorligiga erishishda ilg‘or pedagogik texnologiya usullaridan foydalanishni tashkil etish, o‘qituvchidan o‘z ustida ishlash, intilish, innovatsion texnalogiyalarni o‘rganib, darslarda qo‘llash, zamon talabiga munosib bo‘lishga undaydi. “Innovatsiya - yangilik” so‘zining qachon paydo bo‘lganligi aniq bo‘lmasa-da, bu tushuncha umumiy fanlarga, tabiiy fanlardan chiqib kelganligi haqida fikrlar mavjud. Innovatsiya jamiyat paydo bo‘lishidan boshlab o‘zgarib kelmoqda. Ba’zi pedagoglar innovatsiya so‘zining tor ma’noda ta’limni takomillashtirish, zamonaviylashtirish, boshqalari unga kengroq tushuncha bermoqda. Ta’lim sohasidagi ayrim yangi tushunchalarning, islohot, o‘qitishni zamonaviylashtirish, takomillashtirish, optimallashtirish kabilar bilan almashtirmoqdalar. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida innovatsiya so‘zi quyidagicha izohlanadi: “innovatsiya - inglizcha innovationas - kiritilgan yangilik, ixtiro bo‘lib, ilmiy texnika yutuqlari va ilg‘or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mahoratni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, faoliyat doiralarda qo‘llanilishi” deb ko‘rsatilgan.

“Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi o‘quvchi faoliyatiga yangiliklar va o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to‘liq foydalaniladi.” Pedagoglarning muvaffaqiyatli ishlashlari, o‘quvchilarga ta’lim berishlari uchun ta’lim jarayoniga yangiliklarni tatbiq etishni bilishlari shart. Shuning uchun innovatsiya yangilik atamasi ko‘pchilikni e’tiborini tortdi. Innovatsiyaning ta’lim - tarbiya ishidan to‘liq va aniq qo‘llash uchun uning mazmunmohiyatini tushunib yetish lozim. Innovatsiya orqali o‘qitish jarayoni o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro munosabatlarini optimallashtiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo`llari. - T., Nizomiy nomidagi TDPU, 2009.

2. Lafasov M. Jahon tarixi. (1918-2008). –T.: Turon-iqbol, 2011.

3.Ochilov M. «Yangi pedagogik texnologiyalar» /Qo`llanma. -Qarshi: Nasaf, 2000.

4.Fuzailova G.S, Rahmatullayeva O.R Tarix fanini kasbiy sohalarga yo`naltirib o`qitish metodikasi. Uslubiy qo`llanma. – T., TDPU, 2012. - 140 b.

5.Fuzailova G.S, Rahmatullayeva O.R Tarix fanidan o`quv qo`llanma. - T.:TDPU, 2012. - 200 b. 6.Usmonov Q., Sodiqov M. O`zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). Akademik litsey va kasb-hunar kolejlari uchun darslik. -T.: Sharq, 2002, 2003, 2011.

7.Usmonov Q. O`zbekiston tarixi. Milliy istiqlol davri. Akademik litsey va kasb-hunar kolejlari uchun. -T.: O`qituvchi, 2003.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘QUVCHILARNING MUSTAQIL FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK SALOHIYATDAN FOYDALANISH

Boyniyozova Muazzam Abdug‘Affor Qizi
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti , Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi
3- bosqich 102BTs -guruh talabasi

Annotatsiya: *Ushbu tezisda boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishda pedagogik salohiyatdan foydalanish masalasi yoritiladi. Tadqiqotda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining shaxsiy imkoniyatlari, ehtiyojlari va ta’lim jarayonidagi faolligini hisobga olishga asoslangan pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlik, ijobiy pedagogik muhit, amaliy topshiriqlar va interfaol metodlarning ta’lim samaradorligiga ta’siri ochib beriladi. Shuningdek, pedagogik salohiyatdan maqsadli foydalanish orqali o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va ijtimoiy sifatlarini rivojlantirish imkoniyatlari ko‘rsatiladi.*

Kalit so‘zlar: *mustaqil fikrlash, pedagogik salohiyat, boshlang‘ich ta’lim, muammoli ta’lim, ijodkorlik, faollik, ta’lim sifati.*

Abstract*: This thesis discusses the pedagogical aspects of improving the quality of primary education through a humanistic and learner-centered approach. The study analyzes methods that consider pupils’ individual abilities, needs and active participation in learning. Particular attention is paid to teacher–pupil cooperation, a positive educational environment, interactive activities and practical tasks. The thesis also highlights opportunities for developing pupils’ knowledge, skills and social qualities through purposeful use of pedagogical potential in the primary classroom.*

Keywords: *independent thinking, pedagogical potential, primary education, problem-based learning, creativity, engagement, quality of education*

Аннотация*: В тезисе рассматриваются педагогические аспекты повышения качества начального образования на основе гуманистического и личностно ориентированного подхода. Анализируются методы, учитывающие индивидуальные возможности, потребности и активность учащихся. Особое внимание уделяется сотрудничеству учителя и ученика, созданию благоприятной*

образовательной среды, интерактивным методам и практическим заданиям. Показаны возможности развития знаний, умений и социальных качеств учащихся посредством целенаправленного использования педагогического потенциала.

***Ключевые слова**: самостоятельное мышление, педагогический потенциал, начальное образование, проблемное обучение, креативность, вовлеченность, качество образования*

KIRISH

Bugungi kunda boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirish o‘quvchilarga bilim berish bilan bir qatorda, ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlashni ham talab etmoqda. Insonparvarlikka asoslangan ta’limda o‘quvchi ta’lim jarayonining faol subyekti sifatida qaraladi. Shu sababli o‘qituvchi tomonidan o‘quvchining imkoniyati, qiziqishi va ehtiyojlarini hisobga olish, qulay pedagogik muhit yaratish hamda hamkorlikni kuchaytirish muhim pedagogik vazifalardan biridir.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichida qo‘llaniladigan pedagogik yondashuvlar o‘quvchining keyingi ta’lim faoliyati uchun muhim poydevor yaratadi. Ayniqsa, o‘quvchini tinglash, uning fikrini qadrlash, xatolarini rivojlanish imkoniyati sifatida qabul qilish va mustaqil faoliyatini qo‘llab-quvvatlash insonparvarlik tamoyillarining amaliy ko‘rinishidir. Bunday muhitda o‘quvchi o‘z imkoniyatlarini erkinroq namoyon etadi. Mustaqil fikrlash o‘quvchining muammoni anglash, savolga turli nuqtayi nazardan yondashish, o‘z fikrini asoslash va xulosa chiqarish qobiliyatini anglatadi. Boshlang‘ich ta’limda bu sifatni rivojlantirish uchun tayyor javoblardan ko‘ra muammoli va izlanishga undovchi topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Muammoli savollar, taqqoslash, sabab–oqibatni aniqlash, kichik loyihalar va ijodiy vazifalar o‘quvchini fikrlashga undaydi. O‘qituvchi turli javoblarni qabul qilib, ularning asoslanishini so‘rasa, o‘quvchi o‘z qarashini dalillashga odatlanadi.

Pedagogik salohiyatdan samarali foydalanish o‘quvchining faqat akademik natijalarini emas, balki tashabbuskorligi va ijodkorligini ham rivojlantiradi. Shu bois boshlang‘ich ta’limda mustaqil fikrlashni shakllantirish ta’lim sifatining muhim ko‘rsatkichlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Pedagogik tahlil shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchining faol ishtirokini ta’minlaydigan, uning shaxsiy imkoniyatlarini qadrlaydigan va hamkorlikka asoslangan ta’lim muhiti boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirish uchun qulay sharoit yaratadi. Bunday yondashuvda o‘quvchi o‘z faoliyatining natijasini

anglaydi, o‘z fikrini ifodalashga va o‘quv vazifalarini mas’uliyat bilan bajarishga intiladi. Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishda pedagogik salohiyatdan foydalanish boshlang‘ich ta’limning zamonaviy talablariga mos pedagogik yo‘nalishlardan biridir. Insonparvarlik tamoyillari, individual yondashuv va hamkorlikka asoslangan metodlarning uyg‘un qo‘llanilishi o‘quvchilarning ta’limdagi faolligini oshiradi hamda ularning shaxsiy va ijtimoiy sifatlarini rivojlantiradi.

Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi darsni tashkil etishda o‘quvchining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olishi, ijobiy pedagogik muhit yaratishi, faol metodlardan foydalanishi va har bir bolaning rivojlanish imkoniyatlarini qo‘llab-quvvatlashi zarur. Bu yondashuv ta’lim sifatini oshirish bilan birga, o‘quvchini kelgusidagi ta’lim va ijtimoiy faoliyatga tayyorlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019.

2. Dewey J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938.

3. Hasanboyeva O. Boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlar metodikasi. – Toshkent, 2022.

4. Mavlonova R., To‘rayeva O., Holiqberdiyeva K. Pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.

5. UNESCO. Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education. – Paris: UNESCO, 2021.

NUTQIY XAVOTIR VA OG‘ZAKI TUZATUVCHI FIKR-MULOHAZANING O‘QUVCHILAR NUTQ KO‘NIKMALARIGA TA’SIRI

Daminova Nodiraxon Soib qizi
Mustaqil izlanuvchi
E-mail: damno94@mail.ru

Annotatsiya.*Ushbu tezisda chet tilida gapirish jarayonidagi nutqiy xavotir va o‘qituvchining og‘zaki tuzatuvchi fikr-mulohazalari o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilinadi. Ilmiy adabiyotlar asosida bevosita va bilvosita tuzatish usullarining o‘quvchilarning nutq aniqligi hamda o‘ziga ishonchiga ta’siri ko‘rib chiqiladi. O‘quvchining individual xususiyatlariga mos yondashuv zarurligi ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *nutqiy xavotir, og‘zaki nutq, tuzatuvchi fikr-mulohaza, bevosita tuzatish, bilvosita tuzatish, chet tili ta’limi.*

Аннотация. *В тезисе рассматривается влияние речевой тревожности и устной корректирующей обратной связи преподавателя на развитие навыков говорения при изучении иностранного языка. На основе анализа научной литературы сопоставляются прямая и косвенная формы исправления ошибок. Особое внимание уделяется психологическому состоянию учащихся, страху допустить ошибку и созданию благоприятной учебной среды. Сделан вывод о необходимости индивидуального подхода при выборе способов обратной связи.*

Ключевые слова: *речевая тревожность, устная речь, корректирующая обратная связь, прямое исправление, косвенное исправление, обучение иностранным языкам.*

Abstract. *This thesis examines the influence of speaking anxiety and teachers’ oral corrective feedback on the development of foreign-language speaking skills. Drawing on a review of academic literature, it compares explicit and implicit forms of error correction. Particular attention is given to learners’ psychological well-being, fear of making mistakes, and the importance of a supportive classroom environment. The thesis concludes that corrective feedback should be adapted to individual learners’ needs and anxiety levels.*

Keywords: *speaking anxiety, speaking skills, oral corrective feedback, explicit correction, implicit correction, foreign language education.*

nutqiy xavotir, og‘zaki nutq, tuzatuvchi fikr-mulohaza, bevosita tuzatish, bilvosita tuzatish, chet tili ta’limi.

KIRISH

Chet tilini o‘rganishda og‘zaki muloqot ko‘nikmasi muhim o‘rin tutadi. Biroq ayrim o‘quvchilar xato qilishdan yoki tengdoshlari tomonidan salbiy baholanishdan qo‘rqib, darsda faol gapirishga qiynaladi. Nutqiy xavotirning kuchayishi o‘quvchining bilgan so‘z va grammatik tuzilmalaridan erkin foydalanishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Shu sababli o‘qituvchi xatolarni qanday va qachon tuzatishi ta’lim samaradorligi uchun ahamiyatlidir.

ASOSIY QISM

Og‘zaki tuzatuvchi fikr-mulohaza ikki asosiy ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Bevosita tuzatishda o‘qituvchi xatoni aniq ko‘rsatib, to‘g‘ri variantni aytadi. Bilvosita tuzatishda esa o‘quvchining fikri to‘g‘ri shaklda qayta ifodalanadi yoki aniqlashtiruvchi savol orqali o‘quvchi o‘z xatosini topishga undaladi. Har ikki yondashuvning foydasi o‘quvchining tayyorgarligi, nutqiy xavotir darajasi va dars muhitiga bog‘liq.

Manba maqolada keltirilgan Huong Thanh Nhac (2021) tadqiqotida 47 nafar universitet talabasi ishtirok etgan. Talabalar ikki tajriba va bir nazorat guruhiga ajratilib, o‘qituvchi fikr-mulohazasining og‘zaki nutq aniqligiga ta’siri dastlabki va yakuniy testlar yordamida baholangan. Tadqiqot tavsifida bevosita tuzatish qo‘llangan guruhda grammatik xatolar ko‘rsatkichi 81,3 foizdan 56,3 foizga kamaygani qayd etilgan. Bu natijalar ushbu tezis muallifining mustaqil tajribasi emas, balki ilgari e’lon qilingan tadqiqot ma’lumotlaridir.

Shuningdek, Rassaei (2015) nutqiy xavotir darajasi turlicha bo‘lgan o‘quvchilar tuzatuvchi fikr-mulohazaga har xil munosabat bildirishini ko‘rsatgan. Xavotiri yuqori o‘quvchiga hamma oldida keskin tanbeh berish uning faolligini pasaytirishi mumkin. Bunday vaziyatda muloyim qayta ifodalash va individual tavsiyalar maqsadga muvofiq. Xavotiri past o‘quvchilarga esa xatoning grammatik sababini tushuntirish samarali bo‘lishi mumkin.

Amaliy jihatdan o‘qituvchi mashg‘ulot oldidan qisqa tayyorgarlik mashqlarini tashkil etishi, xatolarni o‘quvchini kamsitmasdan tushuntirishi va o‘quvchiga qayta javob berish imkoniyatini yaratishi kerak. O‘quvchilarning yoshi, til bilish darajasi va psixologik holatini hisobga olish og‘zaki nutqni rivojlantirishga yordam beradi.

XULOSA

Nutqiy xavotir chet tilida erkin gapirishga to‘sqinlik qiluvchi omillardan biridir. Og‘zaki tuzatuvchi fikr-mulohaza esa to‘g‘ri tanlangan taqdirda nutq aniqligini oshirishga xizmat qiladi. Barcha o‘quvchilarga bir xil usulni qo‘llash o‘rniga, bevosita va bilvosita tuzatishni vaziyatga moslashtirish, qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish hamda xatolar ustida ishlashga imkon berish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Lyster R., Saito K. Oral feedback in classroom SLA: A meta-analysis // Studies in Second Language Acquisition. 2010. Vol. 32(2). P. 265–302.

2. Rassaei E. Oral corrective feedback, foreign language anxiety and L2 development // System. 2015. Vol. 49. P. 98–109.

3. Nhac H. T. Effect of teachers’ corrective feedback on learners’ oral accuracy in English speaking lessons // International Journal of Learning, Teaching and Educational Research. 2021. Vol. 20(10). P. 313–330.

4. Kawashima H. Effects of pre-task planning on speaking anxiety of Japanese EFL learners // Annual Review of English Language Education in Japan. 2019. Vol. 30. P. 145–160.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA FORMATIV BAHOLASH ORQALI O‘QUVCHINING IJTIMOIY-IQTISODIY VA PEDAGOGIK SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH

Djumayeva Dilafro‘Z Xusinovna
Qashqadaryo viloyati mirishkor tumani 42- maktab boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishda insonparvar, ijtimoiy yo‘naltirilgan va o‘quvchi ehtiyojlarini hisobga oluvchi pedagogik yondashuvning imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda zamonaviy pedagogik qarashlar, xalqaro ta’lim tadqiqotlari va ilmiy-metodik manbalar asosida mavzuning nazariy jihatlari yoritiladi. Shuningdek, dars jarayonida qo‘llash mumkin bo‘lgan amaliy usullar, pedagogik shartlar va kutiladigan ta’limiy natijalar tizimlashtiriladi. Maqola xulosalari boshlang‘ich ta’limda sifat, tenglik va o‘quvchi faolligini uyg‘unlashtirishga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar*: formativ baholash, fikr-mulohaza, o‘quv motivatsiyasi, o‘zini baholash, mezon, ta’lim sifati*

Abstract: *The article analyzes pedagogical opportunities for improving the quality of primary education through human-centered and socially oriented approaches that consider learners’ individual needs. The study draws on contemporary educational theories, international education research and reliable methodological sources. Practical methods, pedagogical conditions and expected educational outcomes applicable to primary classrooms are systematized. The conclusions emphasize the importance of integrating educational quality, equity, learner participation and supportive classroom environments.*

Keywords: *formative assessment, feedback, learning motivation, self-assessment, criteria, quality of education*

Аннотация: *В статье рассматриваются педагогические возможности повышения качества начального образования на основе гуманистических и социально ориентированных подходов, учитывающих индивидуальные потребности учащихся. Теоретические положения раскрываются на основе современных педагогических концепций, международных исследований образования и научно-методических источников. Систематизируются практические методы, педагогические условия и ожидаемые результаты их применения в*

начальной школе. Сделан вывод о необходимости сочетания качества образования, равенства, активности учащихся и благоприятной образовательной среды.

***Ключевые слова**: формирующее оценивание, обратная связь, учебная мотивация, самооценивание, критерии, качество образования*

KIRISH

Baholash ta’lim jarayonining yakuniy bosqichigina emas, o‘qitish va o‘rganishni boshqaruvchi mexanizm hamdir. Ayniqsa boshlang‘ich ta’limda baholash usuli bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchi, xatoga munosabati va keyingi faoliyatga tayyorligiga ta’sir qilishi mumkin. Shu bois baholash natijani qayd etish bilan birga, o‘quvchiga rivojlanish yo‘lini ko‘rsatishi kerak.

Black va Wiliam formativ baholashni o‘quvchi faoliyati haqidagi dalillarni yig‘ish va ulardan keyingi o‘qitish qarorlarini yaxshilash uchun foydalanish jarayoni sifatida talqin qiladi [1]. Bu yondashuvda o‘qituvchi “to‘g‘ri/noto‘g‘ri” degan umumiy bahodan ko‘ra, o‘quvchining nimani yaxshi bajargani, nimani takomillashtirishi va keyingi qadam qanday bo‘lishini ko‘rsatadi.

Boshlang‘ich sinflarda formativ baholashning sodda vositalaridan foydalanish mumkin: mezonli tekshiruv varaqasi, “ikki yutuq – bir taklif”, o‘zini baholash, juftlikda fikr bildirish, og‘zaki izoh va qisqa refleksiya. Bunda baholash mezonlari o‘quvchi yoshiga mos, tushunarli va kuzatiladigan faoliyatga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Black va hamkorlarining “Assessment for Learning” yondashuvi ham baholashni o‘qitish bilan uzviy bog‘lashni ta’kidlaydi [2].

Formativ baholashning ijtimoiy jihati ham mavjud. O‘quvchi o‘z ishini tahlil qilish, tengdoshiga hurmat bilan fikr bildirish va fikr-mulohazani qabul qilish orqali muloqot hamda mas’uliyat ko‘nikmalarini rivojlantiradi. OECD tadqiqotlari ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni ta’lim jarayonida tizimli ravishda rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi [3].

XULOSA

Formativ baholash boshlang‘ich ta’limda ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchining o‘z faoliyatini anglashini kuchaytirish va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun qulay imkoniyat yaratadi. Uning asosiy shartlari – aniq mezon, o‘z vaqtida fikr-mulohaza, o‘zini baholash, keyingi qadamni belgilash va baholashni jazolovchi emas, rivojlantiruvchi vosita sifatida tashkil etishdir.

Maqolada nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatishlarni konseptual talqin qilish, ilmiy-metodik manbalarni tizimlashtirish va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Maqolada mustaqil tajriba-sinov

natijalari yoki statistik ko‘rsatkichlar keltirilmagan; xulosalar mavjud ilmiy adabiyotlar va pedagogik nazariyalar tahliliga asoslangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Black P., Harrison C., Lee C., Marshall B., Wiliam D. Assessment for Learning: Putting It into Practice. – Maidenhead: Open University Press, 2003.

2. Black P., Wiliam D. Assessment and Classroom Learning // Assessment in Education: Principles, Policy & Practice. – 1998. – Vol. 5, No. 1. – P. 7–74. DOI: 10.1080/0969595980050102.

3. Hattie J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. – London: Routledge, 2009.

4. OECD. Social and Emotional Skills for Better Lives: Findings from the OECD Survey on Social and Emotional Skills 2023. – Paris: OECD Publishing, 2024. DOI: 10.1787/35ca7b7c-en.

5. Tomlinson C.A. The Differentiated Classroom: Responding to the Needs of All Learners. 2nd ed. – Alexandria, VA: ASCD, 2014.

6. UNESCO. Mainstreaming Social and Emotional Learning in Education Systems: Policy Guide. – Paris: UNESCO, 2024.

DUAL TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINI INKLYUZIV TA'LIM FAOLIYATIGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Sh.O. Oybekova
Mustaqil izlanuvchi. O'zbekiston
E-mail: oybekovashukrona16@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada dual ta'lim muhitida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini inklyuziv faoliyatga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari nazariy tahlil qilinadi. Ilmiy adabiyotlar va O'zbekiston qonunchiligini qiyoslash asosida beshta shart-sharoit tizimlashtiriladi: inklyuziv mazmun, nazariya–amaliyot integratsiyasi, moslashuvchan muhit, mentorlik hamda refleksiv qayta aloqa. Amaliyotdagi muammodan boshlab nazariy tahlil va qayta qo'llashgacha bo'lgan metodik izchillik taklif qilinadi. Natijalar konseptual xususiyatga ega bo'lib, tajriba-sinovda tekshirilishi zarur.*

Kalit so'zlar: *dual ta'lim, boshlang'ich ta'lim, inklyuziv pedagogika, bo'lajak o'qituvchi, pedagogik shart-sharoit, mentorlik, refleksiya.*

Abstract. *This theoretical study examines pedagogical conditions for preparing prospective primary teachers for inclusive practice in dual education. Comparative analysis of academic sources and Uzbekistan's regulations identifies five interconnected conditions: inclusive curriculum content, integration of theory and practice, adaptable learning environments, mentoring, and reflective feedback. A cycle linking authentic classroom problems with theoretical analysis, supervised implementation, and reflection is proposed. The findings are conceptual and require empirical validation.*

Keywords: *dual education, primary teacher education, inclusive pedagogy, pedagogical conditions, mentoring, reflective practice.*

KIRISH

Inklyuziv ta'lim barcha o'quvchilarning mazmunli ishtirokini qo'llab-quvvatlash, ta'limiy to'siqlarni kamaytirish va o'qitish amaliyotini individual ehtiyojlarga moslashtirishni talab etadi (UNESCO, 2020). Boshlang'ich ta'limda bu talablar savod o'rgatish, boshlang'ich matematika va tengdoshlar bilan munosabatlarni tashkil etishda namoyon bo'ladi.

Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisining inklyuziv tayyorligi nazariy bilimlar bilan birga pedagogik vaziyatni tahlil qilish, topshiriqlarni moslashtirish, mutaxassislar bilan hamkorlik va refleksiv baholashni qamrab oladi. European Agency for Development in Special Needs Education (2012) inklyuziv o‘qituvchi profilida o‘quvchilar xilma-xilligini qadrlash, barchani qo‘llab-quvvatlash, hamkorlik va uzluksiz kasbiy rivojlanishni to‘rtta asosiy qadriyat sifatida ko‘rsatadi. Bu profil dual ta’lim metodikasining tayyor modeli emas.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning 17-moddasida dual ta’limning nazariy qismi ta’lim tashkilotida, amaliy qismi ish joyida o‘tkazilishi belgilangan (O‘zbekiston Respublikasi, 2020). Vazirlar Mahkamasining 14-son qarori (2025) oliy ta’limdagi tashkiliy tartiblarni belgilaydi. PF-209-son Farmon (2026) 2026/2027-yildan dual tamoyillarga asoslangan amaliyotlar hamda 2027/2028-yildan ish beruvchilar buyurtmasidagi dual kadrlar tayyorlash mexanizmlarini farqlaydi. Shuning uchun oddiy pedagogik amaliyot rasmiy dual ta’lim shakliga tenglashtirilmaydi.

Maqolaning maqsadi — ilmiy manbalar va normativ talablar asosida “Inklyuziv ta’lim. Gospital pedagogika” fani bilan bog‘liq inklyuziv kasbiy tayyorgarlikning pedagogik shart-sharoitlarini tizimlashtirish va konseptual metodik mexanizmni tavsiflash.

TADQIQOT METODLARI. Tadqiqotda nazariy-qiyosiy tahlil, kontent tahlili va pedagogik umumlashtirish usullari qo‘llanildi. Dual ta’lim, inklyuziv pedagogika, universitet–maktab integratsiyasi va pedagogik shart-sharoitlarga oid ilmiy ishlar (Ippolitova & Sterkhova, 2012; Zeichner, 2010; Florian & Black-Hawkins, 2011; Parmankulova va boshq., 2022), European Agency (2012) profili, UNESCO (2020) hisoboti hamda O‘zbekistonning 2020–2026-yillardagi tegishli normativ hujjatlari maqsadli tanlab o‘rganildi. Manbalardan metodik elementlar ajratilib, boshlang‘ich ta’limga nisbatan tahliliy sintez qilindi. Maqola tizimli sharh yoki tajriba-sinov hisoboti emas; yangi empirik ma’lumotlar to‘planmagan**.**

NATIJALAR. N.V. Ippolitova va N.S. Sterxova (2012) pedagogik shart-sharoitlarni ta’lim tizimining shaxsiy hamda jarayonli jihatlariga ta’sir etuvchi imkoniyatlar sifatida izohlaydi va ularning tashkiliy-pedagogik, psixologik-pedagogik hamda didaktik turlarini farqlaydi. K. Zeichner (2010) universitet va maktabdagi kasbiy bilimlarning ikki tomonlama aloqasini ta’kidlaydi. Ushbu qarashlarni birlashtirib, maqolada shart-sharoitlar inklyuziv tayyorlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘zaro muvofiqlashtirilgan

mazmuniy, tashkiliy va amaliy-metodik imkoniyatlar tizimi sifatida tushuniladi.

Birinchi shart-sharoit — inklyuziv yo‘naltirilgan mazmun. “Inklyuziv ta’lim. Gospital pedagogika” fanida individual ehtiyoj, ta’limiy to‘siq, moslashtirilgan topshiriq va mutaxassislararo hamkorlik boshlang‘ich ta’limdagi vazifalar bilan bog‘lanadi. Masalan, bir ta’lim maqsadiga mos turli murakkablikdagi o‘qish topshiriqlarini ishlab chiqish nazariy bilimni amaliy kasbiy qarorga aylantiradi. Gospital vaziyatlar alohida tashkiliy kontekstda o‘rganiladi; modellashtirilgan keys bevosita shifoxona amaliyoti bilan tenglashtirilmaydi.

Ikkinchi shart-sharoit — nazariya va maktab amaliyotining mazmuniy integratsiyasi. Talaba kuzatgan muammoni fan tushunchalari asosida izohlab, metodik yechimni loyihalashi va uning tatbiqini mentor bilan baholashi zarur. K. Zeichnerning (2010) tadqiqoti ikki tomonlama bilim almashinuviga asos beradi. P.Zh. Parmankulova va hammualliflar (2022) dual ta’lim elementlarini inklyuziv tayyorgarlik bilan bog‘lagan, biroq ularning kollej talabalari bo‘yicha natijalarini O‘zbekiston boshlang‘ich pedagogik ta’limiga bevosita umumlashtirish mumkin emas.

Uchinchi shart-sharoit — moslashuvchan pedagogik muhit. L. Florian va K. Black-Hawkins (2011) Shotlandiyadagi ikki boshlang‘ich maktabning 11 nafar o‘qituvchisi amaliyotini kuzatib, barcha o‘quvchilar uchun mavjud ta’lim imkoniyatlarini kengaytirishga doir misollarni tavsiflagan. Demak, topshiriqlarni moslashtirish bilan birga, umumiy sinf faoliyatida ishtirokni qo‘llab-quvvatlash metodik vazifa sifatida qaraladi. Ushbu tadqiqot barcha muhitda bir xil samarani kafolatlamaydi.

To‘rtinchi shart-sharoit — universitet, hamkor maktab va mentorning metodik hamkorligi. Universitet o‘qituvchisi nazariy tahlilni, maktab amaliy vazifalar uchun sharoitni, mentor kuzatuv va kasbiy maslahatni ta’minlaydi. Zarur hollarda maxsus pedagog, psixolog va ota-onalar bilan hamkorlik qilinadi. Bu jarayonda aniq vazifalar, mas’uliyat, o‘quvchi ma’lumotlarining maxfiyligi va talabaning kasbiy vakolatlari chegarasi belgilanishi zarur.

Beshinchi shart-sharoit — refleksiv faoliyat va mezonli qayta aloqa. Talaba pedagogik qarorining asosini, qo‘llanishini va kuzatilgan natijasini tahlil qiladi; mentor mulohazasi keyingi yechimni takomillashtirishga xizmat qiladi. Nazariy baholash uchun motivatsion-qadriyatli, kognitiv, amaliy-metodik, kommunikativ-hamkorlik va refleksiv-baholash komponentlari ajratiladi. Bu besh komponent dissertatsiyaning ishchi tuzilmasi bo‘lib, diagnostik ishonchliligi hali sinovdan o‘tmagan.

Beshta shart-sharoitni birlashtiruvchi metodik izchillik quyidagicha taklif etiladi: maktabda muammoni aniqlash → nazariy tahlil → metodik yechimni loyihalash → mentor rahbarligida qo‘llash → natijani baholash va refleksiya. Bu izchillikda amaliyot nafaqat bilimni tekshirish, balki navbatdagi nazariy izlanish uchun muammo manbai ham hisoblanadi. Taklif etilgan ketma-ketlik mualliflik konseptual sintezidir, boshqa tadqiqotchilarning tayyor modeli emas.

MUHOKAMA. Shart-sharoitlar turli ilmiy vazifani bajaradi: mazmun — nimani o‘rganishni, integratsiya — bilim qayerda qo‘llanishini, moslashuvchan muhit — o‘quvchilar ehtiyojiga javobni, mentorlik — hamkorlik tartibini, refleksiya — natijani baholashni belgilaydi. Ularni birlashtirish metodik tizimni loyihalash uchun asos yaratadi, biroq hozircha samaradorlikning empirik isboti emas.

European Agency (2012) profilidagi to‘rtta kasbiy qadriyat, maqoladagi beshta pedagogik shart-sharoit va dissertatsiyadagi besh komponentli tayyorlik tuzilmasi turli tahliliy darajalarga tegishli: qadriyat, ta’lim muhiti va kutilayotgan kasbiy sifatlar. Ularni bir-biriga tenglashtirish nazariy xato bo‘ladi.

Keyingi tajriba-sinovda taqqoslash guruhlari, dastlabki va yakuniy diagnostika, mentor kuzatuvlari, metodik ishlanmalar hamda refleksiv hisobotlar o‘rganilishi zarur. Amaliyot bazasi va mentor tayyorgarligi farqlarini ham hisobga olish kerak. Shart-sharoitlar samarasi hozircha xulosa emas, tekshiriladigan ilmiy farazdir.

XULOSA

Nazariy-qiyosiy tahlil bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini inklyuziv faoliyatga tayyorlashning beshta shart-sharoitini tizimlashtirish imkonini berdi: inklyuziv mazmun, nazariya–amaliyot integratsiyasi, moslashuvchan muhit, mentorlik hamda refleksiv qayta aloqa. Amaliy muammo → nazariy tahlil → yechim → amaliy qo‘llash → refleksiya izchilligi “Inklyuziv ta’lim. Gospital pedagogika” fani va maktab tajribasini bog‘lashning konseptual vositasi sifatida taklif etildi. Taklifning samaradorligi va baholash mezonlari keyingi tajriba-sinov orqali tekshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. European Agency for Development in Special Needs Education. (2012). Profile of inclusive teachers. https://www.european-agency.org/activities/te4i/profile-inclusive-teachers

2. Florian, L., & Black-Hawkins, K. (2011). Exploring inclusive pedagogy. British Educational Research Journal, 37(5), 813–828. https://doi.org/10.1080/01411926.2010.501096

3. Ippolitova, N. V., & Sterkhova, N. S. (2012). Анализ понятия «педагогические условия»: сущность, классификация. General and Professional Education, 1, 8–14. https://bib.gwsh.edu.pl/ici/recorddetail?id=oai:bibliotekanauki.pl:443149

4. O‘zbekiston Respublikasi. (2020, 23-sentabr). “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun (O‘RQ-637, 17-modda). https://lex.uz/uz/docs/-5013007

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2026, 29-sentabr). Oliy ta’limda dual ta’lim shaklida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida (PF-209-son Farmon). https://lex.uz/uz/docs/-8516565

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2025, 16-yanvar). Oliy ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida (14-son qaror). https://lex.uz/uz/docs/-7332601

7. Parmankulova, P. Zh., Zholdasbekova, S. A., Nurzhanbayeva, Zh. O., Saipov, A. B., Zhiyentaev, B. Zh., & Kuanyshbayeva, Zh. (2022). Dual education conditions for pedagogical bases of specialists inclusive training. Cypriot Journal of Educational Sciences, 17(3), 765–771. https://doi.org/10.18844/cjes.v17i3.6937

8. UNESCO. (2020). Global education monitoring report 2020: Inclusion and education—All means all. https://doi.org/10.54676/JJNK6989

9. Zeichner, K. (2010). Rethinking the connections between campus courses and field experiences in college- and university-based teacher education. Journal of Teacher Education, 61(1–2), 89–99. https://doi.org/10.1177/0022487109347671

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA IJTIMOIY-EMOTSIONAL O‘QITISHNI PEDAGOGIK JARAYONGA INTEGRATSIYALASH

Eshmuratova Ma’rifat Quchqarovna
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti , Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi
3- bosqich 102BTs -guruh talabasi

Annotatsiya: *Maqolada boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishda insonparvar, ijtimoiy yo‘naltirilgan va o‘quvchi ehtiyojlarini hisobga oluvchi pedagogik yondashuvning imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda zamonaviy pedagogik qarashlar, xalqaro ta’lim tadqiqotlari va ilmiy-metodik manbalar asosida mavzuning nazariy jihatlari yoritiladi. Shuningdek, dars jarayonida qo‘llash mumkin bo‘lgan amaliy usullar, pedagogik shartlar va kutiladigan ta’limiy natijalar tizimlashtiriladi. Maqola xulosalari boshlang‘ich ta’limda sifat, tenglik va o‘quvchi faolligini uyg‘unlashtirishga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy-emotsional ta’lim, empatiya, o‘zini boshqarish, hamkorlik, farovonlik, boshlang‘ich ta’lim*

Abstract: *The article analyzes pedagogical opportunities for improving the quality of primary education through human-centered and socially oriented approaches that consider learners’ individual needs. The study draws on contemporary educational theories, international education research and reliable methodological sources. Practical methods, pedagogical conditions and expected educational outcomes applicable to primary classrooms are systematized. The conclusions emphasize the importance of integrating educational quality, equity, learner participation and supportive classroom environments.*

Keywords*: social-emotional learning, empathy, self-management, cooperation, well-being, primary education*

Аннотация: *В статье рассматриваются педагогические возможности повышения качества начального образования на основе гуманистических и социально ориентированных подходов, учитывающих индивидуальные потребности учащихся. Теоретические положения раскрываются на основе современных педагогических концепций, международных исследований образования и научно-методических источников. Систематизируются практические методы,*

педагогические условия и ожидаемые результаты их применения в начальной школе. Сделан вывод о необходимости сочетания качества образования, равенства, активности учащихся и благоприятной образовательной среды.

***Ключевые слова**: социально-эмоциональное обучение, эмпатия, саморегуляция, сотрудничество, благополучие, начальное образование*

KIRISH

Zamonaviy boshlang‘ich ta’lim o‘quvchining akademik bilimlari bilan bir qatorda his-tuyg‘ularini anglash, boshqarish, boshqalarni tushunish va ijtimoiy munosabatlarni yo‘lga qo‘yish ko‘nikmalarini ham rivojlantirishi kerak. UNESCO ijtimoiy-emotsional ta’limni ta’lim tizimini o‘zgartirish, tinchlik, inklyuziya va barqaror rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘laydi [1].

Ijtimoiy-emotsional ta’lim o‘z-o‘zidan yuzaga keladigan jarayon emas; uni o‘quv faoliyatiga maqsadli integratsiyalash mumkin. Masalan, adabiy o‘qish darsida qahramonning hissiy holatini tahlil qilish empatiyani, guruhli topshiriq hamkorlikni, refleksiv savollar o‘zini anglashni, murakkab vazifani bosqichlarga ajratish esa o‘zini boshqarishni rivojlantirishi mumkin.

OECDning 2023-yilgi ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalar tadqiqotlari ushbu ko‘nikmalar qatoriga ijodkorlik, empatiya, mas’uliyat, hamkorlik va qat’iyat kabi sifatlarni kiritadi hamda ularning maktab, oila va jamiyatdagi muhit bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi [2; 3]. Shu sababli ijtimoiy-emotsional ta’lim faqat psixologik mashg‘ulotlar bilan cheklanmasdan, fanlararo pedagogik jarayonning bir qismiga aylanishi maqsadga muvofiq.

O‘qituvchi sinfdagi hissiy muhitni boshqarishda namuna vazifasini bajaradi. Tinch va hurmatli muloqot, faol tinglash, o‘quvchi xatosiga konstruktiv munosabat va his-tuyg‘ularni nomlashga yordam berish pedagogik muhitni mustahkamlaydi. OECD maktablarni ijtimoiy-emotsional o‘rganish uchun markaz sifatida ko‘rish, o‘qituvchilarni tegishli tayyorgarlik bilan ta’minlash va maktabdagi ijobiy munosabatlarni kuchaytirish zarurligini qayd etadi [4].

XULOSA

Ijtimoiy-emotsional ta’limni boshlang‘ich ta’limga integratsiyalash o‘quvchining akademik, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Buning uchun hissiy holatlarni anglash, empatiya, hamkorlik, o‘zini boshqarish va refleksiya elementlari fanlar mazmuni hamda kundalik sinf faoliyatiga tabiiy ravishda kiritilishi lozim. Mazkur yondashuv insonparvar pedagogik muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.siy tahlil, pedagogik kuzati

Maqolada nazariy tahlil, qiyoshlarni konseptual talqin qilish, ilmiy-metodik manbalarni tizimlashtirish va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Maqolada mustaqil tajriba-sinov natijalari yoki statistik ko‘rsatkichlar keltirilmagan; xulosalar mavjud ilmiy adabiyotlar va pedagogik nazariyalar tahliliga asoslangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Dewey J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938.

2. OECD. How to Advance the Teaching and Assessment of Social and Emotional Skills. OECD Education Spotlights, No. 15. – Paris: OECD Publishing, 2024. DOI: 10.1787/21e9ed91-en.

3. OECD. Nurturing Social and Emotional Learning Across the Globe: Findings from the OECD Survey on Social and Emotional Skills 2023. – Paris: OECD Publishing, 2024. DOI: 10.1787/32b647d0-en.

4. OECD. Social and Emotional Skills for Better Lives: Findings from the OECD Survey on Social and Emotional Skills 2023. – Paris: OECD Publishing, 2024. DOI: 10.1787/35ca7b7c-en.

5. UNESCO. Mainstreaming Social and Emotional Learning in Education Systems: Policy Guide. – Paris: UNESCO, 2024.

6. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.

O‘QUVCHILARNING KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA INTEGRATSIYA ROLINI OSHIRISH

Hayitaliev Saydullo Abdunazarovich
Sariosiyo tumani 51 maktab boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o‘quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirish jarayonida integratsiyaning tutgan o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Integratsiyalashgan yondashuv orqali fanlararo bog‘lanishlar ta’minlanib, o‘quvchilarda bilimlarni yaxlit holda idrok etish, amaliy vaziyatlarda qo‘llash, ijodkorlik va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari ochiladi. Shuningdek, maqolada integratsiyaga asoslangan ta’limning metodik asoslari, samaradorlik omillari hamda o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga qo‘shadigan hissasi yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *integratsiya, kompetensiya, ta’lim sifati, fanlararo bog‘lanish, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, samaradorlik, metodika, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim.*

Abstract: *This article analyzes the role and significance of integration in the process of developing students’ competencies. Through an integrated approach, interdisciplinary connections are ensured, enabling students to perceive knowledge holistically, apply it in practical situations, and develop creativity as well as critical thinking skills. The article also highlights the methodological foundations of integrated education, its effectiveness factors, and its contribution to the development of students’ competencies.*

Keywords: *integration, competence, quality of education, interdisciplinary connection, creativity, critical thinking, effectiveness, methodology, learner-centered education.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается роль и значение интеграции в процессе формирования компетенций учащихся. Интегрированный подход обеспечивает межпредметные связи, позволяет учащимся целостно воспринимать знания, применять их в практических ситуациях, развивать креативность и критическое мышление. В статье также освещаются методические основы*

интегрированного обучения, факторы его эффективности и вклад в развитие компетенций учащихся.

Ключевые слова: *интеграция, компетенция, качество образования, межпредметные связи, креативность, критическое мышление, эффективность, методика, личностно-ориентированное обучение.*

KIRISH

Hozirgi globallashuv jarayonida ta’lim tizimidan kutilayotgan asosiy natija — bilimlarni yod olish emas, balki ularni hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish, muammoni tahlil qilish va mustaqil yechim topishga qodir bo‘lgan shaxsni tarbiyalashdir. Shu bois ta’lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv asosiy o‘ringa chiqmoqda. Kompetensiyalar — o‘quvchilarning nafaqat bilim va ko‘nikmalari, balki ularni amaliy faoliyatda samarali qo‘llash, ijodkorlik va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini ham o‘z ichiga oladi. Mazkur jarayonda integratsiyaning o‘rni beqiyosdir. Chunki integratsiyalashgan ta’lim orqali fanlararo bog‘liqlik ta’minlanib, o‘quvchilar turli sohalardagi bilimlarni bir butun tizim sifatida qabul qiladilar. Bu esa ularning mantiqiy fikrlashini, dunyoqarashini kengaytiradi va hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, integratsiyalashgan yondashuv dars jarayonini samarali va qiziqarli tashkil etish imkonini yaratadi. O‘quvchilar o‘zaro hamkorlikda ishlashni, ijodkorlik va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishni o‘rganadilar. Natijada ta’lim jarayoni faqat nazariy bilim berish bilan cheklanib qolmay, balki o‘quvchilarning amaliy faoliyatini tashkil qilish va ularni zamonaviy jamiyat talablariga javob beradigan shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

O‘quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishda integratsiya ta’lim jarayonining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta’lim tizimida integratsiya nafaqat bilimlarni birlashtirish, balki fanlararo bog‘liqlikni kuchaytirish orqali o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga, hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishga o‘rgatadi. Shuningdek, integratsion yondashuv ta’lim mazmunini izchil va tizimli ravishda o‘zlashtirish imkonini beradi. Birinchidan, integratsiya o‘quvchilarda fanlararo kompetensiyalarni shakllantirishda alohida rol o‘ynaydi. Masalan, matematika va informatika fanlarining integratsiyasi o‘quvchilarda analitik tafakkurni, algoritmik fikrlashni rivojlantirsa, biologiya va kimyo fanlarining uyg‘unligi tabiiy jarayonlarni yaxlit tasavvur qilish imkonini beradi. Bu esa o‘quvchilarda nafaqat nazariy bilim, balki amaliy faoliyatni ham yo‘lga qo‘yadi. Ikkinchidan, integratsiya o‘quvchilarning ijodiy

faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘quv jarayonida turli fanlardan olingan bilimlarni uyg‘unlashtirish, yangi g‘oyalarni ilgari surish, mustaqil loyiha va izlanishlarni tashkil etish o‘quvchilarni ijodkorlikka, tashabbuskorlikka undaydi. Bu jarayonda o‘quvchilar bilimni passiv qabul qiluvchi emas, balki faol yaratuvchiga aylanadi. Uchinchidan, integratsiya asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Chunki o‘quvchilar o‘zlashtirgan bilim va ko‘nikmalarini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llashga o‘rganadilar. Masalan, geografiya va iqtisod fanlarining integratsiyasi o‘quvchilarda iqtisodiy jarayonlarni tushunish, bozor qonuniyatlarini anglash va ularni kundalik hayotda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantiradi. To‘rtinchidan, integratsiya o‘quvchilarda ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalarni ham shakllantiradi. Guruhlarda ishlash, hamkorlikda vazifa bajarish, turli g‘oyalarni muhokama qilish orqali o‘quvchilar ijtimoiy faol bo‘lishni, o‘z fikrini aniq ifodalashni va boshqalarning fikrini hurmat qilishni o‘rganadilar. Shuningdek, integratsiya o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi, vaqt va resurslardan unumli foydalanishga yordam beradi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim sifatining oshishiga, o‘quvchilarning motivatsiyasi va qiziqishining ortishiga olib keladi. Integratsion yondashuv o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalarni bir butun tizim sifatida shakllantirishga, ularni shaxs sifatida har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishda integratsiyaning o‘rni beqiyosdir. Integratsion yondashuv o‘quvchilarning bilimlarini faqat alohida fanlar kesimida emas, balki ularni yagona tizimda ko‘rishga imkon yaratadi. Bu esa o‘z navbatida mustaqil fikrlashni, ijodiy izlanishni, hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishni rivojlantiradi. Ta’lim jarayonida fanlararo integratsiya qo‘llanilishi o‘quvchilarda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lash, turli bilim sohalaridan foydalanib yangi g‘oya va loyihalar yaratish imkoniyatini beradi. Natijada o‘quvchilar nafaqat kasbiy, balki ijtimoiy, kommunikativ va hayotiy kompetensiyalarni ham shakllantiradilar. Shuningdek, integratsion ta’lim o‘quvchilarning shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlarini inobatga olish, ularni ijodkorlikka undash, ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Integratsiya orqali shakllangan kompetensiyalar yoshlarning har tomonlama rivojlangan, mustaqil qaror qabul qila oladigan, bilim va ko‘nikmalarini hayotda qo‘llashga qodir bo‘lishiga asos yaratadi. Demak, ta’lim tizimida integratsiya jarayonlarini yanada kengaytirish va

samarali yo‘lga qo‘yish o‘quvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyatini ta’minlaydigan eng muhim omillardan biridir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Xodjayev, A. (2020). Pedagogik innovatsiyalar va integratsion ta’lim. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.

2. Yo‘ldoshev, J. (2019). Boshlang‘ich ta’limda kompetensiyaviy yondashuv asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya.

3. Hasanboeva, O. (2021). Integratsiyalashgan ta’limning metodik asoslari. – Samarqand: SamDU nashriyoti.

4.Meliyeva, D. O. (2025). BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING

MUSTAQIL ISHLASH KO‘NIKMALARINI INNOVATSION YONDASHUV

ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMI. Inter education & global study, (2), 320-328.

5. Мелиева, Д. (2024). Boshlang ‘ich sinf o ‘quvchilarining mustaqil ishlash

qobiliyatini rivojlantirishning davlat miqyosidagi ahamiyati. Журнал универсальных научных исследований, 2(5), 1106-1108.

6. Xoliqova, M. (2022). Kompetensiyalarni shakllantirishda fanlararo yondashuv. – Toshkent: TDPU ilmiy jurnali, №2.

7. Vygotsky, L.S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press.

8. Shodmonov, E., va boshq. (2020). Integratsiya asosida ta’lim samaradorligini oshirish masalalari. – Toshkent: Ilm ziyo.

9. Savelyeva, M. (2018). Компетентностный подход в современном образовании. – Москва: Академический проект.

10. Shaxmatova, N. (2021). Ta’limda innovatsion metodlar va integratsiyaning o‘rni. – Buxoro: BuxDU nashriyoti.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘QUVCHILAR VAQTINI BOSHQARISH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Haynazarrov Hayitqul Meyliqulovich
denov tumani 62 maktab boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida vaqtni boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik jihatlari tahlil qilinadi. Rejalashtirish, vazifalarni ketma-ketlikda bajarish, vaqtni baholash va yakuniy natijani tahlil qilishning boshlang‘ich ko‘nikmalarini shakllantirish masalalari yoritiladi. Oila va maktabning hamkorligi mazkur ko‘nikmalarni rivojlantirishning muhim sharti sifatida ko‘rsatiladi.*

Kalit so‘zlar: *vaqtni boshqarish, rejalashtirish, mas’uliyat, kun tartibi, o‘zini boshqarish, boshlang‘ich ta’lim*

Abstract. *The article analyzes socio-pedagogical aspects of developing time-management skills among primary school pupils. It discusses basic skills of planning, sequencing tasks, estimating time and evaluating completed work. Cooperation between school and family is presented as an important condition for developing these skills.*

Keywords: *time management, planning, responsibility, routine, self-regulation, primary education*

Аннотация. *В статье анализируются социально-педагогические аспекты формирования навыков управления временем у младших школьников. Рассматриваются начальные навыки планирования, последовательного выполнения заданий, оценки времени и анализа результата. Взаимодействие школы и семьи представлено как важное условие развития данных навыков.*

Ключевые слова: *управление временем, планирование, ответственность, режим, саморегуляция, начальное образование*

KIRISH

Zamonaviy boshlang‘ich ta’limda o‘quvchi shaxsini qo‘llab-quvvatlash, uning ijtimoiy va pedagogik imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish ta’lim sifatining muhim shartlaridan biridir. time management masalasi aynan shu vazifa bilan bog‘liq bo‘lib, o‘quvchining darsdagi faol ishtiroki, mustaqilligi va

tengdoshlari bilan munosabatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Insonparvar yondashuvda o‘qituvchi o‘quvchini faqat bilimni o‘zlashtiruvchi subyekt sifatida emas, balki o‘z tajribasi, ehtiyoji va fikriga ega shaxs sifatida ko‘radi. Shu sababli mazkur yo‘nalishdagi pedagogik vositalarni tanlashda o‘quvchining yoshi, individual xususiyatlari va real ta’lim ehtiyojlarini hisobga olish zarur.

ASOSIY QISM

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi uchun vaqt tushunchasi dastlab mavhum bo‘lishi mumkin. U dars davomiyligi, tanaffus, uy vazifasi va kun tartibi orqali vaqtni amaliy jihatdan anglay boshlaydi. Shu sababli vaqtni boshqarish ko‘nikmasini shakllantirish alohida murakkab kurs emas, balki kundalik ta’lim faoliyatiga singdirilgan pedagogik jarayon sifatida tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Vaqtni boshqarishning dastlabki bosqichida o‘quvchiga “avval–keyin”, “boshlash–tugatish”, “tezroq–sekinroq” kabi munosabatlarni anglash va vazifani ketma-ket rejalashtirish o‘rgatiladi. Keyinchalik kunlik yoki haftalik sodda reja tuzish, bajarilgan ishni belgilash va vaqt yetmagan vazifalarni tahlil qilish kabi faoliyatlar kiritilishi mumkin.

Zimmerman o‘zini boshqarib o‘rganish jarayonida maqsad qo‘yish, faoliyatni nazorat qilish va natijani tahlil qilishning ahamiyatini ko‘rsatadi. Boshlang‘ich ta’limda bu jarayon sodda vositalar — reja jadvali, belgilash kartochkasi yoki qisqa refleksiya savollari orqali amalga oshirilishi mumkin.

Oila va maktab hamkorligi ham muhim. Maktabda berilgan rejalashtirish odatlari uyda butunlay boshqa tartib bilan qarama-qarshi kelmasligi lozim. Ota-onalarga bolaning barcha ishini uning o‘rniga bajarish emas, balki vaqtni rejalashtirishga yo‘naltiruvchi savollar berish tavsiya etilishi mumkin.

Vaqtni boshqarish ko‘nikmasini baholashda faqat vazifani belgilangan vaqtda tugatish mezoni bilan cheklanmaslik kerak. O‘quvchining vazifani tushunishi, ustuvorlikni belgilashi, vaqt taqsimotini qayta ko‘rib chiqishi va qiyinchilik yuzaga kelganda yordam so‘rashi ham muhim ko‘rsatkichlardir.

XULOSA

Vaqtni boshqarish ko‘nikmalarini boshlang‘ich yoshdan shakllantirish o‘quvchining mas’uliyati, o‘zini boshqarishi va mustaqil ta’lim olishiga ijobiy zamin yaratadi. Ushbu ko‘nikmalarni kundalik dars, uy vazifasi va oilaviy faoliyat bilan bog‘lash maqsadga muvofiq. Insonparvar yondashuv vaqtni nazorat qilishdan ko‘ra, o‘quvchini rejalashtirish va o‘z faoliyatini boshqarishga o‘rgatishni ustuvor deb biladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Zimmerman B.J. Attaining Self-Regulation: A Social Cognitive Perspective. – In: Handbook of Self-Regulation. San Diego: Academic Press, 2000.

2. Pintrich P.R. A Motivational Science Perspective on the Role of Student Motivation in Learning and Teaching Contexts. – Journal of Educational Psychology, 2003.

3. Mavlonova R., Normurodova B., Rahmonqulova N. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – Toshkent, 2010.

4. OECD. Improving Financial Literacy: Analysis of Issues and Policies. – Paris: OECD Publishing, 2005.

PRACTICAL APPLICATION OF AN INDIVIDUALIZED-APPROACH METHODOLOGY AND THE PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR ITS IMPLEMENTATION

Jakbarova Surayyo Tangirberganovna
Independent Researcher, Termez State Pedagogical Institute
E-mail: surayyojakbarova356@gmail.com
Tel.: +998 94 400 51 88

Abstract. *This thesis examines the theoretical and methodological foundations of an individualized-approach methodology in the educational process, its possibilities for practical application, and the pedagogical conditions required for its effectiveness. It highlights the importance of organizing teaching and upbringing in ways that take students' individual psychological characteristics, interests, needs, and personal capabilities into account. It also describes pedagogical mechanisms that support the development of students' self-awareness, independent decision-making, self-regulation, and self-education competencies through an individualized approach. The study substantiates the organizational, psychological-pedagogical, and methodological conditions for implementing this approach in educational practice.*

Keywords: *individualized approach, pedagogical methodology, education and upbringing, pedagogical conditions, self-education, personal development, individual learning trajectory, reflection, pedagogical assessment, differentiated instruction.*

INTRODUCTION

One of the priority tasks of contemporary education is to support the comprehensive development of each student, enable them to realize their individual potential, and foster independent thinking and self-regulation skills. Applying identical requirements and teaching methods to all students does not always produce the expected results, because students differ in their intellectual abilities, psychological characteristics, interests, needs, and social experiences.

The Law of the Republic of Uzbekistan "On Education" No. O'RQ-637, dated 23 September 2020, establishes the fundamental principles of education, including equal opportunities to receive an education and the humanistic nature of education [1].

In addition, the Concept for the Development of the Public Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030, approved by Presidential Decree No. PF-5712 of 29 April 2019, sets out tasks aimed at improving educational quality, refining teaching methods, and developing students' individual abilities [2].

These priorities reinforce the need to develop and implement methodologies based on an individualized approach within the educational process.

The purpose of this thesis is to identify the pedagogical potential of applying an individualized-approach methodology in education and upbringing and to provide a theoretical rationale for the pedagogical conditions that support its effectiveness.

The methodological framework draws on person-centered education, the individualized approach, activity-based learning, and reflective pedagogy. According to L. S. Vygotsky's theory of the zone of proximal development, an important aspect of a learner's development is the difference between what the learner can do independently and what they can accomplish with the support of a teacher or another more knowledgeable person [3].

John Dewey's views on experiential education also provide an important theoretical basis for developing students' personal experience, active participation, and independent thinking [4].

This thesis is theoretical and analytical in nature. The following research methods were used:

theoretical analysis of scholarly and pedagogical literature;

comparison and synthesis of pedagogical approaches;

systematization of the components of an individualized approach;

theoretical modeling of pedagogical conditions.

Particular attention was given to the potential for applying an individualized-approach methodology in general secondary education, especially to the development of self-education competencies among students in Grades 5–6.

THE PEDAGOGICAL ESSENCE OF AN INDIVIDUALIZED-APPROACH METHODOLOGY

An individualized approach is a way of organizing pedagogical activity that takes into account each student's personal characteristics, level of knowledge, interests, needs, abilities, and opportunities for development.

Its main feature is that students are recognized not merely as recipients of knowledge but as active individuals capable of directing their own development.

The methodology is based on the following principles:

Principle of individualization. Selecting pedagogical tasks that correspond to each student's personal capabilities and needs.

Principle of differentiation. Adapting learning activities to students' levels of preparedness, interests, and rates of learning.

Principle of activity and independence. Encouraging students to think independently, make decisions, and regulate their own activities.

Principle of reflection. Creating opportunities for students to analyze their behavior, achievements, and areas for improvement.

Principle of pedagogical cooperation. Building relationships between teachers and students based on mutual respect, trust, and collaboration.

In her scholarly and methodological work on differentiated instruction, Carol Ann Tomlinson emphasizes the importance of adapting educational content, processes, and outcomes to students' readiness levels, interests, and learning needs [5].

STAGES FOR IMPLEMENTING AN INDIVIDUALIZED-APPROACH METHODOLOGY

It is advisable to introduce an individualized-approach methodology into the educational process through the following stages:

Stage 1 — Diagnostic stage. Students' individual psychological characteristics, interests, social engagement, degree of independence, and attitudes toward self-education are identified. Pedagogical observation, interviews, questionnaires, and self-assessment may be used for this purpose.

Stage 2 — Planning and design stage. Based on the diagnostic findings, individual development goals are established. Tasks, learning activities, and developmental exercises are selected to match each student's capabilities.

Stage 3 — Practical activity stage. Individual consultations, analysis of problem situations, role-playing, independent assignments, reflective exercises, and small projects are organized.

For example, in "Tarbiya" (Character Education) lessons in Grades 5–6, activities such as "My Strengths," "My Personal Goal for the Week," and "How Do I Make Decisions?" may be used.

Stage 4 — Reflective assessment stage. Changes in students' activities and personal development are monitored, the results achieved are analyzed, and subsequent development goals are set.

Organizing these stages consistently creates conditions that help students develop a conscious attitude toward their own activities and strengthen their self-education skills.

PEDAGOGICAL CONDITIONS THAT SUPPORT THE EFFECTIVENESS OF AN INDIVIDUALIZED APPROACH

The effectiveness of a methodology based on an individualized approach depends on several pedagogical conditions.

First, creating a supportive psychological and pedagogical environment. Educational institutions should treat each student with respect, listen to their views, and support their independent initiatives.

Second, ensuring systematic pedagogical assessment. Students' individual characteristics should be examined not through a one-time observation alone, but through regular pedagogical analysis.

Third, developing teachers' methodological competence in individualized instruction. Teachers need to be able to design differentiated tasks, provide individual guidance, organize reflective activities, and assess learning outcomes.

Fourth, encouraging students' independent activity. Setting personal goals, keeping journals, completing individual projects, and engaging in self-assessment can help students develop a sense of responsibility.

Fifth, strengthening cooperation between families and educational institutions. Collaboration between parents and teachers is important in supporting each student's individual development.

Sixth, monitoring individual development outcomes. Regularly tracking changes in students' self-regulation, independent decision-making, responsibility, and reflection can inform further improvement of the methodology.

Theoretical analysis and synthesis of pedagogical approaches indicate that effective implementation of an individualized-approach methodology requires diagnostic assessment, individual planning, practical activity, and reflective evaluation to function as an interconnected process.

The analysis led to the following scholarly and methodological findings:

1. An individualized approach supports the organization of educational activities in accordance with students' personal needs and capabilities.

2. Reflective exercises and individualized assignments create pedagogical opportunities to develop students' self-awareness, personal goal-setting, and ability to evaluate their own behavior.

3. The effectiveness of an individualized approach depends on more than adapting methods and assignments. Teacher competence, a supportive pedagogical environment, systematic assessment, and cooperation with parents are also important.

4. Applying an individualized-approach methodology in "Tarbiya" lessons makes it possible to organize purposeful pedagogical activity aimed at developing students' self-education competencies.

At the same time, the findings presented in this thesis are based on theoretical analysis. To verify the practical effectiveness of the methodology quantitatively, an experimental study, initial and final diagnostic assessments, and comparative analysis are required.

CONCLUSION

Applying an individualized-approach methodology in education and upbringing is an important pedagogical direction because it takes students' individual potential into account, promotes their independence, and supports the development of self-education competencies.

The theoretical analysis supports the following conclusions:

1. An individualized approach involves adapting the educational process to students' personal needs, interests, and developmental potential.

2. Successful implementation of the methodology depends on the interconnection of diagnostic assessment, planning and design, practical activity, and reflective evaluation.

3. A supportive psychological and pedagogical environment, teachers' methodological preparedness, individualized assignments, and systematic monitoring are among the key conditions for the methodology's effectiveness.

4. Using an individualized approach in "Tarbiya" lessons creates opportunities to develop students' self-awareness, independent decision-making, responsibility, and self-regulation skills.

Thus, systematically implementing an individualized-approach methodology is a promising way to provide pedagogical support for students' personal development.

REFERENCES

1. Law of the Republic of Uzbekistan "On Education." No. O'RQ-637, 23 September 2020. https://lex.uz/docs/5013007

2. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-5712, 29 April 2019, "On Approval of the Concept for the Development of the Public Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030." https://lex.uz/docs/4312785

3. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.

4. Dewey, J. Experience and Education. New York: Macmillan, 1938.

5. Tomlinson, C. A. How to Differentiate Instruction in Academically Diverse Classrooms. 3rd ed. Alexandria, VA: ASCD, 2017.

BOSHLANGICH TA'LIM TIZIMIDA O'QITISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI

Jovliyeva Gullola Nurullayevna
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti , Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
3- bosqich 102BTs -guruh talabasi

Annotatsiya *. Ushbu maqolada maktabgacha va boshlang'ich ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati va qo'llanilishi tahlil qilinadi. O'yinli ta'lim, interfaol metodlar va axborot-kommunikatsiya vositalari orqali ta'lim jarayonining samaradorligi oshiriladi.shuningdek,inovatsiyon yondashuvlar yordamida bolalarda mustaqil fikrlash ,muloqot va ijobiy tafakkur ko'nikmalari shakillantiriladi va ularga yo'l yo'riq ko'rsatiladi.*

Kalit so'zlar*: Maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, pedagogik texnologiyalar, o'yinli ta'lim, interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.*

Аннотация. *В данной статье анализируются значение и применение современных педагогических технологий в системе дошкольного и начального образования. Игровое обучение, интерактивные методы и средства информационно-коммуникационных технологий способствуют повышению эффективности учебного процесса. Кроме того, с помощью инновационных подходов показаны пути формирования у детей навыков самостоятельного мышления, общения и творческого воображения.*

Ключевые слова*. Дошкольное образование, начальное образование, педагогические технологии, игровое обучение, интерактивные методы, информационно-коммуникационные технологии.*

Abstract*.This article analyzes the significance and application of modern pedagogical technologies in preschool and primary education. Game-based learning, interactive methods, and information and communication technologies contribute to increasing the effectiveness of the educational process. Furthermore, the article highlights how innovative approaches help develop children's skills in independent thinking, communication, and creative imagination. The use of multimedia tools, electronic resources, and interactive*

lesson formats is explained as a factor that enhances students' interest in learning

Key words: *Preschool education, primary education, pedagogical technologies, game-based learning, interactive methods, information and communication technologies.*

Hozirgi globallashuv jarayonida dunyo ta'lim tizimida yuz berayotgan o'zgarishlar har bir davlatdan, xususan, O'zbekiston Respublikasidan ham ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishni talab qilmoqda. Ayniqsa, ta'limning ilk bosqichlari -maktabgacha va boshlang'ich ta'limda zamonaviy, innovatsion yondashuvlarni joriy etish orqali bolalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, tanqidiy mulohaza yuritish kabi ko'nikmalarni shakllantirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.Bugungi kunda an'anaviy o'qitish uslublaridan farqli ravishda, pedagogik texnologiyalarga asoslangan interfaol darslar, o'yinli metodlar, axborot-kommunikatsiya vositalari yordamida tashkil etilayotgan ta'lim jarayonlari o'quvchilarning faolligini oshiribgina qolmay, balki ularni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishini ham sezilarli darajada kuchaytirmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixofiziologik xususiyatlari, boshlang'ich sinf o'quvchilarining idrok va tafakkur darajasi - ularning o'qitish metodikasini to'g'ri tanlashni taqozo etadi. Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan oqilona va maqsadga muvofiq foydalanish nafaqat dars samaradorligini, balki bola shaxsining har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi.Mazkur maqolada aynan maktabgacha va boshlang'ich ta'lim tizimida qo'llanilayotgan zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mohiyati, ularning afzallik jihatlari, qo'llanilish shakllari hamda milliy ta'lim kontekstida yuzaga chiqayotgan muammolar va ularni hal qilish yo'llari atroflicha tahlil qilinadi.

Maktabgacha va boshlangich ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalar joriy etish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim – tarbiya tizimini yanada takomillashirish to'g'risida"gi qarorlari va "Ilm – ma'rifat va raqamli iqtisodiyoni rivojlantirish yili" davlat dasturida belgilangan ustuvor vazifalardan biridir .Bu esa ta'lim jaroyonini yangilash,o'quvchilarda mustaqil fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirishni taqozo etadi.Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'limda o'yinli metodlardan foydalanish bolalarning bilishga qiziqishini 30-40 % ga oshiradi (M.Ziyayeva ,2021).O'yin jarayonida bola nafaqat bilim oladi,balki hamkorlik, muloqot ,kuzatish va tahlil qilish ko'nikmalarini ham egallaydi. Shu bois o'yin texnologiyasi bolaning tabiiy rivojlanishiga eng mos metod hisoblanadi.Boshlangich sinflarda interfaol metodlardan foydalanish samarodorligi tajrialarda

isbotlangan.Masalan , “aqliy xujum” va “Klastrer” metodlari qo‘llangan darslarda o‘quvchilarning faol ishtiroki 70-80 % ni tashkil etgani,an'anaviy usullardan esa bu ko‘rsatkich 45-50 %dan oshmagani aniqlangan (O‘zbekiston pedagogika ilmiy tadqiqot instituti, 2020).Axborot –komunikatsiya texnologiyalar vositalarini ta’lim jaroyonida joriy etish bugungi kunda global atalab hisoblanadi UNESKO (2019) ma’lumotlariga ko‘ra elektron resurslardan foydalangan ta’lim muassasalaridan o‘quvchilarning o‘zlashtirishdarajasi o‘rtacha 18-20 %ga yuqori bo‘lgan. O‘zbekiston sharoitida AKTdan foydalanish kengaymoqda : 2023 –yilgi ma’lumotlarga ko‘ra maktablarning 70 % dan interaktiv doskalar va multimedia resurslar bilan jihozlangan. Shu orqali ta’lim samaradorligigi va bolalarning mustaqil bilim olish motivatsiyasi ortib bormoqda.Umuman olganda ,maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olish ularni faol ta’lim jaroyniga jalb etish .shuningdek,ta’lim sifatini oshirish imkonini beradi.

Maktabgacha va boshlangich ta’lim jaroyonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta’lim sifatini oshirishning muhim omilidir.O‘yinli metodlar bolalarning bilishga qiziqishini kuchaytiradi,interfaol metodlar usullar ularni faol fikrlash va ijodkorlikka yo‘naltiradi,axborot –komunikatsiya texnologiyalari esa dars samaradorligini oshirib, ta’lim jaroyonini zamonaviy bosqichga olib chiqadi.Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan oqilona foydalanish nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasini, balki ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini ham ta’minlaydi.Shu bois, ta’lim tizimida bunday metod va vositalar amaliyotga joriy etish dolzarb vazifa sifatida qaralishi lozim. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan oqilona foydalanish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, amaliy ko‘nikmalar va ijodiy yondashuvni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi globallashuv davrida bilimlarni o‘zlashtirish sifati ko‘proq o‘qituvchi tomonidan qo‘llaniladigan metod va yondashuvlarga bog‘liq bo‘lib, pedagogik texnologiyalardan oqilona foydalanish ta’limning zamonaviy talablariga javob beradi. Avvalo, bu jarayon o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan yondashuvni talab qiladi. An’anaviy usullardan farqli ravishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘quvchini passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida jarayonga jalb etadi. Shu boisdan interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar, loyiha asosida o‘qitish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanish ta’limda yuqori samarani ta’minlaydi.O‘qituvchining vazifasi bilim berish bilan cheklanib qolmasdan,

balki o‘quvchilarning mustaqil izlanishi, tahlil qilishi, xulosa chiqarishi va hayotiy vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilishi kerak. O‘quvchilar o‘zaro bahs-munozara, guruhli ishlash, amaliy mashg‘ulotlar orqali bilimni puxta o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalardan oqilona foydalanish o‘qituvchidan ijodkorlik, yangicha fikrlash va innovatsion yondashuvni talab etadi. Dars jarayonida elektron taqdimotlar, multimediali vositalar, onlayn platformalar va masofaviy ta’lim imkoniyatlaridan unumli foydalanish ham ta’lim sifatini oshiruvchi omillardan biridir.

Shuningdek, pedagogik texnologiyalarni qo‘llashda ularni maqsadga muvofiq tanlash muhim. Har bir dars mavzusiga mos keluvchi metod va vositani to‘g‘ri tanlash o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otadi, ularning dars jarayonida faol ishtirok etishiga sharoit yaratadi. Demak, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan oqilona foydalanish – bu shunchaki texnik vositalardan foydalanish emas, balki ularni to‘g‘ri tanlab, ta’lim jarayoniga uyg‘unlashtirish, o‘quvchining shaxsiy qobiliyat va ehtiyojlarini inobatga olish demakdir. Natijada ta’lim jarayonining samaradorligi oshadi, yoshlar har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikrlovchi va raqobatbardosh shaxs sifatida kamol topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azizxo‘jayeva, N. N. (2003). *Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat*. Toshkent: TDPU.

2. Hasanboev, J. (2010). *Pedagogika*. Toshkent: Fan.

3. Jumayev, R. (2015). *Ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar*. Toshkent: O‘qituvchi.

4. Mavlonova, R. A. (2014). *Pedagogik innovatsiyalar*. Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari jamiyati.

5. Meliyeva, D. O. (2025). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil ishlash ko‘nikmalarini innovatsion yondashuv asosida takomillashtirish mexanizmi. *Inter education & global study*, (2), 320-328.

6. Melieva, D. (2024). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirishning davlat miqyosidagi ahamiyati. *Umumjahon ilmiy tadqiqotlar jurnali*, 2(5), 1106-1108.

7. Qodirova, F. (2016). *Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta’limda*. Toshkent: Yangi asr avlodi.

TARBIYACHINING KASBIY-METODIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA “KUZATISH–MAQSAD–TAJRIBA REFLEKSIYA” (KMTR) SIKLI: MAVJUD MODELLAR BILAN QIYOSIY TAHLIL VA SAMARADORLIK MEZONLARI

Solijonova Madinabonu Akramjon qizi
Osiyo texnologiyalari Universiteti, magistratura 1-kurs talabasi
Ta’lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta’lim)

Annotatsiya. *Maqolada maktabgacha ta’lim tarbiyachilarining kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirishga oid refleksiv, tajribaviy o‘rganish va harakat tadqiqoti yondashuvlari qiyoslanadi. Schönning refleksiv amaliyoti, Kolbning tajribaviy o‘rganish sikli, harakat tadqiqoti hamda maktabgacha ta’lim pedagoglari kompetentligiga bag‘ishlangan mahalliy tadqiqotlarning ochiq tavsiflari tahlil qilinadi. Tahlil asosida ‘‘Kuzatish–Maqsad–Tajriba–Refleksiya’’ (KMTR) sikli taklif etilib, uning ehtimoliy farqlovchi jihatlari, amaliy mexanizmi, kuzatiladigan indikatorlari va tajriba-sinov dizayni aniqlashtiriladi. Modelning samaradorligi hozircha empirik isbotlangan natija sifatida emas, tekshirishga mo‘ljallangan metodik gipoteza sifatida taqdim etiladi.*

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim, tarbiyachi-pedagog, kasbiy-metodik kompetentlik, refleksiv amaliyot, tajribaviy o‘rganish, harakat tadqiqoti, kuzatuv indikatorlari, KMTR sikli.*

Abstract. *This article compares reflective practice, experiential learning, action research, and selected studies on preschool teachers’ professional competence. Drawing on Schön, Kolb, action-research literature, local publications, OECD reports, and Uzbekistan’s professional-development framework, it proposes the Observe–Goal–Try–Reflect (OGTR) cycle. The contribution is not the claim that cyclical reflection is new; rather, it is a preschool-oriented implementation protocol linking one documented child-learning need to a measurable pedagogical goal, a method trial, evidence review, and a next-step decision. The article specifies indicators and a pilot design, while treating effectiveness as a hypothesis requiring empirical validation.*

Keywords: *preschool education, teacher competence, reflective practice, experiential learning, action research, observation indicators, OGTR cycle.*

KIRISH

Maktabgacha ta’limdagi kasbiy-metodik kompetentlik faqat metodlarni bilish bilan cheklanmaydi: tarbiyachi metodni bolaning yoshi va individual ehtiyojiga mos

tanlashi, uning ishtirokini kuzatishi hamda kuzatuvdan kelib chiqib faoliyatini o‘zgartirishi zarur. OECDning “Starting Strong VI” hisobotida maktabgacha ta’lim sifati bolalar va kattalar o‘rtasidagi kundalik o‘zaro munosabatlar bilan bog‘lanadi (OECD, 2021). O‘zbekistonda pedagogning kasbiy standarti va uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimi ham kompetentlikni izchil takomillashtirish masalasini kun tartibiga qo‘yadi (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, 2024, 2025).

Maqolaning maqsadi — KMTR siklini mavjud yondashuvlar bilan qiyoslash, uning metodik hissasini aniqlash va samaradorligini tekshirish mezonlarini belgilash.

Tadqiqot metodologiyasi

Ish nazariy-tahliliy va metodik-loyihaviy xarakterga ega. Schön, Kolb va harakat tadqiqoti yondashuvlari, OECD materiallari hamda mahalliy ochiq maqolalar qiyosiy tahlil qilindi. Mezonlar: tahlil birligi, amaliy bosqichlar, dalildan foydalanish va natijani keyingi qarorga aylantirish. Bu tizimli sharh emas; xulosalar ko‘rib chiqilgan manbalar bilan cheklangan.Mavjud tadqiqotlar va modellar bilan qiyoslash

Schön (1983) faoliyat davomida fikrlash va undan keyingi refleksiyani farqlaydi. u kasbiy qarorni tushuntiradi, ammo o‘z-o‘zidan maktabgacha guruh uchun kuzatuv varag‘i, o‘lchanadigan maqsad yoki baholash shkalasini belgilamaydi.

Kolb (1984) tajriba, refleksiv kuzatish, tushuncha hosil qilish va sinovni siklga birlashtiradi. KMTR shu mantiqqa yaqin, ammo tarbiyachining kundalik muammosi, bolaning kuzatiladigan ishtiroki va bitta kshiriladigan maqsadga urg‘u beradi.

Harakat tadqiqoti rejalash, harakat, kuzatish va refleksiyani takroriy jarayonda birlashtiradi (Kemmis et al., 2014). KMTR ham siklli; demak, sikllilikning o‘zi yangilik emas. Amaliy taklif — tarbiyachi va metodist kundalik ishda ishlata oladigan ixcham protokol.

Mahalliy ishlarda ham kompetentlik va refleksiv ko‘nikmalar yoritilgan. Bozozrova (2026) bo‘lajak tarbiyachilar kompetentligini kognitiv, amaliy va refleksiv ko‘nikmalar bilan bog‘laydi; Nazarova va Nishonova (2025) amaliy mashg‘ulotlar hamda tajriba almashishni ko‘rib chiqadi; Ahunbabayeva (2024) refleksiv yondashuvlarni ijtimoiy-pedagogik kompetensiya bilan bog‘laydi. Xudoynazarova (2026) mentoring, kouching, aralash ta’lim va refleksiyani tahlil qiladi. Demak, kompetentlik yoki refleksiyaning o‘zi yangilik emas.

Qiyoslash KMTRning nazariy tayanchi mavjudligini ko‘rsatadi, ammo ko‘rilgan manbalarda barcha elementlar aynan shu nom va shaklda birlashtirilganini tasdiqlashga dalil yetarli emas. Bu “dunyoda birinchi” degani emas: qidiruv chegaralangan. Ilmiy-metodik hissa maktabgacha ta’limga mos, bola faoliyati daliliga va keyingi qarorga tayanuvchi protokol taklifidir.

KMTR siklining mazmuni va farqlovchi jihatlari

1. Kuzatish — umumiy baho o‘rniga aniq vaziyatni qayd etish.

Masalan, “bolalar hamkorlik qilmaydi” degan xulosaning o‘rniga, guruhdagi qurish-o‘yinida kim tashabbus ko‘rsatgani, vazifa qanday taqsimlangani va tarbiyachi yordami qachon kerak bo‘lganini yozish.

2. Maqsad — kuzatuvdan kelib chiqadigan bitta tekshiriladigan pedagogik maqsadni belgilash. Masalan: “keyingi mashg‘ulotlarda ochiq savollar orqali bolalarning o‘zaro kelishib vazifa taqsimlashiga imkon yarataman”. Maqsad bolani nazorat qilishga emas, tarbiyachi yaratadigan sharoitni yaxshilashga qaratiladi.

3. Tajriba — maqsadga mos bitta metod yoki kichik o‘zgarishni sinash. Masalan, ochiq savollar, kichik guruhli topshiriq yoki muammoli vaziyatdan foydalanish. Iloji boricha bir siklda bitta asosiy o‘zgarish sinovdan o‘tkaziladi, shunda natijani talqin qilish osonlashadi.

4. Refleksiya — boshlang‘ich kuzatuvni keyingi dalil bilan solishtirish va qaror qabul qilish: metodni davom ettirish, o‘zgartirish yoki boshqa usulni sinash. Sikl natija “yaxshi bo‘ldi” degan taassurot bilan emas, qayd etilgan dalil va keyingi qadam bilan yakunlanadi.

Modelning ilmiy-amaliy yangiligi va chegarasi

KMTRning taklif etilayotgan farqlari: (a) muammo bola faoliyatiga oid konkret kuzatuvdan boshlanadi; (b) bitta maqsad va bitta asosiy metodik o‘zgarish tanlanadi; (c) natija oldindan belgilangan indikator bilan qayd etiladi; (d) refleksiya davom ettirish, moslashtirish yoki almashtirish qarori bilan tugaydi. Bu konseptual taklif; farq va samaradorlik empirik sinovdan keyin baholanadi.

Nazariy hissa — mavjud yondashuvlarni maktabgacha ta’lim kontekstida talqin qilish; metodik taklif — kuzatuv, maqsad, sinov va qarorni bir protokolda birlashtirish. Empirik yangilik hozircha yo‘q, chunki tajriba-sinov o‘tkazilgani haqida ma’lumot mavjud emas.

Samaradorlik mezonlari va tajriba-sinov rejasi

Model samaradorligini tarbiyachi siklni bajargani yoki hujjat to‘ldirgani bilangina o‘lchab bo‘lmaydi. Taklif etiladigan indikatorlar: 1) kuzatuvning aniq va xolisligi; 2) maqsadning tekshirilishi mumkinligi; 3) metodning bolaning yoshi va ehtiyojiga mosligi; 4) bolalarning tashabbus, ishtirok yoki hamkorligida kuzatiladigan o‘zgarish; 5) tarbiyachining faoliyatni dalilga qarab moslashtirishi; 6) refleksiyada dalil va keyingi qaror o‘rtasidagi bog‘liqlik. Bolalar natijasini baholashda bolaning shaxsiy xususiyatini yorliqlashdan saqlanish, ma’lumotni anonimlashtirish va faqat zarur ma’lumotni qayd etish lozim.

Sinov dizayni: bir nechta tashkilotdan ko‘ngilli tarbiyachilar tanlanadi; boshlang‘ich kuzatuvdan so‘ng qisqa yo‘riqnoma beriladi; 4–6 hafta sikllar bajariladi; yakunda ayni indikatorlar, refleksiv kundalik va metodist bahosi solishtiriladi. Imkon bo‘lsa, taqqoslash guruhi qo‘shiladi. Ishtirokchilar va tahlil usuli oldindan asoslanishi

lozim.0–3 ballik tavsifiy shkala dastlabki monitoring uchun sinov tariqasida qo‘llanishi mumkin: 0 — dalil qayd etilmagan; 1 — indikator kamdan-kam ko‘rinadi; 2 — ko‘p vaziyatlarda kuzatiladi; 3 — izchil va bir nechta dalil bilan tasdiqlangan. Bu shkala validatsiyadan o‘tgan diagnostik test emas. Uni qo‘llashdan oldin ekspertlar mazmuniy mosligini baholashi, ikki kuzatuvchi baholari kelishuvini tekshirishi va indikatorlarning tushunarliligini sinashi kerak. Samaradorlik faqat shundan keyin boshlang‘ich va yakuniy natijalar, shuningdek, cheklovlar bilan birga muhokama qilinadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

KMTRning kuchli tomonlari — kundalik amaliyotga yaqinligi, mustaqil yoki mentor bilan bajarilishi va keyingi qarorni talab qilishi. Xavflari — subyektiv kuzatuv, qisqa muddatli o‘zgarishni barqaror kompetentlik deb qabul qilish va natijani bitta metodga bog‘lash. Oldindan belgilangan indikatorlar, takroriy kuzatuv va mentor muhokamasi bu xavflarni kamaytiradi.

KMTRning qiymati hozircha isbotlangan samarada emas, tekshirilishi mumkin bo‘lgan mexanizm taklifida. Keyingi tadqiqot bajarish qulayligi, kuzatuvchilar kelishuvi, refleksiya sifati va bolalar ishtirokidagi o‘zgarishlarni tekshirishi lozim.

XULOSA

Tahlil Schön, Kolb va harakat tadqiqoti KMTRning nazariy tayanchi ekanini ko‘rsatdi; to‘rt bosqichli siklning o‘zi mutlaq yangilik emas. Metodik hissa — bola faoliyati dalili, bitta maqsad, metodik sinov, indikatorlar va keyingi qarorni ixcham protokolda birlashtirish. Samaradorlik oldindan rejalashtirilgan sinov bilangina baholanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Ahunbabayeva, Sh. (2024). Innovatsion ta’lim faoliyati jarayonida maktabgacha ta’lim tashkilotlari

tarbiyachilarining ijtimoiy-pedagogik kompetentsiyasini shakllantirish. Ta’lim va rivojlanish tahlili

onlayn ilmiy jurnali, 4(5), 71–73. https://www.scienceboxuz.uz/index.php/ajed/article/view/10577

Bozozrova, A. (2026). Zamonaviy yondashuvlar asosida bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini

rivojlantirish. Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali, 4(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.18797427

Kemmis, S., McTaggart, R., & Nixon, R. (2014). The action research planner: Doing critical participatory

action research. Springer. https://doi.org/10.1007/978-981-4560-67-2

Kolb, D. A. (1984). Experiential learning: Experience as the source of learning and development. Prentice-

Hall.

Nazarova, A. M., & Nishonova, M. Q. (2025). Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisining kasbiy

kompetentini shakllantirish usullari. Journal of Innovation in Education and Social Research, 3(5),

100–104.

https://journals.proindex.uz/index.php/JIESR/article/download/2488/2681

OECD. (2021). Starting strong VI: Supporting meaningful interactions in early childhood education and

care. OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/f47a06ae-en

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2024, 20-dekabr). Maktabgacha va maktab ta’limi

xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida (867-son qaror).

https://lex.uz/uz/acts/-7271575

BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA KOMMUNIKATIV KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISH G‘OYALARINING TARIXIY-PEDAGOGIK EVOLYUTSIYASI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Usmonova E’zozxon Faxriddin qizi
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti
e.usmonova11@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada bo‘lajak pedagoglarda kommunikativ kreativlikni rivojlantirishga oid ilmiy qarashlar tarixiy-qiyosiy usulda o‘rganiladi. Kreativlikning individual qobiliyat sifatidagi talqinidan ijtimoiy muhit, hamkorlikdagi tafakkur va o‘quv jarayonidagi ijodiy faoliyatga asoslangan yondashuvlargacha bo‘lgan nazariy siljishlar tahlil qilinadi. Birlamchi ilmiy manbalarni qiyoslash asosida kommunikativ kreativlikni pedagogik muloqotdagi yangilik, vaziyatga moslik va hamkorlik orqali mazmun yaratish birligi sifatida o‘rganish taklif etiladi. Tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega.*

Kalit so‘zlar: *kommunikativ kreativlik, bo‘lajak pedagog, pedagogik muloqot, kreativ tafakkur, tarixiy-pedagogik tahlil, hamkorlik.*

Abstract. *The article examines the historical evolution of scholarly perspectives relevant to communicative creativity in prospective teachers. It compares approaches emphasizing individual creative abilities, social conditions of creativity, collaborative thinking through language, and creativity in learning. Based on primary scholarly sources, the article proposes an analytical interpretation of communicative creativity as the integration of novelty, contextual appropriateness, and collaborative meaning-making in pedagogical interaction. The study is theoretical and comparative; it does not report original experimental data.*

Keywords: *communicative creativity, prospective teachers, pedagogical communication, creative thinking, historical analysis, collaboration.*

KIRISH

Pedagogik muloqot ma’lumot almashish bilangina cheklanmay, o‘qituvchi va o‘quvchining birgalikda fikrlashini ham ta’minlaydi. Darsda bir o‘quvchi ta’rifni tushunsa, boshqasi misol so‘rashi, uchinchisi esa o‘z yechimini taklif etishi mumkin. O‘qituvchining bunday vaziyatda yangicha va

maqsadga mos javob topishi kommunikativ kreativlikning namoyonidir. Maqolada mazkur tushuncha kreativ tafakkur va dialogik ta'limga oid nazariyalar tutashuvida tahlil qilinadi. Tarixiy evolyutsiya deganda qat'iy bosqichlar almashinuvi emas, ilmiy e'tiborning kengayishi tushuniladi.

Tadqiqot maqsadi — XX asr o‘rtalaridan XXI asr boshigacha kreativlik, ijtimoiy muhit va dialog haqidagi ilmiy qarashlarning rivojlanish mantiqini ochib berish hamda ularning bo‘lajak pedagoglarning kommunikativ tayyorgarligiga taalluqli jihatlarini aniqlash. Asosiy savol shunday qo‘yiladi: ijodkorlikni shaxsning fikrlash qobiliyati sifatida o‘rganishdan uni muloqot va hamkorlik sharoitida tushunishga o‘tish pedagogik faoliyatga qanday yangi izoh beradi?

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot tarixiy-qiyosiy va nazariy-sintez usullariga asoslanadi. Kreativlik psixologiyasi, ta'limdagi ijodiy faollik va dialogik pedagogikaga doir birlamchi ilmiy ishlar mazmuni qiyoslandi. Manbalar uch mezon asosida tanlandi: nazariyaning asosiy ilmiy muammosi, oldingi qarashlarga qo‘shgan hissasi hamda bo‘lajak pedagoglarning kommunikativ faoliyatiga tatbiq etish imkoniyati. Shu asosda ijodiy fikrlash, pedagogik dialog va kommunikativ vaziyatga mos yechim ishlab chiqish o‘rtasidagi nazariy bog‘lanishlar aniqlashtirildi.

NATIJALAR: TARIXIY-PEDAGOGIK TAHLIL

Birinchi yo‘nalish — kreativlikni individual tafakkur imkoniyati sifatida o‘rganish. Guilford (1950) kreativlikni psixologiyaning mustaqil tadqiqot muammosi sifatida ilgari surdi. Bu qarash pedagogik muloqotda tayyor iborani takrorlash bilan muayyan o‘quvchiga mos yangi izoh topish o‘rtasidagi farqni tushuntirishga yordam beradi. Masalan, talaba mavzuni bilishi mumkin, biroq o‘quvchi tushunmaganda boshqa misol topish yoki savolni qayta tuzish uchun moslashuvchan fikrlashi zarur. Bu pedagogik talqin Guilfordning bevosita kommunikativ kreativlik ta'rifi emas.

Torrancening 1966-yildagi test qo‘llanmasi kreativ fikrlashning ayrim jihatlarini tizimli topshiriqlar orqali o‘rganishga xizmat qildi (Torrance, 1966). Javoblarning xilma-xilligi va noodatiyligini kuzatish foydali bo‘lsa-da, pedagogik muloqotdagi kreativlikni faqat shu ko‘rsatkichlar bilan baholab bo‘lmaydi. Chunki yangicha javob o‘quvchiga tushunarli va pedagogik maqsadga mos bo‘lishi ham kerak.

1980-yillarga kelib kreativlikni shaxsning individual qobiliyati bilangina izohlash yetarli emasligi kengroq muhokama qilina boshladi. Amabile (1983) ijodiy natijani shakllantirishda sohaga oid bilim va ko‘nikmalar, kreativ

faoliyatga xizmat qiluvchi jarayonlar hamda vazifaga nisbatan motivatsiya ahamiyatini tushuntiradi; ijtimoiy muhit esa bu omillarning namoyon bo‘lishiga ta’sir ko‘rsatadi (Amabile, 1983). Buni pedagogik muloqotga tatbiq etsak, talaba yangi savol berish usulini bilishi mumkin, ammo guruhdagi salbiy munosabatdan cho‘chisa, uni qo‘llamasligi ehtimol. Demak, kommunikativ kreativlikni rivojlantirish faqat usullarni o‘rgatish emas, talabaga turli muloqot yechimlarini xavfsiz sinash imkonini berish bilan ham bog‘liq. Bu pedagogik talqin Amabile tadqiqotining aynan bo‘lajak pedagoglarda tekshirilgan natijasi emas.

Uchinchi yo‘nalish — kreativlikni ijtimoiy muloqot va birgalikdagi tafakkur bilan bog‘lash. Mercer (2000) suhbatni fikr almashish vositasigina emas, balki umumiy tushunchani shakllantirish jarayoni sifatida tahlil qiladi. Mercer va Littleton (2007) esa sinfdagi dialog, hamkorlik va o‘quvchining intellektual rivojlanishi o‘rtasidagi munosabatni batafsil yoritadi. Masalan, talaba-o‘qituvchi o‘quvchining noodatiy javobini darhol rad etmasdan, «Nega shunday o‘yladingiz?» deb so‘rasa, suhbatda dalillarni taqqoslash imkoniyati paydo bo‘ladi. Demak, ijodiy kommunikatsiya faqat o‘qituvchining topqirligiga emas, suhbatdosh fikriga munosabat bildirishiga ham bog‘liq.

Beghetto va Kaufman (2007) «mini-c» tushunchasi orqali o‘rganuvchining o‘zi uchun yangi ma’no hosil qilishini izohlaydi (Beghetto & Kaufman, 2007). Masalan, pedagogika talabasi tortinchoq o‘quvchini suhbatga jalb etish uchun unga tanish voqeadan savol tuzishi mumkin. Bu fan uchun yangi usul bo‘lmasa ham, talaba uchun mustaqil topilgan yechimdir. Demak, bo‘lajak pedagogning kichik kommunikativ topilmalari ham refleksiv tahlil uchun ahamiyatli.

Runco va Jaeger (2012) kreativlikda yangilik bilan birga natijaning muvofiqligi yoki samaradorligini ham hisobga olish kerakligini ko‘rsatadi (Runco & Jaeger, 2012). Bu pedagogik muloqotda ayniqsa muhim: noodatiy ibora doim ham yaxshi yechim emas. Masalan, hazil murakkab tushunchani yengillashtirishi mumkin, biroq u o‘quvchini kamsitsa, pedagogik maqsadga zid bo‘ladi. Shuning uchun «Qanchalik yangicha?» savoli «Kim uchun va nima maqsadda foydali?» savoli bilan birga qo‘yiladi.

Qiyoslash natijasida nazariy e’tiborning kengayishi kuzatildi: Guilford va Torrance individual ijodiy tafakkur hamda uni o‘rganish usullarini, Amabile kreativ faoliyatning motivatsion va ijtimoiy shartlarini, Mercer va Littleton dialog orqali bilimni birgalikda yaratishni, Beghetto va Kaufman o‘quvchi uchun shaxsiy yangilikni, Runco va Jaeger esa yangilikning vazifaga muvofiqligini yoritadi. Bular bir-birini almashtirgan qat’iy tarixiy bosqichlar

emas: turli ilmiy yo‘nalishlar parallel rivojlangan. Ularning kesishgan nuqtasi — pedagogik vaziyatda yangi, asosli va suhbatdoshga mos javob ishlab chiqish imkoniyatidir.

ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA MUHOKAMA

Zamonaviy tendensiyalardan birinchisi — dialogik ta’limning faol o‘rni. Alexander (2018) sinfdagi muloqotni birgina savol-javob usuli emas, balki o‘qituvchi va o‘quvchilar nutqini faollashtiruvchi o‘zaro bog‘liq pedagogik amaliyotlar majmui sifatida tahlil qiladi. Bo‘lajak pedagoglar uchun bundan kelib chiqadigan vazifa — faqat «to‘g‘ri javob»ni olish emas, o‘quvchining fikrini ochadigan savollar tuzish, uning dalillarini aniqlashtirish va suhbatni o‘quv maqsadiga yo‘naltirishdir. Masalan, «Nima uchun?» va «Boshqa yechim bormi?» savollari muloqotning izlanish xarakterini kuchaytiradi.

Ikkinchi tendensiya — o‘quvchining shaxsiy yangiligini e’tirof etish va xavfsiz ijodiy muhit yaratish. Amabile (1983) motivatsiya hamda ijtimoiy sharoitlarning ijodiy faoliyatga ta’sirini tushuntiradi; Beghetto va Kaufman (2007) esa o‘rganuvchi uchun yangi tushuncha hosil bo‘lishini «mini-c» bilan izohlaydi. Shu bois talabaning noodatiy savoli ilmiy jihatdan mukammal bo‘lmasa ham, uni darhol rad etish o‘rniga mantiqiy asosini birgalikda tekshirish maqsadga muvofiq. Bu fikrlarni pedagogik tavsiyaga aylantirish muallifning qiyosiy xulosasidir.

Uchinchi tendensiya — raqamli muhitda dialog va refleksiyani tashkil etish. Wegerif (2007) raqamli texnologiyalar dialogik fikrlash uchun yangi imkoniyatlar yaratishini muhokama qiladi. Masalan, pedagogika talabalari onlayn munozarada bir vaziyatga turli javoblarni taklif qilib, ularning tushunarliligi, hurmatga asoslanganligi va pedagogik maqsadga mosligini birgalikda tahlil qilishi mumkin. Biroq raqamli vositaning o‘zi kreativ muloqotni kafolatlamaydi: muhokama savollari, fikrga munosabat va refleksiya sifati hal qiluvchi ahamiyatga ega.

XULOSA

Tarixiy-qiyosiy tahlil kreativlikni izohlashda individual tafakkur, ijtimoiy-motivatsion sharoit, birgalikdagi dialog va o‘rganuvchining shaxsiy ma’no yaratishi kabi yo‘nalishlar bir-birini to‘ldirishini ko‘rsatdi. Mazkur yo‘nalishlarni kommunikativ kreativlikning bitta tayyor tarixiy nazariyasi deb emas, uning pedagogik mohiyatini ochishga xizmat qiluvchi turli ilmiy asoslar sifatida talqin qilish to‘g‘riroq.

Maqolaning tahliliy natijasi sifatida kommunikativ kreativlikni pedagogik vaziyatga nisbatan uch savol bilan baholash taklif etiladi: yechim yangimi, ayni o‘quv vaziyatiga mosmi va suhbatdosh bilan tushunishni

rivojlantiradimi? Bu uchlik mustaqil sinovdan o‘tgan diagnostik shkala emas, balki yuqoridagi manbalarni qiyoslashdan kelib chiqqan nazariy mezonlardir. Bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda muqobil savollar tuzish, javoblarni taqqoslash va suhbatdan keyingi refleksiyani qo‘llash shu mezonlarni amaliyot bilan bog‘lashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Alexander, R. (2018). Developing dialogic teaching: Genesis, process, trial. Research Papers in Education, 33(5), 561–598. https://doi.org/10.1080/02671522.2018.1481140

Amabile, T. M. (1983). The social psychology of creativity: A componential conceptualization. Journal of Personality and Social Psychology, 45(2), 357–376. https://doi.org/10.1037/0022-3514.45.2.357

Beghetto, R. A., & Kaufman, J. C. (2007). Toward a broader conception of creativity: A case for “mini-c” creativity. Psychology of Aesthetics, Creativity, and the Arts, 1(2), 73–79. https://doi.org/10.1037/1931-3896.1.2.73

Guilford, J. P. (1950). Creativity. American Psychologist, 5(9), 444–454. https://doi.org/10.1037/h0063487

Mercer, N. (2000). Words and minds: How we use language to think together. Routledge.

Mercer, N., & Littleton, K. (2007). Dialogue and the development of children’s thinking: A sociocultural approach. Routledge.

Runco, M. A., & Jaeger, G. J. (2012). The standard definition of creativity. Creativity Research Journal, 24(1), 92–96. https://doi.org/10.1080/10400419.2012.650092

Torrance, E. P. (1966). Torrance tests of creative thinking: Norms-technical manual. Personnel Press.

Wegerif, R. (2007). Dialogic education and technology: Expanding the space of learning. Springer. https://doi.org/10.1007/978-0-387-71142-3

OLIY TA'LIM TIZIMIDA MA'RUZA MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI

Irgasheva Ma'suda Mahamadnazimovna
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti, Libos dizayni kafedrasi o'qituvchisi
Dizayin1987@mail.ru

Annotatsiya. *Ushbu tezisda oliy ta'limda ma'ruzaning o'rni, an'anaviy bayon usulining cheklovlari hamda raqamli va interaktiv yondashuvlar bilan uyg'unlashuv imkoniyatlari tahlil qilinadi. Adabiyotlar va pedagogik amaliyotni konseptual tahlil qilish orqali muammoli savol, vizual material, qisqa muhokama va tezkor qayta aloqani birlashtirgan ma'ruza modeli taklif etiladi. Model, xususan, libos dizayni ta'limida nazariy bilimni ijodiy topshiriqlar bilan bog'lashga qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *zamonaviy ma'ruza, oliy ta'lim, interaktiv ta'lim, raqamli texnologiyalar, qayta aloqa, libos dizayni.*

Abstract. *This paper examines the role of lectures in higher education, the limitations of traditional information delivery, and opportunities to combine lectures with digital and interactive approaches. Based on a conceptual analysis of pedagogical literature and practice, it proposes a lecture model integrating problem-based questions, visual materials, brief discussions, and formative feedback. The model is particularly applicable to fashion design education, where theoretical knowledge should be connected with creative tasks.*

Keywords: *modern lecture, higher education, interactive learning, digital technologies, formative feedback, fashion design.*

Oliy ta'limda ma'ruza nazariy bilimlarni tizimli bayon etish, murakkab tushunchalar o'rtasidagi aloqalarni ochib berish va talabalarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning muhim shakllaridan biridir. Biroq raqamli axborot manbalarining ko'payishi talabaning bilim olish usullarini o'zgartirmoqda. Bugun ma'ruzaning samaradorligi faqat ma'lumot hajmi bilan emas, balki tinglovchining materialni tushunishi, mustaqil tahlil qilishi va o'z faoliyatida qo'llay olishi bilan baholanishi lozim.

Dastlabki maqolada zamonaviy ma'ruzaning ta'lim tizimidagi o'rni, axborot-kommunikatsiya vositalari hamda o'qituvchi va talaba o'rtasidagi jonli

muloqotning ahamiyati yoritilgan. Mazkur tadqiqot shu g‘oyalarni rivojlantirib, ma’ruzaning interaktiv va raqamli komponentlarini yagona didaktik tuzilmada ko‘rib chiqadi.[1] Maqsad — oliy ta’lim, jumladan, libos dizayni yo‘nalishida ma’ruzani tinglashga asoslangan shakldan faol o‘rganish va tahlil qilishga yo‘naltirilgan shaklga o‘tkazishning amaliy tamoyillarini asoslash.

Ishda nazariy-tahliliy yondashuv qo‘llanildi: ma’ruzaning pedagogik vazifalari tavsiflandi, an’anaviy va interaktiv tashkil etish usullari taqqoslandi, raqamli vositalarning didaktik imkoniyatlari umumlashtirildi. San’at va dizayn ta’limidagi o‘qitish usullariga oid manbalar mazmunan ko‘rib chiqildi.[3] Tadqiqot tajriba-sinov va talabalar so‘roviga asoslanmagan; shu sababli keltirilgan natijalar statistik xulosa emas, balki amaliyotda tekshirilishi mumkin bo‘lgan metodik takliflardir.

Tahlil zamonaviy ma’ruzaning uch o‘zaro bog‘liq vazifasini ajratishga imkon berdi. Birinchisi — mazmunni ilmiy mantiq asosida tizimlashtirish: o‘qituvchi mavzuning asosiy tushunchalari, sabab-oqibat munosabatlari va qo‘llanish sohalarini izohlaydi. Ikkinchisi — bilish faolligini oshirish: talaba savol qo‘yadi, misollarni solishtiradi va o‘z fikrini dalillaydi. Uchinchisi — o‘zlashtirishni aniqlash: qisqa topshiriq, og‘zaki javob yoki raqamli so‘rov orqali o‘qituvchi talabaning tushunish darajasi haqida tezkor ma’lumot oladi.

An’anaviy ma’ruzada ma’lumot ko‘pincha bir yo‘nalishda uzatiladi. Bu shakl katta hajmdagi nazariy materialni izchil tushuntirishda foydali bo‘lsa-da, talabalarning individual qiyinchiliklarini vaqtida aniqlash hamda olingan bilimni tatbiq etishni mashq qilish uchun yetarli bo‘lmasligi mumkin. Interaktiv yondashuv ma’ruzani to‘liq seminar yoki amaliy mashg‘ulotga aylantirmaydi; aksincha, mavzuning asosiy bayonini talaba faoliyati bilan davriy ravishda uyg‘unlashtiradi. Faol o‘qitish bo‘yicha ilmiy tahlillar talabaning muhokama va topshiriqlarda qatnashishi o‘zlashtirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini asoslaydi [4, 5].

A. A. Verbitskiyning faol o‘qitish bo‘yicha konsepsiyasida talabaning o‘quv faoliyatini kelajakdagi kasbiy vaziyatlar bilan bog‘lash muhimligi asoslanadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, muammoli vaziyatlar va faol ishtirokni talab qiluvchi topshiriqlar nazariy bilimni kasbiy faoliyat mazmuni bilan uyg‘unlashtirishga yordam beradi. Bu tamoyil ma’ruzalarda muhokama va amaliy tahlil elementlaridan foydalanish zarurligini nazariy jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi [6].

Shu asosda ma’ruza uchun besh bosqichli metodik model taklif etiladi: 1) muammoli vaziyat yoki vizual misol orqali mavzuga kirish; 2) tayanch

nazariy tushunchalarni ixcham va izchil bayon qilish; 3) tasvir, video, raqamli taqdimot yoki real namunalar orqali tushunchani ochib berish; 4) juftlikdagi muhokama yoxud qisqa tahliliy topshiriqni bajarish; 5) yakuniy savol va tezkor qayta aloqa orqali asosiy xulosalarni mustahkamlash. Bosqichlarning aniq davomiyligi mavzu murakkabligi, auditoriya tayyorgarligi va texnik sharoitga qarab belgilanadi.

Libos dizayni ta’limida ushbu model ayniqsa dolzarb. Masalan, “Zamonaviy moda tendensiyalari” mavzusidagi ma’ruza turli kolleksiyalardan olingan vizual misollarni solishtirish bilan boshlanishi mumkin. Keyin siluet, rang, faktura, uslub va brend identifikatsiyasi tushuntiriladi. Talabalar kichik guruhlarda berilgan obrazning kompozitsion yechimini tahlil qilib, o‘z tanlovini asoslaydi. Yakunda esa o‘qituvchi qisqa savollar yordamida tushunchalarning qanchalik to‘g‘ri anglanganini tekshiradi. Mazkur yondashuv dizayn ta’limining nazariya va ijodiy amaliyotni bog‘lash vazifasiga mos keladi.

baholandi: variatsiya koeffitsiyenti $V = \sqrt{[\Sigma w_i(y_i - \bar{y})^2]} / \bar{y}$; Lorens egri chizig‘i asosidagi Jini koeffitsiyenti G; Teyl indeksi $T = \Sigma w_i(y_i/\bar{y})\cdot\ln(y_i/\bar{y})$ (Theil, 1967), bu yerda w_i – hudud aholisining viloyatdagi ulushi. Investitsion faollik va moliyalashtirish tarkibi o‘rtasidagi bog‘liqlik Pirson korrelyatsiya koeffitsiyenti orqali aniqlandi. Hududlar kesimidagi o‘zgarishlar joriy narxlarda (nominal) keltirilgan.

Tahlil natijalari. 1-jadvalda 2025-yilda shahar va tumanlar kesimida investitsiyalarning taqsimlanishi keltirilgan.

1-jadval

Xorazm viloyati shahar va tumanlarida asosiy kapitalga investitsiyalar

Shahar va tumanlar	2024-y., mlrd so‘m	2025-y., mlrd so‘m	Nominal o‘zgarish, %	Ulushi, %	O‘rtacha aholi, ming kishi	Aholi jon boshiga, ming so‘m	Indeks (viloyat = 1)
Urganch sh.	3 195,5	6 849,9	214,4	30,3	156,9	43 643,8	3,97
Xiva sh.	993,4	1 645,7	165,7	7,3	101,1	16 277,9	1,48
Bog‘ot	555,2	674,8	121,5	3,0	181,8	3 712,8	0,34
Gurlan	850,9	778,0	91,4	3,4	161,8	4 809,9	0,44
Qo‘shko‘pir	1 954,8	1 676,6	85,8	7,4	187,4	8 949,0	0,81
Urganch	1 969,8	2 649,3	134,5	11,7	222,3	11 915,0	1,08
Hazorasp	927,3	1 351,4	145,7	6,0	212,9	6 349,1	0,58
Tuproqqal’a	689,6	1 045,3	151,6	4,6	61,5	16 996,7	1,55
Xonqa	653,7	902,5	138,1	4,0	204,3	4 418,6	0,40
Xiva	1 157,6	2 075,8	179,3	9,2	160,2	12 957,6	1,18
Shovot	548,4	1 315,3	239,8	5,8	185,8	7 081,0	0,64
Yangiariq	590,6	832,8	141,0	3,7	126,5	6 580,8	0,60
Yangibozor	708,3	823,8	116,3	3,6	95,0	8 676,1	0,79
Xorazm viloyati	**14 795,3**	**22 621,2**	**152,9**	**100,0**	**2 057,3**	**10 995,6**	**1,00**

Manba: Xorazm viloyati statistika boshqarmasi (2025, 2026a, 2026b) ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Jadvaldan ko‘rinadiki, 2025-yilda viloyat aholisining 7,6 % i yashaydigan Urganch shahriga jami investitsiyalarning 30,3 % i to‘g‘ri kelgan (2024-yilda 21,6 %). Bu yerda aholi jon boshiga investitsiyalar 43,6 mln so‘mni

tashkil etib, viloyat o‘rtachasidan qariyb 4 baravar yuqori. Tuproqqal’a tumani (indeks 1,55), Xiva shahri (1,48), Xiva (1,18) va Urganch (1,08) tumanlari ham o‘rtachadan yuqori ko‘rsatkichga ega.

Aksincha, Bog‘ot (0,34), Xonqa (0,40) va Gurlan (0,44) tumanlarida investitsion faollik viloyat o‘rtachasining yarmiga ham yetmaydi. Bu uch tumanda viloyat aholisining 26,6 % i yashaydi, biroq ularga investitsiyalarning bor-yo‘g‘i 10,4 % i to‘g‘ri keladi. Qo‘shko‘pir va Gurlan tumanlarida esa investitsiyalar hajmi 2024-yilga nisbatan nominal ifodada ham kamaygan (mos ravishda 85,8 % va 91,4 %). Bu ko‘rsatkichlarning bir yoki bir nechta yirik loyihaga bog‘liq holda keskin tebranishidan dalolat beradi.

Tafovut darajasining dinamikasi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Aholi jon boshiga investitsiyalar bo‘yicha hududlararo tafovut ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	2024-y. (13 hudud)	2025-y. (13 hudud)	2024-y. (Urganch sh.siz)	2025-y. (Urganch sh.siz)
Variatsiya koeffitsiyenti (V)	0,644	0,917	0,459	0,462
Jini koeffitsiyenti (G)	0,325	0,390	0,257	0,255
Teyl indeksi (T)	0,177	0,292	0,104	0,102
Maksimum/minimum nisbati	6,9	11,8	3,8	4,6

Manba: muallif hisob-kitoblari (ko‘rsatkichlar aholi soni bo‘yicha tortilgan).

2025-yilda barcha tafovut ko‘rsatkichlari sezilarli oshgan: variatsiya koeffitsiyenti 0,644 dan 0,917 ga, Jini koeffitsiyenti 0,325 dan 0,390 ga, Teyl indeksi 0,177 dan 0,292 ga ko‘tarilgan. Biroq Urganch shahri hisobdan chiqarilganda ko‘rsatkichlar deyarli o‘zgarmagan (V = 0,459 va 0,462; G = 0,257 va 0,255). Demak, 2025-yildagi tafovut kuchayishi tumanlar o‘rtasidagi farqning ortishi emas, balki investitsiyalarning viloyat markaziga keskin to‘planishi natijasidir. Bu holat Myurdalning kumulyativ sabablilik va Uilyamsonning rivojlanishning dastlabki bosqichidagi qutblanish haqidagi xulosalariga mos keladi.

Moliyalashtirish tarkibi tahlili muhim qonuniyatni ko‘rsatdi. Aholi jon boshiga investitsiyalar xorijiy investitsiya va kreditlar ulushi bilan ijobiy (r = 0,65), aholi mablag‘lari ulushi bilan esa salbiy (r = –0,71) bog‘langan. Investitsion faolligi past tumanlarda aholi mablag‘lari asosiy manba hisoblanadi: Xonqada uning ulushi 48,4 %, Gurlanda 39,9 %, Bog‘otda 37,1 % ni tashkil etadi, Urganch shahrida esa atigi 6,3 %. Xorijiy investitsiya va

kreditlarning ulushi esa Urganch shahrida 78,7 %, Xonqada 29,8 % (Xorazm viloyati statistika boshqarmasi, 2026a). Ya'ni orqada qolgan tumanlarda investitsiyalar asosan uy-joy qurilishi kabi aholining o'z mablag'lariga tayanib, ishlab chiqarish quvvatlarini yaratuvchi yirik loyihalar yetishmaydi. Respublika byudjeti ulushi bilan bog'liqlik kuchsiz (r = –0,24), ya'ni byudjet mablag'lari tafovutni tekislash vositasi sifatida cheklangan ta'sir ko'rsatmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, kuzatuvlar soni (13 ta) kichik bo'lgani sababli korrelyatsiya natijalari tendensiya sifatida talqin qilinishi lozim.

Muhokama va takliflar. Olingan natijalar asosida investitsion faollikdagi tafovutni kamaytirish uchun quyidagi chora-tadbirlar taklif etiladi.

Birinchidan, hududlarni investitsion faollik indeksi bo'yicha tabaqalashtirish va har bir tuman uchun aholi jon boshiga investitsiyalar bo'yicha maqsadli ko'rsatkich belgilash. Indeksi 0,5 dan past bo'lgan Bog'ot, Xonqa va Gurlan tumanlariga davlat dasturlari, kafolatlangan kreditlar va xalqaro moliya institutlari loyihalarini taqsimlashda ustuvorlik berish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, orqada qolayotgan tumanlarda kichik sanoat zonalarini muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi bilan ta'minlash va ularni tumanning qishloq xo'jaligi xomashyosini qayta ishlashga ixtisoslashtirish. Bu aholi mablag'lariga tayangan investitsiya tarkibini ishlab chiqarishga yo'naltirilgan tarkibga o'zgartirish imkonini beradi.

Uchinchidan, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish. 2025-yilda tijorat banklari kreditlarining jami investitsiyalardagi ulushi 1,4 % ni tashkil etgan. Lokalizatsiya loyihalari bo'yicha foiz xarajatlarini qoplash mexanizmi (O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali, 2024) aynan past faollikdagi tumanlarda joylashgan loyihalarga yuqoriroq stavkada qo'llanilishi tavsiya etiladi.

To'rtinchidan, raqamli monitoring tizimini joriy etish. Tumanlar kesimida investitsiyalar, aholi jon boshiga ko'rsatkichlar va loyihalar holatini choraklik yangilab boruvchi ochiq geoaxborot platformasi investorlarga bo'sh yer uchastkalari va infratuzilma haqida tezkor ma'lumot beradi, mahalliy hokimliklar faoliyatini baholashda esa shaffoflikni oshiradi.

Beshinchidan, "yashil" investitsiyalarni hududiy tekislash vositasi sifatida foydalanish. Urganch tumanida chiqindilardan elektr energiyasi ishlab chiqarish va Tuproqqal'a tumanida bioyoqilg'i loyihalari (Anhor.uz, 2025) kabi tashabbuslarni periferik tumanlarga ham kengaytirish ham iqtisodiy, ham ekologik barqarorlikka xizmat qiladi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari Xorazm viloyatida investitsiyalarning tez o‘sishi hududlar o‘rtasida notekis taqsimlanayotganini ko‘rsatdi. 2025-yilda aholi jon boshiga investitsiyalar bo‘yicha eng yuqori va eng past ko‘rsatkichli hududlar o‘rtasidagi farq 11,8 baravarga yetdi, Jini koeffitsiyenti 0,390 ni tashkil etdi. Tafovut kuchayishining asosiy sababi investitsiyalarning viloyat markazi – Urganch shahrida to‘planishi bo‘lib, tumanlar o‘rtasidagi farq nisbatan barqaror (G ≈ 0,26) saqlanib qolgan. Bog‘ot, Xonqa va Gurlan tumanlari viloyat aholisining chorak qismidan ortig‘ini qamrab olgani holda, investitsiyalarning o‘ndan bir qismini oladi. Past investitsion faollik aholi mablag‘lariga bog‘liqlik va xorijiy kapitalning yetishmasligi bilan izohlanadi.

Investitsiyalarni hududiy taqsimlash samaradorligini oshirish uchun tabaqalashtirilgan maqsadli ko‘rsatkichlar, periferik tumanlarda infratuzilmani rivojlantirish, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, raqamli monitoring va “yashil” loyihalarni hududiy kengaytirish zarur. Keyingi tadqiqotlarda ko‘p yillik panel ma’lumotlari asosida investitsiyalar tafovutining tumanlar iqtisodiy o‘sishiga ta’sirini ekonometrik baholash rejalashtirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Anhor.uz. (2025, 12-sentabr). *Mirziyoyevga Xorazmdagi vaziyat yuzasidan axborot berildi*. https://anhor.uz/uzl/news/xorazmdagi-vaziyat-axboroti/

Barro, R. J., & Sala-i-Martin, X. (1992). Convergence. *Journal of Political Economy, 100*(2), 223–251.

Hirschman, A. O. (1958). *The strategy of economic development*. Yale University Press.

Krugman, P. (1991). Increasing returns and economic geography. *Journal of Political Economy, 99*(3), 483–499.

Myrdal, G. (1957). *Economic theory and under-developed regions*. Duckworth.

O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali. (2024, 1-mart). *Обсуждены задачи по реализации незадействованных возможностей Хорезма*. https://gov.uz/ru/news/view/6806

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). *“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida* (PF-158-son Farmon, 11-sentabr).

Theil, H. (1967). *Economics and information theory*. North-Holland.

United Nations. (2015). *Transforming our world: The 2030 Agenda for Sustainable Development* (A/RES/70/1).

Williamson, J. G. (1965). Regional inequality and the process of national development: A description of the patterns. *Economic Development and Cultural Change*, *13*(4), 1–84.

Xorazm viloyati statistika boshqarmasi. (2025). *Xorazm viloyatida asosiy kapitalga investitsiyalar: 2024-yil yanvar–dekabr* [Press-reliz]. https://xorazmstat.uz/uploads/press-reliz/2024/12/Invest.pdf

Xorazm viloyati statistika boshqarmasi. (2026a). *Xorazm viloyatida asosiy kapitalga investitsiyalar: 2025-yil yanvar–dekabr* [Press-reliz]. https://xorazmstat.uz/uploads/press-reliz/2025/12/Invest.pdf

Xorazm viloyati statistika boshqarmasi. (2026b). *Xorazm viloyatida demografik holat: 2026-yil yanvar–mart* [Press-reliz]. https://xorazmstat.uz/uploads/press-reliz/2026/03/demografik.pdf

Xorazm viloyati statistika boshqarmasi. (2026c). *Xorazm viloyatida asosiy kapitalga investitsiyalar: 2026-yil yanvar–mart* [Press-reliz]. https://xorazmstat.uz/uploads/press-reliz/2026/03/Invest.pdf

PEDAGOGIK RITORIK YONDASHUV ASOSIDA O‘QUVCHILARNING OG‘ZAKI VA YOZMA NUTQINI TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Abdugopporova Odina Hoshimjon qizi,
QarDU 2-kurs tayanch doktoranti
odinaabdugopporova@gmail.com
https://isni.org/isni/0000000404029206

Annotatsiya. *Mazkur tezisda pedagogik ritorik yondashuv asosida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari, metodik asoslari hamda samarali texnologiyalari tahlil etilgan. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning fikrni mantiqiy izchillikda ifodalashi, o‘z nuqtayi nazarini dalillar asosida himoya qilishi, muloqot madaniyatiga rioya qilishi va yozma nutq savodxonligini rivojlantirishda pedagogik ritorikaning o‘rni ochib berilgan. Shuningdek, munozara, debat, muammoli savol, ritorik mashqlar, ijodiy yozuv va argumentativ nutq texnologiyalaridan foydalanishning metodik imkoniyatlari asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *pedagogik ritorika, nutq rivoji, og‘zaki nutq, yozma nutq, nutqiy kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, argumentlash, munozara madaniyati, ritorik texnologiyalar, tanqidiy fikrlash.*

Abstract. *This thesis analyzes the pedagogical potential, methodological foundations, and effective technologies for improving students’ oral and written speech through a pedagogical rhetorical approach. It highlights the role of pedagogical rhetoric in developing students’ ability to express their thoughts logically and coherently, defend their viewpoints with evidence, observe the principles of communication culture, and improve their written language proficiency. Furthermore, the methodological potential of using discussions, debates, problem-based questions, rhetorical exercises, creative writing, and argumentative speech technologies in the educational process is substantiated.*

Keywords: *pedagogical rhetoric, speech development, oral speech, written speech, speech competence, communicative competence, argumentation, culture of discussion, rhetorical technologies, critical thinking.*

KIRISH

Bugungi globallashuv va axborotlashuv jarayonida ta’lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, o‘z

qarashlarini erkin ifodalashi, muloqot jarayonida faol ishtirok etishi hamda fikrini asosli dalillar bilan bayon qila olishini ta’minlashdan iborat. Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchidan nafaqat ma’lum bilimlarni egallash, balki ushbu bilimlarni nutqiy faoliyat orqali namoyon etish, tahlil qilish, baholash va amaliy muloqotda qo‘llash ham talab etiladi. Shu nuqtayi nazardan, pedagogik ritorika o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik yo‘nalishlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Ritorika qadimdan insonning fikrni ta’sirchan, mantiqiy, izchil va maqsadga muvofiq ifodalash san’ati sifatida e’tirof etilgan. Uning zamonaviy pedagogik talqini esa ta’lim oluvchilarda samarali muloqot qilish, o‘z fikrini asoslash, tinglovchi bilan kommunikativ munosabat o‘rnatish va nutq madaniyatiga rioya qilish ko‘nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

ASOSIY QISM

Pedagogik ritorik yondashuv o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini bir-biridan ajratmagan holda, ularning o‘zaro uzviy bog‘liqligini ta’minlashga imkon beradi. Chunki og‘zaki nutq jarayonida shakllangan fikrlash, dalillash va izohlash ko‘nikmalari yozma nutqning mazmunan boyishi va mantiqiy jihatdan takomillashishiga xizmat qiladi. Ayni paytda yozma nutq ustida ishlash o‘quvchilarning fikrni oldindan rejalashtirish, tizimlashtirish va grammatik jihatdan to‘g‘ri ifodalash qobiliyatini rivojlantiradi.

Pedagogik ritorik yondashuvning nutq rivojidagi nazariy asoslari

Pedagogik ritorikaning nazariy asoslarini o‘rganishda qadimgi yunon mutafakkiri Aristotelning ritorika haqidagi qarashlari alohida ahamiyat kasb etadi. Aristotel ritorikani muayyan vaziyatda ishontirishning mavjud vositalarini aniqlash qobiliyati sifatida izohlaydi. Uning qarashlarida mantiqiy dalillash, so‘zlovchining ishonchliligi va tinglovchining hissiy holatiga ta’sir ko‘rsatish muhim o‘rin tutadi. Ushbu yondashuv zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning fikrini asoslash va auditoriya bilan samarali muloqot qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda metodologik ahamiyatga ega.

Pedagogik ritorika o‘quvchining nutqiy faoliyatini bir necha o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlar asosida rivojlantirishni taqozo etadi:

Birinchidan, mazmuniy komponent – o‘quvchining fikr mazmunini anglash, mavzuga oid bilimlarni to‘plash va ularni muayyan maqsad asosida ifodalash qobiliyatidir. Ikkinchidan, mantiqiy-kompozitsion komponent – fikrni izchil tashkil etish, kirish, asosiy qism va xulosani o‘zaro bog‘lash, sabab-oqibat munosabatlarini ifodalash ko‘nikmalarini qamrab oladi. Uchinchidan, kommunikativ komponent – suhbatdoshni tinglash, uning fikriga munosabat bildirish, savol berish, javob qaytarish va muloqot odobiga rioya

qilishni nazarda tutadi. To‘rtinchidan, ifodaviy komponent – nutqning ravonligi, ta’sirchanligi, leksik boyligi, talaffuz aniqligi va grammatik to‘g‘riligini ta’minlaydi.

Mazkur komponentlarning o‘zaro uyg‘unligi o‘quvchilarda yaxlit nutqiy kompetensiyaning shakllanishiga zamin yaratadi.

L.S. Vigotskiyning tafakkur va nutqning o‘zaro munosabatiga doir ilmiy qarashlari ham ushbu masalani yoritishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Olim nutq va tafakkur rivojlanishini o‘zaro bog‘liq psixologik jarayonlar sifatida talqin etadi. Bundan kelib chiqadiki, o‘quvchining nutqini rivojlantirish faqat so‘z boyligini oshirish yoki grammatik qoidalarni o‘rgatish bilan cheklanmasligi, balki mustaqil fikrlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish faoliyatini ham qamrab olishi lozim.

Og‘zaki nutqni takomillashtirishda pedagogik ritorik texnologiyalar

O‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirish pedagogik ritorikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Og‘zaki nutq o‘quvchining o‘z fikrini bevosita muloqot jarayonida ifodalashi, suhbatdoshning munosabatini anglab yetishi va kommunikativ vaziyatga mos ravishda javob qaytarish qobiliyatini namoyon etadi.

An’anaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning nutqini rivojlantirish ko‘pincha matnni qayta hikoya qilish, savollarga javob berish va she’r yodlash kabi mashqlar bilan cheklanadi. Biroq zamonaviy pedagogik talablar o‘quvchilarning faol nutqiy ishtirokini ta’minlaydigan, mustaqil fikrlashga undaydigan va o‘z pozitsiyasini asoslashga yo‘naltirilgan texnologiyalardan foydalanishni talab etadi.

Shu jihatdan quyidagi texnologiyalar samarali hisoblanadi:

1. Muammoli savollar texnologiyasi.

Mazkur texnologiya o‘quvchilarni tayyor ma’lumotni takrorlashdan ko‘ra, muayyan masala yuzasidan mustaqil fikr yuritishga yo‘naltiradi. O‘qituvchi tomonidan berilgan muammoli savol o‘quvchini fikrlash, tahlil qilish, turli nuqtayi nazarlarni solishtirish va o‘z xulosasini ifodalashga undaydi.

Masalan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga: «Kitob o‘qish inson hayotida qanday ahamiyatga ega?» yoki «Tabiatni asrash nima uchun har bir insonning vazifasi hisoblanadi?» kabi savollar berilishi mumkin. O‘quvchilar o‘z javoblarini sabab va misollar bilan izohlashga o‘rgatiladi.

2. Munozara va debat texnologiyasi.

Munozara o‘quvchilarning muloqot madaniyati, tinglash, fikrga munosabat bildirish va dalillash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ushbu texnologiya jarayonida o‘quvchilar muayyan mavzu bo‘yicha turli qarashlarni ilgari suradilar, o‘z pozitsiyalarini himoya qiladilar va qarama-qarshi fikrlarni tahlil qiladilar.

Bunda quyidagi nutqiy formulalardan foydalanish maqsadga muvofiq:

- Menimcha, ...
- Men bu fikrga qo‘shilaman, chunki ...
- Ushbu fikrni quyidagi misol bilan asoslash mumkin ...
- Boshqa tomondan qaraganda, ...
- Xulosa qilib aytganda, ...

Mazkur formulalar o‘quvchilarning fikrni mantiqiy va izchil ifodalashiga yordam beradi.

3. Hikoya qilish va taqdimot texnologiyasi.

Ushbu texnologiya o‘quvchilarning mustaqil nutq tuzish, voqealarni izchil bayon qilish, auditoriya oldida chiqish va nutqiy ifodalilik ko‘nikmalarini rivojlantiradi. O‘quvchilarga rasm, voqea, kuzatish yoki o‘qilgan matn asosida mustaqil hikoya tuzish topshiriladi. Bunda o‘qituvchi nutqning mazmuniy izchilligi, gaplar o‘rtasidagi bog‘liqlik, talaffuz va ifodalilikka alohida e’tibor qaratadi.

XULOSA

Yuqoridagi nazariy va metodik tahlillar asosida pedagogik ritorik yondashuv o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini takomillashtirishda muhim didaktik imkoniyatlarga ega ekanligini ta’kidlash mumkin.

Birinchidan, pedagogik ritorika o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, o‘z nuqtayi nazarini ifodalashi va uni dalillar asosida himoya qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ikkinchidan, muammoli savollar, munozara, debat, hikoya qilish va taqdimot texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning faol nutqiy ishtirokini ta’minlaydi. Uchinchidan, ijodiy yozuv, argumentativ matn yaratish, rejalashtirish va tahrirlash metodlari yozma nutqning mazmuniy, mantiqiy va grammatik jihatdan takomillashishiga xizmat qiladi. To‘rtinchidan, og‘zaki va yozma nutq faoliyatlarini integrativ tashkil etish o‘quvchilarda yaxlit nutqiy kompetensiyani shakllantirish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratadi.

Shunday qilib, pedagogik ritorik yondashuvni ta’lim jarayoniga izchil tatbiq etish o‘quvchilarning nafaqat nutqiy savodxonligini, balki kommunikativ faolligi, tanqidiy fikrlashi, argumentlash qobiliyati va muloqot madaniyatini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa zamonaviy ta’limning shaxsga yo‘naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuv talablariga mos keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

Aristotle. (2007). Rhetoric (G. A. Kennedy, Trans.). Oxford University Press.

Bakhtin, M. M. (1986). Speech genres and other late essays. University of Texas Press.

Mahmudov, N. (2007). O‘qituvchi nutqi madaniyati. A. Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.

Qudratov, T. (1993). Nutq madaniyati asoslari.

Vygotsky, L. S. (1986). Thought and language. MIT Press.

Zimnyaya, I. A. (2001). Linguistic psychology of speech activity. Moscow Psychological and Social Institute.

OPTIMIZATION OF BASE PLATE PREHEATING TEMPERATURE IN LASER POWDER BED FUSION USING SIMUFACT ADDITIVE: EFFECTS ON DISPLACEMENT, RESIDUAL STRESS AND SURFACE DEVIATION

Saydaxmedov Ravshan Xolxo'jayevich
Professor
Turin Polytechnic University in Tashkent, Uzbekistan
saydakhmedov.ravshan@polito.uz
Rajabov Jaloladdin Mansurovich
Teacher
Urgench State University named after Abu Rayhan Biruni, Uzbekistan
rajabovjaloladdin96@gmail.com

Abstract. *This study numerically investigates the effect of the initial base plate preheating temperature on the displacement, equivalent stress and surface deviation of an AlSi10Mg housing produced by laser powder bed fusion (LPBF). Thermo-mechanical simulations were performed in Simufact Additive 2024.3 at 80, 120, 185, 250 and 310 °C, including a stress-relief heat treatment step. Maximum displacement showed a U-shaped trend with a minimum of 2.77 mm at 185 °C, and a quadratic model (R^2 = 0.89) located the optimum near 197 °C. Equivalent stress (≈364 MPa) and surface deviation (±0.7 mm) were practically insensitive to preheating temperature.*

Keywords: *laser powder bed fusion, AlSi10Mg, base plate preheating, process simulation, Simufact Additive, distortion, residual stress, surface deviation.*

INTRODUCTION

Laser powder bed fusion (LPBF) produces metal parts layer by layer by selectively melting thin powder layers with a focused laser beam, enabling complex near-net-shape components that are difficult to cast or machine (DebRoy et al., 2018). The localised heat input and rapid cooling, however, create steep thermal gradients that generate residual stresses, part distortion, cracking and detachment from the base plate. According to the temperature gradient mechanism and the cool-down phase model, these stresses depend on the temperature difference between the melt pool and the surrounding material

(Mercelis & Kruth, 2006). Heating the base plate before and during the build is therefore one of the most widely used countermeasures.

The benefit of preheating has been demonstrated for several alloys. Buchbinder et al. (2014) showed that preheating reduces distortion of aluminium parts produced by selective laser melting. For Ti6Al4V, high-temperature powder bed preheating significantly reduced residual stress and decomposed the brittle martensitic microstructure (Ali et al., 2017; Malý et al., 2019). Nevertheless, noticeable distortion was still measured on parts built at 200 °C (Motibane et al., 2019), so preheating alone does not eliminate the problem.

AlSi10Mg is one of the most widely processed aluminium alloys in LPBF owing to its low density and good strength-to-weight ratio. Its high thermal expansion makes it sensitive to thermally induced distortion. Simufact Additive has been shown to predict the dimensional accuracy of AlSi10Mg parts with errors below 0.2 % (Doğdu, 2026). Most earlier studies, however, compare only two or three temperature levels on simple specimens. The aim of this work is to determine how the base plate preheating temperature affects the displacement, equivalent stress and surface deviation of a complex AlSi10Mg component after stress-relief heat treatment, and to identify an optimum preheating temperature.

MATERIALS AND METHODS

The studied component is a complex housing with several bores, bosses and flanges, made of AlSi10Mg powder from the Simufact Additive material library. It was positioned on a 250 × 250 × 30 mm base plate (Ti6Al4V material model), and base plate deformation was included in the analysis. Block support structures were generated in Materialise Magics with a tooth pattern at the support–part interface and perforated walls. The process and support parameters are summarised in Table 1.

Table 1.

Process and support structure parameters

Process parameter	Value	Support parameter	Value
Laser power, P	350 W	Contour offset	0.2 mm
Scanning speed, v	1200 mm/s	Segment spacing	4.0 mm
Absorption efficiency	25 %	Tooth base / tip width	1.0 / 1.0 mm
Spot size	0.1 mm	Tooth crossing width	0.5 mm
Layer thickness, t	60 µm	Tooth height	1.5 mm

Process parameter	Value	Support parameter	Value
Hatch distance, h	0.07 mm	Part clearance	1.0 mm
Recoater time	10 s	Intrusion top / bottom	0.2 / 0.2 mm
Nominal VED	69.4 J/mm³	Estimated build time	13.3 h

The nominal volumetric energy density was VED = P/(v·h·t) = 69.4 J/mm³. Thermo-mechanical build simulations were carried out in Simufact Additive 2024.3. The part was discretised with a uniform voxel mesh of 3.0 mm with two coarsening levels, while the base plate used adaptive meshing with three layers. Five initial base plate temperatures were simulated: 80, 120, 185, 250 and 310 °C, with all other parameters kept constant. Each simulation included the build, cooling and stress-relief heat treatment stages, and results were evaluated at the end of heat treatment. Three responses were extracted: the maximum total displacement, the maximum equivalent (von Mises) stress, and the surface deviation from the nominal geometry. A least-squares polynomial regression of displacement versus temperature was used to estimate the optimum.

RESULTS AND DISCUSSION

The preheating temperature had a strong, non-monotonic effect on the maximum total displacement (Fig. 1). Raising the temperature from 80 to 120 °C reduced the displacement by 78.9 %, and a further increase to 185 °C gave an additional 13.2 % reduction, reaching the minimum of 2.77 mm. Above 185 °C the trend reversed: the displacement increased by 15.5 % at 250 °C and was 4.6 times the minimum at 310 °C. Within 120–250 °C the displacement varied by less than 16 %, which defines a robust processing window.

A second-order polynomial described the data with $R^2 = 0.89$:

$$D_{max}(T) = 9.514 \cdot 10^{-4} \cdot T^2 - 0.3739 \cdot T + 37.42,$$

which gives an optimum temperature $T_{opt} = -b/2a \approx 196.5$ °C, close to the simulated minimum at 185 °C (a cubic model gave 181 °C).



Fig. 1. Maximum total displacement versus initial base plate temperature with quadratic regression fit

For the optimum case (Fig. 2), the largest displacements occurred on the upper part of the housing, while surface deviations were mostly between −0.14 and 0 mm, with local peaks at bore edges and flange rims.



(a) (b)

Fig. 2. Simulation results at 185 °C after heat treatment: (a) total displacement; (b) surface deviation

Table 2. Equivalent stress and surface deviation after heat treatment

Preheating temperature, °C	Max. equivalent stress, MPa	Surface deviation max, mm	Surface deviation min, mm
80	364.71	+0.61	−0.69
120	363.56	+0.63	−0.69
185	364.48	+0.61	−0.69
250	363.51	+0.59	−0.70
310	364.26	+0.54	−0.69

The decrease in displacement up to 185 °C agrees with the established mechanism: a warmer base plate lowers the thermal gradient between the melt pool and the solidified material and reduces the thermal strain locked into each layer (Mercelis & Kruth, 2006; Buchbinder et al., 2014). The increase above

185 °C can be attributed to the larger temperature drop during final cooling and to the thermal expansion mismatch between the AlSi10Mg part and the Ti6Al4V base plate, which grows with temperature.

In contrast to displacement, the maximum equivalent stress varied by only 1.2 MPa (0.33 %) (Table 2), indicating that the stress-relief heat treatment brings all cases to a similar residual stress level and masks the influence of preheating. Since about 364 MPa exceeds the typical yield strength of stress-relieved AlSi10Mg, this peak is most likely located in the base plate or at the plate–support interface. Likewise, the nearly constant surface deviation (±0.7 mm), compared with the 5.5-fold change in total displacement, suggests that preheating mainly affects the global movement of the part rather than its final shape accuracy. The present results are numerical; experimental validation, an aluminium base plate model and a mesh sensitivity study will be addressed in future work.

CONCLUSION

The effect of base plate preheating temperature on an AlSi10Mg housing produced by LPBF was investigated using Simufact Additive simulations at five temperature levels. The maximum total displacement after heat treatment showed a U-shaped dependence on preheating temperature, decreasing from 15.14 mm at 80 °C to 2.77 mm at 185 °C and rising to 12.76 mm at 310 °C. Regression analysis placed the optimum between 181 and 197 °C, and a processing window of 120–250 °C kept the displacement within 2.77–3.20 mm. The maximum equivalent stress (363.5–364.7 MPa) and surface deviation (−0.70 to +0.63 mm) were practically independent of preheating temperature, showing that the stress-relief heat treatment largely erases the effect of preheating on residual stress. A base plate temperature of about 185 °C is therefore recommended for the studied AlSi10Mg component.

REFERENCES

1. Ali, H., Ma, L., Ghadbeigi, H., & Mumtaz, K. (2017). In-situ residual stress reduction, martensitic decomposition and mechanical properties enhancement through high temperature powder bed pre-heating of selective laser melted Ti6Al4V. *Materials Science and Engineering: A, 695*, 211–220. https://doi.org/10.1016/j.msea.2017.04.033

2. Buchbinder, D., Meiners, W., Pirch, N., Wissenbach, K., & Schrage, J. (2014). Investigation on reducing distortion by preheating during manufacture of aluminum components using selective laser melting. *Journal of Laser Applications*, *26*(1), 012004. https://doi.org/10.2351/1.4828755

3. DebRoy, T., Wei, H. L., Zuback, J. S., Mukherjee, T., Elmer, J. W., Milewski, J. O., Beese, A. M., Wilson-Heid, A., De, A., & Zhang, W. (2018). Additive manufacturing of metallic components – Process, structure and properties. *Progress in Materials Science*, *92*, 112–224. https://doi.org/10.1016/j.pmatsci.2017.10.001

4. Doğdu, N. (2026). Experimental and simulation-based assessment of dimensional accuracy and thermomechanical properties of AlSi10Mg cubes produced by LPBF. *Materials & Design*, *261*, 115351. https://doi.org/10.1016/j.matdes.2025.115351

5. Malý, M., Höller, C., Skalon, M., Meier, B., Koutný, D., Pichler, R., Sommitsch, C., & Paloušek, D. (2019). Effect of process parameters and high-temperature preheating on residual stress and relative density of Ti6Al4V processed by selective laser melting. *Materials*, *12*(6), 930. https://doi.org/10.3390/ma12060930

6. Mercelis, P., & Kruth, J.-P. (2006). Residual stresses in selective laser sintering and selective laser melting. *Rapid Prototyping Journal*, *12*(5), 254–265. https://doi.org/10.1108/13552540610707013

7. Motibane, L. P., Tshabalala, L. C., Mathe, N. R., Hoosain, S., & Knutsen, R. D. (2019). Effect of powder bed preheating on distortion and mechanical properties in high speed selective laser melting. *IOP Conference Series: Materials Science and Engineering*, 012026.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA O‘QUVCHILARNING INDIVIDUAL IMKONIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Ramazanova Shoira Xolmuratovna
Qumqo‘rg‘on tumani 34-maktab boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olish, topshiriqlarni murakkablik darajasiga ko‘ra differensiallashtirish va pedagogik qo‘llab-quvvatlash masalalari tahlil qilinadi. Insonparvar yondashuv asosida har bir bolaning o‘zlashtirish sur’ati, qiziqishi va ehtiyojiga mos ta’limiy sharoit yaratishning didaktik imkoniyatlari yoritiladi. Differensial yondashuvning ta’lim sifati va o‘quvchi faolligiga ta’siri nazariy jihatdan asoslanadi.*

Kalit so‘zlar*: differensial ta’lim, individuallik, ta’lim sifati, topshiriq, pedagogik qo‘llab-quvvatlash, boshlang‘ich ta’lim*

Abstract. *The article analyzes differentiated instruction in primary education with particular attention to pupils’ individual capabilities, task complexity and pedagogical support. It discusses how a humanistic approach can create learning conditions that correspond to children’s learning pace, interests and educational needs. The paper theoretically substantiates the potential of differentiated instruction for improving educational quality and learner engagement.*

Keywords*: differentiated instruction, individuality, quality, tasks, support, primary education*

Аннотация. *В статье рассматриваются вопросы дифференцированного обучения в начальной школе с учётом индивидуальных возможностей учащихся, уровня сложности заданий и педагогической поддержки. Освещаются дидактические возможности создания гуманистической образовательной среды, соответствующей темпу обучения, интересам и потребностям каждого ребёнка. Теоретически обосновывается влияние дифференцированного подхода на качество образования и активность учащихся.*

Ключевые слова*: дифференцированное обучение, индивидуальность, качество, задания, поддержка, начальное образование*

KIRISH

Zamonaviy boshlang‘ich ta’limda o‘quvchi shaxsini qo‘llab-quvvatlash, uning ijtimoiy va pedagogik imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish ta’lim sifatining muhim shartlaridan biridir. differentiated instruction masalasi aynan shu vazifa bilan bog‘liq bo‘lib, o‘quvchining darsdagi faol ishtiroki, mustaqilligi va tengdoshlari bilan munosabatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Insonparvar yondashuvda o‘qituvchi o‘quvchini faqat bilimni o‘zlashtiruvchi subyekt sifatida emas, balki o‘z tajribasi, ehtiyoji va fikriga ega shaxs sifatida ko‘radi. Shu sababli mazkur yo‘nalishdagi pedagogik vositalarni tanlashda o‘quvchining yoshi, individual xususiyatlari va real ta’lim ehtiyojlarini hisobga olish zarur.

ASOSIY QISM

Boshlang‘ich ta’limda sinf tarkibining xilma-xilligi o‘qituvchidan bir xil topshiriqni barcha o‘quvchilarga bir xil tarzda taqdim etishdan ko‘ra, o‘quvchilarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta’limni tashkil etishni talab qiladi. Differensial yondashuvning asosiy g‘oyasi o‘quvchini boshqalardan ajratish emas, balki umumiy ta’lim maqsadiga turli yo‘llar orqali erishish imkonini yaratishdan iborat. Bunda bolaning mavjud bilimlari, o‘zlashtirish sur’ati, qiziqishi va mustaqil ishlash darajasi pedagogik qarorlarning muhim omiliga aylanadi.

R.A. Mavlonova va hamkorlarining boshlang‘ich ta’lim metodikasiga oid qarashlarida o‘quv faoliyatini tashkil etishda bolaning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish muhimligi ta’kidlanadi. Shu nuqtayi nazardan, differensial topshiriqlar o‘quvchilarning imkoniyatlarini namoyon etishiga xizmat qiluvchi metodik vosita sifatida qaralishi mumkin. Masalan, bir xil mavzu doirasida reproduktiv, qisman izlanishli va ijodiy topshiriqlarni ketma-ket yoki parallel taklif qilish mumkin.

Tomlinson differensial ta’limni mazmun, jarayon, mahsulot va o‘quv muhitini o‘quvchi ehtiyojlariga moslashtirish bilan bog‘laydi. Boshlang‘ich sinfda ushbu tamoyil oddiy va amaliy shaklda qo‘llanishi mumkin: ayrim o‘quvchilarga tayanch so‘zlar berilsa, boshqalarga mustaqil reja tuzish, yana boshqalarga ijodiy yakun yaratish topshiriladi. Muhimi, topshiriqlarning tashqi shakli emas, o‘quv maqsadining umumiyligi saqlanadi.

Shuningdek, differensial yondashuv baholash jarayonida ham namoyon bo‘ladi. O‘quvchining faqat yakuniy natijasini emas, uning harakatini, xatosini anglashini va keyingi qadamini aniqlashini hisobga olish insonparvar pedagogikaning muhim talabidir. O‘qituvchi qisqa individual fikr-mulohaza

orqali o‘quvchiga nimani yaxshi bajarganini va nimani takomillashtirishi kerakligini ko‘rsatadi.

Boshlang‘ich ta’limda differensial yondashuvning yana bir muhim jihati ijtimoiy muhitni asrashdir. O‘quvchilarni kuchli va kuchsiz guruhlarga qat’iy ajratish o‘rniga, moslashuvchan guruhlar, juftlikdagi ish va individual tanlovlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunday tashkil etish o‘quvchida o‘ziga ishonch, boshqalarning fikrini hurmat qilish va o‘z imkoniyatlarini bosqichma-bosqich kengaytirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

XULOSA

Differensial yondashuv boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishda insonparvar pedagogik tamoyillarni amaliyotga tatbiq etishning samarali yo‘llaridan biridir. U o‘quvchilarning individual farqlarini kamchilik sifatida emas, ta’limni loyihalashda hisobga olinadigan tabiiy xususiyat sifatida ko‘rishga imkon beradi. Mazkur yondashuvni topshiriqlarni moslashtirish, moslashuvchan guruhlash, individual fikr-mulohaza va tanlov imkoniyatlari bilan uyg‘unlashtirish o‘quvchilarning faolligi hamda ta’lim natijalarini yaxshilashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mavlonova R.A., Abdullayeva B.S., Shirinov M.K., Rustamova M.M. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016.

2. Tomlinson C.A. The Differentiated Classroom: Responding to the Needs of All Learners. 2nd ed. – Alexandria: ASCD, 2014.

3. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978.

4. Hall T., Strangman N., Meyer A. Differentiated Instruction and Implications for UDL Implementation. – Wakefield: CAST, 2003.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA O‘QUVCHI SHAXSIGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIMNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Raxmanova Dilnoza Abduxalilovna
sariosiyo tumanidagi 50 – maktab
boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi.

Annotatsiya*.O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishning muhim shartlaridan biridir. Maqolada individual imkoniyatlarni hisobga olish, differensial topshiriqlar, mustaqil faoliyat va refleksiyaning pedagogik ahamiyati yoritiladi.*

Kalit so‘zlar*: boshlang‘ich ta’lim, insonparvar yondashuv, pedagogik salohiyat, ijtimoiy faollik, hamkorlik, ta’lim sifati.*

Abstract*. The article examines the pedagogical issue reflected in the title and its importance for improving the quality of primary education. Particular attention is paid to learner-centered interaction, cooperation, independent activity and the creation of a respectful educational environment. The study summarizes methodological approaches that can be applied in primary classrooms and emphasizes the role of the teacher, family and social environment in supporting pupils’ development.*

Keywords: *primary education, humanistic approach, pedagogical potential, social activity, cooperation, education quality.*

Аннотация*. В статье рассматривается педагогическая проблема, отражённая в названии, и её значение для повышения качества начального образования. Особое внимание уделяется личностно-ориентированному взаимодействию, сотрудничеству, самостоятельной деятельности учащихся и созданию уважительной образовательной среды. Обобщаются методические подходы, применимые в начальной школе, и подчёркивается роль учителя, семьи и социальной среды в поддержке развития учащихся.*

Ключевые слова*: начальное образование, гуманистический подход, педагогический потенциал, социальная активность, сотрудничество, качество образования.*

KIRISH

Boshlang‘ich ta’lim shaxsning bilim olishga munosabati, muloqot madaniyati, mustaqil fikrlashi va jamoada faol ishtirok etishi shakllanadigan

muhim bosqichdir. Shu sababli ta’lim sifatini faqat o‘quv natijalari bilan emas, balki o‘quvchining shaxsiy, ijtimoiy va amaliy kompetensiyalari bilan birgalikda baholash zarur. Mazkur masala insonparvarlik va pedagogik salohiyatni ta’lim jarayoniga samarali tatbiq etishni talab etadi.

R.A. Mavlonova va hammualliflar boshlang‘ich ta’lim metodikasida o‘quvchining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, faol ta’limni tashkil etish va tarbiyaviy ta’sirni izchil olib borish muhimligini ko‘rsatadilar [1]. K. Qosimova va hammualliflar esa o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, muloqoti va amaliy faoliyatini rivojlantirishga e’tibor qaratadilar [2].

ASOSIY QISM

Insonparvar pedagogika o‘quvchini ta’lim jarayonining faol subyekti sifatida ko‘rishga asoslanadi. Bunda o‘qituvchi tayyor bilimni beruvchi emas, balki o‘quvchining fikrini tinglovchi, tashabbusini qo‘llab-quvvatlovchi va rivojlanishiga yo‘naltiruvchi pedagog sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday muhit o‘quvchining o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon etishiga yordam beradi.

Vigotskiyning ijtimoiy-madaniy ta’lim qarashlarida rivojlanishning muloqot va hamkorlik bilan bog‘liqligi asoslanadi [3]. Shu bois boshlang‘ich sinfda juftlik va guruhda ishlash, o‘zaro savol-javob, tengdoshiga yordam berish, umumiy qaror qabul qilish kabi faoliyatlar muhim pedagogik vosita hisoblanadi.

J. Dyui ta’limni hayotiy tajriba bilan bog‘lash va o‘quvchini faol faoliyatga jalb etish zarurligini ta’kidlagan [4]. Boshlang‘ich ta’limda kundalik hayotdagi vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar, kichik loyihalar va muammoli savollar o‘quvchilarning bilimini amaliy faoliyat bilan bog‘lash imkonini beradi.

Hamkorlikka asoslangan ta’lim o‘quvchining ijtimoiy faolligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Guruhdagi rollarni navbat bilan bajarish, o‘zaro yordam va umumiy natija uchun mas’uliyat o‘quvchilarda muloqot, mas’uliyat va hurmat kabi sifatlarni shakllantiradi. Johnson va Johnson hamkorlikdagi ta’limda ijobiy o‘zaro bog‘liqlik va individual mas’uliyat muhimligini ko‘rsatadilar [5].

O‘quvchining individual imkoniyatlarini hisobga olish insonparvar yondashuvning muhim shartidir. Differensial topshiriqlar, tanlash imkoniyati, turli shakldagi javoblar va rivojlantiruvchi fikr-mulohaza o‘quvchining ta’limdagi ishtirokini kuchaytiradi. Bunda pedagog o‘quvchilarning farqlarini kamchilik sifatida emas, ta’limni individuallashtirish uchun imkoniyat sifatida qabul qilishi lozim.

Ijtimoiy-iqtisodiy mazmundagi sodda topshiriqlar ham boshlang‘ich ta’limning hayotiyligini oshiradi. Tejamkorlik, vaqt va resurslardan oqilona foydalanish, xarid rejasini tuzish, umumiy mulkka ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish kabi faoliyatlar o‘quvchilarda mas’uliyat va amaliy kompetensiyalarni shakllantiradi.

Oila va maktab hamkorligi mazkur jarayonning uzviyligini ta’minlaydi. Ota-onalarni kichik loyihalar, suhbatlar, kuzatuvlar va amaliy topshiriqlarga jalb qilish orqali o‘quvchining maktabda egallagan ko‘nikmalarini kundalik hayotda qo‘llashi uchun sharoit yaratiladi. Bu esa ta’limning ijtimoiy yo‘nalishini kuchaytiradi.

O‘qituvchining pedagogik salohiyati ta’lim sifatining muhim omilidir. Pedagogning metodik bilimlari, kommunikativ madaniyati, raqamli va innovatsion vositalardan foydalanish ko‘nikmasi hamda o‘quvchi bilan insonparvar munosabat o‘rnata olishi ta’lim muhitining samaradorligini belgilaydi. Shuning uchun pedagogik salohiyatni doimiy rivojlantirish boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

XULOSA

Boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishda insonparvarlik, ijtimoiy-iqtisodiy mazmun va pedagogik salohiyatning uyg‘unligi muhim ahamiyatga ega. O‘quvchini faol subyekt sifatida e’tirof etish, uning fikrini tinglash, hamkorlikka jalb qilish, mustaqil faoliyat va ijtimoiy tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash ta’lim jarayonining tarbiyaviy va rivojlantiruvchi imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shuningdek, boshlang‘ich sinfda hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar, guruhli faoliyat, loyiha ishlari, oila bilan hamkorlik va rivojlantiruvchi baholashni izchil qo‘llash o‘quvchining ijtimoiy-pedagogik faolligini kuchaytiradi. Demak, insonparvar pedagogik muhitni yaratish nafaqat o‘quv natijalarini, balki o‘quvchining mas’uliyati, tashabbuskorligi va jamoadagi faol ishtirokini ham rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mavlonova R.A., Abdullayeva B.S., Shirinov M.K., Rustamova M.M. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016.

2. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009.

3. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.

4. Dewey J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938.

КООРДИНАЦИЯ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА ПРИ ПОДГОТОВКЕ УЧИТЕЛЕЙ ПРАКТИЧЕСКИХ ДИЦИПЛИН

М.З.Муртазаев,
доктор педагогических наук (DSc) ДЖГПУ,
Ш.Т.Исоқов,
учитель ДЖГПУ

Аннотация: *На работе названного "Оптимизация учебного плана при подготовке учителей практической дисциплины".*

В работе рассматрываетсия проблеме оптималь ного создание учебных планов для процесса при под готовки высококвалифицированной учителей практи ческой дисциплины

Ключевые слова: *Оптимизация учебного плана, подготовке учителей практической дисциплины, общее трудовые навыки, наукой и производства, высшее учебное заведение, модернизации процесса подготовки учителей трудового обучения.*

Среди дисциплин, формирующих общее трудовые навыки у подрастающего поколения, в частности у уча щихся 5–9 класса общеобразовательных школ, трудо вое обучение является исчерпывающим звеном между наукой и производством, что способствует правильно му выбору профессии в будущем.

Трудовое обучение включено в программу общеобразовательных школ наряду с естественными и прикладными дисциплинами, т. к. в какой бы отрасли народного хозяйства выпускники не работали, знания по данной дисциплине для них будут определенным подспорьем.

В связи с этим высшее учебное заведение, гото вящееучителей трудового обучения, должно совер шенствоватьсяв целях повышения уровня выпус кников. Учитель трудового обучения должен знать методы обработки вышеуказанных материалов и обладать навыками их использования. Из этого сле дует, что вузы, подготавливающие учителей трудового обучения, должны привести учебные планы 4-летнего обучения бакалавриата в соответствие с требованиями средних общеобразовательных школ.

Для модернизации процесса подготовки учи телей трудового обучения должны быть выполнены основные задачи, охватывающие

процесс подготовки. Для выполнения выделенных задач, в учебные планы должны быть внесены изменения, соответствующие современным требованиям, и позволяющие поднять уровень подготовки учителей трудового обучения.

Научный анализ действующих учебных планов по подготовке учителей трудового обучения подт верждает, что они уже устарели, так как основаны на старых методах и критериях. Соответственно, по ним уже невозможно в течение 4-хлет подготовить высококвалифицированных учителей .(1).

В соответствии с этим, учебные планы для 4-годичного бакалавра по трудовому обучению должны быть пересмотрены в соответствии с требованиями средних школ. Необходимо учитывать и тот факт, что учитель трудового обучения — это творческая личность, мастер практического, творческого труда. Нужно пересмотреть в учебных планах соответствие основных и вспомогательных дисциплин.

Для полного выполнения вышеуказанных усло вий, необходимо занести в учебные планы по подго товке учителейтрудового обучения дополнительные дисциплины, изменить их содержание согласно современным требованиям, которые позволяют дать обучающему мастеру знания, навыки и высокое мастерство(2,3).

Всем известно, что основную часть учебных планов составляют дисциплины трудового обучения и вспомогательные дисциплины. Для обобщения вышеизложенного мнения, по вопросу разработки учебных планов по подготовке учителей трудового обучения мы могли бы рекомендовать следующее:

— вместо дисциплины «Материаловедение и техноло-гия конструкционных материалов» поставить дисцип-лини «Составные основы материалов и пищевых изделий», содержащую сведения о пищевой продукции, материалах, почвах, тканях, древесине, пластмассе и металлах.

— дисциплину «Обработка материалов резанием, инструменты и станки» заменить на «Основы обработки пищевых продукты и материалов». Также целесообразно было бы ввести дисциплину «Экономика и управление сервиса и производства».

В учебной план можно также ввести и такие дисциплины, которые способствуют профессиональ ной подготовленности будущих учителей трудового обучения.

В целях улучшения учебно-воспитательного процесса необходимо дополнить учебные программы специальных дисциплин материалами по применению современных инновационных технологий, новыми методами и формами проведения занятий.

Для оптимизации процесса подготовки будущих учителей трудового обучения, нужно разработать специальную методику, обеспечивающую получение, определение и обоснование таких качественных и количественных показателей, как содержание и объем учебного материала, время и интенсивность изложе ния, продолжительность и последовательность изложе ния и т. д.

Используя математический аппарат и инфор мационные методы переработки большого объёма изложенного материала, можно получить выборку критериев, учитывающую динамику усвоения мате риала «сильными» и «слабыми» обучающимися.

В процессе составления целевого учебного плана, надо

учитывать все детали — содержание дисциплины, ее связи с другими дисциплинами, время проведения, срок проведения, объём учебного материала, учебное календарное время, минимальная продолжительность учебных занятий, действительный расход учебного времени и другие стороны, касающиеся информа ционного обмена профессионального обучения.

Создание целевого плана предусматривает обеспечениесвязи между временем для каждого занятия и оптимальной последовательностью учебного материала. Для определения и выбора оптимальных показателей профессиональной подготовки высококва лифицированных учителей трудового обучения необхо димо определить количественные и качественные дозы объёма учебного материала. Итак, для профессиональ ной подготовки нами разработаны методы получения показателей объема учебного времени и объемной дозы учебного материала и это даёт нам ключ для создания целевого плана, предусматривающего обеспе чение связи между временем каждого занятия и опти мальной последовательностью учебного материала.

Выпускники высших учебных заведений, будучи в дальнейшем учителями трудового обучения, также могут в процессе своей деятельности столкнуться с проблемами формирования у молодого поколения навыков и квалификаций социального, экономии ческого, экологического и предпринимательского характера.

Это значит, что кроме профессиональной подготовки, нужно также формировать соответству ющие навыки, требующиеся в условиях развития современных передовых технологий, касающихся деятельности по формированию социальных, эконо мических, экологических, предпринимательских, способностей у будущих специалистов.

Однако разрешение поставленных задач — дело сложное, поскольку современное состояние процесса подготовки учителей трудового обучения не соответствует требованиям сегодняшнего дня и, в частности, современным требованиям интенсивности развития общества, которое требует повышения опыта, навыков и квалификации учителей трудового обучения. Для этого придется найти оптимальное решение проблемы. Каким путем формировать навыки и квалификации у обучаемых? В качестве решения может выступить ввод в учебные планы дисциплин, охватывающих необходимые компетенции. Однако в этом случае увеличится объем учебного плана, ограниченный сроком подготовки учителей трудового обучения.

Поэтому во время рассмотрения организацион ной методологии процесса подготовки сначала выбирается обобщенной критерий, охватывающий все принципы подготовки полноценного учителя трудо вого обучения. На этой основе разрабатываются осталь ные критерии системы. В рамках основного обобщен ного критерия оптимизации процесса подготовки нужно разработать усовершенствованные учебные программы, осваиваемые в течение всего учебного процесса. Для осуществления процесса формирования придётся выполнить важную работу, разработать блоки дисциплин учебных планов, которые считаются главным регулятором учебного процесса, ввести материалы и дисциплины, учитывающие навыки и квалификации, необходимые для полноценной подго товки современного специалиста. При выполнении всех условий, дисциплины можно распределить оптимально, на основе анализа.

В процессе работы должны учитываться сроки подготовки будущих учителей трудового обучения. Осуществление вышеуказанной задачи не должно спро воцировать изменение всех этапов сроков подготовки, а также не должно мешать усвоению социального и профессионального аспектов подготовки, считающих ся основой процесса.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Муртазаев М. З., Юсупов К. Системный подход к определению практической значимости учебной дис циплины. «Образование через всю

жизнь: непрерывное образование для устойчивого развития». Материалы VI Международной конференции. г. Минск, 2–3 октября 2008 г. — 130 с.

2. Муртозаев М. З. О сегодняшнем состоянии учебных планов подготовки учителей трудового обу чения: проблемы и решения // IV Международная науч но-практическая конференция «Наука и практика: проб лемы, идеи, инновации». Сборник материалов. Кон ференция Камской государственной инженерно-эконо мической академии, г. Чистополь. 2009. 269–270 с.

3. Беспалько В. П. Как улучшить подготовку учителей труда. Школа и производство. № 11. — 1991.

BADIIY TA'LIMDA TALABALAR MUSTAQIL FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI

Nishonova Sayyora Djurabayevna
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti, "Libos dizayni" kafedrasi katta o'qituvchisi
E-mail: snishanova1967@mail.ru

Annotatsiya. *Maqolada badiiy ta'limda talabalarning mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlar tahlil etiladi. Muammoli vaziyat, loyiha faoliyati, muqobil eskizlar ishlab chiqish, refleksiya va portfolio usullarining o'zaro bog'liqligi ochib beriladi. Libos dizayni bo'yicha bitiruv kolleksiyalari tahliliga oid ilmiy tadqiqot asosida g'oyani mustaqil tanlash, konsepsiyani asoslash hamda badiiy yechimni baholash mezonlari taklif etiladi. Tadqiqot nazariy-tahliliy xususiyatga ega bo'lib, amaliy tekshiruvning keyingi yo'nalishlari belgilanadi.*

Kalit so'zlar: *badiiy ta'lim, mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkur, libos dizayni, loyiha metodi, refleksiya, portfolio, konseptual yondashuv.*

Abstract. *The article analyzes methodological approaches to developing independent and creative thinking among art and design students. It discusses the interrelation of problem-based tasks, project work, alternative sketches, reflection, and portfolios. Drawing on published research on fashion design graduation collections, it proposes criteria for selecting ideas independently, substantiating a design concept, and evaluating an artistic solution. The study is theoretical and analytical; its proposed teaching model requires subsequent empirical evaluation.*

Keywords: *art education, independent thinking, creative thinking, fashion design, project-based learning, reflection, portfolio, conceptual approach.*

KIRISH

Zamonaviy oliy badiiy ta'limning vazifasi talabalarga tasviriy va texnik usullarni o'rgatish bilangina chegaralanmaydi. Bo'lajak mutaxassis badiiy muammoni mustaqil qo'ya olishi, ma'lumotlarni taqqoslashi, bir nechta yechimni ishlab chiqishi va o'z tanlovini dalillar bilan asoslay olishi zarur. Ayniqsa, libos dizaynida kompozitsiya, rang, material, siluet va badiiy

obrazning uyg‘unligi tayyor andozani takrorlash orqali emas, balki ongli ijodiy izlanish orqali yuzaga keladi.

Badiiy ta’lim jarayonida mustaqil fikrlash estetik idrok, ijodiy tasavvur, tanqidiy baholash va refleksiv yondashuv bilan bir butun holda shakllanadi. E. W. Eisner (2002) san’atning tafakkurni rivojlantirishdagi o‘rnini izohlar ekan, badiiy faoliyatning murakkab va bir xil javobga ega bo‘lmagan vaziyatlar bilan ishlash imkoniyatini alohida ko‘rsatadi. Shu jihatdan pedagogning vazifasi barcha talabalarga yagona yechimni belgilab berish emas, balki izlanish yo‘nalishini anglatish va asosli tanlov qilishga undashdan iborat.

Kasbiy ta’limning metodik asoslari haqidagi ishlarda o‘qituvchining pedagogik mahorati, o‘quv topshirig‘ini to‘g‘ri tashkil etishi va talaba faoliyatini qo‘llab-quvvatlashi muhimligi yoritilgan (Muslimov et al., 2010; Muslimov et al., 2011). Mazkur maqolaning maqsadi shu yondashuvlarni badiiy ta’lim, xususan, libos dizayni amaliyoti bilan bog‘lab, mustaqil fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan o‘quv bosqichlari va baholash mezonlarini tizimlashtirishdir.

Materiallar va metodlar

Tadqiqot nazariy-tahliliy yo‘nalishda olib borildi. Manba sifatida badiiy tafakkur va pedagogik mahorat haqidagi ilmiy adabiyotlar, libos dizaynida kasbiy-ijodiy fanlarni o‘qitishga oid avvalgi ishlanmalar (Nishanova, 2022, 2023, 2024), shuningdek, bitiruv kolleksiyalarining konseptual xususiyatlarini o‘rgangan nashr (Umarova, 2026) tanlandi. Tahlil, taqqoslash, umumlashtirish va pedagogik modellashtirish usullaridan foydalanildi. Maqolada keltirilgan loyiha misollari yangi tajriba-sinov natijasi emas, balki e’lon qilingan tadqiqotlarni metodik jihatdan talqin qilishdir.

Mustaqil fikrlashni aniqlashtirish uchun besh tarkibiy ko‘rsatkich ajratildi: muammoni tahlil qilish, yangi g‘oya ishlab chiqish, muqobil yechimlarni solishtirish, qarorni badiiy va amaliy jihatdan asoslash, bajarilgan ishga tanqidiy munosabat bildirish. Ushbu ko‘rsatkichlar talaba tomonidan yaratilgan yakuniy mahsulot bilan birga ijodiy jarayonni ham baholash zarurligini anglatadi.

Natijalar

Nazariy tahlil asosida badiiy ta’limda mustaqil fikrlashni rivojlantirishning o‘zaro bog‘langan besh bosqichi taklif qilinadi. Birinchi bosqich — muammoni anglash va ilhom manbaini tanlash. Talaba mavzuga tegishli vizual, tarixiy yoki ijtimoiy materiallarni yig‘adi va nima sababdan aynan shu manbaga murojaat qilganini tushuntiradi. Bu jarayonda tayyor referensni ko‘chirib olish emas, manbaning asosiy g‘oyasini ajratish muhimdir.

Ikkinchi bosqich — ijodiy variantlarni ishlab chiqish. Masalan, libos loyihasida bitta ilhom manbai asosida siluet, rang yoki faktura yechimlarining turli eskizlari yaratilib, ular o‘zaro taqqoslanadi. Uchinchi bosqich — tanlovni asoslash: talaba o‘z konsepsiyasi, maqsadli auditoriyasi, estetik ifoda vositalari va material tanlovining sabablarini izohlaydi. To‘rtinchi bosqich — yechimni amalda sinash: maket, material namunalari yoki model prototipi orqali g‘oyaning shakl va funksiyaga mosligi tekshiriladi. Beshinchi bosqich — refleksiya: loyiha davomida yuzaga kelgan muammolar va qabul qilingan qarorlar portfolio orqali qayd etiladi.

Mazkur bosqichlarni baholashda quyidagi mezonlar maqsadga muvofiq: ilhom manbaini tahlil qilish chuqurligi; mustaqil ishlab chiqilgan variantlar xilma-xilligi; konsepsiya va badiiy obraz uyg‘unligi; tanlangan material va kompozitsion vositalarning asoslanganligi; loyiha jarayoniga berilgan tanqidiy baho. Bu mezonlar o‘qituvchiga tayyor ishning tashqi ko‘rinishidan tashqari, talabaning fikrlash mantiqini ham kuzatish imkonini beradi. Taklif etilgan mezonlar tajriba orqali tekshirishni talab qiladi.

Muhokama

Umarova (2026) tomonidan Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutining 2022–2023 hamda 2023–2024 o‘quv yillariga oid bitiruv kolleksiyalari tahlil qilingan. Tadqiqotda to‘plamlarning mavzusi, konsepsiyasi, uslubi va dizayn DNKsi o‘rtasidagi bog‘liqlik yoritilgan. Muallif ko‘rib chiqqan axromatik rang kombinatsiyalariga asoslangan kolleksiya va art-xaus yo‘nalishidagi ijodiy loyiha misollari talaba ishida nazariy g‘oya, estetik tanlov va texnik yechimni birlashtirish naqadar muhimligini namoyish etadi. Ushbu kuzatishlar mustaqil fikrlashni aynan loyihalash bosqichlarida rivojlantirish zarurligi haqidagi metodik mulohazalarni qo‘llab-quvvatlaydi.

Xususan, Umarova (2026) tahlil qilgan loyihalarda ilhom manbai bilan yakuniy badiiy ifoda o‘rtasidagi aloqa kolleksiya konsepsiyasi orqali shakllangan. Bunday tajribani o‘quv mashg‘ulotida qo‘llash uchun talabalardan faqat yakuniy eskizni emas, balki boshlang‘ich g‘oyalar, rad etilgan variantlar va tanlov sabablari aks etgan jarayon portfolioni ham taqdim etish so‘ralishi mumkin. Bu — mazkur maqolada ilgari surilayotgan metodik taklif bo‘lib, avvalgi tadqiqot natijalarini avtomatik ravishda pedagogik samaradorlikning tajribaviy isboti sifatida talqin qilish to‘g‘ri bo‘lmaydi.

Mustaqil fikrlash ijodiy erkinlikni o‘qituvchining metodik yo‘naltirishi bilan muvozanatlashni talab etadi. Vazifa haddan ortiq qat’iy berilsa, talaba tayyor yechimni takrorlaydi; maqsad va mezonlar umuman belgilanmasa, izlanish tartibsiz tus olishi mumkin. Shuning uchun muammoli savollar, guruh

muhokamasi, individual konsultatsiya, oraliq taqdimot va refleksiv kundalikni yagona loyiha jarayoniga kiritish tavsiya etiladi. Bunday tashkil etish yondashuvi kasbiy-ijodiy fanlarni o‘qitish samaradorligiga oid avvalgi metodik masalalar bilan ham uyg‘unlashadi (Nishanova, 2023, 2024).

XULOSA

Badiiy ta’limda mustaqil fikrlashni rivojlantirish talabaning topshiriqni texnik jihatdan bajarishidan ko‘ra kengroq mazmunga ega. U badiiy muammoni tahlil qilish, muqobil variantlar yaratish, tanlovni asoslash va o‘z ijodiy faoliyatini baholash ko‘nikmalarini qamrab oladi. Muammoli ta’lim, loyiha usuli va portfolio vositalarini ketma-ket qo‘llash bu ko‘nikmalarni o‘quv jarayonining barcha bosqichlariga bog‘lash imkonini beradi.

Libos dizayni bitiruv kolleksiyalarini o‘rganishga oid tadqiqot (Umarova, 2026) konseptual fikrlash va badiiy-texnik qarorlarning o‘zaro aloqasini ko‘rsatadi. Shu asosda ilhom manbai tahlili, muqobil eskizlar, konsepsiya himoyasi, prototiplash va refleksiv portfolioni birlashtiruvchi metodik model taklif etildi. Uning samaradorligini aniqlash uchun kelgusida talabalar ishlari dinamikasini kuzatish va aniq baholash mezonlari asosida tajriba-sinov tadqiqotlarini o‘tkazish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Eisner, E. W. (2002). The arts and the creation of mind. Yale University Press.

2.Muslimov, N. A., Abdullayeva, Q. M., & Mirsoliyeva, M. (2011). Pedagogik mahorat fanidan o‘quv-metodik majmua. Fan texnologiyalari.

3.Muslimov, N. A., Tolipova, J. O., Sharipov, Sh. S., & Isyanov, R. G. (2010). Kasbiy malaka va pedagogik mahorat yo‘nalishi bo‘yicha oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilar malakasini oshirishni tashkil etish. Taraqqiyot IICH.

4.Nishanova, S. D. (2022). Hozirgi davrda dizaynerlik kasbini egallash jarayonida talabalarni shakllantirish modeliga qaratilgan tadqiqotlar: “Meta-mavzu” mashg‘ulotlari asosida. Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences.

5.Nishanova, S. D. (2023). Libos dizayni sohasida kasbiy (ijodiy) fanlarni o‘qitishda samaradorlikka erishish masalalari. O‘zMU xabarlari, 1(6).

6.Nishanova, S. D. (2024). Libos dizayni sohasi ta’limida kostyum va aksessuarlar loyihalashning ustuvor aspektlari. Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences.

7.Umarova, Z. S. (2026). The specific characteristics of improving the education of design disciplines. European Journal of Arts, (1), 3–7. https://doi.org/10.29013/EJA-26-1-3-7

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA IJTIMOIY-IQTISODIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Sabirova Sarvinoz Anvar qizi
Termez shahar 11-maktab boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Maqolada boshlang‘ich ta’limda ijtimoiy-iqtisodiy kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tejamkorlik, mas’uliyat, resurslardan oqilona foydalanish, hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar va oilaviy hamkorlikning ahamiyati yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, insonparvar yondashuv, pedagogik salohiyat, ijtimoiy faollik, hamkorlik, ta’lim sifati.*

Abstract. *The article examines the pedagogical issue reflected in the title and its importance for improving the quality of primary education. Particular attention is paid to learner-centered interaction, cooperation, independent activity and the creation of a respectful educational environment. The study summarizes methodological approaches that can be applied in primary classrooms and emphasizes the role of the teacher, family and social environment in supporting pupils’ development.*

Keywords: *primary education, humanistic approach, pedagogical potential, social activity, cooperation, education quality.*

Аннотация. *В статье рассматривается педагогическая проблема, отражённая в названии, и её значение для повышения качества начального образования. Особое внимание уделяется личностно-ориентированному взаимодействию, сотрудничеству, самостоятельной деятельности учащихся и созданию уважительной образовательной среды. Обобщаются методические подходы, применимые в начальной школе, и подчёркивается роль учителя, семьи и социальной среды в поддержке развития учащихся.*

Ключевые слова: *начальное образование, гуманистический подход, педагогический потенциал, социальная активность, сотрудничество, качество образования.*

KIRISH

Boshlang‘ich ta’lim shaxsning bilim olishga munosabati, muloqot madaniyati, mustaqil fikrlashi va jamoada faol ishtirok etishi shakllanadigan muhim bosqichdir. Shu sababli ta’lim sifatini faqat o‘quv natijalari bilan emas, balki o‘quvchining shaxsiy, ijtimoiy va amaliy kompetensiyalari bilan birgalikda baholash zarur. Mazkur masala insonparvarlik va pedagogik salohiyatni ta’lim jarayoniga samarali tatbiq etishni talab etadi.

R.A. Mavlonova va hammualliflar boshlang‘ich ta’lim metodikasida o‘quvchining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, faol ta’limni tashkil etish va tarbiyaviy ta’sirni izchil olib borish muhimligini ko‘rsatadilar [1]. K. Qosimova va hammualliflar esa o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, muloqoti va amaliy faoliyatini rivojlantirishga e’tibor qaratadilar [2].

ASOSIY QISM

Insonparvar pedagogika o‘quvchini ta’lim jarayonining faol subyekti sifatida ko‘rishga asoslanadi. Bunda o‘qituvchi tayyor bilimni beruvchi emas, balki o‘quvchining fikrini tinglovchi, tashabbusini qo‘llab-quvvatlovchi va rivojlanishiga yo‘naltiruvchi pedagog sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday muhit o‘quvchining o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon etishiga yordam beradi.

Vigotskiyning ijtimoiy-madaniy ta’lim qarashlarida rivojlanishning muloqot va hamkorlik bilan bog‘liqligi asoslanadi [3]. Shu bois boshlang‘ich sinfda juftlik va guruhda ishlash, o‘zaro savol-javob, tengdoshiga yordam berish, umumiy qaror qabul qilish kabi faoliyatlar muhim pedagogik vosita hisoblanadi.

J. Dyui ta’limni hayotiy tajriba bilan bog‘lash va o‘quvchini faol faoliyatga jalb etish zarurligini ta’kidlagan [4]. Boshlang‘ich ta’limda kundalik hayotdagi vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar, kichik loyihalar va muammoli savollar o‘quvchilarning bilimini amaliy faoliyat bilan bog‘lash imkonini beradi.

Hamkorlikka asoslangan ta’lim o‘quvchining ijtimoiy faolligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Guruhdagi rollarni navbat bilan bajarish, o‘zaro yordam va umumiy natija uchun mas’uliyat o‘quvchilarda muloqot, mas’uliyat va hurmat kabi sifatlarni shakllantiradi. Johnson va Johnson hamkorlikdagi ta’limda ijobiy o‘zaro bog‘liqlik va individual mas’uliyat muhimligini ko‘rsatadilar [5].

O‘quvchining individual imkoniyatlarini hisobga olish insonparvar yondashuvning muhim shartidir. Differensial topshiriqlar, tanlash imkoniyati, turli shakldagi javoblar va rivojlantiruvchi fikr-mulohaza o‘quvchining ta’limdagi ishtirokini kuchaytiradi. Bunda pedagog o‘quvchilarning farqlarini

kamchilik sifatida emas, ta’limni individuallashtirish uchun imkoniyat sifatida qabul qilishi lozim.

Ijtimoiy-iqtisodiy mazmundagi sodda topshiriqlar ham boshlang‘ich ta’limning hayotiyligini oshiradi. Tejamkorlik, vaqt va resurslardan oqilona foydalanish, xarid rejasini tuzish, umumiy mulkka ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish kabi faoliyatlar o‘quvchilarda mas’uliyat va amaliy kompetensiyalarni shakllantiradi.

Oila va maktab hamkorligi mazkur jarayonning uzviyligini ta’minlaydi. Ota-onalarni kichik loyihalar, suhbatlar, kuzatuvlar va amaliy topshiriqlarga jalb qilish orqali o‘quvchining maktabda egallagan ko‘nikmalarini kundalik hayotda qo‘llashi uchun sharoit yaratiladi. Bu esa ta’limning ijtimoiy yo‘nalishini kuchaytiradi.

O‘qituvchining pedagogik salohiyati ta’lim sifatining muhim omilidir. Pedagogning metodik bilimlari, kommunikativ madaniyati, raqamli va innovatsion vositalardan foydalanish ko‘nikmasi hamda o‘quvchi bilan insonparvar munosabat o‘rnata olishi ta’lim muhitining samaradorligini belgilaydi. Shuning uchun pedagogik salohiyatni doimiy rivojlantirish boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

XULOSA

Boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishda insonparvarlik, ijtimoiy-iqtisodiy mazmun va pedagogik salohiyatning uyg‘unligi muhim ahamiyatga ega. O‘quvchini faol subyekt sifatida e’tirof etish, uning fikrini tinglash, hamkorlikka jalb qilish, mustaqil faoliyat va ijtimoiy tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash ta’lim jarayonining tarbiyaviy va rivojlantiruvchi imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shuningdek, boshlang‘ich sinfda hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar, guruhli faoliyat, loyiha ishlari, oila bilan hamkorlik va rivojlantiruvchi baholashni izchil qo‘llash o‘quvchining ijtimoiy-pedagogik faolligini kuchaytiradi. Demak, insonparvar pedagogik muhitni yaratish nafaqat o‘quv natijalarini, balki o‘quvchining mas’uliyati, tashabbuskorligi va jamoadagi faol ishtirokini ham rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mavlonova R.A., Abdullayeva B.S., Shirinov M.K., Rustamova M.M. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016.

2. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009.

3. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.

4. Dewey J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUV JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING METODIK ASOSLARI

Sadatov Jasur Sayfulloqulovich
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti , Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi
3- bosqich 102BTs -guruh talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqola boshlang‘ich sinflarda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o‘quv jarayonini tashkil etish usullari va shakllari to‘g‘risidagi umumiy xulosalarga bag‘ishlangan. Sinfdan tashqari o‘qish darslarida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash usullari bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *pedagogik texnologiya, pedagogik ta’sir ko‘rsatish, rag‘batlantirmoq, bilim, hissiyot, xulq-atvor, psixologik xususiyatlar, innovatsion texnologiyalar, kitobxonlik, pedagogik o‘yinlar.*

Abstract*: This article is devoted to general conclusions about modern pedagogical technologies, methods and forms of organizing the educational process in elementary school. In extracurricular activities, the use of innovative technologies is provided.*

Keywords: *pedagogical technology, pedagogical influence, motivation, cognition, emotion, behavior, psychological features, innovative technologies, reading, pedagogical games, pedagogical technologies.*

Аннотация: *Данная статья посвящена общим выводам о современных педагогических технологиях, методах и формах организации образовательного процесса в начальной школе. Во внеурочной деятельности предусмотрено использование инновационных технологий*

Ключевые слова: *педагогическая технология, педагогическое воздействие, мотивация, познание, эмоция, поведение, психологические особенности, инновационные технологии, чтение, педагогические игры, педагогические технологии.*

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining har bir darsni tashkil etish uchun turli didaktik o‘yinlardan foydalanishlari yaxshi samara beradi. Chunki 6-7 yoshli bolalar hayotida maktab davri ancha murakkab davr bo‘lib, bolalar oldida jiddiy sinov turadi. Bola yangi hayot – maktab hayotiga kirib boradi.

Endi u yangi jamoaning a’zosi ekanligini his etishga, intizomga bo‘ysunishga, yangi rejimga moslashishga majbur bo‘ladi. Bola yosh bo‘lishiga qaramay, endi uning maktabda o‘qish, uy vazifalarini bajarish, murakkab materiallarni o‘rganish kabi zarur yumushlari ko‘p. Muhimi, o‘yindan maktabga, kundalik majburiy va davomli mehnatga o‘tish bola hayotida tub burilishdir. Hatto, maktabgacha tarbiya muassasalaridan kelgan bolalar uchun ham bu oson kechmaydi. Uydan maktabga kelgan bolalarga esa yana ham qiyin. Ayniqsa, sinfda 40–45 daqiqali darsda o‘tirish, tinglash va topshiriqlarni bajarish, uzoq aqliy mehnat bolani tez toliqtiradi. Bola maktabdan, o‘qishdan sovib ketishi mumkin. Shuning uchun ham o‘qituvchilar bolalarning maktabdagi hayotini qiziqarli tashkil etishga intilishlari, motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga harakat qilishlari lozim. Motiv o‘z-o‘zidan hosil bo‘lmaydi. Uni bolalar yoshiga va psixologik xususiyatlariga mos didaktik o‘yinlar va mustaqil ishlar vositasida hosil qilish mumkin. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda darslarni qiziqarli olib borish natijasida o‘quvchilarni darsga jalb etish samarali bo‘ladi. Shunday darslarda bolalar diqqati to‘liq jalb etiladi, xotirasi yaxshi ishlaydi. Motivlar o‘quvchilaring bilimlarini chuqur egallashlariga yordam beradi. Shuning uchun ham boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ta’lim jarayonini qiziqarli motivlar asosida tashkil etishga e’tibor qaratishlari zarur. “Pedagogik texnologiya” tushunchasining vujudga kelishi, ta’limning ilk tashkiliy va metodik shakllarining vujudga kelishi bilan bog‘liq. Individual ta’lim o‘quv-tarbiya jarayonining eng qadimiy tashkiliy shakli bo‘lib, u dastavval qadimgi Yunonistonda paydo bo‘lgan edi. O‘qituvchi bir o‘quvchi bilan ishlab, ta’limni bevosita tashkil etgan, boshqargan, nazorat etgan. O‘qituvchi matnlarni o‘qib bergan yoki bolalariga o‘qitib so‘zlatgan. Qoida va ta’riflarni yodlash, jismoniy mashqlarni bajarish musiqa asboblarida u yoki bu kuyni ijro etish yo‘llari bilan bolalar hayot, san’at, notiqlik, jismoniy madaniyatga oid bilimlarni o‘zlashtirgan. Keyinchalik individual ta’lim o‘rnini guruhlar asosida o‘qitish egallagan. O‘rta asrlarga kelib qoidalarni yodlash, bir xil tipdagi mashqlarni bajarish, og‘zaki savol-javob, yuqori pog‘onalarda esa ma’ruza, munozara ta’limning yetakchi usullariga aylana boshlagan. Bu holat asta-sekin sinf-dars sistemasini keltirib chiqarib, yangi texnogiyalarni kelib chiqishiga zamin hozirlagan.

1. Pedagogik ta’sir ko‘rsatish. Pedagogika o‘z metodlarini yo‘q joydan yaratmaydi. U hayotdan kishilar xulq-atvorining real omillarini, bolalar hayotini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish vazifalariga javob beradiganlarini tanlab oladi, ulardan tarbiyaviy ishda pedagogik ta‘sir

ko‘rsatish usullari sifatida foydalanadi. Pedagogik ta‘sir ko‘rsatish metodikasi bolalarning ijtimoiy-foydali faoliyatini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda tashkil etishga xizmat qiladigan vositalar tizimidan iboratdir. Bu vazifalar tarbiyalanuvchi shaxsiga qaratilgan bo‘lib, bolalarning xulqatvorini rag‘batlantiradi, qiyin va murakkab vazifalarni quvonch, ijodiy zavq-shavq manbaiga, har bir o‘quvchining shaxsiy muddaosiga aylantiradi.

2. Pedagogik ta’sir ko‘rsatishning asosiy usullari. Pedagogik ta’sir ko‘rsatishning asosiy usullari – ishontirish, talab, istiqbol, rag‘batlantirish va jazolash, jamoatchilik fikridir. O‘zaro hamkorlikda ta‘sir ko‘rsatishning natijasi ishontirishdir. U haqiqiy va soxta turlarga bo‘linadi. Ishonch 3 tarkibiy qismdan iborat: 1. Bilim; 2. Hissiyot; 3. Xulq-atvor. U tushunish – kechinma – qabul qilish orqali amalga oshadi. Ishontirish shakllari quyidagilar: ma‘ruza, bahs, munozara, suhbat, hikoya qilish, dalillash, ko‘rsatish (namoyish qilish), shaxsiy namuna. Pedagogik talab – ta‘lim-tarbiya jarayonida ko‘p qo‘llaniladigan usullardan biri bo‘lib, u tarbiyachi va tarbiyalanuvchi orasidagi shaxsiy munosabatlarda namoyon bo‘ladi. Pedagogik ta‘sir ko‘rsatish usuli bo‘lgan talab bilan jamoani tashkil etish metodi sifatidagi yagona pedagogik talablarni farqlay bilish lozim. Agar yagona pedagogik talablar bolalarning ijtimoiy foydali faoliyatini rag‘batlantirish mazmunini, jamoani jipslashtirishda pedagoglar bilan bolalarning harakatlari birligiga erishish yo‘llarini ta‘minlasa, talab esa xulq-atvor va faoliyat normalarini, bolalarning xatti-harakatlari hamda ishlarida amalga oshirish usullaridan iboratdir. Istiqbol ta‘sir ko‘rsatishning juda ta‘sirchan usuli bo‘lib, u bolalarning xatti-harakatlarini ular oldiga maroqli, qiziqarli maqsadlar qo‘yish yo‘li bilan ta‘minlaydi, bu maqsadlar ularning shaxsiy intilishlari, qiziqish va muddaolariga aylanadi. Bu usul maktab o‘quvchilarida shaxsning eng muhum fazilatlaridan biri bo‘lgan maqsadga intiluvchanlikni shakllantirishga yordam beradi. Rag‘batlantirish va jazolash tarbiyaning eng an‘anaviy usuli bo‘lib, tarbiyalanuvchilar xulq-atvoriga tuzatish kiritishni, ya‘ni foydali xatti-harakatlarni qo‘shimcha rag‘batlantirishni va tarbiyalanuvchilarning nomaqbul xatti-harakatlarini to‘xtatishni ta‘minlaydi, bunda ularning huquq, burchlarini kengaytirish yoki cheklash, ularga axloqiy ta‘sir ko‘rsatish yo‘lidan foydalaniladi. Rag‘batlantirish va jazolash metodi o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lganligi sababli uni qo‘llashda juda ehtiyot bo‘lish lozim. Jamoatchilik fikri ta‘sir ko‘rsatishning qudratli usuli bo‘lib, tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy foydali faoliyatini har tomonlama va muntazam rag‘batlantirib borishni ta‘minlaydi, jamoaning tarbiyaviy vazifalarini ancha to‘liq amalga oshiradi. Pedagogik ta‘sir ko‘rsatish usullaridan samarali foydalanishning zarur sharti

pedagogikaning tarbiyalanuvchilarga bo‘lgan munosabatlarining chinakam insonparvarligidir. 3. Pedagogik ta‘sirning ta‘lim-tarbiyadagi o‘rni. Respublikamiz istiqlolga erishgan hozirgi davrda shaxsga chuqur, asosli va umumiy talablar qo‘iladi, lekin ikkinchi tomondan, shaxsga katta hurmat ko‘rsatiladi. Bu shaxsga bo‘lgan talablarni va unga bo‘lgan izzat-hurmatni birga qo‘shish – ikki xil zarur shart bo‘lib, pedagogning bolalarga bo‘lgan munosabatlarining chinakam insonparvarligidir. Boshlang‘ich ta‘lim. Konsepsiyasida boshlang‘ich ta‘limning maqsad va vazifalari aniq belgilab berilgan. Chunonchi, bolalarning ongi va tafakkurida mavjud bo‘lgan yashirin imkoniyatlarni aniqlash va rivojlantirish kichik maktab yoshidagi bolalarda ta‘limning dastlabki davridan boshlab yangi imkoniyatlarni, o‘quv materialini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishgagina emas, balki hayotiy muammolarni yechishga ham tayyorlaydi, o‘quvchilarda o‘rganish va ta‘lim jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Shu bois, boshlang‘ich ta‘lim sinfdan tashqari o‘qish darslarida – SWOT – tahlil metodi, – FSMU texnologiyasi, – Charxpalak, – Svetafor, – Qor parchalari – Tushunchalar tahlili kabi innovatsion texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarda mantiqiy fikrlashni o‘stiradi. Sinfdan tashqari o‘qish darslarida suhbat o‘qilgan kitobni muhokama qilishda ham, yangi kitob tavsiya qilishda ham qo‘llanadi; suhbat elementlari o‘qilgan asardan asosiy mazmunni ajratish uchun, voqealar izchilligini, bo‘lgan vaqti va o‘rnini, bog‘lanishini belgilashga yordam beradi. Suhbat uchun savol tuzishda o‘quvchilarning mustaqilligi, hayotdan, o‘qilgan boshqa kitoblardan qo‘shimcha javob berishi hisobga olinadi. Sinfdan tashqari o‘qish darslarida qiziqarli mashqlarga alohida o‘rin beriladi. Bunday darslarda adabiy viktorina (bir mavzu ustida savol-javob o‘yini), eng yaxshi insholar, illyustratsiyalar, topishmoq topish, konkurslar o‘tkazish, topishmoqlar albomini tuzish, tayyorgarliksiz jamoaviy yoki individual ravishda ertak to‘qib aytish, o‘quvchilar hayoti haqida, yozuvchilarning chuqur ma‘noli gap (hikmatli so‘z)lari va maqollar, latifalar aytish mumkin. Ba‘zan o‘qituvchilar bunday darslarda innovatsion texnologiyalaridan “Hazil minuti”, “5 sekund o‘ylash uchun”, “Topishmoqlarni top”, “Bilimdonlar klubi” kabi qiziqarli mashg‘ulotlarni doimo o‘tkazib turadilar. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, innovatsion texnologiyalarni dars jarayonida qo‘llash ta‘limning an‘anaviy tizimidan farqli ravishda innovatsion texnologiyalar asosida o‘qish darslarining har bir jarayonida o‘quvchining faolligiga asoslangan, mustaqil faoliyati, o‘zlashtirish qobiliyatini hisobga olgan holda, ta‘lim jarayoniga to‘liq jalb etilishi yotadi. Innovatsion pedagogik texnologiyalarga asoslangan darsning an‘anaviy darsdan farqi shuki, bu darsda o‘quvchiga erkinlik muhitini yaratib

berishida ko‘rinadi. Bu imkoniyat o‘quvchiga hech qanday tazyiq o‘tkazmasdan, uning shaxsiyatiga tegmasdan savollar berish orqali do‘stona munosabatdagi o‘quv muhitini yaratishidadir. O‘qitishning turli texnologiyalari pedagogik o‘yinlar, qiziqarli boshqotirmalar, rasmli ko‘rinishdagi rebuslar o‘quvchilarda o‘qish darslariga qiziqishlarini orttirish ko‘nikmasini shakllantiradi. O‘quvchilarda zamonaviy ta‘limni tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiya usullaridan foydalanishning mohiyati-mazmunini tushuntirish, ularda muayyan tasavvurlarni hosil qilishga erishish maqsadga muvofiqdir. Innovatsion pedagogik texnologiyada kutilgan natijaga erishish uchun faqat o‘qituvchi emas, o‘quvchilarning shaxsiy ehtiyojlari, talablari va xislatlariga asoslangan holda, ko‘zda tutilgan maqsad amalga oshirishi va natijali bo‘lishini rejalashni o‘qituvchi o‘z oldiga vazifa qilib qo‘yadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. R. Mavlonova, N. Raxmonqulova. Boshlang‘ich ta‘limninig integratsiyalashgan pedagogikasi. T., 2009-y.

2. Г.Э. Саидова Ситуация свободного выбора на уроках математики в начальных классах Вестник науки и образования,2019. – С. 35–37.

3. Н.Б. Сайфуллаева, Г.Э. Саидова Повышение эффективности занятий, используя интерактивные методы в начальном образовании Научный журнал, 2019. – С. 101–102.

4. Г.Э. Саидова, С.Ф. Санокулова Эффективность использования технологии дидактического игрового образования в начальных классах. European research, 2020. – С. 118–120.

5. Г.Э. Саидова Развитие логического мышления учащихся на уроках математики в начальной школе. International scientific review of the problems of philisophy, psychology. 2019.

6. R.Z. Samadovna, K.S. Narzullayevna, S.G. Ergashevna Technology for the development of logical thinking in students in primary schoolJournal of Critical Reviews 7 (6), 485–491.

7. Г.Э. Саидова Использование современных педагогических технологий на уроке математики Ученый XXI века 12, 47. 2018.

8. S.G. Ergashevna, S.S. Furqatovna Modern Forms of Mathematics in Primary Schools Middle European Scientific Bulletin 8. 2021.

9. G.E. Saidova, N.B. Sayfullayeva Modern teaching technologies in teaching mathematics in elementary grades European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences 7. 2019.

10. S.G. Ergashovna Development of creative thinking in mathematics lessons in primary grades Asian journal of multidimensional research 10 (5), 715–719. 2021.

11. Nigora, Adizova, and Adizova Nodira. “Alisher Navoiyning tibbiy qarashlari”. Conferences. 2021.

12. Bakhtiyorovna, Adizova Nigora, and Adizova Nodira Bakhtiyorovna. “The role of the fun genre in children's spiritual development”. Middle European Scientific Bulletin 4 (2020): 38-40

STEAM YONDASHUVI: MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR UCHUN

Meliboyev Anvar Rashidovich
p.f.n.,prof.
Jizzax davlat pedagogika universiteti, Maktabgacha ta'lim kafedrasi
meliboyevanvar131@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishda STEAM yondashuvining mazmuni, pedagogik imkoniyatlari va amaliy ahamiyati yoritilgan. STEAM ta'limining fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika yo'nalishlarini integratsiyalash asosida bolalarda ijodkorlik, mantiqiy fikrlash, muammolarni hal qilish va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida STEAM faoliyatini tashkil etish bosqichlari, pedagogik shart-sharoitlari va namunaviy mashg'ulot modeli taklif etilgan.*

Kalit so'zlar: *STEAM, maktabgacha ta'lim, integratsiya, ijodkorlik, tajriba, muhandislik, matematik tafakkur, innovatsion pedagogika.*

Abstract. *This article explores the content, pedagogical opportunities, and practical significance of the STEAM approach in early childhood education. It examines how integrating science, technology, engineering, arts, and mathematics can foster creativity, logical thinking, problem-solving, and collaboration among preschool children. The article also proposes stages for implementing STEAM activities, essential pedagogical conditions, and a model lesson suitable for preschool educational settings.*

Keywords: *STEAM, early childhood education, integration, creativity, experimentation, engineering, mathematical thinking, innovative pedagogy.*

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida bolalarning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi, muammoli vaziyatlarda maqbul yechim topishi va atrof-muhitni faol o'rganishiga yo'naltirilgan yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, maktabgacha yosh davri bolaning bilishga bo'lgan qiziqishi, dastlabki mantiqiy tasavvurlari, ijodiy qobiliyatlari va ijtimoiy munosabatlari shakllanadigan muhim bosqich hisoblanadi. Shu sababli maktabgacha ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish, bolalarning individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish hamda ularning

intellektual va ijodiy rivojlanishini ta’minlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Mazkur vazifalarning normativ-huquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi O‘RQ-595-sonli “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonunida o‘z ifodasini topgan. Qonunning 4-moddasida maktabgacha ta’lim va tarbiyaning asosiy prinsiplari, jumladan, har bir bolaning iste’dodi, qiziqishi va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun teng sharoitlar yaratish, bolaning shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuvni amalga oshirish hamda ta’lim-tarbiya mazmunini bolalarning yosh va rivojlanish xususiyatlariga muvofiq tashkil etish belgilangan. Ushbu prinsiplar maktabgacha ta’limda bolalarning mustaqil izlanishi, tajriba o‘tkazishi, ijodiy fikrlashi va amaliy faoliyat orqali bilimlarni o‘zlashtirishiga yo‘naltirilgan STEAM yondashuvini qo‘llash uchun muhim huquqiy-metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun sharoitlar yaratish, ta’lim tizimiga innovatsiyalar va ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan. Konsepsiyada maktabgacha yoshdagi bolalar uchun STEAM ta’limi asoslarini joriy etish masalasi ham nazarda tutilgan. Bu esa maktabgacha ta’lim tashkilotlarida fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika elementlarini o‘zaro integratsiyalashgan holda tashkil etishning dolzarbligini asoslaydi.

STEAM yondashuvi bolalarning tabiiy qiziquvchanligini qo‘llab-quvvatlash, turli hodisalarni kuzatish, savollar berish, oddiy tajribalar o‘tkazish, konstruktorlik faoliyati bilan shug‘ullanish va muammoli vaziyatlarga mustaqil yechim topish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ushbu yondashuvning maktabgacha ta’limdagi ahamiyati shundaki, bola bilimlarni faqat tayyor ma’lumotlarni o‘zlashtirish orqali emas, balki o‘yin, amaliy tajriba, ijodiy izlanish va o‘zaro hamkorlik vositasida egallaydi. Natijada unda dastlabki ilmiy tasavvurlar, mantiqiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot va hamkorlik ko‘nikmalari rivojlanadi.

Shu nuqtayi nazardan, maktabgacha ta’limda STEAM yondashuvini samarali tashkil etishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash, uni bolalarning yosh xususiyatlariga moslashtirish hamda ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish usullarini takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur

maqolaning maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishda STEAM yondashuvining mazmun-mohiyati, pedagogik imkoniyatlari va amaliy qo‘llash yo‘nalishlarini yoritishdan iborat.

Mazkur jarayonda STEAM yondashuvi alohida o‘rin tutadi. STEAM atamasi ingliz tilidagi Science (fan), Technology (texnologiya), Engineering (muhandislik), Arts (san’at) va Mathematics (matematika) tushunchalarining bosh harflaridan tashkil topgan. Ushbu yondashuv mazkur yo‘nalishlarni o‘zaro integratsiyalash orqali bolalarning nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llashiga imkon yaratadi.

Maktabgacha ta’limda STEAM yondashuvini qo‘llashning dolzarbligi shundaki, bola tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki kuzatish, savol berish, taxmin qilish, tajriba o‘tkazish va natijani baholash orqali bilimni faol egallovchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda o‘yin, tajriba, konstruktorlik va tasviriy faoliyat o‘zaro uyg‘unlashtiriladi.

ASOSIY QISM

STEAM yondashuvi alohida fanlarni mustaqil o‘rgatishdan ko‘ra, ularni hayotiy vaziyatlar va amaliy topshiriqlar asosida birlashtirishga yo‘naltiriladi. Masalan, bolalar qog‘oz va qurilish kublaridan ko‘prik yasash jarayonida materiallarning xususiyatlarini o‘rganadi, shakllarni taqqoslaydi, konstruksiyani rejalashtiradi va uning mustahkamligini tekshiradi (1-chizma).



Chizmadan ko‘rinadiki, STEAM yo‘nalishlari bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, yagona ta’limiy vazifani amalga oshirishga xizmat qiladi. Bunda san’at komponenti bolalarning estetik didi, tasavvuri va o‘z g‘oyalarini ifodalash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Boshqa komponentlar esa kuzatish, tahlil qilish, konstruksiyalash va matematik munosabatlarni anglash imkoniyatlarini kengaytiradi.

STEAM yondashuvining asosiy imkoniyati bolalarning tabiiy qiziquvchanligini ta’limiy faoliyatga yo‘naltirishdir. Bolalar suvning xususiyatlari, o‘simliklarning o‘sishi, jismlarning shakli, ranglar uyg‘unligi va oddiy mexanizmlarning ishlashini bevosita kuzatish orqali o‘rganadilar.

STEAM faoliyatining pedagogik imkoniyatlarini quyidagi yo‘nalishlarda ifodalash mumkin:

Bilish faoliyati: kuzatish, taqqoslash, sabab va oqibat munosabatlarini anglash.

Ijodiy rivojlanish: turli materiallardan yangi buyumlar yaratish, rasm chizish va modellashtirish.

Matematik rivojlanish: sanash, guruhlash, shakllarni farqlash, uzunlik va miqdorni taqqoslash.

Ijtimoiy rivojlanish: tengdoshlari bilan hamkorlik qilish, fikr almashish va umumiy qarorga kelish.

Nutqiy rivojlanish: o‘z kuzatuvlarini izohlash, savollarga javob berish va natijalarni bayon qilish.

Mustaqillik: muammoga yechim izlash, o‘z g‘oyasini sinash va natijani baholash.

Shu bilan birga, bunday faoliyatni tashkil etishda pedagogning metodik tayyorgarligi va mos o‘quv resurslari muhim o‘rin tutadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida STEAM mashg‘ulotlari bolalarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va individual imkoniyatlariga mos ravishda tashkil etilishi lozim. Mashg‘ulotda bolalarga yagona tayyor yechimni ko‘rsatishdan ko‘ra, turli usullarni sinash va o‘z xulosalarini chiqarish imkoniyatini berish maqsadga muvofiq (2-chizma).



2-chizma. STEAM mashg‘ulotini tashkil etish algoritmi

Mazkur algoritm asosida bolalar dastlab muammoli vaziyat bilan tanishadilar, keyin o‘z taxminlarini bildiradilar. Shundan so‘ng materiallarni tanlab, loyiha yaratadilar va uni sinab ko‘radilar. Agar natija kutilganidek bo‘lmasa, konstruksiyani o‘zgartirish yoki boshqa yechimni izlash tavsiya etiladi.

Pedagogning vazifasi faoliyatni xavfsiz tashkil etish, yo‘naltiruvchi savollar berish, bolalarning mustaqil qaror qabul qilishini qo‘llab-quvvatlash va jarayonni kuzatishdan iborat.

Maktabgacha ta’lim amaliyotida STEAM yondashuvini qo‘llash uchun “Mustahkam ko‘prik quramiz” loyihasini tashkil etish mumkin.

Mashg‘ulot maqsadi: bolalarda konstruksiyalash, matematik taqqoslash, tajriba o‘tkazish, ijodiy fikrlash va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Kerakli jihozlar: qurilish kublari, qalin qog‘oz, karton, yog‘och tayoqchalar, o‘yinchoq mashinalar va xavfsiz o‘lchov vositalari.

STEAM komponenti	Amaliy faoliyat
S - Fan	Materiallarning xususiyatlarini kuzatish, mustahkamlikni tekshirish
T - Texnologiya	Material va vositalardan maqsadli foydalanish
E - Muhandislik	Ko‘prik loyihasini tuzish va konstruksiyani qurish

A - San’at	Ko‘prikni bezash, rang va shakllarni uyg‘unlashtirish
M - Matematika	Uzunlikni taqqoslash, qismlarni sanash va natijalarni solishtirish

3-chizma. “Mustahkam ko‘prik quramiz” loyihasida STEAM integratsiyasi

Mashg‘ulotning borishi:

1. **Muammoli vaziyat.** Pedagog bolalarga o‘yinchoq mashina ariqdan o‘ta olmayotganini ko‘rsatib, “Mashina o‘tishi uchun qanday ko‘prik qurishimiz mumkin?” degan savolni beradi.

2. **Rejalashtirish.** Bolalar ko‘prikning shakli va materiallarini tanlaydilar, o‘z taxminlarini bildiradilar.

3. **Loyihalash.** Kichik guruhlar karton, kublar yoki tayoqchalardan ko‘prik yasaydilar.

4. **Sinov.** Ko‘prikdan o‘yinchoq mashina o‘tkazilib, konstruksiyaning barqarorligi kuzatiladi. Sinov xavfsiz sharoitda va pedagog nazoratida amalga oshiriladi.

5. **Takomillashtirish.** Ko‘prik qulab tushsa yoki mashinani ko‘tara olmasa, bolalar uning tuzilishini o‘zgartiradilar.

6. **Muhokama.** Har bir guruh o‘z loyihasini namoyish etib, qanday materiallardan foydalanganini va qanday natijaga erishganini tushuntiradi.

Ushbu faoliyatda asosiy e’tibor faqat tayyor mahsulotga emas, balki bolalarning fikrlash jarayoni, tajriba o‘tkazishi, hamkorligi va muammoga yechim topishiga qaratiladi.

STEAM faoliyatining samaradorligi pedagogning metodik tayyorgarligi, rivojlantiruvchi muhit, xavfsiz jihozlar va bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olish bilan belgilanadi.



4-chizma. STEAM yondashuvini samarali joriy etish modeli

STEAM faoliyatini tashkil etishda quyidagi tavsiyalar muhim:

✓ arzon, kundalik va qayta foydalanish mumkin bo‘lgan materiallardan foydalanish;

✓ barcha bolalar, jumladan, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun mos ishtirok imkoniyatlarini yaratish;

✓ topshiriqlarni bolaning yoshiga va rivojlanish darajasiga moslashtirish;

✓ bolalarning savollari va mustaqil g‘oyalarini rag‘batlantirish;

✓ kuzatuv, suhbat, amaliy mahsulot va bolaning o‘z faoliyatini izohlashi orqali rivojlanishni baholash;

✓ ota-onalarni uy sharoitida bajariladigan sodda tajribalar va konstruktorlik loyihalariga jalb qilish.

STEAM ta’limini baholashda faqat qurilgan buyumning sifatiga tayanish yetarli emas. Bolaning taxmin qilishi, material tanlashi, o‘z fikrini tushuntirishi, hamkorlik qilishi va muvaffaqiyatsiz urinishdan keyin yangi yechim topishi ham muhim ko‘rsatkichlar hisoblanadi.

XULOSA

STEAM yondashuvi maktabgacha ta’limda fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikani yagona amaliy faoliyat doirasida integratsiyalash imkonini beruvchi zamonaviy pedagogik yondashuvdir. Uning asosiy ustunligi bolalarning tabiiy qiziquvchanligini qo‘llab-quvvatlash, bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llash va mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qilishidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi O‘RQ-595-sonli “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. 4–5-moddalar. Rasmiy manba - LexUZ.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-sonli “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori. Rasmiy manba - LexUZ.

3. Linder, S. M., & Eckhoff, A. (2020). Breaking down STEAM for young children. *Teaching Young Children, 13*(3). National Association for the Education of Young Children. https://www.naeyc.org/resources/pubs/tyc/feb2020/breaking-down-steam

4. National Association for the Education of Young Children. (2020). *Developmentally appropriate practice (DAP) position statement*.

https://www.naeyc.org/resources/position-statements/dap

5. Ng, A., Kewalramani, S., & Kidman, G. (2022). Integrating and navigating STEAM (inSTEAM) in early childhood education: An integrative review and inSTEAM conceptual framework. *EURASIA Journal of Mathematics, Science and Technology Education, 18*(7), Article em2133. https://doi.org/10.29333/ejmste/12174

6. Su, J., Yim, I. H. Y., Wegerif, R., & Chu, S. K. W. (2025). STEAM in early childhood education: A scoping review. *Research in Science & Technological Education, 43*(2), 495–511. https://doi.org/10.1080/02635143.2023.2296445

7. Yance, S., Pansé-Barone, C., Parker, J. C., & Elmore-Staton, L. (2026). Nurturing healthy habits within the STEAM curriculum. *Educating Young Children, 2*. National Association for the Education of Young Children. https://publications.naeyc.org/educating-young-children-volume-2-summer-2026-july-1-2026/09407140017824865599/article/nurturing-healthy-habits-within-the-steam-curriculum

XXI ASRDA YOSHLARNI TARBIYALASHDA MILLIY QADRIYATLARDAN FOYDALANISHNING NEYROPEDAGOGIK ASOSLARI

Muxammadiyeva Sevara Bahodirovna
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Maqolada XXI asr sharoitida yoshlarni tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik va neyropedagogik asoslari yoritilgan. Milliy qadriyatlar (mehr-oqibat, kattalarga hurmat, ustoz-shogird an'anasi, hashar, vatanparvarlik) bo‘lajak pedagoglarning pedagogik qobiliyatlarini shakllantirish vositasi sifatida tahlil qilinadi. Emotsional xotira, ko‘zgu neyronlari tizimi va o‘smirlik davrida prefrontal po‘stloqning rivojlanishi bilan bog‘liq ilmiy dalillar asosida qadriyatlarni o‘zlashtirishning samarali metodlari taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar: *milliy qadriyatlar, ma’naviy tarbiya, neyropedagogika, pedagogik qobiliyat, emotsional xotira, ko‘zgu neyronlari, ustoz-shogird an’anasi, talaba-yoshlar.*

Аннотация. *В статье раскрываются педагогические и нейропедагогические основы использования национальных ценностей в воспитании молодёжи в условиях XXI века. Национальные ценности (милосердие и взаимная забота, уважение к старшим, традиция «устоз–шогирд» (наставник–ученик), хашар, патриотизм) анализируются как средство формирования педагогических способностей будущих педагогов. На основе научных данных, связанных с эмоциональной памятью, системой зеркальных нейронов и развитием префронтальной коры в подростковом возрасте, предлагаются эффективные методы усвоения ценностей.*

Ключевые слова: *национальные ценности, духовное воспитание, нейропедагогика, педагогические способности, эмоциональная память, зеркальные нейроны, традиция “наставник–ученик”, студенческая молодёжь.*

Abstract. *The article highlights the pedagogical and neuropedagogical foundations of using national values in the upbringing of young people in the 21st century. National values (kindness and mutual care, respect for elders, the master–apprentice (ustoz–shogird) tradition, hashar – community voluntary*

work, and patriotism) are analyzed as a means of developing the pedagogical abilities of future teachers. Based on scientific evidence related to emotional memory, the mirror neuron system and the development of the prefrontal cortex in adolescence, effective methods for internalizing values are proposed.

Keywords: *national values, spiritual education, neuropedagogy, pedagogical ability, emotional memory, mirror neurons, master-apprentice tradition, student youth.*

KIRISH

XXI asrda yoshlar tarbiyasi globallashuv, raqamli muhit va axborot oqimining keskin ortishi sharoitida kechmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar orqali kirib kelayotgan yot g‘oyalar va “ommaviy madaniyat” yoshlarning qadriyatlar tizimiga bevosita ta`sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli milliy qadriyatlar tarbiyaning mustahkam tayanchi sifatida qayta dolzarblik kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (2020) va Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi (2019) yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashni ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilaydi. Bu vazifani amalga oshiruvchi asosiy shaxs esa o‘qituvchidir.

Demak, muammoning markazida bo‘lajak pedagog turadi: u qadriyatlarni nafaqat bilishi, balki ularni o‘quvchiga emotsional va ishonarli tarzda yetkazib bera olishi zarur. Bu qobiliyatni rivojlantirishda inson miyasining o‘rganish mexanizmlarini hisobga oluvchi neyropedagogik yondashuv yangi imkoniyatlar ochadi. Bugungi talaba-yoshlar “raqamli avlod” vakillari hisoblanadi: ular axborotni tez, qisqa va vizual shaklda qabul qilishga odatlangan. Bunday sharoitda an`anaviy nasihat va ma`ruza ko‘rinishidagi tarbiya ko‘pincha kutilgan natijani bermaydi.

Qadriyat o‘quvchi qalbiga yetib borishi uchun u shaxsiy kechinma, faol harakat va ijobiy namuna bilan uyg‘unlashishi lozim. Shuningdek, pedagogika oliy ta`lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarning qadriyatlarga oid bilimlari yetarli bo‘lsa-da, ularni darsda tarbiyaviy vosita sifatida qo‘llash ko‘nikmasi sust shakllanganligi kuzatiladi. Bu ziddiyat - bilim va amaliy qobiliyat o‘rtasidagi tafovut - mazkur tadqiqotning asosiy muammosini tashkil etadi.

Tadqiqot maqsadi: Milliy qadriyatlardan foydalanishning neyropedagogik asoslarini aniqlash va ular asosida pedagogika yo‘nalishi talabalarining pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirish metodlarini ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari: Milliy qadriyatlarning tarbiyaviy salohiyatini ilmiy manbalar asosida tahlil qilish. Qadriyatlarni o‘zlashtirish jarayonining neyrobiologik mexanizmlarini asoslash. Qadriyatlarga yo‘naltirilgan neyropedagogik metodlar tizimini taklif etish. Ta’lim muassasasi, oila va mahalla hamkorligida qadriyatlar tarbiyasini tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash g‘oyasi Sharq pedagogik tafakkurida chuqur ildizga ega. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarlarida odob, ilm va kamtarlik komil insonning asosiy sifatlari sifatida talqin qilinadi. Abdulla Avloniy “Turkiy Guliston yoxud axloq”asarida tarbiyani “hayot-mamot masalasi” deb baholagan.

Zamonaviy o‘zbek pedagogikasida milliy qadriyatlar ma'naviy tarbiyaning mazmuniy asosi sifatida keng o‘rganilgan. Biroq ko‘pchilik tadqiqotlar qadriyatlarning mazmuniga e`tibor qaratib, ularning o‘zlashtirilish mexanizmini kam yoritgan.

Ilmiy adabiyotlarda qadriyatlar odatda bir necha guruhga ajratiladi: umuminsoniy (hayot, erkinlik, adolat), milliy (til, urf-odat, tarixiy xotira, milliy g‘urur), oilaviy (ota-onaga hurmat, mehr-oqibat, sadoqat) va shaxsiy (halollik, mehnatsevarlik, kamtarlik) qadriyatlar. O‘zbek xalqi uchun bu guruhlar o‘zaro chambarchas bog‘langan bo‘lib, mahalla instituti ularni avloddan-avlodga yetkazuvchi tabiiy tarbiya muhiti vazifasini bajaradi.

Qadriyatning shaxs tomonidan o‘zlashtirilishi psixologiyada bir necha bosqichli jarayon sifatida qaraladi: avval qadriyat haqida bilim hosil bo‘ladi, so‘ng unga ijobiy emotsional munosabat shakllanadi va nihoyat u shaxsning ichki e’tiqodi hamda xulq-atvor me’yoriga aylanadi. An’anaviy tarbiyada asosiy e’3tibor birinchi bosqichga qaratilib, keyingi ikki bosqich ko‘incha o‘z-o‘zidan kechadi deb hisoblanadi.

Qadriyat o‘quvchi uni his qilgan, kuzatgan va amalda takrorlaganda o‘zlashtiriladi; faqat eshitilgan qadriyat tez unutiladi. Shu sababli har bir milliy qadriyatni miyaning muayyan o‘rganish mexanizmi bilan bog‘lab, mos metod tanlash maqsadga muvofiq.

Milliy qadriyat	Neyropedagogik mexanizm	Tavsiya etilgan metod	Rivojlanadigan pedagogik qobiliyat
Ustoz-shogird an'anasi	Ko‘zgu neyronlari tizimi (namuna orqali o‘rganish)	“Ustoz saboqlari”- tajribali o‘qituvchi darsini kuzatish va tahlil qilish	Kommunikativ, didaktik

Milliy qadriyat	Neyropedagogik mexanizm	Tavsiya etilgan metod	Rivojlanadigan pedagogik qobiliyat
Mehr-oqibat, kattalarga hurmat	Emotsional xotira (bodomsimon tana va gippokamp aloqasi)	Hayotiy vaziyatlar asosida keys va rolli o‘yinlar	Empatik (pertseptiv)
Hashar, jamoaviylik	Ijtimoiy miya, oksitotsin va hamkorlikdan mamnuniyat	Jamoaviy ijtimoiy loyihalar (mahalla bilan hamkorlik)	Tashkilotchilik
Vatanparvarlik, tarixiy xotira	Narrativ tafakkur (hikoya miya tarmoqlarini keng faollashtiradi)	Dostonlar va tarixiy shaxslar hayoti asosida storitelling	Ekspressiv-nutqiy
Navro‘z, milliy marosimlar	Takror va ritual orqali odat shakllanishi (bazal gangliyalar)	Marosim va bayramlarni talabalar ishtirokida tashkil etish	Tashkilotchilik, ijodiy
Odob, kamtarlik	Prefrontal po‘stloq - o‘zini boshqarish va refleksiya	Refleksiv kundalik, “qadriyat” muhokamasi	Refleksiv, avtoritar-irodaviy

O‘smirlik va ilk yoshlik davrida prefrontal po‘stloq hali to‘liq yetilmagan bo‘ladi (taxminan 25 yoshgacha rivojlanadi). Bu davrda emotsional jihatdan boy, ijtimoiy faol va refleksiyani talab qiluvchi tarbiya shakllari ayniqsa samarali.

Taklif etilgan model uch bosqichda amalga oshiriladi:

His qilish - qadriyatni emotsional vaziyat, hikoya yoki san'at (jumladan, izoterapiya) orqali taqdim etish. *Kuzatish va anglash* - namuna (ustoz, tarixiy shaxs) xatti-harakatini tahlil qilish va refleksiya. *Amaliyotda takrorlash* - talaba qadriyatni o‘z pedagogik amaliyotida, darsda va loyihada qo‘llashi.

*Birinchi bosqich - his qilish***.** Neyrobiologik tadqiqotlarga ko‘ra, emotsional bo‘yoqqa ega axborot neytral axborotga nisbatan ancha mustahkam eslab qolinadi. Shu bois mashg‘ulot qadriyat ta’rifi bilan emas, balki uni his qildiruvchi vaziyat bilan boshlanadi: masalan, keksa ota-onasini unutgan farzand haqidagi qisqa hikoya, “Alpomish” dostonidan parcha yoki mavzuga oid rasm chizish (izoterapiya). Talaba avval o‘z kechinmasini ifodalaydi, so‘ngra qadriyat nomlanadi.

Ikkinchi bosqich — kuzatish va anglash. Bu bosqichda talabalar qadriyatni hayotda namoyon qilgan shaxs — tajribali o‘qituvchi, tarixiy siymo yoki adabiy qahramon xatti-harakatini tahlil qiladi. Ko‘zgu neyronlari tizimi kuzatilgan harakatni ichki modellashtirishga imkon beradi, refleksiv savollar (“Siz uning o‘rnida qanday yo‘l tutgan bo‘lardingiz?”) esa prefrontal po‘stloqni faollashtiradi va qadriyatni ongli tanlovga aylantiradi.

*Uchinchi bosqich — amaliyotda takrorlash***.** Qadriyat barqaror odatga aylanishi uchun takroriy amaliy faoliyat zarur. Talabalar o‘zlari tayyorlagan mikrodarsda bitta milliy qadriyatni tarbiyaviy maqsad sifatida belgilaydi, uni dars mazmuniga singdiradi va guruhdoshlari oldida namoyish etadi. Shuningdek, ular mahalla bilan hamkorlikda hashar, keksalarni ziyorat qilish kabi ijtimoiy loyihalarda ishtirok etadi.

Milliy qadriyatlar targ‘ibotida raqamli vositalardan voz kechish emas, balki ulardan oqilona foydalanish maqsadga muvofiq. Talabalar qadriyatlarga bag‘ishlangan qisqa videoroliklar, podkastlar va raqamli hikoyalar yaratishi mumkin. Bunda ular axborot iste’molchisidan qadriyat targ‘ibotchisiga aylanadi, bu esa o‘z navbatida ularning ijodiy va kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarning samaradorligi, avvalo, o‘qituvchining shaxsiy namunasiga bog‘liq. Xalqimizning “Ustoz otangdek ulug” degan naqli bejiz aytilmagan: o`quvchi o‘qituvchining so‘zidan ko‘ra uning xatti-harakatini ko‘proq eslab qoladi. Neyropedagogik nuqtai nazardan bu holat ko‘zgu neyronlari tizimi faoliyati bilan izohlanadi — kuzatilgan munosabat va harakat kuzatuvchi miyasida ichki namuna sifatida qayd etiladi.

Pedagogning qadriyatli yo‘nalganligi deganda uning milliy va umuminsoniy qadriyatlarni chuqur anglashi, ularni shaxsiy e’tiqodiga aylantirgani va kasbiy faoliyatida izchil namoyon eta olishi tushuniladi. Bu sifat pedagogik qobiliyatlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning har biriga mazmuniy yo‘nalish beradi.

Pedagogik qobiliyatlarning rivojlanishi miyaning neyroplastikligi – tajriba ta'sirida yangi neyron aloqalar hosil qilish xususiyatiga asoslanadi. Demak, bu qobiliyatlar tug‘ma berilgan qat'iy sifat emas: maqsadli mashg‘ulotlar, takroriy amaliyot va emotsional jihatdan boy ta’lim muhiti orqali ularni talabalik yillarida faol rivojlantirish mumkin. Milliy qadriyatlar mazmuni esa bu jarayonga ma'naviy asos va madaniy kontekst beradi.

Shuni ham ta’kidlash joizki, o‘qituvchining emotsional holati o‘quvchilarga bevosita ta'sir qiladi. Xotirjam, xayrixoh va hurmatga asoslangan muhitda o‘quvchi miyasida xavfsizlik hissi paydo bo‘ladi, bu esa o‘rganish va yangi qadriyatlarni qabul qilish uchun qulay sharoit yaratadi. Aksincha, qo‘rquv va zo‘riqish holatida stress gormonlari faolligi oshib, qadriyatlar qabul qilinish o‘rniga rad etilishi mumkin.

Milliy qadriyatlar faqat dars jarayonida emas, balki yoshlar hayotining barcha sohalarida izchil qo‘llab-quvvatlanganda barqaror shakllanadi. Neyrobiologik nuqtai nazardan bu takrorlanish tamoyili bilan izohlanadi: turli

muhitlarda bir xil qadriyat qayta-qayta tasdiqlansa, unga mos neyron aloqalar mustahkamlanib, xulq-atvorning avtomatik me’yoriga aylanadi.

Oila qadriyatlar tarbiyasining birlamchi va eng ta'sirchan muhitidir. Bola mehr-oqibat, kattalarga hurmat, mehnatsevarlik kabi qadriyatlarni dastlab ota-onasi va yaqinlarining kundalik xatti-harakatida ko‘radi. Oiladagi an'analar – birgalikda dasturxon atrofida jamlanish, bayramlarni nishonlash, qarindoshlarni ziyorat qilish – qadriyatlarni emotsional jihatdan boy tajriba sifatida xotiraga muhrlaydi.

Mahalla o‘zbek xalqining o‘ziga xos ijtimoiy instituti bo‘lib, oila va jamiyat o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajaradi. Hashar, to‘y-marosimlar, keksalarni e’zozlash kabi an’analar orqali yoshlar jamoaviylik va ijtimoiy mas'uliyatni amalda o‘rganadi. Bunday ijtimoiy faollik o‘smirlarda o‘zini jamiyatning qadrli a'zosi sifatida his qilish tuyg‘usini kuchaytiradi.

Ta’lim muassasasi esa bu tajribani tizimlashtiradi, ilmiy asoslaydi va anglangan e’tiqodga aylantiradi. Bunda o‘qituvchi uchta muhitni birlashtiruvchi markaziy shaxs sifatida maydonga chiqadi: u ota-onalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yadi, mahalla tadbirlarini ta’lim jarayoni bilan bog‘laydi va o‘quvchilarda qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantiradi.

Oila qadriyatni his qildiradi, mahalla uni amalda sinovdan o‘tkazadi, ta'lim muassasasi esa uni anglangan e’tiqodga aylantiradi. Bu uch muhitning uyg‘unligi XXI asr yoshlarida milliy o‘zlikni saqlagan holda zamonaviy dunyoga moslasha oladigan barkamol shaxsni shakllantirish imkonini beradi.

XULOSA

XXI asrda milliy qadriyatlar yoshlar tarbiyasining eng ishonchli tayanchi bo‘lib qolmoqda, biroq ularni faqat axborot sifatida berish yetarli emas. Neyropedagogik yondashuv qadriyatni his qilish, namunani kuzatish va amalda takrorlash orqali chuqur o‘zlashtirish imkonini beradi. Bu jarayon bo‘lajak pedagoglarning empatik, kommunikativ, tashkilotchilik va refleksiv qobiliyatlarini ham birga rivojlantiradi.

-Pedagogika yo‘nalishidagi “Pedagogika” va “arbiyaviy ishlar metodikasi”fanlariga “Milliy qadriyatlarning neyropedagogik asoslari” mavzusini kiritish.

-Pedagogik amaliyot davomida “ustoz-shogird” juftliklarini tashkil etish va mikrodarslarni videotahlil qilish.

-Talabalar uchun mahalla bilan hamkorlikdagi ijtimoiy loyihalar (hashar, keksalarni ziyorat qilish) ni o‘quv kreditlariga bog‘lash.

-Dostonlar, xalq og‘zaki ijodi va izoterapiya mashg‘ulotlarini qadriyat tarbiyasining emotsional vositasi sifatida tizimli qo‘llash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining "Ta'lim to‘g‘risida"gi Qonuni. O‘RQ-637. — Toshkent, 2020-yil 23-sentabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori. — Toshkent, 2019-yil 31-dekabr, 1059-son.

3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

4. Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud axloq. — Toshkent: O‘qituvchi, 1992.

5. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. — Toshkent: Fan, 1971.

6. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1983.

7. Immordino-Yang M.H., Damasio A. We feel, therefore we learn: The relevance of affective and social neuroscience to education // Mind, Brain, and Education. — 2007. — Vol. 1, No. 1. — P. 3–10.

8. Rizzolatti G., Craighero L. The mirror-neuron system // Annual Review of Neuroscience. — 2004. — Vol. 27. — P. 169–192.

9. Blakemore S.-J. Inventing Ourselves: The Secret Life of the Teenage Brain. — London: Doubleday, 2018.

10. Sousa D.A. How the Brain Learns. — 5th ed. — Thousand Oaks: Corwin, 2017.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AXLOQIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHDA KATTA AVLOD VAKILLARINING O‘RNI

Norqulova Ziyoda Annageldi qizi
Osiyo Texnologiyalar Unversiteti 1-kurs magistranti

Annotatsiya. *Maktabgacha ta’lim amaliyotida katta avlod vakillarining bolalarda halollik, hurmat va hamkorlikni rivojlantirishdagi ishtiroki ko‘pincha epizodik tashkil etiladi; mazkur jarayonning tarbiyaviy imkoniyatlari yetarlicha tizimlashtirilmagan. Tadqiqotda kompetensiyaviy yondashuv, chuqur individual suhbat va uch bosqichli pedagogik tajriba — aniqlovchi, shakllantiruvchi hamda nazorat bosqichlari — uyg‘unlashtirildi. Tajriba va nazorat guruhlarida axloqiy sifatlarning namoyon bo‘lishi kirish va chiqish diagnostikasi orqali qiyoslandi. Dastlab yuqori darajadagi ko‘rsatkich 31,6 foizni tashkil etgan bo‘lsa, shakllantiruvchi ishlar yakunida tajriba guruhida bu ulush 73,7 foizga yetdi; past ko‘rsatkich 34,2 foizdan 47,4 foizgacha o‘zgardi. Suhbat materiallari katta avlod vakillarining hayotiy namunasi, ibratli hikoyalari va hamkorlikdagi faoliyati bolalar axloqiy tasavvurlarini mazmunan boyitishini ko‘rsatdi. Natijalar tarbiyaviy mashg‘ulotlarga bunday ishtirokni oldindan rejalashtirish zarurligini asoslaydi. Amaliy tavsiya sifatida tarbiyachilarga muntazam oilaviy suhbatlar, namunaviy vaziyatlar va birgalikdagi faoliyatlarni joriy etish taklif qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *axloqiy sifatlar, katta avlod vakillari, maktabgacha ta’lim, pedagogik tajriba, tarbiyaviy hamkorlik, uch bosqichli diagnostika, chuqur individual suhbat*

Аннотация. *В практике дошкольного образования участие представителей старшего поколения в развитии у детей честности, уважения и сотрудничества часто организуется эпизодически; воспитательные возможности данного процесса недостаточно систематизированы. В исследовании были объединены компетентностный подход, углублённая индивидуальная беседа и трёхэтапный педагогический эксперимент — констатирующий, формирующий и контрольный этапы. Проявление нравственных качеств в экспериментальной и контрольной группах сопоставлялось посредством входной и итоговой диагностики. Если первоначально показатель высокого уровня составлял 31,6 %, то по завершении*

формирующей работы эта доля в экспериментальной группе достигла 73,7 %; низкий показатель изменился с 34,2 % до 47,4 %. Материалы бесед показали, что жизненный пример представителей старшего поколения, их поучительные рассказы и совместная деятельность содержательно обогащают нравственные представления детей. Результаты обосновывают необходимость предварительного планирования такого участия в воспитательных занятиях. В качестве практической рекомендации воспитателям предлагается внедрять регулярные семейные беседы, образцовые ситуации и совместную деятельность.

Ключевые слова: *нравственные качества, представители старшего поколения, дошкольное образование, педагогический эксперимент, воспитательное сотрудничество, трёхэтапная диагностика, глубокое индивидуальное интервью*

Abstract. *In preschool education practice, the participation of older-generation representatives in developing honesty, respect, and cooperation in children is often organized episodically; the educational potential of this process has not been sufficiently systematized. The study combined a competency-based approach, an in-depth individual interview, and a three-stage pedagogical experiment — ascertaining, formative, and control stages. The manifestation of moral qualities in the experimental and control groups was compared through entry and final diagnostics. Initially, the high-level indicator was 31.6 %, whereas by the end of the formative work, this proportion in the experimental group reached 73.7 %; the low indicator changed from 34.2 % to 47.4 %. The interview materials showed that the life example of older-generation representatives, their instructive stories, and their collaborative activities enrich children's moral perceptions in terms of content. The results substantiate the need to plan such participation in educational activities in advance. As a practical recommendation, educators are encouraged to introduce regular family discussions, exemplary situations, and joint activities.*

Keywords: *moral qualities, older generation representatives, preschool education, pedagogical experiment, educational cooperation, three-stage diagnostics, in-depth individual interview*

KIRISH

Oilaviy-ma'naviy muhitda maktabgacha yoshdagi bolalarning halollik, hurmat va hamkorlik kabi axloqiy sifatlarini shakllantirish katta avlod vakillarining tarbiyaviy tajribasini pedagogik jarayonga bog'lashni talab etadi

[1]. Milliy qadriyatlarni avlodlararo uzatish rivojlantiruvchi muhitni kuchaytirib, maktabgacha ta'limning tarbiyaviy mazmunini boyitadi [2]. Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan davlat siyosati mazkur jarayonni tashkil etishning huquqiy va pedagogik asoslarini belgilaydi [3]. Tadqiqot maqsadi — katta avlod vakillarining tizimli ishtiroki axloqiy sifatlar rivojiga ta'sirini aniqlash; vazifalar: 1) tarbiyaviy tajribani tavsiflash; 2) oilaviy-ma'naviy muhit indikatorlarini belgilash; 3) pedagogik tajriba modelini asoslash. Tadqiqot obyekti — maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasi. Tadqiqot predmeti — katta avlod vakillari ishtirokidagi shakllantirish jarayoni. Chuqur individual suhbatlar va uch bosqichli pedagogik eksperiment keyingi metodologik tahlil uchun asos bo‘ladi [4].

Chuqur individual suhbatlar katta avlod vakillarining tarbiyaviy tajribasi, oilaviy-ma'naviy muhit va milliy qadriyatlar uzatilishini mazmunan ochib beradi [4]. Ushbu dalillarni «Ilk qadam» dasturidagi rivojlantiruvchi muhit talablari bilan uyg‘unlashtirish pedagogik innovatsiya sifatida qaraladi [5]. Kompetensiyaviy yondashuv asosida suhbat mazmuni tashxis materiali bilan qiyoslanib, pedagogik eksperiment uchun metodologik tayanch vazifasini bajaradi [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Oilaviy-ma'naviy muhit haqidagi tahlilni chuqurlashtirish uchun chuqur individual suhbat tadqiqoti tanlanib, katta avlod vakillarining tarbiyaviy tajribasi germenevtik va matn tahlili orqali sharhlandi [7]. Birlamchi manbalarni suhbat transkripsiyalari, ikkilamchi manbalarni normativ dasturlar tashkil etdi [2]. Tahlil Mayringning sifatiy kontent-kategorik tahlili, mavzu to‘plami va to‘yinish mezonlari asosida olib borildi; kodlovchilararo kelishuv Cohen κ orqali tekshirildi.

1-jadval.

Suhbat tahlili vositalari

Vosita	Vazifasi
Transkripsiya	Tarbiyaviy tajribani yozma qayd etish
Kategoriya matritsasi	Axloqiy sifatlar mazmunini guruhlash

Manba: muallif tomonidan tuzilgan

1-jadvalda ko‘rsatilganidek, natijalarni talqin qilishda narratologik interpretatsiya qo‘llanib, oilaviy qadriyatlarning bola xulqidagi ifodasi

aniqlashtirildi [4]. Ushbu metodik zamin pedagogik tajriba bosqichlarini mazmunan belgiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Chuqur individual suhbatlar asosida belgilangan mezonlar pedagogik tajribada kirish va chiqish testlari orqali qayta tekshirildi. Axloqiy sifatlarni baholash vositasi halollik, hurmat, hamkorlik va mas’uliyat indikatorlarini qamrab oldi; uning ichki izchilligi Cronbach alfa=0,78 bo‘lib, belgilangan 0,70 mezondan yuqori chiqdi. Tajriba guruhi katta avlod vakillari ishtirokidagi hikoya, oilaviy xotira va hamkorlik topshiriqlarini bajardi, nazorat guruhi esa odatiy tarbiyaviy mashg‘ulotlarda qatnashdi.

2-jadval.

Tajriba va nazorat guruhlarida axloqiy sifatlar ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi

Ko‘rsatkich	**Nazorat guruhi (M±SD)**	**Tajriba guruhi (M±SD)**	**t**	**p**	**Cohen d**
Kirish testi, ball	2,84±0,46	2,87±0,44	0,31	0,758	0,07
Chiqish testi, ball	3,21±0,51	4,08±0,43	7,64	<0,001	1,83
O‘sish, ball	0,37±0,28	1,21±0,35	8,92	<0,001	2,67

Manba: muallifning pedagogik tajriba hisob-kitoblari

Mazkur natijalar 1-rasmda grafik ko‘rinishda keltirilgan.



1-rasm. Tajriba va nazorat guruhlarida axloqiy sifatlar ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi qiyosiy diagrammasi

Manba: muallif tomonidan tuzilgan

2-jadvalda ko‘rsatilganidek, boshlang‘ich ko‘rsatkichlar yaqin bo‘lgan, chiqish testida esa tajriba guruhi ustunligi qayd etilgan. Guruhlararo farqning katta effekt hajmi katta avlod vakillarining tizimli ishtiroki axloqiy sifatlarni shakllantirishga kuchli ta’sir ko‘rsatganini anglatadi. Ushbu natija gipotezani tasdiqlaydi.

Foizli talqinda tajriba guruhida yuqori darajaga erishgan bolalar ulushi 31,6 foizdan 73,7 foizgacha oshdi, nazorat guruhida esa 34,2 foizdan 47,4 foizgacha ko‘tarildi. Oilaviy-ma’naviy muhitda milliy qadriyatlarni amaliy vaziyatlar orqali uzatish bolalarning axloqiy tanlovini mustahkamlagan. UNICEF erta rivojlanishda barqaror munosabatlar va parvarish uyg‘unligini muhim omil sifatida belgilaydi [8].

Mazkur tafovut kompetensiyaviy yondashuvdagi rivojlantiruvchi muhit va pedagogik hamkorlik tamoyillari bilan izohlanadi. «Ilk qadam» dasturida bolaning ijtimoiy-emotsional rivoji faol muloqot va hamkorlik tajribasi bilan bog‘langan [2]. Katta avlod vakillarining hayotiy namunalari mazkur ta’lim texnologiyasini mazmunan boyitib, keyingi xulosalarda tizimli tavsiyalar uchun asos yaratadi.

XULOSA

Chuqur individual suhbat, kodlovchilararo kelishuv va pedagogik tajriba natijalari maqsadli tarbiyaviy ishtirok axloqiy sifatlarni shakllantirishini

tasdiqladi. Tajriba guruhi ko‘rsatkichi nazorat guruhidan 0,74 ball yuqori bo‘lib, Styudent t-mezoni farqning statistik ahamiyatini tasdiqladi ($p<0,05$; Cohen $d=0,78$). Ushbu pedagogik model oilaviy-ma’naviy muhit, rivojlantiruvchi muhit va maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyaviy jarayonini yagona hamkorlik tizimida birlashtiradi. Tarbiyachilarga katta avlod vakillarini rejalashtirilgan suhbat, ibratli hikoya va hamkorlikdagi faoliyatlarga muntazam jalb etish tavsiya qilinadi; navbatdagi tadqiqotlarda turli hududlarni qamrab olgan uzoq muddatli kuzatuvlar o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi. «Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida»gi O‘RQ-595-son Qonun. — Toshkent, 2019. — URL: https://lex.uz/docs/4646908 (murojaat sanasi: 27.10.2026).

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. «Ilk qadam» davlat o‘quv dasturini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 802-son qaror. — Toshkent, 2020. — URL: https://lex.uz/docs/5179335 (murojaat sanasi: 27.10.2026).

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. «Maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4312-son qaror. — Toshkent, 2019. — URL: https://lex.uz/docs/4359751 (murojaat sanasi: 27.10.2026).

4. OECD. Engaging Young Children: Lessons from Research about Quality in Early Childhood Education and Care. — Paris: OECD Publishing, 2018. — DOI: https://doi.org/10.1787/9789264085145-en.

5. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun «Ilk qadam» davlat o‘quv dasturi. — Toshkent, 2022. — URL: https://mpe.uz (murojaat sanasi: 27.10.2026).

6. World Bank. Quality Early Learning: Nurturing Children's Potential [Elektron resurs]. — Washington, D.C., 2021. — URL: https://www.worldbank.org/en/topic/earlychildhooddevelopment (murojaat sanasi: 27.10.2026).

7. World Health Organization. Nurturing Care for Early Childhood Development: A Framework for Helping Children Survive and Thrive to Transform Health and Human Potential. — Geneva: World Health Organization, 2018. — URL: https://www.who.int/publications/i/item/9789241514064 (murojaat sanasi: 27.10.2026).

8. United Nations Children's Fund. Early Childhood Development: The Key to a Full and Productive Life [Elektron resurs]. — New York, 2023. —

URL: https://www.unicef.org/early-childhood-development (murojaat sanasi: 27.10.2026).

INNOVATSION TA'LIM MUHITIDA BIOLOGIYA FANINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI VA ZAMONAVIY ISTIQBOLLAR

Tojiboyeva Sevaraxon Xayrullayevna
Qo'qon davlat universiteti
stojiboyeva248@gmail.com
https://orcid.org/0009-0005-6705-1640
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: *Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablari biologiya fanini o'qitish texnologiyalarini takomillashtirishda Abu Ali ibn Sino ta'limotlaridan foydalanish zaruriyati ta'kidlab o'tilgan. O'quvchilarni mutafakkir ta'limoti asosida o'qitishda, muammolarni aniqlash va tahlil qilish xususiyatlari pedagogik jihatdan yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *biologiya fani, ta'lim berish, takomillashtirish, o'qitish.*

Abstract: *The article highlights the necessity of utilizing the teachings of Abu Ali ibn Sina (Avicenna) to improve the technologies used for teaching biology in general secondary schools. It provides a pedagogical analysis of the processes involved in identifying and examining problems when instructing students based on the teachings of this thinker.*

Keywords*: biology, education, improvement, teaching.*

KIRISH

Inson salomatligi kelajakni belgilashini inobatga olgan holda ta'lim mazmuniga milliy va umuminsoniy qadriyat g'oyalarini singdirish asosida yosh avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'quvchi-yoshlarga ta'lim berish sifatini takomillashtirish, ularda inson salomatligi va tabiatga oid xavfni bartaraf etishga oid bilimlarini rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi faolligini ta'minlovchi asosiy omillardir. O'quvchilarning biologiya fanlariga qiziqishini orttirishda buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sino ta'limotlaridan foydalanib o'qitish metodikalarini takomillashtirish zaruratini taqozo etmoqda.

ASOSIY QISM

Ta'limga bunday yondashuv, o'quvchilarda bilim olish, tabiat va unga bo'lgan munosabat madaniyatini rivolantirish imkoniyatini beradi. Xususan, 11-sinf o'quvchilari uchun Biologiya fani darsligida qayd etilgan "Ekologiya

va hayot” [3] deb nomlangan I bobiga tegishli 3-§. “Hayotning ekosistema darajasi xususiyatlari. Biogeotsenoz – biologik sistema” [3] mavzusidagi darsni yoritishda Abu Ali ibn Sino ta’limotlari asosida takomillashtirilgan ta’lim texnologiyalari nuqtai nazaridan yondashilgan “Taxliliy – ijodiy vazifalarni guruh bo‘lib yechish” metodida o‘quvchilarni mavzu bo‘yicha fikrlashga va tavsiyalar ishlab chiqishga yo‘naltiradi. Jumladan, Mutafakkir Abu Ali ibn Sino ta’limotida “Biogeotsenoz” to‘g‘risida qaydlar bormi va uning darajasida kuzatiladigan eng muhim jarayonlar nima? – savoliga har bir o‘quvchining javobi sifatida, bir-birini takrorlamaydigan fikrlari tinglanadi (bildirilgan fikrlar doskaga yozib boriladi). Jumladan quyidagilar:

Birinchi o‘quvchi: Biogeotsenoz tabiatning abiotik omillari hamda moddalar va energiya almashinuvi orqali uzviy bog‘langan.

Ikkinchi o‘quvchi: Ma’lum bir hududda yashovchi tirik organizmlar jamoalarini o‘z ichiga oladi.

Uchinchi o‘quvchi: Abu Ali ibn Sinoning “Kitob ash-shifo” [1] asaridagi “an-nabot” (“O‘simliklar”) qismida o‘simliklarning turlari, paydo bo‘lishi, oziqlanishi, o‘simlik a’zolari va ularning vazifalari, ko‘payishi hamda o‘sish sharoitlari haqida yozadi [2].

To‘rtinchi o‘quvchi: Turlarning hayotini ta’minlovchi biomassani sintezlaydi.

Beshinchi o‘quvchi: Turlar soni doimiyligini boshqaradi.

Oltinchi o‘quvchi: Biosistemaning barqarorligini ta’minlovchi moddalar va energiya oqimi hisoblanadi. v.k....

O‘qituvchi va o‘quvchilar hamkorligida auditoriyada sanab o‘tilgan fikrlardan eng muhimini ajratib olishadi va javoblarni individual yoki kichik guruhlar miqyosida umumlashtirishadi. Jumladan, Abu Ali ibn Sinoning “Kitob ash-shifo” [1] asaridagi “an-nabot” (“O‘simliklar”) qismida o‘simliklarning turlari, paydo bo‘lishi, oziqlanishi, o‘simlik a’zolari va ularning vazifalari, ko‘payishi hamda o‘sish sharoitlari haqida yozadi.

Biogeotsenoz turlarning hayotini ta’minlovchi biomassaning sintezlanishi; turlar soni doimiyligining boshqarilishi; biosistemaning barqarorligini ta’minlovchi moddalar va energiya oqimi hisoblanadi. Bunda birinchi o‘ringa qaysi bir omilni qo‘yish, qolganlarini ahamiyatiga ko‘ra tutgan o‘rinlari belgilanadi. O‘quvchilar nima sababdan aynan u yoki bu tushunchalarni birinchi, ikkinchi va hokazo o‘rinlarga qo‘yganlari sababini asoslab berishadi. O‘qituvchi javoblarga o‘z munosabatini bildirib, o‘quvchilarning javoblarini baholaydi. Yoki baholash jadvali tayyorlab, o‘quvchilar bilan birgalikda baholab chiqiladi.

O‘quvchilarda dars jarayonida mavzu yuzasidan betakror fikrlarni topish va ishlab chiqish mahoratlarini rivojlantirishda “Paradokslar tanlovi” metodidan foydalanib fikrlar tanlovini o‘tkazishi ham maqsadga muvofiqdir. Ular:

1. Sizga g‘alati tuyulgan voqea, hodisa va narsalarga diqqat qiling.

“Hayotning ekosistema darajasi xususiyatlari. Biogeotsenoz – biologik sistema” mavzusiga oid paradoksni quyidagicha tuzish mumkin.

Birinchi misol: “Archazor o‘rmon”, “Yong‘oqzor o‘rmon”.

Ikkinchi misol: Ariq bo‘ylari, dala-bog‘lar, sabzavot va ekinlar orasi.

2. Muammoni aniqlab, hamma uchun tushunarli dastlabki fikrni ifodalang.

Birinchi misol: “Biogeotsenoz” Yer yuzining ma’lum hududidagi tirik organizmlar va atrof-muhitning tabiiy majmuasi hisoblanadi. Biogeotsenoz muayyan tushuncha bo‘lib, ularga tarkibidagi son jihatdan ko‘p uchraydigan turga qarab: “archazor o‘rmon”, “yong‘oqzor o‘rmon” kabi nom beriladi.

Ikkinchi misol: Abu Ali ibn Sinoning “Tib qonunlari” [1] asarining ikkinchi kitobidan: Ariq bo‘ylarida, dala-bog‘larda, sabzavot, ziravor ekinlari orasida o‘sib yotgan zubturum eski yo‘tal, yaralarni davolashda, oshqozon, me’da, o‘n ikki barmoqli ichak kasalliklari, turli yiringli jarohatlarni davolashda benazir o‘simlik ekanligi ta’kidlangan.

3. Muammoga boshqa tomondan yondashing. Unga qarama-qarshi fikr o‘ylab toping. U ham birinchi gap, taklif, fikrga o‘xshab mulohazali, oqilona bo‘lishi kerak.

Birinchi misol talqinida: “Archazor o‘rmon”, “Yong‘oqzor o‘rmon” kabi tarkibidagi son jihatdan ko‘p uchraydigan turdagi biogeotsenozlar Yer yuzining ma’lum hududidagi tirik organizmlar va atrof-muhitning tabiiy majmuasidir.

Ikkinchi misol talqinida: Davolovchi xususiyatga ega bo‘lgan zubturum o‘simligi ariq bo‘ylarida, dala-bog‘larda, sabzavot, ziravor ekinlari orasida o‘sib yotgan benazir o‘simlik ekanligini Abu Ali ibn Sino “Tib qonunlari” asarida yozib qoldirgan.

O‘quvchilarga g‘oya va fikrlar sabablarini chetda qoldirish, ularga e’tibor bermaslikni maslahat beriladi. Uning o‘rniga muammoni ko‘rib chiqish, tushunishga da’vat qilinadi. Tanlovni quyidagi o‘tkazish mumkin: O‘quvchining javob variantidan.

1. Tog‘ o‘rmoni, adir, yaylov.

2. Biogeotsenoz barqaror, o‘z-o‘zini boshqaradigan biologik sistema bo‘lib, bunda tirik organizmlar (mikroorganizmlar, o‘simliklar, hayvonlar) anorganik tabiatning tarkibiy qismlari (suv, tuproq, iqlim) bilan o‘zaro

bog‘langan. Ularga tog‘ o‘rmoni, adir, yaylov biogeotsenozlarini misol qilib olish mumkin.

3. Tog‘ o‘rmoni, adir, yaylov kabi biogeotsenozlar barqaror, o‘z-o‘zini boshqaradigan biologik sistema bo‘lib, bunda tirik organizmlar anorganik tabiatning tarkibiy qismlari bilan o‘zaro bog‘langan.

Qo‘shimcha misollar ham o‘rganilib, ko‘rsatilgan prinsiplardan kelib chiqib, yechim tekshiriladi.

XULOSA

O‘quvchilar paradokslar va ularning javob variantlarini hay’atga topshirishgach, tanlovda «ring» tashkil etiladi. Bunda o‘quvchilar guruhlarga bo‘linishadi. Guruhlar tanlovning boshqa qatnashchilari tayyorlagan paradokslarga javob berishadi. Guruhlar paradokslarning ma’nosini tushuntirish asosida o‘z javoblarini berishadi.

Hay’at a’zolari vazifani bajarish sifati va raqiblarning savol-javobiga ko‘ra guruhlarni baholaydi. Hay’at a’zolari paradokslar va topishmoqlarni baholashlari uchun uning mezonlari ishlab chiqilib, ularga tarqatiladi. U quyidagicha bo‘lishi mumkin. Paradokslarni baholash mezonlari: 1. Masalani topish mahorati; 2.Paradoksning qisqaligi; 3.Muammoni ko‘rsatish, isbotlash mahorati; 4.Paradoksni tushuntirish uchun konsepsiya tanlash; 5.Vaziyatning jumboqliligi, odatdan tashqari o‘zgachaligi.

Mavzusi yuzasidan kichik guruhlar va har bir o‘quvchining mashg‘ulot jarayonidagi ishtiroki baholanadi. Hayotning ekosistema darajasi xususiyatlari va biogeotsenoz – biologik sistemaga oid bilimlar natijalanganligi tahlil etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. Tuzuvchilar: U.Karimov, X.Xikmatullayev. – T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 1996. – 542 b.

2.Aliqulova M.M. Bo‘lajak o‘qituvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish (O‘rta Osiyo allomalarining ekologiyaga oid qarashlari asosida). Monografiya. – T.: «Fan» nashriyoti, 2010. – 117 b.

3. Biologiya: Umumiy o‘rta ta'lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik: 1-nashr / Mualliflar: A.G‘afurov, A.Abdukarimov, J.Tolipova va.b. – T.: Sharq, 2018. – 240 b.

4.Incheon Declaration /Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea).

5. Tojiboyeva S.X. Ijodkorlik pedagogikasi asosida Abu Ali ibn Sino ta’limotlarining didaktik imkoniyatlarini rivojlantirish // Ilg‘or xorijiy tajribalar

asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari: muammolar va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 20-fevral, 2024. – B. 133-135.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INTEGRATSIYALASHGAN FAN LOYIHASI

Toshev Do‘smamat Javliyevch
Sho‘rchi tumani 51_maktab boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limda integratsiyalashgan fan loyihalarining mohiyati, shakllari va pedagogik ahamiyati muhokama qilinadi. Maqolada o‘quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirishda fanlararo loyihalarning roli, o‘quv jarayonini qiziqarli va interaktiv qilish usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, loyihalarni amalga oshirishda yuzaga keladigan muammolar va ularni hal etish yo‘llari ham ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, integratsiyalashgan fan loyihasi, fanlararo integratsiya, o‘quvchi kompetensiyasi, pedagogik samaradorlik, interaktiv ta’lim, ijodiy yondashuv, loyiha asosida o‘qitish, ta’lim jarayoni, muammolar va yechimlar*

Annotation: *This article discusses the essence, forms, and pedagogical significance of integrated subject projects in primary education. It analyzes the role of interdisciplinary projects in developing students’ competencies and methods for making the learning process engaging and interactive. Challenges in implementing such projects and possible solutions are also considered.*

Keywords: *primary education, integrated subject project, interdisciplinary integration, student competencies, pedagogical effectiveness, interactive learning, creative approach, project-based learning, educational process, challenges and solutions*

Аннотация: *В данной статье рассматривается сущность, формы и педагогическая значимость интегрированных предметных проектов в начальном образовании. Анализируется роль межпредметных проектов в развитии компетенций учащихся и методы повышения интереса и интерактивности образовательного процесса. Также рассматриваются проблемы реализации проектов и возможные пути их решения.*

Ключевые слова: *начальное образование, интегрированный предметный проект, межпредметная интеграция, компетенции учащихся, педагогическая эффективность, интерактивное обучение,*

творческий подход, обучение на основе проекта, образовательный процесс, проблемы и решения

Bugungi kunda ta’lim tizimining samaradorligini oshirish va o‘quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirish masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda. Xususan, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalarni kompleks tarzda rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, integratsiyalashgan fan loyihalari pedagogik jarayonda samarali vosita sifatida ajralib turadi. Integratsiyalashgan fan loyihasi – bu bir nechta fanlarning mazmuni va metodikasini birlashtirib, o‘quvchilarning mustaqil izlanish, tajriba va amaliy faoliyat orqali bilim egallashini ta’minlovchi pedagogik yondashuvdir. Bunday loyiha o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodiy qarorlar qabul qilish va muammolarni hal etish qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, u ta’lim jarayonini interaktiv, qiziqarli va mazmunli qiladi.

Boshlang‘ich ta’limda fanlararo loyihalarni joriy etish mintaqaning pedagogik tajribasini boyitish va o‘quvchilarda fundamental bilimlar va ko‘nikmalarni shakllantirish imkonini beradi. Masalan, matematika va tabiatshunoslik fanlarini birlashtirgan loyiha orqali o‘quvchilar nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy mashqlarni bajarish orqali muammolarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Maqolaning maqsadi – boshlang‘ich ta’limda integratsiyalashgan fan loyihalarining pedagogik samaradorligini tahlil qilish, ularning shakllari, afzalliklari va amalga oshirishdagi muammolarni aniqlashdir. Shuningdek, maqolada zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida loyiha faoliyatini samarali tashkil etish yo‘llari ham ko‘rib chiqiladi. Integratsiyalashgan fan loyihasi tushunchasi va pedagogik ahamiyati. Integratsiyalashgan fan loyihasi – bu bir nechta fanlarning kontenti va metodikasini birlashtirib, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini kompleks tarzda rivojlantirishga qaratilgan ta’lim shakli. Ushbu yondashuvning asosiy vazifasi – o‘quv jarayonini interaktiv va amaliy qilish, shuningdek, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodiy qarorlar qabul qilish va muammolarni hal etish qobiliyatlarini shakllantirishdir. Pedagogik adabiyotlarda ta’kidlanishicha, loyiha asosida o‘qitish (project-based learning) o‘quvchilarning mustaqil faoliyatini rag‘batlantiradi, ularni nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lashga o‘rgatadi. Shu bilan birga, bu yondashuv o‘quvchilarning ijtimoiy va kommunikativ ko‘nikmalarini, hamda jamoaviy ishlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Boshlang‘ich ta’limda integratsiyalashgan fan loyihalarining shakllari. Maqoladagi tadqiqotlar va pedagogik tajriba shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich ta’limda fan loyihalari

quyidagi shakllarda amalga oshiriladi: Fanlararo loyiha: Turli fanlarni birlashtirib, o‘quvchilarga mavzularni kengroq va amaliy misollar bilan tushuntirish. Masalan, matematika va tabiatshunoslik fani orqali ekologik muammolarni o‘rganish. Amaliy loyiha: Nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar, laboratoriya ishlari yoki eksperimentlar orqali qo‘llash. Ijodiy loyiha: O‘quvchilarning ijodiy ishlari, mini-loyihalar va tasviriy ishlar orqali fanlarni birlashtirish. Texnologik loyiha: Raqamli vositalar, interaktiv taxta va onlayn resurslardan foydalangan holda loyiha faoliyatini tashkil etish. Integratsiyalashgan fan loyihalarining afzalliklari. Integratsiyalashgan fan loyihalari quyidagi pedagogik afzalliklarga ega: O‘quvchilarning kompetensiyasini rivojlantirish: Fanlararo bog‘lanish va amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilar tanqidiy fikrlash va muammolarni hal etish ko‘nikmalarini egallaydi. Ijodiy va mustaqil yondashuvni rag‘batlantirish: O‘quvchilar loyiha doirasida mustaqil qarorlar qabul qilishga o‘rgatiladi. Ta’lim jarayonini qiziqarli va interaktiv qilish: Loyiha asosida o‘qitish o‘quvchilarda motivatsiyani oshiradi va o‘quv jarayonini yanada mazmunli qiladi. Jamoaviy ishlashni rivojlantirish: Guruh ishlari o‘quvchilarda hamkorlik va kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantiradi. Muammolar va ularni hal etish yo‘llari. Boshlang‘ich ta’limda integratsiyalashgan fan loyihalarini joriy etishda quyidagi muammolar uchraydi: O‘qituvchilarning loyiha asosida ta’lim berish bo‘yicha yetarli malaka darajasiga ega emasligi. Ta’lim dasturlari va o‘quv materiallarining integratsiyaga mos kelmasligi. Moliyaviy va texnologik resurslarning yetishmasligi. O‘quvchilarning yangi yondashuvga moslashishidagi qiyinchiliklar. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi chora-tadbirlar tavsiya etiladi: O‘qituvchilarning malakasini uzluksiz oshirish va loyiha asosida ta’lim metodikasini o‘rgatish. Integratsiyaga mos o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash. Raqamli va interaktiv resurslarni keng joriy etish. O‘quvchilarda motivatsiyani oshirish va faoliyatni rag‘batlantirish metodlarini qo‘llash.

Boshlang‘ich ta’limda integratsiyalashgan fan loyihalari pedagogik jarayonda o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini kompleks tarzda rivojlantirishda muhim vosita sifatida e’tiborga loyiqdir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, loyiha asosida o‘qitish o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodiy qarorlar qabul qilish, muammolarni hal etish va mustaqil izlanish qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, fanlararo bog‘lanish va amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘quv jarayoni yanada interaktiv va qiziqarli bo‘ladi. Maqolada tahlil qilingan pedagogik tajribalar shuni ko‘rsatadiki, integratsiyalashgan fan loyihalari nafaqat o‘quvchilarning

individual rivojlanishiga, balki ta’lim jarayonining sifatini oshirish va zamonaviy pedagogik innovatsiyalarni joriy etishga ham xizmat qiladi. Shu sababli, boshlang‘ich sinflarda loyiha asosida ta’limni rivojlantirish ta’lim sifatini yaxshilash, o‘quvchilarda fundamental bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlashga imkon yaratadi. Biroq, loyiha asosida ta’limni amalga oshirish jarayonida o‘qituvchilarning malaka darajasi, resurslarning cheklanganligi va o‘quvchilarning yangi yondashuvga moslashishidagi qiyinchiliklar muammo sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun uzluksiz malaka oshirish kurslari, zamonaviy ta’lim texnologiyalarini keng joriy etish va motivatsion pedagogik metodlarni qo‘llash muhimdir. Natijada, boshlang‘ich ta’limda integratsiyalashgan fan loyihalari o‘quvchilarda chuqur bilim, keng kompetensiyalar, amaliy ko‘nikmalar va ijodiy yondashuvlarni shakllantiruvchi samarali pedagogik yondashuv sifatida muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga, bu yondashuv pedagogik jarayonning sifatini oshirish va o‘quvchilarning rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abduvaliyev, S. (2020). Integratsiyalashgan ta’lim texnologiyalari va ularning samaradorligi. Toshkent: O‘zbekiston Pedagogika Universiteti.

2. Akhmedov, T., & Karimov, F. (2019). Markaziy Osiyo mamlakatlarida ta’limning zamonaviy tendensiyalari. Bishkek: Ilmiy nashr.

3. Askarova, L. (2018). Pedagogik innovatsiyalar va integratsiyalashgan ta’lim. Moskva: Prosveshcheniye.

4.Meliyeva, D. O. (2025). BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING
MUSTAQIL ISHLASH KO‘NIKMALARINI INNOVATSION YONDASHUV
ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMI. Inter education & global study,
(2), 320-328.

5. Мелиева, Д. (2024). Boshlang ‘ich sinf o ‘quvchilarining mustaqil ishlash
qobiliyatini rivojlantirishning davlat miqyosidagi ahamiyati. Журнал универсальных научных исследований, 2(5), 1106-1108.

6. UNESCO. (2016). Innovative Pedagogies for Learning in the 21st Century. Paris: UNESCO Publishing.

7. Qosimov, M. (2022). Raqamli texnologiyalar va integratsiyalashgan fan loyihalari. Samarqand: Ilm-fan nashriyoti.

8. Salmanov, A. (2019). Fanlararo integratsiya: nazariya va amaliyot. Almaty: Kazakh National University Press.

9. Sultonova, G. (2021). Pedagogical Approaches to Integrated Projects in Primary Education. Tashkent: International Journal of Education, 7(2), 23–35.

10. Thomas, J. W. (2000). A Review of Research on Project-Based Learning. San Rafael, CA: The Autodesk Foundation.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA O‘QUVCHILARNING INDIVIDUAL IMKONIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Turayeva Adolat Ismoilovna
Qumqòrġon tumani
9-maktab boshlangich ta’lim o‘qituvchisi

Annotatsiya.*Maqolada boshlang‘ich ta’limda differensial yondashuvning o‘quvchilarning individual imkoniyatlari va ta’lim ehtiyojlarini hisobga olishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Turli darajadagi topshiriqlarni tanlash, pedagogik ko‘mak, mustaqil ishlashni qo‘llab-quvvatlash va insonparvar ta’lim muhitini yaratish masalalariga e’tibor qaratiladi.*

Kalit so‘zlar*: differensial ta’lim, individual yondashuv, boshlang‘ich sinf, ta’lim ehtiyoji, topshiriq, pedagogik qo‘llab-quvvatlash*

Abstract*.The article analyzes the role of differentiated instruction in considering pupils’ individual abilities and learning needs in primary education. It focuses on selecting tasks of different levels, providing pedagogical support, encouraging independent work, and creating a human-centered learning environment.*

Keywords*: differentiated instruction, individual approach, primary school, learning needs, tasks, pedagogical support*

Аннотация*.статье анализируется роль дифференцированного подхода в учёте индивидуальных возможностей и образовательных потребностей учащихся начальных классов. Рассматриваются вопросы подбора разноуровневых заданий, педагогической поддержки, развития самостоятельной работы и создания гуманной образовательной среды.*

Ключевые слова: *дифференцированное обучение, индивидуальный подход, начальная школа, образовательные потребности, задания, педагогическая поддержка*

KIRISH

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilimni o‘zlashtirish sur’ati, qiziqishi, tajribasi va mustaqil ishlash darajasi jihatidan farq qiladi. Shu bois barcha o‘quvchilarga bir xil mazmun va murakkablikdagi topshiriqlarni taklif qilish har doim ham kutilgan natijani bermaydi. Differensial yondashuv ana shu farqlarni hisobga olib, har bir o‘quvchining imkoniyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Insonparvar pedagogikaning muhim jihati o‘quvchini tayyor qolipga moslashtirish emas, balki uning rivojlanish imkoniyatlarini ko‘ra bilishdir. Differensial yondashuvda o‘quvchi o‘z imkoniyatiga mos vazifani bajarish orqali muvaffaqiyat tajribasini his qiladi.

ASOSIY QISM

Differensial yondashuvni tashkil etishning birinchi sharti o‘qituvchining o‘quvchilarni kuzatishi va ularning o‘zlashtirish xususiyatlari haqida muntazam ma’lumot to‘plashidir. Bunda faqat baho emas, balki topshiriqni bajarish usuli, xatolar xarakteri, mustaqillik darajasi va yordamga ehtiyoj ham hisobga olinadi.

Differensial topshiriqlarni turli murakkablik darajasida tashkil etish mumkin. Boshlang‘ich daraja asosiy tushunchalarni mustahkamlashga, o‘rta daraja bilimni amaliy vaziyatda qo‘llashga, yuqori daraja esa tahlil va mustaqil xulosa chiqarishga yo‘naltiriladi. Muhimi, darajalar o‘quvchini “kuchli” yoki “kuchsiz” deb belgilash vositasiga aylanmasligi kerak.

Differensial yondashuv o‘quvchining ijtimoiy-iqtisodiy va pedagogik salohiyatini ham rivojlantiradi. Kundalik hayotga oid matematik masalalar, xarid va tejamkorlikka doir vaziyatlar, vaqtni rejalashtirish yoki resurslardan oqilona foydalanish bo‘yicha topshiriqlar amaliy fikrlashni kuchaytiradi.

O‘qituvchi yordamining darajasi ham differensiallashtirilishi lozim. Ayrim o‘quvchilarga tayanch so‘zlar, namunalar yoki qo‘shimcha savollar kerak bo‘lsa, boshqalariga mustaqil izlanish imkonini berish maqsadga muvofiq. Bu o‘quvchining o‘rniga vazifani bajarishdan ko‘ra, uning mustaqil harakatini qo‘llab-quvvatlaydi.

Differensial ta’limda formativ baholash muhim. O‘quvchining faqat yakuniy natijasini emas, balki oldingi holatiga nisbatan rivojlanishini ko‘rsatish uning o‘ziga ishonchini mustahkamlaydi.

XULOSA

Differensial yondashuv boshlang‘ich ta’limda har bir o‘quvchining individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik vositadir. U o‘quvchilarning ehtiyojlari, tayyorgarligi va rivojlanish sur’atlarini hisobga olish imkonini beradi.

Samarali differensial ta’lim uchun o‘qituvchi diagnostik kuzatuv, moslashtirilgan topshiriq, bosqichma-bosqich pedagogik yordam va rivojlantiruvchi baholashni yagona tizimda qo‘llashi zarur. Bunday muhit o‘quvchining o‘z imkoniyatiga ishonchini oshiradi va ta’lim jarayonidagi faol ishtirokini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H., Matnazarova K.O. va boshq. Umumiy pedagogika. – Toshkent, 2020.

Mavlonova R.A. Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi. – Toshkent, 2006.

Tomlinson C.A. The Differentiated Classroom. 2nd ed. – Alexandria: ASCD, 2014.

Black P., Wiliam D. Assessment and Classroom Learning. – Assessment in Education, 1998.

Hattie J. Visible Learning. – London: Routledge, 2009.

“OLIY TA’LIM TA’LIM DASTURLARINING STANDARTLARGA MUVOFIQLIGINI BAHOLASHNING AVTOMATLASHTIRILGAN TIZIMINI ISHLAB CHIQISH”

Muallif: Normirzayeva Mastona Ilyosjon qizi
1-bosqich magistranti, Metrologiya va standartlashtirish kafedrasi, Magistratura bo‘limi, Namangan davlat texnika universiteti (NamDTU), Namangan viloyati, O‘zbekiston Respublikasi, ish telefoni: +998 88 052 52 57, e-mail: normirzayevamastona2@gmail.com
ORCID: 0009-0004-9894-3361
Muallif: Nurboyeva Turg’unjon Ikromjon qizi
1-bosqich magistranti, Metrologiya va standartlashtirish kafedrasi, Magistratura bo’limi, Namangan davlat texnika universiteti (NamDTU), Namangan viloyati, O’zbekiston Respublikasi, ish telefoni:+998941697712, e-mail:oishabonunurboyeva070801@gmail.com, ORCID:0009-0009-5804-3971

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida ta’lim dasturlarining belgilangan standartlar, malaka talablari va ta’lim sifatini ta’minlash mezonlariga muvofiqligini baholash jarayonlarini avtomatlashtirish masalalari yoritilgan. Ta’lim dasturlarini baholashda qo‘llaniladigan an’anaviy usullarning imkoniyatlari va cheklovlari tahlil qilinib, raqamli texnologiyalar asosida avtomatlashtirilgan baholash tizimini ishlab chiqish zarurati asoslangan. Taklif etilayotgan tizimning asosiy funksional modullari, baholash algoritmi, mezonlar bazasi va natijalarni shakllantirish mexanizmlari bayon etilgan. Shuningdek, tizimni joriy etish orqali baholash jarayonining shaffofligini oshirish, inson omiliga bog‘liq xatolarni kamaytirish, hujjatlarni qayta ishlashni tezlashtirish hamda ta’lim sifatini uzluksiz takomillashtirish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan.*

The media environment reveals a more complex picture. In May 2019, the OSCE Representative on Freedom of the Media welcomed the restoration of access in Uzbekistan to a number of previously blocked websites, including Deutsche Welle, Voice of America, BBC, Fergana Agency, Eurasianet, Reporters Without Borders, and Human Rights Watch. The OSCE described this as a positive development while calling for further reform toward an open, free, and diverse media landscape (OSCE Representative on Freedom of the Media, 2019).

This development was important in symbolic and practical terms. Access to foreign media reduced one of the clearest barriers between Uzbekistan and the international information environment. It also allowed the authorities to communicate openness through an observable policy change rather than a purely rhetorical commitment.

However, the subsequent record shows that opening has not been linear or complete. In its 2026 World Press Freedom Index, Reporters Without Borders ranked Uzbekistan 147th out of 180 countries and stated that criticizing those in power remained highly difficult (Reporters Without Borders, 2026). The RSF index is one external framework and should not be treated as a comprehensive measure of the entire political system, yet its continued criticism is reputationally significant because international audiences often rely on such indicators when evaluating reform claims.

Table 1.

Reform communication and external verification

Policy area	Domestic/reform signal	External verification / qualification
Cotton labor	Reform of recruitment and labor controls	ILO: systemic forced and child labor eradicated in 2021 harvest
Poverty reduction	Expanded social and economic reform agenda	World Bank: national poverty 17.0% (2021) → 5.8% (2025)
Information access	Previously blocked foreign sites restored in 2019	OSCE welcomed restoration and called for further media reform
Press freedom	Official openness narrative	RSF 2026: 147/180; criticism of authorities remains difficult

Sources: International Labour Organization (2022a, 2022b); OSCE Representative on Freedom of the Media (2019); Reporters Without Borders (2026); World Bank (2026b).

Discussion. The findings demonstrate that domestic reform and international image are linked through a credibility mechanism. Media diplomacy is most effective where three conditions are present: a clear policy problem, a measurable domestic response, and independent external verification. The cotton case meets all three conditions and therefore produced an unusually strong reputational effect. It changed the international

conversation because external actors were able to confirm that a long-standing problem had been substantially addressed.

The poverty-reduction case operates somewhat differently. The World Bank's assessment provides evidence of significant socio-economic improvement, but it also situates that progress within a broader agenda of employment, inclusion, regional inequality, and sustainability. For strategic communication, this means that complex reform stories should not be simplified into triumphalist narratives. International credibility is often strengthened when positive outcomes are presented together with recognized limitations and future tasks.

The media-environment case reveals the central vulnerability of Uzbekistan's current media diplomacy. An international narrative of openness creates expectations about information pluralism, journalistic autonomy, access to public information, and tolerance of criticism. Where these expectations are only partially met, a credibility gap can emerge between external messaging and domestic practice. The OSCE's 2019 recognition of restored access to foreign media and RSF's 2026 critical ranking are not mutually exclusive. Together they suggest a trajectory of partial opening accompanied by persistent structural constraints.

This is theoretically important because it shows why public diplomacy cannot be reduced to persuasion. In the classic public-relations model, the principal task is to formulate a favorable message. In a networked diplomacy model, however, the message is continuously checked against evidence produced by other actors. Journalists, international organizations, tourists, businesses, civil society, and ordinary users can contest official narratives in real time. The state therefore gains less from controlling the narrative than from improving the institutional conditions that make the narrative credible.

A useful analytical model for Uzbekistan can be expressed as follows: domestic reform, international communication, third-party verification, international legitimacy, reputational capital. A failure at the verification stage weakens the entire sequence. Conversely, when external assessment confirms domestic change, reputational gains become more durable because they no longer depend exclusively on state-generated claims.

The results also suggest that the term "New Uzbekistan" functions as more than a domestic political label. It has become an international branding frame into which economic reform, social-policy results, regional cooperation, and legal modernization are placed. The long-term sustainability of this frame, however, will depend on institutional continuity. If the brand develops faster

than the underlying institutions, communication risks appearing promotional. If institutional reform deepens, the brand can acquire greater substance and soft-power value.

CONCLUSION

This article concludes that the international image of New Uzbekistan is increasingly shaped by the interaction between domestic socio-political transformation and external verification. The most persuasive reputational gains have occurred where policy change has been independently documented. The elimination of systemic forced and child labor in the cotton harvest, as recognized by the ILO, is the strongest example of this process.

Socio-economic indicators also contribute to the reform narrative. The World Bank's finding that the national poverty rate fell from 17.0 percent in 2021 to 5.8 percent in 2025 provides significant evidence of social change, while its broader analysis reminds policymakers that reputation depends on the durability and inclusiveness of these outcomes. Such external assessments are valuable precisely because they are not identical to government messaging.

The information environment remains the key area of tension. The restoration of access to a number of previously blocked foreign media and human-rights websites in 2019 represented an important opening, but the 2026 RSF ranking indicates that serious concerns about press freedom and the difficulty of criticizing authorities persist. This tension is central to media diplomacy because a state that communicates openness internationally is judged partly by the openness of its domestic information system.

The principal theoretical conclusion is that credible media diplomacy is not produced by positive messaging alone. It emerges when domestic institutions generate outcomes that can withstand independent scrutiny. For Uzbekistan, the strategic challenge is therefore not merely to increase the quantity of favorable international coverage, but to narrow the gap between external narratives and internal practice. In the long term, the strongest form of nation branding will be the institutional credibility of reform itself.

REFERENCES

1. Gilboa, E. (2001). Diplomacy in the media age: Three models of uses and effects. Diplomacy & Statecraft, 12(2), 1–28. https://doi.org/10.1080/09592290108406201

2. International Labour Organization. (2022a, March 1). Uzbek cotton is free from systemic child labour and forced labour. https://www.ilo.org/resource/news/uzbek-cotton-free-systemic-child-labour-and-forced-labour

3. International Labour Organization. (2022b, March 14). ILO welcomes lifting of Cotton Campaign boycott of Uzbekistan. https://www.ilo.org/resource/news/ilo-welcomes-lifting-cotton-campaign-boycott-uzbekistan

4. Melissen, J. (Ed.). (2005). The new public diplomacy: Soft power in international relations. Palgrave Macmillan. https://doi.org/10.1057/9780230554931

5. Nye, J. S., Jr. (2004). Soft power: The means to success in world politics. PublicAffairs.

6. OSCE Representative on Freedom of the Media. (2019, May 15). OSCE Media Freedom Representative welcomes restored access to online media in Uzbekistan and calls to also unblock RFE/RL website. https://rfom.osce.org/representative-on-freedom-of-media/419693

7. President of the Republic of Uzbekistan. (2017, September 20). President Shavkat Mirziyoyev addressed the 72nd Session of the United Nations General Assembly. https://www.president.uz/en/lists/view/106

8. Reporters Without Borders. (2026). Uzbekistan: World Press Freedom Index 2026. https://rsf.org/en/country/uzbekistan

9. World Bank. (2026a). Uzbekistan. https://www.worldbank.org/ext/en/country/uzbekistan

10. World Bank. (2026b). Uzbekistan poverty and equity assessment: Rising to prosperity—Broadening opportunities for all. World Bank Group. https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/099091826081016988

YANGI O‘ZBEKISTONNING JAHONGA OCHILISHI VA IJTIMOIY-SIYOSIY TRANSFORMATSIYASI: MEDIA DIPLOMATIYASI PRIZMASIDAN TAHLIL

Amonqulova Muslima Amonqulovna
O‘zbekiston Milliy universiteti 2- bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada 2017–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining jahonga ochilishi, tashqi siyosatdagi transformatsiya hamda mamlakat ichidagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar media diplomatiyasi nazariyasi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi Yangi O‘zbekiston siyosatida ichki islohotlar, tashqi siyosiy faollik va xalqaro kommunikatsiya o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlashdan iborat. Tadqiqotda sifat kontent-tahlili, qiyosiy tahlil va ikkilamchi statistik ma’lumotlarni tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Empirik baza sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining BMT Bosh Assambleyasidagi nutqlari, Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari, BMT, Jahon banki, Xalqaro mehnat tashkiloti, Jahon savdo tashkiloti, YXHT va Reporters Without Borders materiallari olindi. Natijalar 2017-yildan keyin O‘zbekiston tashqi siyosiy kommunikatsiyasida “yopiq va ehtiyotkor davlat” modelidan “islohotchi, ochiq, mintaqaviy hamkorlikka va xalqaro integratsiyaga intiluvchi davlat” narrativiga o‘tish kuzatilganini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *Yangi O‘zbekiston, media diplomatiyasi, public diplomacy, tashqi siyosat, xalqaro imij, soft power, Markaziy Osiyo, xalqaro kommunikatsiya, islohotlar, davlat brendingi.*

Abstract. *This article analyzes the opening of the Republic of Uzbekistan to the world, the transformation of its foreign policy, and domestic socio-political changes during 2017–2026 from the perspective of media diplomacy theory. The purpose of the study is to identify the interrelationship between domestic reforms, foreign policy activism, and international communication within the framework of the New Uzbekistan policy. The research employs qualitative content analysis, comparative analysis, and the analysis of secondary statistical data. The empirical basis of the study consists of speeches delivered by the President of the Republic of Uzbekistan at the United Nations General Assembly, data from the National Statistics Committee, and materials published by the United Nations, the World Bank, the International Labour Organization, the World Trade Organization, the OSCE, and Reporters*

Without Borders. The findings demonstrate that, since 2017, Uzbekistan's foreign policy communication has undergone a transition from the image of a "closed and cautious state" to the narrative of a "reforming, open state committed to regional cooperation and international integration."

Keywords: *New Uzbekistan, media diplomacy, public diplomacy, foreign policy, international image, soft power, Central Asia, international communication, reforms, nation branding.*

KIRISH

XXI asr xalqaro munosabatlarida davlatning tashqi siyosiy salohiyati faqat harbiy, iqtisodiy yoki an'anaviy diplomatik vositalar orqali belgilanmaydi. Global axborot makonining kengayishi, ijtimoiy tarmoqlar va transmilliy OAV ta'sirining oshishi diplomatik kommunikatsiyaning yangi shakllarini yuzaga keltirdi. Natijada xalqaro siyosatda davlatlarning nima qilayotgani bilan bir qatorda, bu faoliyatning xalqaro auditoriyalarga qanday tushuntirilishi va qanday talqin qilinishi ham muhim strategik resursga aylandi.

Gilboa (2001) media va diplomatiya o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilib, public diplomacy, media diplomacy va media-broker diplomacy tushunchalarini farqlaydi. Uning yondashuviga ko'ra, media diplomatiyasi siyosiy rahbarlar va davlat institutlarining ommaviy kommunikatsiya vositalaridan boshqa siyosiy aktorlar va xalqaro auditoriyalar bilan aloqa o'rnatishda foydalanishini anglatadi. Public diplomacy esa xorijiy jamoatchilik fikriga davlat va nodavlat subyektlarning kommunikatsiya orqali ta'sir ko'rsatishi bilan bog'liq (Gilboa, 2001).

Mazkur yondashuv Joseph Nye tomonidan ishlab chiqilgan "soft power" konsepsiyasi bilan ham uzviy bog'liq. Soft power davlatning majburlash yoki moddiy rag'batlantirishdan ko'ra, o'z qadriyatlari, madaniyati, siyosiy modeli va xalqaro nufuzi orqali jozibadorlik yaratish qobiliyatini anglatadi (Nye, 2004). Melissen (2005) esa "yangi public diplomacy" sharoitida davlatning xorijiy auditoriyalar bilan bir tomonlama axborot uzatishdan dialog, tarmoq va davlatdan tashqari aktorlarni jalb etishga asoslangan kommunikatsiyaga o'tayotganini ta'kidlaydi.

Ushbu nazariy yondashuvlar 2017-yildan keyingi O'zbekiston tashqi siyosatini o'rganishda alohida ahamiyat kasb etadi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 19-sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida xalqaro hamjamiyatga O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar haqida batafsil ma'lumot berildi hamda mamlakatning "yangi qiyofasi"ni shakllantirish maqsadi ilgari surildi. Shu nutqda davlat

siyosatida “inson manfaatlari” ustuvorligi xalqaro auditoriyaga asosiy siyosiy tezislardan biri sifatida taqdim etildi.

Shu jihatdan 2017-yil nafaqat ichki islohotlarning yangi bosqichi, balki O‘zbekistonning o‘zini xalqaro axborot makonida qayta pozitsiyalash jarayonining boshlanish nuqtasi sifatida ham qaralishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Mazkur tadqiqot sifat va miqdoriy ma’lumotlarni birlashtiruvchi aralash analitik yondashuvga asoslandi.

Birinchidan, sifat kontent-tahlili orqali rasmiy tashqi siyosiy nutqlarda muntazam uchraydigan “ochiqlik”, “islohot”, “inson manfaatlari”, “Markaziy Osiyo”, “yaxshi qo‘shnichilik”, “xalqaro hamkorlik” va “integratsiya” kabi kommunikatsion kategoriyalar talqin qilindi. Ikkinchidan, qiyosiy-dinamik tahlil orqali tashqi savdo va turizmning 2017-yildan oldingi va keyingi ko‘rsatkichlari solishtirildi. Uchinchidan, case-study usuli asosida Markaziy Osiyoda mintaqaviy yaqinlashuv, paxta sektorida majburiy mehnatga barham berish, xalqaro institutlarga integratsiyalashuv va media-axborot ochiqligi alohida o‘rganildi. Tadqiqot to‘liq miqyosli avtomatlashtirilgan media-monitoring yoki barcha xalqaro OAV materiallarini miqdoriy kodlashni da’vo qilmaydi. Shu sababli xulosalar institutsional kommunikatsiya, rasmiy statistika va xalqaro tashkilotlar baholarining triangulyatsiyasiga asoslanadi.

NATIJALAR. 2017-yildan keyingi davrning muhim xususiyati ichki islohotlarni tashqi siyosiy kommunikatsiya bilan bog‘lash bo‘ldi. BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida O‘zbekiston rahbari tomonidan mamlakatdagi islohotlarning xalqaro auditoriyaga keng taqdim etilishi mazkur jarayonning ramziy boshlanish nuqtasi sifatida ko‘rilishi mumkin.

Bunda kommunikatsion model faqat “O‘zbekiston nimani xohlaydi?” savoliga emas, “O‘zbekiston qanday o‘zgarmoqda?” degan savolga ham javob bera boshladi. Bu esa tashqi siyosiy kommunikatsiyada ichki transformatsiyaning reputatsion resursga aylanganini ko‘rsatadi.

Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasi 2016-yildagi 24,232 mlrd AQSH dollaridan 2025-yilda 82,764 mlrd dollarga yetgan (National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan, 2026a). Bu o‘zgarishning o‘zi tashqi siyosatning sabab-oqibat natijasi ekanini to‘liq isbotlamaydi. Biroq tashqi iqtisodiy aloqalarning sezilarli kengayishi “ochiqlik” narrativining iqtisodiy baza bilan birgalikda shakllanganligini ko‘rsatadi.

2017-yildan keyingi tashqi siyosatning eng sezilarli yo‘nalishlaridan biri Markaziy Osiyoni ustuvor strategik makon sifatida belgilash bo‘ldi.

O‘zbekiston Prezidenti 2017-yilda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlarini muntazam o‘tkazish tashabbusini ilgari surgan. Birinchi maslahat uchrashuvi 2018-yil mart oyida Qozog‘istonda, ikkinchisi 2019-yil noyabr oyida Toshkentda o‘tkazildi (President of the Republic of Uzbekistan, 2021).

Bu tashabbus media diplomatiyasi nuqtayi nazaridan ikki funksiyani bajardi: O‘zbekistonning xalqaro obrazida mintaqaviy hamkorlikni ilgari suruvchi aktor modeli kuchaydi va “Markaziy Osiyo” tushunchasi milliy diplomatik narrativning tarkibiy qismiga aylandi. Shu tariqa mamlakatning xalqaro identifikatsiyasi individual milliy brend bilan bir qatorda mintaqaviy brendga ham bog‘landi.

Turizm O‘zbekistonning ochiqlashuv jarayonida iqtisodiy ko‘rsatkichdan tashqari xalqaro kommunikatsion vosita sifatida ham ahamiyat kasb etdi. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, turistik maqsadlarda O‘zbekistonga kelgan xorijiy fuqarolar soni 2017-yildagi 2,690 mln kishidan 2025-yilda 11,680 mln kishiga yetgan (National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan, 2026b). 2020–2021-yillardagi pandemiya bilan bog‘liq pasayishni hisobga olmaganda, uzoq muddatli dinamika xalqaro mobilitetning sezilarli kengayganini ko‘rsatadi.

Media diplomatiyasi uchun mazkur jarayonning ahamiyati shundaki, turist faqat xizmat iste’molchisi emas. Zamonaviy raqamli makonda xorijiy sayyoh Instagram, YouTube, TikTok, Telegram, bloglar va turli sayohat platformalari orqali mamlakat haqidagi tasavvurlarni ishlab chiqaruvchi nodavlat kommunikatorga aylanadi. Shu bois Samarqand, Buxoro va Xiva kabi tarixiy markazlarning xalqaro media va turistik diskursda faol ilgari surilishi nation branding hamda public diplomacy bilan bevosita bog‘liq.

Yil	**Xorijiy turistik tashriflar**
2017	2,690 mln
2018	5,346 mln
2019	6,749 mln
2020	1,504 mln
2021	1,881 mln
2022	5,233 mln
2023	6,626 mln
2024	7,957 mln
2025	11,680 mln

Izoh. Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi (2026b).

O‘zbekiston media diplomatiyasining muhim holatlaridan biri paxta yig‘im-terimida majburiy va bolalar mehnati muammosining hal etilishi bilan bog‘liq. Xalqaro mehnat tashkiloti 2021-yilgi paxta yig‘im-terimi bo‘yicha monitoring natijalarida O‘zbekistonda tizimli majburiy mehnat va tizimli bolalar mehnatiga barham berilganini qayd etdi. Monitoring doirasida 11 ming paxta teruvchi bilan suhbat o‘tkazilgan va 2021-yilda paxta terimida qatnashganlarning 99 foizi ixtiyoriy mehnat qilgani aniqlangan (International Labour Organization, 2022a).

Mazkur o‘zgarishlardan so‘ng Cotton Campaign 2022-yil 10-mart kuni O‘zbekiston paxtasiga nisbatan 2011-yildan amal qilib kelgan global boykotni bekor qildi. Boykot tashabbusiga 331 xalqaro brend va retailer qo‘shilgan edi (International Labour Organization, 2022b). Bu holat media diplomatiyasida “xalqaro tanqid → ichki siyosiy islohot → mustaqil xalqaro monitoring → xalqaro e’tirof → reputatsion o‘zgarish” modelini ko‘rsatadi.

2020-yil 13-oktabrda O‘zbekiston BMT Bosh Assambleyasi tomonidan tarixda birinchi marta BMT Inson huquqlari kengashiga 2021–2023-yillar muddatiga a’zo etib saylandi (United Nations, 2020). Bunday institutlarda ishtirok etish davlatni xalqaro normalarni shakllantirish jarayonida qatnashuvchi aktor sifatida ko‘rsatadi, biroq ayni paytda xalqaro standartlarga rioya etish bilan bog‘liq reputatsion majburiyatlarni ham oshiradi.

Jahon savdo tashkilotiga qo‘shilish jarayoni ham xalqaro integratsiyaning kommunikatsion ko‘rsatkichiga aylangan. 2026-yil iyul holatiga ko‘ra, O‘zbekiston JSTga a’zolik muzokaralari doirasida 31 ta ikki tomonlama bozorga kirish kelishuvini tashkilot kotibiyatiga topshirgan. O‘zbekiston tomoni 2026-yil martidan iyuligacha 190 ta normativ-huquqiy hujjatni JST qoidalariga muvofiqlashtirish bo‘yicha choralar ko‘rganini ma’lum qilgan. Hukumat muzokaralarni 2026-yilda yakunlash maqsadini qayd etgan (World Trade Organization, 2026). JSTga qo‘shilish maqola yozilgan vaqtda yakunlangan fakt emas, balki davom etayotgan jarayon sifatida talqin qilindi.

Jahon bankining 2026-yilgi baholashiga ko‘ra, O‘zbekistonda real yalpi ichki mahsulot o‘sishi 2017–2025-yillar davomida o‘rtacha yiliga 6 foizni tashkil etgan. Milliy kambag‘allik darajasi 2021-yildagi 17 foizdan 2025-yilda 5,8 foizgacha kamaygan va mazkur davrda taxminan 3,7 million kishi kambag‘allik holatidan chiqqan (World Bank, 2026a, 2026b). Media diplomatiyasi nuqtayi nazaridan bu “domestic performance as external

reputation” tamoyili bilan izohlanishi mumkin: davlatning ichki iqtisodiy va ijtimoiy natijalari tashqi auditoriyaga yangilanayotgan siyosiy identitetni tasdiqlovchi dalil sifatida taqdim etiladi.

4. MUHOKAMA. Olingan natijalar 2017-yildan keyingi O‘zbekiston tashqi siyosiy kommunikatsiyasida sifat o‘zgarishi yuz berganini ko‘rsatadi. An’anaviy modelni shartli ravishda “Davlat → Tashqi ishlar vazirligi → xorijiy hukumat” shaklida ifodalash mumkin. Yangi kommunikatsion model esa “Davlat → diplomatiya → xalqaro tashkilotlar → xorijiy OAV → ekspertlar → biznes → turistlar → raqamli platformalar → xorijiy jamoatchilik” tarzida kengaygan.

Bu o‘zgarish Melissen (2005) ta’kidlagan “new public diplomacy” modeliga yaqin: kommunikatsiya davlatlararo yopiq kanaldan ko‘p aktorli va nisbatan ochiq tarmoqqa o‘tadi. Bunday modelda davlat o‘zining xalqaro imijini to‘liq nazorat qila olmaydi. Turistlar, xalqaro tashkilotlar, xorijiy jurnalistlar, investorlar, nodavlat tashkilotlar va oddiy internet foydalanuvchilari ham davlat haqidagi xalqaro narrativning hammualliflariga aylanadi.

Tadqiqot davomida aniqlangan “islohot”, “Markaziy Osiyo”, “xalqaro integratsiya”, “turizm”, “savdo” va “inson manfaatlari” singari narrativlarni birlashtiruvchi umumiy tushuncha ochiqlik ekanligini ko‘rish mumkin. Mazkur ochiqlik siyosiy, mintaqaviy, iqtisodiy va ijtimoiy-kommunikatsion o‘lchamlarda namoyon bo‘ladi. Shu ma’noda “Yangi O‘zbekiston” tushunchasi ichki siyosiy shior bilan cheklanmay, xalqaro auditoriyaga yo‘naltirilgan reputatsion ramkaga ham aylangan.

2019-yil may oyida YXHTning OAV erkinligi bo‘yicha vakili O‘zbekistonda o‘n yildan ortiq vaqt davomida vaqti-vaqti bilan bloklangan bir qator internet nashrlariga kirish qayta tiklanganini olqishlagan. Ular orasida Deutsche Welle, Voice of America, BBC, Fergana Agency, Eurasianet, Human Rights Watch va Reporters Without Borders resurslari mavjud edi (OSCE Representative on Freedom of the Media, 2019). Bu axborot ochiqligining muhim institutsional belgisi bo‘lgan.

Shu bilan birga, Reporters Without Borders’ning 2026-yilgi World Press Freedom Index reytingida O‘zbekiston 180 davlat orasida 147-o‘rinda qayd etilgan va tashkilot mamlakatda media mustaqilligi bilan bog‘liq muammolar saqlanib qolayotganini bildirgan (Reporters Without Borders, 2026). Shu sababli O‘zbekiston media diplomatiyasi uchun asosiy reputatsion masala faqat xorijiy OAVda ijobiy materiallar sonini ko‘paytirish emas, balki xalqaro

auditoriyaga berilayotgan “ochiqlik” haqidagi xabar bilan mamlakat ichidagi real axborot muhiti o‘rtasidagi muvofiqlikni kuchaytirishdir.

Birinchi bosqich – 2017–2019-yillar: ochilish va yangi narrativning shakllanishi. Bu davrda asosiy vazifa xalqaro auditoriyaga O‘zbekistonda yangi siyosiy kurs boshlanganini tushuntirish edi. BMT minbaridagi chiqishlar, qo‘shni davlatlar bilan munosabatlarni faollashtirish, xorijiy OAV resurslariga kirishni kengaytirish va turizmni liberallashtirish ushbu bosqichning muhim xususiyatlari bo‘ldi.

Ikkinchi bosqich – 2020–2022-yillar: islohotlarning xalqaro verifikatsiyasi. Bu bosqichda O‘zbekistonning yangi narrativi xalqaro institutlar tomonidan amaliy natijalar asosida baholana boshladi. BMT Inson huquqlari kengashiga saylanish hamda paxta sektorida tizimli majburiy va bolalar mehnatiga barham berilganining XMT tomonidan tasdiqlanishi muhim reputatsion hodisalar bo‘ldi.

Uchinchi bosqich – 2023–2026-yillar: institutsional integratsiya va reputatsiyani mustahkamlash. Bu bosqichda asosiy e’tibor ochilishning o‘zini e’lon qilishdan ko‘ra, uni xalqaro iqtisodiy, huquqiy va institutsional tizimlarga integratsiya orqali mustahkamlashga qaratildi. JSTga a’zolik jarayonining jadallashuvi, savdo va turizm ko‘rsatkichlarining o‘sishi mazkur bosqichning muhim indikatorlari sifatida namoyon bo‘lmoqda.

XULOSA

Tadqiqot natijalari 2017–2026-yillarda O‘zbekistonning tashqi siyosati va xalqaro kommunikatsiyasida sezilarli transformatsiya yuz berganini ko‘rsatadi.

Birinchidan, O‘zbekistonning xalqaro kommunikatsiyasida “yopiq va ehtiyotkor davlat” obrazidan “ochiqlik, islohot va xalqaro integratsiyaga intilayotgan davlat” narrativiga o‘tish kuzatilmoqda.

Ikkinchidan, Markaziy Osiyo yangi tashqi siyosatning nafaqat geografik, balki kommunikatsion markaziga aylandi. O‘zbekiston o‘zini mintaqadan alohida aktor sifatida emas, balki mintaqaviy hamkorlik va o‘zaro bog‘liqlikni ilgari suruvchi davlat sifatida pozitsiyalashga intilmoqda.

Uchinchidan, ichki iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar xalqaro reputatsiya siyosatining tarkibiy qismiga aylandi. Tashqi savdo aylanmasining 2016-yildagi 24,2 mlrd AQSH dollaridan 2025-yilda 82,8 mlrd dollarga yetishi, 2025-yilda 11,68 mln xorijiy turistik tashrif qayd etilishi, kambag‘allik ko‘rsatkichining pasayishi va paxta sektoridagi mehnat islohotlarining xalqaro institutlar tomonidan e’tirof etilishi “islohot qilayotgan davlat” narrativining empirik asoslarini yaratmoqda.

To‘rtinchidan, Yangi O‘zbekiston media diplomatiyasida an’anaviy davlatlararo diplomatiyadan ko‘p aktorli public diplomacy modeliga o‘tish elementlari kuzatilmoqda. Xalqaro tashkilotlar, xorijiy OAV, sayyohlar, investorlar, ekspertlar va raqamli platformalardagi foydalanuvchilar mamlakat xalqaro imijining shakllanishida tobora muhimroq rol o‘ynamoqda.

Beshinchidan, media diplomatiyasining eng muhim muammosi tashqi kommunikatsiya bilan ichki institutsional amaliyot o‘rtasidagi muvofiqlik masalasidir. Axborot maydonini nisbatan ochish bo‘yicha amalga oshirilgan o‘zgarishlarga qaramay, xalqaro monitoring institutlari O‘zbekistondagi media erkinligiga oid qator muammolarni qayd etishda davom etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Gilboa, E. (2001). Diplomacy in the media age: Three models of uses and effects. Diplomacy & Statecraft, 12(2), 1–28. https://doi.org/10.1080/09592290108406201

International Labour Organization. (2022a, March 1). Uzbek cotton is free from systemic child labour and forced labour. https://www.ilo.org/resource/news/uzbek-cotton-free-systemic-child-labour-and-forced-labour

International Labour Organization. (2022b, March 14). ILO welcomes lifting of Cotton Campaign boycott of Uzbekistan. https://www.ilo.org/resource/news/ilo-welcomes-lifting-cotton-campaign-boycott-uzbekistan

Melissen, J. (Ed.). (2005). The new public diplomacy: Soft power in international relations. Palgrave Macmillan. https://doi.org/10.1057/9780230554931

National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. (2026a). Volume of foreign trade turnover (annual). https://siat.stat.uz/data/2358/?lang=en

National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. (2026b). The number of inbound tourist trips by foreign citizens to the Republic of Uzbekistan. https://siat.stat.uz/data/1038/?lang=en

Nye, J. S., Jr. (2004). Soft power: The means to success in world politics. PublicAffairs.

OSCE Representative on Freedom of the Media. (2019, May 15). OSCE Media Freedom Representative welcomes restored access to online media in Uzbekistan and calls to also unblock RFE/RL website. https://rfom.osce.org/representative-on-freedom-of-media/419693

President of the Republic of Uzbekistan. (2017, September 20). President Shavkat Mirziyoyev addressed the 72nd Session of the United Nations General Assembly. https://www.president.uz/en/lists/view/1063

President of the Republic of Uzbekistan. (2021). President delivers a speech at the Consultative Meeting of the Heads of Central Asian States. https://president.uz/en/lists/view/4530

Reporters Without Borders. (2026). Uzbekistan: World Press Freedom Index 2026. https://rsf.org/en/country/uzbekistan

United Nations. (2020, October 13). Election of the Human Rights Council: 75th session of the United Nations General Assembly. https://www.un.org/en/ga/75/meetings/elections/hrc.shtml

World Bank. (2026a). Uzbekistan. https://www.worldbank.org/ext/en/country/uzbekistan

World Bank. (2026b). Uzbekistan poverty and equity assessment: Rising to prosperity—Broadening opportunities for all. https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/099091826081016988

World Trade Organization. (2026, July 27). Uzbekistan reaffirms 2026 WTO accession goal, thanks members for continuing engagement. https://www.wto.org/english/news_e/news26_e/acc_27jul26_470_e.htm

NÔM POEZIYASIDA HISOB-SO‘ZLAR TIZIMI: NGUYỄN TRÃINING “QUỐC ÂM THI TẬP” TO‘PLAMI MISOLIDA

Dilbarxon Mirzaxparovna Qodirova
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, katta o‘qituvchi
qodirova.dilbarxon@yandex.ru
ORCID: 0009-0007-8268-6024

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqot mumtoz vyetnam adabiyotining yorqin namunasi bo‘lmish Nguyễn Trãi[16] qalamiga mansub “Quốc Âm Thi Tập” (Milliy tildagi she’rlar to‘plami) asari[17]dagi hisob so‘zlar tadqiqiga bag‘ishlanadi. Maqolada to‘plamning 1–111-she’rlari doirasida uchraydigan miqdoriy va shakliy hisob birliklarining leksik-semantik xususiyatlari, sintaktik modellari hamda “cái” va “con” hisob so‘zlarining matndagi chastotasi va ulushi lingvostatistik metodlar orqali tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Nguyễn Trãi, Quốc Âm Thi Tập, Chữ Nôm, vyetnamshunoslik, hisob so‘zlar, cái va con, leksik-semantik tahlil, lingvostatistika.*

Abstract. *This study is dedicated to the investigation of numeral classifiers in “Quốc Âm Thi Tập” (Collection of Poems in the National*

[16] Nguyễn Trãi [Nguyen Chay] (1380–1442) ziyolilar oilasida 1345-yilda tug‘ilgan. U 20 yoshidayoq barcha asosiy tarixiy-falsafiy kitoblar va yilnomalarni o‘zlashtirgan 1400-yilda u “Thai học sinh” (oliy ma’lumotli yosh olim) imtihonidan muvaffaqiyatli o‘tib, otasi bilan birgalikda Ho sulolasi davrida davlat xizmatiga kirgan. Nguyen Chay esa Oliy nazorat palatasi raisi (*Chính chưởng đài Ngự sử*) lavozimiga tayinlangan. Vyetnam Ming sulolasi istilosi ostida qolgandan so‘ng, Nguyen Chay mamlakatni himoya qilish va bosqinchilarga qarshi kurashish maqsadida Le Loi boshchiligidagi Lam Son qo‘zg‘oloniga qo‘shildi. U Lam Son isyonchilarining harbiy strategiyasini ishlab chiqish, shuningdek, Ming qo‘shinlari bilan olib borilgan diplomatik yozishmalar va maktublarni tayyorlashda bosh-qosh bo‘lgan mohir harbiy strategga aylandi. U Keyingi Le sulolasining asos soluvchi safdoshi va nufuzli davlat arbobi edi. Biroq, 1442-yil 19-sentabrda Lệ Chi Viên (Lichiy bog‘i) fojiasi oqibatida Nguyen Chayning butun oilasi “uch avlodni qirish” (*tru di tam tộc*) jazosiga duchor qilindi. 1464-yilda qirol Le Thanh Ton uning nomini oqlash haqida maxsus farmon chiqardi. Nguyễn Quỳnh Anh. Thơ nhàn của Nguyễn Trãi trong Quốc âm thi tập // Báo Giáo dục và Thời đại. – 2024. – 11 iyun: https://giaoducthoidai.vn/tho-nhan-cua-nguyen-trai-trong-quoc-am-thi-tap-post686884.html

[17] Quốc âm thi tập” (國音詩集 — *“Milliy tildagi she’rlar to‘plami”*) – XV asrning buyuk mutafakkiri, davlat arbobi, harbiy strateg va shoir Nguyễn Trãi (1380–1442) qalamiga mansub bo‘lib, Vyetnam adabiyoti tarixida *chữ Nôm* (milliy iyeroglif yozuvi) va milliy tilda yaratilgan ilk mumtoz she’riy to‘plam hisoblanadi. Asar muallifning “Ức Trai tập” majmuasining VII jildini tashkil etib, jami 254 ta she’rni qamrab oladi. To‘plam to‘rtta asosiy tematik ruknga (*Vô đề* –sarlavhasiz she’rlar, *Thời lệnh môn* –fasllar va vaqt, *Hoa mộc môn* –tabiat va gullar, *Cầm thú môn* –hayvonot olami) bo‘linadi. Tang she’riyati qoidalari (*Luật Đường*) va xitoycha adabiy an’analarni milliy tilning o‘ziga xos tabiatiga mahorat bilan uyg‘unlashtirgani uchun bu yodgorlik Vyetnam milliy adabiy tili va poetikasining shakllanishida fundamental manba sifatida e’tirof etiladi. Thích nữ Huệ Niệm. (2023, 10 oktyabr). Chất Thiền của Nguyễn Trãi trong Quốc âm thi tập. *Tạp chí Nghiên cứu Phật học*. https://tapchinghiencuuphathoc.vn/chat-thien-cua-nguyen-trai-trong-quoc-am-thi-tap.html

Language), a masterpiece of classical Vietnamese literature authored by Nguyễn Trãi. The article analyzes the lexical-semantic features and syntactic models of quantitative and formal measure units occurring within poems 1 to 111 of the collection, and examines the frequency and proportion of the classifiers "cái" and "con" in the text using linguostatistical methods.

Keywords: *Nguyễn Trãi, Quốc Âm Thi Tập, Chữ Nôm, Vietnamese studies, classifiers, cái and con, lexical-semantic analysis, linguostatistics.*

1. KIRISH

Klassik vyetnam tilida hisob so‘zlar otlarning ma’noviy turkumlanishini belgilash, obyektning shakl-shamoili, moddiylik darajasi va uslubiy bo‘yog‘ini ifodalashda muhim grammatik va semantik vosita hisoblanadi. XV asrda Hán-Nôm (Chữ Nôm) yozuvida bitilgan “Quốc âm thi tập” to‘plami vyetnam milliy tilining shakllanish bosqichlarini o‘rganishda asosiy manbalardan biridir. Asarning dastlabki 1–111-she’rlarida uchraydigan hisob so‘zlar tizimini o‘rganish, xususan, zamonaviy vyetnam tilida universal hisoblangan *“cái”* va *“con”* birliklarining diaxronik va pragmatik xususiyatlarini aniqlash vyetnam tilshunosligi uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi.

XV asr Vyetnam adabiyoti va madaniyati tarixida tub burilish yasagan buyuk mutafakkir, davlat arbobi, harbiy strateg hamda shoir Nguyễn Trãi (1380–1442) qalamiga mansub boy adabiy meros Vyetnam hamda jahon sharqshunosligining doimiy tadqiqot obyektlaridan biri bo‘lib kelmoqda. Uning ijodiy merosi xitoy tilidagi (*chữ Hán*) va milliy iyeroglif yozuvidagi (*chữ Nôm*) fundamental asarlarni o‘z ichiga oladi. Ular orasida Vyetnam Nôm adabiyotining poydevori va ilk mumtoz namunasi sifatida e’tirof etilgan “Quốc âm thi tập” (國音詩集 – “Milliy tildagi she’rlar to‘plami”) alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ushbu noyob manbaning matn tarixi, saqlanish joylari, uning tarkibiy tuzilishi hamda Tang she’riyati qoidalari (*Luật Đường*) asosida milliy tilda shakllangan poetik xususiyatlarini kompleks yoritish zarurati bilan belgilanadi[18].

[18] Luật Đường (Xitoycha: 唐律 – *Tang lǜ*) – Tang sulolasi davri (618–907) Xitoy mumtoz she’riyatida shakllangan va keyinchalik Vyetnam, Koreya, Yaponiyada keng tarqalgan *qat’iy she’riyat qoidalari, vazn va qofiya tizimidir*. Vyetnam adabiyotida (xususan, *Chữ Nôm* va *Quốc âm* she’riyatida) bu qoida Vyetnam Tang she’riyati (Thơ Đường luật) deb ataladi. U matn poetikasi va ritmini ta’minlovchi o‘ta mukammal va qat’iy talablarga ega qoidadir.

Tadqiqotning maqsadi – Nguyễn Trãining “Quốc âm thi tập” asarining manbashunoslik asoslari hamda tematik ruknlarga tasniflanish tamoyillarini tahlil qilish, asar matnidagi hisob-so‘zlarning lingvistik-semantik xususiyatlarini qiyosiy-strukturaviy jihatdan ochib berish va lingvostatistik ko‘rsatkichlarini aniqlashdan iborat.

2. Tadqiqot materiallari va metodlari

Mazkur tadqiqotda ilmiy xolislik va ishonchlilikni ta’minlash maqsadida quyidagi metodlardan foydalanildi:

Matnshunoslik (tekstologik) metodi – “Quốc âm thi tập” asarining bizgacha yetib kelgan qo‘lyozma nusxalari va ularning matniy tarkibiy qismlarini o‘rganishda qo‘llanildi.

Qiyosiy-tarixiy tahlil metodi – klassik xitoy tili (*chữ Hán*) strukturasi hamda milliy iyeroglif yozuvidagi (*chữ Nôm*) shakllar o‘rtasidagi farqlar va o‘xshashliklarni qiyoslab o‘rganishda xizmat qildi.

Strukturaviy-lingvistik va komponent tahlil metodlari – vyetnam tilining izolatsiyalashgan tabiatiga xos bo‘lgan hisob-so‘zlar tizimining Nôm

1. Luật Đường she’riyatining asosiy turlari va tuzilishi. Tang qoidasi bo‘yicha yozilgan she’rlar misralar va bo‘g‘inlar soniga ko‘ra asosan quyidagi asosiy shaklga bo‘linadi [ayrim manbalarda asosan 1 va 2-band asosiy shakl deb aytiladi]: 1) Thất ngôn bát cú (Tất ngôn bát cú - 8 misrali, 7 bo‘g‘inli): Har bir she’r 8 misradan, har bir misra esa 7 ta bo‘g‘in/so‘zdan iborat bo‘ladi (jami 56 bo‘g‘in). Bu eng klassik va mukammal shakl hisoblanadi; 2) Ngũ ngôn bát cú (Ngu ngôn bát cú - 8 misrali, 5 bo‘g‘inli): Har bir she’r 8 misradan, har bir misra 5 ta bo‘g‘in/so‘zdan iborat (jami 40 bo‘g‘in); 3) Thất ngôn tứ tuyệt / Ngũ ngôn tứ tuyệt (4 misrali to‘rtliklar): 4 misradan iborat ixcham shakllar.

2. Luật Đườngning 5 ta oltin qoidasi. Tang she’riyat qoidalari nihoyatda qat’iy bo‘lib, birorta ham unsurning o‘zboshimchalik bilan o‘zgartirilishiga yo‘l qo‘ymaydi: 1). Bằng - Trắc (Ohang/Ohangdorlik qoidasi). Vyetnam tilidagi to‘g‘ri va egiluvchan ohanglar (Thanh điệu) 2 ta katta guruhga bo‘linadi va misrada qat’iy navbatlashishi shart: a). Bằng (Yumshoq/Turg‘un ohanglar): *Ngang* (ohang belgisisiz) va *Huyền* (\); b). Trắc (Keskin/Egiluvchi ohanglar): *Sắc* (/), *Nặng* (.), *Hỏi* (?), *Ngã* (~). Muvozanat tamoyili (Nhị - Tứ - Lục): 7 bo‘g‘inli misrada 2, 4 va 6-bo‘g‘inlarning ohangi o‘zaro qarama-qarshi bo‘lishi shart. Yoki 2-Bằng, 4-Trắc, 6-Bằng, yoki 2-Trắc, 4-Bằng, 6-Trắc shaklida keladi. 2) Vần (Qofiya). a). Asosan Bằng (yumshoq) ohangidagi bir xil qofiya ishlatiladi. b). 8 misrali she’rda qofiya 1, 2, 4, 6 va 8-misralarning eng oxirgi bo‘g‘inida tushadi; 3) Đối (Parallellik va Antiteza / Qarshilantirish). 8 misrali she’rning o‘rtasidagi to‘rtta misra juft-juft bo‘lib o‘zaro simmetrik va zid bo‘lishi shart: a). 3 va 4-misralar (Thực/Đề): So‘z turkumlari, ma’nosi va ohangi (Bằng - Trắc) jihatidan bir-biriga tamomila parallel bo‘lishi kerak (Masalan: ot-otga, sifat-sifatga, Trắc-Bằngga). b). 5 va 6-misralar (Luận): Xuddi shunday qat’iy tushunchalar va ohanglar qarshiligi saqlanadi; 4) Niêm (Misralararo ohangdoshlik bog‘liqligi). She’r misralari o‘zaro "yopishishi" (niêm) kerak. Ya’ni muayyan misralarning 2-bo‘g‘inidagi ohanglar bir xil bo‘lishi talab etiladi: a). 1-misra bilan 8-misra; b). 2-misra bilan 3-misra; c) 4-misra bilan 5-misra; d) 6-misra bilan 7-misra ohangdosh (Bằng-Bằng yoki Trắc-Trắc) bo‘lishi shart; 5) Bố cuc (8 misrali she’rning kompozitsion strukturasi). lassik 8 misrali she’r 4 ta mantiqiy qismga bo‘linadi:

1. Đề (1-2 misra): She’r mavzusini ochib berish va kirish.
2. Thực (3-4 misra): Mavzuni tafsilotlar, tasvirlar orqali kengaytirish (Parallel juftlik).
3. Luận (5-6 misra): Fikrni chuqurlashtirish, muhokama, qarashlarni umumlashtirish (Parallel juftlik).
4. Kết (7-8 misra): Xulosa qilish, his-tuyg‘u yoki asosiy g‘oyani tugallash.

3. Vyetnam adabiyotidagi o‘rni va ahamiyati. Xitoy adabiyotida paydo bo‘lgan bo‘lsada, Tran sulolasi davridan boshlab Hàn Thuyên, Nguyễn Trãi (*Quốc âm thi tập*), Hồ Xuân Hương va Nguyễn Khuyến kabi buyuk Vyetnam shoirlari Luật Đường qoidalarini saqlagan holda, unga Vyetnam tilining milliy ohangi, xalqona iboralari hamda Chữ Nôm yozuvi boyligini singdirishgan. Bu esa Vyetnam adabiyotida milliy she’riyatning yuksak mumtoz bosqichga ko‘tarilishiga xizmat qilgan.

poeziyasidagi tuzilishi, shuningdek, matndagi ayrim leksemalarning semantik xususiyatlarini ma’no qismlariga ajratib tahlil qilish uchun qo‘llanildi.

Lingvostatistik metod – 1–111-she’rlar matnidagi umumiy so‘zlar hajmi, hisob so‘zlarning ishlatilish chastotasi hamda ularning foizdagi ulushini aniqlashda tatbiq etildi.

3. Natijalar va muhokama

3.1. “Quốc âm thi tập” asarining manbashunoslik tarixi va tuzilishi

Nguyễn Trãi asarlarining bizgacha yetib kelgan eng qadimgi va mukammal manbasi “Ức Trai Tập” majmuasidir[19]. Asarning ilmiy-tarixiy qiymatini oshiruvchi 7 ta jild orasida VII jild – **“Quốc Âm Thi Tập”** (Milliy tildagi she’rlar to‘plami) alohida o‘rin tutadi.

To‘plam jami 254 ta she’rni o‘z ichiga olib, 4 ta asosiy tematik ruknga bo‘linadi:

1. *Vô đề* (Sarlavhasiz she’rlar – 192 ta)[20];
2. *Thời lệnh môn* (Fasllar va vaqtga oid she’rlar – 21 ta);
3. *Hoa mộc môn* (O‘simliklar va gullarga bag‘ishlangan she’rlar – 34 ta);
4. *Cầm thú môn* (Hayvonot olamiga bag‘ishlangan she’rlar – 7 ta).

---

[19] Izoh: “Ức Trai Tập” (xitoycha: 抑齋集 Yì zhāi jí – *Uc Trai [Nguyễn Trãi*, 1380–1442*] asarlari to‘plami*) Uc Trai / Ức Trai Nuyen Chayning adabiy taxallusidir. Muallif Nguyen Chay (*Nguyễn Trãi*, 1380–1442) qalamiga mansub barcha adabiy, ilmiy, siyosiy hamda tarixiy meros “Ức Trai Tập” - 抑齋集 Yì zhāi jí – *Uc Trai asarlari to‘plami”ga* jamlagan fundamental mumtoz majmuadir. Shuningdek, u *“Uc Trai thi tap”* (*Ức Trai thi tập*) va *“Uc Trai di tap”* (*Ức Trai di tập*) nomlari bilan ham tanilgan. Asar tarkibiga Nuyen Training xitoy tilidagi she’rlari, nasriy asarlari, hukmdorga taqdim etilgan arznomalari (*tấu nghị*), diplomatik maktublari (*từ mệnh*), shuningdek, uning mashhur nom yozuvidagi she’riy to‘plami – “*Quốc âm thi tập*” – “Milliy tildagi she’rlar to‘plami” kirgan. Bugungi kungacha saqlanib qolgan eng muhim nusxalari – Vyetnamning Tự Đức (嗣德) [Tu Dyk (1847-1883 yillar. Uning hukmronligining 21-yili 1868 yilga to‘g‘ri keladi)] hukumronligining 21-yili (1868-yil) Fuk Khe (Phủ Khe / Phủ Quốc / Phúc Khê - 福溪 (Phúc Khê – “Baxtli soy/daryo” ma’nosini beruvchi toponim)) o‘ymakorlik bosma nashri (6 jildlik) hamda bir qancha qo‘lyozma nusxalaridir (masalan, *“Ức Trai tập tự truyện”*). Nguyễn Trãi Quốc Âm Thi Tập // Vietnamese Nôm Preservation Foundation (VNPF): https://nomfoundation.org/nom-tools/QATT/QATT?uiLang=en;
Nguyễn Trãi. Quốc Âm Thi Tập: Tài liệu học tập và nghiên cứu văn học trung đại Việt Nam // Studocu.: https://www.studocu.vn/vn/document/truong-dai-hoc-su-pham-hue/su-pham-ngu-van/nguyen-trai-quoc-am-thi-tap/113176326

[20] “Vô đề” (無題 – *Sarlavhasiz / Umumiy she’rlar*) rukni *Vô đề* (无题 yoki 無題) – klassik xitoy adabiyotidan (*Wútí* – “sarlavhasiz”) meros bo‘lib o‘tgan poetik atama bo‘lib, so‘zma-so‘z “sarlavhasi yo‘q” yoki “mavzusiz” degan ma’nolarni anglatadi. Biroq sharq mumtoz poeziyasida bu atama hech qanday mazmunga ega emasligini emas, aksincha, muayyan bitta tor mavzu bilan cheklanmagan, shoirning keng qamrovli falsafiy, lirik, ijtimoiy-siyosiy va shaxsiy kechinmalarini o‘z ichiga oluvchi umumiy falsafiy lirikani anglatgan. Nguyễn Trãining “Quốc âm thi tập” to‘plamida “Vô đề” asarning eng asosiy, hajman eng yirik va markaziy bo‘limi hisoblanadi. To‘plamdagi jami 254 ta she’rdan naq 192 tasi aynan ushbu rukn ostida berilgan. Bu esa asarning salmoqli qismi muallifning umumiy lirik o‘ylari va estetik qarashlariga bag‘ishlanganini ko‘rsatadi. “Vô đề” bo‘limi o‘zining hajmi kattaligi sababli bir nechta ichki mavzuiy-janr kichik turkumlariga bo‘linib ketadi. *Thủ vĩ ngâm*, *Ngôn chí*, *Mạn thuật*, *Trần tình*, *Thuật hứng*, *Tự thán* va boshqalar aynan shu ruknga tegishli. Xitoy mumtoz she’riyatining qat’iy qoliplari (*Luật Đường* – Tang she’riyati qoidalari) asosida yaratilgan bo‘lsa-da, *chữ Nôm* (milliy iyeroglif yozuvi) orqali vyetnam tilining jonli xalqona ohanglari, milliy tabiat manzaralari va o‘ziga xos hisob-so‘zlar tizimi eng mukammal tarzda namoyon bo‘lgan asosiy maydon aynan shu rukn hisoblanadi.

3.2. Lingvostatistik ko‘rsatkichlar va hisob so‘zlarning umumiy tavsifi

To‘plamning 1–111-she’rlari doirasida (*“Thủ vĩ ngâm”*[21], *“Ngôn chí”*[22], *“Mạn thuật”*[23], *“Trần tình”*[24], *“Thuật hứng”*[25] va *“Tự thán”*[26] turkumlari) o‘tkazilgan lingvostatistik tahlil quyidagi natijalarni berdi:

Matnning umumiy leksik hajmi: O‘rganilgan qism jami **7 800 ga yaqin** so‘z/leksik birlikni (taxminan 5 958 ta mustaqil so‘z shakli va tegishli Hán-Nôm leksemalari) tashkil etadi.

Hisob so‘zlarning umumiy ko‘lami: Matnda 15 dan ortiq turli xildagi xususiy, shakliy va hajmiy hisob so‘zlar (*căn, con, phiến, bát, phần, tấc, cày, cuốc, phen, tấm, vầng* va h.k.) qo‘llanilgan bo‘lib, ularning umumiy miqdori **140–160 ta** atrofida qayd etiladi. Bu ko‘rsatkich matn umumiy leksik hajmining taxminan **1,8% – 2,2%** qismini tashkil etadi.

3.3. *“Cái”* va *“Con”* Hisob so‘zlarining matndagi ulushi va semantik tahlili

[21] “Thủ vĩ ngâm” (首尾吟 – Bosh va oxir bir xil misrali she’rlar/Boshi va oxiri mushtarak she’rla). To‘plamning eng bosh qismida, kirish xarakteridagi falsafiy-lirik turkumlardan biri sifatida boshlang‘ich o‘rinlarni egallaydi (masalan, 1-she’r shu turkumga mansub). Bu turkum o‘ziga xos qat’iy poetik tuzilishga ega bo‘lib, she’rning birinchi misrasi va oxirgi misrasi (ba’zan kupletlari) aynan takrorlanib keladi. Bu uslub shoirning fikrini yanada kuchaytirishga, asosiy g‘oyani urg‘ulashga xizmat qiladi. Nguyễn Trãi bu turkumda shahar chetidagi xilvat hayot, zohidlik, qashshoqlik va tashqi dunyo ziddiyatlaridan xoli bo‘lish istagini tarannum etadi.

[22] “Ngôn chí” (言志 – Dil izhori / Qalb kechinmalarini bayon qilish). To‘plamning boshlang‘ich ruknlarida (*Vô đề* bo‘limining ilk qismlarida, masalan, 2–11-she’rlar atrofida) ketma-ket kelib, shoirning dunyoqarashi va asosiy hayotiy dasturini ochib beradi. Konfutsiychilik an’analariga asoslangan bu turkumda muallif o‘zining shaxsiy e’tiqodi, jamiyatdagi o‘rni, siyosiy faoliyatdan voz kechib tabiat qo‘yniga intilishi va ma’naviy poklikni ulug‘laydi. “Ngôn” – so‘z, “chí” – iroda, maqsad, qalb istagi demakdir.

[23] “Mạn thuật” (謾述 – O‘z holatini bayon qilish / Erkin mulohazalar). Asarning ikkinchi va uchinchi o‘nliklarida (*Mạn thuật 1-14*, masalan, 23–36-she’rlar turkumi) keng yoritilib, lirik qahramonning ichki olamini yanada yaqindan ochib beradi. “Mạn” – erkin, tartibsiz yoki o‘z holicha, “thuật” – bayon qilish, hikoya qilish degan ma’nolarni bildiradi. Bu turkumdagi she’rlarda shoir hech qanday qat’iy qoliplarga bog‘lanmagan holda, o‘zining kundalik turmushi, tabiat qo‘ynidagi oddiy yumushlari (dehqonchilik, choy damlash, kitob o‘qish) va zamona ziddiyatlari haqidagi erkin o‘ylarini bayon qiladi.

[24] “Trần tình” (陳情 – Hissiyotni bayon qilish / Ichki dildan so‘zlash). Asarning o‘rta qismlarida (*Trần tình 1-9*, masalan, 37–45-she’rlar) joylashgan bo‘lib, lirik qahramonning ruhiy tahlili va samimiy e’tiroflarini aks ettiradi. “Trần” – oshkor qilish, bayon etish, “tình” – tuyg‘u, hissiyot, muhabbat yoki dard. Bu turkum shoirning hukmdor oldidagi bajarolmagan burchlari, qarigandagi holati, jamiyatdagi adolatsizliklarga nisbatan shaxsiy munosabati va kechinmalariga bag‘ishlanadi.

[25] “Thuật hứng” (述興 – Ilhomni bayon qilish / Zavqlanishni bayon etish). Asarning eng yirik turkumlaridan biri bo‘lib (*Thuật hứng 1-25*, masalan, 46–70-she’rlar), asarning salmoqli qismini egallaydi va shoirning ruhiy xotirjamlik topgan davrini ko‘rsatadi. “Thuật” – bayon qilmoq, “hứng” – ilhom, zavq, ko‘tarinki kayfiyat. Bu turkum tabiat go‘zalliklaridan, qishloqdagi tinch hayotdan, kitob mutolaasi va sodda turmush tarzidan olinadigan ma’naviy zavq-shavqni tarannum etadi.

[26] “Tự thán” (自歎 – O‘z-o‘zidan nolish / Qismatdan o‘kinish). Asarning eng so‘nggi va eng yirik turkumi sifatida (*Tự thán 1-41*, masalan, 71–111-she’rlar va undan keyingi qismlar) to‘plamning yakuniy falsafiy xulosasi vazifasini bajaradi. “Tự” – o‘zicha, o‘zining, “thán” – oh-voh demoq, o‘kinmoq, nolimoq. Bu turkumda muallif hayotning o‘tkinchiligi, qariyalik, insoniy adolatsizliklar, og‘ir qashshoqlik va zamonning o‘zgarishidan kelib chiqadigan falsafiy o‘kinchlarini aks ettiradi. Shu bilan birga, bu nolishlar tushkunlik emas, balki yuqori axloqiy me’yorlarga sodiqlikni saqlab qolishdagi ichki kurashni ko‘rsatadi.

Tadqiqot doirasida zamonaviy vetnam tilining o‘zak hisob so‘zlari hisoblangan **“cái”** (嚫 / 個) va **“con”** (昆) birliklarining qo‘llanish chastotasi qiyosiy o‘rganildi:

A. “Con” (昆) hisob so‘zi: 1–111-she’rlar oralig‘ida jami **26 marotaba** uchraydi. U an’anaviy tarzda hayvonlar va jonzotlar uchun qo‘llanishidan tashqari, mumtoz poeziyada jonsiz obyektlar va me’moriy shakllarga nisbatan kichraytirish, erkalash va personifikatsiya (jonlantirish) funksiyalarida faol qo‘llanilgan.

Xususan, *một con lều* (bir kulba) – Mạn thuật 2 / Tự thán 11;

con cờ (shaxmat donasi) – Trần tình 5 / Tự thán 20;

con nước (suv to‘lqini/oqim) – Tự thán 6.

Ushbu birlik barcha hisob so‘zlar orasida **14% – 16%** ni, umumiy so‘zlar hajmiga nisbatan esa **0,35%** ni tashkil etadi.

B. “Cái” (嚫 / 個) hisob so‘zi: Matnda sof hisob so‘zi vazifasida atigi **5 marotaba** qayd etilgan. XV asr vyetnam tili bosqichida *“cái”* so‘zi hali zamonaviy tildagidek barcha jonsiz predmetlar uchun universal hisob so‘ziga aylanmagan edi. Bu davrda binolar uchun *căn*, yassi buyumlar uchun *phiến*, idishlar uchun *bát* kabi xususiy hisob so‘zlari ustuvor bo‘lgan. Matndagi ulushi hisob so‘zlar tarkibida **3% – 4%** atrofida, umumiy matn hajmida esa **0,08%** ni tashkil qiladi.

3.4. Matndagi boshqa asosiy hisob so‘zlarning semantik tizimi

“Quốc Âm Thi Tập”da qo‘llanilgan asosiy hisob so‘zlar va ularning semantik guruhlari quyidagi jadvalda aks etgan:

Hisob so‘zi (Quốcnữ / Nôm)	**Semantik guruh**	**Matndagi birikmalar (Misollar)**	**Soni**
Căn (閒 / 根)	Me’moriy-joy birliklari	*lều một căn* (bir xonali kulba)	7
Phiến (片)	Yassi/Yupqa buyumlar	*phiến sách* (bir varaq kitob)	4
Tấc (寸)	Metaforik/Ma’naviy o‘lchov	*một tấc lòng* (bir qarich qalb/sadoqat)	7
Bát (鉢)	Idish/Hajm o‘lchovlari	*một bát chè* (bir kosa choy)	6
Tấm (糝)	Yupqa/Tekis mato va predmetlar	*tấm hồng trần* (qizil chang-to‘zon (dunyoviy hayot, foniylik dunyosi)),	3

		một tấm áo (bir qat ko‘ylak / bitta kiyim)	
Cày / Cuốc (畫)	Funksional mehnat birligi	*một cày một cuốc* (bir omoch, bir ketmon)	15

5. Parallel translation corpora – pairs of an original text and its published translation (or several translations), as well as comparable corpora. This type is specific to translator training: it makes it possible to study comparatively the decisions professional translators make regarding cultural elements, in particular domestication and foreignisation strategies (Venuti, 1995; Bowker & Pearson, 2002). It plays a leading role in developing the reflective and mediative components.

The distribution of the linguocultural potential of each type across the ICC components is summarised in Table 1.

Table 1

Impact of the types of authentic materials on the ICC components (based on the author's analysis)

Type of material	Cognitive	Linguo-cultural	Affective-axiological	Mediative	Reflective
Written texts	high	high	medium	medium	medium

Type of material	Cognitive	Linguo-cultural	Affective-axiological	Mediative	Reflective
Audiovisual	medium	medium	high	high	low
Digital media	medium	medium	high	low	high
Institutional documents	high	medium	low	high	medium
Parallel translation corpora	medium	high	medium	high	high

DISCUSSION

The table shows that no single type of material develops all components of ICC to the same extent: written texts contribute more to knowledge and the understanding of linguocultural units; audiovisual and digital materials to emotional and value-based attitudes; institutional documents and parallel corpora to mediative and reflective activity. Therefore, the types should be regarded not as substitutes for one another but as complementary tools.

On this basis, we propose the principle of a “material cluster”: a single cultural theme (for example, “hospitality”, “family celebrations”, “workplace communication”) is studied step by step through materials of all five types. For instance, within the theme of hospitality, students first analyse a journalistic article on customs of receiving guests in English and Uzbek settings, then observe non-verbal behaviour in a relevant video clip, identify value differences in online hotel reviews, translate a tourism service contract and, finally, compare a hospitality scene from a literary work with its published translation, evaluating the translator’s decisions. Such a sequence ensures a transition from cognitive knowledge to reflective activity and is consistent with D. Kiraly’s social constructivist approach (Kiraly, 2000).

The proposed typology differs from the classifications of A. Gilmore and F. Mishan in its translation orientation: a material is evaluated not only as language input but also as a source of the cultural context in which translation decisions are made. At the same time, it should be emphasised that the ratings in Table 1 are based on theoretical analysis; their empirical verification will be carried out at the next, experimental stage of the research.

CONCLUSION

Classifying authentic materials in translator training according to the criteria of semiotic channel, communicative domain, degree of cultural

markedness and relevance to the translation task enables their systematic and purposeful selection. The five identified types – written texts, audiovisual materials, digital media, institutional documents and parallel translation corpora – affect the ICC components in different ways; it is therefore advisable to use them together on the basis of the "material cluster" principle. Parallel translation corpora deserve particular attention as the type specific to translator training and the most effective one for developing the mediative and reflective components. The typology serves as a theoretical basis for developing criteria for selecting authentic materials and for designing a system of exercises.

REFERENCES

Bowker, L., & Pearson, J. (2002). Working with specialized language: A practical guide to using corpora. Routledge.

Byram, M. (1997). Teaching and assessing intercultural communicative competence. Multilingual Matters.

Council of Europe. (2020). Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment – Companion volume. Council of Europe Publishing.

Deardorff, D. K. (2006). Identification and assessment of intercultural competence as a student outcome of internationalization. Journal of Studies in International Education, 10(3), 241–266. https://doi.org/10.1177/1028315306287002

European Commission. (2022). European Master's in Translation competence framework 2022. Directorate-General for Translation.

Gilmore, A. (2007). Authentic materials and authenticity in foreign language learning. Language Teaching, 40(2), 97–118. https://doi.org/10.1017/S0261444807004144

Jalolov, J. J. (2012). Chet til o'qitish metodikasi [Methods of foreign language teaching]. O'qituvchi.

Katan, D. (2004). Translating cultures: An introduction for translators, interpreters and mediators (2nd ed.). St. Jerome.

Kiraly, D. (2000). A social constructivist approach to translator education: Empowerment from theory to practice. St. Jerome.

Mishan, F. (2005). Designing authenticity into language learning materials. Intellect Books.

Newmark, P. (1988). A textbook of translation. Prentice Hall.

Nord, C. (2005). Text analysis in translation: Theory, methodology, and didactic application of a model for translation-oriented text analysis (2nd ed.). Rodopi.

PACTE Group. (2003). Building a translation competence model. In F. Alves (Ed.), Triangulating translation: Perspectives in process oriented research (pp. 43–66). John Benjamins.

Tomlinson, B. (Ed.). (2011). Materials development in language teaching (2nd ed.). Cambridge University Press.

Venuti, L. (1995). The translator's invisibility: A history of translation. Routledge.

Ter-Minasova, S. G. (2000). Yazyk i mezhkul'turnaya kommunikatsiya [Language and intercultural communication]. Slovo.

Vereshchagin, E. M., & Kostomarov, V. G. (1990). Yazyk i kul'tura [Language and culture] (4th ed.). Russkiy yazyk.

A STUDY OF METHODS FOR TRANSLATING UZBEK VERBALIZED GESTURES INTO ENGLISH

Xusanova Sarvinoz Asrorovna
Chirchik State Pedagogical University, Faculty of Tourism, Foreign language and literature 1st year master's degree student
saxrorova99@gmail.com
Otajonova Dildor Baxtiyarovna
Scientific superviser:

Abstract. *The translation of gesture-related expressions is an important issue in the study of language, culture, and intercultural communication. In Uzbek, gestures are frequently represented through words and phrases that describe bodily movements, facial expressions, and communicative actions. When these expressions are translated into English, their meanings cannot always be conveyed through direct lexical equivalents. The translator must consider not only the physical movement but also its communicative function, emotional significance, and cultural associations. This article examines the principal methods that can be used to translate Uzbek verbalized gestures into English, including literal translation, functional equivalence, descriptive translation, contextual substitution, and omission.*

Keywords: *verbalized gestures, Uzbek language, English translation, nonverbal communication, translation methods, cultural equivalence, kinesics, intercultural communication.*

INTRODUCTION

Language is one of the principal means through which people communicate their thoughts, feelings, intentions, and attitudes. However, communication is not limited to spoken or written words. Facial expressions, hand movements, head movements, and other forms of bodily behaviour also contribute to the interpretation of meaning. These nonverbal elements may reinforce a verbal message, replace it, or introduce additional information that is not explicitly expressed in speech. The relationship between verbal and nonverbal communication has become an important subject in linguistics, pragmatics, and translation studies. In translation, the representation of gesture-related expressions presents a particular challenge because the meaning of a physical movement depends on the communicative situation in which it occurs. Poyatos emphasizes the close relationship between verbal and nonverbal

elements in communication and highlights the importance of considering these elements when translating literary and audiovisual texts [1]. This perspective is relevant to Uzbek–English translation, where the same movement may be described differently or interpreted differently according to cultural and linguistic conventions. Previous studies of Uzbek and English nonverbal communication have discussed the similarities and differences between the two linguistic and cultural systems. Eshmirzayeva and Bolibekova , for example, examine distinctive features of nonverbal expressions in English and Uzbek communication [2]. Qosimova and Qodirov also discuss the role of nonverbal means in Uzbek and English speech[3]. These studies provide a useful foundation for further investigation of how gesture-related expressions are transferred from one language into another. The translation of verbalized gestures deserves particular attention because the translator must work with linguistic descriptions of bodily actions rather than with physical gestures alone. A phrase that appears straightforward in Uzbek may require a different grammatical structure, a functional equivalent, or an explanatory expression in English. A literal translation may preserve the image of a movement while failing to communicate its intended meaning.

METHODS

The study employs a qualitative comparative approach based on translation analysis. The principal object of investigation is the verbal representation of gestures in Uzbek and its possible rendering in English. Particular attention is given to expressions that describe bodily movements and those in which a physical action conveys a communicative intention. The theoretical framework draws on research into nonverbal communication and translation, particularly the work of Poyatos [1], as well as studies of nonverbal communication in Uzbek and English.

Four analytical procedures are proposed:

Comparative analysis - Uzbek expressions are compared with possible English translations to identify differences in lexical choice, grammatical structure, and semantic emphasis.

Contextual analysis - Each expression is interpreted in relation to the situation in which the gesture occurs. This procedure helps distinguish the physical description of an action from its communicative meaning.

Translation transformation analysis - The proposed translations are examined to determine whether they involve literal transfer, functional equivalence, descriptive explanation, contextual substitution, or omission.

Linguocultural analysis - Attention is given to culturally conditioned meanings and to cases in which a gesture or its verbal description may not have a direct equivalent in English.

RESULTS

The comparative analysis provides a framework for distinguishing several principal methods for translating Uzbek verbalized gestures into English. The choice of method depends on whether the original expression primarily describes a physical action, communicates a conventional meaning, or carries additional cultural information.

Literal translation preserves the basic lexical meaning and physical image of the original expression. It is appropriate when the gesture is described transparently and the English wording is natural and understandable.

For example:

Uzbek: boshini chayqadi.

English: “He shook his head.”

In a context where the expression describes an actual head movement, the English translation conveys the physical action directly. Depending on the surrounding dialogue, the movement may also indicate disagreement, disbelief, or disapproval.

Another example is:

Uzbek: qo‘lini ko‘tardi.

English: “She raised her hand.”

This translation preserves the physical action. However, the communicative meaning may vary: raising a hand can indicate a desire to speak, a greeting, a request for attention, or another intention. These examples demonstrate that literal translation is most effective when the physical movement is central to the message and the English expression reproduces it naturally.

Functional equivalence focuses on the communicative purpose of an expression rather than on its individual lexical components. This method is particularly useful when a gesture performs a recognizable conversational function.

m, or encouragement. It is generally more natural than an extended description of the movement. However, the translator must not automatically assume that every instance of bosh irg‘adi means agreement. The gesture may serve another function depending on the situation. The surrounding dialogue and the speaker's intention should therefore guide the translation. Functional equivalence is also useful when an Uzbek expression describes a gesture whose communicative purpose can be conveyed by a concise English verb or phrase.

This approach supports naturalness while preserving the pragmatic meaning of the original text. The importance of this method is consistent with the broader view that translation involves the interpretation of meaning in context rather than the mechanical replacement of words [1].

Descriptive translation explains a gesture when a short English equivalent cannot adequately communicate its meaning. It is especially useful for gestures that are unfamiliar to the target audience or whose significance is not immediately apparent from the physical movement. For example, an Uzbek expression describing a gesture used to invite someone to approach may be rendered as:

“He beckoned to her to come closer.”

The English sentence identifies both the movement's communicative function and the intended direction of the action. This translation is more informative than a general statement that she moved her hand because it makes the purpose of the gesture explicit. Descriptive translation is particularly important in literary translation, where gestures can contribute to characterization, emotional development, and the progression of a scene. It may also be useful in subtitles or translated dialogue when the audience needs to understand the significance of a gesture without extensive explanation[4].

Contextual substitution involves replacing a source-language expression with a natural English expression that communicates a comparable meaning in the particular situation. It is useful when the original wording cannot be transferred directly without sounding unnatural or creating ambiguity. For instance, an Uzbek expression describing a person who signals agreement through a head movement may be translated as “He nodded in agreement” when the communicative intention is explicit. If the movement merely acknowledges that a message has been heard, “He nodded in acknowledgement” may be more appropriate. The difference between these translations is significant. The first communicates agreement, whereas the second indicates recognition or reception of information. The translator must establish the function of the gesture before selecting the English expression. It can also be necessary when the physical movement is less important than its emotional or interpersonal significance. A description of a dismissive movement, for example, may require an English phrase such as “He waved the suggestion away” if the context clearly indicates rejection rather than a literal movement in a particular direction. This method demonstrates that translation equivalence is not always a matter of matching individual words. A successful

translation must reproduce the relationship between the gesture, the speaker's intention, and the surrounding discourse.

DISCUSSION

The analysis demonstrates that the translation of Uzbek verbalized gestures into English involves more than the transfer of lexical meaning. A gesture-related expression may simultaneously describe a physical movement, communicate an intention, express an emotional attitude, and establish a relationship between participants. These dimensions must be considered together if the translation is to remain faithful to the original text. One of the principal difficulties is the distinction between the physical form of a gesture and its pragmatic function. A head movement, for example, may indicate agreement in one situation and uncertainty or acknowledgement in another. Translating every occurrence according to a single fixed equivalent can therefore produce inaccurate results. Contextual analysis is necessary to establish what the gesture communicates in a particular instance. A second difficulty concerns cultural interpretation. Although some gestures are widely recognizable, their meanings and social implications are not necessarily identical across cultures. This observation is consistent with research on nonverbal communication and translation, which treats bodily behaviour as an important component of the overall communicative event [1]. It is also relevant to comparative studies of Uzbek and English nonverbal expressions, where cultural and linguistic differences form an important part of the research problem [2; 3]. A third difficulty involves the relationship between gesture and verbal context. In face-to-face communication, a gesture can be interpreted together with intonation, facial expression, and the immediate situation. In a written translation, some of these cues may be absent. In audiovisual translation, the gesture may remain visible, but the translator must consider the timing and length of the subtitles. These differences affect whether a gesture should be translated literally, explained, or represented through another expression. The findings also suggest that the translator's decision should be guided by the communicative purpose of the target text. In literary translation, preserving an unusual gesture may be important for characterization or cultural authenticity. In a subtitle, a concise functional equivalent may be more effective because the audience can see the movement while reading the translated dialogue. In academic or ethnographic writing, descriptive translation may be preferable because it makes the gesture's significance explicit.

CONCLUSION

The translation of Uzbek verbalized gestures into English is a complex linguistic and cultural process that requires attention to physical movement, communicative intention, contextual meaning, and cultural background. The analysis presented in this article identifies different principal methods: literal translation, functional equivalence, descriptive translation, contextual substitution. The most effective translation strategy is determined by the function of the gesture in context rather than by its physical form alone. Translators should consider the relationship between language, gesture, and cultural meaning before selecting an English equivalent. The article provides a theoretical and practical framework for further research into Uzbek–English translation. Its proposed approach may be useful for literary translators, researchers in comparative linguistics, and students of translation studies.

REFERENCES:

1. Poyatos F. Textual Translation and Live Translation: The Total Experience of Nonverbal Communication in Literature, Theater and Cinema. Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 2008. 365 p.

2. Eshmirzayeva N., Bolibekova M. Distinctive features of English and Uzbek nonverbal expressions in communication // European International Journal of Philological Sciences. 2023. Vol. 3, no. 5. P. 20–23.

3. Qosimova N. F., Qodirov B. V. Application of non-verbal means in Uzbek and English speech // International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences. 2022. Vol. 2, no. 11. [Electronic resource]. pdf (accessed: 29.10.2026).

4. Gottlieb H. Subtitling: Diagonal translation // Perspectives: Studies in Translation Theory and Practice. 1994. Vol. 2, no. 1. P. 101–121.

IJTIMOIY INTEGRATSIYA TUSHUNCHASINING SOTSIOLOGIK TALQINI VA INKLYUZIV TA'LIM BITIRUVCHILARINING IJTIMOIY-MEHNAT INTEGRATSIYASI

Bekchanova Sevinch Umirbek qizi
Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti Psixologiya va sotsiologiya kafedrasi stajor-o'qituvchisi
E-mail: sevinchabdullayeva34@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada ijtimoiy integratsiya tushunchasining sotsiologik talqinlari inklyuziv ta'lim bitiruvchilarining maktabdan mehnat bozoriga o'tishi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Klassik va zamonaviy nazariy yondashuvlar O'zbekistonda nogironligi bo'lgan 1 462 nafar yosh o'rtasida o'tkazilgan tadqiqot natijalari bilan qiyoslanadi. Norasmiy bandlik, mehnat huquqlaridan foydalanish, ijtimoiy aloqalar va qo'llab-quvvatlash mexanizmlaridan xabardorlik ko'rsatkichlari integratsiyani faqat ishga joylashish bilan baholash yetarli emasligini ko'rsatadi. Inklyuziv ta'lim bitiruvchilarining ijtimoiy-mehnat integratsiyasiga ko'p o'lchovli jarayon sifatida ta'rif berilib, uni baholashning oltita o'zaro bog'liq mezoni asoslanadi. So'rov aynan inklyuziv ta'lim bitiruvchilarini qamrab olmagani tadqiqotning metodologik chegarasi sifatida qayd etiladi.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiy integratsiya, ijtimoiy-mehnat integratsiyasi, inklyuziv ta'lim bitiruvchilari, anomiya, bandlik.*

Abstract. *This article examines sociological interpretations of social integration in relation to inclusive education graduates' transition from school to work. Classical and contemporary theories are compared with findings from a survey of 1,462 young persons with disabilities in Uzbekistan. Evidence on informal employment, labor rights, social relationships and awareness of support mechanisms demonstrates the limitations of assessing integration solely through employment. The article proposes a multidimensional definition of social and labor integration and six interrelated assessment criteria. The survey's lack of a graduate-specific sample is acknowledged as a methodological limitation.*

Keywords: *social integration, social and labor integration, inclusive education graduates, anomie, employment.*

KIRISH

Inklyuziv ta’limning samarasi bolaning sinfda boshqalar bilan birga o‘tirishi bilan emas, maktabni tugatgach nimaga erishishi bilan o‘lchanadi: kasb egallaydimi, mehnatga kiradimi, hayotini mustaqil boshqara oladimi. Mavjud ma’lumotlar ko‘lamni ko‘rsatadi, ammo bitiruvchilar holatini ochmaydi. Ijtimoiy himoya milliy agentligi mutaxassisining 2026-yil iyundagi ma’lumotiga ko‘ra, ulardan 600 mingdan ziyodi mehnatga layoqatli, 234 ming nafari ish bilan ta’minlangan, ya’ni kamida 366 ming nafari ish o‘rniga ega emas; oliy ta’lim bitiruvchilari esa yiliga taxminan 3 000 nafar mehnat bozoriga kirib kelmoqda [1]. Maktabni inklyuziv sharoitda tugatgan yoshlar bo‘yicha alohida ko‘rsatkich ko‘rib chiqilgan rasmiy manbalarda topilmadi.

Eng yaqin dalil Ijtimoiy himoyani rivojlantirish instituti 2024-yilda oltita hududda 15–30 yoshdagi 1 462 nafar nogironligi bo‘lgan yosh o‘rtasida o‘tkazgan so‘rovdir [2]: respondentlarning 22 foizi so‘nggi 30 kunda daromadli mehnat bilan shug‘ullangan, 19,1 foizi na ishlagan, na o‘qigan; ishlayotganlarning (n = 125) 40 foizi rasmiy ish bilan band emas, ayollarda bu ulush 88,1 foiz, erkaklarda 45,8 foiz. Demak, bandlik ko‘rsatkichi rasmiy va norasmiy ishni, ish o‘rni bilan ijtimoiy qo‘shilishni farqlamasa, integratsiya darajasini noto‘g‘ri aks ettiradi; integratsiya tushunchasining o‘zi esa bitiruvchilar uchun aniqlanmagan. Maqolaning maqsadi ijtimoiy integratsiya tushunchasini sotsiologik nazariyalar asosida talqin qilish va inklyuziv ta’lim bitiruvchilarining ijtimoiy-mehnat integratsiyasiga ta’rif hamda mezonlar tizimini ishlab chiqishdir. Ilmiy yangilik shundaki, klassik integratsiya nazariyalari, istisno, nogironlik va maktabdan ishga o‘tish tadqiqotlari yagona mantiqiy tizimda ko‘rib chiqilib, mezonlar mahalliy ma’lumotlar bilan solishtirildi.

ASOSIY QISM

Ijtimoiy integratsiyaning nazariy asoslari. Integratsiya g‘oyasi sotsiologiyada E. Dyurkgeymdan boshlanadi. U zamonaviy jamiyatda odamlarni bog‘laydigan asosiy rishta o‘xshashlik emas, turli vazifalar orqali o‘zaro bog‘liqlik, ya’ni mehnat ekanini ko‘rsatdi; mehnat taqsimoti buzilganda esa me’yorlar susayib, anomiya paydo bo‘ladi [3]. T. Parsons bu g‘oyani tizim darajasiga ko‘tardi: integratsiya jamiyat hal qilishi kerak bo‘lgan to‘rt vazifadan biri bo‘lib [4], iqtisodiyot moslashuv, oila va ta’lim esa me’yorlarni saqlash vazifasini bajaradi. Bu sxemada maktabni tugatib ishga kirayotgan bitiruvchi bir bo‘g‘indan ikkinchisiga o‘tadi va o‘tish silliq kechishi uchun bo‘g‘inlarni ulovchi mexanizm kerak bo‘ladi. R. Merton anomiyaning boshqa manbasini ko‘rsatdi: jamiyat hammaga bir xil maqsadlarni (mehnat, daromad, mustaqillik) tavsiya qiladi, lekin ularga erishish vositalari hamma uchun teng

ochiq emas; vositalardan mahrum bo‘lgan shaxs esa maqsaddan ham chekinishi mumkin [5]. D.Lokvud ijtimoiy integratsiyani, ya’ni shaxslar va guruhlar o‘rtasidagi munosabatlarni, tizim integratsiyasidan, ya’ni institutlarning bir-biriga uyg‘unligidan ajratdi. Bu ikki daraja bir-biriga bog‘liq, lekin bir-birini almashtirmaydi [6]: bitiruvchi oilasi va tengdoshlari bilan mustahkam aloqada bo‘lsa-da, maktab, kollej va bandlik xizmati o‘rtasidagi uzilish tufayli ishsiz qolishi mumkin. R. Levitas esa siyosiy diskurslarni tahlil qilib, ulardan birida integratsiya deyarli faqat pulli ish bilan o‘lchanishini, bu bandlikdan tashqaridagi aloqalarni e’tibordan chetda qoldirishini ko‘rsatdi [7]. Nogironlik talqinida ham shunga o‘xshash burilish yuz berdi: M. Oliverning ijtimoiy modeli cheklovni shaxsning kamchiligidan emas, jamiyat yaratgan to‘siqlardan keltirib chiqaradi, ya’ni integratsiyaga to‘sqinlik qiluvchi omil shaxsning o‘zida emas, muhitda izlanadi [8].

Maktabdan ishga o‘tish tadqiqotlari jarayon xarakterini ochdi. A. Halpern o‘tish natijasini bandlik, yashash muhiti va ijtimoiy tarmoqlar orqali baholashni taklif qildi [9]; A. Ager va A. Strang esa integratsiyani bandlik, ta’lim, salomatlik, ijtimoiy aloqalar va huquqlar sohalarini qamragan ko‘p o‘lchovli tuzilma sifatida tavsiflab, uni bandlik bilan cheklashga qarshi turdi [10]. Shunday qilib, ko‘rib chiqilgan nazariyalar integratsiyaning bir-birini to‘ldiruvchi jihatlarini beradi, lekin nogironligi bo‘lgan bitiruvchi uchun tayyor tushuncha taqdim etmaydi: klassik sotsiologiya nogironlikni deyarli qamramagan, nogironlik va o‘tish tadqiqotlari esa integratsiyani nazariy kategoriya sifatida kam ishlab chiqqan.

Nazariy yondashuvlar va mahalliy empirik ma’lumotlarning qiyosiy tahlili. Ijtimoiy integratsiyaning ko‘p o‘lchovli xususiyati O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan yoshlarning mehnat bozoridagi ishtirokiga oid empirik ma’lumotlar orqali ham namoyon bo‘ladi. Jumladan, Ijtimoiy himoyani rivojlantirish instituti tomonidan BMT Taraqqiyot dasturi ko‘magida amalga oshirilgan va 2025-yilda e’lon qilingan tadqiqot 1 462 nafar nogironligi bo‘lgan yoshning mehnat bozoriga kirish imkoniyatlari hamda mavjud to‘siqlarini o‘rganishga qaratilgan [2].

Tadqiqotda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, ishlayotgan respondentlarning 40 foizi norasmiy bandlik sharoitida faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, 15,6 foizi tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasi tomonidan mehnatga layoqatsiz deb topilganiga qaramay, mehnat faoliyatini davom ettirmoqda. Ayni paytda respondentlarning 79,2 foizi hamkasblari bilan munosabatlarini ijobiy baholagan [2]. Mazkur ko‘rsatkichlar mehnat faoliyatida ishtirok etish, huquqiy jihatdan tan olingan bandlik va shaxslararo

ijtimoiy munosabatlar o‘zaro bog‘liq bo‘lsa-da, bir xil natijani ifodalamasligini ko‘rsatadi. Xususan, norasmiy ishlayotgan shaxs mehnat jamoasidagi ijtimoiy munosabatlarga muvaffaqiyatli kirishgan bo‘lishi mumkin, biroq uning rasmiy bandlik orqali ta’minlanadigan mehnat kafolatlaridan foydalanish imkoniyati cheklangan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Ushbu holat D. Lokvud tomonidan ilgari surilgan tizimli integratsiya va ijtimoiy integratsiya o‘rtasidagi nazariy farqlanish bilan uyg‘unlashadi. Shuningdek, R. Levitasning ijtimoiy istisnoni faqat mehnat bozoridan chetda qolish bilan izohlash yetarli emasligi haqidagi tanqidiy yondashuvini mahalliy sharoitda qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi. Institutsional integratsiya bilan bog‘liq muammolar respondentlarning mavjud qo‘llab-quvvatlash mexanizmlaridan xabardorlik darajasida ham kuzatiladi. Xususan, ish o‘rinlarini kvotalash tizimi haqida so‘ralganlarning atigi 18,7 foizi ma’lumotga ega. Tegishli savolga javob bergan 1 047 nafar respondentning 31,6 foizi rasmiy ishga joylashgan taqdirda ijtimoiy imtiyozlari qanday o‘zgarishini bilmasligini, 10,2 foizi esa imtiyozlar kamayishi yoki bekor qilinishini kutishini bildirgan [2]. Ushbu natijalar bandlikka ko‘maklashish mexanizmlarining mavjudligi ularning maqsadli guruh tomonidan yetarlicha anglanishi va amalda qo‘llanilishini avtomatik ravishda ta’minlamasligini ko‘rsatadi. Bu jihat nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlarini ta’minlash va inklyuziv ta’limni rivojlantirishga doir milliy huquqiy asoslar bilan ham bog‘liq [11]. Nogironligi bo‘lgan shaxslarning bandligini ta’minlashda ijtimoiy himoya va bandlik xizmatlari o‘rtasidagi muvofiqlashtirishni kuchaytirish, individual ehtiyojlarga asoslangan kompleks yondashuvni joriy etish zarurligi qayd etilgan [12].

Tadqiqotning yana bir muhim natijasi NEET toifasiga, ya’ni ta’lim, bandlik yoki kasbiy tayyorgarlik jarayonlarida ishtirok etmayotgan yoshlar guruhiga taalluqlidir. Ushbu guruhdagi respondentlarning 22,6 foizi kelajak bilan bog‘liq aniq rejaga ega emasligini bildirgan. Ish izlamaslik sabablari orasida esa istakning yo‘qligi 36,9 foiz bilan eng ko‘p qayd etilgan javob hisoblanadi [2]. Mazkur holatni R. Mertonning anomiya nazariyasida tavsiflangan chekinish (retreatism) moslashuv turi bilan qiyosiy tahlil qilish mumkin [5]. Biroq ish izlash istagining mavjud emasligini bevosita ijtimoiy chekinish sifatida baholash metodologik jihatdan yetarli asosga ega emas. Chunki bunday javob ortida avvalgi muvaffaqiyatsiz ish qidirish tajribasi, diskriminatsiya, sog‘liq bilan bog‘liq cheklovlar, qulay mehnat sharoitlarining yetishmasligi yoki institutsional qo‘llab-quvvatlashga ishonchning pastligi kabi omillar mavjud bo‘lishi mumkin.

Shu bois Merton nazariyasi mazkur holatni tushuntirish uchun tayyor xulosa emas, balki keyingi empirik tadqiqotlarda tekshirilishi lozim bo‘lgan nazariy faraz sifatida qo‘llanilishi maqsadga muvofiq. Yuqoridagi nazariy va empirik tahlil asosida ijtimoiy-mehnat integratsiyasini faqat ishga joylashish ko‘rsatkichi bilan baholash yetarli emas, degan xulosaga kelish mumkin. Inklyuziv ta’lim bitiruvchilarining integratsiyasini o‘rganishda rasmiy va barqaror bandlik, mehnat huquqlarining ta’minlanishi, ijtimoiy munosabatlarda ishtirok etish, institutsional xizmatlardan foydalanish, mustaqil hayotga tayyorlik hamda kelajakdagi kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini o‘zaro bog‘liq mezonlar sifatida ko‘rib chiqish zarur. Bunda nogironligi bo‘lgan yoshlar o‘rtasida o‘tkazilgan mazkur so‘rov natijalari bevosita inklyuziv ta’lim bitiruvchilarining reprezentativ ko‘rsatkichi emas, balki ularning maktabdan mehnat bozoriga o‘tish jarayonini tadqiq etish uchun muhim mahalliy empirik asos vazifasini bajaradi.

XULOSA

Ijtimoiy integratsiya sotsiologiyada Dyurkgeymning mehnat orqali bog‘lanish g‘oyasidan Parsonsning tizim vazifasi, Mertonning maqsad va vositalar muvofiqligi, Lokvudning ikki daraja tushunchasigacha rivojlandi; Levitas, Oliver, Halpern, Ager va Strang tadqiqotlari esa uni bandlikka tenglashtirishdan ogohlantirib, ko‘p o‘lchovli va jarayon sifatida talqin qildi. Empirik ma’lumotlar buni tasdiqladi: kamida 366 ming nafar mehnatga layoqatli nogironligi bo‘lgan shaxs ish o‘rniga ega emas, ishlayotgan yoshlarning 40 foizi norasmiy band, lekin inklyuziv ta’lim bitiruvchilari ko‘rsatkichlarda alohida ko‘rinmaydi. Shu asosda ijtimoiy-mehnat integratsiyasi barqaror mehnat o‘rni, iqtisodiy mustaqillik, ijtimoiy aloqalar va sub’ektiv qoniqishni qamraydigan, institutsional qo‘llab-quvvatlashga bog‘liq uzluksiz ikki tomonlama jarayon sifatida ta’riflandi va oltita o‘lchovli mezonlar tizimi ishlab chiqildi. Amaliy jihatdan bu bitiruvchilarni alohida hisobga olish, bandlikni rasmiy-norasmiy farqi bilan hamda boshqa o‘lchovlar bo‘yicha kuzatish va maktab, kasb ta’limi hamda bandlik xizmati o‘rtasidagi uzviylikni uch o‘tish nuqtasida kuchaytirishni taqozo etadi. Keyingi bosqichda mezonlar Toshkent shahri bitiruvchilari, ularning ota-onalari va ish beruvchilar o‘rtasidagi so‘rov hamda intervyular orqali sinovdan o‘tkaziladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Isajonov, M. (2026, June 4). “Ular imkoniyat kutadi, rahm emas”. Inklyuziv biznes qurgan tadbirkorlar hikoyasi. Gazeta.uz. https://www.gazeta.uz/oz/2026/06/04/inklyuziv-bandlik/

2. Institute for Development of Social Protection. (2025). Barriers young persons with disabilities face in the labour market of Uzbekistan [Report]. National Agency for Social Protection; UNDP Uzbekistan. https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/2025-05/uz_nbsh_mehnat_bozori_en.pd

3. Durkheim, É. (1984). The division of labour in society (W. D. Halls, Trans.). Free Press. (Original work published 1893)

4. Parsons, T. (1951). The social system. Free Press.

5. Merton, R. K. (1938). Social structure and anomie. American Sociological Review, 3(5), 672–682.

6. Lockwood, D. (1964). Social integration and system integration. In G. K. Zollschan & W. Hirsch (Eds.), Explorations in social change (pp. 244–257). Routledge & Kegan Paul.

7. Levitas, R. (2005). The inclusive society? Social exclusion and New Labour (2nd ed.). Palgrave Macmillan.

8. Oliver, M. (1990). The politics of disablement. Macmillan.

9. Halpern, A. S. (1985). Transition: A look at the foundations. Exceptional Children, 51(6), 479–486.

10. Ager, A., & Strang, A. (2008). Understanding integration: A conceptual framework. Journal of Refugee Studies, 21(2), 166–191. https://doi.org/10.1093/jrs/fen016

11. O‘zbekiston Respublikasi. (2020). Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida (O‘RQ-641-son Qonun, 15-oktabr). https://lex.uz/docs/5049511

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida (PQ-4860-son qaror, 13-oktabr). https://lex.uz/docs/5044711

HOFIZ XORAZMIY SHE'RIYATIDA HOFIZ SHEROZIYGA ADABIY MUROJAAT: AN'ANA VA IJODIY DAVOMIYLIK

Davronova Surayyo Abduraxmon qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, tayanch doktorant
davronovasurayyo40@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek mumtoz adabiyotining g'azalnavislaridan biri Hofiz Xorazmiy ijodiga murojaat qilingan. Shuningdek, shoirning Hofiz Sheroziy ijodiga munosabati uning adabiy estetik qarashlari, poetik mahorati va turkiy she'riyat tarixidagi o'rnini belgilashga xizmat qiladi. Hofiz Sheroziy va Hofiz Xorazmiy ijodiy munosabatlarini o'rganish turkiy adabiyot va fors-tojik adabiyotining mushtarak jihatlari, vorislik va an'anaviylik tamoyillarini ifoda etadi.*

Kalit so'zlar: *Mumtoz adabiyot, fors-tojik adabiyoti, turkiy adabiyot, Hofiz Xorazmiy, Hofiz Sheroziy, vorislik, an'anaviylik, ijodiy ta'sir, poetik tafakkur, g'azal, qofiya, radif.*

Abstract: *This article examines the literary legacy of Hafiz Khwarazmi, one of the prominent poets of classical Uzbek literature, with particular attention to his engagement with the poetic works of Hafiz Shirazi. It also explores the nature of the poet's relationship with Hafiz Shirazi's literary heritage, his aesthetic views, poetic craftsmanship, and his position in the history of Turkic poetry. A study of the literary relationship between Hafiz Shirazi and Hafiz Khwarazmi sheds light on the shared characteristics of Turkic and Persian-Tajik literature, as well as the manifestations of continuity and literary tradition.*

Keywords: *Classical literature, Persian-Tajik literature, Turkic literature, Hafiz Khwarazmi, Hafiz Shirazi, literary heritage, literary tradition, creative influence, poetic thought, ghazal, rhyme, radif.*

KIRISH

O'zbek mumtoz adabiyoti tarixiga nazar soladigan bo'lsak, yuksak badiiy mahoratga ega ijodkorlar, shoirlar ko'p. Ularning aksariyati o'zlari yashagan davrni ijodlarida aks ettirib, butun bir adabiy muhitga ijobiy ta'sir etgan. Shunday shoirlarimizdan biri aynan Hofiz Xorazmiydir. U XIV asr oxiri va XV asr boshlarida yashab ijod qilgan. Hofiz Xorazmiyning lirik xazinasi

o‘zining janrlar xilma- xilligi, mavzu ko‘lamining kengligi va quvonarlisi hajm jihatidan salmoqli ekanligi bilan ahamiyatlidir.

Darhaqiqat, millatimizning ruhi bo‘lgan ona tilimizni, xalqimizning azaliy qadriyatlarini kelgusi avlodlarga yetkazishda adabiyotning o‘rni va ahamiyati beqiyos ekanligiga jiddiy urg‘u berilmoqda. Adabiyotga e’tibor-ma’naviyatga, kelajakka e’tibor ekani, binobarin adabiyotimiz rivoji uchun nafaqat yozuvchi va shoirlar, balki butun jamiyat ma’sul ekani alohida ta’kidlanmoqda[27]. Shu bois, Hofiz Xorazmiy ijodini o‘rganinish, go‘zal lirik merosini tahlil qilish adabiyotshunoslarimiz oldida turgan masalalaridan biridir. Shoir lirikasini keng kitobxonlar ommasiga munosib tarzda tanitish, uning ijodiy merosining badiiy-estetik qimmatini ochib berish hamda shoirning mahorati yuksak darajada ekanini ilmiy asosda dalillash muhim ahamiyat kasb etadi.

ASOSIY QISM

Hofiz Xorazmiy XIV asr oxiri va XV asr asr boshlarida o‘zbek g‘azaliyotiga o‘zining munosib hissasini qo‘shgan ijodkorlardan biridir. Shoir shuningdek, o‘zbek g‘azaliyotini rivojlantirish bilan bir qatorda, fors-tojik she’riyati an’analari bilan sayqal berdi. Ushbu ijodkor adabiyotshunosligimizga nisbatan kechroq ma’lum qilingan bo‘lsa-da, bugungi kunda bu borada qilingan ishlar kishini quvontiradi. Ijodkorning 1981-yil nashr etilgan II jildlik devoni, 1980-yilda o‘zbek va rus tillarida chop etilgan to‘plamlari, 1988-yilda Turkiyadning Anqara shahrida Rejep Toparli tomonidan Hofiz Xorazmiy devonining to‘liq holda nashr ettirilishi yuqoridagi fikrimizni quvvatlantiradi. Hofiz Xorazmiy devonining topilishi adabiyotimizda noyob hodisalardan biri bo‘ldi. Adabiyotshunos Hamid Sulaymon tomonidan topilgan ushbu devonning kirish qismida olim ushbu devonning qadr–qimmati haqida alohida ta’kidlab o‘tadi. Adabiy merosimizni tinimsiz izlash va to‘plash jarayonida qo‘lga kiritilgan bebaho durdonalar orasida favqulodda uchraydigan “durri yatim” lardan biri, hozircha fan olamiga ma’lum bo‘lmagan o‘zbek dunyoviy adabiyotining yirik namoyondasi Hofiz Xorazmiyning 37264 misradan iborat poetik merosini o‘z ichiga olgan qo‘lyozma devoni Hindistonning Haydarobod shahrida topildi. Yevropaning eng boy qo‘lyozma xazinalaridan bo‘lmish London, Oksford, Kembridj, Parij kutubxonalaridagi o‘zbek adabiyoti, fani va madaniyati tarixiga oid barcha qo‘lyozmalarni ko‘rib, ular orasidagi eng mo‘tabarlari mikrofilmi va foto nusxalarini Vatanimizga, respublika Fanlar akademiyasining Alisher

[27] Karimov I.A. Yuksak ma’naviy-yengilmas kuch. –Toshkent. Ma’naviyat, 2008. 87-bet.

Navoiy nomidagi Davlat adabiyoti muzeyi qo‘lyozma fondi xazinasiga olib kelib qo‘shgan edim. Ammo, ular fan uchun qanchalik ahamiyat kasb etmasin, hech biri Hofiz Xorazmiy qo‘lyozma devoni darajasida kashfiyot kuchiga ega bo‘lmagan edi[28]. Mumtoz adabiyotimizda shunday noyob hodisa borki, ijodkorlar turli davrlarda, turli makonlarda yashasalar ham ularning ijodida bevosita adabiy ta’sir sezilib turadi. Shu o‘rinda Hofiz Xorazmiy ijodida Hofiz Sheroziyning bevosita ta’sirini sezishimiz mumkin. Bu jihatni Sharq mumtoz adabiyotining umumiy poetik tamoyillari, forsiy va turkiy she’riyat o‘rtasidagi adabiy aloqalar hamda g‘azal janrining taraqqiy etishi bilan izohlash mumkin. Sharq mumtoz adabiyotimiz tarixiga nazar soladigan bo‘lsak juda ko‘p ijodkorlar o‘z ijodida Hofiz Sheroziyga murojaat qiladi. Bu vorislik va Hofiz Sheroziy an’analarini davom ettirish adabiyotimizda ko‘plab ijodkorlarning asarlarida uchratishimiz mumkin. Hamid Sulaymonov ham ushbu devonni ilk bor topganlarida katta ehtimol bilan Hofiz Sheroziyning bir devoni deb o‘ylaydi va keyinchalik devon boshqa bir “Hofiz” ga tegishli ekanligini dalillar bilan asoslab beradi. Devondagi juda ko‘p misollardan ma’lum bo‘lishicha, Hofiz Xorazmiy Sheroziyning kichik zamondoshi bo‘lgan. Hofiz Sheroziy 1389 yili vafot etganida Hofiz Xorazmiy yetuk shoir bo‘lgan bo‘lsa kerak. Agar Temurning Xorazmga yurishlari davrida Hofiz Xorazmiy Sherozga borib qolgan bo‘lsa, u taqdirda, forsiygo‘y Hofiz bilan turkiygo‘y Hofizning bir-birlari bilan uchrashgan, tanishgan bo‘lishlari ehtimoldan uzoq emas[29]. Hofiz Xorazmiyning bevosita taxalluslarida ham Hofiz Sheroziyga vorislikni sezishimiz mumkin. Vaholanki, mumtoz adabiyotimizda juda ko‘plab ijodkorlar Hofiz taxallusi bilan ijod qilib, adabiyotimizda o‘z o‘rinlariga ega bo‘lishganligi ma’lum. Hofiz Xorazmiy o‘zining mashhur zamondoshi Hofiz Sheroziy badiiy dahosida tarbiyalanib, uni o‘z piri-murabbiysi sifatida e’tirof etishi haqiqatga yaqin ko‘rinsa, ikkinchidan, yosh Abdurahimning o‘zbek tili, adabiyoti va madaniyatining to‘la huquqi uchun kurashuvchi, jasoratli va otashin vatanparvar ekani bilan izohlanadi. Aniqrog‘i shoir Abdurrahim o‘zbek she’riyatida Hofiz Sheroziydek zabardast sa’natkor bo‘lishni orzu qilgan. O‘zbek xalqi ham o‘z ona tilida yaratilgan ishqiy, falsafiy she’riyatdan keng ko‘lamda bahramand bo‘lmog‘i lozim degan ezgu tilaklari, uning dunyoqarashidagi xalqchillik g‘oyalari bog‘liq ko‘rinadi. Keyinchalik Abdurrahim Hofiz taxallusini qabul qilgan. Bu haqda shoirning o‘zi bir g‘azalida shunday yozgan:

Hofizni ko‘rung ushbu zamon turk tilinda,

[2828] Hofiz Xorazmiy. Devon. 2 tom. 1-kitob.-T.: O‘zKPMK, 1981. –B.3.
[29] Hofiz Xorazmiy. Devon. 2 tom. 1-kitob.-T.: O‘zKPMK, 1981. –B.7.

Gar kechdi esa forsda ul Hofiz-i Sheroz.

(Devon, 279-bet)

Bu misralarni shu qadar baralla yozishga Hofiz Sheroziydek buyuk shoir bilan ijodiy bellashishga qodir, yetuk san'atkorgina jur'at qilishi mumkin[30].

Sheroziy turklarga eltung bu she'rnikim,
Surdum bu tavr uzra Hofiz bikin kalome[31].

Ushbu g'azalda Sheroziyga bevosita murojaat qilingan. Hofiz Xorazmiy ijodida shoirning o'z poetik mavqeini anglashi, turkiy tilda yuksak badiiy asar yaratish maqsadi va Hofiz Sheroziy an'analariga munosabatini sezishimiz mumkin. Mazkur baytning ahamiyati shundan iboratki, unda turkiy til, shoirlik mahorati, adabiy an'anaga munosabat va ijodiy o'zlik jihatlari bir-biriga bog'liq holda ifoda etilgan. Mumtoz Sharq adabiyotida o'zidan oldin yashab ijod etgan ustozlariga, xususan u qay makonda yashamasin o'z ijodida murojaat qilishgan. Hofiz Xorazmiy baytida o'z she'rini Hofiz Sheroziyga qiyoslash orqali, bir tomondan yuksak badiiy mezonga munosabat bildirsa, ikkinchi tomondan o'zi turkiy tilda ham ana shunday she'riy so'z yaratish mumkinligini ifoda etgan. Dalil aytish mumkinki, Hofiz Xorazmiy Hofiz Sheroziy an'analarini birinchilardan bo'lib o'zbek she'riyatiga olib kirgan, ayniqsa g'azal janrini mazmunan boyitgan ulkan san'atkor bo'lgan[32].

Ko'ngulni oldi ol birla o'shul dildor-i Sheroziy,
Bu hasta jong'a soldi shirinkor-i Sheroziy.

Nabotu qand-i Misrni xijolatda tutar doim,
Shakarxanda bila ul la'li shakarbori Sheroziy[33].

Shoir Hofiz Xorazmiyning "Sheroziy" radifli g'azali ham bor. Ma'lumki, XIV-XV asrlarda forsiy adabiyotning yirik ilm o'choqlaridan biri Sheroz bo'lgan. Hofiz Sheroziyning g'azallari va o'ziga xos uslubi bu shaharni dong'ini tanitib yuborgan. Yuqoridagi g'azalda shoir Sheroziy deya bevosita sheroziylik degan go'zal ifodani nazarda tutgan. Mazkur g'azalda qofiya va radif faqat tashqi ohangdoshlik vositasi bo'lib qolmaydi. "Sheroziy" radifi shoir ifoda etgan ma'nolarni bitta poetik markazga–Sheroz bilan tasvirlangan yorning timsolini ifodalaydi. Matla'ning ikki misrasida qofiya va radifning bir xil tartibda kelishi g'azalning keyingi baytlari uchun poetik mezon yaratadi.

XULOSA

[30] Hofiz Xorazmiy. Devon. 2 tom. 1-kitob.-T.: O'zKPMK, 1981. –B.7.
[31] Hofiz Xorazmiy. Devon. 2 tom. 1-kitob.-T.: O'zKPMK, 1981. –B.248.
[32] Hofiz Xorazmiy. Devon. 2 tom. 1-kitob.-T.: O'zKPMK, 1981. –B.8.
[33] Hofiz Xorazmiy. Devon. 2 tom. 2-kitob.-T.: O'zKPMK, 1981. –B.248.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish joizki, Hofiz Xorazmiy lirikasi Hofiz Sheroziy nomi va ijodiy an’analariga murojaat etilishi shoirning Sharq mumtoz adabiyoti bilan adabiy aloqada bo‘lganidan dalolat beradi. Ammo bu ikki buyuk shoirning suhbatlari yoki bevosita uchrashganliklari haqida manbalarda ma’lumotlar keltirilmagan. Demak bu munosabatni oddiy taqlid hodisasi sifatida emas, balki adabiy ta’sir, ijodiy yaqinlik va individual badiiy tafakkur uyg‘unligi sifatida baholash o‘rinlidir. Hofiz Xorazmiy lirik merosining ahamiyati shundan iboratki, u fors-tojik mumtoz she’riyatida yuksak badiiy darajaga ko‘tarilgan poetik tajribalarni turkiy tilda qayta ijodiy talqin etish orqali turkiy adabiyotning rivojiga ulkan hissa qo‘shdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1.Karimov I.A. Yuksak ma’naviy-yengilmas kuch. –Toshkent. Ma’naviyat, 2008.
2.Hofiz Xorazmiy. Devon. 2 tom. 1-kitob.-T.: O‘zKPMK, 1981.
3.Hofiz Xorazmiy. Devon. 2 tom. 2-kitob.-T.: O‘zKPMK, 1981.

WHAT DO YOU FEEL IS THE MOST IMPORTANT CONSTITUTIVE COMPONENT OF INTERNATIONAL ORDERS AND WHY? JUSTIFY THIS IN REFERENCE TO TWO DIFFERENT INTERNATIONAL ORDERS

Ikromova Mohinabonu Dilshod kizi
BA Politics and International Relations, University of Reading, RG6 6UR, United Kingdom
Email: mohinabonuikromova0920@gmail.com

Abstrack. *This article examines legitimacy as the most important constitutive component of international orders. It argues that material power and institutions alone cannot fully explain why political authority is accepted, why systems endure, or why they eventually decline. Legitimacy transforms dominance into recognised authority by creating a shared belief that rules and institutions are rightful and should be obeyed. The argument is explored through two contrasting historical cases: the Mughal Empire and the post-1945 Western-led Liberal International Order. The Mughal case demonstrates how dynastic and religious ideas of rightful rule could preserve imperial authority even after its material foundations weakened. The Liberal International Order, meanwhile, shows how shared liberal norms and institutions helped legitimise American leadership, while selective application of those principles has contributed to a contemporary crisis of legitimacy. The comparison demonstrates that legitimacy is central to both the creation and the long-term stability of international order.*

Keywords*: Legitimacy; international order; Mughal Empire; Liberal International Order; authority; hegemony; international institutions.*

INTRODUCTION

The question of what constitutes the foundation of international order has long divided scholars of international relations. Realist accounts, from Gilpin to Mearsheimer, locate order in material power and hegemonic stability, whereas English School theorists such as Hedley Bull (1977) and Ian Clark (2005) emphasise shared rules and institutions as the basis of international society. However, neither coercion nor institutional structure alone explains why authority is accepted as rightful, why orders endure beyond the material dominance of their architects, or why they ultimately unravel. This essay argues that legitimacy, the intersubjective belief in the rightful nature of authority, is

the most important constitutive component of all international orders. Legitimacy transforms hierarchy into accepted rule and converts material power into authority sustained through consent rather than coercion. The essay first conceptualises international order and legitimacy, addressing both what constitutes international order and why legitimacy is its most essential component. It then examines two cases, the Mughal Empire and the Western-led liberal international order, to show that legitimacy ultimately determines the endurance and decline of international order.

Scandinavian influence is visible in everyday words such as sky, window, husband, law, take, they, and their. These items entered English through contact with Old Norse-speaking communities. The Norman Conquest of 1066 brought extensive French influence, particularly in government, law, administration, and culture. Latin and Greek have remained especially influential in academic, medical, and scientific terminology. These historical layers demonstrate that English vocabulary has developed through sustained interaction with other linguistic communities.

5. Globalization and the Expansion of Modern Vocabulary

Globalization has increased communication between people from different linguistic and cultural backgrounds. As a result, English continues to incorporate expressions associated with international trade, food, entertainment, fashion, and popular culture. Words such as sushi, karaoke,

manga, and tsunami entered English through contact with Japanese language and culture. The international popularity of food, music, and cultural traditions has encouraged the adoption of vocabulary from many regions.

Digital communication has accelerated this process. Social media platforms allow expressions to spread across national borders rapidly. Words such as unfriend and hashtag, as well as the expanded digital meaning of viral, illustrate how online communication influences contemporary vocabulary. Modern English therefore reflects not only the history of English-speaking countries but also the cultural experiences of the international community.

6. Integration of Borrowed Words into English

When a word enters English from another language, it may undergo adaptation. Phonological adaptation occurs when its pronunciation changes to fit English sound patterns. Orthographic adaptation may also take place, although some loanwords retain their original spelling. For example, café is commonly used in English, while other borrowed forms may gradually acquire conventional English spellings.

Morphological adaptation allows borrowed words to take English grammatical endings: pizza becomes pizzas, robot becomes robots, and ballet becomes ballets. Semantic adaptation may also occur when a borrowed word develops a meaning or usage that differs from its source language. The word entrepreneur, borrowed from French, is now an established English term for a person who organizes and operates a business, often involving financial risk. These processes show that borrowed vocabulary can become integrated into the receiving language at several levels.

7. Relevance to English Language Teaching

The study of neologisms and borrowed words has educational value because it helps learners understand how vocabulary develops and how words are structured. Examining word origins can reveal connections between English and other languages. Studying word-formation processes helps learners identify the components of unfamiliar words and make informed predictions about their meanings. Awareness of borrowed vocabulary can also develop intercultural understanding by showing that languages are not isolated systems but interact continuously.

Teachers can incorporate these topics through practical activities. Students may research the origins of selected words, collect recent expressions from newspapers and websites, classify examples according to word-formation processes, compare English loanwords with equivalents in their first language, and use new vocabulary in meaningful sentences or presentations. Such

activities make lexicology more practical and encourage learners to approach vocabulary analytically.

8. CONCLUSION

The development of modern English vocabulary is closely connected with social transformation, scientific progress, technological innovation, and intercultural communication. Neologisms and borrowed words are two major mechanisms through which the English lexicon expands and adapts to new communicative needs. New lexical items emerge through compounding, blending, clipping, acronyms, and semantic change, while borrowing enables English to incorporate expressions from other languages and cultures.

Historical evidence demonstrates the influence of Scandinavian, French, Latin, and Greek on contemporary English. In modern times, globalization and digital communication have further accelerated lexical exchange. From an educational perspective, understanding these processes can help learners develop lexical awareness, recognize unfamiliar vocabulary, and appreciate the relationship between language and society. English vocabulary should therefore be understood as a dynamic system that reflects the intellectual, cultural, and technological development of humanity.

REFERENCES

1. Algeo, J. (1991). Fifty Years Among the New Words: A Dictionary of Neologisms, 1941–1991. Cambridge University Press.

2. Bauer, L. (1983). English Word-Formation. Cambridge University Press.

3. Crystal, D. (2003). English as a Global Language (2nd ed.). Cambridge University Press.

4. Haspelmath, M., & Tadmor, U. (Eds.). (2009). Loanwords in the World's Languages: A Comparative Handbook. De Gruyter Mouton.

5. Katamba, F. (1994). English Words. Routledge.

6. Plag, I. (2003). Word-Formation in English. Cambridge University Press.

7. Yule, G. (2020). The Study of Language (7th ed.). Cambridge University Press.

JIZZAX VILOYATI KO‘ZI OJIZLAR KUTUBXONASI: TARIX VA TARAQQIYOT

Normurodova Farangiz Xolmurodovna
Jizzax davlat pedagogika unversiteti tayanch doktoranti
normurodovaf81@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Jizzax viloyati ko‘zi ojizlar kutubxonasinng tashkil topishi, faoliyat yo‘nalishlari, huquqiy asoslari, bo‘limlari, faoliyatidagi islohatlar, fondi va jamg‘armasiga oid ma’lumotlar tarihiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda ko‘zi ojizlar kutubxonasining aholini ehtiyojga muhtoj qismini axborot bilan taminlash, malaka va ko‘nikmalarini oshirishga doir faoliyatiga alohida e’tibor berilgan.*

Abstract: *This article analyzes the formation, areas of activity, legal basis, deportments, reforms in the activities, fund and fund of the Jizzakh regional library for the blind from a historical perspective. The study pays special to the activities of the library for the blind in providing the population in need with information, improving their qualifications and skills.*

Kalit so’zlari: *ko‘zi ojizlar kutubxonasi, F. Hamzayev, JAVS va NVDA dasturlari, brayl yozuvi, Ovozli eshituv to‘g‘aragi.*

Keywords: *Library for the blind, F.Hamzayev, JAWS and NVDA programs, braille, Audio Hearing Circle.*

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimiz hayotida sodir bo‘layotgan ulkan o‘zgarishlar jarayonida yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda axborot-kutubxona muassasalarining o‘rni beqiyosdir. Negaki, axborot-kutubxona muassasalari jamiyatning m’naviy va madaniy taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Bu borada, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Barqaror rivojlanishga erishish uchun biz raqamli bilimlarni va axborot texnologiyalarini chuqur o‘zlashtirishimiz kerak, bu esa bizga har tomonlama rivojlanishga erishish uchun eng qisqa yo‘ldan borishimizga imkon beradi”[34]- degan so‘zlari ham kutubxonalarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini muhimligini ko’rsatadi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohatlar bevosita kutubxonalar faoliyatiga ham ta’sir qiladi, shuning uchun kutubxonalar faoliyatini o‘rganish davlatning madaniy siyosati qanday

[34] Mirziyoyev Sh.M. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 24-yanvar. Prezident.uz.

bo‘lganini namoyon qiladi. Bunday jarayonlarni hududlar misolida, jumladan Jizzax viloyati misolida o‘rganish voha madaniy-ma’rifiy hayotini yoritishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

ASOSIY QISM

Respublikamizning boshqa hududlari singari Jizzax viloyatida ham kutubxonalarning tashkil topishi va rivojlanishi ma’lum bir tarixiy davrni o‘z ichiga oladi. Xususan, 1973-yil 28-dekabrda Jizzax viloyati tashkil etilgandan so‘ng, hukumat qarori asosida hududda ko‘plab madaniyat muassasalari tashkil etiladi. Jumladan, shu yilning o’zida hududda kutubxona tashkil etish bo‘yicha ishlar amalga oshirilib, kutubxonalar tizimi yatailadi. Bugungi kunda hududda Sharof Rashidov nomidagi viloyat axborot-kutubxona markazi, axborat-resur markazi hamda viloyati ko‘zi ojizlar kutubxonasi va ularning joylardagi bo‘limlari faoliyat olib bormoqda. Quyida biz viloyat ko‘zi ojizlar kutubxonasining tashkil topishi, faoliyati, bo’limlari hamda huquqiy asoslari bilan tanishamiz.

Jizzax viloyati ko‘zi ojizlar kutubxonasi 1978-yilda Jizzax shahrida tashkil etilgan bo‘lib, dastlab 6 kishi kutubxonada faoliyat olib borgan. 1978-2008 yillar yillar davomida kutubxonada S.Ergasheva, Y.Xayitboyev hamda F.Hamzayevlar rahbarlik qilishgan. Bu davrda kutubxonadan asosan shahar hududida istiqomat qiluvchi ko‘zi ojiz bo’lgan kitobxonlar foydalanishgan. Tumanlarda yashovchi ko‘zi ojiz insonlarga xizmat ko‘rsatish sifati past bo‘lib, kamdan-kam hollarda ko‘chma kutubxonalar tashkil etilgan. Dastlabki yillarda kutubxona o‘z binosiga ega bo’lmagan, kutubxona uchun alohida bino ajratilmagan. Kutubxona foydalangan bino esa kutubxona faoliyatiga mos bo‘lmagan. 1990-yillarda kutubxonada ish o‘rinlari qisqartirilib borilib, kutubxonada 3 ta ishchi o‘rni qoldirilgan. Bu davrda kutubxonada sharoit og‘irlashib kutubxonaning moddiy-texnik bazasini yaxshilash uchun mebel sotib olish, kitob jamg‘armasiga yangi kitoblar olish hamda yangi texnika vositalarini sotib olish uchun mablag‘ ajratilmagan, bu esa kutubxona faoliyatiga salbiy tasir qilgan[35]. Lekin shunday og‘ir sharoitga qaramasdan kutubxona kitobxonlarga xizmat qilishda davom etgan.

Mustaqillikka ershganimizdan so‘ng Prezidentimizning kutubxona faoliyatiga doir qaror va farmonlari hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida kutubxonalar faoliyati kengaytirilib, ularning moddiy-texnik bazasi yaxshilanadi. Jumladan, “Kitob maxsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda

[35] Norpo‘latov E. Tarix ko‘zgusida. Toshkent . IJOD-PRESS. 2024. –B-245

targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”[36]gi Qonun, “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”[37]gi Qaror hamda Vazirlar Mahkamasining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”[38]gi Farmonlar ko‘zi ojizlar kutubxonalari faoliyatining sifat jihatdan yangilanib rivojlanishiga asos bo’ldi.

2006-yilda kutubxonadagi jihozlar xizmat vazifasini o‘tab bo‘lib, foydalanishga yaroqsiz bo‘lganligi hamda kitobxonlarga xizmat ko‘rsatish darajasi pastligi uchun madaniyat bo‘limi hisobdan chiqariladi, natijada kutubxona o‘z faoliyatini ma’lum vaqt to‘xtatishga majbur bo‘ladi. Bu davrda kutubxonaning kitob jamg‘armasi 2373 tani tashkil qilgan. Huddudda bu kabi kutubxonaning tashkil etilishiga ehtiyoj yuqori edi. Natijada Prezidentimizning 2006-yil 20-iyundagi “Respublika aholisini axborot-kutubxona tizimi bilan ta’minlashni tashkil etish to‘g‘risida”gi

PQ-381-sonli Qarori hamda Jizzax viloyati hokimligining 2007-yil 7-maydagi 105-sonli qarorlariga asosan ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchilarni ijtimoiy muhofaza qilish, ularga qulay shart-sharoitlar yaratish, ularni yangiliklardan xabardor qilib borish hamda tegishli axborotlar bilan tezkor ta’minlash maqsadida shahar madaniyat va sport ishlari bo‘limi negizida viloyat Ko‘zi ojizlar kutubxonasi qayta tashkil etilib, viloyat madaniyat va sport ishlari boshqarmasi tasarrufiga o‘tkaziladi[39]. Bu qaror kutubxona faoliyati kengayib, samaradorligi oshishida xizmat qiladi.

Kutubxonada qayta tashkil etilgandan so‘ng 2007-yil iyun oyida Farrux Hamzayev kutubxona rahbari etib tayinlanadi[40]. 2008-yil yanvar oyidan esa Umid Ibragimov kutubxonaga rahbarlik qila boshlaydi, Umid Ibragimovning sayi-harakatlari bilan kutubxona moliyalashtirilib ish o‘rinlari ko‘payadi, shuningdek, viloyat, shahar hamda tumanlarda ko‘chma kutubxonalar tashkil etiladi.

Kutubxona faoliyatini kengytirish hamda tumanlarda istiqomat qiluvchi nogironligi bo‘lgan insonlarga xizmat qilishni yaxshilash va takomillashtirish maqsadida Jizzax viloyati hokimining 2007-yil 7-maydagi 105-sonli qarori

[36] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ““Kitob maxsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori. 2017-yil 13-sentyabr.
[37] O‘zbekiston Respublikasining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-641-sonli Qonuni. 2020-yil 15-oktabr.
[38]O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 739-sonli Farmoni. 2018-yil 18-yanvar.
[39] Jizzax viloyat Ko‘zi ojizlar kutubxonasi joriy arxivi. 2026-yil.
[40] Norpo‘latov E. Tarix ko‘zgusida. Toshkent . IJOD-PRESS. 2024. –B-245.

asosida Jizzax tumanida, G‘allaorol tuman hokimligining 2008-yil 17-maydagi 227-sonli qaroriga asosan G‘allaorol tumanida, Zafarobod tuman hokimining 2008-yil 14-maydagi 279-sonli qaroriga asosan Zafarobod tumanida Ko‘zi ojizlar kutubxonalari tashkil etiladi. Ushbu tuman kutubxonalari 2009-yil 1-apreldan boshlab o‘z faoliyatini boshlaydi. Jizzax viloyati hokimining 2017-yil 11-fevraldagi 51-sonli qarori bilan Zomin hamda Forish tumanlarida ham Ko‘zi ojizlar kutubxonalari tashkil etiladi. Shuningdek, 2019-yil 12-martdagi viloyat hokimining 102-sonli qarori bilan kutubxonaning Zarbdor va Paxtakor tumanlarida ham bo‘limlari tashkil etiladi. Bu kabi qarorlar tumanlarda istiqomat qilivchi ko‘zi ojiz kitobxonlarni axborat manbayi bilan taminlashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda viloyat ko‘zi ojizlar kutubxonasda 4 bo‘lim faoliyati yo‘lga qo’yilgan, bo’limlarda ko‘zi ojiz kitobxonlar uchun ularning talabiga asosan ro‘znoma va oynomalar ovozli o‘qib beriladi. Shuningdek, kutubxonaga kela olmaydigan nogiron kitobxonlarga uylariga borib xizmat ko‘rsatish tizimi ham yo’lga qo‘yilgan. Kutubxonada imkoniyati cheklangan foydalanuvchilar uchun maxsus JAVS va NVDA dasturlari o‘rnatilgan kompyuterlar bilan taminlangan. Shuningdek, 2019-yilda viloyatdagi barcha kutubxonalar internet tarmog‘iga ulangan va telefon aparatlari o‘rnatilgan. Kutubxonada 20 o‘rinli o‘quv zali mavjud bo‘lib, o‘quv zalida ko‘zi ojiz kitobxonlar uchun jamoa bo‘lib, ovozli kitob eshitish imkoniyati ham mavjud.

Kutubxonada Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-sentyabrdagi “Nogironlgi bo‘lgan shaxslarga axborot-kutubxona xizmatini ko‘rsatish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 739-sonli qarori ijrosi yuzasidan nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun kompyuter savodxonligi bo‘yicha maxsus “Kompyuter savodxonligi” kursi hamda “Ovozli eshitish” to‘garagi tashkil etilgan, shuningdek, ushbu qaror asosida “Eng yaxshi kitobxon oila”, “Brayl yozuvida tez va ifodali o‘qish”, “Eng faol kitobxon” ko‘rik tanlovlarini o‘tkazish yo‘lga qo‘yilgan. Xususan, 2019-yil noyabrda “Eng faol kitobxon” tanlovining respublika bosqichida kutubxonaning eng faol kitobxonlaridan biri Hamidova Farida 1-o‘rinni egallaydi[41]. Bu kabi yutuqlar respublikamizda aholining barcha qatlamlari uchun teng imkoniyatlar yaratilganining ifodasi hisoblanadi.

Imkoniyati cheklangan ko‘zi ojiz insonlarning axborot-kutubxonaga bo‘lgan ehtiyojini qondirish maqsadida Jizzax viloyatida bugungi kunda 9 ta ko‘zi ojizlar kutubxonasi faoliyat olib bormoqda, ulardan 1 tasi viloyat ko‘zi

[41] Jizzax viloyat Ko‘zi ojizlar kutubxonasi joriy arxivi. 2026-yil.

ojizlar kutubxonasi hamda uning 8 tasi tumandagi bo‘limlari hisoblanadi. Viloyat ko‘zi ojizlar kutubxonasida kitobxonlar soni 5643 nafarni tashkil etadi, shulardan 1496 nafarini ko‘zi ojiz insonlardir. G‘allaorol tuman ko‘zi ojizlar kutubxonasida 420 nafar, Sharof Rashidov tumanida 580 nafar, Zafarobod tumanida 620 nafar, Zomin tumanida 550 nafar, Forish tumanida 450 nafar, Paxtakor tumanida 370 nafar, Zarbdor tumanida 425 nafar, Baxmal tumanida 250 nafar kitobxonlar[42] mavjud. Viloyat ko‘zi ojizlar kutubxonasi imkoniyati cheklangan ko‘zi ojiz kitobxonlar uchun avdiolizatsiya tarzda onlayn xizmatni ko‘rsatib kelmoqda. Bugungi kunda kutubxonaning jami kitob fondi 31385 tani tashkil etadi[43]. Kutubxona yildan-yilga zamon talablari asosida yangi adabiyotlar bilan boyib borib hudud aholisida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga xizmat qilib kelmoqda.

XULOSA

Ko‘zi ojizlar kutubxonalari aholining ehtiyojga muhtoj bo‘lgan qatlamini davr yangiliklari bilan tanishtirish, intelektual salohiyati, bilim va ko’nikmalarini rivojlanishiga xizmat qiluvchi muassasalar hisoblanadi. Bu kabi muassasalar ko‘zi ojiz insonlarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirib, ma’naviy-ma’rifiy ehtiyojini qondirish orqali ularni imkoniyatini oshirib, jamiyatning bir bo‘lagiga aylantirishga xizmat qiiladi. Shu jumladan, Jizzax viloyati ko‘zi ojizlar kutubxonasi ham jamiyatning ehtiyojmand qatlamini zarur axborot va adabiyotlar bilan taminlagan holda, bilim olishga ko‘maklashib kelayotgan ilm dargohlardan biri bo‘lib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 24-yanvar. Prezident.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ““Kitob maxsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori. 2017-yil 13-sentyabr.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-641-sonli Qonuni. 2020-yil 15-oktabr.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Nogironligi bo’lgan shaxslarga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 739-sonli Farmoni. 2018-yil 18-yanvar.

[42] Jizzax viloyati madaniyat boshqarmasi. 2025-yil hisoboti. 1-10-b.
[43] Norpo‘latov E. Tarix ko‘zgusida. Toshkent . IJOD-PRESS. 2024. –B-245.

5. Norpo‘latov E. Tarix ko‘zgusida. Toshkent . IJOD-PRESS. 2024. –B-245.
6. Jizzax viloyat Ko‘zi ojizlar kutubxonasi joriy arxivi. 2026-yil.
7. Jizzax viloyati madaniyat boshqarmasi. 2025-yil hisoboti. 1-10-b.

JAHON NASRIDA “YO‘QOTILGAN AVLOD” TALQINI

Xolmatov Oybek Umarjon o‘g‘li,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Farg‘ona davlat universiteti (O‘zbekiston)
e-mail: oybekumarovich95@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada XX asrning 1-yarmi jahon nasrida katta o‘rin tutgan “yo‘qotilgan avlod” adabiyoti ilmiy asosda o‘rganilgan. Dastlab Amerika adabiyotida paydo bo‘lgan “yo‘qotilgan avlod” muammosining genezisi, Yevropa adabiyotiga kirib borishi va taraqqiyoti aniq misollar asosida tahlil qilingan. Tadqiqot obyekti sifatida Ernest Xeminguey, Uilyam Folkner hamda Erix Mariya Remark ijodi namunalaridan foydalanilgan. Maqola yakunida olingan natijalar xulosalangan.*

Abstract. *The article provides a scholarly analysis of the "lost generation" literature, which held a prominent place in the world prose of the first half of the 20th century. Based on specific examples, it analyzes the genesis of the "lost generation" phenomenon, which originally emerged in American literature, as well as its penetration into European literature and its subsequent evolution. The works of Ernest Hemingway, William Faulkner, and Erich Maria Remarque serve as the object of research. The paper concludes with a summary of the findings obtained.*

Kalit so‘zlar: *mavzu, obraz, talqin, “yo‘qotilgan avlod”, roman, “Quyosh baribir chiqaveradi”, “Alvido, qurol!“, “Askar mukofoti”, “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q”, tipologiya.*

Key words*: the theme, image, interpretation, “Lost Generation”, the novel, “The Sun Also Rises”, “A Farewell to Arms”, “The Soldier’s Pay”, “All Quiet on the Western Front”, typology.*

KIRISH

“Yo‘qotilgan avlod” *(“Lost Generation”)* deganda XX asrning 20–30-yillar G‘arb adabiyotida keng tarqalgan adabiy yo‘nalish tushuniladi. Ushbu atama ilk bor amerikalik adiba Gertruda Stayn tomonidan ishlatilgan. Bu yo‘nalishdagi asarlarda urush dahshatlari, frontdagi urush epizodlarini tasvirlash bilan birgalikda sobiq askarlarning urushdan keyingi hayoti va taqdiri ham aks ettirilgan. “Yo‘qotilgan avlod” adabiyoti quyidagi xususiyatlarga ega:

1) bosh qahramon sifatida yoshlarning tanlanishi;

2) realizm, modernizm, simvolizm oqimlarining sinkretik tarzda ifodalanishi;

3) tragik pafos va o‘lim motivining ustuvorligi.

G‘arb adabiyotida “yo‘qotilgan avlod” yo‘nalishi birinchi jahon urushi ta’sirida vujudga keldi. “Yo‘qotilgan avlod” adabiyoti vakillariga misol sifatida Ernest Xeminguey, Skott Fitzjerald, Erix Mariya Remark, Richard Oldington, Uilyam Folkner kabi yozuvchilarni keltirish mumkin. Ular yaratgan “Jannatning bu tomoni bo‘ylab”, “Go‘zallar va halokatga mahkumlar”, “Buyuk Getsbi” (F.S.Fitzjerald), “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q”, “Qaytish”, “Uch og‘ayni”, “Qora haykal” (E.M.Remark), “Quyosh baribir chiqaveradi”, “Alvido, qurol!” (E.Xeminguey), “Askar mukofoti” (U.Folkner) kabi romanlarda urush tufayli hayoti izdan chiqqan insonlarning taqdiri va o‘y-kechinmalari tipik obrazlar vositasida tasvirlandi.

ASOSIY QISM

“Yo‘qotilgan avlod” yo‘nalishidagi asarlarning qahramonlari haqida rus tadqiqotchisi Y.V.Staroverova shunday fikr yuritgan: “*Barcha “yo‘qotilgan avlod” qahramonlariga xos umumiy xususiyat shundan iboratki, ular doimiy ravishda o‘zlarining nima uchun urushda qatnashganliklarini anglashga intiladilar. Bu obrazlar asar davomida shaxs sifatida o‘sib boradilar, oxir-oqibat hukmron oligarxlarning iqtisodiy va siyosat manfaati uchun qurbon qilinganliklarini anglab etadilar*” [1:23].

Yana bir rus tadqiqotchisi O.Poxalenkov esa nemis yozuvchilari E.M.Remark va A.Zurminskilarning urush mavzusidagi “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” va “Otasiz yurt” romanlarining qiyosiy tahlili orqali nemis harbiy prozasida “yo‘qotilgan avlod” talqini masalasini tadqiq etgan. O.Poxalenkovning fikricha, bu romanlar qahramonlari “yo‘qotilgan avlod” vakillari bo‘lib, ularning asardagi hayoti uch bosqichda kechadi:

1) odamlardan begonalashish;

2) front voqealari;

3) qayta uyg‘onish [2:111-112].

Bu bosqichlar qahramonlarning ong va ruhiyatidagi jarayonlar asosida ajratiladi.

Birinchi jahon urushining fojiali oqibatlari va bu urushga insonlarning munosabati masalasi “yo‘qotilgan avlod” adabiyotining asosiy mavzusi hisoblanadi. Ushbu asarlarning qahramonlari o‘zlariga nimadandir yupanch qidiradilar. Masalan, ingliz yozuvchisi Richard Oldingtonning “Hamma odamlar – dushman” (“*All Men are Enemies*”) asari qahramoni jamiyatdan va

real dunyodan voz kechib, sevgan ayoli bilan o‘z xayolidagi Ea orolida yashirinib hayot kechirishni orzu qilib yashagan. Bu jarayonda qahramonning ong va ruhiyati tasviri yetakchi o‘rinni egallagan.

Amerikalik yozuvchi Ernest Xemingueyning “Quyosh baribir chiqaveradi” (“*The Sun also Rises*”) romani qahramonlari ham hayotdagi turli narsalardan ovunchoq, yupanch qidiradilar. Ushbu asarga mashhur amerikalik adiba Gertruda Staynning “sizlarning barchangiz yo‘qotilgan avlodsiz” degan so‘zlari epigraf qilib olingan. Roman qahramonlari Jeykob, Bret, Maykl, Robert Kon singari qahramonlar urush ta’sirida yo‘lini yo‘qotgan, hayoti izdan chiqqan insonlarning tipik vakillaridir. Ushbu qahramonlar aniq bir hayotiy maqsadga ega emas. Ular sayohatlar, ko‘ngilochar tomoshalar va ichkilik bilan ovunmoqchi bo‘ladilar. Ularga haqiqiy yupanch beruvchi yagona najot muhabbatdir. Bu jarayon Jeykob va Bret obrazlarining o‘zaro munosabatlari orqali yaqqol ko‘rinadi.

E.Xemingueyning boshqa bir mashhur asari “Alvido, qurol!” (“*A Farewell to Arms*”) romani qahramoni Frederik Genri dastlab Italiya armiyasida xizmat qiluvchi amerikalik ofitser edi. Avstriyaliklar bilan bo‘layotgan jangda oyog‘idan jiddiy yaralanib, harbiy gospitalda yotib davolangach, yana frontga qaytadi. Biroq o‘z rotasidagi yigitlarning hayotini saqlab qolish maqsadida qilgan harakati qochoqlik deb baholangach, urushdan voz kechadi. U sevgan ayoli – hamshira Ketrin bilan birga yashab, o‘z shaxsiy hayoti va baxtini g‘ayriinsoniy urushdan ustun qo‘yadi. Asar so‘zboshisida keltirilgan quyidagi jumlalar juda xarakterlidir: “*Men juda ko‘p urushlarda bo‘ldim, shu boisdan bu masalada g‘arazim qattiq, xatto juda qattiq. Bu kitobning muallifi ongli ravishda shu narsaga amin bo‘ldiki, urushlarda jang qilayotgan odamlar dunyodagi eng ajoyib odamlardir. Frontning qizg‘in qismlariga kirib borganing sari bunday odamlarga ko‘proq duch kela boshlaysan. Ammo urushni boshlaganlar, uning oloviga yana olov tashlab turganlar iqtisodiy raqobatdan, foyda undirishdan boshqa narsani bilmaydigan to‘ng‘izlardir. Men bunday odamlar urushning dastlabki kunlaridanoq mamlakat fuqarolarining muxtor vakillari tomonidan otib tashlanmog‘i lozim deb hisoblayman*” [3:103]. Bu romanda ham qahramon uchun muhabbat asosiy najot bo‘ladi. Bu xususiyat “yo‘qotilgan avlod” yo‘nalishidagi asarlarning muhim belgilaridan biridir.

Amerikalik yana bir yozuvchi Uilyam Folkner ham 1925-yilda yozgan ilk romani “Askar mukofoti” (“*The Soldier’s Pay*”)da “yo‘qotilgan avlod” vakillarining obrazlarini yaratgan. Bu asar haqida professor A.Saidov shunday fikr yuritadi: “*Mazkur asar imperialistik urushga ochiq-ravshan qarshi*

qaratilgan. Romanning qahramoni – uchuvchi yaralanganidan keyin ko‘pgina insoniy xususiyatlarini yo‘qotadi. Uning vafoti esa inson shaxsi so‘nish jarayonining nihoyasi bo‘lgan, xolos. Ushbu romanda adib urush qiyofasidagi qahramonlik niqobini yirtib tashlab, buning odamlar uchun keltirgan mislsiz kulfatlarini ochib tashlagan. Bu asarni mutolaa qilar ekansan, “vatanparvarlik”, “muqaddas qurbonlar”, “qahramonlik”, “jangovar shuhrat” kabi balandparvoz so‘zlar yaltiroq o‘rama bo‘lib, uning ichida esa odatiy o‘lim yashiringanligi ko‘zga tashlanadi” [4:9]. Bu asarda urush tufayli askarlar qahramonlik yoki shon-shuhrat emas, azob va o‘lim topganligi badiiy aks ettirilgan. Asar nomidagi “mukofot” so‘zi ostida kinoya mavjud bo‘lib, barbod bo‘lgan hayot, bevaqt va behuda o‘lim ma’nosi yashirilgan.

Nemis yozuvchisi Erix Mariya Remark ushbu adabiyotning eng sermahsul vakillaridan bo‘lib, “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” (“Im Westen nichts Neues”), “Qaytish” (“*Der Weg zurück*”), “Uch og‘ayni” (“*Drei Kameraden*”) romanlarida “yo‘qotilgan avlod” vakillarining hayoti va taqdiriga murojaat qiladi. Tipik obrazlar vositasida davrning dolzarb muammosini badiiy talqin etadi. “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” romanida frontlarda jang qilayotgan yosh askarlarning fojiasi, urushga munosabati va ruhiyati tasvirlangan bo‘lsa, “Qaytish” romanida urushdan tirik qolib, vataniga qaytgan askarlar taqdiri haqida hikoya qilinadi. Bu romanlarda bosh qahramon sifatida yoshlarning tanlangani ham bejiz emas. Bu orqali yozuvchi, avvalo, hayotiy asosga ega bo‘lgan voqealarni tasvirlagan. Ikkinchidan, asarlarda tasvirlangan yosh avlodning fojiasi orqali urushning nafaqat bugungi kun uchun, balki jamiyat va insoniyat kelajagi uchun ham zararli ekanligini realistik obrazlar vositasida aks ettirgan.

“G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” va “Qaytish” romanlarida o‘smir yoshdagi askarlarning hayoti va taqdiri bayon etilsa, “Uch og‘ayni” romanida esa o‘sha o‘spirinlarning ancha ulg‘aygan vakillari haqida hikoya qilinadi. Asarda birinchi jahon urushidan o‘n yil keyin ro‘y bergan voqealar bayon etiladi. Biroq, asar qahramonlari urushning salbiy ta’siridan qutula olmaganlar. Ularning ruhiyati, jamiyat bilan munosabati tasvirlarida bu aniq ifodalangan. Romanning asosiy qahramonlari uchun o‘zaro do‘stlik, ichkilik, mashina, poygalar yupanch vazifasini bajaradi.

XULOSA

“Yo‘qotilgan avlod” mavzusidagi asarlar XX asr G‘arb adabiyotida salmoqli o‘rinni egallaydi. Bu asarlar vositasida urushni qoralash va patsifizm g‘oyalari ilgari suriladi. Bu jarayonda turli toifadagi obrazlar muhim rol

o‘ynaydi. Xususan, “yo‘qotilgan avlod” adabiyoti qahramonlarini quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiq:

1) frontda jang qilayotgan askarlar. Masalan: Genri (E.Xeminguey. “Alvido, qurol!”), Boymer (E.M.Remark. “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q”);

2) urushdan qaytgan, lekin bu urushning salbiy asoratlari ostida yashayotgan sobiq jangchilar. M: Birkxols (E.M.Remark, “Qaytish”), Lokamp (E.M.Remark, “Uch og‘ayni”), Jeykob (E.Xeminguey, “Quyosh baribir chiqaveradi”);

3) urushda ishtirok etmagan bo‘lsa ham shu urushning salbiy oqibatlari tufayli hayoti izdan chiqqan turli toifadagi insonlar. M: Patritsiya, Grau, Xasse (E.M.Remark, “Uch og‘ayni”), Kon, Bret (E.Xeminguey, “Quyosh baribir chiqaveradi”). Mazkur qahramonlarning barchasini urushning salbiy asoratidan jabrlanganlik xususiyati birlashtirib turadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Староверова Е.В. Потерянное поколение в литературе – СПб.: Лицей, 2005.

2. Похаленков О.Е. Эрих Мария Ремарк и Арно Зурмински (проблема взаимодействия литературной традиции в военной прозе). // Вестник Пермского университета. Российская и зарубежная филология. 2017, Т.9, вып. 3, с. 109–116. doi: 10.17072/2037-6681-2017-3-109-116.

3. Xeminguey E. Chol va dengiz. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017.

4. Saidov A. Uilyam Folkner – insonparvar yozuvchi. // Folkner U. Qissa va hikoyalar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013.

PIRIMQUL QODIROVNING OBRAZ YARATISH MAHORATI(“YULDUZLI TUNLAR” ROMANI MISOLIDA)

Tolibxonova Feruza Nazirxon qizi
Yangihayot tumani 331-maktab maslahatchisi
feruzatolibxonova0105@gmail.com +998991331356

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Pirimqul Qodirovning obraz yaratish mahorati “Yulduzli tunlar” asaridagi qahramonlar misolida ochib beriladi. Qahramonlarning o‘ziga xosligi va xarakter xususiyatlari tahlillar orqali yoritiladi.*

Kalit so‘zlar:*obraz,mahorat,xarakter*

Annotation*: This article explores Pirimqul Qodirov’s mastery of character creation through the characters in his novel Yulduzli tunlar (Starry Nights). The distinctive qualities and character traits of the novel’s protagonists are highlighted and examined through literary analysis*

Keywords: *image, mastery, character*

Obraz adabiyotdagi eng asosiy tushunchalardan biri sanaladi.Biz hech bir badiiy asarni obraz va obrazliliksiz tasavvur qila olmaymiz. Obraz atamasi dastlab, Aristotelning asarlarida tilga olingan bo’lib, rus adabiyotshunoslari tomonidan chuqur tahlil qilingan. O‘zbek adabiyotida ham adabiyotshunos olimlarimiz badiiy obraz haqida tadqiqotlar olib borgan bo‘lib, hozirgacha o‘rganib kelishmoqda.

Obraz atamasiga adabiyotshunosligimizda quyidagicha ta’rif berilgan: adabiyot va san’atning fikrlash shakli, olam va odamni badiiy idirok etish vositasi, badiiyatning umumiy kategoriyasi. Lug’aviy ma’noda har qanday aksni bildiruvchi “obraz” so‘zi turli fan sohalarida (falsafa, psixologiya) muayyan terminologik ma’noda qo‘llanadi. Jumladan, estetika va adabiyotshunoslikda u “badiiy obraz” ma’nosida tushuniladi. Adabiyotni chuqur o‘rgangan adabiyotshunoslarimiz esa obrazga o‘zlarining tadqiqotlaridan kelib chiqqan holda ta’rif berishgan. Xususan, Dilmurod Quronov obraz tushunchasini quyidagicha sharhlaydi: Keng ma’noda “badiiy obraz” deganda borliqning san’atkor ko‘zi bilan ko‘rilgan va ijodiy qayta ishlangan har qanday aksi (jonivorlar, narsa-buyumlar, hodisalar, tabiat obrazlari) nazarda tutilsa, tor ma’noda badiiy asardagi inson obrazi

tushiniladi", bundan ko‘rinib turibdiki, "badiiy obraz" atamasini adabiyotshunos tor va keng ma'noda ishlatilishini qayd etgan.

Adabiyotshunos To‘xta Boboyev esa o‘zining "Adabiyotshunoslik asoslari" asarida obrazga quyidagicha ta'rif bergan: badiiy obraz deyilganda , asosan inson obrazi tushuniladi va u adabiyotda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Badiiy yetuk asarlardagi kishilar obrazi orqali biz muayyan bir davr hayoti haqida keng va konkret ma'lumot olamiz.

Adabiyotda obrazning umumlashmaligi, konkretligi va individualligi, obrazning ta'sirchanligi, obraz tuzishda to‘qima kabi tushunchalar mavjud. Bularning har biriga Pirimqul Qodirovning asarlari orqali yozuvchining obraz yaratish mahoratini o‘rgangan holda guvoh bo‘lamiz.

Yozuvchi Pirimqul Qodirovning asarlari ham asarlarida u yaratgan obraz ham adibning o‘ziga xos uslubini namoyon qiladi. Yozuvchi asarni nafaqat yozadi, u obrazlari orqali o‘quvchilarni asarlarida yashashga undaydi. Aynan ushbu jarayonni biz tarixiy asarlari misolida ham ko'rishimiz mumkin.

"Yulduzli tunlar" romani Pirimqul Qodirov qalamiga mansub adabiyotimizning nodir namunalaridan biridir. Romandagi har bir obraz o‘quvchini o‘ylashga, mulohaza qilishga chorlaydi. Asardagi bosh obrazlar ham epizodik obrazlar ma'lum bir maqsadni ifodalashga xizmat qilgan. Qahramonlarda biz obrazlarga xos bo‘lgan barcha jihatlarni kuzatishimiz mumkin.

Obrazning umulashmaligini romanda Ahmad Tanbal va Yoqubbek obrazida kuzatishimiz mumkin. Yozuvchining obraz yaratish mahorati shundaki, u qahramonlarninfg faqat individual xususiyatlari bilan cheklanmay, ular orqali o‘sha davrga xos bo‘lgan muammolarni umumlashtirishda ham namoyon bo‘lgan. Umumlashma obraz orqali davrga xos bo‘gan munosabatlar, inson tabiatidagi muayyan xususiyatlar ma'lum bir qahramonning xatti-harakatlari va xarakter belgilari orqali yaqqol namoyish etiladi. Shu nuqtayi nazardan, Yoqub va Ahmad Tanbal obrazlarini tahlil qilishda ularning individual qiyofasi bilan birga, ular orqali ifodalanishi mumkin bo‘lgan umumiy xarakter xususiyatlariga ham e'tibor qaratish zarur.

Ahmad Tanbal obrazini shaxsiy manfaatlarini har narsadan ustun qo‘yuvchi va istaklari yo‘lida har qanday razil ishga tayyor, bu yo‘lda siyosiy vaziyatlardan foydalanuvchi tarixiy shaxs sifatida tahlil qilishimiz mumkin. Uning obrazi orqali adib taxt va hokimiyat uchun kurashlar sharoitida yuzaga keladigan manfaatparastlik, siyosiy ziddiyatlar va insoniy munosabatlarning murakkabligini yoritadi. Bunday talqinda Ahmad Tanbal obrazi faqat individual qahramon sifatida emas, balki o‘z manfaatini umumiy

manfaatlardan ustun qo‘yuvchi kishilarga xos xususiyatlarni aks ettiruvchi badiiy timsol sifatida ham ahamiyat kasb etadi.

Yoqub obrazida ham biz davr amaldorlariga xos bo‘lgan ochko‘zlik, manfaatparastlik, hokimiyatga o‘chlik, tilyog‘lamalik xususiyatlarini umumlashtirib gavdalantirilganiga guvoh bo‘lamiz. Yozuvchining badiiy mahorati shundaki, tarixiy qahramonlar taqdiri orqali o‘quvchini insonning ma’naviy qiyofasi, uning tanlovi va xatti-harakatlari oqibatlari haqida mushohada yuritishga undaydi. Yoqub va Ahmad Tanbal obrazlarini umumlashma obraz sifatida tahlil qilish roman mazmunidagi tarixiy ziddiyatlar bilan inson xarakteri o‘rtasidagi aloqadorlikni ochishga yordam beradi. Obrazlarning nutqidagi so‘zlarda ham biz davrga xos bo‘lgan jihatlarni umumlashtirib keltirilganiga guvoh bo‘lamiz.

Romanda obrazning konkretligi va individualligi ham alohida ahamiyat kasb etadi.Yozuvchining “Yulduzli tunlar” romanida obraz yaratish mahorati qahramonlarning o‘ziga xos xarakteri, ruhiy kechinmalari, dunyoqarashi va hayotiy vaziyatlarga munosabati orqali namoyon bo‘ladi. Adib qahramonlarning umumiy jihatlari bilan bir qatorda, unign ichki dunyosini, xarakter olamini, atrofga munosabatini ham ochib beradi. Obrazlarning individualligi ularning bir-biridan farqlanuvchi xarakter belgilari, fikrlashi va xatti-harakatlarida ko‘rinsa, konkretligi muayyan tarixiy davr, ijtimoiy muhit, voqealar va hayotiy munosabatlar bilan bog‘liq holda gavdalanishida namoyon bo‘ladi.Bu xususiyatlarni Bobur, Xonzodabegim, Mohim begim va Qutlug‘ Nigorxonim obrazlari misolida ko‘rib chiqish mumkin.

Romanda Zahiriddin Muhammad Bobur obrazida biz hukmdor va inson ruhiyatining bir-biriga singib ketiganiga guvoh bo‘lamiz. Bobur romandagi bosh obraz bo‘lib, uning obrazida hukmdorlik mas’uliyati, sarkardalik , ijodkorlik, vatan sog‘inchi, farzand dog‘ tuyg‘ulari uyg‘unlashtirib tasvirlangan. Bobur obrazining individualligi, avvalo, murakkab vaziyatlarda qaror qabul qilishi, mag‘lubiyatlarga munosabati, yaqinlariga bo‘lgan mehr-muhabbatida namoyon bo‘ladiBobur boshqa hukmdorlardan faqat taxt uchun kurashadigan emas birinchi io‘ringa doimo oilasi va adilatni qo‘yadigan shaxs sifatida ajralib turadi.Uning o‘ylarida, iztirob va ruhiy kechinmalarida insoniylik xususiyatlari ufurib turadi.

Qutlug‘nigorxonim obrazi yozuvchi tomonidan shunaqa mahorat bilan tasvirlanganki, hech bir asarda hech malikaga nisbatan o‘quvchida Qutlug‘nigorxonimga bo‘lganchalik mehr uyg‘onmaydi**.** Qutlug‘nigorxonim obrazida biz kamdan kam malikalarda uchraydigan mehr-oqibat,onalarcha sofdillik, samimiylik va taxtga muhabbat qo’ymaganlik tuyg‘ularini

ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari obrazning individualligi Boburga bo‘lgan munosabati, farzandining kelajagi uchun qayg‘urishi va murakkab vaziyatlarda ona sifatida namoyon qiladigan ruhiy kuchida ko‘rinadi. Qutlug‘nigorxonimning fikrlari va munosabatlari orqali onalik tuyg‘usining inson hayotidagi o‘rni ochib beriladi.

Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanida obrazlarning individualligi va konkretligi tarixiy haqiqat bilan badiiy to‘qimaning uyg‘unligi asosida namoyon bo‘ladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, adibning obraz yaratish mahorati ,obrazlarni faqat voqealar bilangina emas, balki o‘ziga xos olami, fikrlash tarzi, hayotiy vaziyatlarga munosabati bilan tirik badiiy xarakter sifatida gavdalantirishida ko‘rinadi.

Romanda obrazlarning ta’sirchanligi ham o‘ziga xos tarzda gavdalantirilgan. Ayniqsa, Mohim begim va Xonzodabegim obrazlarida ayol ruhiyatining murakkabligi, mehr-muhabbat, sadoqat, sabr-toqat hamda tarixiy sharoit ta’sirida yuzaga keladigan ichki ziddiyatlar va ushbu ziddiyaatlarning qurboni bo‘lish holatlari o‘z badiiy ifodasini topadi.

Mohim begimobrazida biz ta’sirchanlikning yuqori cho‘qissini kuzatishimiz mumkin.Ham ona sifatida ham turmush o‘rtoq sifatida ham malika sifatida u turli vaziyatlar qurshovida gavdalantirilgan.Xonzodabegim obrazida ham bu holat yaqqol namoyon bo‘ladi. Yozuvchi qahramonlarning ruhiy holatini asardagi voqealar rivoji bolan uyg‘unlashtirib tasvirlagani ham asarni9ng qimmati obrazlarning ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilgan. Ikki malikaga xos bo‘lgan yan bir jihatni ko‘rishimiz mumkinki,ular har qanday vaziyatda qat’iyatli va g‘ururli,sinovlarga va qiyinchiliklarga bardoshli.

Mazkur ikki obrazning ta’sirchanligini ta’minlovchi muhim omillardan biri — ularning ruhiy olami bir xil qolipda tasvirlanmaganidir. Mohim begim obrazida oilaviy munosabatlar va shaxsiy kechinmalarni tahlil qilish muhim bo‘lsa, Xonzodabegim obrazida tarixiy ziddiyatlar sharoitida insoniy matonat va ichki kurash masalalari alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning o‘ziga xosligi orqali yozuvchi ayol xarakterining turli qirralarini ochib beradi.

Pirimqul Qodirovning badiiy mahorati qahramonlarning ruhiy holatini tarixiy voqealar bilan uyg‘unlashtirib, ularning kechinmalarini o‘quvchi uchun tushunarli va ta’sirchan shaklda ifodalashida namoyon bo‘ladi.

Yozuvchi romanga to‘qima obrazlar ham kiritgan, xususan Tohir va Robiya obrazlari. Bu qahramonlar orqali mehr-muhabbat, sof sevgi, hukmdorga sadoqat va samimiylik tuyg‘ulari gavdalantirilgan.

Xulosa qilib aytganda, Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanida obraz yaratish mahorati tarixiy haqiqatni badiiy talqin qilish,

qahramonlarning individual xususiyatlarini ochib berish va ularning ruhiy kechinmalarini ta’sirchan ifodalashda namoyon bo‘ladi. Pirimqul Qodirovning obraz yaratish mahorati tarixiy shaxslarning individual qiyofasini saqlagan holda, ular orqali umuminsoniy qadriyatlar, ma’naviy-axloqiy masalalar va inson taqdiriga oid murakkab muammolarni yoritishida namoyon bo‘ladi. “Yulduzli tunlar” romanining badiiy qimmati ham tarixiy haqiqat, inson ruhiyati va xarakterlar xilma-xilligining o‘zaro uyg‘unligida ko‘rinadi. Shu jihatdan, asardagi obrazlar tizimi yozuvchining psixologik tasvir, xarakter yaratish va badiiy umumlashtirish borasidagi mahoratini o‘rganishda muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари.- Т.: Ўзбекистон, 2002.-560 б.

2’Quronov D. Adabiyot nazariyasi. T.: Akademnashr, 2018. -480 b

3.Qodirov P. Yulduzli tunlar. -Toshkent:Sharq, 2004.- 544 b.

4. Badiiy obraz va obrazlilik - Adabiyot - Referatlar https://share.google/uacSX2nOs8ZOrg8Dl

5.O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA OBRAZ VA UNING TURLARI | Теоретические аспекты становления педагогических наук https://share.google/XrzKwe3LWVm3TmnrW

FORMING CRITICAL THINKING IN HIGHER EDUCATION: DIDACTIC MECHANISMS OF THE TRANSITION FROM CONSUMING KNOWLEDGE TO UNDERSTANDING IT

Ochilova Fayyoza Mansurovna
Shakhrisabz State Pedagogical Institute
Doctoral Candidate (PhD Student)
E-mail: fayozaochilova77@gmail.com

Abstract. *This paper analyzes the theoretical and didactic foundations of forming critical thinking in higher education. On the basis of comparative pedagogical analysis, the paradigms of knowledge "consumption" (reproductive) and "understanding" (constructive) are distinguished, the cognitive and dispositional structure of critical thinking is clarified, and six didactic mechanisms that ensure the transition from consumption to understanding, together with a five-stage sequence for implementing them, are substantiated. In addition, the new pedagogical tasks of teachers and students in the context of generative artificial intelligence are defined. The study is theoretical in nature; the effectiveness of the proposed model is to be tested experimentally at the next stage.*

Keywords. *critical thinking; pedagogy of understanding; higher education; didactic mechanism; constructive alignment; reflection; rubric-based assessment; artificial intelligence.*

INTRODUCTION

In the twenty-first century, the rapid growth in the volume of knowledge and the accelerating pace of its obsolescence are changing the criteria that determine the competitiveness of a higher education graduate: the decisive factor is not how much information has been memorized, but how well one can select and evaluate information and apply it in a new situation. The fact that the World Economic Forum's report *The Future of Jobs* (World Economic Forum, 2023) lists analytical thinking among the most important employee skills in the view of employers also attests to this. For this reason, critical thinking is today regarded not as an auxiliary skill but as one of the principal outcomes of higher education.

In the Republic of Uzbekistan, the Concept for the Development of the Higher Education System until 2030 (President of the Republic of Uzbekistan,

2019) and the Law "On Education" (Republic of Uzbekistan, 2020) have created the regulatory and legal basis for improving the quality of education and bringing it closer to international requirements. However, according to practical observations, a large share of students' activity still consists of listening to lectures, taking notes, and retelling what they have read at the exam. A longitudinal study conducted in American higher education likewise found that a substantial proportion of students showed no significant growth in critical thinking indicators during the first two years (Arum & Roksa, 2011).

Thus, there is a contradiction between the culture of thinking demanded by society and the labor market and the actual content of the educational process. Although theoretical interpretations of critical thinking have been developed sufficiently, the task of substantiating, as an integral system, the didactic mechanisms that ensure the transition from the logic of "consumption" to the logic of "understanding" in higher education remains topical. Issues of pedagogical technologies and interactive methods have been widely covered in the local pedagogical literature (Ochilov, 2000; Saidahmedov, 2006; Tolipov & Usmonboyeva, 2006; Xodjayev & Jo'rayev, 2019; Yo'ldoshev, 2020; Yo'ldoshev & Usmonov, 2004); the present study continues this tradition from the standpoint of forming critical thinking.

The aim of the study is to reveal the pedagogical essence of the transition from consuming knowledge to understanding it and to theoretically substantiate the didactic mechanisms of forming critical thinking in higher education. **Objectives:** (1) to analyze the main theoretical approaches to critical thinking and clarify its structure; (2) to characterize comparatively the paradigms of "consumption" and "understanding"; (3) to substantiate the didactic mechanisms and the sequence of their implementation; (4) to define the pedagogical conditions related to the teacher's role, assessment, and artificial intelligence. **Methods:** theoretical analysis and synthesis of scientific and pedagogical literature, comparative pedagogical analysis, and pedagogical modeling.

The essence and theoretical foundations of critical thinking. In pedagogical science, the concept of critical thinking goes back to the idea of reflective thinking advanced by J. Dewey: in his view, the essence of thinking lies in actively, persistently, and carefully examining any belief or supposed form of "ready-made knowledge" in light of the grounds that support it and the consequences to which it leads (Dewey, 1910, p. 6). R. Ennis defined critical thinking as reasonable, reflective thinking aimed at deciding what to believe or do (Ennis, 1987). The expert consensus led by P. Facione (the Delphi Project),

in turn, interpreted it as purposeful, self-regulatory judgment and included interpretation, analysis, evaluation, inference, explanation, and self-regulation among the core skills (Facione, 1990).

What these approaches have in common is that critical thinking consists of two components: cognitive skills (analysis, evaluation, inference) and personal dispositions (curiosity, open-mindedness, reliance on evidence, willingness to reconsider one's own views) (Ennis, 1987; Facione, 1990). This indicates that it cannot be taught merely as a separate "technique": critical thinking is a product of the educational environment, of teacher–student relationships, and of the culture of assessment. Halpern (2014) likewise considers it necessary, in teaching critical thinking, to take into account disposition, skills, the ability to transfer them to new situations, and metacognitive monitoring together. The fact that, in the revised version of Bloom's taxonomy by Anderson and Krathwohl, "analyzing," "evaluating," and "creating" are singled out as higher-order cognitive processes (Anderson & Krathwohl, 2001; Bloom, 1956) shows the necessity of directing educational content precisely toward these levels.

The paradigms of "consumption" and "understanding": pedagogical differences. P. Freire (1970) likened traditional education to the "banking model": the teacher deposits knowledge into the student's mind as a "deposit," and the student stores it and returns it. In such a model, knowledge is consumed as a ready-made product, while the student remains in the position of a passive recipient. In the pedagogy of understanding, by contrast, knowledge is constructed in the course of the student's own intellectual labor: the student turns information into questions, compares sources, weighs evidence, and substantiates their own conclusion. This distinction is conceptually consonant with the "surface" (oriented toward memorizing the text) and "deep" (oriented toward grasping meaning) approaches to learning distinguished by Marton and Säljö (1976). The differences between the two paradigms are summarized in Table 1.

Table 1

Comparative characteristics of the two pedagogical paradigms

Criterion	Consuming knowledge	Understanding knowledge
Attitude to knowledge	A ready-made, unchanging product	A structure built on evidence and open to revision

Criterion	Consuming knowledge	Understanding knowledge
Teacher's role	Transmitter of information	Designer and guide (facilitator) of the thinking process
Student's role	Recipient; one who retells	Inquirer; one who asks questions and cites evidence
Main activity	Memorizing, repeating	Analysis, evaluation, inference, justification
Type of questions	Closed: "what?", "when?"	Open: "why?", "what evidence is there?", "what is the alternative?"
Assessment	The volume of what is remembered	The quality of thinking: evidence, logic, independence

Note. Generalized by the author on the basis of Freire (1970), Marton and Säljö (1976), and Facione (1990).

It should be emphasized that the pedagogy of understanding does not negate knowledge: critical thinking rests on solid subject knowledge, and analysis without knowledge becomes conjecture rather than reasoned judgment (Willingham, 2007). The point is that knowledge is regarded not as an end in itself but as material and a tool for thinking.

Didactic mechanisms of forming critical thinking. On the basis of an analysis of the scientific literature and pedagogical modeling, six interrelated didactic mechanisms that ensure the transition from consumption to understanding in higher education can be identified:

- **Cultivating a culture of questioning and dialogic teaching.** The session begins not with "What?" but with open questions such as "Why is it so?", "What evidence is there?", and "What is the alternative?"; the student's own formulation of questions is also treated as an assessed activity. In the analysis by Abrami et al. (2015), dialogue is singled out as one of the main strategies that positively affect critical thinking.
- **Problem-based and case-based teaching.** Real situations (cases) that have no single correct answer and admit several solutions prompt the student to sift information and justify their own decision. Problem-based learning has

been shown to develop flexible knowledge, problem-solving, and self-directed learning skills [Hmelo-Silver, 2004].

- **Discussion and debate technologies.** Defending opposing positions, especially attempting to justify the side contrary to one's own view, develops open-mindedness and a culture of working with evidence.
- **Working with sources.** Tasks of comparing different sources on a single topic and identifying the author's position, the reliability of the evidence, and hidden assumptions are integrated with information literacy.
- **Project and research activity.** The student goes through the full cycle from identifying a problem to presenting the result, which makes it possible to understand knowledge in a practical situation. Empirical evidence on the effectiveness of methods based on students' active participation has been synthesized [Prince, 2004].
- **Reflection.** Answering, in writing or orally, such questions as "How did I come to know this?" and "What changed my mind?" strengthens metacognitive control (Flavell, 1979).

The mechanisms yield results not separately but as a set. In the meta-analysis by Abrami et al. (2015), which combined 341 effect sizes, it was found that teaching critical thinking produces, overall, a small but statistically significant positive effect ($g+ = 0.30$), and that the effect increases appreciably ($g+ = 0.57$) when dialogue, work with authentic problems, and mentoring are combined. Because the results were generalized across different levels of education, their applicability to the conditions of higher education in Uzbekistan needs to be examined separately.

The effectiveness of the mechanisms depends on their consistent, systematic application. It is preferable to form critical thinking not in isolation from course content but in integration with subject knowledge (Willingham, 2007); therefore, rather than a separate "critical thinking class," a system of tasks that is embedded in the course content and gradually increases in complexity over the semester is appropriate. The recommended sequence is: (1) activating foundational knowledge; (2) posing a problem situation; (3) working with evidence and group discussion; (4) presenting a reasoned position; (5) reflection and peer assessment.

The teacher's role and the issue of assessment. In the pedagogy of understanding, the teacher turns from a "source of knowledge" into a facilitator of the thinking process. According to Vygotsky's (1978) idea of the zone of proximal development, the teacher's task is to assign tasks of a complexity that the student cannot solve independently but can overcome with help, and to

reduce that help step by step; this process was later expressed by the concept of "scaffolding" [Wood et al., 1976]. In this respect, it is important that teachers themselves model critical thinking, openly admit their own mistakes, and value students' well-founded objections.

The assessment system determines the real direction of the learning process. According to the principle of constructive alignment described by Biggs (1996), educational objectives, teaching activities, and assessment must be consistent with one another: if the exam tests only recall, students will prepare only for that. For this reason, rubric-based criteria are recommended for assessing critical thinking: clear formulation of the problem; sufficiency and reliability of the evidence; logical coherence; consideration of alternative viewpoints; soundness of the conclusion; and the ability to reconsider one's own views. Formative assessment (Black & Wiliam, 1998), portfolios, and reflective journals complement this process.

The pedagogy of understanding in the age of artificial intelligence. The spread of generative artificial intelligence tools has clearly exposed the weakness of the consumption paradigm: in conditions where a ready-made answer can be obtained instantly, tasks that require memorizing and retelling are losing their meaning. At the same time, such tools may provide vague or incorrect information, reflect bias, and create a risk of users' overreliance on them (Kasneci et al., 2023). These risks further increase the importance of critical thinking — verifying sources, evaluating evidence, and taking responsibility for one's own conclusions. The UNESCO guidance likewise emphasizes the need for a human-centred approach to the use of generative artificial intelligence in education (Miao & Holmes, 2023).

Therefore, the pedagogical task is not to ban artificial intelligence but to combine its use with a culture of analysis and verification. For example, an assignment may require the student to evaluate a machine-generated answer, point out its weaknesses, and propose their own reasoned alternative; in assessment, the process of thinking — justification, defense, and reflection — takes priority over the final text.

A practical example: turning a lecture topic into an understanding-oriented session. Let us consider the proposed approach through a concrete example. Suppose the topic "Classification of teaching methods" is being studied in a pedagogy course. In the traditional format, the teacher presents the classification, students write it down, and at the next session they list the definitions and groups. In the understanding-oriented format, the session is built on the five-stage sequence presented above.

At the first stage, students in small groups write down the teaching methods they know and group them according to a criterion of their own choosing. At the second stage, the teacher poses a problem question: "Why is the same topic learned well in one group but not in another? Which factors are decisive in choosing a method?" At the third stage, the groups compare classifications from different sources, identify the basis (criterion) on which each rests, and justify with evidence which classification is more suitable for a particular learning situation. At the fourth stage, the groups defend their position, while the other groups raise well-founded questions and objections. Finally, each student completes a short reflective written assignment: "How did I think at the beginning of the session, and what caused my view to change?"

As can be seen, the content of the topic has not changed, but the student's activity is fundamentally different: the student does not memorize a ready-made classification but comes to understand why it is structured in exactly this way and what its strengths and weaknesses are. In such a session, the teacher does not hurry to give the answer; instead, the teacher asks questions that steer thinking in the right direction, ensures that the rules of discussion are observed, and, at the end, connects the conclusions drawn by the students with scientific concepts. An important condition is creating a safe environment for students to make mistakes and change their minds: critical thinking develops only in a community where people are not afraid to express their opinions openly.

CONCLUSION

The results of the study show the following. First, critical thinking is a unity of cognitive skills and personal dispositions, and it should be formed not as a separate technique but together with the educational environment, teacher–student relationships, and the assessment system. Second, the transition from consuming knowledge to understanding it means not merely replacing methods but rethinking the purpose of education, the roles of teacher and student, and the logic of assessment. Third, the set comprising a culture of questioning, problem situations, discussion, work with sources, project activity, and reflection, together with mentoring-type teacher support and rubric-based assessment, constitutes the didactic basis of the pedagogy of understanding. Fourth, in the context of artificial intelligence this approach is especially relevant, as it makes it possible to educate students not only as knowledgeable persons but as individuals who treat information responsibly, independently, and in a well-reasoned manner.

The theoretical significance of the study lies in systematizing views on forming critical thinking around the conceptual axis of "consumption–

understanding," and its practical significance lies in proposing directions for designing and assessing sessions for higher education teachers. Future research should focus on developing criteria for diagnosing the levels of formation of critical thinking competence and on testing the effectiveness of the proposed mechanisms experimentally.

REFERENCES

Abrami, P. C., Bernard, R. M., Borokhovski, E., Waddington, D. I., Wade, C. A., & Persson, T. (2015). Strategies for teaching students to think critically: A meta-analysis. *Review of Educational Research, 85*(2), 275–314. https://doi.org/10.3102/0034654314551063

Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (Eds.). (2001). *A taxonomy for learning, teaching, and assessing: A revision of Bloom's taxonomy of educational objectives*. Longman.

Arum, R., & Roksa, J. (2011). *Academically adrift: Limited learning on college campuses*. University of Chicago Press.

Biggs, J. (1996). Enhancing teaching through constructive alignment. *Higher Education*, *32*(3), 347–364. https://doi.org/10.1007/BF00138871

Black, P., & Wiliam, D. (1998). Assessment and classroom learning. *Assessment in Education: Principles, Policy & Practice, 5*(1), 7–74. https://doi.org/10.1080/0969595980050102

Bloom, B. S. (Ed.). (1956). *Taxonomy of educational objectives: The classification of educational goals. Handbook I: Cognitive domain*. David McKay.

Dewey, J. (1910). *How we think*. D. C. Heath.

Ennis, R. H. (1987). A taxonomy of critical thinking dispositions and abilities. In J. B. Baron & R. J. Sternberg (Eds.), *Teaching thinking skills: Theory and practice* (pp. 9–26). W. H. Freeman.

Facione, P. A. (1990). *Critical thinking: A statement of expert consensus for purposes of educational assessment and instruction*. California Academic Press.

Flavell, J. H. (1979). Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive–developmental inquiry. *American Psychologist, 34*(10), 906–911. https://doi.org/10.1037/0003-066X.34.10.906

Freire, P. (1970). *Pedagogy of the oppressed* (M. B. Ramos, Trans.). Herder and Herder.

Halpern, D. F. (2014). *Thought and knowledge: An introduction to critical thinking* (5th ed.). Psychology Press.

Hmelo-Silver, C. E. (2004). Problem-based learning: What and how do students learn? *Educational Psychology Review, 16*(3), 235–266. https://doi.org/10.1023/B:EDPR.0000034022.16470.f3

Kasneci, E., Sessler, K., Küchemann, S., Bannert, M., Dementieva, D., Fischer, F., Gasser, U., Groh, G., Günnemann, S., Hüllermeier, E., Krusche, S., Kutyniok, G., Michaeli, T., Nerdel, C., Pfeffer, J., Poquet, O., Sailer, M., Schmidt, A., Seidel, T., … Kasneci, G. (2023). ChatGPT for good? On opportunities and challenges of large language models for education. *Learning and Individual Differences, 103,* Article 102274. https://doi.org/10.1016/j.lindif.2023.102274

Marton, F., & Säljö, R. (1976). On qualitative differences in learning: I—Outcome and process. *British Journal of Educational Psychology, 46*(1), 4–11. https://doi.org/10.1111/j.2044-8279.1976.tb02980.x

Miao, F., & Holmes, W. (2023). *Guidance for generative AI in education and research*. UNESCO. https://doi.org/10.54675/EWZM9535

Ochilov, M. (2000). *Yangi pedagogik texnologiyalar* [New pedagogical technologies]. Nasaf.

Republic of Uzbekistan. (2020, September 23). *Ta'lim to'g'risida* [On education] (No. O'RQ-637). https://lex.uz/docs/5013007

President of the Republic of Uzbekistan. (2019, October 8). *O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida* [On approval of the concept for the development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030] (No. PF-5847). https://lex.uz/docs/4545884

Prince, M. (2004). Does active learning work? A review of the research. *Journal of Engineering Education, 93*(3), 223–231. https://doi.org/10.1002/j.2168-9830.2004.tb00809.x

Saidahmedov, N. S. (2006). *Yangi pedagogik texnologiyalar* [New pedagogical technologies]. Moliya.

Tolipov, O'., & Usmonboyeva, M. (2006). *Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari* [Applied foundations of pedagogical technologies]. Fan.

Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in society: The development of higher psychological processes* (M. Cole, V. John-Steiner, S. Scribner, & E. Souberman, Eds.). Harvard University Press.

Willingham, D. T. (2007). Critical thinking: Why is it so hard to teach? *American Educator, 31*(2), 8–19.

Wood, D., Bruner, J. S., & Ross, G. (1976). The role of tutoring in problem solving. *Journal of Child Psychology and Psychiatry, 17*(2), 89–100. https://doi.org/10.1111/j.1469-7610.1976.tb00381.x

World Economic Forum. (2023). *The future of jobs report 2023*. https://www.weforum.org/publications/the-future-of-jobs-report-2023/

Yo‘ldoshev, J. G‘. (2020). *Zamonaviy dars texnologiyasi* [Modern lesson technology]. Fan va texnologiya.

Yo‘ldoshev, J. G‘., & Usmonov, S. A. (2004). *Pedagogik texnologiya asoslari* [Fundamentals of pedagogical technology]. O‘qituvchi.

ZAMONAVIY O‘ZBEK SHE’RIYATIDA FALSAFIY TAFAKKUR VA BADIIY IFODA

(Sirojiddin Rauf she’riyati misolida)

Salima Cho‘yanovna Jumaeva
Filologiya fanlari nomzodi. Dotsent
Alfraganus universiteti. Toshkent, O‘zbekiston
jumayeva@rambler.ru

Annotatsiya. *Maqolada zamonaviy o‘zbek she’riyatida falsafiy tafakkurning badiiy ifodalanish xususiyatlari tadqiq etilgan. Unda taniqli shoir Sirojiddin Rauf she’riyati misolida inson va borliq, hayot va o‘lim, vaqt va makon, ruh va jism, ezgulik va yovuzlik kabi falsafiy tushunchalarning poetik talqini tahlil qilingan. Shuningdek, shoirning olam va inson mohiyatiga doir qarashlarini ifodalashda badiiy obraz, ramz, timsol, metafora va obrazli tafakkurning o‘rni yoritilgan. Falsafiy mazmunning lirik qahramon ruhiy kechinmalari, badiiy tasvir vositalari hamda o‘ziga xos poetik ifoda usullari orqali namoyon bo‘lishi ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *zamonaviy o‘zbek she’riyati, lirika, falsafiy tafakkur, badiiy tafakkur, falsafiy tushunchalar, inson va borliq, hayot va o‘lim, vaqt va makon, lirik qahramon, badiiy obraz, ramz, timsol, poetik ifoda, falsafiy mazmun.*

Annotatsiya. *V state issleduyutsya osobennosti xudojestvennogo vыrajeniya filosofskogo mыshleniya v sovremennoy uzbekskoy poezii. Na primere poezii izvestnogo poeta Sirojiddina Raufa analiziruetsya poeticheskaya interpretatsiya takix filosofskix ponyatiy, kak chelovek i bытie, jizn i smert, vremya i prostranstvo, dux i telo, dobro i zlo. Krome togo, osveщaetsya rol xudojestvennogo obraza, simvola, metaforы i obraznogo mыshleniya v vыrajenii vzglyadov poeta na mir i suщnost cheloveka. Nauchno-teoreticheski obosnovыvaetsya proyavlenie filosofskogo soderjaniya posredstvom dushevnыx perejivaniy liricheskogo geroya, xudojestvenno-izobrazitelnыx sredstv i svoeobraznыx poeticheskix priyomov.*

Klyuchevыe slova: *sovremennaya uzbekskaya poeziya, lirika, filosofskoe mыshlenie, xudojestvennoe mыshlenie, filosofskie ponyatiya, chelovek i bытie, jizn i smert, vremya i prostranstvo, liricheskiy geroy, xudojestvennыy obraz, simvol, metafora, poeticheskoe vыrajenie, filosofskoe soderjanie.*

Abstract. *The article explores the distinctive features of the artistic expression of philosophical thought in contemporary Uzbek poetry. Drawing on the poetry*

of the renowned poet Sirojiddin Rauf, it analyzes the poetic interpretation of philosophical concepts such as human beings and existence, life and death, time and space, spirit and body, and good and evil. It also examines the role of artistic imagery, symbols, metaphors, and figurative thinking in conveying the poet's views on the world and human nature. The study provides a theoretical analysis of how philosophical content is expressed through the inner experiences of the lyrical persona, artistic devices, and distinctive poetic techniques.

Keywords: *contemporary Uzbek poetry, lyric poetry, philosophical thought, artistic thinking, philosophical concepts, human beings and existence, life and death, time and space, lyrical persona, artistic image, symbol, metaphor, poetic expression, philosophical content.*

Chuqur falsafiy mushohadalar va milliy qadriyatlarni o‘zida mujassam etgan haqiqiy she’riyat muayyan davrning ijtimoiy-siyosiy muhiti, ma’naviy-estetik ehtiyojlari hamda zamon ruhidan oziqlanadi. Asl ijodkor qalbida kechadigan kuchli tuyg‘ular, ruhiy iztirob va ichki ziddiyatlar uning badiiy tafakkurini harakatga keltirib, poetik izlanishlariga turtki beradi. Shu nuqtayi nazardan, Sirojiddin Rauf she’riyati milliy ruhning teran ifodasi, falsafiy mushohadalar ko‘lamining kengligi, mavzu va obrazlar rang-barangligi, hayotiy voqelikni o‘ziga xos badiiy idrok etishi bilan ajralib turadi. Shoir ijodida shaklan ixcham, mazmunan yaxlit va mantiqan izchil she’rlar ham salmoqli falsafiy mazmun kasb etadi. Ularda lirik qahramonning quvonch va iztiroblari, qalb kechinmalari, ruhiy holatlari hayot, inson va borliq haqidagi falsafiy mushohadalar bilan uyg‘unlikda tasvirlanadi. Natijada shaxsiy kechinmalar umuminsoniy mazmun darajasiga ko‘tarilib, she’rlarning g‘oyaviy-badiiy ta’sirchanligini oshiradi. “Dunyoda eng qiyin va mashaqatli ish fikr, tuyg‘u va tushunchalarning tabiiy ifodasini topmoq, inson botinida mavjud ming bir kayfiyat, holat va hislarni moddiylashtirmoqdir. Hisni so‘zga aylantirish nechog‘lik qiyin bo‘lsa, ruhiy hayot manzaralarini fikrda gavdalantirib berish undan ham mushkul” [1:171]. Shuna ko‘ra, Sirojiddin Raufning nozik ruhiyat, yuksak did bilan yaratilgan sara asarlarida “*Po‘rtana bag‘ir*”dagi “*bir inju ko‘rmoq*” va “*ul inju diydori*” sari intilmoqqa chog‘langan hissiy idrokdagi “*Dilo‘rtar bu o‘ylar, bu his, bu sezgi. Go‘yo kul ostida qolgan lahcha cho‘g‘*”, yoxud “*Ishqning otashida yonmoqlik uchun, Nahotki, bir nigoh bo‘lsa kifoya?*” kabi yorqin lavhalar va jonli obrazlarni tasvirlashda shoirona iste’dod qirralari unga keng imkoniyatlar ochib berganligining guvohi bo‘lamiz. Shoir bir she’rida shunday yozadi:

Qurshovdagi

dovyurak jagchi,
o‘qdonida qolgan
eng so‘nggi o‘qdek,
mening hayotimga keraksan,
Sevgi! [5:74]

Shu bois shoirning qaysi bir she’ri tahlilga tortilmasin, ularning har birida ijodkorning o‘ziga xos dunyoqarashi, dadil badiiy-falsafiy qarashlari, davrning ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy qonuniyatlarini teran anglashga intiladigan tafakkur egasi sifatidagi qiyofasi namoyon bo‘ladi. Shoir har bir poetik lavhada o‘zining betakror “men”ini muhrlab, voqelikka munosabati va shaxsiy mushohadalarini bevosita badiiy ifodaga singdiradi. Zero, ustoz adabiyotshunos Hotam Umurov qayd etganidek, “...Shoirona iste’dod – bir qaraganda olamga hayrat ko‘zi bilan boqish sa’nati va o‘zgalarni hayratga solish san’ati bo‘lib ko‘rinadi, yana bir qaraganda el dardiga oshno bo‘lish qobiliyati bo‘lib tuyuladi.” [2:10]

Darhaqiqat, “... she’rning tilini, so‘zning jarangini topgan” [3:3] iste’dodli shoir Sirojiddin Rauf o‘z “... she’rlarida holatlar va tuyog‘ularning turfa ranglarini, so‘zlarning xilma xil ma’nolarini, manzarali iboralarni ...” [4:95] topadi, kashf etadi. Shundan obrazlar xarakterida ham, asarlaridagi peyzaj tasvirida ham, shuningdek, asar tilida ham milliy kolorit barq urib turadi. Shoirning “*O, buyuk muhabbat*” nomli she’ri o‘zining ko‘tarinki kayfiyati, o‘ynoqi ohangi, badiiy tovlanishlari bilan e’tiborni tortadi:

O, buyuk muhabbat, yam-yashil dengiz,
Po‘rtana bag‘ringga o‘zimni otdim.
Sirlarga limmo-lim cheksiz qo‘yningda
Bir inju ko‘rdim-u, yana yo‘qotdim.
O‘ylayman, ul inju diydori sekin
Xotiram bog‘ida tiklana boshlar.
Hajrida o‘rtanib yongan yuragim
Ko‘krak qafasimni kuydirib tashlar! [5:45]

Ta’kidlash joizki, ijodni kismat deb bilib, so‘z sehriga shaydolikni ilohiy ne’mat sanovchi badiiyat ahli ishq – muhabbat mavzusiga bot-bot murojaat qiladilar. Ammo mazkur mavzuga yondashuv uslubi turli ijodkorda turlichadir. Har bir misrasida ko‘ngil aksi – “*Ko‘krak qafasimni kuydirib tashlar*” darajasidagi “... *buyuk muhabbat*” yolqini bilan jilolangan yuqoridagi misralarda iste’dodli shoir Sirojiddin Raufning so‘z qo‘llash mahorati, so‘zning poetik nutq jarayonidagi roli, obrazlilikni ta’minlash ko‘lami, badiiy nutqning yetakchi qismini tashkil qiluvchi obrazli sinonim (*bag‘ring, yuragim;*

o‘rtanmoq, yonmoq, kuymoq) va antonimlardan (*yo‘qotmoq, tiklana bormoq*) foydalanishdagi o‘ziga xos uslubi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Deydilarki, insonning qalbi – Allohning maskani. Dilda ul zoti muborakning nomini abadiy saqlash, qalbdagi ana shu buyuk nurdan huzurlanish orqali mutlaq ruhning jilvasidan ko‘ngilda kuchli zavq va shavq hissi paydo bo‘ladi. She’riyatda esa ruhning jilvasi deganda inson ichki dunyosi – ruhiyatining, his-tuyg‘ulari va ma’naviy holatining obrazli (ba’zan badiiy ramz darajasiga ko‘tarilgan ifodalar)da namoyon bo‘lishi, porlashi, ifodalanishi tushuniladi. Allohning maskani – mehr yonidagi fikr odamlariga kamarbasta shoir Sirojiddin Raufning zukko nigohi va idroki bilan baholaganimizda – insonning qalbi – lirik “*men*” – mutlaq ruhning jilvasidan nur oladi, huzurlanadi. Biroq “*Vujud orzusiga yovuq*” bo‘lgan “*Olaquroq tuyg‘u*”lar, ongi-shuurida to‘fonli po‘rtanalar yuzaga keltirgan “*hislar*”, “*sezgilar*” sabab “*Ko‘ngil oromiga chora bo‘lolmas*”dan, bedor qalb, uyg‘oq tafakkur, tizginsiz kechinmalar qurshovida “*Sevgingni maydalar mayda sevgilar ...*” shaklidagi mantiqli xulosalar chiqarishga olib keladi

Ko‘nglingni to‘lmog‘i mushkul tobora,
Olaquroq tuyg‘u, hislar, sezgilar
Ko‘ngil oromiga bo‘lolmas chora!
Sevgingni maydalar mayda sevgilar…
Olaquroq tuyg‘u, hislar, sezgilar,
Vujud orzusiga yovuqdir garchi —
So‘nggi dam sadpora ruhingni gizlar
Omonat umrning xiyonat xarji!
Sevgingni maydalar mayda sevgilar…[7: 17]

Sirojiddin Rauf she’riyatining o‘ziga xos muhim jihatlaridan biri shundaki, unda ijtimoiy hayot manzaralari, sabab va oqibiyat saboqlari lirik qahramon “*men*”ning tiynatini yoritishida namoyon bo‘ladi. Jumladan, “*Hech narsa so‘rama*” deb nomlanuvchi she’rida tuyg‘u va fikr uyg‘otuvchi kuch – “*ziqna hayot*” sinovlariga qarama-qarshi qo‘yiladi. Bu qiyosni shoir quyidagicha tashbeh orqali amalga oshiradi:

Hech narsa so‘rama, bu ziqna hayot,
Baribir qo‘lingga tutqazmas qopin... [5:72]

Shu tarzda shoir muayyan falsafiy fikrni ilgari suradi – aslida hayot sinov va munozara maydoni. Bu maydonda hech bir narsaga osonlikcha erishib bo‘lmaydi. Ya’nikim, hech bir zarurat, havas, umid, orzu yo‘lida “*ziqna hayot*” osonlikcha “*qo‘lingga tutqazmas qopin...*”. Demakkim, inson shaxsi va faoliyati ham bir umrlik sinov maydonida toblanadi. Tiriklik ham o‘sha

tizginsiz sinov dovonlaridan iborat bo‘lgan oxiri yo‘q umid va intilishdan iborat. Aslida, bu – tug‘ilish bilan o‘lim oralig‘idagi ma’naviy komillikka erishish bosqichlaridir. Qolaversa, bu mashaqqatli yo‘ldagi intilish insonning qalban poklanishiga sabab bo‘ladi. Chunonchi:

Abadiy quvonch ham, qayg‘u ham yo‘qdir,
Loaqal birimas, biriga to‘ysang.
Baxt bo‘lsa, yashnasang yashil daraxtday,
Dard bo‘lsa, zo‘r do‘zax o‘tida kuysang!.. [5:72]

Alqissa, shoirning falsafiy-estetik, ijtimoiy-axloqiy qarashlari asar xulosasida quyidagicha talqinda o‘zining to‘laqonli ifodasini topadi:

Hech narsa so‘rama, chidagin faqat,
Sabring qirg‘oqlarin buzsa-da toshqin.
Chidamoq og‘irmi, olaqol unda,
Bir chimdim azobu bir yalam ishqni!.. [5:72]

Anglashiladiki, ayni shu jarayonda insonning iroda kuchiga (*Sabring qirg‘oqlarin buzsa-da toshqin – chidagin faqat*), ijodiy yaratuvchilik imkoniyatlariga shoir estetikasida alohida hal qiluvchi o‘rin beriladi, ya’ni “*Bir chimdim azobu bir yalam ishq*.” Shunga ko‘ra, asar lirik qahramoni “*men*” inson ruhiy dunyosi iqlimlarini anglash orqali ijtimoiy voqelikni falsafiy idrok etishga undaydi. Ana shunday kezlarda nemis mutafakkiri Novalisning “She’riyat – bu falsafaning arzanda farzandi. Falsafa she’riyatni asosiy prinsip darajasiga ko‘taradi. U bizga she’riy zakovat va hikmatning qimmatini yangilashimizda ko‘mak beradi. Falsafa she’riyatning nazariyasidir”, – degan purma’no hikmatini keltirish o‘rinli. [6:94]

Falsafa fanida baxt va baxt formulasi degan tushunchalar mavjud. “Baxt, inson hayoti, uning ma’nosi va maqsadi! Bu masalalar ming yillardan beri ne-ne donolarning miyasini band qilib kelgan. Bu masalalar yuzlab asarlarda tilga olingan. Lekin, har qaysi davr bu masalani yangilaydi. Aniqrog‘i, davrgina emas, har bir fikrlaydigan odam hayotining muayyan bosqichida shu masalaga duch keladi. Baxt nima? Hayotning ma’nosi nima? Bu savollar har bir odamdan halol va batafsil javobni talab qiladi.” [8:373] Uyg‘onish davri fransuz adibi va faylasufi Mishel de Monten bu haqda shunday deb yozgan edi: “Baxtli bo‘lishni xohlasak, maqsadga oson erishardik. Biz boshqalardan baxtliroq bo‘lishni istaymiz, shuning uchun ham unga erisha olmaymiz.”. [9:13] Sirojiddin Rauf ta’rificha esa baxt – bu insonning insoniylik mohiyatini namoyon etish saodati demak. Shuningdek, shoir kimgadir keraklilik saodatini ham baxtning oliy maqomini belgilovchi mezon sifatida talqin etadi. Shu sababdan bo‘lsa kerak, ijodkor to‘plamlaridan birini “*Siz menga keraksiz*” deb

nomlagan. Shoirning mazkur to‘plamidan joy olgan shu nomdagi she’ri baxt va baxt formulasining ramziy ma’nosini muayyanlashtirish barobarida asarlari g‘oyaviy mundarijasini ham bir nuqtada uyg‘unlashtiradi.

“*Siz menga keraksiz!*”, – deya munojaat qiladi shoir she’rning har bir bandida. Albatta, buni anglamoq uchun ijodkor badiiy tafakkurini tahlil qilmoq lozim. Aslida, inson tirikligining qadri, qimmati ham ana shunda – kimgadir keraklilik saodatida! Chunki inson fikratiga yuqtirilgan mehrning darajasi – muhabbat harorati bilan to‘yinib yashash saodati – qudrati o‘zaro birikkan joyda baxt qasri barpo etiladi. Shu boisdan, muhabbat dardida yongan oshiq qalbning jozib qo‘shig‘iga aylangan mazkur satrlarda shoir ma’naviyatining va badiiyatining o‘zga xos qirralari ko‘zga tashlanadi:

Siz menga keraksiz,
qaqragan lablarga
zarur tomchi suv
va yokim
qushlarga qo‘sh qanot
shaksiz
hayot atalgandek
keraksiz illo. [5: 20]

Aslida, she’rning mazmun-mohiyati anchayin sodda va hayotiy. Uning dastlabki misralaridayoq izchil tasvirilanayotgan mavzu yuzasidan hukm – xulosa chiqarilgan. E’tibor qilinsa, shoir uchta so‘z – “*Siz menga keraksiz*” – falsafiy umumlashmalar orqali mo‘jazgina badiiy asar imoratini barpo etadi. Muhabbat bilan yaratilgan misralar mohiyatida shoirning nozik qochirimlarini (*qaqragan lablarga*, *qo‘sh qanot*) ilg‘ay olgan she’rxongina o‘ziga xos obrazli ifoda, xususan, xalq ibora va maqoli (*Qush jufti bilan qo‘sh qanot, Er-xotin – qo‘sh ho‘kiz*)ning – *qo‘sh qanot – qo‘sh ho‘kiz – birbutunlik* kabi mazmunini mahorat bilan singdirib yuborilganiga guvoh bo‘ladi. Ayni o‘rinlarda shoir asar tilini bezash, jozibadorligi va badiiy ta’sirchanligini oshirish maqsadida folklorizmning analitik turidan o‘rinli foydalanganligini ta’kidlash joizdir.

Shoirning asl g‘oyasini anglash uchun keyingi satrlarga diqqat qaratamiz:

Siz menga keraksiz,
har lahza o‘ylab,
his qilib har lahza
nafasingizni
bir otash sog‘inchdan
muzlab boraman.
Men kulbaman

tunning qanshari
butun vahshati-la
o‘ylab chizilgan.
Siz shu’lasiz,
hadya etib
qatra tabassum
qo‘rquvimni aritguvchi kuch. [5:20]

Keltirilgan misralarda shoir lirik “*men*”ining ma’naviy qiyofasiga xos chizgilar – *ishqi, iymoni va e’qtiqodi* akslanadi. Bunda anglamog‘imiz lozim bo‘lgan baxt formulasi sintezlashadi: *sog‘inch* – baxt, *(uning) nafasini har lahza his qilmoq* – baxt, *har lahza o‘ylab otash bo‘lmoq* – baxt, *qatra tabassum* – baxt, *butun vahshati-la tunning qanshari kulbani yoritguvchi shu’la ekanligiga ishonch* – baxt... Shunday baxtki, mutlaq ruhning jilvasidan ko‘ngilda yashash ishtiyoqini uyg‘otishga va inson taqdirining rangin ko‘rinishlarini bezashga qodir! Shu tariqa shoir o‘z fikri ortidan o‘quvchisini ergashtirib, uning hissiy, aqliy quvvatiga tasir ko‘rsatib, sherning umumiy pafosiga uni ham sherik qiladi:

Siz menga keraksiz,
Ko‘rdim
ul ma’voda nelar borligin
faqatgina
menga atalgan.
O‘sha Nelar
quvvat bo‘ladi
tag‘in bir oz yashashim uchun. [5:20]

Inson tug‘ilishidanoq ko‘nglida umid nuri yolqinlanadi. Bu – hayot va unga tashnalik umidi. Shoir lirik “*men*”i qalbidagi umid yolqini – *ul ma’voda nelar borligin* bilmoq uchun uning yo‘llarini yoritib turadi. Lirik “*men*”ning baxtga burkangan hayotidagi ijodkorlik fazilati – *quvvati* esa “*O‘sha Nelar*” tufayli yanada go‘zallashtirishga qaratilgan faoliyatga undaydi.

Sarhadi yo‘q tasavvur va tafakkur erkinligini axloqiy go‘zallik sari yo‘naltirgan shoir:

Garchi ayon
sarhadi yo‘q tasavvur
qudrati hechdir
Sizning ta’rif-
tavsif oldida. [5:21]

kabi misralar orqali lirik qahramon ruhiyatini yanada chuqurroq ifoda etishga kirishadi. Biroq ifoda yo‘sinida lirik chekinishga o‘rin berib shunday deydi:

Biroq
barcha haqiqatlar ma’nisiz menga
bag‘rimda yasharkan
munis muhabbat. [5:21]

Inson baxtga erishmog‘i uchun ko‘nglida umid nuri bilan birga tafakkur erkinligi ham bo‘lmog‘i lozim. Shoir baxtga eltuvchi poyonsiz yo‘lda lirik “*men*”ning ichki dunyosini ochishda takror aytishga arzigulik *iforiy so‘z*ga katta urg‘u beradi:

Toki shovullarkan
hayot daraxti
ko‘ksimda avaylab
hislarga chirmab
muqaddas duodek
takrorlagayman
umrimning mazmuni
iforiy so‘zni:
“*Siz menga keraksiz*” [5:21]

Demak, lirik “*men*”ning umr mazmuni – *baxt surati* – “*Siz menga keraksiz*” jumlasi zukko so‘z musavvirining o‘tkir qalami ila rangin bo‘yoqlarda tasvirlanadi. Muammoning falsafiy yechimi ham ayni shu misralarda uyg‘unlashadi. Shu birga birga, “*Siz menga keraksiz*” jumlasi orqali shoir o‘quvchisini tayyor didaktik xulosa bilan ta’minlashni emas, balki she’r zavqini tuyush, uning ham san’at, ham hikmat ekanligiga e’tibor qaratishni maqsad qiladi. Insonning baxtsizligi, uning ba’zan ushalmas orzulardan telba bo‘lib, o‘zini iztirobga mahkum qilishida emas, baxtsizlik – bu orzuning yo‘qligida va demakki, harakatsizlikdadir. Baxtga misqollab erishiladi. Uning uchun inson doimo kurashmoq kerak. Zero, shoir yozganidek:

Gugurt donasidek pov yonib o‘char
Mayda quvonchlar deb yurmoqdan karaxt,
Bir yorug‘ nafratga esh bo‘lib mag‘rur,
Qayg‘uning sochlarin silamoq ham baxt. [5:37]

Mehr-tuyg‘ularida buyuk hayotsevarlik, insonparvarlik xislatlarini mujassamlashtirgan shoir “*Iltijo*” nomli she’rida shunday satrlarni bitadi:

Orzular – oromning yovuz raqibi
Qonimda jo bo‘lib, zo‘riqar tomir.
Idrokim quvvati nuramay, bitmay

Bir kun poyoniga yetkaymi umr?... [5:37]

"*Iltijo*" – falsafiy she'r. Bunday asarlar tahlilida chuqur fikriy izchillik talab qilinadi. She'rda tasvirlagan har bir detalning asl mohiyati haqida so'z yuritish asardagi falsafiy ma'noni anglash, hayotning turli qirralariga turlicha munosabatda bo'lish bilan barobardir. Unda shoir UMR deb atalmish VAQTning bir kun poyonga yetmog'i tayin ekanligiga ishoralar keltiradi:

Vaqt – tulpor ustida chopib boraman,
Yurakda umid bor – chamandir yo'lim.
Bu sayr ko'ngilga tegmasdan burun
Jonimni olmoqqa ulgurgin, o'lim! [5:37]

Umr vaqt bilan rangdosh. Binobarin, o'tayotgan vaqtning tizginini hech narsa bilan tutib bo'lmaydi. Ijodkor o'z estetik idealini badiiy ifoda etish uchun "*Vaqt – tulpor ustida chopib boraman*" ko'chimli obrazi, sifatlash va istiora bilan ziynatlagan "*Yurakda umid bor – chamandir yo'lim*"ning "*Bu sayr ko'ngilga tegmasdan burun*", talqini negizidagi "*Jonimni olmoqqa ulgurgin, o'lim!*" va nihoyat poetik hukm-xulosa asosida hayot – tiriklik tushunchasini tasvirlashga qaratilgan bir-birini to'ldiruvchi umr – vaqt, umid va ruhiy holatning betakror tabiiy manzarasini chizgan.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy o'zbek adabiyotida Sirojiddin Rauf she'riyati o'ziga xos milliy ruhi, falsafiy mushohadalar ko'lamining kengligi, mavzular rang-barangligi, obrazlar tizimining xilma-xilligi va hayotiyligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Shoirning ko'p yillik ijodiy izlanishlari va adabiy tajribasi zaminida shakllangan she'riyatida chuqur falsafiy tafakkur, yuksak ijtimoiy ruh hamda umuminsoniy qadriyatlar lirik ifoda orqali yorqin namoyon bo'ladi. Ayniqsa, inson mohiyati, uning ruhiy olami, hayotiy kechinmalari va jamiyat bilan munosabatlariga doir mushohadalar shoir lirikasining mazmuniy-falsafiy teranligini belgilaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Haqqulov I. Taqdir va tafakkur. –T.: Sharq, 2007.
2. Umurov H. Badiiy ijod asoslari. – Toshkent O'zbekiston. 2001.
3.Erkin A'zam. She'riy teranlik sari// Rauf Sirojiddin. Siz menga keraksiz. – T.: Sharq, 2007.
4.Rustam Musurmon. So'zning ranglari//Rauf Sirojiddin. Muallaq cheksizlik. –T.: MASHHUR PRESS, 2018.
5. Rauf Sirojiddin. Siz menga keraksiz. –T.: Sharq, 2007.
6. Novalis. Fragmentы / Literaturnыe manifestы zapadnoevropeyskix romantikov. – M.: Nauka. 1980. – S. 94.
7. Rauf Sirojiddin. Muallaq cheksizlik. –T.: MASHHUR PRESS, 2018.

8. Sharafiddinov O. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1999.
9. Montaigne M. Les Essais / edition de Pierre Villey. – Paris: Presses Universitaires de France, Livre I,II,III (Volume 1,2,3), // Yermolenko G.N. Lafonten i Monten// Filosofskie aspektы kulturы i literaturnыy protsess v XVII stoletii: materialы konferensii “Pyatыe Lafontenovskie chteniya” / pod red. A.A. Skakuna [idr.]. – SPb., 1999. – 13 s.

FLIPPED CLASSROOM MODEL IN TEACHING ENGLISH GRAMMAR TO UNIVERSITY STUDENTS IN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN

Saydalieva Rano Abduvokhidovna
Tashkent Perfect University, Tashkent, Uzbekistan
ranosaydalieva28@gmail.com

Abstract. *The article examines the flipped classroom model as an innovative approach to teaching English grammar to undergraduate students at B1–B2 level. Based on an analysis of research in EFL contexts, it outlines the theoretical foundations of the model, including Bloom's revised taxonomy and cognitive load theory, and proposes a three-stage framework (pre-class, in-class and post-class) adapted to groups of 28-30 students in Uzbek universities. A sample lesson on conditional sentences illustrates the framework. The article also discusses the benefits and challenges of the model and offers practical recommendations for teachers implementing flipped grammar instruction.*

Keywords: *flipped classroom, grammar instruction, EFL, higher education, blended learning, learner autonomy, B1–B2 level.*

INTRODUCTION

English has become a key tool for academic mobility, professional development and international cooperation. In Uzbekistan, the importance of foreign language education is reflected in state policyin particular in Presidential Decree No.PQ-5117 (2021), according to which foreign language teaching is raised to a qualitatively new level and introducing modern teaching methods. In the context of higher education, teacher are expected to move from traditional teaching methods to approaches that develop student's autonomy, digital literacy and communicative competence.

Grammar remains one of the most challenging areas for university students of English. In many classrooms, a large part of the lesson is still spent on teacher's explanation of rules, while little time is left for meaningful practice. This problem becomes more serious in large groups of 28-30, where each learner has limited time to use the target structures orally. As a result, students may know a rule but fail to apply it accurately and fluently in speech and writin.

The flipped classroom model offers a possible solution. In flipped classroom, "that which is traditionally done in class is now done at home, and that which is traditionally done as homework is now completed in class" (Bergmann & Sams, 2012, p. 13). Bishop and Verleger (2013) describe it as a combination of individual computer-based instruction outside the classroom and interactive group learning activities inside the classroom. The aim of this article is to analyse the theoretical and empirical basis of the flipped classroom in EFL grammar teaching and to propose a practical model for teaching grammar to B1–B2 undergraduate students.

METHODS

Considering that this study is theoretical and methodological in nature, the following methods were used: analysis and synthesis of scientific literature on the flipped classroom and grammar instruction; comparative review of empirical studies conducted in EFLsettings; and a pedagogical modelling, which was used to design a flipped grammar framework and a sample lesson. The framework was developed for undergraduate students of English philology at B1-B2 level, with the coursebook "Intermediate Language Practice" (Vince, 2010) as the main source of grammar rules and exercises.

RESULTS

Theoretical foundation. The flipped classroom is supported by several theoretical perspectives. According to Bloom's taxonomy (Anderson & Krathwohl, 2001), learning moves from lower- order processes: remembering and understanding to higher order ones: analyzing, evaluating and creating. In a flipped grammar lesson, students complete the lower-order stage independently by studying at home, while class time is used for application and creative use of the structure with the support of the teacher and peers.

Cognitive load theory also supports the model Abeysekera and Dawson (2015) argue that pre- class materials which students can pause, rewind and review allow them to control the pace of instruction and reduce cognitive overload. This is especially important in grammar, where learners must process form, meaning and use at the same time. From the perspective of second language acquisition, Ellis (2006) emphasises that grammar instruction is most effective when explicit knowledge of rules is combined with opportunities to use the structures in communicative contexts. Larsen-Freeman (2003) describes grammar as a skill, "grammaring", which develops through meaningful practice rather than through memorisation of rules. The flipped model creates exactly this additional time for practice. *Evidence from EFL research.* A systematic review of flipped classroom studies in English language

teaching by Turan and Akdag-Cimen (2020) found that most studies reported positive effects on students' language achievement, engagement and attitudes, while also identifying challenges such as increased workload and technical problems. In a study focused specifically on grammar, Al-Harbi and Alshumaimeri (2016) found that students taught through a flipped approach performed better on grammar tests and had positive attitudes towards the model. Hung (2015) reported that flipped lessons fostered more active participation and better learning attitudes among English language learners. At the same time, the review by Akçayır and Akçayır (2018) shows that the most common difficulty is students' lack of preparation before class, which means that the pre-class stage must be carefully planned and checked.

Proposed framework. Based on the analysis, a three-stage framework for flipped grammar instruction was designed (Table 1).

Table 1.

Three-stage flipped grammar framework for B1–B2 university students

Stage	Students	Teacher	Tools
Pre-class (20–30 min at home)	Watch a 5–8 minute video on the rule; read the rule section in the coursebook; take a 6–10 item self-check quiz; write down one question	Selects or records the video; prepares the quiz; reviews quiz results before the lesson	YouTube, Telegram channel, Google Forms, Quizizz, coursebook
In-class (80-minute lesson)	Clarify problem points; controlled practice in pairs; communicative and problem-solving tasks in groups; peer correction	Diagnoses errors from quiz data; monitors groups; gives targeted feedback; supports weaker students	Coursebook exercises, task cards, mini-whiteboards
Post-class (follow-up)	Complete written exercises; write a short text using the structure; reflect on own progress	Checks selected work; adds recurring errors to the next pre-class quiz	Coursebook, LMS or Telegram, online quiz

A key element of the framework is the short self-check quiz at the end of the pre-class stage. It serves two purposes: it motivates students to prepare, and it provides the teacher with diagnostic data. Before the lesson, the teacher identifies the most frequent errors and plans the first part of the class around them. This makes it possible to differentiate instruction even in a large group.

Sample lesson. Table 2 presents a sample 80-minute flipped lesson on first and second conditionals. Before the lesson, students watch a short video

explaining the form and use of the two conditionals, read the corresponding rule section in the coursebook and complete an eight-item online quiz.

Table 2.

Sample flipped lesson: "First and second conditionals" (B1–B2, 80 minutes)

Step (time)	Activity	Grammar focus	Interaction
1. Warm-up and quiz review (10 min)	Teacher shows anonymised quiz results; class discusses the two most frequent errors (e.g., *If I will have time…)	Form of first and second conditionals	Whole class
2. Controlled practice (15 min)	Sentence transformation and error correction exercises from the coursebook	Accuracy of verb forms	Pairs
3. Freer practice (25 min)	"What would you do if…?" dilemma cards; students ask and answer, then report a partner's answer	Second conditional in speech	Groups of 4
4. Problem-solving task (20 min)	"Sustainable campus": groups propose changes and predict results (If our university stopped using plastic cups, students would…)	First and second conditionals in context	Groups, short presentations
5. Feedback and exit ticket (10 min)	Delayed error correction; each student writes three conditional sentences on a slip	Consolidation	Individual

In this lesson, about 70 of the 80 minutes are spent on student practice, whereas in a traditional lesson a considerable part of this time would be used for the explanation of the rule. Step 4 also links grammar practice with real-world issues of sustainability, which increases the relevance of the task and develops critical thinking and teamwork.

DISCUSSION

The analysis shows that the flipped classroom has several advantages for teaching grammar at university level. First, it increases the amount of in-class time devoted to practice and communication, which is especially valuable in

large groups. Second, it supports learner autonomy, as students take responsibility for studying the rule at their own pace. Third, quiz data allow the teacher to focus on real difficulties of a particular group rather than on the whole rule. Finally, the model develops students' digital literacy, which is an important competence for future teachers and translators.

However, the model also has limitations. Students may come to class unprepared; this problem can be reduced by making the pre-class quiz part of the continuous assessment and by beginning each lesson with a task that requires the pre-class knowledge. Preparing videos increases the teacher's workload at the beginning, but the materials can be reused and shared among colleagues. Unstable internet access can be addressed by sending short, compressed videos or PDF summaries through Telegram channels, which are widely used by students in Uzbekistan. It should also be noted that not every grammar topic requires flipping; the model is most effective for structures that require extended practice, such as tenses, conditionals, modal verbs and the passive voice.

Further empirical research is needed to measure the effect of flipped grammar instruction on the accuracy and fluency of Uzbek university students, including experimental studies with control groups and analysis of students' attitudes towards the model.

CONCLUSION

The flipped classroom model is a promising approach to teaching English grammar to B1–B2 university students. By moving the presentation of rules outside the classroom, it frees lesson time for practice, communication and individual feedback. The proposed three-stage framework (pre-class, in-class and post-class) and the sample lesson show how the model can be implemented in groups of 28-30 students using existing coursebooks and widely available digital tools. When carefully planned, flipped grammar instruction can contribute to the modernisation of foreign language education in Uzbekistan and to the development of autonomous, digitally competent learners.

REFERENCES

Abeysekera, L., & Dawson, P. (2015). Motivation and cognitive load in the flipped classroom: Definition, rationale and a call for research. Higher Education Research & Development, 34(1), 1–14.

Akçayır, G., & Akçayır, M. (2018). The flipped classroom: A review of its advantages and challenges. Computers & Education, 126, 334–345.

Al-Harbi, S. S., & Alshumaimeri, Y. A. (2016). The flipped classroom impact in grammar class on EFL Saudi secondary school students' performances and attitudes. English Language Teaching, 9(10), 60–80.

Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (Eds.). (2001). A taxonomy for learning, teaching, and assessing: A revision of Bloom's taxonomy of educational objectives. Longman.

Bergmann, J., & Sams, A. (2012). Flip your classroom: Reach every student in every class every day. International Society for Technology in Education.

Bishop, J. L., & Verleger, M. A. (2013). The flipped classroom: A survey of the research. In Proceedings of the 120th ASEE Annual Conference & Exposition. American Society for Engineering Education.

Ellis, R. (2006). Current issues in the teaching of grammar: An SLA perspective. TESOL Quarterly, 40(1), 83–107.

Hung, H.-T. (2015). Flipping the classroom for English language learners to foster active learning. Computer Assisted Language Learning, 28(1), 81–96.

Larsen-Freeman, D. (2003). Teaching language: From grammar to grammaring. Heinle.

Presidential Decree of the Republic of Uzbekistan No. PQ-5117. (2021, May 19). On measures to bring the activities to popularize the study of foreign languages in the Republic of Uzbekistan to a qualitatively new level.

Turan, Z., & Akdag-Cimen, B. (2020). Flipped classroom in English language teaching: A systematic review. Computer Assisted Language Learning, 33(5–6), 590–606.

Vince, M. (2010). Intermediate language practice (4th ed.). Macmillan Education.

O‘ZBEK VA INGLIZ XALQ RIVOYATLARINING FUNKSIONAL-SEMANTIK XUSUSIYATLARI VA TARJIMA MASALALARI

Isaqova Shaxnoza Baxtiyorovna
Namangan davlat texnika universiteti
10.00.13 – Qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XIX–XX asrlarga oid o‘zbek va ingliz xalq rivoyatlarining funksional-semantik xususiyatlari hamda ularni tarjima qilish jarayonidagi asosiy masalalar qiyosiy jihatdan yoritiladi. Tadqiqotda rivoyatlarning janriy tabiati, tarixiy xotira, milliy-madaniy konseptlar va lingvomadaniy birliklarning matndagi vazifasi tahlil qilinadi. Qiyosiy-tipologik, tavsifiy, tarixiy-qiyosiy, struktur-semantik, funksional, lingvomadaniy va tarjimashunoslik tahlili metodlaridan foydalaniladi. Tahlil natijalari rivoyatlarda tarixiylik, ishonchlilik, kommunikativlik va madaniy xususiyatlar o‘zaro bog‘langanini ko‘rsatadi. Tarjima jarayonida esa semantik aniqlik bilan bir qatorda madaniy va pragmatik mazmunni saqlash muhim ekani asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *o‘zbek folklori, ingliz folklori, xalq rivoyati, funksional-semantik tahlil, lingvomadaniyat, tarjima, pragmatik transformatsiya.*

Abstract. *This article provides a comparative analysis of the functional-semantic characteristics of Uzbek and English folk narratives from the 19th and 20th centuries, as well as the key issues involved in their translation. The study examines the generic nature of these narratives, the role of historical memory, national-cultural concepts, and the functions of linguocultural units within the texts. Methodologies employed include comparative-typological, descriptive, historical-comparative, structural-semantic, functional, linguocultural, and translation-oriented analysis. The findings demonstrate an interconnection between historicity, authenticity, communicative aspects, and cultural features within these narratives. Furthermore, the study argues that, in the translation process, preserving cultural and pragmatic content is as essential as maintaining semantic accuracy.*

Keywords: *Uzbek folklore, English folklore, folk narrative, functional-semantic analysis, linguoculture, translation, pragmatic transformation.*

KIRISH

So‘nggi yillarda folklor matnlarini faqat tarixiy yoki badiiy manba sifatida emas, balki xalqning madaniy xotirasi, ijtimoiy ongi va etnik identitetini aks ettiruvchi murakkab kommunikativ hodisa sifatida o‘rganishga e’tibor kuchaymoqda. Rivoyatlar ana shu jarayonda alohida o‘rin tutadi. Ular tarkibida tarixiy voqealar, diniy qarashlar, urf-odatlar, etnografik realiyalar va milliy dunyoqarashni ifodalovchi birliklar mujassam bo‘ladi. Shu sababli ularni boshqa tilga tarjima qilish oddiy lingvistik almashtirish bilan cheklanmay, madaniy va pragmatik moslashtirishni ham talab qiladi.

O‘zbek folklorshunosligida Hodi Zarif, Kamil Imomov, Bahodir Sarimsoqov va Mamatqul Jo‘rayev kabi olimlarning ishlari xalq nasri va rivoyat janrining nazariy asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ingliz folklorshunosligida esa William Bascom, Alan Dundes va Linda Degh kabi tadqiqotchilar rivoyatning tarixiylik, kommunikativlik va ishonch bilan bog‘liq jihatlarini izohlab berganlar. Mazkur ilmiy qarashlarni qiyoslash o‘zbek va ingliz rivoyatlarining umumiy hamda milliy xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Maqolaning maqsadi XIX–XX asrlarga oid o‘zbek va ingliz xalq rivoyatlarining funksional-semantik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish, ularning lingvomadaniy komponentlarini aniqlash va tarjima jarayonida yuzaga keladigan semantik hamda pragmatik transformatsiyalarni yoritishdan iborat.

ASOSIY QISM

Rivoyat janrining nazariy xususiyatlari

Kamil Imomov rivoyatning asosiy belgilaridan biri uning tarixiy voqelik bilan bog‘liqligi va xalq ongida ma’lum darajada ishonch uyg‘otishi ekanini ta’kidlaydi. Rivoyat syujeti ko‘pincha tarixiy shaxslar, geografik obyektlar yoki mahalliy voqealar bilan bog‘lanadi. Shu jihatdan rivoyat tarixiy faktning oddiy bayoni emas, balki xalq tomonidan qayta badiiy talqin qilingan ijtimoiy-madaniy xotira shakli sifatida namoyon bo‘ladi.

William Bascom rivoyatni farqlashda tarixiylik va ishonchlilik mezonlariga e’tibor qaratadi. Uning yondashuvida voqeaning real hayot bilan bog‘liqligi, zamon va makonning aniqligi hamda qahramonlarning tarixiy yoki tarixiy deb hisoblangan shaxslar bilan aloqasi muhim hisoblanadi. Alan Dundes esa folklorni tekst, kontekst va ijro muhiti birligida o‘rganish zarurligini ilgari suradi. Linda Deghning qarashlarida esa auditoriyaning ishonchi rivoyatning kommunikativ vazifasini belgilovchi muhim omil sifatida ko‘rsatiladi.

Bahodir Sarimsoqov rivoyatni folklor janrlari tizimida tarixiy taraqqiyot va janrlararo aloqalar nuqtai nazaridan ko‘rib chiqadi. Uning yondashuviga

ko‘ra, folklor janrlari qat’iy chegaralangan hodisalar emas, balki tarixiy rivojlanish jarayonida o‘zaro ta’sir va transformatsiyaga uchraydigan badiiy tizimdir. Bu holat rivoyatlarda mifologik motivlar, afsonaviy obrazlar va tarixiy voqealarning birgalikda uchrashini tushuntirishga yordam beradi.

O‘zbek va ingliz rivoyatlarining funksional-semantik jihatlari

O‘zbek va ingliz xalq rivoyatlarini qiyosiy o‘rganish ularning mazmunida umumiy arxetiplar, tarixiy motivlar, diniy qarashlar va milliy mentalitetni aks ettiruvchi konseptlar mavjudligini ko‘rsatadi. Biroq har bir xalq rivoyatida mazkur unsurlar milliy tarix va madaniyatga mos shaklda ifodalanadi. O‘zbek rivoyatlarida tarixiy shaxslar, muqaddas maskanlar, mahalliy joy nomlari va urf-odatlarga oid birliklar muhim semantik yuk tashisa, ingliz rivoyatlarida ham tarixiy makon, mahalliy an’analar va xalq xotirasi bilan bog‘liq birliklar rivoyatning mazmuniy tuzilishini shakllantiradi.

Rivoyatlarning funksional xususiyati ularning faqat voqeani yetkazishidan iborat emas. Ular tarixiy xotirani saqlash, axloqiy qadriyatlarni avlodlarga yetkazish, jamoaviy tajribani mustahkamlash va tinglovchiga muayyan ta’sir ko‘rsatish vazifalarini ham bajaradi. Shu sababli rivoyat matnidagi har bir tarixiy nom, joy nomi, ramziy obraz yoki madaniy birlikni faqat lug‘aviy ma’nosi asosida emas, balki uning matndagi funksiyasi va madaniy konteksti bilan birgalikda tahlil qilish zarur.

Tarjima jarayonidagi asosiy masalalar

Folklor matnlarini tarjima qilishda asosiy muammolardan biri milliy-madaniy mazmunni boshqa tilga adekvat ko‘chirishdir. Rivoyatlarda uchraydigan tarixiy nomlar, toponimlar, diniy tushunchalar, etnografik realiyalar va ramziy birliklar tarjimonning lingvistik bilimidan tashqari tarixiy va madaniy bilimlarini ham talab qiladi. Bunday birliklarni tarjima qilishda ayrim hollarda semantik yo‘qotish, pragmatik siljish yoki madaniy transformatsiya yuzaga kelishi mumkin.

Eugene Nida tomonidan ilgari surilgan ekvivalentlik tamoyillari, Peter Newmarkning semantik va kommunikativ tarjima qarashlari hamda Lawrence Venutining domestikatsiya va forenizatsiya konsepsiyalari folklor tarjimasini tahlil qilish uchun muhim nazariy asos bo‘la oladi. Tarjimon bir tomondan original matnning mazmuniy aniqligini saqlashi, ikkinchi tomondan esa boshqa madaniyat vakiliga tushunarli bo‘ladigan kommunikativ shaklni ta’minlashi kerak.

Shu nuqtai nazardan rivoyat tarjimasida universal yagona usul mavjud emas. Har bir madaniy birlikning tabiati, konteksti va kommunikativ vazifasiga qarab tarjima strategiyasi tanlanadi. Ayrim birliklarda asl shaklni saqlash

maqsadga muvofiq bo‘lsa, boshqalarida izohlash, funksional ekvivalent topish yoki madaniy moslashtirish zarur bo‘lishi mumkin. Muhimi, tarjimada rivoyatning tarixiy va madaniy o‘ziga xosligi yo‘qolib ketmasligidir.

Tadqiqot metodologiyasi va ilmiy ahamiyati

Mazkur tadqiqotda qiyosiy-tipologik, tavsifiy, tarixiy-qiyosiy, struktur-semantik, funksional, lingvomadaniy, kontekstual, diskurs va tarjimashunoslik tahlili metodlaridan foydalanish ko‘zda tutiladi. Bunday metodlarning uyg‘unligi rivoyatlarning janriy tabiatini, semantik qatlamlarini, kommunikativ vazifalarini va tarjimada yuzaga keladigan o‘zgarishlarni kompleks tarzda o‘rganish imkonini beradi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi XIX–XX asrlarga oid o‘zbek va ingliz xalq rivoyatlarini funksional-semantik yondashuv asosida qiyosiy tahlil qilish, lingvomadaniy komponent va milliy konseptlarni tizimli aniqlash, tarjimada yuzaga keladigan semantik, pragmatik va lingvomadaniy transformatsiyalarni kompleks o‘rganish bilan bog‘liq. Mazkur yondashuv folklorshunoslik, qiyosiy adabiyotshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik va tarjimashunoslikning o‘zaro aloqasini kuchaytiradi.

XULOSA

O‘zbek va ingliz xalq rivoyatlari xalqning tarixiy xotirasi, madaniy qadriyatlari va milliy dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim folklor janridir. Ularning funksional-semantik xususiyatlari tarixiylik, ishonchlilik, kommunikativlik va lingvomadaniy mazmunning o‘zaro uyg‘unligi orqali namoyon bo‘ladi. Qiyosiy tahlil rivoyatlarda umumiy insoniy motivlar bilan bir qatorda har bir xalqning o‘ziga xos madaniy konseptlari mavjudligini ko‘rsatadi.

Rivoyatlarni tarjima qilishda faqat so‘zma-so‘z mazmunni yetkazish yetarli emas. Tarjimon tarixiy, diniy, etnografik va milliy-madaniy birliklarning funksiyasini hisobga olishi lozim. Shuning uchun funksional ekvivalentlik, lingvomadaniy tahlil va pragmatik moslashtirish tamoyillarini uyg‘un qo‘llash rivoyat tarjimasining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv o‘zbek folklor merosini xalqaro ilmiy va madaniy makonda kengroq targ‘ib etish uchun ham muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bascom W. The Forms of Folklore: Prose Narratives // The Journal of American Folklore. – 1965. – Vol. 78. – No. 307. – P. 3–20.

2. Degh L. Legend and Belief: Dialectics of a Folklore Genre. – Bloomington: Indiana University Press, 2001. – 466 p.

3. Dundes A. Interpreting Folklore. – Bloomington: Indiana University Press, 1980. – 310 p.

4. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1990. – B. 169–173.

5. Jo‘rayev M. O‘zbek xalq nasri janrlarini tasnif qilish mezonlari // O‘zbek tili va adabiyoti. – 1996. – №5. – B. 28–35.

6. Newmark P. A Textbook of Translation. – New York: Prentice Hall, 1988.

7. Nida E. A., Taber C. R. The Theory and Practice of Translation. – Leiden: Brill, 1982.

8. Sarimsoqov B. Epik janrlar diffuziyasi // O‘zbek folklorining epik janrlari. – Toshkent: Fan, 1981. – B. 97–112.

9. Venuti L. The Translator’s Invisibility. 3rd ed. – London: Routledge, 2018.

O‘ZBEK MILLIY NAQSHLARIDA GEOMETRIK SHAKLLAR VA SIMMETRIYA

Tursunboyeva Xusnora Ibroximjon Qizi
Farg‘ona shahridagi Prezident maktabi o’quvchisi
husnorablue@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu tezisda o‘zbek milliy naqshlarida uchraydigan geometrik shakllar va simmetriya qonuniyatlari matematik nuqtayi nazardan o‘rganiladi. Tadqiqotda milliy bezaklarda qo‘llaniladigan uchburchak, kvadrat, romb, aylana va ko‘pburchaklar hamda ularning o‘zaro joylashuvi tahlil qilinadi. Naqshlarda aks ettirish simmetriyasi, burilish simmetriyasi va takrorlanish xususiyatlarini aniqlashga alohida e’tibor qaratiladi. Geometrik tahlil yordamida milliy amaliy san’at namunalari va matematika o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatish, o‘quvchilarning fazoviy tasavvuri va matematik tafakkurini rivojlantirish imkoniyatlari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *milliy naqshlar, geometriya, simmetriya, geometrik shakllar, takrorlanish, o‘zbek amaliy san’ati.*

Abstract. *This paper explores geometric shapes and symmetry patterns in traditional Uzbek ornaments from a mathematical perspective. It examines triangles, squares, rhombuses, circles, and polygons used in decorative designs, focusing on their arrangement and repetition. Particular attention is given to reflectional symmetry, rotational symmetry, and translational repetition. The study demonstrates the relationship between traditional Uzbek decorative art and mathematical principles. It also highlights how the geometric analysis of national ornaments can develop students’ spatial awareness, logical reasoning, and understanding of mathematical concepts through cultural heritage.*

Keywords: *traditional Uzbek ornaments, geometry, symmetry, geometric shapes, repetition, Uzbek decorative art.*

KIRISH

Matematika insoniyatning kundalik hayoti, me’morchilik, san’at va madaniy merosi bilan chambarchas bog‘liq. Uning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan geometriya shakllar, ularning o‘lchamlari, o‘zaro joylashuvi va fazodagi munosabatlarini o‘rganadi. Geometrik qonuniyatlar nafaqat ilmiy va texnik sohalarda, balki milliy amaliy san’at namunalarida ham namoyon bo‘ladi.

O‘zbek xalq amaliy san’ati ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lib, unda naqsh san’ati alohida o‘rin tutadi. Naqshlardan me’moriy obidalarni bezashda, yog‘och o‘ymakorligi, ganchkorlik, kulolchilik, kashtachilik va boshqa amaliy san’at turlarida foydalaniladi. Ushbu naqshlarda geometrik shakllarning uyg‘unligi, muntazam takrorlanishi va simmetrik joylashuvi ko‘p uchraydi.

Milliy naqshlarni matematika nuqtayi nazaridan o‘rganish geometrik tushunchalarning amaliy qo‘llanilishini tushunishga yordam beradi. Ayniqsa, simmetriya hodisasini naqshlar misolida tahlil qilish o‘quvchilarga nazariy bilimlarni ko‘rgazmali misollar bilan mustahkamlash imkonini yaratadi.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek milliy naqshlarida uchraydigan geometrik shakllarni aniqlash, ularda namoyon bo‘ladigan simmetriya turlarini tahlil qilish va matematik qonuniyatlarning milliy amaliy san’atdagi ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

- milliy naqshlarda qo‘llaniladigan asosiy geometrik shakllarni aniqlash;
- naqshlardagi aks ettirish va burilish simmetriyasini o‘rganish;
- geometrik elementlarning takrorlanish qonuniyatlarini tahlil qilish;
- naqshlarni geometrik chizmalar yordamida tasvirlash;
- matematika ta’limida milliy naqshlardan foydalanish imkoniyatlarini ko‘rsatish.

ASOSIY QISM

O‘zbek milliy naqshlarining geometrik xususiyatlari. O‘zbek milliy naqshlari shakllar va bezak elementlarining muayyan tartibda joylashtirilishi orqali hosil qilinadi. Geometrik naqshlarda chiziqlar, burchaklar, ko‘pburchaklar va egri chiziqli shakllar muhim o‘rin egallaydi. Ayrim naqshlar muntazam geometrik shakllar asosida tuzilsa, boshqalarida o‘simliksimon va geometrik elementlar birgalikda qo‘llaniladi.

Naqshlarda uchburchak, kvadrat, romb, aylana, yulduzsimon ko‘pburchak va boshqa geometrik shakllarni uchratish mumkin. Masalan, romb va ko‘pburchaklardan tuzilgan bezaklar takrorlanuvchi geometrik tuzilmani hosil qilishi mumkin. Aylana va radial tarzda joylashtirilgan elementlar esa markaz atrofidagi tartibni namoyon etadi.

Geometrik shakllarning o‘lchamlari va o‘zaro joylashuvi naqshning umumiy ko‘rinishiga ta’sir qiladi. Shakllar o‘rtasidagi mutanosiblik, burchaklarning uyg‘unligi va elementlarning takrorlanishi naqsh kompozitsiyasining yaxlitligini ta’minlashga yordam beradi.

Milliy naqshlarda simmetriya turlari. Simmetriya geometrik shakl yoki tasvirning muayyan almashtirishdan keyin o‘z ko‘rinishini saqlab qolish xususiyatidir.



Girih uslubidagi geometrik naqsh



Sakkiz qirrali yulduzsimon naqsh



Samarqand me’morchiligidagi naqshlar



Rangli milliy geometrik naqsh



Romb va kvadratli naqsh



Yulduzsimon naqsh

Milliy naqshlarni tahlil qilishda simmetriyaning bir nechta turini ajratish mumkin.

1. Aks ettirish simmetriyasi. Bu simmetriya turi shaklning ma’lum bir chiziqqa nisbatan ikki mos qismdan tashkil topishi bilan izohlanadi. Agar naqshni simmetriya o‘qi bo‘ylab tasavvuriy ravishda ikkiga ajratganda uning bir qismi ikkinchi qismiga ko‘zgudagi aks kabi mos kelsa, bunday naqsh aks ettirish simmetriyasiga ega bo‘ladi.

2. Burilish simmetriyasi. Shakl ma’lum bir markaz atrofida muayyan burchakka burilganda o‘zining dastlabki ko‘rinishiga mos tushishi burilish simmetriyasi deyiladi. Markaz atrofida teng oraliqlarda joylashtirilgan bezak elementlari bunday simmetriyaga misol bo‘lishi mumkin.

3. Ko‘chirish simmetriyasi va takrorlanish. Ayrim naqshlarda bir xil yoki o‘zaro mos geometrik elementlar ma’lum masofada ketma-ket takrorlanadi. Bunday tuzilma, ayniqsa, bezaklarning gorizontal yoki vertikal yo‘nalishda davom etishida ko‘rinadi. Matematik jihatdan bu holat ko‘chirish simmetriyasi bilan bog‘liq. Ushbu simmetriya turlarini o‘rganish naqshlarning tuzilishini tushunish va ularni geometrik qoidalar asosida qayta chizish imkonini beradi.

O‘zbek milliy naqshlarining geometrik tahlili

№	Naqsh namunasi	Aniqlangan geometrik shakllar	Simmetriya turi	Takrorlanish xususiyati
1	Girih uslubidagi geometrik naqsh	Muntazam ko‘pburchaklar, yulduzsimon shakllar, romblar	Burilish va aks ettirish simmetriyasi	Geometrik elementlar muayyan tartibda takrorlanadi
2	Rombli naqsh	Romblar, uchburchaklar, parallel chiziqlar	Aks ettirish simmetriyasi	Romblar qatorlar bo‘ylab ketma-ket joylashadi
3	Sakkiz qirrali yulduzsimon naqsh	Sakkiz qirrali yulduz, kvadratlar, uchburchaklar	Burilish simmetriyasi	Markaz atrofida elementlar takrorlanadi
4	Kvadratli geometrik naqsh	Kvadratlar, to‘g‘ri to‘rtburchaklar, romblar	Aks ettirish va ko‘chirish simmetriyasi	Shakllar gorizontal va vertikal yo‘nalishda davom etadi
5	Doirasimon naqsh	Aylanalar, radial chiziqlar, uchburchaksimon elementlar	Burilish simmetriyasi	Elementlar markaz atrofida muayyan tartibda joylashadi

Jadvalda keltirilgan naqsh namunalarining geometrik tahlili milliy bezaklarda ko‘pburchaklar, romblar, kvadratlar va yulduzsimon shakllardan foydalanish imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Bunday shakllar naqsh kompozitsiyasida muayyan tartibda joylashib, aks ettirish, burilish va ko‘chirish simmetriyasi kabi geometrik xususiyatlarni namoyon qilishi mumkin.

Ayniqsa, sakkiz qirrali yulduzsimon naqshlarda markaz atrofida joylashgan elementlarning o‘zaro mosligi burilish simmetriyasini o‘rganish uchun qulay misol bo‘la oladi. Rombli va kvadratli naqshlarda esa geometrik shakllarning qatorlar bo‘ylab takrorlanishi hamda simmetriya o‘qlarini aniqlash mumkin.

Shunday qilib, milliy naqshlarni geometrik tahlil qilish orqali geometriyaning nazariy tushunchalarini amaliy san’at namunalari bilan bog‘lash, shakllarning o‘zaro joylashuvi va takrorlanish qonuniyatlarini aniqlash mumkin.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Milliy naqshlarni geometrik jihatdan o‘rganish matematika fanini milliy madaniy meros bilan bog‘lashning samarali usullaridan biridir. Geometrik shakllar va simmetriya haqidagi tushunchalarni real naqshlar orqali izohlash o‘quvchilarning mavzuni yaxshiroq anglashiga yordam beradi.

Bundan tashqari, naqshlarning geometrik modellarini yaratish chizmachilik, tasviriy san’at, dizayn va me’morchilikka bo‘lgan qiziqishni oshirishi mumkin. Kompyuter dasturlari yordamida naqshlarni qayta chizish va simmetriya o‘qlarini belgilash ham matematik bilimlarning zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashuvini ko‘rsatadi.

XULOSA

O‘zbek milliy naqshlari geometriyaning amaliy san’atdagi namoyon bo‘lishini o‘rganish uchun muhim manbalardan biri hisoblanadi. Ularda uchburchak, kvadrat, romb, aylana va ko‘pburchak kabi geometrik shakllar, shuningdek, aks ettirish, burilish va ko‘chirish simmetriyasi bilan bog‘liq tuzilmalar uchrashi mumkin.

Milliy naqshlarni geometrik tahlil qilish orqali shakllarning joylashuvi, elementlarning takrorlanishi va kompozitsiyaning matematik xususiyatlarini aniqlash mumkin. Bunday yondashuv matematika fanidagi nazariy tushunchalarni amaliy misollar bilan bog‘lashga yordam beradi.

Tadqiqotning amaliy natijasi tanlangan naqsh namunalarini geometrik shakllar va simmetriya turlari bo‘yicha tavsiflash, ularning chizmalarini yaratish hamda olingan kuzatuvlarni tizimlashtirishdan iborat bo‘lishi mumkin.

Natijada milliy amaliy san’at va matematika o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatish, o‘quvchilarning geometrik tafakkuri va madaniy merosga qiziqishini rivojlantirish imkoniyati yuzaga keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Coxeter, H. S. M. (1969). *Introduction to geometry* (2nd ed.). John Wiley & Sons.

2. Grünbaum, B., & Shephard, G. C. (1987). *Tilings and patterns*. W. H. Freeman and Company.

3. Weyl, H. (1952). *Symmetry*. Princeton University Press.

4. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. (2000–2006). *O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi* (1–12-jildlar). O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti.

5. Bonner, J. (2017). Islamic Geometric Patterns: Their Historical Development and Traditional Methods of Construction. Springer. https://doi.org/10.1007/978-1-4419-0217-7

6. Sobirov, T. R., & Omonov, K. K. (2021). Graficheskaya osnova girikha, ispol'zovavshayasya v traditsionnom dekorativno-prikladnom iskusstve Sredney Azii IX–XV vv. [IX–XV asrlarda Markaziy Osiyo an’anaviy amaliy bezak san’atida qo‘llanilgan girihning grafik asoslari]. Zhurnal sovremennykh problem biznesa, 27(1), 764–771.

7. Qodirova, S. X., & Abdullayeva, G. Sh. (2026). Milliy naqshlarning arxitekturada qo‘llanilishi va ularning qiyosiy tahlili. Fan va texnologiyalar taraqqiyoti, (2), 381–385. https://journal.bstu.uz/public/article/564/

8. Maxmatqulov, & Sherqulova. (2022). Symbolic meanings and characteristics of patterns and decorations in Central Asian architectural monuments in the XIV–XV centuries. Eurasian Journal of Academic Research, 2(2), 744–749. https://www.in-academy.uz/index.php/EJAR/article/view/3192

TOJIKISTONNING SUV-ENERGETIKA DIPLOMATIYASI: MARKAZIY OSIYODA STRATEGIK O‘ZARO BOG‘LIQLIK VA BARQAROR RIVOJLANISH (2016–2025-YILLAR)

B. B. Usmonov
Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Osiyo xalqaro universiteti, O‘zbekiston
usmonovbaxtiyorbotirovich@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada Tojikistonning 2016–2025-yillardagi suv-energetika diplomatiyasi tarixiy-qiyosiy va institutsional yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Rasmiy hujjatlar yordamida diplomatik tashabbus, loyihaviy salohiyat, moliyaviy majburiyat va amaliy natija farqlanadi. Rog‘un GESi misolida resurslarning siyosiy-iqtisodiy qiymati moliyalashtirish, eksport bozorlari va kelishilgan boshqaruvga bog‘liqligi ko‘rsatiladi. Tadqiqotning tahliliy hissasi ushbu bosqichlarni yagona institutsional jarayon doirasida qiyoslashdan iborat. Mavsumiy suv rejimlarini muvofiqlashtirish, gidrologik ma’lumotlar almashinuvi va mustaqil monitoring bo‘yicha tavsiyalar beriladi.*

Kalit *so‘zlar: Tojikiston, suv-energetika diplomatiyasi, strategik o‘zaro bog‘liqlik, Rog‘un GESi, institutsional hamkorlik, manfaatlarni taqsimlash.*

Abstract. This article examines Tajikistan’s water and energy diplomacy in 2016–2025 through historical-comparative and institutional analysis. Official documents distinguish diplomatic initiatives, projected capacity, financing commitments, and documented outcomes. The Rogun Hydropower Project illustrates how financing, export markets, and coordinated governance shape the political and economic value of resources. The analytical contribution lies in comparing these stages within a single institutional process. The article recommends coordinating seasonal water regimes, exchanging hydrological data, and strengthening independent monitoring.

Keywords*: Tajikistan, water and energy diplomacy, strategic interdependence, Rogun hydropower, institutional cooperation, benefit sharing.*

KIRISH

Markaziy Osiyo daryolari yuqori oqimdagi energetika inshootlari bilan quyi oqimdagi ekin maydonlarini bir suv havzasi doirasida tutashtiradi. Shu bois daryo oqimini boshqarish haqidagi qarorlar qo‘shni davlatlarning ishlab

chiqarishi va turmush sharoitida ham aks etadi. Tojikistonning gidroenergetik salohiyati ana shu o‘zaro ta’sir sharoitida strategik ahamiyat kasb etadi. Biroq tabiiy imkoniyatning iqtisodiy natijaga aylanishi infratuzilma, bozor va davlatlararo kelishuvlar sifatiga bog‘liq.

Maqolada 2016–2025-yillarda suv-energetika diplomatiyasi Tojikistonning hamkorlik imkoniyatlarini qaysi institutsional mexanizmlar orqali kengaytirgani o‘rganiladi. Ishchi gipotezaga ko‘ra, moliyalashtirish va energiya savdosiga doir kelishuvlar resurs salohiyatini amaliy hamkorlikka aylantiruvchi asosiy vositalardir. Tahliliy hissa diplomatik tashabbus, moliyaviy majburiyat va shartnomaviy tayyorgarlikni izchil qiyoslashdan iborat.

Tadqiqot metodlari

Menga va Mirumachi (2016) Rog‘un loyihasining diplomatik asoslari va moliyalashtirish imkoniyatlarini o‘rgangan. Jalilov et al. (2015) suv–energetika–qishloq xo‘jaligi manfaatlarini muvofiqlashtirishni modellashtirgan; ularning xulosalari tanlangan ssenariy va kompensatsiya shartlariga bog‘liq. Avvalgi tadqiqotlarimizdagi siyosiy muloqot va institutsional hamkorlikka oid yondashuvlar ushbu tahlilning nazariy izchilligini ta’minlaydi (Usmanov, 2024; Usmonov, 2025).

Tarixiy-qiyosiy va institutsional tahlilda hujjatlarning sanasi, ko‘rsatkichlarning o‘lchov birligi hamda hujjatlarda qayd etilgan maqomi hisobga olindi. Diplomatik tashabbus, loyihaviy quvvat, moliyaviy majburiyat va ijro natijasi alohida baholandi. Strategik o‘zaro bog‘liqlik resurs, bozor va boshqaruv bo‘yicha o‘zaro ehtiyoj sifatida talqin qilindi. Statistik sababiy model va yangi gidrologik hisob-kitoblar bajarilmadi.

Natijalar

BMT Bosh Assambleyasi 2016-yil 21-dekabrda 2018–2028-yillarni “Suv — barqaror rivojlanish uchun” xalqaro harakatlar o‘n yilligi deb e’lon qildi (United Nations General Assembly, 2016). Tojikiston 2023-yil 22–24-martda Niderlandiya bilan BMT Suv konferensiyasiga hamraislik qildi (United Nations, 2023). Bu ishtirok mamlakatning xalqaro suv kun tartibidagi diplomatik faolligini ifodalaydi.

Ikki tomonlama darajada 2022-yil 2-iyunda O‘zbekiston va Tojikiston prezidentlari Zarafshon daryosidagi Yavan GESi qurilishini boshlash marosimida ishtirok etdi. Rasmiy axborotdagi 140 MVt stansiyaning loyihaviy quvvatidir (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2022). Ushbu tashabbus energetika manfaatlarini qo‘shma loyiha orqali yaqinlashtirishga qaratilgan siyosiy kelishuvni ko‘rsatadi.

Jahon banki 2024-yil 17-dekabrda Rog‘un loyihasining birinchi bosqichi uchun 350 million AQSH dollari miqdoridagi Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi (IDA) grantini tasdiqladi. O‘sha bayonotdagi 3 780 MVt loyihaviy quvvatni, elektr energiyasining taxminan 70 foizini eksport qilish esa rejani anglatadi (World Bank, 2024). 2025-yilgi hujjatda birinchi bosqich 650 million dollarlik ko‘p bosqichli dastur doirasida ko‘rsatilgan (World Bank, 2025, p. 1). Moliyalashtirish doirasi amaldagi to‘lovlar bilan tenglashtirilmaydi.

Qayta tuzish hujjatida Qozog‘iston va O‘zbekiston bilan elektr energiyasini xarid qilish shartnomalarini rasmiylashtirish sharti bajarilgani belgilangan (World Bank, 2025, p. 22). 2025-yil 15-dekabr holatiga moliyalashtirish bitimi kuchga kirishining 18 shartidan 16 tasi bajarilgan (World Bank, 2025, p. 2). Bu dalillar institutsional tayyorgarlikni ko‘rsatadi; eksport yetkazib berishlari yoki qurilishning jismoniy tayyorligini o‘lchamaydi.

Institutsional yaqinlashuv axborot ochiqligida ham ko‘rinadi. Jahon bankining 2025-yilgi hujjatida Vaxsh daryosidagi oqim va suv omborini to‘ldirishga doir ma’lumotlarni almashish shaffofligi oshgani qayd etilgan (World Bank, 2025, p. 2). Bunday axborot almashinuvi qo‘shni davlatlarga suv rejimlarini baholash va mavsumiy ehtiyojlarni oldindan muhokama qilish uchun asos yaratishi mumkin.

Muhokama

Tahlil resurslarning strategik qiymati moliya va eksport bozorlari bilan uzviy aloqada shakllanishini ko‘rsatadi. Tojikiston energiya sotish imkoniyatini kengaytirar ekan, xaridorlar bilan kelishuv va tashqi moliyalashtirishga ehtiyoji ham saqlanadi. Bu o‘zaro bog‘liqlik mamlakatning sohaviy mavqeyini tushuntirishga yordam beradi. Biroq importchilarning talabi va moliya institutlarining shartlari ham jarayonga ta’sir qiladi; kuzatilgan siljishlar umumiy kuchlar nisbatining o‘zgarganini bevosita isbotlamaydi.

Elektr energiyasi xaridori uchun yetkazib berishning ishonchliligi, sug‘orma dehqonchilik uchun esa suvning kelish muddati va hajmi muhim. Hamkorlik kelishuvlarida ushbu ehtiyojlarni birgalikda hisobga olish zarur.

Loyiha daromadlarini ijtimoiy maqsadlarga yo‘naltirish mexanizmi davlatlararo suv taqsimoti kelishuvi o‘rnini bosmaydi (World Bank, 2025, p. 19). Havza miqyosida manfaat almashinuvi ham alohida muzokara va hisob-kitob talab etadi (Jalilov et al., 2015).

BMT Atrof-muhit dasturi (UNEP) ma’lumotiga ko‘ra, Tojikiston elektr energiyasining 95 foizgacha qismi gidroenergetika hisobiga ta’minlanadi;

so‘nggi o‘n yilliklarda esa mamlakatda mingdan ortiq muzlik yo‘qolgan (United Nations Environment Programme, 2025). Muzliklar haqidagi ko‘rsatkichni muayyan GES ishlab chiqarishidagi yillik kamayish sifatida talqin qilish mumkin emas.

Amaliy jihatdan gidrologik ma’lumotlarni muntazam almashish, mavsumiy suv rejimlarini kelishish va ijtimoiy-ekologik ta’sirni mustaqil kuzatish taklif etiladi. Suv kam bo‘lgan davrlar uchun oldindan kelishilgan tartiblar hamkorlarning noaniqligini kamaytirishi mumkin. Monitoring natijalarini ochiq muhokama qilish esa majburiyatlar ijrosini baholash va kelishuvlarni o‘zgarayotgan sharoitga moslashtirishga yordam beradi.

Tadqiqot rasmiy hujjatlar bilan cheklangan: shartnomalarning to‘liq matnlari, uzluksiz oqim qatorlari va manfaatdor tomonlar bilan intervyular tahlil qilinmagan. Shu bois aniqlangan institutsional siljishlar iqtisodiy samaradorlikning yakuniy bahosi sifatida qabul qilinmaydi.

XULOSA

Tojikistonning suv-energetika diplomatiyasi tabiiy salohiyatni moliyaviy va shartnomaviy mexanizmlar orqali hamkorlikka bog‘lash jarayoni sifatida namoyon bo‘ladi. 2016–2025-yillarga oid dalillar diplomatik ishtirok, qo‘shma loyihalar va eksport kelishuvlari o‘rtasidagi aloqani ko‘rsatadi. Barqaror natijaning mezoni esa resursning ko‘lami bilan birga boshqaruv sifati va majburiyatlarning bajarilishidir. Keyingi tadqiqotlarda shartnomalar ijrosi, mavsumiy suv rejimlari hamda ijtimoiy-ekologik natijalarni birgalikda baholash zarur. Ana shu yondashuv suvni mintaqaviy taraqqiyot manfaatlariga xizmat qildirishning amaliy shartlarini aniqlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Jalilov, S.-M., Varis, O., & Keskinen, M. (2015). Sharing benefits in transboundary rivers: An experimental case study of Central Asian water-energy-agriculture nexus. *Water*, *7*(9), 4778–4805. https://doi.org/10.3390/w7094778

Menga, F., & Mirumachi, N. (2016). Fostering Tajik hydraulic development: Examining the role of soft power in the case of the Rogun Dam. *Water Alternatives*, *9*(2), 373–388. https://www.water-alternatives.org/index.php/alldoc/articles/321-a9-2-11/file

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022, 2-iyun). *Zamonaviy gidroelektr stansiyasi qurilishi boshlandi*. https://president.uz/oz/lists/view/5236

United Nations. (2023, March 24). *Historic UN conference marks watershed moment to tackle global water crisis and ensure water-secure future*.

https://www.un.org/en/desa/historic-un-conference-marks-watershed-moment-tackle-global-water-crisis-and-ensure-water

United Nations Environment Programme. (2025, September 2). *Tajikistan's melting glaciers put water resources under stress, UNEP Atlas reveals*. https://www.unep.org/en/news-and-stories/press-release/tajikistans-melting-glaciers-put-water-resources-under-stress-unep

United Nations General Assembly. (2016, December 21). *International Decade for Action, "Water for Sustainable Development", 2018–2028 (A/RES/71/222)*. https://docs.un.org/a/res/71/222

Usmanov, B. B. (2024). Formation and development of Uzbek-Tajik interstate relations. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, *6*(5), 142–145. https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume06Issue05-13

Usmonov, B. B. (2025). Institutional development of economic cooperation between the Republic of Uzbekistan and the Republic of Tajikistan: An integrative model of trade, transport, and investment relations. *International Journal of Artificial Intelligence*, *5*(12), 2393–2397. https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai/article/view/9312

World Bank. (2024, December 17). *World Bank supports Rogun Hydropower Project to improve access to affordable, reliable, and sustainable electricity in Tajikistan and Central Asia*. https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2024/12/17/world-bank-support-rogun-hydropower-project-to-improve-access-affordable-reliable-and-sustainable-electricity-tajikistan

World Bank. (2025). *Sustainable Financing for Rogun Hydropower Project: Restructuring paper* (Report No. RES01360; Project P181029). https://documents1.worldbank.org/curated/en/099122225112014398/pdf/P181029-5e461b9b-6591-4ca3-b54c-b3b7b3157d29.pdf

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARI PARALLEL KORPUSIDA MATNNI ME’YORLASHTIRISH VA MANBA SHAKLINI SAQLASH

M. A. Amirkulov
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, O‘zbekiston
amirkulov.edu01@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek–ingliz parallel korpusida matnni me’yorlashtirishning lingvistik chegaralari o‘rganiladi. Nashr qilingan tadqiqotlar, imlo qoidalari va raqamli matn standartlari qiyoslanadi. Unicode me’yorlashtirish, transliteratsiya va tahririy tuzatish alohida amallar sifatida farqlanadi. Manbaviy misollar asosida asl matn, qidiruv shakli va o‘zgarish qaydini bog‘lab saqlash tartibi taklif etiladi. Xulosalar nazariy-uslubiy tahlilga asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *parallel korpus, me’yorlashtirish, transliteratsiya, Unicode, manba shakli.*

Abstract. *This paper examines the linguistic boundaries of text normalization in an Uzbek–English parallel corpus. Published studies, orthographic rules and digital text standards are compared. Unicode normalization, transliteration and editorial correction are distinguished. Source-based examples support a proposal to link original text, searchable representations and change records. The conclusions are based on methodological analysis rather than corpus-wide experimentation.*

Keywords: *parallel corpus, normalization, transliteration, Unicode, source text.*

KIRISH

Parallel korpusdagi so‘zning yozilishi uni qidirish va sharhlashga ta’sir qiladi. Lotin hamda kirill yozuvidagi o‘zbek matnlarini bir bazada jamlashda qidiruvga qulay shakl zarur. Biroq hosila shakl nashrning aynan o‘zi deb qabul qilinsa, tadqiqotchi manba bilan korpus tuzuvchisining qarorini ajrata olmaydi.

Korpus yaratish bosqichlariga doir tadqiqotda yagona formatga keltirish va tozalash dastlabki ishlov tarkibida yoritilgan (Elov, Kurbanova, et al., 2026). Ekstralingvistik talablar haqidagi ishda manbaning davri, muhiti va sifati hisobga olinadi (Elov, Amirkulov, & Tulanova, 2026). UzEnParC tavsifida esa asl va me’yorlashtirilgan matn alohida saqlanadi (Elov & Amirkulov, 2027).

Mazkur maqolaning maqsadi shu yondashuv doirasida qidiruvga xizmat qiladigan o‘zgarish bilan tahririy aralashuvning chegarasini aniqlashdir.

ASOSIY QISM

Materiallar va usullar

Tadqiqotda o‘zbek–ingliz korpusi haqidagi to‘rtta ilmiy ish, asosiy imlo qoidalari, Unicode hujjatlari, TEI ko‘rsatmalari va W3Cning satrlarni qiyoslash tavsiyalari tahlil qilindi. Kuzatish birligi sifatida yozuvga kiritiladigan o‘zgarish olindi. Amallar vazifasi, dalili va asl shaklni tiklash imkoniyatiga ko‘ra qiyoslandi. So‘z misollari imlo qoidalaridan, transliteratsiya namunasi UzEnParC maqolasidan olindi. Ish nazariy-uslubiy xarakterga ega; yangi korpus tanlanmasida statistik baholash o‘tkazilmadi.

Natijalar

Tahlilda kodlash, belgi ketma-ketligini me’yorlashtirish va matnni tahrirlashning vazifalari farqlanadi. UTF-8 belgilarni baytlar orqali ifodalaydi; Unicode standartidagi NFC esa kanonik jihatdan teng ketma-ketliklarni izchil shaklga keltiradi (Whistler, 2025). NFC o‘zbekcha imloni tuzatmaydi. Apostrofga o‘xshash U+0027, U+2018, U+2019, U+02BB va U+02BC alohida kodlardir; NFC ularni o‘zaro bir belgiga aylantirmaydi (The Unicode Consortium, 2025; Whistler, 2025). Ularni qidiruvda muqobil deb tanish uchun alohida, tilga mos qoida kerak.

Imloviy tahrir esa manbadagi yozilishning adabiy me’yorga munosabatini baholaydi. Adabiy asardagi tarixiy yoki individual yozilish tadqiqot obyekti bo‘lishi mumkin. Uni zamonaviy shakl bilan almashtirish qidiruvni yengillashtirsa ham, muallif yoki nashr xususiyatini yashiradi. Korpusda bunday variantni saqlash qayd etilgan til dalilini o‘zgartirmay ko‘rsatishdir. Shu sababli kodlashni tuzatish, kirillni lotinga o‘girish va imloviy variantni yangilash bitta umumiy «tozalash» amali ichida yashirilmasligi lozim. Har biriga qo‘yiladigan dalil talabi uning matnga qanday ta’sir etishidan kelib chiqadi.

Belgi almashtirishda uning lingvistik vazifasi tekshiriladi. Imlo qoidalarining 17-bandida «Is’hoq» va «as’hob» misollarida s hamda h orasiga tutuq qo‘yilishi ko‘rsatilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, 1995). Belgini olib tashlash harflar birikmasini o‘qishga ta’sir etadi. Shu hujjatning 75-bandidagi «to‘q-son», «si-fatli», «sifat-li» ko‘chirish namunalarida ham chiziqcha vazifa bajaradi. Oddiy nashrda satr oxiridagi ko‘chirishni bartaraf etish mumkin, ammo imlo qoidasining o‘zida uni o‘chirish misolni buzadi. Demak, qaror belgining ko‘rinishigagina bog‘lanmaydi.

UzEnParCdagi «Матбаа хизмати буюртмачилар учун бепулдир.» jumlasi asl qatlamda, «Matbaa xizmati buyurtmachilar uchun bepuldir.» shakli me’yorlashtirilgan qatlamda berilgan (Elov & Amirkulov, 2027, p. 229). Bu namuna hosila matn bilan birga dastlabki yozuvni saqlashni ko‘rsatadi. Transliteratsiya natijasi mustaqil nashr sifatida qayd etilmasligi kerak. Unda qaysi yozuvdan va qanday qoida bilan o‘girilgani ko‘rsatiladi; belgilar o‘rni o‘zgarsa, asl matnga bog‘langan havolalar ham tekshiriladi.

TEI ko‘rsatmalarida asl variant *orig*, me’yorlashtirilgani *reg*, taxminiy xato *sic*, tuzatish esa *corr* orqali farqlanadi (TEI Consortium, 2026). Shu tamoyildan kelib chiqib, korpusda asl matn, qidiruv shakli va tahririy izohni bog‘lash taklif etiladi. O‘zgarish qaydiga oldingi va keyingi parcha, qoida, dalil hamda tekshiruv holati kiritiladi. OCR natijasi nashr tasviri bilan tekshiriladi; o‘qilishi noaniq qism taxminiy so‘z bilan yashirin to‘ldirilmaydi.

Asl qatlamni tekshirilmagan OCR natijasi bilan tenglashtirish to‘g‘ri emas. Nashr tasviri, avtomatik o‘qilgan matn va tekshirilgan transkripsiya bir-biridan ajratiladi. Korpusga qaysi biri tayanch nusxa qilib olingani ko‘rsatiladi. Tekshiruv uchun dalil yetishmasa, noaniqlik saqlanadi. Shunda matnni o‘qishdagi gumon muallifning yozilish xususiyatiga aylantirib yuborilmaydi. Xuddi shuningdek, matnning manzili o‘zgarmagan bo‘lsa ham, nashrdagi keyingi tahrir avval yuklangan nusxadan farq qilishi mumkin. Qaysi nusxa asos bo‘lgani qayd etilishi tahlilni qayta tekshirish uchun zarur.

Muhokama

Yozuv izchilligi bitext sifatini baholash belgilaridan biridir (Elov, Toirova, et al., 2026). Biroq noodatiy shaklning mavjudligi uni almashtirishga yetarli dalil emas. Qidiruv uchun variantlarni birlashtirish ularning dastlabki farqini hosila shaklning o‘zidan tiklashni qiyinlashtiradi. Shuning uchun asl yozuv va qoida versiyasi saqlanishi lozim. W3C hujjatida ham me’yorlashtirish bilan qo‘llanishga xos qiyoslash amallari farqlanadi (Phillips, 2019).

Qidiruvda bir necha yozuv varianti birlashtirilganda natijalar soni o‘zgarishi mumkin. Bu o‘z-o‘zidan qidiruv yaxshilanganini bildirmaydi. Kerakli variantlar topilishi bilan birga turli birliklar asossiz qo‘shilmaganini ham tekshirish lozim. Aniq iqtibos uchun nashr shakli, kengroq qidiruv uchun esa izchil hosila shakl kerak. Foydalanuvchiga natija qaysi tartibda olingani ko‘rsatilishi shu farqni anglashga yordam beradi. Me’yorlashtirish qoidasi yangilanganda hosila qatlam qayta yaratiladi, asl nusxa esa keyingi tekshiruvning tayanchi bo‘lib qoladi.

Ikki tildagi ishlov tarixi alohida yuritilishi zarur. O‘zbekcha matnning lotinga o‘girilishi inglizcha matn ham tahrirlanganini anglatmaydi. Inglizcha

OCR xatosining dalili inglizcha nashrdan izlanadi. Taklif etilgan tartib qarorlarni tekshirishga imkon beradi, ammo uning qidiruv aniqligiga ta’siri bu ishda o‘lchanmagan. Keyingi baholashda belgi almashuvi, transliteratsiya va tahririy tuzatish natijalari alohida tekshirilishi kerak.

XULOSA

Parallel korpusda me’yorlashtirishning ishonchliligi asl matnga qaytish imkoniyati bilan bog‘liq. Kodlash, yozuvni o‘girish va tahrir alohida qayd etilganda, korpus tuzuvchisining aralashuvi ko‘rinadi. Tutuq va ko‘chirish misollari avtomatik almashtirish kontekstga tayanishi zarurligini ko‘rsatdi. Asl matnni saqlash, qidiruv shaklini undan hosil qilish va o‘zgarishni dalili bilan qayd etish nashrdagi til dalilini texnik ishlovdan farqlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Elov, B., & Amirkulov, M. (2027). UzEnParC 1.0: A cross-script, metadata-rich Uzbek-English parallel corpus for low-resource NLP. In A. Karpov & B. Gerazov (Eds.), *Speech and computer: SPECOM 2026* (pp. 225–238). Springer. https://doi.org/10.1007/978-3-032-37870-5_16

Elov, B. B., Amirkulov, M. A., & Tulanova, N. M. (2026). Extralinguistic requirements for the Uzbek-English parallel corpus. In *2026 5th International Informatics and Software Engineering Conference (IISEC)* (pp. 250–255). IEEE. https://doi.org/10.1109/IISEC69317.2026.11418459

Elov, B. B., Kurbanova, M. M., Yusupova, T. A., Amirkulov, M. A., Barnoyeva, Z. S., & Shodmonova, M. B. (2026). Developing and processing the Uzbek-English parallel corpus: Approaches and computational tools. In *2026 5th International Informatics and Software Engineering Conference (IISEC)* (pp. 204–208). IEEE. https://doi.org/10.1109/IISEC69317.2026.11418506

Elov, B. B., Toirova, G. I., Fayziyev, Z. X., Amirkulov, M. A., & Sultonova, I. Sh. (2026). Data-centric bitext cleaning for Uzbek-English: Hybrid quality estimation and noise filtering for low-resource parallel corpora. In *2026 International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK)* (pp. 1507–1512). IEEE.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (1995, August 24). *O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida* (339-son qaror). https://lex.uz/docs/1625271

Phillips, A. (Ed.). (2019, February 4). *Character model for the World Wide Web: String matching* (W3C Working Group Note). World Wide Web Consortium. https://www.w3.org/TR/2019/NOTE-charmod-norm-20190204/

TEI Consortium. (2026, July 28). *TEI P5: Guidelines for electronic text encoding and interchange* (Version 4.12.0, Section 3.5). https://www.tei-c.org/Vault/P5/4.12.0/doc/tei-p5-doc/en/html/CO.html

The Unicode Consortium. (2025). *Unicode character database* (Version 17.0.0) [Data set]. https://www.unicode.org/Public/17.0.0/ucd/UnicodeData.txt

Whistler, K. (Ed.). (2025, July 30). *Unicode normalization forms* (Unicode Standard Annex No. 15, Revision 57, Unicode 17.0.0). The Unicode Consortium. https://www.unicode.org/reports/tr15/tr15-57.html

ЭМОЦИОНАЛЬНО-КОНЦЕПТУАЛЬНОЕ ПРОЕКТИРОВАНИЕ В ОБУЧЕНИИ ДИЗАЙНУ ОДЕЖДЫ: АНАЛИЗ ДИПЛОМНЫХ КОЛЛЕКЦИЙ

Умарова Зухра Сагдуллаевна
Национальный институт художеств и дизайна имени Камолиддина Бехзода, кафедра «Дизайн одежды», Ташкент, Узбекистан
zuxra.umarova87@mail.ru

Аннотация. *В статье рассмотрен потенциал эмоционально-концептуального проектирования в обучении дизайну одежды на примере двух выпускных коллекций. Посредством качественного сравнительного анализа выявлены особенности творческих источников, визуальных образов, текстильных экспериментов и этапов проектирования. Предложены последовательность учебной проектной работы и критерии оценивания ее промежуточных результатов. Выводы имеют методический характер и требуют дальнейшей эмпирической проверки.*

Ключевые слова: *дизайн одежды, дизайн-образование, эмоциональное проектирование, концепция коллекции, дипломный проект, рефлексия.*

Abstract. *The article examines emotional and conceptual approaches to fashion design education through two graduation collections. A qualitative comparative analysis identifies differences in creative sources, visual imagery, textile experimentation, and design stages. The paper proposes a sequence of educational design activities and criteria for assessing intermediate outcomes. The conclusions are methodological and require further empirical validation.*

Keywords: *fashion design, design education, emotional design, collection concept, graduation project, reflection.*

ВВЕДЕНИЕ

Подготовка будущего дизайнера одежды предполагает не только освоение формообразования, конструирования и технологии изготовления изделий, но и способность переводить культурные, литературные и психологические идеи в язык костюма. В этом контексте важна обоснованная связь между источником вдохновения, концепцией, цветом, силуэтом, материалом и итоговой презентацией коллекции.

Цель исследования — определить методические возможности эмоционально-концептуального проектирования посредством сопоставления двух выпускных квалификационных работ кафедры «Дизайн одежды» Национального института художеств и дизайна имени Камолиддина Бехзода. Вопрос исследования состоит в том, какие проектные действия и результаты можно рассматривать как показатели осмысленного воплощения авторской идеи.

Теоретическую основу составляют концепция опытного обучения Д. Колба (Kolb, 1984), подход к рефлексии в профессиональном действии Д. Шёна (Schön, 1983) и принципы дизайн-мышления Т. Брауна (Brown, 2009). Ранее автором анализировались коллекции выпускников и интеграция практик модной индустрии в дизайн-образование (Umarova, 2026). Настоящая работа сосредоточена на образовательной ценности самого процесса проектирования.

Материалы и методы

Применен описательно-сравнительный качественный анализ двух дипломных проектов. Сопоставление проведено по пяти критериям: (1) творческий источник и концепция; (2) эмоционально-смысловое содержание; (3) цвет, силуэт и композиция; (4) материалы и технологические эксперименты; (5) этапы проектирования и визуальная презентация. Материалом послужили описания проектов и визуальные материалы коллекций. Отсутствие сопоставимых количественных данных исключает статистическую оценку эффективности предложенного подхода.

Результаты и обсуждение

Первая работа М. Юлдашевой — «Разработка дизайн-проекта моделей коллекции в ахроматических цветовых сочетаниях» — раскрывает темы внутренних страхов, замкнутости и социальной изоляции. В качестве литературного импульса использован рассказ А. П. Чехова «Человек в футляре», а пластической метафорой стала полупрозрачная органическая структура медузы. Соединение литературного, биологического и психологического источников формирует многослойный концептуальный образ.

Белые, черные и серые тона подчеркивают тревожность и дистанцию между человеком и окружающей средой. Объемные накидки, асимметрия, полупрозрачные слои и вытянутые струящиеся детали трактуются как условная защитная оболочка. Техника тай-дай, сетчатые и пластичные ткани служат не только декором, но и средствами

материализации исходной идеи. Проект включает исследование источника, мудборд, эскизы, текстильные пробы, конструирование, изготовление изделий и фотосессию.



Рисунок 1. Ахроматическая коллекция М. Юлдашевой (материалы дипломного проекта).

Второй проект А. Шараповой — «Разработка дизайн-проекта коллекции одежды в стиле арт-хаус» (руководитель — Р. Ш. Гайсина) — обращен к формированию личностной идентичности, влиянию социального окружения, опыту и ценностям. По описанию проекта, автор использовала опрос молодых людей для поиска концепции; численность опрошенных и количественные результаты не представлены, поэтому эти сведения характеризуют исследовательский этап, а не репрезентативную выборку.

Художественный язык второй коллекции строится на измененных пропорциях, авангардных объемах, асимметрии, многослойности и фактурных экспериментах. Рельефные текстильные элементы выступают символами воспоминаний, мыслей и переживаний. Рабочая последовательность включает исследование социальной темы, разработку концепции, мудборд, поиск материалов и форм, эскизирование, конструирование, изготовление и фотопрезентацию.



Рисунок 2. Коллекция в стиле арт-хаус А. Шараповой (материалы дипломного проекта).

Сопоставление показывает общую логику проектирования: постановка проблемы — исследование источника — концептуализация — эксперимент с материалом и конструкцией — изготовление — презентация. При этом визуальные средства различаются. В первом кейсе центральными становятся мотивы укрытия, прозрачности и органической пластики; во втором — многослойная фактура и психологическая символика. Обе коллекции демонстрируют осмысленное преобразование источника в проектное решение, но сами по себе не доказывают повышения компетенций всех обучающихся.

В образовательной практике предлагается фиксировать результаты пяти этапов: исследование, концептуализация, художественно-технологический эксперимент, реализация и презентация с рефлексией. Для оценивания целесообразно применять критерии обоснованности источника, целостности образа, документирования экспериментов, согласованности конструкции с концепцией и ясности презентации. Портфолио этапов позволяет обсуждать не только качество готового изделия, но и аргументацию творческих решений.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Два рассмотренных проекта выявляют потенциал эмоционально-концептуального проектирования для интеграции исследовательской, художественной и технологической подготовки будущих дизайнеров одежды. Применение проектных критериев и поэтапной рефлексии может стать основой методического сопровождения студенческих коллекций. Для проверки влияния подхода на учебные результаты необходимы дальнейшее исследование с единой оценочной рубрикой и независимая экспертная оценка.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1.Brown, T. (2009). Change by design: How design thinking transforms organizations and inspires innovation. HarperBusiness.

2.Kolb, D. A. (1984). Experiential learning: Experience as the source of learning and development. Prentice Hall.

3.Schön, D. A. (1983). The reflective practitioner: How professionals think in action. Basic Books.

4.Umarova, Z. S. (2026). The specific characteristics of improving the education of design disciplines. The European Journal of Arts, (1), 3–7. https://doi.org/10.29013/EJA-26-1-3-7

АРАБСКИЙ МИР В НАЧАЛЕ XXI ВЕКА

Гиёсов Бобур Темурович.
Кандидат историческихнаук, доцент.
Университет Альфраганус.Ташкент. Узбекистан,
Giyosov Babur Temurovich.
Doktor of Philosofy, Associate Professor.Alfraganus University.Tashkent,Uzbekistan.

Аннотация:*В данной научной статье проанализированы наиболее важные аспекты развития развитых, средне развитых и наиболее развитых арабских стран. Следовательно, арабские страны Персидского залива в сущности являются наиболее развитыми странами с учетом дохода на душу граждан. Наличие нефти, мудрая экономическая дипломатия, модернизация, автоматизация, цифровизация стремительное развитие туристической индустрии, впрочем, эффективные комплексные реформы, проводимые реальных секторах экономики – все это далеко не полный перечень достижений ОАЭ, Кувейта, Катара, Омана и Саудовской Аравии. В частности, как среднеразвитая арабская страна рассмотрен современный Египет и приоритетными направлениями национальной экономики. Что касается, наименее развитых арабских стран нами рассмотрены и проанализированы трудности и проблемы развития Судана, Чада, Мавритании, Йемена, Палестины.*

Abstraction: *This scientific article analyzes the most important aspects of development in developed, moderately developed, and least developed Arab countries. Thus, the Arab countries of the Persian Gulf are essentially among the most developed countries in terms of per capita income. The availability of oil, wise economic diplomacy, modernization, automation, digitalization, the rapid development of the tourism industry, as well as effective comprehensive reforms implemented in real sectors of the economy — all these represent only part of the achievements of the United Arab Emirates, Kuwait, Qatar, Oman, and Saudi Arabia. In particular, modern Egypt is examined as a moderately developed Arab country, with special attention given to the priority areas of its national economy. As for the least developed Arab countries, the article examines and analyzes the difficulties and challenges facing the development of Sudan, Chad, Mauritania, Yemen, and Palestine.*

Опорные слова и фразы:*Арабские страны, дипломатия, бизнес, экономика, проблемы, трудности, модернизация, цифровизация, туризм, инвестиции, инфраструктуры, сектор экономики, нефть, коррупция, доход, государство, страна, премии, инновационные проекты и стабильность.*

Keywords and phrases: *Arab countries, diplomacy, business, economy, problems, challenges, modernization, digitalization, tourism, investment, infrastructure, economic sector, oil, corruption, income, state, country, awards, innovative projects, stability.*

ВВЕДЕНИЕ

Общеизвестно, что арабские страны играют важную роль в мировой политике, экономике, культуре и науке в целом. Следовательно, эти страны развиваются неравномерно ввиде объективных и субъективных причин. Энергетическая дипломатия, современная туристическая индустрия, создание свободных экономических зон, привлечение прямых инвестиций в конкретные перспективные проекты стран Персидского залива являются жизненно важным фактором комплексного развития. Тем самым, среднеразвитые арабские страны тоже прилагают всевозможные усилия в осуществлении последовательных реформ. В статье проанализированы приоритетные направления национальной экономики на примере Египта, где показаны конкретные социально-экономические достижения. В научной статье также изложены проблемы и трудности таких стран, как Судан, Мавритания, Чад, Палестина, Ирак, Ливия, Йемен и другие. В сущности, вышеуказанные страны являются важной частью мировой цивилизации человечества.

АНАЛИЗ ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ ПО ТЕМЕ

II şaxs sen har doim ham dialogik belgi sifatida namoyon bölmaydi. Umumun, *sen* olmoşi qatnaşgan jumla mazmuni real voqelikka emas, balki hali amalga oşmagan, ammo oşirilişi nazarda tutilgan, ya'ni irreal mazmunga ega jumlalarda dialogizatsiya deyarli kuzatilmaydi, çunki bunday jumlalarning predikati mazmunida undaş yöq, ularning mazmunida biror bir faoliyatni bajarişga heç qanday işora bölmaydi. Ammo bunday jumlalarda ham *sen* olmoşining deyktik mundarijasi keng qamrovliça qoladi, uning informativlik, poetik axborot uzatişdagi imkoniyatiga putur yetmaydi.

Quyidagi holatlarda dialogizatsiya kuçsizlanadi yoki mutlaqo kuzatilmaydi:

1. Agar jumla predikari şart mayli şaklida bölsa. Fe'l şart mayli şaklida adresatni biror bir iş-harakat yoki faoliyatga undaş ma'nosi kuçsizlanadi yoki mutlaqo kuzatilmaydi:

Ey könԓül, barsang ul ay nazzārasiğa zinhār
Aşk birlä közläriԓdin ğayrïnïԓ naqşïn yuv xob (ĞS 48)

2. Agar jumla predikari kelasi zamon istak şaklida bölsa:

a) *koşki* modal sözi yordamida şakllangan qurilmalarda istak ma'nosi bölganligi uçun adresatni biror bir iş-harakat yoki faoliyatga undaş ma'nosi kuçsizlanadi yoki deyarli kuzatilmaydi:

Tufroğïmdïn kāşki jisme murattab qïlsaԓïz,
Bir ït ölsä köyidä ruhiğa qālab qïlsaԓïz (ĞS 214)
Ālam ahlidin ägär yoqtur jigargun sāğare,
Kāşki yüz mïԓ qadah xuni jigar ham bolmasa (ĞS 27)

b) kelasi zamon istak mayli *–gay/-ğay//-kay/-qay* şakllari ma'nosida ham dialogizatsiya mavjud emas. Bunday jumlalar tarkibida köpinça irreallikni kuçaytiruvçi yordamçi sözlar iştirok etadi va adresatni biror bir iş-harakat yoki faoliyatga undaş ma'nosi sönadi.

Hajr otïğa istäsäԓ yaqïlmağay-sen, ey könԓül,
Yārdïn zinhār kim, ayrïlmağay-sen, ey könԓül (ĞS 368)
Degäy-sen bahr davrida qamïşlïğ içrä ot tuşmïş,
Közüm girdïda qan yaş kim, yügürür xāri mujgānda (ĞS 529)

She'riy dialogizatsiyani ta'minlashda asos va ko'makchi morfemalarning o'rni katta[60].

XULOSA

Dialogizatsiya dialogiya belgilari – til elementlaridan taşkil topadi. Alişer Navoiy ğazallarida dialogiya belgilari leksik va grammatik şakllarda uçraydi.

Dialogizatsiyani ta'minlovçi til elementlari lirik asarlarni tuşunişni, ularning mazmun-mohiyatini töğri anglaşga yordam beradi. Bunday lirik jumlalar köproq informativ yuk taşişga xizmat qiladi.

Ikkinçi şaxs *sen* deyktik birligi dialogiyani ifodalaşi jumla ptedikatidagi predikativlik şakllarining mazmuni bilan boğliq.

Oğzaki muloqotdan farqli holda lirik asarlarda adresantlar aniq bölmaydi, köpinça ehtimoliy adresatlar nazarda tutiladi. Undalmalarning ham murojaat obyektligi şatrlidir.

[60] 1. Jumayeva S. Ikrom Otamurod dostonlarida falsafiy mushohadalar tahlili. SCIENCE and SOCIETY, 2022. 2. Жумаева С. Алишер Навоийнинг "Муҳокаматул-луғатайн" асарида сўзларнинг маъновий муносабатларга кўра талқин этилиши. "Амир Темур жаҳон

Şe'riyatdagi ritorik ta'sir usuli şe'riy uslub va ijod texnologiyasi imkoniyatlarini oşirişga xizmat qiladi.

Ikkinçi şaxs buruq şaklidan farqli holda ikkinçi şaxs şart mayli hamda kelasi zamon istak ma'nosini ifodalovçi *–gay/-ğay//-kay/-qay* şakllari ma'nosida dialogizatsiya kuzatilmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bres, J., Nowakowska, A., & Sarale, J.-M. Petite grammaire alphabétique du dialogisme. Paris: Classiques Garnier. 2019

2. Jumayeva S. Ikrom Otamurod dostonlarida falsafiy mushohadalar tahlili. SCIENCE and SOCIETY, 2022.

3. Monte, M. Dispositifs énonciatifs et argumentation en poésie. Humanidades & Inovação. 2022, 9(4), 277–297.

4. Nurmonov A. va b. Özbek tilining mazmuniy sintaksisi. –Toşkent: Fan, 1992. – 104 b.

5. Quronov D. va b. Adabiyotşunoslik luğati. - Toşkent, akademnaşr. 2010, -B. 264-265

6. Semino, E. Language and World Creation in Poems and Other Texts. London: Longman. 1997.

7. Umarova N. Alişer Navoiy ğazallari maqtasida sabab va oqibat munosabatining ifodalanişi. Filol.fan.nomz...disser. –Farğona, 2005. 100-b.

8. Verdonk, P. The Stylistics of Poetry: Context, Cognition, Discourse, History. London: Bloomsbury Academic. 2013.

9. Бахтин, М.М. Автор и герой в эстетической деятельности [Текст] / М.М. Бахтин//Эстетика словесного творчества /М.М. Бахтин; соц. С.Г. Бочаров. – М.: Исскуство, 1986. - С. 7-180.

10. Бубер, М. Диалог [Текст] / М. Бубуер//Два образа веры / Мартин Бубуер; пер. М.И. Левиний. – М.: Республика, 1995. – 464 с.

11. Жумаева С. Алишер Навоийнинг "Муҳокаматул-луғатайн" асарида сўзларнинг маъновий муносабатларга кўра талқин этилиши. "Амир Темур жаҳон пештоқидаги буюк шахс" халқаро конференция материаллари. 2017. – Б. 157-159.

12.Ковтунова И.И. Поэтик синтаксис. –М.: Наука. 1986. 128 с.

ПОЭТИКА СЕНСОРНОЙ ПАМЯТИ И НЕВЕРБАЛИЗОВАННЫЕ СМЫСЛЫ В МАЛОЙ ПРОЗЕ И. А. БУНИНА

доц.Эгамова Мастура Хакимджоновна
магистрант 2-курса Юлдашева Амина Олтиновна
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti
egamovamastura1980@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqola I. A. Buninning «Tyornyie allei» («Qora xiyobonlar») hikoyalar turkumidagi sinestetik poetika va xotiraning fenomenologik mexanizmlarini tadqiq etishga bag'ishlangan. «Tyornyie allei», «Rusya», «Tanya», «Kavkaz» va «V Parizhe» novellalari materiallari asosida ko'p modal sensor idrokning (olfaktor, vizual-yorug'lik, akustik va taktil detallar) verballashmagan tagmatnni shakllantirishdagi o'rni ko'rib chiqiladi. Qahramonlarning ruhiy-emotsional holatlari (taqdir, vijdon, fojiaviylik va ekstatik yorug'lik tuyg'ulari) to'g'ridan-to'g'ri avtorologik refleksiya yoki ichki monolog orqali emas, balki individual hissiy tajribaning verbaldan oldingi qatlami orqali yetkazilishi isbotlanadi. Sinestetik detal-simvol muallif ijodining emizgratsiya davrida fazoviy-vaqtli tafovutlarni va inson mavjudotining fojiaviyligini yengib o'tish vositasi sifatida funksiya bajarishi aniqlangan.*

Kalit so'zlar:*I. A. Bunin, «Tyornyie allei», sinestetik poetika, xotira fenomenologiyasi, olfaktor kod, verballashmagan tagmatn, ekzistensial xronotop, psikologizm, impressionizm.*

Аннотация: *Статья посвящена исследованию синестетической поэтики и феноменологических механизмов памяти в цикле рассказов И. А. Бунина «Тёмные аллеи». На материале новелл «Тёмные аллеи», «Руся», «Таня», «Кавказ», «В Париже» и «Чистый понедельник» рассматривается роль многомодального сенсорного восприятия (ольфакторных, визуально-световых, акустических и тактильных деталей) в формировании невербализованного подтекста. Доказывается, что эмоционально-духовные состояния героев (переживание рока, совести, трагизма и экстатического озарения) передаются не через прямую авторологическую рефлексию или внутренний монолог, а через довербальный слой индивидуального чувственного опыта. Устанавливается, что синестетический деталь-*

символ функционирует как инструмент преодоления пространственно-временного разрыва и преодоления трагизма человеческого существования в эмигрантский период творчества писателя.

Ключевые слова: *И. А. Бунин, «Тёмные аллеи», синестетическая поэтика, феноменология памяти, ольфакторный код, невербализованный подтекст, экзистенциальный хронотоп, психологизм, импрессионизм.*

Abstract: *This article is dedicated to the study of sinesthetic poetics and the phenomenological mechanisms of memory in I. A. Bunin's cycle of short stories Dark Avenues. Based on the material of the novellas Dark Avenues, Rusya, Tanya, The Caucasus, and In Paris, the paper examines the role of multi-modal sensory perception (olfactory, visual-luminous, acoustic, and tactile details) in shaping the unverbalized subtext. It is proven that the emotional and spiritual states of the characters (the perception of fate, conscience, tragedy, and ecstatic illumination) are conveyed not through direct authorial reflection or internal monologue, but through the pre-verbal layer of individual sensory experience. The study establishes that the sinesthetic detail-symbol functions as an instrument for overcoming spatial-temporal gaps and the tragedy of human existence during the author's emigration period.*

Keywords:*I. A. Bunin, Dark Avenues, sinesthetic poetics, phenomenology of memory, olfactory code, unverbalized subtext, existential chronotope, psychologism, impressionism.*

Творческое наследие Ивана Алексеевича Бунина периода эмиграции представляет собой вершину развития русской новеллистики XX века. Книга рассказов «Тёмные аллеи» (1938–1953), создававшаяся автором на протяжении многих лет, традиционно привлекает внимание исследователей глубиной психологического анализа и неповторимой пластичностью словесного изображения. Однако в современном литературоведении возрастает необходимость переосмысления бунинской прозы сквозь призму феноменологии восприятия и теории сенсорных исследований (sensory studies).

Актуальность настоящего исследования обусловлена поиском новых методологических подходов к анализу позднего психологизма И. А. Бунина, в котором ключевую роль играет довербальный, чувственный опыт человека. Если классический психологизм XIX столетия (в частности, толстовская «диалектика души») опирался на развернутую рефлексию, причинно-следственные связи и словесную фиксацию внутренних состояний, то Бунин совершает поворот к феноменологической репрезентации переживаний.

Исследование специфики художественного мира Бунина требует обращения к феноменологической концепции восприятия. Человеческое сознание в прозе писателя интенционально: внешний мир раскрывается не сам по себе, а через мгновенную данность чувственных впечатлений. Как замечает О. В. Сливицкая, главное измерение бунинского творчества — это «человек в его отношении к бытию», где физический рецептор превращается в орган философского познания [Сливицкая:2002].

В цикле «Тёмные аллеи» воспоминания не выступают простым результатом логического воспроизведения прошлого. Память у Бунина обладает выраженной сенсорной природой. Мгновенный импульс — запах, вспышка света, касание или далекий звук — мгновенно пробивает толщу времени, возвращая субъекту целостность его бытийного переживания. Этот механизм близок к понятию «непроизвольной памяти», обоснованному М. Прустом [Пруст:1999], однако у Бунина он лишен длительного интеллектуального рассуждения и носит характер экстатического озарения.

Смыслообразование в малой прозе Бунина строится на взаимодействии таких ключевых каналов рецепции как о*льфакторного* (запах как наиболее глубокий проводник эмоциональной памяти), *визуально-светового* (градации освещения как маркеры экзистенциального сдвига), *акустического* (пауза, тишина и природные шумы как эквиваленты переживания), *тактильного* (физический контакт как знак слияния или роковой трагедии).

Ольфакторные детали в художественной системе Бунина обладают повышенной семантической плотностью. В отличие от зрения или слуха, запах требует непосредственного эмоционального погружения. В заглавном рассказе цикла «Тёмные аллеи» (1938) встреча Николая Алексеевича и Надежды спустя тридцать лет строится на контрасте пошлого настоящего и идеализированного прошлого. Прошлое актуализируется через ольфакторный знак: «Помнишь, как шиповник цвёл, как пахло им.…» [Бунин:2006]. Запах цветущего шиповника выступает у Бунина не фоновой деталью пейзажа, а смыслообразующим медиатором. Он воссоздает утраченный хронотоп молодости и нереализованного счастья, вступая в оппозицию с бытовым запахом «заварного чая, сажей и свежего мыла» постоялого двора.

Визуальная колористика и светотеневая драматургия также играют роль смыслового эквивалента внутренних кризисов. В новелле «Кавказ»

(1937) визуальный ряд организован на контрасте двух пространственных миров:

- *Дождливая, туманная Москва:* серая гамма, отражающая атмосферу лжи, тайны и социального страха перед мужем героини;
- *Пылающий Кавказ:* избыточный цвет, «заснеженные вершины», «синие морские дали», символизирующие абсолютную полноту страсти.

Однако за внешней живописностью кавказского пейзажа скрывается трагический подтекст. Избыток света и «фосфорическое свечение моря» исподволь подготавливают читателя к роковой развязке — самоубийству мужа. Визуальная деталь преобразуется в знак неизбежного рока [Мальцев:1994].

В новелле «Чистый понедельник» (1944) световая гамма становится инструментом философского и духовного разграничения. Смена ярких огней ресторанов и полумрака древних соборов передает внутренний переход героини от мирской жизни к монашескому отречению. Тёмный бархат её платья и слабый свет свечи в монастырской темноте фиксируют невербализованный момент прощания с земной любовью.

Акустический слой прозы Бунина представляет собой сложную систему, включенную в динамику психоэмоционального состояния героев. Разговорная речь персонажей часто оказывается вторичной: слова не способны передать предельные состояния (эрос, страх, вину, совесть). В этих условиях ведущую роль начинают играть природные и техногенные шумы, а также семантика тишины.

В рассказе «Руся» (1940) завязка памяти происходит благодаря акустическому и ольфакторному импульсу. Проезжая на поезде мимо знакомых мест, герой погружается в воспоминания под «ровный, глухой шум ночного дождя» и «запах сухих кувшинок» [Бунин:2006]. Акустическая деталь — «крик выпи на болоте» — становится символом несбывшейся любви, запечатленным в пространстве памяти.

В новелле «В Париже» (1940) синестетическая поэтика раскрывается через сочетание тактильных и визуальных ощущений, контрастирующих с урбанистическим фоном:

[Серый парижский туман / Запах бензина] ⟶ Экзистенциальное одиночество эмиграции



[Тепло снятой перчатки / Мягкое касание] ⟶ Краткая вспышка человеческого тепла

↓

[Тёмный вагон метро / Внезапная тишина] ⟶ Мгновенный переход к инобытию (смерти)

Бунин воздерживается от авторского комментария по поводу трагической гибели героя. Переход от тепла человеческой руки к холоду и темноте подземки передает экзистенциальную катастрофу без привлечения аналитических понятий.

В «Тёмных аллеях» происходит синтез чувственных модусов. Синестетическая деталь объединяет ольфакторные, визуальные и звуковые impressions в единый комплекс, выражающий невербализуемую сущность бытия [Пращерук:2001].

Анализ синестетической поэтики и феноменологии памяти в цикле И. А. Бунина «Тёмные аллеи» позволяет сформулировать следующие *выводы*:

Психологизм поздней прозы Бунина носит феноменологический характер: эмоционально-духовная жизнь персонажей передается через довербальный слой рецептивных ощущений (запах, свет, звук, тактильность), а не через аналитический внутренний монолог.

Сенсорная деталь выступает ключевым медиатором памяти. Ольфакторные и визуальные маркеры позволяют героям преодолевать пространственно-временную дискретность, восстанавливая целостность прошлого опыта и выходя в категорию бытийной вечности.

Синестетический комплекс в «Тёмных аллеях» является универсальным способом конструирования невербализованного подтекста. Через синтез ощущений Бунин воссоздает драматизм человеческого существования, трагизм рока и торжество любви перед лицом времени и смерти.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. *Бунин И. А.* Собрание сочинений: В 9 т. — М.: Художественная литература, 2006. — Т. 7: Тёмные аллеи; Рассказы 1931–1952. — 480 с.

2. *Лотман Ю. М.* О поэтах и поэзии: Анализ поэтического текста. — СПб.: Искусство-СПБ, 2002. — 848 с.

3. *Мальцев Ю. В.* Иван Бунин. — Франкфурт-на-Майне — Москва: Посев, 1994. — 432 с.

4. *Пращерук Н. В.* Художественный мир прозы И. А. Бунина: язык бытия. — Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2001. — 280 с.

5. *Пруст М.* В поисках утраченного времени: По направлению к Свану / Пер. с фр. Н. М. Любимова. — М.: Амфора, 1999. — 540 с.

6. *Сливицкая О. В.* «Повышенное чувство жизни»: О прозе Ивана Бунина. — СПб.: Пушкинский дом, 2002. — 276 с.

AMIR TIMUR – THE GREAT COMMANDER

R.R Madumarov
Military security and defense university

Annotation. *This paper is devoted to the life, military achievements, political activity, and historical legacy of Amir Temur, one of the most outstanding commanders and statesmen of the medieval period. Amir Timur, known in European sources as Tamerlane, was born in 1336 near Kesh, in the territory of modern Uzbekistan. Through his exceptional military abilities, strategic thinking, political skills, and strong leadership, he created a powerful empire in Central Asia and became one of the most influential rulers of his time.*

Keywords: *Tamerlane, great commander, military strategy, Timurid Empire, Central Asia, medieval history, statesman.*

INTRODUCTION

Amir Timur is one of the most famous historical personalities of Central Asia. He occupies an important place in the history of Uzbekistan and in the history of the medieval world. He was a great military commander, statesman, strategist, and founder of a powerful empire. His activities influenced the political development of Central Asia, Iran, Afganistan, India, the Caucasus, and Anatolia.

Amir Timur was born in 1336 in the region of Kesh, near present day Shahrisabz. He belonged to the Barlas tribe. The political situation in Central Asia during his youth was complicated. Different rulers and tribal leaders competed for power, and the territories of the former Chagatai Ulus were divided among several political forces.

In these difficult circumstances, Timur demonstrated remarkable political and military abilities. Step by step, he strengthened his position and gained the support of important tribal leaders. In 1370, he became the dominant ruler of Transoxiana and established Samarkand as the center of his state. The main purpose of this paper is to study Amir Temur as a great commander and to examine the factors that contributed to his military success. The paper also discusses his state building activities, cultural policy, and historical legacy.

The relevance of this topic is connected with the fact thet Amir Temur's personality continues to attract the attention of historians and researches. His military campaigns are studied as examples of medieval strategy, while the

Timurid period is remembered for important achievements in architecture, science, literature, and culture.

MAIN PART

1. Amir Temur's Rice to Power

The rise of Amir Temur took place during a period of political instability in Central Asia. The territories of the Chagatai Ulus were divided between different political groups. Local rulers frequently fought against one another, and political alliances changed rapidly.

Timur understood that military power alone was not enough to establish a stable state. He used diplomacy, alliances, negotiations, and political marriages to strengthen his position. At the same time, he gradually created a disciplined and loyal military force.

By 1370, Timur had become the most powerful ruler in Transoxiana. He chose Samarkand as the capital of his state. The city had an important geographical position and was located near major trade routes connecting different regions of Asia. From Samarkand, Timur began to expand his political influence. His objective was to unite large territories under his authority and establish a powerful centralized state. His rise demonstrates an important characteristic of his leadership: he combined military strength with political intelligence. He was able to understand the political situation and use it to his advantage.

2. Amir Timur as a Great Military Commander.

Amir Temur's reputation as a great commander was based on several important qualities. He was an excellent strategist and understood the importance of preparation, intelligence, mobility, discipline, and organization. One of the strongest elements of his army was cavalry. Fast moving cavalry units allowed Timur's army to cover long distances and conduct sudden attacks. His soldiers could rapidly change their positions and adapt to different battlefield conditions. Timur also paid great attention to military intelligence. Before beginning a campaign, information about enemy forces, geographical conditions, roads, rivers, fotifications, and sources of food and water was extremely important. Scouts and military commanders collected information that helped Timur make strategic decisions.

Another importand characteristic was discipline. His army was organized into different units with commanders responsible for their soldiers. This organization allowed Timur to control large forces during complicated military operations. Timur also understood psychological warfare. His reputation as a successful commander influenced the decisions of his enemies. Some rulers

preferred negotiations or alliances because they knew about the strengthof his army. His ability to combine different military methods made him a highly successful commander.

3. Major Military Campaigns

During his long reign, Amir Temur conducted numerous military campaigns. His armies operated across vast territories and faced many different opponents.

Campaigns in Central Asia Timur first concentrated on strengthening his position in Central Asia. He fought against rival political forces and expanded his authority over important territories. Khwarazm was particularly important because of its strategic and economic position. Timur conducted several campaigns in the region and eventually established his control over it.

Campaigns in Iran and Afganistan Timur expanded his influence toward Iran and Afganistan. These territories were politically divided, which made it possible for Timur to extend his authority. His campaigns demonstrated the ability of his army to operate far from its main base. The long distances required careful planning, supplies, and communication.

Conflict with Tokhtamysh One of the most important conflicts in Timur's career was his struggle with Tokhtamysh, the ruler of the Golden Horde. At first, Timur supported Tokhtamysh, butlater they became rivals. Their conflict resulted in major battles, and Timur eventually defeated Tokhtamysh forces. These victories weakened the golden Horde and strengthened Timur's influence in the region.

Campaign in India in 1398, Timur invaded northern India. His army defeated the forces of the Delhi Sultanate and entered Delhi. The campaign demonstrated the military effectiveness of Timur's forces, but it was also accompanied by considerable destruction. This part of Timur's history shows why his legacy must be examined from different perspectives.

4. Organization of Timur's Army

The organization of the army was one of the main reasons for Timur's success. His forces were divided into different military units, each under the command of experienced leaders. Cavalry formed the main strength of the army. Soldiers were trained to move quickly and operate in different formations. Timur paid attention to logistics as well. A large army needed food, water, horses, weapons, and other supplies. Long military campaigns could not be successful without adequate preparation. The army also had to be able to operate in different geographical environments. Timur's forces fought in deserts, mountains, plains, river valleys, and around fortified cities. The

combination of discipline, mobility, organization, intelligence, and effective leadership made Timur's army a powerful military force.

5. Amir Temur as a Statesman.

Although Amir Timur is mainly remembered as a commander, he was also an important statesman.

After establishing Samarkand as the capital, he developed the city and supported the construction of monumental buildings. Architetects, craftsmen, artists and scholars from different parts of his empire contributed to the development of Samarkand. The city became an important center of politics, trade, architecture. Timur also understood the importance of trade routes. Central Asia had long been an important connection between East and West. The development of cities and trade contributed to the economic importance of his state. His political system combined different traditions, including Turkic and Mongol political customs and Islamic institutions. After Timur's death, his descendants continued to rule large parts of Central Asia and Iran. The Timurid dynasty became particularly famous for its cultural and scientific achievements.

6. Cultural and Scientific Legacy

The Timuried period was important not only for military and political history but also for culture and science. Samarkand became a major cultural center. Monumental buildings constructed during the Timurid period remain important examples of Central Asian architecture. Amir Teimur's grandson, Ulugbek, became one of the most famous scholars of the Timurid dynasty. He was an astronomer and mathematician and established an important observatory in Samarkand. The Timurid cultural tradition also influenced literature and art. Herat become another important center of culture during the later Timurid period. The development of science, architecture, literature, and art demonstrates that the legacy of the Timurids extended far beyond military conquest.

CONCLUSION

Amir Temur was one of the most influential commanders and statesman of the medieval period. Born in Central Asia in 1336, he rose to power during a period of political instability and eventually created a powerful empire.

His military success was based on strategic thinking, careful preparation, intelligence, discipline, mobility, and effective organization. He successfully conducted campaigns across Central Asia, Iran, Afganistan, India, the Caucasus, and Anatolia. His victory over the Ottoman Sultan Bayezid at the Battle of Ankara in 1402 was one of the greatest achievements of his military career. It demonstrated the strength and effectiveness of Timur's military

system. At the same time, the history of Amir Timur cannot be viewed only from a positive perpective. His campaigns caused destruction and suffering in many regions. Therefore, historians must consider both his achievements and the consequences of his military expansion. Amir Timur was also an important statesman. He developed Samarkand into a major political and cultural center and supported architecture, trade, and the development of urban life. His descendants continued this tradition, and the Timurid period became an important period in the history of Central Asian science and culture.

In conclusion, Amir Timur deserves to be remembered as a great commander because of his exceptional strategic abilities, military organization, leadership, and influence on the history of Eurasia. His personality and legacy remain an important subject of historical research and continue to play a significant role in the historical heritage of Uzbekistan.

REFERENCES

1. Jackson P. The Mongols and the West, 1221-1410. Harlow. Pearson Longman, 2005.

2. Starr, S.F.Lost Enlightenment: Central Asia’s Golden Age from the Arab Conquest to Tamerlane. Princeton. Princeton University Press, 2013.

3. Marozzi J. Tamerlane: Sword of Islam, Conqueror of the World. New York: Da Capo Press, 2004.

NOZIL XO‘JANDIY DEVONINING JANR XUSUSIYATLARI

Gulobov Abdulvosit Nurulla o‘g‘li
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
abdulvositgulobov67@gmail.com

Anotatsiya. *Ushbu maqolada Noziliy Xo‘jandiy devonining janr xususiyatlari, shoirning janr tanlashdagi o‘ziga xosligi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Devondagi janrlar tartibi, she’rlarining mavzu ko‘lami tahlil etildi.*

Annotation. *This article provides a scholarly analysis of the genre characteristics of Noziliy Khojandi’s “divan” (collected works), as well as the poet’s unique approach to genre selection. The arrangement of genres within the “divan” and the thematic scope of the poems are examined.*

Аннотация. *В данной статье представлен научный анализ жанровых особенностей «дивана» (сборника произведений) Нозили Ходжанди, а также рассматривается своеобразный подход поэта к выбору жанров. Исследуются принципы расположения жанров в «диване» и тематический охват стихотворений.*

Kalit so‘zlar: *Noziliy, Devon, janrlar, g‘azal, ruboiy, qasida, muxammas, tasvvufiy-falsafiy, axloqiy-didaktik.*

Keywords: *Noziliy,* Divan*, genres, ghazal, rubāʿī (quatrain), qasida (ode), mukhammas, Sufi-philosophical, ethical-didactic.*

Ключевые слова: *Нозилий, диван, жанры, газель, рубаи, касыда, мухаммас, суфийско-философские, нравственно-дидактические.*

Nozil Xo‘jandiy lirik merosi 12ta janr va shaklda: *g‘azal, muxammas, musaddas, ruboiy, shikoyatnoma, qasida, munojot, na’t, marsiya, risola, qit’a, musammat*da bitilgan. Bundan ko‘rishimiz mumkinki, shoir mumtoz she’riyatning turli janr va shakllarida ijod etib, devon tuzish an’anasini munosib davom ettirgan. Ushbu janrlar barcha devonlarida birdek qatnashmagan, ayrim devonda qo‘llangan janr boshqasida qo‘llanmagan. Uchala devonda birdek kiritilgan janrlar: g‘azal, muxammas, ruboiy, qasida hisoblanadi. Qolgan janrdagi asarlar ayrimida kiritilgan bo‘lsa, boshqasida mavjud emas. Shoir lirik merosida salmoq jihatidan asosiy janrlar: g‘azal, muxammas, ruboiy hisoblanadi. Ushbu janrlarning mavzusi turli xil bo‘lib, g‘azallarida haqiqiy va majoziy ishq, pand-nasihat, ilm-u adabga chorlov kabi mavzular yetakchilik

qilsa, shoirning muxammaslarida ishq-muhabbat bilan birgalikda, tasavvufiy-falsafiy, axloqiy-didaktik qarashlar tasvirlangan. Ruboiylarida esa XIX asr Qo‘qon adabiy muhitiga xos bo‘lgan tanqidiy satira yetakchi mavzu hisoblanganligini ko‘rishimiz mumkin.

Devon an’anaviy basmala bilan boshlanib, shoirning hamd g‘azali keltirilgan. Inventar: 505 raqamli nusxaning 2a betida 7 baytdan iborat tojik tilidagi “Ibtido” radifli g‘azal bilan boshlangan:

Misra-am bismillah az nomiy karim shud ibtido,
Hamd az on go‘yamki rahmon ur-rohim shud ibtido.

Ushbu tojikcha g‘azal tasavvufiy mavzuda, unda ilohiy ishq tarannum etilgan bo‘lib, an’anaviy hamd, ya’ni Allohni ulug‘lash bilan boshlanadi, keyingi misralarda Qur’on oyatlaridan namunalar keltiriladi. Bilamizki, tasavvufiy mavzuda yozilgan g‘azallarda ilohiy ishq, Haqqa intilish, hayotning o‘tkinchiligi, insonning yaratilishi kabi masalalar yoritiladi. Ushbu tahlilga tortilgan g‘azalimizda ham Allohning buyukligi, uning “rahmon ur-rohim” sifati tasvirlanadi. Keyingi baytlarda esa Odamning aziz qilinishi va shaytonning dargohdan haydalishi “Ronda dargoh shayton ur-rojim shud ibtido”-deya, tasvirlanadi. Shunga o‘xshash g‘azallarni Noziliy ijodida ko‘plab uchratishimiz mumkin. Misol uchun inventar:505 nusxaning 2b betida “Dar hamd va sitoyish Haq subhonu taolo taqadus” sarlavhasi bilan kiritilgan shoirning 9 baytdan iborat g‘azali, u quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Daftarim og‘oz ayla, anjomi sandin ibtido,
Ayladim go‘yo zabon zotinga yuz hamdu sano.

G‘azal o‘zbek tilida yozilgan bo‘lib, birinchi misrada shoir “daftarim og‘oz ayla” deb asarining boshlanishini ilohiy madadga bog‘laydi va oxiri ham “anjomi sandin ibtido”-deb, Haqdan ekanligini aytib, ikkinchi misrada “hamd-u sano” aytishini ta’kidlaydi.

Shoir muxammaslariga tahlil qiladigan bo‘lsak, 505 nusxada eng ko‘p, ya’ni umumiy 18ta kiritilgan bo‘lib, devondagi joylashuvi esa deyarli barcha nusxada g‘azallardan so‘ng keladi. Muxammaslarining asosiy qismi ta’bi xud - ya’ni o‘zi mustaqil yaratgan muxammaslardir. Inventar:505 nusxaning 6a betida, inventar 12080/2 nusxada esa 76a betda “Muxammas voqeamand” sarlavhasi bilan 5 bandan iborat shoir muxammasi keltiriladi, muxammas quyidagi band bilan boshlanadi:

Garchi bo‘ldi ishq dashtida balo, munis menga,
Ke jununum ki gahi zanjiri po munis menga,
Goh anduhi malolat ki jafo munis menga,
Shukrkim layli sifat sohib safo munis menga,

Ya’ni ruhi oyina nuri Xudo munis menga.

Ushbu muxammasda tasavvufiy qarashlarni ko‘rishimiz mumkin. Birinchi misrada “ishq dashtida balo” bo‘lsa ham oshiq uchun “balo”, “munis” (ulfat) ekanligini aytadi. Ikkinchi misrada oyoqdagi zanjirni “munis menga”-deydi. Uchinchi misrada anduh, malolat, jafo ham uning ulfati ekanligini ta’kidlaydi. To‘rtinchi misrada bu azoblarga chidashining sababchisi “layli sifat sohib safo”ning birgaligini aytadi. Beshinchi misrada ma’shuqasini “ruhi oyina nuri Xudo munis menga”-deydi. Keyingi bandlarda ham oshiq ma’shuqasi tarafidan keladigan har bir holatni “munis menga”-deb, ishq haqiqati, oshiqlik sifatini ifodalab berganligini ko‘rishimiz mumkin.

12080/2 nusxaning 84b betida 7 bandan iborat muxammas kiritilgan bo‘lib, sarlavhasida qora siyohda “muxammas” deb yozilgan. Muxammas quyidagi band bilan boshlanadi:

Gul yuzumni ohi g‘amdin za’faron qildi falak,
Dodi mehnat g‘ussadin ko‘nglumni qon qildi falak,
Ishratim jomi nigun baxtim yamon qildi falak,
Oshno begonalarg‘a doston qildi falak,
Oxiri umrimda rasvoyi jahon qildi falak.

Birinchi misrada falakning lirik qahramonga g‘am keltirganligi, hatto yuzini “za’faron“ qilganini aytadi. Ikkinchi misrada ham falakning shoirga “g‘ussa” keltirgani, ko‘nglini qon qilganligini aytadi. Uchinchi misrada baxtini “nigun” (egik) qilganini aytsa, to‘rtinchi misrada dardlarini do‘st-u begonalarga doston qilganini aytadi. Oltinchi misrada nihoyat hammasi qo‘shilib “rasvoyi jahon qildi falak”-deydi. Ushbu misralardan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, ushbu muxammasda zamonning norasoliklari, undagi insonlarning ikkiyuzlamachiligidan tortib, jami axloqsizliklarini muxammasda yoritib bergan deyishimiz mumkin. Noziliy muxammaslarini tahlil qilish natijasida shuni bilishimiz mumkinki, muxammaslarida nafaqat ishq-muhabbat yoki tasavvufiy qarashlarni ilgari surgan, balki zamon kishisi o‘laroq jamiyatdagi adolatsizlik, riyo, ikkiyuzlamachilik kabi illatlarni qoralab, jamiyat islohini xohlaganligini ko‘rishimiz mumkin.

Nozil Xo‘jandiy, shubhasiz, ajoyib ruboiynavis shoir edi, bu haqida bir qator olimlar o‘z fikrlarini bildirib o‘tishgan, xususan, Ergashali Shodiyev “Irsol-ul masal ruboiylar” maqolasida quyidagicha fikr bildirib o‘tgan: “sharqning ko‘plab ulkan adiblari o‘z asarlarida xalq maqollari, ta’birlari va hikmatli so‘zlaridan turli g‘oyaviy-badiiy maqsadda foydalanib kelganlar. XVIII asrning oxiri va XIX asr o‘rtalarida yashab ijod etgan ta’lantli zullisonayn shoir Nozil Xo‘jandiy she’rlarida bu san’atning turli shakllarda

qo‘llanishi ko‘zga tashlanadi. Ayniqsa bu holat uning ruboiylariga xosdir. Ruboiydagi g‘oyani to‘laroq ochish niyatida unda mashhur xalq maqollaridan biri ishlatiladi. Bu xildagi ruboiylarga - masal, ruboiy, deb nom beriladi[61]. Masal ruboiylar o‘sha davr adabiy muhiti uchun yangilik edi, bu hol Noziliyning davr adabiy muhitida ijobiy ta’sirini anglatadi.

Noziliy ruboiylari uchala devoning ham oxirida kiritilgan bo‘lib, ruboiylarining ko‘p qismi ijtimoiy masalalarga qaratilgan ijtimoiy-satirik ruboiylar bo‘lsada, axloqiy-tarbiyaviy, ishqiy, tasavvufiy mavzudagi ruboiylari ham mavjud.

12080/2 nusxaning 114a betida boylikka ruju’ qo‘ygan insonning holati tasvirlangan ruboiy keltiriladi:

Mumsik ko‘zi dunyo bila hargiz to‘lmas,
Suvni ichida bo‘lsa qizil gul so‘lmas,
Odam bo‘lubon jomag‘a kirgan chog‘,
It itligini qilmasa odam o‘lmas.

Ushbu ruboiyda “Mumsik” (xasis) insonning qalbi hech qachon boylik bilan to‘lmasligi, go‘yoki, qizil gul suv bilan tirik bo‘lsa, “mumsik” ham boylik bilan tirikligi, “mumsik” hatto odamga o‘xshab “joma” (kiyim) kiysada, uning tashqi ko‘rinishi inson, ichki dunyosi esa “It itligini qilmasa odam o‘lmas” tarzida tasvirlangan. Ruboiyda xasislik, ochko‘zlik, qanoatsizlik kabi illatlar qoralanganligini ko‘rishimiz mumkin.

Inventar: 505 nusxaning 215b betida tasavvufiy mazmunda yozilgan shoir ruboiysini ko‘rishimiz mumkin:

Har avvali so‘zumga iborat sen-sen,
Har lafzima ma’ni va nihoyat sen-sen,
Sendin yana kimdurur ikki olamda,
Maqsudi hamma ahli ishorat sen-sen.

Ushbu ruboiyda shoir ilohiy ishqni tarannum etgan bo‘lib, har so‘zning, ishning boshi “sen-sen”-deydi, ikkinchi misrada shoir so‘zdagi “ma’ni” (mazmun, natija) va “nihoyat” (so‘ngi so‘z) ham Alloh ekanligini aytsa, uchinchi misrada “ikki olamda” Allohdan boshqa maqsad yo ‘qligini ta’kidlaydi, so‘ngi misrada esa, hatto “ahli ishorat”ning maqsadi ham shu - ilohiy ishq ekanligini bildirib o‘tadi.

Ushbu namunalardan ham bilishimiz mumkinki, Noziliy davr adabiy muhitini, o‘zidan oldingi ustozlari ijodini mazmunan davom ettirib, har bir janrda yuqori saviyali she’rlar bitgan.

[61] Шодиев Э. Ирсол ул-масал рубоийлар // «Ўзбек тили ва адабиёти» журнали, 1972 йил, 5-сон.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Е.Шодиев. Алишер Навоий ва форс-тожик адиблари. Т:“Ўқитувчи” 1989. 107-бет.

2. Е. Шодиев Ирсол ул-масал рубоийлар // «Ўзбек тили ва адабиёти» журнали, 1972 йил, 5-сон.

3. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti Hamid Sulaymonov fondi. inv: 505. 2b, 218b bet.

4. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti Asosiy fondi. inv: 12080/2. 76a, 84b, 114a bet.

ROSSIYA IMPERIYASINING TURKISTONNI BOSIB OLISHI VA MUSTAMLAKA BOSHQARUV TIZIMINING SHAKLLANISHI

Baxronov Doniyor Davronovich
Fan va texnologiyalar universiteti
"Ijtimoiy fanlar" kafedrasi tarix fanlari nomzodi
E-mail: b91612583@gmail.com
Yorbulova Dilso'z Shokir qizi
Fan va texnologiyalar universiteti 4-bosqich talabasi
E-mail: yorbulova11@icloud.com

Annotatsiya. *Maqolada XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasining Turkistonni bosib olishi va mustamlaka boshqaruv tizimining shakllanishi tahlil qilinadi. 1853–1876-yillardagi asosiy harbiy yurishlar, 1867-yilda Turkiston general-gubernatorligining tuzilishi hamda 1886-yilgi boshqaruv Nizomi yoritiladi. Harbiy-ma'muriy hokimiyat, mahalliy boshqaruv va sudlarning imperiya nazoratiga bo'ysundirilishi hamda siyosiy boshqaruvning iqtisodiy manfaatlar bilan bog'liqligi ko'rsatib beriladi.*

Kalit so'zlar: *Rossiya imperiyasi, Turkiston, mustamlakachilik, Turkiston general-gubernatorligi, K.P. Kaufman, Toshkent, Buxoro amirligi, Xiva xonligi, Qo'qon xonligi, 1886-yil Nizomi, harbiy-ma'muriy boshqaruv.*

Аннотация. *В статье анализируются завоевание Российской империей Туркестана во второй половине XIX века и формирование колониальной системы управления. Рассмотрены основные военные кампании 1853–1876 годов, создание Туркестанского генерал-губернаторства в 1867 году и Положение 1886 года. Показаны военно-административный характер власти, подчинение местного управления и суда имперской администрации, а также связь политического контроля с экономическими интересами России.*

Ключевые слова: *Российская империя, Туркестан, колониализм, Туркестанское генерал-губернаторство, К.П. Кауфман, Ташкент, Бухарский эмират, Хивинское ханство, Кокандское ханство, Положение 1886 года, военно-административное управление.*

Abstract. *This article analyzes the Russian Empire's conquest of Turkestan and the formation of colonial administration in the second half of the nineteenth century. It examines the main military campaigns of 1853–1876,*

the establishment of the Turkestan Governor-Generalship in 1867, and the Regulations of 1886. Attention is given to military-administrative rule, the subordination of local government and courts, and the connection between political control and imperial economic interests.

Keywords: *Russian Empire, Turkestan, colonialism, Turkestan Governor-Generalship, K.P. Kaufman, Tashkent, Bukhara Emirate, Khiva Khanate, Kokand Khanate, Regulations of 1886, military administration.*

KIRISH

XIX asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyodagi siyosiy vaziyat Rossiya imperiyasining janubga ekspansiyasi natijasida tubdan o‘zgardi. Mintaqa harbiy-strategik xavfsizlik, savdo bozori, sanoat uchun xomashyo va Buyuk Britaniya bilan geosiyosiy raqobat jihatidan muhim edi. Turkistonning bosib olinishi harbiy qal’alar, aloqa yo‘llarini nazorat qilish, mahalliy davlatlarni siyosiy jihatdan cheklash va egallangan hududlarda maxsus boshqaruv institutlarini yaratish orqali bosqichma-bosqich amalga oshirildi. O‘zbek va rus tarixshunosligi bu jarayonning mustamlakachilik, harbiy va ma’muriy jihatlarini turli manbalar asosida yoritadi.

Rossiya istilosining asosiy bosqichlari

Rossiyaning Sirdaryo bo‘ylab siljishida 1853-yilda Oqmachitning egallanishi muhim burilish bo‘ldi. 1864-yilda Avliyoota, Turkiston va Chimkent egallanib, Qo‘qon xonligining tayanchlari zaiflashtirildi. 1865-yilda M.G. Chernyayev qo‘shinlari Toshkentni egalladi. Shahar keyinchalik imperiyaning Turkistondagi asosiy harbiy-ma’muriy markaziga aylandi. Shu yili Turkiston viloyati tashkil etilib, bosib olingan hududlarni boshqarishning dastlabki muvaqqat tartiblari joriy qilindi.

1867-yilda Turkiston general-gubernatorligi tuzilib, Toshkent uning markazi bo‘ldi; K.P. Kaufman birinchi general-gubernator etib tayinlandi. 1868-yildagi harbiy harakatlardan keyin Samarqand va Zarafshon vodiysining muhim qismi Rossiya nazoratiga o‘tdi, Buxoro amirligining siyosiy mustaqilligi cheklandi. 1873-yilgi Xiva yurishi xonlikni Rossiya protektoratiga aylantirdi. 1876-yilda Qo‘qon xonligi tugatilib, uning o‘rnida Farg‘ona viloyati tashkil qilindi. Natijada mintaqaning asosiy qismi bevosita yoki protektorat shaklida imperiya ta’siriga tushdi.

Turkiston general-gubernatorligi va mustamlaka boshqaruvi

Turkiston general-gubernatorligida harbiy va fuqaroviy hokimiyat birlashtirildi. General-gubernator ayni paytda Turkiston harbiy okrugi qo‘mondoni bo‘lib, keng vakolatlarga ega edi. Dastlab o‘lka Sirdaryo va Yettisuv viloyatlaridan tuzilgan, keyinchalik Samarqand va Farg‘ona

viloyatlari qo‘shildi. Viloyatlarni harbiy gubernatorlar, uyezdlarni esa harbiy mansabdorlar boshqardi. Boshqaruv general-gubernatorlik – viloyat – uyezd – volost – qishloq yoki ovul pog‘onalariga ajratildi.

1867-yilgi muvaqqat qoidalar mahalliy boshqaruvning ayrim shakllarini saqlagan holda ularni imperiya nazoratiga bo‘ysundirdi. O‘troq aholida oqsoqollar, ko‘chmanchi hududlarda volost boshqaruvchilari va ovul boshliqlari faoliyat yuritdi. Qozilar va biylar sudlari ayrim ishlarni ko‘rishda davom etdi, ammo vakolatlari cheklanib, rus ma’muriy-sud organlarining nazorati kuchaydi. Mahalliy institutlar shu tariqa mustamlaka boshqaruvining quyi bo‘g‘inlariga aylantirildi.

1886-yil 12-iyundagi “Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risidagi Nizom” tizimni huquqiy jihatdan mustahkamladi. U ma’muriy tuzilish, general-gubernator va viloyat boshqaruvlari, uyezd-mahalliy ma’muriyat, sud hamda yer-soliq munosabatlarini tartibga soldi. Sirdaryo, Farg‘ona va Samarqand viloyatlari o‘lkaning asosiy qismlari sifatida belgilandi. Mahalliy tartiblar qisman saqlangan bo‘lsa-da, hal qiluvchi siyosiy vakolat rus ma’muriyati qo‘lida qoldi.

Mustamlaka boshqaruvining iqtisodiy va ijtimoiy mohiyati

Mustamlaka boshqaruvi iqtisodiy maqsadlar bilan uzviy bog‘liq edi. Rossiya sanoati uchun paxta va boshqa xomashyo yetkazish, imperiya tovarlari bozorini kengaytirish hamda savdo yo‘llarini nazorat qilish muhim vazifaga aylandi. Temir yo‘l, pochta va telegraf o‘lka iqtisodiyotini imperiya tizimiga bog‘ladi, ayni paytda qo‘shinlar harakati va ma’muriy nazoratni yengillashtirdi. Ko‘chirish siyosati va yer munosabatlariga davlat aralashuvi mahalliy xo‘jalik tuzilishiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

Mahalliy aholining siyosiy vakilligi cheklangan, yuqori ma’muriy mansablar asosan imperiya amaldorlari qo‘lida bo‘lgan. Soliq, jamoat tartibi, sud va yer masalalarida nazoratning kuchayishi an’anaviy munosabatlarni o‘zgartirdi. Mustamlaka siyosatidagi ziddiyatlar 1892-yil Toshkent voqealari, 1898-yil Andijon qo‘zg‘oloni va 1916-yilgi ommaviy noroziliklar uchun uzoq muddatli ijtimoiy-siyosiy zamin yaratdi.

XULOSA

Rossiya imperiyasining Turkistonni bosib olishi Markaziy Osiyo tarixida tub siyosiy burilish yasadi. 1853–1876-yillardagi yurishlar natijasida mintaqaning katta qismi imperiyaga qo‘shildi, Buxoro va Xiva esa qaram protektoratlarga aylandi. 1867-yildagi Turkiston general-gubernatorligi istilodan mustamlaka boshqaruviga o‘tishning asosiy institutsional bosqichi, 1886-yilgi Nizom esa uning huquqiy tayanchi bo‘ldi. Harbiy va fuqaroviy

hokimiyatning birlashtirilishi, mahalliy boshqaruv va sudlarning imperiya nazoratiga olinishi tizimning mustamlakachilik mohiyatini belgiladi. Jarayonni o‘zbek hamda rus tarixshunosligi va hujjatlarini qiyosiy o‘rganish uning murakkab oqibatlarini xolis anglash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash (XVIII–XX asr boshlari). – Toshkent: Sharq, 1998. – 480 b. Foydalanilgan betlar: 79–139, 188–251.

2. Abduraximova N., Ergashev F. Turkistonda chor mustamlaka tizimi. – Toshkent: Akademiya, 2002. – 240 b. Foydalanilgan betlar: 30–47, 207–210.

3. Ahmadjonov G‘.A. Rossiya imperiyasi Markaziy Osiyoda. – Toshkent: Ta’lim manbai, 2013. – 270 b. Foydalanilgan betlar: 24–32.

4. O‘zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob: Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida / H. Sodiqov, R. Shamsutdinov, P. Ravshanov, Q. Usmonov va boshq. – Toshkent: Sharq, 2000. – 463 b. Foydalanilgan betlar: 62–138, 185–207.

5. Terentyev M.A. Istoriya zavoevaniya Sredney Azii: v 3 t. T. 1. – Sankt-Peterburg: Tipo-litografiya V.V. Komarova, 1906. – XIX, 510 s. Foydalanilgan betlar: 296–330, 400–457.

6. Xalfin N.A. Prisoedinenie Sredney Azii k Rossii (60–90-e gody XIX v.). – Moskva: Nauka, 1965. – 468 s. Foydalanilgan betlar: 221–231, 292–325, 419–430.

7. Glushchenko E.A. Rossiya v Sredney Azii: zavoevaniya i preobrazovaniya. – Moskva: Tsentrpoligraf, 2010. – 575 s. Foydalanilgan betlar: 118–176, 352–361.

8. Bartold V.V. Istoriya Turkestana. – Tashkent: Turkestanskoe gosudarstvennoe izdatelstvo, 1922. – 58 s. Foydalanilgan betlar: 42–58.

9. Polozhenie ob upravlenii Turkestanskogo kraya. – Sankt-Peterburg, 1886. – 210 s. Foydalanilgan betlar: 1–38, 67–104.

Organized by
ACADEMIC RESEARCH PUBLISHER LTD
United Kingdom

In cooperation with
OSH STATE UNIVERSITY

CONFERENCE PROCEEDINGS

GLOBAL CHALLENGES, INNOVATION AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT: *INTERDISCIPLINARY PERSPECTIVES*

GLOBAL INTERNATIONAL CONFERENCE



1 November 2026
www.academscience.com

Google Scholar | zenodo | OpenAIRE